

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

---



R.G.ABDULLAYEV

**IQTISODIY TASHKIMOTLAR**  
**TARIXI** (2-modul)

Özb.2  
33  
A-15  
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON  
MILLIY UNIVERSITETI**

**Abdullayeva R.G.**

# **IQTISODIY TA‘LIMOTLAR TARIXI**

**2-modul**

**O‘QUV QO‘LLANMA**

*6031010 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)*

**Toshkent  
“Fidpkor Yosh Avlod”  
2023**

**UO'K:330(09)(075.8**

**KBK:65.011.3**

**A 15**

**Iqtisodiy ta'limotlar tarixi (2-modul): o'quv qo'llanma /  
R.G. Abdullayeva .-Surxondaryo: Fidokor Yosh Avlod, 2023.-288b.**

O'quv qo'llanmada qadimdan to hozirgi davrgacha paydo bo'lgan iqtisodiy fikr, g'oya, qarash va ta'limotlarning mazmuni, mohiyati, ularning evolyusiyasi va bugungi kundagi ahamiyati tarixiy ketma-ketlik asosida yoritilgan. Shuningdek, avvalgi ortodoksal g'oyalar zamonaviy iqtisodiy nazariyaning mazmuni va predmetiga qo'shgan hissalarini va shu bilan birga ortodoksal bo'lmagan boshqa g'oyalarning zamonaviy iqtisodiy ta'limotlarning shakllanishidagi ahamiyatini ko'rsatgan holda iqtisodiy nazariyaning asrlar davomida shakllanishi tasvirlab berilgan. Kitobda iqtisodiy nazariyadagi asosiy uslubiy masalalar, iqtisodiy nazariyaning fan sifatida rivojlanishi va o'sha davrning iqtisodiy holati o'rtasidagi bog'liqlik, hamda yaratilgan nazariyaning mazmunini to'laroq tushuntirib beruvchi uning ichki bog'liqliklari va ishlash mexanizmlari ko'rib chiqilgan va tahlil qilingan. Bundan tashqari, kitobda alohida olingan g'oya va fikrlarning iqtisodiy nazariyaning rivojlanishidagi ahamiyati va o'z o'rnida nazariyaning ijtimoiy-iqtisodiy siyosat shakllanishidagi ahamiyati tushuntirilgan.

Har bir bobga qisqa xulosalar, asosiy tushuncha va iboralar, nazorat uchun savollar berilgan.

Oliy o'quv yurti talaballari (6031010 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)) ga mo'ljallangan.

**UO'K:330(09)(075.8**

**KBK:65.011.3**

**A 15**

#### **Taqrizchilar:**

**N.G.Muminov - iqtisod fanlari nomzodi, professor**

**M.K. Abdullayeva – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent**

**ISBN: 978-9943-9119-2-5**

**©"Fidokor Yosh Avlod" nashriyoti, Toshkent 2023 y**

## **KIRISH**

Har bir madaniyatli iqtisodchi, har bir madaniyatli kishi o'z vatani tarixini bilgani kabi, iqtisodiy ta'limotlar tarixini ham bilishi kerak. Ammo iqtisodiyot sohasidagi umumiy bilimlardan tashqari, tarixni bilish zamonaviy iqtisodiyotda to'g'ri qarorlarni qabul qilishga yordam beradi. O'tmishni bilish hozirgi kunni yaxshiroq tushunish va kelajakni ma'lum darajada ko'rish uchun zarurdir. Haqiqat shundaki, tarix takrorlanadi va bugungi kunda vujudga kelgan muammoni o'tmishdagi shunga o'xshash vaziyatni topib uning sabablari va oqibatlarini o'rganish orqali bartaraf etish mumkin. Xuddi shu narsa iqtisodiy ta'limotlar tarixiga ham tegishli, chunki nafaqat iqtisodiy vaziyatlar, balki bugungi kunda ishlatilishi mumkin bo'lgan iqtisodiy g'oyalalar ham takrorlanadi.

Iqtisodiy fanning rivojlanish qonuniyatlarini, ba'zi iqtisodiy nazariyalarni boshqalari bilan almashinish sabablarini tushunishga bo'lgan intilish iqtisodiy ta'limotlar tarixini o'rganishni taqozo etadi. Zero, iqtisodiy ta'limotlar tarixi yozuv ixtiro etilgan quldorlik davridan boshlab ijtimoiy taraqqiyotning barcha tarixiy davrlaridagi olimlarning asosiy iqtisodiy qarashlari, g'oyalari va ta'limotlarining vujudga kelishi va rivojlanish jarayonlarini qamrab oladi. Ammo har bir nazariyani "vaqt va makonda" o'rganish kerak. Har qanday iqtisodiy nazariya ma'lum bir mamlakatda vujudga keladi, u yerda o'sha paytda ma'lum bir iqtisodiy va siyosiy tizim mavjud bo'lib, unda madaniyat va fanning ma'lum darajada rivojlanish darajasiga erishilgan bo'ladi. Bularning barchasi nazariya muallifiga ta'sir ko'rsatadi.

"Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" iqtisodchilarni tayyorlashda zarur fanlardan biri hisoblanadi. Uning maqsadi - tarixiy jihatdan mavjud umumiy nazariy iqtisodiy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishdan iboratdir. "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fani talabaga jahon iqtisodiy tafakkur tarixining asosiy bosqichlari, asosiy oqimlari, iqtisodiy nazariyaning rivojlanish tendensiyalari haqida aniq tushuncha berishga imkon beradi.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixini o'qitish iqtisodiy jarayonlar va munosabatlarning mohiyati va mexanizmini to'g'ri anglaydigan, iqtisodiy fanning rivojlanishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lgan va shu asosda tavakkal qilmasdan bugungi kunni to'g'ri baholay oladigan va kelajakni bashorat qiladigan, ma'lum bir nazariya asiri bo'lmasdan, aniq iqtisodiy

vaziyatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ijodiy o'rgana oladigan, insoniyat tomonidan to'plangan iqtisodiy bilimlar va barcha boyliklardan amalda foydalana oladigan iqtisodchini tayyorlashga mo'ljallangan.

*Ushbu o'quv qo'llanmani tayyorlashda respublikamizning atoqli olimlari A.Razzoqov, Sh.Toshmatov, N.O'rmonovlar tomonlaridan "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fanidan tayyorlangan darslikdan keng foydalanildi. Ustozlarimizga o'zinning chuqur minnatdorchiligimni bildiraman.*

## **I.BOB. "IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI" FANIGA KIRISH. FANNING PREDMETI VA O'RGANISH USULLARI.**

### **1.1. "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fanining predmeti va iqtisodiy fanlar tizimidagi o'rni.**

Kishilik jamiyati shakllangan davrdan bugungi kungacha odamlar farovon hayotning moddiy asosi bo'lmish xalqlar boyligini ko'paytirish muammosini o'rganib kelmoqdalar.

Qadimdan kishilar xo'jalik hayotida yuz berayotgan muammolarni yechishga harakat qilib o'z ta'limotlarini yaratganlar. Bu ta'limotlar nafaqat yaratilgan davri uchun, balki bugungi davr uchun ham qisman daxldordir. Zotan, o'tmishni o'rganish bugungi kun, kelajak uchun katta ahamiyatga ega, chunki "tarixiy xotirasiz kelajak yo'q".

"Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" iqtisodiy fanlarning ajralmas qismi bo'lib, ularning faktologik hamda metodologik asoslarini ta'minlab beradi. Chunki iqtisodiy bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi tahlili butun ijtimoiy taraqqiyot jarayoni, barcha tarixiy davrlarni o'z ichiga qamrab oladi.

"Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fanining predmeti - bu ma'lum davrlardagi u yoki bu sinflar, ijtimoiy qatlamlar, insonlar manfaatlarini ifoda etuvchi iqtisodiy g'oyalar, ilmiy konsepsiyalarning vujudga kelishi, rivojlanishi va almashinuvining tarixiy jarayoni hisoblanadi.

"Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" mustaqil fan sifatida eng qadimgi davrdan boshlab, to hozirgi zamongacha vujudga kelgan asosiy iqtisodiy fikr, g'oya, qarash, nazariya va ta'limotlarni o'z ichiga oladi.

Bu fan boshqa iqtisodiy va tarixiy, ayniqsa iqtisodiyot nazariyasi fani bilan bevosita bog'liq. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi ancha keng davrni qamrab olgan va mustaqil xarakterga ega. Bu fanni o'rganish orqali iqtisodiyot nazariyasi, xalq xo'jaligi tarixi, iqtisodiy tarix va iqtisodiy konsepsiyalarni hamda aniq iqtisodiy fanlarni o'zlashtirish osonlashadi, u yoki bu iqtisodiy o'zgarishlarni shart-sharoitlari va oqibatlarini tahlil etishga katta ko'mak beradi.

### **1.2. "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fanini o'rganishning zaruriyati, ahamiyati va vazifalari.**

Iqtisodiy ta'limotlar bilan jamiyat iqtisodiyoti o'rtasida bevosita aloqa mavjud bo'lib, ular iqtisodiyotda yuz beradigan jarayonlarni aks ettiradi, ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtirish yoki sekinlashtirish yo'li bilan ularga ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan konsepsiyalar, masalan neoklassik yoki Keyns konsepsiyasi davlat iqtisodiy dasturlari uchun asos bo'lgan.

Shaxsiy va ijtimoiy farovonlik masalasi tarixiy, iqtisodiy, falsafiy,

ijtimoiy, statistik va boshqa tadqiqotlarda asosiy o'rin egallagani uchun ular fundamental, kompleks ijtimoiy-iqtisodiy va falsafiy masala hisoblanadi. Farovonlik masalalari bo'yicha A.Smit, L.Valras, K.Menger, V.Pareto, J.Gobson, P.Samuelson, J.Gelbreyt, U.Rostou, E.Xansen, G.Myurdal, G.Jentis, J.Sismondi, N.G.Chernishevskiy va boshqalarning konsepsiyalari mavjud. Ko'pchilik iqtisodchilar iqtisodiy faoliyat va davlat faoliyati uchun shaxs va jamiyat farovonligi asosiy maqsaddir, deb hisoblaydilar. Ular farovonlik va uning jamiyatdagi yutuqlarga erishish yo'llarini "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fanini o'rganish zaruriyati bilan bog'laydilar.

"Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fanining o'ziga xos o'rganish xususiyatlari mavjudligidan uning o'z oldiga qo'yadigan ilmiy muammolari ham o'ziga xosdir. U tarixiy iqtisodiy fan bo'lib, ularning dialektikasini tavsiflaydi.

"Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fani quyidagi masalalarga e'tiborni qaratadi:

1. "Iqtisodiyot nazariyasi" dan olingan tafakkurni mustahkamlab, ularni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiy taraqqiyot o'rta qo'yadigan muammolarga echim topishni osonlashtirish;
2. "Iqtisodiyot nazariyasi" fanidagi kategoriyalar va qonunlarning mazmun-mohiyatini tushunish va amal qilish mexanizmini o'rganib olish;
3. Iqtisodiy qarashlardagi turli mushohadalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali ilmiy haqiqatga intilish;
4. Turli davrlarda yaratilgan, biroq bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotgan nazariyalarni tanqidiy baholab, ularning tub mohiyatini ochib berish;
5. Turli davrdagi iqtisodiy ta'limotlarni o'rganib, bugungi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar echimiga yaroqli ilmiy g'oyalarni ilgari surish.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, ushbu fanning vazifalarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

1. Iqtisodiyot tarixida amal qilgan, qo'llanilgan qonunlarning kelib chiqishini tushuntirib berish, ularning genezisini o'rganish;
2. Qadimgi Rim, Sharq va G'arb iqtisodiy g'oyalarni tushuntirib, ularni taqqoslab, o'ziga xos jihatlarni ochib berish;
3. Iqtisodiy kategoriyalarning vujudga kelishini, mazmunan boyib borishi, u yoki bu iqtisodiy davrlardagi qo'llanishi xususiyatlarini, ijtimoiy shakllarini asoslash;
4. "Iqtisodiyot nazariyasi" va boshqa iqtisodiy fanlarni chuqurroq o'rganishga yordam berish.
5. U yoki bu davr ta'limotlarining milliy g'oyamiz va mafkuramizga qay darajada muvofiq kelishini aniqlash va baho berish.

### 1.3. “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fanini o’rganish usullari.

“Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fani predmeti ustida mulohaza yuritar ekanmiz, u naqadar uzoq tarixga, qanchadan-qancha ilmiy qarashlar, g’oyalalar, ta’limotlar va konsepsiyalarning paydo bo’lishi, ma’lum tarixiy davrda qo’llanilganligi, yangi qarashlarga duch kelgani o’zining yashovchanligini isbotlashga harakat qilganligiga guvoh bo’lamiz. Darhaqiqat, “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fani juda ham murakkab munosabatlarni turli tarixiy davrlarda tadqiq etgan, ularning eng muhimlarini, o’z davri uchun yaroqlilarini ajratib olgan, himoya qilib kelgan. Shunday ekan uning predmetini chuqur o’rganish, tabiiyki, umummilliy, o’ziga xos tadqiqot va tahlil uslublarini qo’llashni taqozo etadi.

Shuni aytish kerakki, “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” eng avvalo, “Iqtisodiyot nazariyasi” bilan chambarchas bog’liq fandir. Zero, uning predmeti iqtisodiyot nazariyasida qo’llanilgan iqtisodiy qonunlar va iqtisodiy kategoriyalarning mohiyatini, ularni kim va qachon ochib bergani, qanday tarixiy sharoitda vujudga kelganligini, qanday munozaralar, ilmiy bahslar orqali fanga kirib kelganligini tavsiflaydi. Bundan xulosa shuki, “Iqtisodiyot nazariyasi”ni o’rganishga jalb etilgan usullar “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fani uchun ham mosdir.

“Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fanini o’rganishda keng qo’llaniladigan usullardan biri – mantiqiylik va tarixiylik birligi usulidir. Iqtisodiy ta’limotlar, konsepsiyalar, g’oyalalar ma’lum tarixiy sharoitlarda yuzaga keladi. Biroq ularning o’sha tarixiy davr ruhini ilmiy aks ettirishi mantiqiy yondashuvni taqozo etadi.

Shuningdek, “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi”ni o’rganishda “materialistik empirizm” usulidan keng foydalaniladi. Empirizm – fikrlar, tajriba, iqtisodiy tahlilning boshlang’ich, iqtisodiy taraqqiyot qonunlarining amal qilish bazasidir. Ko’pgina iqtisodiy g’oyalarni o’rganishda o’sha tarixiy davr faktlarini to’plash, ularni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni chog’da, arxeologik qazilmalar natijasida olingan ma’lumotlar ham u yoki bu iqtisodiy g’oyalarni, qarashlarni bilib olishga xizmat qiladi. Demak, olingan aniq axborot materiallari u yoki bu iqtisodiy ta’limotning tarixiy jihatlarini bilib olishga yordam beradi.

“Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fanini o’rganishda eksperiment-tajriba usuli ham qo’l keladi. Zero u yoki bu iqtisodiy ta’limotning qanchalik hayotiy, amaliyot uchun, samarali xo’jalik faoliyatini tashkil etish uchun yaroqliligini bilib olishda eksperiment usuliga asoslanish mumkin.

Yuqoridagilardan tashqari “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” ni o’rganishda



ilmiy abstraksiya usulining ahamiyati ham kattadir. Iqtisodiy munosabatlar, g'oyalar, qarashlar, qorun va kategoriyalar shu qadar ko'p, rang-barang, mazmun va shakl jihatidan turlichaki, ularni birdaniga, bir vaqtda bilib olish mumkin emas. Bunday sharoitda ana shu murakkab ichki sabab-oqibatli, bog'lanib ketgan iqtisodiy g'oyalar ichidan biz uchun hozirgi damdagi ilmiy ehtiyojimizni qondirish uchun eng muhimi va keraklisini ajratib olish ilmiy bilishning dolzarb masalasiga aylanadi. Ilmiy abstraksiya usuli aynan o'rganilayotgan voqeelikdan tashqi ta'sirni hisobga olmay, predmetning asosiy mohiyatini ifodalaydigan tomonni ajratib olishga xizmat qiladi. Fanni o'rganuvchi shaxs asosiy yetakchi g'oyani – ta'limotni ajratib olib, uning yordamida boshqa ikkinchi, uchinchi va hokazo qarashlar mohiyatini bilib oladi. Pirovard oqibatda barcha iqtisodiy ta'limotlar, g'oyalar, qarashlar bir butun majmua, tizim tarzida anglab olinadi, tafakkurga joylashtiriladi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy bilish usullari yordamida "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fanining predmeti aniqlashtiriladi, uning tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqiladi.

«Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanini o'rganish manbalari turli tuman bo'lib, qadimgi arxeologik topilmalar, moddiy ne'matlar, qoya va bino devorlaridagi rasmlar, hizmalar va xalq og'zaki ijodi namunalari muhim ahamiyatga ega. Ammo bu fanning eng muhim manbalari bo'lib, qo'lyozmalar, davlat arboblari, olim, donishmand, mutafakkirlarning yozib qoldirgan kitoblari hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Jahon iqtisodiy tafakkurida qadimgi qo'lyozmalar o'ta ahamiyatlidir.

### **Qisqa xulosalar**

Qadimdan kishilar xo'jalik hayotida yuz berayotgan muammolarni yyechishga harakat qilib o'z ta'limotlarini yaratganlar. Bu ta'limotlar nafaqat yaratilgan davri uchun, balki bugungi davr uchun ham qisman daxldordir. "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" iqtisodiy fanlarning ajralmas qismi bo'lib, ularning faktologik hamda metodologik asoslarini ta'minlab beradi. Chunki iqtisodiy bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi tahlili butun ijtimoiy taraqqiyot jarayoni, barcha tarixiy davrlarni o'z ichiga qamrab oladi.

"Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" mustaqil fan sifatida eng qadimgi davrdan boshlab, to hozirgi zamongacha vujudga kelgan asosiy iqtisodiy fikr, g'oya, qarash, nazariya va ta'limotlarni o'z ichiga oladi.

"Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fanini o'rganishda keng qo'llaniladigan usullardan biri – mantiqiylik va tarixiylik birligi usulidir. Iqtisodiy ta'limotlar, konsepsiyalar, g'oyalar ma'lum tarixiy sharoitlarda yuzaga keladi. Biroq ularning o'sha tarixiy davr ruhini ilmiy aks ettirishi mantiqiy

yondashuvni taqozo etadi.

Shuningdek, “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi”ni o‘rganishda “materialistik empirizm” usulidan keng foydalaniladi. Empirizm – fikrlar, tajriba, iqtisodiy tahlilning boshlang‘ich, iqtisodiy taraqqiyot qonunlarining amal qilish bazasidir. U yoki bu iqtisodiy ta’limotning qanchalik hayotiy, amaliyot uchun, samarali xo‘jalik faoliyatini tashkil etish uchun yaroqliligini bilib olishda eksperiment-usuliga asoslanish mumkin. Ilmiy abstraksiya usulining ahamiyati ham kattadir.

#### **Asosiy tushuncha va iboralar**

Iqtisodiy g‘oya, ilmiy konsepsiya, ta’limot, tarixiylik va mantiqiylik, eksperiment-tajriba, “materialistik empirizm”, ilmiy abstraksiya.

#### **Nazorat uchun savollar**

1. “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi”ning predmeti nimadan iborat va uning iqtisodiy fanlar tizimidagi o‘rni qanday?
2. “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fanini o‘rganishning zaruriyati nimada?
3. “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fanining ahamiyati va vazifalari.
4. “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fanini qanday usullar yordamida o‘rganiladi?

## II. BOB. QADIMGI DUNYO IQTISODIY G'UYALARI

### 2.1. Qadimgi Sharqdagi iqtisodiy fikrlar

Iqtisodiy fikr inson va jamiyatning iqtisodiy faoliyati bilan bir vaqtda paydo bo'lgan va rivojlangan. U birinchi bo'lib qadimgi sivilizatsiyalarda odamlarning iqtisodiy faoliyati to'g'risidagi muayyan qarashlar tizimi ko'rinishida vujudga kelgan.

Eramizdan avval dunyo sivilizatsiyasining ikkita markazi vujudga keldi:

**I. Sharq sivilizatsiyasi** (Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy) miloddan avvalgi II-I ming yillikda shakllangan. Uning asosiy xususiyatlari:

1. Jamiyat hayotida qishloq xo'jaligining o'rni yuqoriligi;
2. Boshqaruvning markazlashgan tabiati, davlat barcha iqtisodiy resurslarning, asosan yerlarning egasi;
3. Iqtisodiy faoliyatda irrigasiya tizimlari (sug'orish tizimlari, kanallar, suvni saqlash zahiraxonalari) ning ahamiyati yuqoriligi;
4. Qullar mehnati bilan ulug'vor dunyoviy va diniy binolarning qurilishi;
5. Qarzdor qullikning rivojlanishi, ko'p miqdordagi soliqlar va to'lovlarning mavjudligi.

**II. Antik sivilizatsiya** (Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davlatlari) miloddan avvalgi I ming yillikda shakllangan. Uning asosiy xususiyatlari:

1. Demokratik boshqaruvga asoslangan mayda shahar-davlatlarning shakllanishi;
2. Xo'jalik yuritishning markazlashmagan xususiyati;
3. Qadimgi Rimda majburiy soliqlarning bekor qilinishi, umumiy harbiy xizmatning majburiyligi;
4. Hunarmandchilik, savdo sohasining rivojlanganligi;
5. Erkin fuqarolarning muhim siyosiy huquqlarga egaligi.

Insoniyat paydo bo'lishi bilan iqtisodiy g'oyalar shakllana boshlagan. Ammo iqtisodiy fikrlarning paydo bo'lishi va shakllanishi yozuv bilan bevosita bog'liq bo'lib, yozuv bundan olti ming yil avval, miloddan avvalgi to'rt ming yillikda Mesopotamiyada mahalliy xalq shumerlar tomonidan ixtiro qilingan. Yozuv ixtiro qilingandan keyin Qadimgi Dunyo - quldorlik tuzumi davridan boshlab ilk iqtisodiy fikrlar yozib qoldirila boshlangan.


Dastlab quldorlik jamiyati Sharqda sinfiy ajralish boshlangan

joylarda, Mesopotamiya (*Tigr va Efrat* daryolari oralig'ida) va Misrdan eramizdan avvalgi IV ming yillikda yuzaga keladi. Chunki bu yerlarda texnologik inqilob ro'y berib, metall qurollar ishlatila boshlangan, qishloq xo'jaligida intensiv, sug'orma dehqonchilikka o'tilgan, natijada nisbatan turg'un ko'shimcha mahsulot olish imkoni tug'ilgan. Bu esa jamiyatda mehnat taqsimotini rivojlantirishga, ko'pgina hunarmandchilik sohalarning ajralib chiqishiga, sinfiy tabaqalanishga turtki bo'lgan.

Bu davrda qo'shimcha mahsulot olishning asosiy usuli Osiyoda jamoaga birlashgan dehqonlarni ekspluatatsiya qilish yo'li bilan renta - soliq olish, Yevropada esa qullarni beayov ishlatish bilan katta boylik orttirilgan. Ammo ko'pgina olimlarning fikricha, Sharqda quldorlik klassik shaklda rivoj topmagan, patriarxal, ya'ni uy xo'jaligi ustun bo'lgan.

### **Qadimgi Misrdagi iqtisodiy g'oyalar**

Eramizdan avvalgi XXII asrlarda Qadimgi Misrdagi eng qadimgi qo'lyozma bizgacha etib kelgan. Eng qadimiy qo'lyozmalardan biri "Vilbur papirusi"da yer kadastrasi masalasi ko'rib chiqilgan. U yerlarning turiga, ekin maydoniga, o'rtacha hosildorlikka va hosilni yig'ib olishga mas'ul fermerlar soniga qarab yalpi don yig'ish me'yorlarini o'z ichiga oladi (2.1. rasmga qarang). Ushbu xususiyatlardan kelib chiqib, uchta yer variantlari aniqlangan: eng yomon, "yuqori (kait)", hosildorlik "1" koeffitsiyentiga ega; o'rtacha, "charchagan (teni)" - "1,5"; eng yaxshi, "bokira (nexeb)" - "2". Papirusdan ko'rinib turibdiki, hosildorlikni hisoblash Nil daryosidan uzoqda joylashgan eng yomon bo'lgan yerlarda olib borilgan. Amaldorlar ushbu hujjatga binoan hosilni xazinaga yig'ib olishlari kerak bo'lgan. Agar yerning unumdorligi hujjatlarda belgilanganidan pastroq bo'lsa, fermerlar o'z iqtisodiyotiga, yerlariga beparvolik bilan munosabatda bo'lganliklari uchun jazolanganlar.



**2.1. Rasm. Vilbur Papirusida er kadastrasi masalasi.**

Markaziy va mahalliy ibodatxonalar hosil yig'ishni kuzatib boradigan g'azna agentlariga yordam bergan. Shunday qilib, fir'avn xazinasiga mablag'larni yig'ish uchun samarali tizim yaratildi.


Boshqaruv masalalari esa "Gerakleopol shohining o'g'li Merikarga nasihatlari"da ko'rib chiqilgan. Bu qo'lyozmada noib va aholi o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida fikr yuritiladi. Bu davrda sinfiy ajralish to'la shakllanmagan bo'lib, boshqaruv ishiga yuqori tabaqali yoki oddiy aholidan bo'lishidan qat'iy nazar ishbilarmonlarni taklif etish, kerak deyilgan.




**2.2. Rasm. "Gerakleopol shohining o'g'li Merikarga nasihatlari"da boshqaruv masalalari.**

Qadimgi Misrda pul muomalasi yaxshi rivojlanmagan, bu pul taqchilligini keltirib chiqargan, qarz foizi yuqori - 100% gacha bo'lgan. Qarz berish shartlari og'ir bo'lgan: har bir kechiktirilgan oy uchun yana 10% qo'shilgan, qarz oluvchi vafot etgan taqdirda merosxo'r qarzlarni to'lagan. Qarzlarni natural ko'rinishda to'lashga ruxsat berilgan.

Iqtisodiy g'oyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, qadimgi Misrda Osiyocho ishlab chiqarish usuli ijobiy natijalar bergan (2.3-rasm):



**2.3.Rasm. "Osiyocha ishlab chiqarish usuli" ning ijobiy natijalari.**  
Osiyocha ishlab chiqarish usuli salbiy oqibatlariga (2.4-rasm) ham olib kelgan.



**2.4.Rasm. "Osiyocha ishlab chiqarish usuli" ning salbiy natijalari.**

Demak, Osiyocha ishlab chiqarish usuli yirik byurokratik apparatini vujudga keltirib, amaldorlar o'rtasida korruptsiyaning ko'payishi va kuchayib ketishiga olib keldi. Natijada mehnatkashlar mehnatlarining natijasidan manfaatdorlik darajasini pasayib ketdi.

**Qadimgi Bobilda shakllangan iqtisodiy fikrlar**

Bobil (Vaviloniya) Qadimgi Sharqda ancha taraqqiy etgan davlatlardan biri bo'lib, bu davlatda xususiy mulkchilik va tovar-pul munosabatlari yaxshi rivojlangan. Tovar ayirboshlash rivojlangani sari to'la huquqqa ega bo'lmagan, ya'ni qaram kishilar qatlami, sudxo'rlar to'riga ilinib, xonavayron bo'lib qulga aylangan kishilar soni ko'payib borgan. Harbiylar va soliq to'lovchilarning kamayib ketishi davlatni ancha

zaiflashtirib qo'ygan. Erkin fuqarolarni sudxo'rlardan himoya qilish (ularning mulkini himoya qilish, savdo, ijara va boshqa shartlarini qonuniy ravishda rasmiylashtirish) maqsadida davlat xususiy, huquqiy munosabatlarni tartibga solish uchun Eshnunn podshohi qonunlari (m.o. XX-XIX asr.) va Xammurapi qonunlari (m.o. XVIII asr.) ishlab chiqilgan.

Eshnunn shahri podshosi Bilalama tomonidan eramizdan avvalgi uchinchi ming yillikda 61 ta moddadan iborat qonun ishlab chiqilgan.

**Birinchi paragrafda** arpa, yog', teri, tuz, mis va boshqalarning kumushdagi narxi belgilangan (mahsulotlar shunday miqdorda olinishi kerakki, ularning qiymati 1 siklga teng bo'lsin);

**Ikkinchi paragrafda** har xil turdagi yog'ning arpadagi narxi ko'rsatilgan. Demak, asosiy umumekvivalent tovar bo'lib arpa qabul qilingan. Bundan tashqari, ushbu ekvivalentlar o'rtasida qat'iy muvofiqlik o'rnatilgan.

Qat'iy narxning o'rnatilishi qonun tuzuvchilarga:

1. Yollanish va ijara haqi darajasini,
2. Jarima miqdorini;
3. Foiz normasini;
4. Tarbiya uchun to'lov va boshqalarni aniqlash imkonini bergan.

Qadimgi Vavilon (Babil)da Xammurapi (m.o. 1792-1750 y.) podsholik qilgan davrdagi qonunlar to'plami ancha obro' qozongan. U nafaqat bir qator qadimgi huquq normalarini qayta ishlab chiqqan, balki miloddan avvalgi XVIII asrga qadar Qadimgi Mesopotamiyada tarkib topgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ham tartibga solishga harakat qilgan.

Qonun matni kirish, hozirgi tasniflash bo'yicha 282-moddani o'z ichiga olgan asosiy va xulosa qismlardan iborat bo'lgan. Unda xo'jalik hayotiga oid iqtisodiy fikrlar ham aks ettirilgan. Jumladan, Xammurapi qonunlarida:

1. Xususiy mulk va mustaqil ishlab chiqaruvchilar huquqlari himoya qilingan;

2. Sudxo'rlik faoliyati cheklangan;
3. Meros huquqi tartibga solingan;
4. O'g'irlik, aldovga qarshi choralar tizimi ishlab chiqilgan;
5. Yirik yer egaligi qonuniy belgilab qo'yilgan;
6. Ijara munosabatlari tartibga solingan.

Shuningdek, Xammurapi qonunlarining katta qismi savdoni tartibga solishga bag'ishlangan.

Qonunda ko'zda tutilgan asosiy maqsad Babil fuqarolarining mulkini himoya qilish yoki ular uchun shunday sharoit yaratishdan iborat ediki, bunda «kuchlilar kuchsizlarni surib chiqarmasinlar» degan talab bajarilishi kerak edi. Bunda asosiy e'tibor saroy, ibodatxona mulkini hamda Bobillik

fuqarolar va davlat xizmatchilarining, birinchi navbatda harbiylarning mulkini himoya qilishga qaratilgan. Xammurapi qonunlarida ularning ulushi (yerlari) sotilishi man etiladi. «Sipoh yoki soliq to'lovchiga tegishli bo'lgan dala, uy, bog', - deyiladi qonunda, - kumushga sotilishi mumkin emas». Bundan tashqari, qonunda aytilishicha, o'z mamlakati tashqarisida qul sifatida sotib olingan Bobilliklar o'z vataniga qaytgach erkinlikka erishgan.

Qonunda sudxo'rlar zo'ravonligiga qarshi qaratilgan moddalar ham mavjud. Hosil kam bo'lgan paytlarda qarzlarni to'lash muddatini qo'shimcha foiz to'loviziz bir yilga cho'zishga ruxsat berilgan, sudxo'rlarning o'z xohishi bilan, qarzdorlarning roziligisiz qarz evaziga ularning hosilini tortib olishi man etilgan. Bu qonunlar qat'iy ravishda puldagi (20%) va natural shakldagi (33 %) foiz normasini aniq belgilab bergan.

Xammurapi kodeksida qullarga nisbatan yomon munosabatda bo'lgani uchun sudxo'rlarni hatto jazolash (shu jumladan qonuniy yo'l bilan ham) ko'zda tutilgan. Sudxo'rlikning keng rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri qarzdorlik uchun qullik muhlatining uch yil bilan cheklanishi bo'lgan (to'rtinchi yili unga erkinlik berilishi lozim bo'lgan). Biroq sudxo'rlikka qarshi qonunchilikda izchillik bo'lmagan. Xususan, qarzdorni ozod etishda uni ishlab chiqarish yoki yashash vositalari bilan ta'minlash nazarda tutilmagan. Hech qanday vositasi bo'lmasa, ozod qilingan qarzdor qaytadan sudxo'rga murojaat qilishga majbur bo'lgan.

Xammurapi qonunlarida yollanish munosabatlari ham tartibga solingan. Uning juda ko'p turdagi shakllari ko'rib chiqilgan bo'lib, hatto yollanma mehnat uchun to'lov miqdori ham aniq qilib ko'rsatib berilgan.

Asosiy maqsad ishlab chiqarishni, birinchi navbatda, qishloq xo'jaligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, mehnatsiz daromad topishga qarshi kurashish bo'lgan. Umuman, xususiy mulkchilik, shu jumladan yerga bo'lgan xususiy mulkchilik tan olingan. Birovning xususiy mulkiga ko'z olaytirgan, unga zarar etkazganlar iqtisodiy jazolarga tortilganlar.

Shunday qilib, qadimgi Bobil podshohligi qonunlarida davlatni tartibga solishning va aholi iqtisodiy faoliyati ustidan nazorat o'rnatishning turli shakllari ko'zda tutilgan. Ular real iqtisodiy jarayonlarga, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishiga, fuqarolar mulkini himoya qilishga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatgan. Shu bilan birga bu qonunlar Osiyodagi boshqa mamlakatlarda iqtisodiy fikrlarning rivojlanishida katta rol o'ynagan.

### **«Avesto»dagi iqtisodiy g'oyalar, fikrlar**

Yer. avv. IX - VIII asrlarda Sharqiy Eron va Markaziy Osiyoda



istiqomat qiluvchi qadimiy qabilalarning ijtimoiy tuzumi o'zgarayotgan va diniy qarashlari hamda jamiyatda ro'y berayotgan tabaqalanish davom etayotgan bir paytda Turon pasttekisligida Amudaryo bo'ylarida yangi g'oya, yangi fikrlar va yangi ta'limot vujudga keldi. Bu ta'limot o'lkada shakllangan ko'p xudolik va oshiqcha sarf - xarajatlarga, atrof - muhitni ifloslanishiga hamda insonlar hayotida muhim o'rin tutgan jonli hayvonlarni qirib ko'p-ko'p qurbonliklar qilinishiga qarshi tura oladigan ta'limot edi. Bu ta'limotga amal qilgan inson Ezgu fikr, Ezgu so'z, Ezgu amalni butun hayoti davomida qalbiga jo qilishi lozim edi. Ushbu ta'limotni asoschisi Zardusht bo'lib, u o'z ta'limotini jamiyatda yashovchi har qanday sinf vakillari orasida qo'rqmasdan tarqatib o'zini haqligini isbotlay olgan. Beruniyning guvohlik berishicha, Zardusht makedoniyalik Aleksandrning Markaziy Osiyoga kelishidan 258-yil ilgari dunyoga kelgan.

Olingan ma'lumotlarda «Avesto» kitobining muallifi Zardusht (m. o. 589-512 y.) bo'lganligi qayd etiladi. U Markaziy Osiyo hududida faoliyat ko'rsatgan ilohiyotchi, faylasuf, shoir va tabiatshunos olim bo'lgan.

«Avesto» boshidan oxirgacha yer yuzida adolat qaror topishi uchun kishilarning rangidan, tilidagi va urf-odatlaridagi farqlaridan qat'iy nazar ularning ro'shnolik hayoti uchun kurashuvchi jasur, halol, pok insonlarni shakllantirish va tarbiyalash g'oyasi bilan sug'orilgan. Unda xalqlarning qadimgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlari, ma'naviyati, madaniyatlari o'z aksini topgan. «Avesto»da yer dumaloq shaklda yaratilganligi, uning atrofi okeanlar bilan o'ralganligi haqida yozilgan. Unda 16 mamlakatning nomi ko'rsatilgan bo'lib, ulardan to'qqiztasi (masalan, Sug'diyona, Marg'iyona, Nisoya, Gurgon, Varuna va boshqalar) Markaziy Osiyo hududida joylashgan.

«Avesto»ning shakllanishi davrida kishilik jamiyati ilgari lab rivojlana bordi. Ko'chmanchilikka asoslangan Markaziy Osiyoda eski turmush tarzi o'rmini o'troq yashash egallay boshladi, sug'oriladigan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik borgan sari taraqqiy etdi. Yangi-yangi shaharlar, obod qishloqlarning paydo bo'lishi o'troq yashash turmush tarzining afzalliklarini ko'rsata bordi. Ana shu o'troqlik turmush tarzining odamlarga benihoya kulfatlar keltirayotgan ko'chmanchilikka asoslangan turmush tarziga nisbatan afzalliklarini ko'rsatib berishda «Avesto»ning ahamiyati kattadir.

«Avesto»da «...yerga yaxshi, sog'lom urug'lar sepishdan ortiq savob ish yo'q...» deb, xalq xo'jaligi sohasida dehqonchilikning muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatib beriladi. «Olam go'zalligi dehqondan,

dehqonchilikdan, kimki yerga urug' qadabdiki, u odamiylikka iymon keltiradi, yagona shu yo'lgina haqiqat bo'lib, qolgani sarobdir», deyiladi unda. Qo'riq va bo'z erlarni o'zlashtirish, uni jamoa o'rtasida adolatli taqsimlash eng savobli ishlardan hisoblangan. Asarda oziq-ovqat tayyorlash, uy hayvonlarini va chorva mollarini ko'paytirishga ham alohida e'tibor berilgan.

«Avesto»da yer, suv, havoni bulg'ash, ifloslantirish og'ir gunoh hisoblanadi. Bunday ibratli xislatlarni tasdiqlash bugungi avlodlarni ham tabiatga, atrof muhitga vahshiyona munosabatda bo'lmaslikka chorlaydi.

Kitobda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar aks ettirilgani holda shunday deyiladi: «Yomon ovqatlanigan xalq na yaxshi, kuchli ishlovchilarga va na sog'lom, baquvvat bolalarga ega bo'ladi. Yomon ovqatlanishdan odob-axloq ham aynib ketadi. Agar non mo'l-ko'l bo'lsa, muqaddas so'zlar ham yaxshi qabul qilinadi». Bu yerda biz sog'lom avlod to'g'risida, iqtisodiy va madaniy, ma'naviy yuksalish o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligi to'g'risida fikr yuritilganligini ko'ramiz. O'sha davrda aytilgan bunday fikrlar, ajdodlarimiz Qadimgi Dunyo madaniyatida yuqori yutuqlarga erishganligidan dalolat beradi.

Bu noyob kitobda patriarxal urug' jamoasi haqida, uning tugatilishi davrida iqtisodiy tengsizlik, sinfiy tabaqalanish haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Demak, «Avesto» miloddan avvalgi IX-VII asrlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy hayoti haqida g'oyat muhim ma'lumotlar beruvchi xalqimizning merosiy boyligidir.

### Qadimgi Hindistondagi iqtisodiy g'oyalar

Qadimgi Hindistondagi ilk iqtisodiy fikrlar «Upanishada»<sup>1</sup>, «Artxashastra», «Manu qonunlari»<sup>2</sup>, «Ramayana», «Mahobxorab» asarlarida o'z aksini topgan.

Qadimgi Hindiston xo'jaligi, ijtimoiy tuzumi va iqtisodiy fikrlarini o'rganishning asosiy manbai bo'lib «Artxashastra» asari hisoblanadi (m.o. IV asr oxiri). Uni podsho Chandraguptaning maslahatchisi **Kautile Bishnugupta** yozgan, deb taxmin qilinadi. Bu mashhur asar 15 kitobdan iborat bo'lib, «artxa» so'zi - foyda, moddiy manfaat, «shastra» - ilm, ilmiy asar ma'nosini bildiradi.

Bu asarda:

- 1.Podshoning turmush tarzi to'g'risida ko'rsatmalar berilgan;
- 2.Turli davlat idoralari rahbarlarining faoliyati to'g'risida yozilgan;
- 3.Adliya va jinoyatchilarni jazolash masalalari ko'rib chiqilgan;
- 4.Tashqi siyosat usullari to'g'risida;

<sup>1</sup> Упаншады //http//psulib.org.ua/books/urani\_01/

<sup>2</sup> Законы Ману. - М.: Издательство восточной литературы, 1960. -362 с.

5. Maxfiy xizmat to'g'risida;

6. Armiyani tashkil qilish va shu kabilar to'g'risida so'z yuritiladi.

«Artxashastra»ning eng boshidayoq podsho to'rtta «ilmni» bilishi zarurligi to'g'risida fikr yuritiladi. Uning bittasi iqtisodiyot hisoblanadi. «Iqtisodiyot» dehqonchilik, chorvachilik va savdo sifatida ko'riladi. Mamlakatda qishloq xo'jaligi, eng avvalo dehqonchilik asosiy soha hisoblangan. «Artxashastra»da aytilishicha davlat yangi mintaqalarni tashkil etish va odamlarni u yerlarga o'mashtirish ishlarini amalga oshirishi kerak. Yangi ko'chib kelganlarga yer solig'i to'lash sharti bilan shaxsiy foydalanishga yer berilgan. Dehqon, hunarmand mehnati va savdo faoliyati davlat uchun boylik yaratadi. Shuning uchun davlatning siyosati yerni emas, balki odamlarni himoya qilishi kerak. «Davlatning kuchi, - deyiladi asarda, - odamlardan tashkil topgan. Odam yashamaydigan yer esa, najsiz sigirga o'xshaydi - undan na sut sog'ib olib bo'ladi».

«Artxashastra»da davlatning manfaatini ko'zlagan holda, xo'jalikni yaxshi tashkil qilishga alohida e'tibor beriladi. Kim o'z yerini ishlatmasa yoki yomon ishlasa uning yerini tortib olish va yaxshi ishlaydigan xo'jayinlarga berish tavsiya etiladi.

«Davlat bozor bahosini tartibga solib turishning chora-tadbirlarini ko'rib chiqishi lozim. Bahoning mavsumga qarab tebranib turishini bartaraf etish uchun, davlatning kerak paytda muomalaga chiqaradigan tovar zahirasi bo'lishi kerak. Bu bilan tovarlar bahosi barqarorligini ta'minlashga erishiladi».

«Artxashastra»da irrigatsiya ishlarini yaxshilash ham nazarda tutilgan. «Sug'orish inshootlarini qurish, - deyiladi unda, hosilning manbai hisoblanadi...» Sug'orish tizimiga etkazilgan har qanday zarar uchun og'ir jazo, hatto o'limga mahkum etish tavsiya etiladi.

«Artxashastra»da davlatning moliya muammolarini yechishga katta ahamiyat beriladi. Davlatning daromadlari davlat xo'jaliklari foydasidan, har turli soliq va boj to'lovlaridan tashkil topgan. Xarajatlar qismiga kelsak, davlat sanoatni, savdoni rivojlantirishga, jamoa ishlariga mablag' ajratib kelgan. Davlat xo'jaligi va soliq tizimi bilan bog'liq bo'lgan moliya idoralarining to'g'ri ishlashi uchun, «Artxashastra»da aytilishicha, daromad va xarajatlarning qat'iy hisob-kitob hujjatlari olib borilishi zarur. Podsho xazinani o'g'irlovchi amaldorlarni bartaraf etishi kerak. Ammo bu yerdagi o'g'irlikni aniqlash juda qiyin bo'lgan. «Artxashastra» xazina mulkini o'g'rilashning 40 xil usulini ko'rsatib beradi va ayyor amaldorning hiylasini bilishdan ko'ra, osmondagi qushning yo'lini aniqlash osonligini qayd qilib o'tadi. «Suvda suzib yurgan baliq, o'sha suvdan ichayaptimi yo'qmi bilib bo'lmaganidek, ishga birlashtirilgan amaldor mulkni

o'zlashtirayaptini yo'qmi aniqlab bo'lmaydi», deyiladi asarda. Shu boisdan suiste'mol qilishning har xil usullarini o'rganib olmasdan avval, amaldorlarni tez-tez o'zgartirib turish tavsiya etiladi.

Iqtisodiy siyosat sohasida «Artxashastra», podshoni ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga, narx-navoni tartiblashga, davlat byudjeti aktiv balansini saqlashga - «daromadlarni ko'paytirish va xarajatlarni kamaytirishga» da'vat etadi. Bu qadimiy asar Qadimgi Hindistonning ijtimoiy rivojlanishining ancha yuqori darajasini ko'rsatib beradi.

## 2.2. Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g'oyalar

Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g'oyalar m.a. VI-III asrlarda shakllangan. Bu mamlakatdagi ilk quldorlik davlatlari yer.avv. II ming yillikda paydo bo'lgan. Qadimgi Xitoy mutafakkirlari ichida Konfutsiy (m.o. 551-479 y.) alohida o'rin tutadi. Konfutsiyning fikrlari uning shogirdlari yozib qoldirgan «Lun Yuy» («Suhbat va mulohaza») to'plamida aks ettirilgan. Uning fikricha, mehnat ham kishilarning, ham davlatning boyligini ko'paytiradi. Konfutsiy «buyuk jamoa mulki» (dehqonlar jamoasi mulki) va xususiy egalik (quldorlar mulki)ni farqlaydi, ikkinchisini ko'proq qo'llaydi. Bu yerda u xususiy mulkni xo'jalik yuritishda ustun qo'yadi. Konfutsiy aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat farqini ko'rsatib, aqliy mehnat bilan «yuqori» tabaqali kishilar, jismoniy mehnat bilan esa, asosiy qismi qullardan iborat bo'lgan, «oddiy» kishilar shug'ullanadi deb qayd qilib o'tadi.

Konfutsiy ta'limotiga ko'ra, bilimdon xukmdor - u «xalqning otasi», «to'g'ri amal qilishning» va boylikni ancha tekis taqsimlashning kafolati. Uning tasdiqlashicha, Alloh va tabiat tomonidan jamiyat toifalarga ajratilgan, ammo shu bilan birga u har bir odamni ma'naviy yuksalishga da'vat etgan, kattalarga bo'lgan hurmat qoidalari to'g'risida, farzandlik burchi to'g'risida, aka-ukalar o'rtasidagi do'stlik to'g'risida qimmatli fikrlarni ilgari surgan.

Xitoyda miloddan oldingi IV-III asrlarda mualliflar birgaligida yozilgan asar - «Guan-szi» g'oyalari keng tarqalgan. Bu asarda ilgari surilgan ba'zi masalalar, garchi ular ziddiyatli bo'lsada, bugungi kunda ham diqqatga sazovordir. Masalan, asarda oltin, marvarid alohida boylik sifatida ko'rilmaydi; shunga o'xshash eng avvalo moddiy boyliklar (tovar) e'tirof etiladi. Asarda ko'rsatilishicha, bir tomondan, «oltin davlat resurslarini hisoblash o'lchovi hisoblanadi», ikkinchi tomondan, u «xalq ommasini uchun muomala vositasi bo'lib xizmat qiladi». Asarda barqaror iqtisodiy rivojlanishning zarurligi to'g'risida aniq fikr yuritiladi va qayerda nonning narxi tartiblanib turilsa, o'sha yerda tinchlik, osoyishtalik bo'ladi, deb qayd etiladi. Iqtisodiyotni tartiblab turish uchun, asar mualliflari


davlatning don zahiralari tashkil etishni, yer egalariga imtiyozli kredit berishni, temir va tuzga bo'lgan to'g'ri soliqlarni o'zgartirishni, ya'ni tovarlarga bo'lgan soliqni kengaytirishni tavsiya etadilar. «Guan-szi» mualliflari «davlatni boy, xalqni mamnun» holda ko'rishni xoxlaganlar. Asarda yer va suvlarni davlat ixtiyoriga o'tkazish, ulardan daromad olish yo'lida foydalanish, baholarni tartibga solish va boshqa hozirgi kunda ham e'tiborga molik iqtisodiy g'oyalari ilgari surilgan.



### 2.5. Rasm. Konfutsiy ta'limoti g'oyalari

Konfutsiyning fikricha, davlat iqtisodiy hayotga faol aralashishi, yer munosabatlari va oziq-ovqat narxlarini tartibga solishi kerak.

Miloddan avvalgi VI – III asrda konfutsiy mutafakkirlariga jiddiy raqiblar - legistlar paydo bo'ldi. Legizm o'ziga xos tarzda qadimgi Xitoyning iqtisodiy rivojlanishidagi yangi tendensiyalarni aks ettirdi, bu davlatning iqtisodiy rolini kuchaytirish, imperiyani boshqarishning byurokratik tizimini shakllantirish bilan bog'liq edi (2.6-rasm).



### 2.6. Rasm. Legistlar ta'limoti g'oyalari

Legistlar mamlakatni marosimlar emas, balki qonunlar orqali boshqarishni targ'ib qildilar. Ular patriarxal-kommunal munosabatlar va urug'-aristokratiya qudratiga putur etkazishga qaratilgan islohotlar tarafdorlari edilar. Hunarmandchilik va savdo qishloq xo'jaligining yuqori mahsuldorligiga erishishga yordam beradi, deb ta'kidlaganlar.

### **2.3. Qadimgi Gretsiya ilk quldorlik jamiyatidagi iqtisodiy qarashlar**

Antik davrdagi iqtisodiy fikrlar qadimgi Sharqdagidan tubdan farq qiladi, chunki u shaxsga e'tibor qaratgan, ammo qadimgi Sharqda davlat manfaati shaxsiy manfaatdan yuqori bo'lgan, davlat mustahkamlangan va himoya qilingan.

Antik davr iqtisodiy fikrining asosiy manbalari falsafiy risolalar, iqtisodiy kengashlar to'plamlari, qonunlar to'plamlari, ommaviy nutqlardan iborat.

Antik davrning barcha "romantik" madhiyalari insoniyat jamiyatining "gullab-yashnashi", "baxt-saodati" davri bo'lsa ham, biz to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaruvchilarni ekspluatatsiya qilishning asosiy shakli qadimgi Yunonistonning ijtimoiy va iqtisodiy hayotining barcha sohalariga kirib borgan qulchilik ekanligini unutmasligimiz kerak.

Genezis davrining iqtisodiy muammolari, quldorlik ishlab chiqarish usulining gullab-yashnashi va inqirozi o'sha davrning iqtisodiy tafakkurida aks etgan.

Miloddan avvalgi V-IV asr oxirlarida iqtisodiy fikrning eng yaxshi yutuqlari qadimgi yunon faylasuflari Ksenofont, Aflotun va Aristotel asarlarida aks etgan.

Ksenofont (mil. avv. 430-354 yillar) - Afina aristokratiyasining vakili, Afnaning siyosiy va iqtisodiy tizimini qoralagan va agrar Sparta tartib qoidalarini ideallashtirgan. U o'zining iqtisodiy qarashlarini "Domostroy" asarida aks ettirgan.

Uning dunyoqarashining asosiy qoidalarini qisqacha quyidagicha aks ettirish mumkin:

*birinchidan*, mehnatning aqliy va jismoniy turlarga bo'linishi, odamlar, uning fikricha, erkin va qullardan iborat bo'lishi, bu tabiiy hol;

*ikkinchidan*, hunarmandchilik va savdo-sotiqqa nisbatan qishloq xo'jaligining rivojlanishi tabiiy borliqqa ko'proq mos keladi;

*uchinchidan*, "eng oddiy ish" unumli bajarilishi mumkin;

*to'rtinchidan*, mehnat taqsimoti darajasi bozorning hajmiga qarab belgilanadi. Ksenofontning xizmati shundaki, mahsulotning "qiymati" haqida gap ketganda, u qiymatni tovarning foydali xususiyati ("iste'mol qiymati") va boshqa mahsulotga almashish qobiliyati (almashinuv qiymati) deb hisoblagan.

Ksenofontning pul haqidagi bayonoti ham qiziqarli. Savdo va pulga salbiy munosabatda bo'lsa ham u iqtisodiy farovonlik davrida ham, tabiiy ofatlar yillarida ham pulning foydaliligini tan oldi. U pul (kumush) maxsus tovar ekanligini tushungan.

Ksenofont pulning barcha funksiyalaridan faqat ikkitasini: pulning muomala vositasi va boylik to'plash vositasi ekanligini tan olgan. U odamlar pulni sudxo'rlik qilib boyish uchun emas, balki tovar ayirboshlash uchun va boylik to'plashda ishlatilishi uchun ixtiro qilgan, deb hisoblagan.

Ksenofont narxlar bozorda tovarlar taklifiga bog'liq ravishda o'zgaradi, deb hisoblagan.

Ksenofont me'yoriy iqtisodiy tahlilga asos solgan. Uning fikricha "do'stlar ho'kizlardan qadrliroq", odamlar o'rtasidagi munosabatlar eng qadrlil bo'lib, bu munosabatlarning bardavomligi uchun pul xizmat qilishi kerak.

Natural xo'jalik konsepsiyasi Afina aristokratiyasi mafkurachisi **Platon** (mil. avv. 427-347) ning iqtisodiy qarashlariga ham xos edi. Platon natural xo'jalikni davlat barqarorligining asosi deb bilgan. U tabiat tomonidan belgilanadigan tengsizlikni tan oldi, ammo jamiyatdagi keskin tabaqalanish inqirozga olib kelishi mumkin. Uning fikricha, tang vaziyatlar diktatorni talab qiladi.

"Davlat" asarida u ideal davlat tuzilishi loyahasini ishlab chiqqan, unda to'rt ijtimoiy qatlam bo'lishi zarur, deb hisoblangan, ya'ni hukmdorlar, soqchilar, dehqonlar va savdogarlar bilan hunarmandlar. Hukmdorlar dono faylasuflar qatorida bo'lishi kerak. Ushbu davlatning asosini natural xo'jalik tashkil qilishi kerak. Pul ham bo'lishi kerak va u qiymat o'lchovi hamda muomala vositasi sifatida xizmat qilishi kerak.

Platon "Davlat" va "Qonunlar" asarlarida ideal davlatning ikkita loyahasini tasvirlagan. Birinchi asarida u ideal davlatning ma'muriy apparati ikki tabaqadan iborat bo'lishi kerakligini ta'kidladi: aristokratlar (faylasuflar) va jangchilar. Faylasuflar dunyoni bilish va odamlarni boshqarish qobiliyatiga ega bo'lgan eng aqlli odamlardir. Faylasuflarning asosiy vazifasi shaxsiy nomaqbul narsalardan voz kyechib, butun jamiyat uchun va uning foydasi uchun harakat qilishdir. Jangchilarning asosiy vazifasi xalqni himoya qilishdir. Askarlar uchun o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun jismoniy tarbiyaning spartacha tizimi, lager rejimi, qat'iy tartib-intizom, umumiy stol (teng taqsimoti) ta'minlandi. Jangchilarning boyishga urinishlari qoralandi. Platonning fikriga ko'ra, ushbu ikki tabaqa yer mulkka ega bo'lmasliklari va dehqonchilik bilan shug'ullanishlari kerak emas, ularning moddiy ta'minoti jamoatchilik tomonidan qondirilishi kerak. Barcha xo'jalik ishlari, shu jumladan mulkka

egalik qilish, uni tasarruf etish ideal davlatdagi uchinchi toifa hisoblangan - yer egalari, savdogarlar va hunarmandlar zimmasiga yuklanadi. Qullar - erkin fuqarolar mulki, va shuning uchun «Davlat» muallifi tomonidan ular hech bir toifaga kiritilmadi.

Ikkinchi asarida (“Qonunlar”), Platon ideal davlatning yangilangan modelini ilgari suradi, sudxo‘rlikni qoralaydi, hunarmandchilik va savdotsotiq bilan solishtirganda qishloq xo‘jaligining iqtisodiyotda yetakchi o‘rnini asoslaydi. Shuningdek, davlat ta‘minotida bo‘lgan, ya‘ni yuqori toifali fuqarolarning moddiy ta‘minoti to‘g‘risidagi oldin ilgari surilgan g‘oyalar rivojlantirilgan. Bu yerda faylasuf tenglik prinsipidagi jamiyat tuzilishining ayrim ijtimoiy-iqtisodiy elementlarning tavsifini boshqalardan oldin ko‘ra bilgan. Xususan. barcha fuqarolar, Aflotun fikricha, ideal davlatda (qur‘a bo‘yicha) uy-joy, yer olishlari mumkin. Buning ustiga yer faqat unga egalik qilish va undan foydalanish huquqi bilan (ya‘ni to‘la bo‘lmagan mulk huquqi) berilgan bo‘lsa ham, uni olgan kishi keyinchalik bolalarining biriga aynan shu shart bilan meros qoldirish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Aflotun qonuniy ravishda “qashshoqlik va boylik chegaralarini” kiritishni taklif qildi. “Kambag‘allikning chegarasi” har qanday sharoitda yo‘qolmaydigan bitta yer uchastkasi, deb hisoblangan (u har doim oilada saqlanib kelgan). “Boylik chegarasi” – to‘rt-beshta chek yer uchastkalari (yoki ularning puldagi qiymati)dan iborat bo‘lishi kerak. “Boylik chegarasi” dan tashqarida bo‘lgan mulk, Platonning fikriga ko‘ra, davlat tomonidan kambag‘allar foydasiga qayta taqsimlanishi kerak.

Aflotunning har ikkala loyihasida o‘xshashlik mavjud: davlatning boshqaruv apparati (birinchi loyihada) va fuqarolar (ikkinchi loyihada) oltin va kumushga ega bo‘lishlari va sudxo‘rlik bilan shug‘ullanishlari mumkin emas. U xuddi Ksenofont kabi, dehqonchilikni iqtisodiyotdagi asosiy tarmoq, deb hisoblagan, hunarmandchilik va savdoni jamiyatda uncha e‘tiborli bo‘lmagan mashg‘ulotlar turiga kiritgan. Antik iqtisodiy fikrlar tarixida Aflotun birinchilardan bo‘lib bahoning asosi va darajasi to‘g‘risidagi savolni o‘rtaga tashlagan. U «baho davlat hokimiyati tomonidan tartibga solinib turilishi kerak, bundan tashqari, asos qilib shunday baho olinishi kerakki, u o‘rtacha foyda olishni ta‘minlasin» degan fikrni ilgari surgan.

Antik davr iqtisodiy tafakkurining rivojlanishiga Aristotel katta hissa qo‘shgan. Aristotel ko‘pincha fan tarixidagi birinchi iqtisodchi deb nomlanadi, chunki u iqtisodiy hodisalarni birinchi bo‘lib tahlil qildi va ijtimoiy rivojlanish modellarini aniqlashga harakat qildi.

#### ***Aristotel iqtisodiy konsepsiyasining asosiy qoidalari:***

- odam faqat jamiyatda va davlatda yashay oladigan ijtimoiy jonzotdir;



- davlatning yaratilishi odamlar o'rtasidagi almashinuv orqali osonlashadi; na ishlab chiqarish, na hayot qulsiz ish qila olmaydi, chunki mehnat qurollari o'zlari ishlay olmaydi;

- qullar - boylik manbai;

- o'rtacha daromad bo'lishi kerak (tengsizlikdan kelib chiqadigan nizoni to'xtatish uchun "o'рта sinf" ni kuchaytirish taklif etiladi);

- xususiy mulk bo'lishi kerak (u xususiy mulkning ilbizlarini hayvonlarda, deb bilgan);

- bir xil narsa turli xil usullarda ishlatilishi mumkin: maqsadga muvofiq (iste'mol qiymati) va maqsadga muvofiq emas (almashinuv qiymati);

- pul turli xil imtiyozlarni taqqoslash vositasidir, shuning uchun ularni foiz bilan qarzga berish mumkin emas (u uzoq masofalarga ko'p narsalarni tashishda noqulayliklar tufayli odamlar o'rtasidagi kelishuvga binoan pul kelib chiqqan deb ta'kidlagan).

Aristotel iqtisodiy konsepsiyasida almashinuv va qiymatning nazariy tahlili alohida ahamiyatga ega. U birinchi bo'lib almashuv nisbatlarini aniqlash masalasini ko'targan. Bu masala ko'p asrlar davomida munozarali bo'lib kelgan va hanuzgacha shunday bo'lib kelmoqda. Bu savolga javob fan tarixidagi barcha iqtisodchilarni mehnatning qiymat nazariyasini qo'llab-quvvatlovchilar va narsaning foydaliligini subyektiv baholash asosida aniqlanadigan boshqa nazariyalar tarafdorlariga ajratdi.

Aristotelning o'zi almashish nisbatlarini aniqlash muammosini hal qilishda bir nechta nuqtai nazarlarga ega edi. Aristotel almashuvning adolatliligini arifmetik nisbatdan izlashga harakat qildi. Uning asarlarida qiymatning mehnat nazariyasi asoslari ham, tovarlar almashinuvida ularning foydaliligi asos bo'ladi, degan fikrlar ham uchraydi. Bundan tashqari tovarlar bir - biri bilan pul orqali taqqoslanadi, deb hisoblaydi.

Aristotel boylik topish va ehtiyojlarni qondirish usullari to'g'risida fikr yuritib, iqtisodiyot (ekonomika) va xrematistika tushunchalari farqini ajratib ko'rsatib beradi.

Iqtisodiyot, Aristotel tushunchasi bo'yicha - bu eng avvalo dehqonchilikdagi kishilarning hamda hunarmandchilik va mayda savdo bilan band bo'lganlarning asosiy va sharaflı faoliyatidir. Uning maqsadi - insonning eng muhim ehtiyojlarini qondirish hisoblanadi, va shuning uchun unga davlat g'amxo'rlik qilishi kerak.

**Xrematistika** - bu yirik savdo yo'li bilan boylik orttirish mahoratidir. Aristotelning qayd qilib o'tishicha, bunday boylik orttirish maqsadiga erishishning cheki bo'lmaydi. Bundan maqsad - boylik va pul topishdir. (Shu boisdan uning chegarasi yo'q). Iqtisodiyotdan farqli ravishda, xrematistika zarur hisoblanmaydi va tabiat qonunlariga zid, deb

ko'rsatiladi. Shundan kelib chiqqan holda, Aristotelning xitob qilishicha, «iqtisodiyot maqtovg'a sazovor», xrematistika esa - «tanbehga».

Qadimgi yunon mutafakkirlarining iqtisodga va xrematistikaga bo'lgan bunday munosabati, uning natural xo'jalik yuqori mavqega ega bo'lganligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Arastu o'zining iqtisodiyot va xrematistika konsepsiyasi doirasida quldorik davlati tuzilishini ideallashtiradi. Arastuning iqtisodiyot va xrematistika konsepsiyasi «kamchiligiga» ayirboshlashning ikki yoqlama tavsifini ham kiritish mumkin. Bu yerda gap shundan iboratki, bir joyda ayirboshlash ehtiyojni qondirishda asosiy akt sifatida ko'riladi va tovarning iste'mol qiymatini iqtisodiyot sohasining kategoriyasi sifatida talqin qilish imkonini beradi, ikkinchi bir joyda - aksincha, ayirboshlash bo'ylab orttirish sifatida qaraladi va tovarning almashuv qiymatini xrematistika sohasining kategoriyasi deyishga asos bo'la oladi.

Nihoyat, shu konsepsiya nuqtai nazaridan Arastu savdo shakllari evolyusiyasi bosqichlarini va pul muomalasini bir yoqlama tahlil qilib, o'zining yirik savdoga va suda operasiasiga salbiy munosabatda ekanligini namoyon etdi. Xususan, to'g'ridan-to'g'ri tovar ayirboshlash va pul vositasi orqali tovar ayirboshlash kabi savdoning ilk shakllarini u ishlab chiqarish sohasiga kiritadi, savdo kapitalining harakatini esa, ya'ni tovar ayirboshlash jarayonida ilk avanslangan pulning ko'payishini, xrematistika sohasiga kiritadi. Xuddi shunga o'xshash, Arastu pul muomalasi shaklini tadqiqot qiladi va pulning qiymat o'lchovi va muomala vositasiligini aks ettirishini - ishlab chiqarish sohasiga, pulning foydani ko'paytirish vositasi sifatida ishlatilishini esa xrematistika sohasiga kiritadi.

#### 2.4. Qadimgi Rimdagi iqtisodiy konsepsiyalar

Qadimgi Rimning iqtisodiy tafakkuri va siyosati qishloq xo'jaligi ishlari bilan bog'liq. Buni "XII jadvallar qonunlari" (miloddan avvalgi 451-450-yillar) tasdiqlaydi, bu xususiy mulk huquqini ta'minladi, erkin odamlar va qullar o'rtasidagi qonuniy tafovutlarni belgilab bergan. Aka-uka Tiberiy (mil. avv. 162-133) va Gay Graxning (mil. avv. 153-121) qonunlari agrar munosabatlarni yaxshilashga yo'naltirilgan. Dehqonchilik va dehqon mehnatining o'ziga xosligi Vergiliya (mil. avv. 70-19 yillar)ning "Georgiki" madhiyasida aks etgan edi.

Rimning yirik siyosiy arbobi va yozuvchisi **Porsiy Katon** (m.o. 234-149 y.) o'zining «Dehqonchilik» asarida qishloq xo'jaligini xalq xo'jaligidagi asosiy tarmoq, deb hisoblaydi. Katon dehqonchilikni tashkil qilishning eng qulay usulini qo'llashga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishni tashkil qilishga katta e'tibor berdi. U faqat ortiqcha mahsulotni

sotish, xo'jalikda ishlab chiqarish mumkin bo'lmagan narsalarni esa sotib olish zarurligi to'g'risida fikr yuritdi. Eng foydali mahsulot deb zaytun yog'ini hisoblagan. Katon savdogarlar va sudxo'rlar faoliyatiga nisbatan salbiy munosabatda bo'lgan.

Katon tovar qiymatidan ortiqchasini foyda deb bilgan va qiymatni to'la ravishda ishlab chiqarish xarajatlariga kiritgan. Masalan, u, barcha «qiymat o'zagini» xom-ashyo sarflari, usta va yordamchilarga to'lanadigan haq tashkil etadi, degan fikrni bildirgan.

Katonning fikrlari:

1. Qishloq xo'jaligi xalq xo'jaligidagi asosiy tarmoq;
2. Foydani qiymatdan oshib ketgan qism deb hisoblaydi va uni ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiritadi;
3. U yollanma mehnatdan foydalanishga qarshi edi, u qullar mehnati hisobiga daromad olishni yoqlab, ularning mehnatini tashkil qilishga ko'p e'tibor berdi;
4. U qullar uchun yuqori ish yuklamasi va ish kunini talab qildi. Qullarning o'zaro kelishuvidan qo'rqib, Katon ular o'rtasida janjal chiqarib turish va og'ir mehnat bilan charchatishni talab qildi.

Atoqli Rim yozuvchisi va olimi **Mark Terensiy Varron** (m.o. 116-27 y.) xalq xo'jaligida dehqonchilik va chorvachilikni asosiy tarmoq hisoblagan. O'zining iqtisodiy qarashlarini «Qishloq xo'jaligi haqida» nomli asarida bayon etgan. U chorvachilikka katta e'tibor berib, bozor sharoitida uni eng foydali tarmoq deb bilgan. Bunday xulosaga kelishining asosiy sababi shunda ediki, o'sha davrda Italiyada don xorijdan ko'p miqdorda olib kelinganligi sababli ancha arzon bo'lgan, chorvachilik daromadi esa yuqori bo'lgan. Shu bilan birga Varron, har bir xo'jalikning o'zini-o'zi ta'minlashining tarafdori bo'lgan, bozor uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishga esa uncha e'tibor bermagan. Bundan taraqqiyotning iqtisodiy yo'lini tanlashda bozorning rolini Varron yaxshi tushunmaganini ko'rish mumkin.

Rim yozuvchisi **Yuniy Moderat Kolumella** (m.o. I asr) «Qishloq xo'jaligi haqida» nomli kitobida inqiroz va kolonlatning (yirik yer egalari bilan bevosita ishlab chiqaruvchilar - kolonlar o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlari shakli) rivojlanishi davridagi Rim qishloq xo'jaligiga tavsif beradi. Uning fikricha, qullar yerni yaxshi ishlatmaydilar, yerdan yuqori hosil olish uchun qayg'urmaydilar. Varron urug'ni sepishdan boshlab to hosilni yig'ib olishgacha bo'lgan davrda qullar isrofgarchilikka yo'l qo'yishlarini, yaxshi ishlamasliklarini, o'g'irlik qilishlarini va pirovard natijada donni qabul qilishda uning miqdorini hisob daftarida noto'g'ri ko'rsatishlarini aytib o'tgan. U qullar mehnatidan ko'ra erkin, mayda

ishlab chiqaruvchilar mehnatining afzalligini isbotlab berdi. Qullarning imkon boricha yerni ishlamaslikka intilishini ko'rgan Kolumella, bunday yerlarni erkin kolonlarga bo'lib berish, mayda tovar ishlab chiqarishga o'tish zarurligi to'g'risida fikr yuritgan. Bunday fikrning yuritilishi, Kolumellaning ishlab chiqarishni rivojlantirish masalasini nisbatan to'g'ri tushunganligidan dalolat beradi.

Respublika davridagi Qadimgi Rimning jiddiy iqtisodiy muammolaridan biri yerga bo'lgan mulkchilikning oqsuyak patrisiyalar qo'lida to'planishi va italyalik ko'pchilik dehqonlarning yerdan mahrum bo'lishi hisoblanadi. Xonavayron bo'lgan mayda dehqonlarni aka-uka **Tiberiy** (m.o. 162-133 y.) va **Gay** (m.o. 153-121 y.) **Grakslar** himoya qilib chiqishdi. Patrisiyalarning yer mulkini cheklash va agrar masalalarini yyechish maqsadida Tiberiy Grakx m.o. 133 y. qonun qabul qilishni taklif qilib chiqdi. Bu qonunga muvofiq rimlik fuqarolarga davlatning haydaladigan yeridan 500 yuger (125 gektar)gacha ijaraga olish ruxsat etilgan. Bundan tashqari bir oila 1000 yugerdan oshiq yerga egalik qilishi man etilgan. Barcha ortiqcha yerlar davlat ixtiyorida bo'lgan va yerga muhtojlarga avlodlariga qoldirish va uncha ko'p bo'lmagan soliq to'lash sharti bilan 30 yugerdan bo'lib berilgan.

Tiberiy Grakxning agrar loyihasi qisman amalga oshirildi va natijada o'n minglab dehqonlar yer olishga muvaffaq bo'ldilar. Tiberiy Grakx ataylab o'ldirilgandan keyin, uning ishini ukasi Gay Grakx davom ettirdi. Dehqonlarga yer berish qaytadan boshlandi hamda shaharlik kambag'allarga davlat xazinasidan past bahoda don sotish haqida qonun qabul qilindi. Grakxlarning islohoti mayda yer egaligi mavqeini kuchaytirish va aholi kambag'allashuvining oldini olishga qaratilgan edi. Islohot ancha muvaffaqiyatli bo'ldi va hatto Gay Grakx o'limidan keyin ham konservatorlar muhtojlarni yer bilan ta'minlash to'g'risidagi qonunni bekor qila olmadilar.

**Mark Tulliy Sitseron** (m.o.106-43 y.) taniqli davlat arbobi va mashhur notiq bo'lgan. U yashagan davrda mamlakat ancha markazlashgan bo'lib, savdo-sotiq rivojlandi, sudxo'rlik boylik manbaiga aylandi. Qadimgi Yunonistondagi iqtisodiy fikrlaridan farqli ravishda, Sitseron yirik savdoni qo'lladi, mayda savdoni esa mensimadi. Sitseronning sudxo'rlikka bo'lgan munosabati esa ziddiyatli bo'lgan. Bir joyda u sudxo'rlikni ma'qullasa, ikkinchi bir joyda uni qoralaydi. Sitseronning savdo va sudxo'rlikka bo'lgan qarashlarida Qadimgi Rim iqtisodiyotidagi natural va tovar xo'jaligi o'rtasidagi ziddiyat o'z aksini topgan.

Sitseron xususiy mulkchilik, yirik yer egaligi va mustamlakalarda ekspluatatsiyani kuchaytirish tarafdori bo'lgan. Ancha samarali ish turi deb

dehqonchilikni hisoblagan. U bozorni tovar bilan ta'minlashni kuchaytirishda muhim rol o'ynagan.

### **Qisqa xulosalar**

Iqtisodiy fikr qadimgi sivilizatsiyalarda odamlarning iqtisodiy faoliyati to'g'risidagi muayyan qarashlar tizimi ko'rinishida vujudga kelgan. Eramizdan avval dunyo sivilizatsiyasining ikkita markazi - Sharq sivilizatsiyasi va Antik sivilizatsiya vujudga keldi.

Eng qadimiy qo'lyozmalardan biri "Vilbur papirusi"da yer kadastrasi masalasi ko'rib chiqilgan. Boshqaruv masalalari esa "Gerakleopol shohining o'g'li Merikarga nasihatlari" da ko'rib chiqilgan. Iqtisodiy g'oyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, qadimgi Misrda Osiyochoa ishlab chiqarish usuli ijobiy natijalar bergan.

Eshnunn shahri podshosi Bilalama tomonidan eramizdan avvalgi uchinchi ming yillikda 61 ta moddadan iborat Eshnunn podshohi qonunlari va Xammurapi qonunlari ishlab chiqilgan.

Yer. avv. IX - VIII Turon pasttekisligida Amudaryo bo'ylarida yangi g'oya, yangi fikrlar va yangi ta'limot vujudga keldi. «Avesto» boshidan oxirgacha yer yuzida adolat qaror topishi uchun kishilarning rangidan, tilidagi va urf-odatlaridagi farqlaridan qat'iy nazar ularning ro'shnolik hayoti uchun kurashuvchi jasur, halol, pok insonlarni shakllantirish va tarbiyalash g'oyasi bilan sug'orilgan.

Qadimgi Hindiston xo'jaligi, ijtimoiy tuzumi va iqtisodiy fikrlarini o'rganishning asosiy manbai bo'lib «Artxashastra» asari hisoblanadi (m.o. IV asr oxiri). «Artxashastra»da davlatning manfaatini ko'zlagan holda, xo'jalikni yaxshi tashkil qilishga alohida e'tibor beriladi.

Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g'oyalar m.a. VI-III asrlarda shakllangan. Qadimgi Xitoy mutafakkirlari ichida Konfutsiy (m.o. 551-479 y.) alohida o'rin tutadi. Konfutsiyning fikrlari uning shogirdlari yozib qoldirgan «Lun Yuy» («Suhbat va mulohaza») to'plamida aks ettirilgan.

Miloddan avvalgi V-IV asr oxirlarida iqtisodiy fikrning eng yaxshi yutuqlari qadimgi yunon faylasuflari Ksenofont, Aflotun va Aristotel asarlarida aks etgan.

Qadimgi Rimning iqtisodiy tafakkuri va siyosati qishloq xo'jaligi ishlari bilan bog'liq. Buni "XII jadvallar qonunlari" (miloddan avvalgi 451-450 yillar) tasdiqlaydi, bu xususiy mulk huquqini ta'minladi, erkin odamlar va qullar o'rtasidagi qonuniy tafovutlarni belgilab bergan.

### **Asosiy tushuncha va iboralar**

Eshnunn qonunlari, natural xo'jalik munosabatlari, «Artxashastra», mehnat taqsimoti, «ideal davlat», xrematistika.

### **Nazorat va mulohaza uchun savollar**

1. Iqtisodiy fikrlar qachon paydo bo'la boshladi?
2. Sharq sivilizatsiyasining asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
3. Antik sivilizatsiyaning asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
4. Eng qadimiy qo'lyozmalardan biri "Vilbur papirusi"da yer kadastri masalasi qanday hal qilingan?
5. "Gerakleopol shohining o'g'li Merikarga nasihatlari" da qanday masalalar ko'rib chiqilgan?
6. Qadimgi Misrdagi Osiyocha ishlab chiqarish usulining ijobiy va salbiy natijalarini aytib bering.
7. Xammurapi qonunlarida qanday masalalar ko'rib chiqilgan?
8. «Avesto»dagi iqtisodiy g'oyalar haqida gapirib bering.
9. "Artxashastra" asarida qanday iqtisodiy ko'rib chiqilgan?
10. Konfusiy ta'limotida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi masalasi.
11. Legistlar g'oyalarining asosiy mazmuni nimadan iborat?
12. Ksenofont, Platon va Aristotelning iqtisodiy g'oyalari nimadan iborat?
8. Qadimgi Rimdagi iqtisodiy qarashlarning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?

### III. BOB. FEODAL JAMIYATI VA UNING YEMIRILISHI DAVRIDAGI IQTISODIY TA'LIMOTLAR

#### 3.1. Quldorlik jamiyatining yemirilish davrida arab davlatlaridagi iqtisodiy g'oyalalar

**O'rta asrlar** - an'anaviy jamiyatning ko'p asrlik davri bo'lib, Rim imperiyasining qulashi bilan boshlanib (474 yy.) XV asr o'rtalarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. O'rta asrlardagi jamiyat feodal xarakterga ega bo'lib, yerga xususiy mulkchilik va yirik yer egaligining ustunligi bilan ajralib turadi. Bu davrda dunyoviy emas, balki diniy (kanonik) fikrlar ustun bo'lgan.

O'rta asrlar tafakkuridagi eng tipik hodisa - XI-XII asrlarda paydo bo'lgan sxolastika (yun. scholastikos — maktabga, olimga oid) — diniy dunyoqarashni nazariy asoslashga intiluvchi, ilohiyot aqida asoslarini ratsionalistik metodika va formal mantiq masalalari («masala talashish») bilan bog'laydi. O'rta asrlardagi (feodal jamiyati) bizgacha etib kelgan manbalar, iqtisodiy g'oyalalar ham ilohiy xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

**Abu Zayd Abdurrahmon ibn Muhammad ibn Xaldun al-Xadrami al-Ashbili** 1332-yilda Tunis shahrida tug'ilgan. Ota-onasi Ispaniyaning musulmon xalqlaridan. O'z shahrida Qur'on, hadislar, qonunlar, grammatika, poetika fanlarini o'rganib chiqib, Fesda Marinid sultoni Abu Inan bilan birga xizmat qildi. Saroy fitnalari uni Ispaniyaga ketishga majbur qildi (1362), bu yerda u mantiqiy risola va bir qancha she'rlar yozgan, Granadiya amiri nomidan Kastiliya Pedro bilan tinchlik muzokaralarini olib bordi.

Keyinchalik Ibn Xaldun Tunis va Fes sultonlari uchun kotib, ish boshqaruvchi bo'lgan. 1382-yildan u Qohirada yashab, professor, keyin Malikiylarning oliy qozisi (shar'iy qozi) lavozimlarini egallagan.

Ibn Xaldunning iqtisodiy sohadagi asarlari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Ibn Xaldun o'zining "Mukaddima" (Tarixga kirish) tarixiy asarida mamlakatlar va xalqlarning paydo bo'lishi va qulash sabablarini tahlil qildi. U yollanma armiya uchun davlat xarajatlarini kamaytirishga e'tibor qaratdi. Savdo va ishlab chiqarishga to'sqinlik qiladigan soliq va tariflarga qarshi edi. Ibn Xaldun byurokratiya, motivasiya va o'qitishning sustligi tufayli tijorat faoliyatini samarali boshqarishga qodir emasligiga ishongan. Uning fikricha, davlat savdo va ishlab chiqarishda ishtirok etadigan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish va tanazzulning nisbiy qisqarishini kutish kerak. Ibn Xaldun ushbu va boshqa

iqtisodiy tamoyillarni sivilizatsiyalashgan jamiyat qurish uchun zarur shart deb hisoblagan. Olim juda ko'p sonli fundamental tushunchalarni kashf etdi. Adam Smitdan oldin qiymat hamda mehnat taqsimotining ahamiyati va zarurligini bilgan. U mehnat qiymat nazariyasini kashf etishda David Rikardodan oldinda edi va Jon Keynsdan oldin iqtisodiyotni barqarorlashtirishda davlatning rolini ko'rib chiqqan.

Ibn Xaldun iqtisodiyotning funksiyalarini tizimlashtirgan birinchi iqtisodchi bo'lib, iqtisodiy daromad olish uchun texnik bazaning, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va tashqi savdoning ahamiyatini ta'kidladi. U davlatning barqarorlashtirish siyosatini mehnat unumdorligi va aholining bandligini ta'minlash vositasi sifatida tahlil qildi. U optimal soliq solish, davlat xizmatlarini qisqartirish, imtiyozlar va moddiy rag'batlantirish masalalari bilan qiziqdi. Uning ilmiy qiziqishlari doirasiga tashkiliy tuzilma, iqtisodiy kutishlar, me'yoriy-huquqiy asos, qiymat nazariyasi, ishlab chiqarish va boshqa masalalar kirgan.

Uning ta'limoti bizga davlatning hayotiyligini bashorat qilishga, shuningdek ishlab chiqarish va savdo sohasidagi davlat siyosatining oqibatlarini empirik va nazariy jihatdan tushuntirishga imkon beradi.

Ibn Xaldunning so'zlariga ko'ra, davlatning vazifasi iqtisodiy faoliyatga yordam beradigan qonunlar va tartibni saqlash, shuningdek mulk huquqlarini, savdo yo'llarini, tinchlik va barqarorlikni himoya qilishdan iborat bo'lishi kerak. Ishlab chiqarish va savdoga to'sqinlik qilmaydigan maqbul (minimal) soliq solish iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishda alohida rol o'ynaydi. Haddan tashqari yuqori soliqqa tortish, ma'muriyat va armiya sonining ko'payishi savdo va ishlab chiqarishning zaiflashishiga olib keladi, natijada iqtisodiy o'sish pasayadi.

### **Talab va taklif**

Ibn Xaldun tovarlar va xizmatlar narxleri talab va taklif bilan belgilanadi, deb ta'kidlagan. Agar mahsulot kam bo'lib talab mavjud bo'lsa, uning narxi yuqori bo'ladi. Agar u ko'p bo'lsa va talab bo'lmasa, unda uning narxi past bo'ladi. Tadbirkor foyda olish maqsadida tovarlarni talab kam joydan arzonroq sotib oladi va talab yuqori bo'lgan joylarda yuqori narxda sotadi, deydi.

### **Pul-kredit siyosati**

Ibn Xaldun barqaror pul-kredit siyosatini himoya qiladi va valyutaning qiymatini o'ynatadigan hokimiyatga qarshi bo'ladi. Uning fikricha, sun'iy inflyasiya aholining valyutaga bo'lgan ishonchini yo'qolishiga olib keladi. Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri pulning xarid qobiliyatini himoya qilish bo'lishi kerak, buning uchun mustaqil moliyaviy muassasalarni yaratish kerak. Pul miqdori haqida gapirganda, Ibn Xaldun



“pul miqdori mamlakat farovonligi uchun muhim emas” deb ta’kidlagan. Uning fikricha, pul-kredit siyosati barqaror, puxta o’ylangan va pulning xarid qobiliyatini himoya qilishga yo’naltirilgan bo’lishi kerak va aholi pul qadrsizlanishidan himoyalangan bo’lishi kerak.

### **Narxlarni belgilash**

Ibn Xaldun davlatning tovarlar va xizmatlar narxlarini shakllantirishga aralashuviga qarshi bo’lgan. Ibn Xaldunning so’zlariga ko’ra, hukmdorning tovarlarni past narxga sotib olib, yuqori narxda sotish siyosati quyidagi oqibatlarga olib keladi:

1. “Fermerlar va savdogarlar daromad olishlari va o’zlarini ta’minlashlari uchun imkoniyat beradigan savdo-sotiq bilan shug’ullana olmaydilar”;
2. Bunday amaliyot “ularni tadbirkorlikdagi har qanday tashabbusdan mahrum qiladi, bu esa moliyaviy tizimni buzadi”.
3. “Vaqt o’tishi bilan hukmdorning savdoda ishtirok etishi madaniyat va sivilizasiyaning yo’q bo’lishiga olib kelishi mumkin”.
4. Qat’iy belgilangan narxlar siyosati” tadbirkorlik subyektlari uchun juda xavfli, zararli va halokatli, chunki bu ularning daromadlari pasayishiga, ishlab chiqarish faolligini pasayishiga olib keladi” [13].

### **Mulkchilik huquqi**

Ibn Xaldun mulkka bo’lgan huquq sivilizasiyani saqlab qolish garovidir, mulk huquqini himoya qilish va amalga oshirish qonun bilan mustahkamlangan bo’lishi kerak, deb hisoblagan. Uning fikriga ko’ra, “mulkni olish va egalik qilish niyati yo’qolganda, odam uni olish uchun hech qanday harakat qilmaydi. Mulk huquqlarining buzilish darajasi kishilarning mulkka egalik qilish harakatlarini susaytiradi”. Ibn Xaldun mulk huquqini adolat bilan bog’lagan va mulkka tajovuzni adolatsizlik deb hisoblagan.

U bozor bahosi shakllanishining bir qancha qonuniyatlarini ta’riflab, soliqlar va har xil yig’imlar tovar qiymatining oshishiga olib keluvchi omil hisoblanadi, deb ko’rsatib berdi. Ibn Xaldun bozorning rag’batlantiruvchi rolini bilgan: bozor mexanizmi ishlab chiqaruvchilardan mehnat unumdorligini oshirishni va mahsulot sifatini yaxshilashni talab etgan.

Ibn Xaldun pulni xo’jalik hayotining muhim elementi, deb hisoblagan va pul rolini xudo tomonidan yaratilgan metallar ichida - oltin va kumush bajarishini ma’qulladi. Uning fikricha pul «barcha sotib olinadigan» buyumlardagi inson mehnatining miqdoriy mazmunini aks ettiradi. U «mehnatning qiymatini», ya’ni ish haqini tavsiflab, uning miqdori, birinchidan, «kishi mehnati miqdoriga», ikkinchidan, «boshqa mehnatlar ichida uning tutgan o’rniga» va uchinchidan, «odamlarning unga (mehnatga) bo’lgan ehtiyojiga» bog’liq, deb tasdiqladi.

Ibn Xaldun ijtimoiy hayot asosini mehnat faoliyati tashkil etadi deydi. Uning yozishicha «jamiyatning ahvoli, uning boyligi va ravnaqi faqat mehnatga va kishilarni boyligni o'zlashtirishiga bo'lgan ishtiyoqiga bog'liq. Agar odamlar yashash vositalari to'g'risida qayg'urmasalar va ularga egalik qilish uchun mehnat qilmasalar unda bozorda oldi-sotdi bo'lmaydi va odamlar oziq-ovqat qidirib boshqa mamlakatlarga chiqib ketadilar».

### **Islomdagi iqtisodiy g'oyalar**

Insoniyat, jamiyat rivojida har bir taraqqiyot bosqichiga mos bo'lgan ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarish munosabatlariga oid iqtisodiy g'oyalar eng avvalo turli diniy kitoblarda o'z aksini topgan.

Islom dinidagi ijtimoiy adolat qadriyatlarini hozirgi kunda nafaqat Sharqda, balki G'arb davlatlarida ham e'tirof etilmoqda. Masalan AQShning oliy martabali prokurori Robert Xugut Jekson «Islomda huquq» nomli kitobiga yozgan so'zboshisida shunday fikr bildirgan: «Endi shunday vaqt yetib keldiki, biz o'zimizni dunyoda adolatsevar yoki adolat nima ekanligini tushunadigan yagona xalq, deb bilmasligimiz kerak. Negaki islom mamlakatlari o'zlarining qonuniy tizimlarida ushbu maqsadga erishishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yganlar. Ular orttirgan tajribalar bizga qimmatli saboqlar berishi mumkin»<sup>3</sup>.

Islom iqtisodiyoti boshqa tizimlarda bo'lmagan poydevorlar asosida tiklangan:

1. Islomda foiz-ribo, sudxo'rlik yo'q.
2. Inflyasiya (pul qadrining tushishi, qadrsizlanishi) yo'q.
3. Soliqlar yo'q, ya'ni soliq'larga hojat yo'q.
4. Monopoliyaga ruxsat yo'q, erkin bozor bo'lishi kerak.
5. Umumxalq manfaatini shaxslar manfaatidan ustun qo'yish.

Islom dinining asosiy manbai bo'lmish «Kur'oni karim» dagi 293 ta oyat bevosita iqtisodiy masalalarga bag'ishlangan. Islomda jamiyatning mavjud iqtisodiy tengsizlik olloh tomonidan belgilanishi va mol-mulk kishilar uchun bir sinov ekanligi ko'rsatilib, mulk egalari hasad qilmaslikka chaqirilgan.

**Zakot va xayr-ehson masalasi.** Zakot musulmonlarning ma'lum miqdorda daromad, mol-mulkdan ixtiyoriy (islom davlatlarida majburiy) beriladigan soliq bo'lib, islom farzlaridan biri bo'lib, iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. «Baqara» surasining 42-43-oyatlarida «Zakotni ado etinglar», - deyilgan. Uning miqdori va undirish tartib-qoidalari shariat qonunlarida ko'rsatib o'tilgan. Qishloq xo'jaligi, savdo,

<sup>3</sup>Robert Xugurt Jekson. «Islomda huquq» kitobiga so'zboshi. Tehron, N'yu-York, 1955 y, 34-bet

hunarmandchilikdan olinadigan yillik umumiy daromadning qirqdan bir (2,5%) ulushi zakot sifatida machitlarga berilib, undan faqat kambag'allar-tirikchilik o'tkazishi qiyin bo'lgan odamlar, jismoniy ojizlar, yetim-yesirlar, nochor musofirlar va boshqa mustahiq (sadaqa yeyishga loyiq) kishilarga berilgan.

**Qarz olish va qarz berish masalasi.** Islom dinida mulkiy munosabatlar bo'yicha eng ko'p uchraydigan qarz olish-qarz berishga oid muhim ko'rsatmalar avvalo Qur'oni Karimda va boshqa kitoblarda berilgandir. Qur'oni Karimning "Baqara" surasi 282-oyatida qarz olish-qarz berish haqida: "Ey mo'minlar, bir-birlaringiz bilan qarz berishib muomala qilgan vaqtlaringizda... hujjat tariqasida yozinglar"- deyilsa, 283-oyatida esa: Xoh katta, xoh kichik qarz bo'lsin, muddati kelgunicha yozib qo'yishdan erinmanglar, deyiladi. Zero islomda omonatdorlik, ya'ni birovning xaqqiga xiyonat qilmaslik eng ulug' insoniy fazilat hisoblanadi. Aksincha, omonatga xiyonat qilish, birovning haqqini nohaq yeb ketish, o'zlashtirib olish eng og'ir jinoyatlardan biri, deb hisoblanadi va qattiq qoralanadi. Agar qarz muammolari guvohlar ishtirokida hujjatlashtirilsa, kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan ixtiloflar, qarzdan tonish holatlari bartaraf qilinadi. Bu tizim hozirgi davr kredit tizimi bilan nihoyatda hamohangdir. Ammo foiz stavkalarida katta farq bor, buni banklar faoliyati bilan solishtirilsa bilinadi.

#### **Sudxo'rlik (ribo) masalasi.**

Islom dinida foiz olib, sudxo'rlik bilan shug'ullanish "ribo" deb atalib, taqiqlangandir. "Baqara" surasining 275, 276, 278-oyatlarida sudxo'rlik qoralanib, harom deb e'lon qilinadi. "Ribo" deb bir xildagi ikki molni bir-biri bilan almashtirishda ortiqcha talab qilish tushuniladi. Masalan, bir qop bug'doy berib, bir yarim qop bug'doy olish yoki 100 gramm oltinni 120 gramm oltin qilib olish ribodir.

#### **Ribodan chiqish usullari**

##### **Mo'zoratbot**

Mablag'ni foydalanishga bergan kishi foiz emas, balki bo'lajak ishlab chiqarishdagi yoki savdo-sotiqdagi foydaga sheriklik qilishi ko'zda tutiladi. Shartnomada ro'y berishi mumkin bo'lgan zarar ham o'rinda taqsimlanishi ko'rsatiladi.

##### **Bay bil vafu**

Qarz oluvchi o'z mulkini, ya'ni birov molni yoki uyini qarz beruvchiga shartli ravishda garov sifatida sotadi. Qarz beruvchi esa o'sha mulkni qarz oluvchiga nuayyan miqdor pul evaziga ijara beradi. Bu holda qarz beruvchi oladigan ijara puli, bergan mablag'ning foizi emas, balki ijara berilgan uyning ijara puli hisoblanadi va ribo bo'lmaydi.

### **3.1. Rasm. Ribodan chiqish usullari.**

Hadisi shariflarga binoan ribo olti narsada, ya'ni oltin, kumush, bug'doy, arpa, tuz va xurmoda taqiqlangan.

Lekin islom faqihlari qiyosga asoslanib ribo qoidasini boshqa o'ltinadigan mollarga ham qo'llaydilar. Musulmon mamlakatlarida riboga yo'l qo'yilmasligi uchun bir qator iqtisodiy yo'l-yo'riqlar ishlab chiqilgan. Shulardan biri "**Mo'zorabot**" usuli bo'lib, mablag'ni foydalanishga bergan kishi foiz emas, balki bo'lajak ishlab chiqarishdagi yoki savdo-sotiqdagi foydaga sherikchilik qilishi ko'zda tutiladi. Shartnomada ro'y berishi mumkin bo'lgan zarar ham o'rtada taqsimlanishi ko'rsatiladi.

Ribodan chiqishning yana bir usuli "**Bay bil vafo**" bo'lib, unga ko'ra qarz oluvchi o'z mulkini, ya'ni biror molni yoki uyini qarz beruvchiga shartli ravishda garov sifatida sotadi. Qarz beruvchi esa o'sha mulkni qarz oluvchiga muayyan miqdor pul evaziga ijaraga beradi. Bu o'rinda har oy keladigan ijara haqi darhaqiqat asl puldan keladigan foydadan iborat bo'lib, riboni man etuvchi qonunga zid bo'lmaydi. Bu holda qarz beruvchi oladigan ijara puli, bergan mablag'ning foizi emas, balki ijaraga berilgan uying ijara puli hisoblanadi va ribo bo'lmaydi.

**Mulk masalasi.** Islom dinida, uning asosiy kitobi Qur'oni karimda mulk, mulkiy munosabat masalalariga katta e'tibor berilgan. Zero mulkchilik bu-kishilar o'rtasida ishlab chiqarish omillari va mehnat mahsulini o'zgartirish yuzasidan paydo bo'lgan va tarixiy aniq bir shaklda namoyon bo'luvchi iqtisodiy munosabatlardir. Islomda mulk tushunchasi, uning mohiyati odamlar qo'lidagi boylik - bu Allohning boyligi, odamlar esa faqat uning yerdagi boshqaruvchilari ekanligini tan olishdan iborat. 4 - "Niso" surasining 126-oyatida bu haqda: "Har narsaki, Osmonlarda va yerdadir, hammasi xos Xudoning mulkidir"-deyiladi. Shariatda mol-mulklar xususiyatlariga ko'ra, *ko'char* va *ko'chmas mulk*, *bo'linishi mumkin bo'lgan* va *mumkin bo'lmagan mulk*, *asosiy* va *qo'shimcha mulklarga* bo'linadi. Xususiy mulk obyektlari asosan egallangan yerlar, mulklardan iborat bo'lib, ular o'z navbatida vujudga kelishi va soliq to'lanishi yoki to'lanmasligiga qarab "**Mulk xuri-holis**" yoki "**Mulki xiroj**" turlariga bo'lingan. "Mulki xuri-holis" huquqiga ega bo'lganlar asosan yirik yer egalari va jamiyatda imtiyozli shaxslardan iborat bo'lib, ular har qanday soliqlardan ozod kishilar bo'lgan. "Mulki xiroj" huquqiga ega bo'lganlar aholining ko'p qismini tashkil qiluvchi dehqonlardan iborat bo'lib, ular shariat bo'yicha "ushr", ya'ni hosilning o'ndan bir qismi miqdorida xiroj solig'i to'lashlari lozim bo'lgan. Islomda turli ijtimoiy fondlarni tashkil etishga ham ahamiyat berilib, bunday mulkchilik "Vaqf mulki" deb atalgan. Shariatga asosan vaqf mulki turli diniy jamiyatlar,

o'quv yurtlari va boshqa muassasalar foydasiga vasiyat qilib qoldirilgan mol-mulk, ular ixtiyoriga o'tkazilgan turli xayr-ehsonlar, yordamlar hisobiga tashkil etiladi. Vaqf mulkiga ko'chmas va ko'chadigan mol-mulk, sug'oriladigan yerlar, karvonsaroylar, hammomlar, savdo binolari, omborxonalar, tegirmonlar, masjid va madrasa binolari, musofirxonalar, shuningdek foyda keltiradigan boshqa mol-mulklar kirgan. Vaqf mulki muqaddas hisoblanar va hech kim tomonidan tortib olishga, sotib olishga, sotishga, hadya qilishga yo'l qo'yilmagan, uch yildan ortiq ijraga berilmagan<sup>4</sup>.

**Shartnomalar masalasi.** Islom dinidagi mulkiy munosabatlarda turli shartnomalar tuzishga e'tibor qilinib, guvohlar huzurida tasdiqlab olish buyuriladi. Islomda quyidagicha oldi-sotdi shartnomalari mavjud: "Bay qat'iy" shartnomasi bo'yicha sotilgan mol-mulk oluvchiga uning haqi to'lanmasidan oldin topshirilishi ko'zda tutiladi. "Bay-joiz" shartnomasiga asosan taraflar ma'lum va kelishilgan muddat davomida, shartnoma bo'yicha berilgan yoki olingan narsalarni bir-birlariga qaytarib berish sharti ko'zda tutiladi. "Bay fasid" shartnomasi bo'yicha sotilgan mol-mulk uni mazmun yoki shakl jihatdan o'zgartirish, yo qaytadan uchinchi shaxsga sotish mo'ljallangan taqdirda ushbu mol-mulk uning birinchi egasi tomonidan o'z sotgan narxida qaytarib olish sharti bilan tuziladi.



### 3.2.Rasm. Islomda oldi-sotdi shartnomalari

Islom dinida ko'char mol-mulk sotilgan vaqtda shartnoma og'zaki tuzilishiga ijozat berilsa ham, lekin albatta bu shartnoma guvohlar ishtirokida tuzilishi buyuriladi. Ko'chmas mol-mulk bo'yicha shartnoma esa umumiy qoidaga binoan yozma shaklda tuzilib, qozi tomonidan

<sup>4</sup> A.A.Razzoqov, N.T.O'rmonov N., N.A.Alimatova. O'rti Osiyo mutafakkorlarining iqtisodiy g'oyalari O'quv qo'llanma TTDIU, 2010. -295 b

tasdiqlanishi ko'zda tutiladi. Umuman, islomdagi iqtisodiy g'oyalalar insonlar o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni tartibga solish bilan bir qatorda xususiy mulkchilikni himoya etadi.

### 3.2. G'arbiy Yevropadagi iqtisodiy g'oyalarning asosiy mohiyati

O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada juda ko'p feodal davlatlar vujudga keldi. Katta boylik va yerga egalik qilish huquqiga ega bo'lgan ruhoniylar krepostnoylik (yirik yer egalarning o'ziga qarashli dehqonlarga, ularning mehnati va mol-mulkiga cheksiz egalik qilishi)ning hukmronligini cherkov qonunlari yordamida himoya qiladilar.

O'rta asrlarda G'arbiy Yevropadagi iqtisodiy g'oyalalar ham diniy, kanonik xarakterga ega bo'lib, ularni ikkita davrga ilk kanonistik va so'nggi kanonistik g'oyalarga ajratish mumkin.

**Kanonistlar** - qadimgi davrlarda cherkov qonunlarini talqin qilish va kodlash bilan shug'ullangan odamlar.

O'rta asrlarda G'arbiy Yevropadagi iqtisodiy g'oyalalar muallifi italiyalik rohib **Foma Akvinskiy** (1225-1274) hisoblanadi. Uning asosiy asari "Teologiya yig'indisi" traktatida iqtisodiy kategoriyalarga axloqiy-etik tavsif berilgan. Foma Akvinskiy IV-asr oxiri V-asr boshlarida Shimoliy Afrikadagi Rim imperiyasining episkopi sifatida diniy-axloqiy yondashuv va ilk kanonik maktab asoschilaridan biri Avgustin Blajenniyning (353-430) munosib davomchisi va raqibi bo'lgan. U iqtisodiy muammolarga diniy va axloqiy yondashuvning dogmatik tamoyillarini kiritdi.

O'rta asrlarda ilk kanonistlar tijorat foydasi va sudxo'rlikni keskin qoralaganlar, buni ular noto'g'ri ayirboshlash va birovning mehnatini o'zlashtirish natijasida yuzaga kelgan, deb hisoblaganlar. "Adolatli narxlar" o'rnatilgandagina ekvivalent va proporsional almashinuv mumkin, deb hisoblanadi. Yirik savdo-sotiq va suda operatsiyalari gunoh hisoblanib, taqiqlangan.

Shuningdek, cherkov qonunlari mualliflari, antik dunyo qarashlariga xos bo'lgan jismoniy mehnatga nisbatan nafratli munosabatlarga, ko'pchilik aholining zarar ko'rishi hisobiga ayrim shaxslarning boylik orttirish huquqiga qarshi chiqdilar. Yirik savdo, suda operatsiyalari, gunoh ish sifatida, umuman man etilgan.

Ammo jamiyatning tabaqalashuvi kuchaygan, shaharlarning soni va iqtisodiy qudrati oshgan, unda dehqonchilik bilan birga hunarmandchilik, savdo va sudxo'rlik rivojlana boshlagan, ya'ni tovar-pul munosabatlari jamiyat va davlat taqdiri uchun muhim ahamiyatga aylangan. O'rta asrning oxirgi davriga kelib, so'nggi kanonistlar iqtisodiy muammo va ijtimoiy tengsizlik sabablarini tushuntiruvchi «dalillar» doirasini ancha

kengaytirdilar. Ilk kanonistlar asoslagan uslubiy baza, eng avvalo, avtoritar isbotlash (diniy kitob va cherkov nazariyotchilari asarlaridan dalil keltirish vositasi orqali) va iqtisodiy kategoriyalarni axloqiy-etnik tavsiflashdan (shu jumladan «odil narx» to'g'risidagi qoida ham) iborat bo'lgan. Bu tamoyillarga so'nggi kanonistlar izohlash, aniqlash, qo'shimcha qilish yo'li bilan o'rganilayotgan aniq xo'jalik hodisalarining va iqtisodiy kategoriyalarning avvalgi tadqiqot ma'nosini o'zgartirish va hatto qarama-qarshi ma'no keltirib chiqarish imkonini beruvchi ikki yoqlama baholash tamoyilini qo'shdi. Akvinat undan foydalangan holda boylik, qiymat (qimmat), pul, savdo foydasi, sudxo'rlik foizi singari boshqa iqtisodiy kategoriyalarni tadqiq qildi. Ularni quyidagi tartibda ko'rib chiqamiz.

Avgustin davridan boshlab kanonistlar tomonidan boylik moddiy ne'matlar yig'indisi sifatida, ya'ni natural shaklda qaralgan. Agar boylik unga sarflangan mehnat bilan emas, balki boshqa vositalar yordamida yaratilgan bo'lsa, gunoh deb tan olingan. Bu qat'iy qoidaga muvofiq noinsoflik bilan oltin va kumushning jang'arilishi jamiyatning axloqiy va boshqa normalariga zid hisoblangan. Ammo Akvinat fikri bo'yicha, «odil narxlar» xususiy mulkni ko'paytirish va «o'rtacha» boylik yaratishda inkor etib bo'lmaydigan manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu uningcha, gunoh hisoblanmaydi.

Qadimgi Dunyoda va o'rta asrlarda ayirboshlash tadqiqotchilar tomonidan mutanosib va ekvivalent qoidasiga asoslangan, odamlarning xohishi tufayli bo'ladigan akt sifatida qabul qilingan. Bu prinsipni inkor etmagan holda, noekvivalent bo'lib tuyulgan ayirboshlash, subyektiv jarayon sifatida, tomonlarga teng foyda keltirishi mumkinligini Akvinat ko'rsatib berdi. Boshqacha aytganda, agar buyum «bir odamni foydasi boshqa odamning zarar ko'rishini hisobidan kelib tushsa», o'shandagina ayirboshlash sharti buzilgan bo'ladi.

<b>Kanonistik g'oyalar</b>	
<b>Ilk kanonistlar</b> <i>Avgustin Blajenny</i>	<b>So'nggi kanonistlar</b> <i>Foma Akvinskiy</i>
<b>Mehnat taqsimoti</b>	
Aqliy va jismoniy mehnat turlari teng bo'lib, insonning jamiyatdagi mavqeiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak.	Odamlarni kasb va sinf bo'yicha bo'linishi, ilohiy iltifot va odamlarning moyilligi bilan bog'liq.

<b>Boylik</b>	
Inson mehnati boyliklarni moddiy boyliklar, shu jumladan oltin va kumush shaklida yaratadi. Ikkinchisining mehnatsiz to'planishi ("sun'iy boylik") gunohdir	Oltin va kumush xususiy mulkni ko'paytirish va "o'rtacha boylik" manbai sifatida qaraladi.
<b>Ayirboshlash</b>	
Ayirboshlash mutanosiblik tamoyiliga muvofiq amalga oshiriladi va odamlarning xohish-irodasini erkin ifoda etish shaklidir.	Subyektiv jarayon sifatida ayirboshlash har doim ham olinadigan foyda tengligini ta'minlay olmaydi, chunki ushbu jarayonda "birovning foydasi boshqa birovning zarari hisobiga keladi".
<b>Adolatli baho</b>	
Mahsulotning qiymati uni ishlab chiqarish jarayonida mehnat va moddiy xarajatlarga asosan "adolatli narx" tamoyiliga muvofiq belgilanishi kerak.	"Adolatli narx"ni belgilashning xarajatlar tamoyili noto'g'ri, chunki u sotuvchiga uning jamiyatdagi mavqeiga mos keladigan miqdordagi pulni yetkazib bermasligi va zarar yetkazishi mumkin.
<b>Pul</b>	
Pul - bu odamlarning ixtirosi bo'lib, u bozorda ayirboshlash operatsiyalarini tezlashtirish va osonlashtirish uchun zarurdir.	Ichki bozorda pul (tangalar)ning qiymati uning tarkibidagi metallarning og'irligiga emas, balki davlatning xohishiga ko'ra belgilanishi kerak.
<b>Savdo foydasi va sudxo'rlik foizi</b>	
Yirik savdo va suda operatsiyalaridan olinadigan tijorat foydasi va sudxo'rlik foizi birdan-bir maqsadga aylanishi sababli ularni xudoga yoqmaydigan va gunoh ish sifatida hisoblash kerak	Savdogarlar va sudxo'rlarning katta daromadlari faqat mehnat orqali olinganligi, transport va boshqa xarajatlar bilan bog'liq bo'lgan taqdirda, shuningdek, munosib faoliyatda yuzaga keladigan xavf bilan bog'liq bo'lganda ruxsat etiladi.

### *3.3. Rasm. Ilk va so'nggi kanonistlarning fikrlari*



«Odil narx» - bu kategoriya kanonistlar ta'limotida «qiymat» (qimmat), «bozor bahosi» o'rnida ishlatilgan. Ilk kanonistlar uning darajasini tovar ishlab chiqarish jarayonidagi mehnat va moddiy sarflarga bog'lab tushuntirganlar. Ammo Akvinat «odil narx»ga bo'lgan sarfli yondashuv tushunchasini yetarli emas, deb hisobladi. Uning fikricha, sotuvchi o'z mavqeiga qarab buyumni «o'z narxidani ko'ra qimmatroq sotishi mumkin». Akvinat pul (moneta)ni Qadimgi Dunyo va ilk kanonizm mualliflariga o'xshash talqin qiladi. Uning ta'kidlashicha pul «savdoda ... ishonchli o'lchov birligiga» ega bo'lish uchun kishilarning xohishi tufayli kelib chiqqan. Olim monetaning «ichki qimmatga» ega ekanligini tan olsada, davlat moneta qimmatini uning «ichki qimmatiga» nisbatan bir oz o'zgartirishga haqli deb hisobladi. Bu yerda Akvinat o'zining ikki yoqlamalik tamoyiliga sodiqligini yana bir bor ko'rsatdi, ya'ni bir tomondan, monetalarni buzish tashqi savdoda pulning qadr qimmatini yo'qotilishiga olib kelishini tan olgan, ikkinchi tomondan esa – pulning «nominal qiymatini» davlatning o'z xohishi bo'yicha o'rnatish huquqiga ishongan. Arastudan keyin Akvinat «pul pulni keltirib chiqarmaydi» deb ta'kidlab o'tgan.

Savdo foydasi va sudxo'rlik foizi kanonistlar tomonidan qoralangan va gunoh, deb hisoblangan. Akvinat ham ularni shartli ravishda «ayblagan». Negaki, uning fikricha, savdo foydasi va suda uchun foiz muvofiq ravishda savdogar va sudxo'r tomonidan o'zlashtirilishi kerak, agar ular bunda axloq-odob doirasida ish yuritgan bo'lsalar. Boshqacha so'z bilan aytganda, mazkur turdagi daromad savdo va suda operatsiyasidagi mehnat, transport va boshqa xarajatlar va hatto xatar (risk) uchun to'lanadigan haq bo'lmog'i kerak.

### 3.3. O'rta asrlardagi utopik g'oyalar

XIV-XV asrlarda manufaktura ishlab chiqarishining vujudga kelishi va ilk kapital jamg'arilishi davrida ishlab chiqarish nisbatan o'sdi, fan va texnika rivojlandi. Eski feodal munosabatlar yemirilib, yangi burjuakapitalistik munosabatlar tug'ila boshladi, ayniqsa, dehqonlarning o'z yerlaridan siqib chiqarilishi, mustamlakachilik, iqtisodiy ekspansiya, urushlar oddiy xalqqa katta ofat keltirdi. Oqibatda kapitalizmning shakllanishi bilan uni tanqid qilish ham boshlandi, buni ilk sotsial-utopistlar **Tomas Mor** (1478-1535) va **Tommazo Kampanella** (1568-1639) amalga oshirdi.

T.Mor «Utopiya» (lot. yo'q joy) (1516) asarida Angliyada ilk kapitalning jamg'arilishi jarayonida dehqonlarning ommaviy qashshoqlashish jarayonini aks ettirgan. U «*qo'ylar odamlarni eb qo'ydi*» iborasining muallifidir. Shu davrda dehqonlarni yerdan siqib chiqarish

siyosati amalga oshirildi. Bu jarayon manufaktura, keyinroq esa fabrika rivoji bilan bog'liq edi. Mato to'qish, jun, ayniqsa qo'y juniga bo'lgan ehtiyojni oshirib yubordi. Dastlab botqoq, chakalakzor yerlar o'rab olindi va qo'y boqish uchun yaylovga aylantirildi, keyinchalik dehqonchilik qilinayotgan yerlar ham tartib olinib, dehqonlar - *yomenlar* sinf sifatida tugatildi. Ular yerdan mahrum qilindi va ko'chaga haydaldi. Bu o'ziga xos agrar inqilob - sanoat to'ntarilishi uchun sabab bo'ldi, lekin millionlab aholi qashshoqlikka mahkum etildi. Shu voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan T.Mor qayerdagi xususiy mulk hukmron bo'lsa, asosiy boylik bir quchoq odamlar qo'lida to'planadi, degan xulosaga keldi. Yana sotsial ofatning asosi puldir, degan edi u. Xayoliy «utopiya» mamlakatida ijtimoiy mulkchilik (xususiy mulk bo'lmagan), umumiy mehnat bo'lgan, qishloq va shahar o'rtasidagi tafovut yo'q edi, ishlab chiqarish tartibga solingan, ish kuni olti soat bilan cheklangan, pul yo'q qilingan, taqsimot tekis va bosqinchilik urushlari yo'q edi. T.Mor shunday jamiyatni qurish mumkin, deb o'ylagan.

**T.Kampanella** Neapol (Italiya) mehnatkashlarining qashshoqligini ko'rgan. U o'zining «**Oftob shahri**» (1602 y. yozilgan, 1623-yilda chop etilgan) kitobida zolimlarning shohona hayotini tanqid qiladi, u ham T.Mor kabi, bu tengsizlikning asosiy sababi xususiy mulkchilik, deydi. U kelajak jamiyat to'g'risidagi o'z tasavvurini ham beradi, ular T.Morga o'xshash: ijtimoiy mulkchilik mavjud, hammaning mehnat qilishi zarur, mashina mehnati qo'llanilganligi tufayli ish kunlari cheklangan (4 soat), aqliy mehnat jismoniy mehnat bilan almashtirib turiladi, bunda hunarmandchilik, chorvachilik va dehqonchilik bilan nisbatan tekis shug'ullanish shart qilib qo'yiladi, tekis, pulsiz taqsimot amalga oshiriladi. Uning «Oftob shahri» asari dengizchining hikoyasi shaklida berilgan. Yangi jamiyatda olim kohinlar tabaqasi tomonidan boshqariluvchi ideal jamoa bo'ladi, xususiy mulk va oila bo'lmaydi, bolalar davlat tomonidan tarbiyalanadi, fan va maorif taraqqiy etadi.

Faylasuflarning bergan bahosiga ko'ra, bu olimlarning jamiyati «*xomaki ishlangan*» «*qo'pol kommunizm*»dir. Ular asosan hunarmandchilik va dehqonchilikka asoslangan tenglashtirish xususiyatiga ega. Xayoliy sotsializm to'g'risidagi ilk g'oyalar Osiyoda **Abu Nasr ibn Muhammad Forobiy**, Germaniyada **Tomas Myunserlar** tomonidan ham ilgari surilgan. Keyinchalik Abduraxmon Jomiy va Alisher Navoiy asarlarida ham bunday g'oyalar bor.

### **Qisqa xulosalar**

**O'rta asrlar** - an'anaviy jamiyatning ko'p asrlik davri bo'lib, Rim imperiyasining qulashi bilan boshlanib (474 yy.) XV asr o'talarigacha

bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. O'rta asrlardagi jamiyat feodal xarakterga ega bo'lib, yerga xususiy mulkchilik va yirik yer egaligining ustunligi bilan ajralib turadi. Bu davrda dunyoviy emas, balki diniy (kanonik) fikrlar ustun bo'lgan.

Ibn Xaldun o'zining "Mukaddima" (Tarixga kirish) tarixiy asarida mamlakatlar va xalqlarning paydo bo'lishi va qulash sabablarini tahlil qildi. Uning ta'limoti bizga davlatning hayotiyeligini bashorat qilishga, shuningdek ishlab chiqarish va savdo sohasidagi davlat siyosatining oqibatlarini empirik va nazariy jihatdan tushuntirishga imkon beradi.

Insoniyat, jamiyat rivojida har bir taraqqiyot bosqichiga mos bo'lgan ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarish munosabatlariga oid iqtisodiy g'oyalar eng avvalo turli diniy kitoblarda o'z aksini topgan. Islom dinining asosiy manbai bo'lmish «Kur'oni karim» dagi 293 ta oyat bevosita iqtisodiy masalalarga bag'ishlangan. Islomda jamiyatning mavjud iqtisodiy tengsizlik Olloh tomonidan belgilanishi va mol-mulk kishilar uchun bir sinov ekanligi ko'rsatilib, mulk egalarini hasad qilmaslikka chaqirilgan.

Islom dinida foiz olib, sudxo'rlik bilan shug'ullanish "ribo" deb atalib, taqiqlangandir. "Baqara" surasining 275, 276, 278-oyatlarida sudxo'rlik qoralanib, harom deb e'lon qilinadi. "Ribo" deb bir xildagi ikki molni bir-biri bilan almashtirishda ortiqcha talab qilish tushuniladi.

O'rta asrlarda G'arbiy Yevropadagi iqtisodiy g'oyalar ham diniy, kanonik xarakterga ega bo'lib, ularni ikkita davrga ilk kanonistik va so'nggi kanonistik g'oyalarga ajratish mumkin.

O'rta asrlarda G'arbiy Yevropadagi iqtisodiy g'oyalar **Foma Akvinskiyning** asosiy asari "Teologiya yig'indisi" traktatida iqtisodiy kategoriyalarga axloqiy-etik tavsif berilgan.

O'rta asrlardagi utopik g'oyalar Tomas Mor va Tommazo Kampanella asarlarida o'z ifodasini tropan.

#### **Asosiy tushuncha va iboralar**

Zaruriy buyumlar; «zarur bo'lmagan buyumlar»; ehtiyojlar; «ideal shahar»; «ideal davlat»; raiyat, mehnat xususiyatlari.

#### **Nazorat uchun savollar**

1. Ibn Xaldunning narxlarni belgilash va mulkchilik huquqi to'g'risidagi fikrlarini izohlang.
2. Islomda mulk va mulkiy munosabatlar qanday hal qilingan?
3. Islom dinidagi ijtimoiy-iqtisodiy g'oyalarning ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Islomda zakot va xayr-ehson masalasi qanday qo'yilgan?
5. Meros masalasining hal etilishini izohlab bering?
6. Islomda qarz olish va qarz berish masalasi qanday yechilgan.

## IV. BOB. MARKAZIY OSIYODAGI TEMURIYLAR DAVRIDAGI IQTISODIY G'UYALAR

### 4.1. Temuriylar davrigacha bo'lgan mutafakkirlarning iqtisodiy fikrlari

O'rta asrlarda Markaziy Osiyo mustaqil davlatlarining tashkil topishi, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilan aloqalarning kuchayishi ularning fan va madaniyatining yana ham rivojlanishiga katta turtki bo'ldi. Markaziy Osiyo X-XIV asrlarda Sharqda ilg'or ijtimoiy tafakkur rivojlangan bir markazga aylandi. Bu davrda dunyoga mashhur bo'lgan Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib va boshqa ko'plab olim va shoirlar etishib chiqdi. Ularning asarlarida iqtisodiy fikrlar ham o'z aksini topgan.

O'rta asrlar davrida ilg'or iqtisodiy fikrlarni ilgari surgan buyuk mutafakkirlardan biri, Arastuning izdoshi, uning asarlarini tahlil qilgan «muallimi soniy» (ikkinchi muallim) **Abu Nasr Forobiy** (873-950) hisoblanadi.

«Ikkinchi muallim» bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan moddiy ehtiyojlar to'g'risida ta'limot yaratdi. Uning fikricha, odamlarning ehtiyoji jamiyat shakllanishining asosiy sababidir. «Tabiatan har bir odam shunday yaralganki, u yashashi va kamol topishi uchun ko'p narsalarga ehtiyoj sezadi. Ularni u bir o'zi topa olmaydi va ularga erishish uchun kishilar jamoasiga muhtoj bo'ladi, uning har biri u ehtiyoj sezayotgan narsalardan biron-birini beradi. Bunda har bir odam boshqalarga nisbatan xuddi shunday holatda bo'ladi». Jamiyat shakllanishi uchun moddiy ehtiyojlarni bunday tushunish o'sha davrdagi ilg'or fikrlardan hisoblanadi. Shu bilan birga moddiy boylik yaratishdagi mehnat va mehnat qurollarining rolini, har xil hunar turlarini uqtirib o'tgach, u qullikka keskin qarshi chiqdi.

Forobiy, Aflotun kabi ideal tuzum to'g'risida tafakkur yuritdi. U kelajak haqida o'ylab, baxtga erishishning zarur va birlamchi shartini tashkil etuvchi o'zaro yordam va do'stlik tufayli bo'ladigan shaharni ideal shahar deb hisobladi; yer yuzida barcha xalqlarning o'zaro yordami asosida bir butun yagona jamiyat qurish mumkinligi to'g'risida, mahsulotlarni adolatli taqsimlash haqida fikrlar bildirdi. Ammo al Forobiy mazkur o'zaro yordamning iqtisodiy asosi – mehnat mahsulotlarini ayirboshlashning zarurligini ko'rsatib bera olmadi. Shu narsani qayd qilib o'tish kerakki, al Forobiy iqtisodiy savollarni ikkinchi o'ringa surib qo'ydi. Bu ayniqsa uning davlat haqidagi talqinida ko'rinadi, unda adolat o'rnatish, ommani ma'rifatli qilish uning asosiy funksiyalaridan, deb

e'tirof etiladi.

### **Abu Ali ibn Sinoning iqtisodiy qarashlari**

O'rta Osiyo mutafakkiri **Abu Ali ibn Sinoning** (980-1037) 280 dan ko'p asarlari mavjud bo'lib, ular tibbiyot, matematika, astronomiya, kimyo, falsafa, iqtisodiyot va boshqa sohalarga bag'ishlangan.

Abu Ali ibn Sinoning inson ehtiyojlari, mehnat va uning moddiy ishlab chiqarishdagi o'rni haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir. Uning fikricha «hayvon tabiat ne'matlariga qanoat qiladi, insonga esa tabiat ne'matlari kamlik qiladi, u oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joyga ehtiyoj sezadi. Hayvonlar tabiat ne'matlarini o'zlashtiradi, inson esa o'z mehnati bilan o'ziga ovqat, kiyim-kechak, uy-joy yaratadi. Shu maqsadda inson dehqonchilik bilan shug'ullanishi kerak. Hayvonlar garchi poda bo'lib yashasalar ham, yolg'iz yashay oladi, odamlar esa yakka holda o'zlari uchun barcha yashash vositalarini yarata olmaydilar. Shuning uchun odamlar muloqot va o'zaro yordamga muhtoj bo'ladilar».

Abu Ali ibn Sino feodal jamiyatning asosiy muammolarini tadqiq qiladi. U jamiyatning asosiy faoliyati deb hunarmandchilikni tan olgan. «Odamning o'z quvvatini saqlashga va oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoji, - deb yozadi Abu Ali ibn Sino, - hammani hunar o'rganishga undaydi.»

Abu Ali ibn Sino nafaqat oila doirasidagi, balki shahar va hatto davlat miqyosidagi daromad va xarajatlar balansi to'g'risida ham fikr yuritadi. Uning fikricha, davlat tabiiy ofat yoki urush bo'lish ehtimolini hisobga olib, unga mablag' ajratgan holda daromad va xarajatlar balansiga erishishi zarur.

Abu Ali ibn Sino ideal davlat to'g'risida fikr yuritib, uni quyidagicha tavsiflab beradi: hamma o'z foydasini ko'zlab mehnat qilishi kerak; bu davlatda barcha moddiy boyliklar shunday tekis taqsimlanishi kerakki, unda juda katta boylik va ashaddiy qambag'allik bo'lmasin; barcha kishilar halol mehnat bilan shug'ullanishi va halol savdo qilishi sababli urushadigan odamlar bo'lmaydi va urushlar tugatiladi, davlatlar o'rtasidagi siyosiy bahslar esa tinch yo'l bilan yechiladi; ideal davlatda odamlarda hamma narsa muhayyo bo'ladi va shuning uchun ular bir-biriga qarama-qarshi bo'lmaydilar, quvnoq ashula va musiqani yaxshi ko'radilar, uzoq vaqt qarimaydilar.

Ibn Sinoning ideal davlat to'g'risidagi qarashlari Aflotunning «Qonun»larida, Arastuning «Afina siyosatchilari»da, al Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida aytilgan fikrlariga ko'p jihatdan o'xshab ketadi.

### **Yusuf Xos Hojibning iqtisodiy fikrlari**

Iqtisodiy fikrlarning rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan XI asrda

yashab ijod etgan buyuk shoir va mutafakkir deb Yusuf Xos Hojib Bolasog'uniy hisoblanadi. U jamiyatning rivojlanishida mehnatning rolini ko'rsatib o'tgach, shunday deydi: «Odamga foydasi tegmagan odam - murda» va «O'tgan umr achinarli emas, balki sarflangan mehnat achinarlidir». Yusuf Xos Hojib mehnatga tavsif berish bilan cheklanmasdan, balki mehnat taqsimotining ahamiyatiga ham alohida e'tibor qaratdi. U dehqonchilikda, chorvachilikda, hunarmandchilikda yaratiladigan moddiy boyliklarning xususiyatlarini ko'rsatib berdi, aynan dehqon mehnati odamlarni boqadi va kiyintiradi, chorvador esa yeyish, kiyish va minish uchun foydalanadigan otlarni, tuyalarni va boshqa hayvonlarni ko'paytiradi, deb qayd qilib o'tadi. Shular bilan birga hunarmandlar turmush uchun kerak bo'lgan buyumlarni yaratadilar. Olimlarning mehnatiga yuqori baho beriladi.

Yusuf Xos Hojib pulning qiymat o'Ichovi, muomala vositasi, jamg'arish vositasi funksiyalarini aytib o'tadi. Uning fikriga ko'ra, davlatning qudrati nafaqat armiyada, balki xazina mablag'larida hamdir. Lekin davlat qimmatbaho buyumlarni jamg'arish bilan qiziqib ketmasligi, davlat mablag'larining bir qismini xalq manfaatlari yo'lida sarflashi lozim. Yusuf Xos Hojibning bu fikrlarining to'g'ri ekanligini hayotning o'zi tasdiqladi.

#### **4.2. Amir Temurning iqtisodiy siyosati**

Amir Temur davlat ishlarini olib borishda o'ziga xos iqtisodiy usullarni qo'llagan. Sohibqiron davlat fuqarolarini 12 toifaga bo'lgan va ularning qaysi toifaga mansubligidan kelib chiqqan holda, ularga vazifalar belgilagan. Bu ishlarni bajarilishini ta'minlash uchun devoni buzrug (bosh vazir)dan tashqari, har bir viloyatda Devon deb nomlangan boshqarma ta'sis etgan. U davlatning barcha ishlarini: soliq yig'ish, tartib saqlashni, ijtimoiy binolar - bozorlar, hammomlar, yo'llar, suv inshootlari tarmoqlarini nazorat qilib turgan. Uning xodimlari vaqti-vaqti bilan tekshirish va taftish ishlarini olib borgan. Ayniqsa, toshu-tarozining to'g'riligi, odil baho tekshirib turilgan, qallob va tovlamachilar qattiq jazolangan.

Mamlakatda ko'rilgan bunday va shu kabi boshqa chora-tadbirlar, birinchi navbatda, raiyatning qashshoqlikka, mamlakatning esa og'ir ahvolga tushib qolishining oldini olishga qaratilgan. Negaki, Amir Temur «Raiyatni xonavayron qilish davlat xazinasining qambag'alashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa, sipohlarning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi Sipohlarning tarqoqligi esa, o'z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi. Fath etilgan yerlik fuqaro azaldan berib kelingan xiroj miqdoridan rozi bo'lsa, ularning roziligi bilan ish ko'rsinlar.

Xirojni ekindan olingan hosilga va yerning unumdorligiga qarab yig'sinlar. Fath etilgan har bir mamlakatning mol-mulkini, buyumlarini talon-tarojdan saqlansinlar. O'sha mamlakatdan tushgan o'lja mollarni hisob-kitob qilsinlar», deb ko'rsatib bergan.

Mamlakatda dehqonchilikka katta e'tibor berilgan bo'lib, yerga egalik qilish quyidagi ko'rinishda bo'lgan:

**1. Suyurg'ol yerlar.** Katta hajmdagi bu yerlar davlat tomonidan ajratib berilib, bir avloddan ikkinchisiga o'tgan. Suyurg'ol egasi soliqdan ozod qilingan. Bunday yer egalari dehqonlarni ishlatib, yer solig'i - xiroj olganlar.

**2 Tarxon yerlar.** Bu yerlar xususiy mulk bo'lib, ular odamlarga biron-bir xizmati uchun berilgan.

**3. Ushr yerlar.** Sayid va xo'jalarga mansub yerlardir. Bundan olingan hosilning o'ndan biri davlatga berilgan.

**4. Vaqf yerlar.** Masjid, madrasa, xonaqoh, qabriston va shu singari joylarga doir yerlardir. Vaqfda yer, suv, bozor, qul, pullar va boshqalar mol-mulki bilan in'om etiladi.

**5. Askarlarga, ularning rahbarlariga beriladigan yerlar.**

Kimda-kim biron sahroni obod qilsa yoki qoriz (yer osti suviarnini tortib chiqarish uchun qurilgan inshoot) qursa, biron bog' ko'kartirsa yoxud birerta xarob bo'lib yotgan joyni obod qilsa, birinchi yili undan soliq olinmagan. Ikkinchi yili rayyat o'z roziligi bilan berganini olgan. Uchinchi yil xiroj yig'ilgan. Mazkur muammoga bunday yondashuv ishlab chiqarishni rivojlantirishda ijobiy rol o'ynagan.

Amir Temur Ispan, Ingliz va Farang qirollariga murojaat qilib, xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishga harakat qilgan. Mashriqdan Mag'ribgacha bo'lgan savdo-sotiq ishlarini kuchaytirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratib berilgan. Masalan, bir kunlik karvon yo'lida barcha narsa muhayyo etilgan (karvonsaroyda doimo ot, em-xashak, oziq-ovqat, suv bo'lgan, sardobalar qurilgan), qaroqchilar qattiq jazolangan. Shu narsaga alohida e'tibor berish kerakki, chetdan olib kelingan tovarlar ustiga 10 foiz narx qo'shib sotish mumkin bo'lgan. Bu hozirgi davr tili bilan aytganda, birinchidan, chet el tovarlariga bo'lgan talabni kuchaytirsa, ikkinchidan, aholining iste'mol buyumlariga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirish imkonini beradi.

Amir Temurning iqtisodiy fikrlari «Temur tuzuklari»da bayon etilgan bo'lib, quyida biz ko'rib chiqmoqchi bo'lgan g'oyalar mazkur asar asosida keltirilgan. Unda o'sha davrdagi davlatning 12 ijtimoiy toifadan iborat bo'lganligi ko'rsatilgan:

1. Sayidlar, ulamo, mashoyix, fozil kishilar (din ahllari).

2. Ishbilarmon, donishmand odamlar.
3. Xudojo'y, tarkidunyo qilgan kishilar.
4. No'yonlar (tuman boshlig'i), amirlar, mingboshilar, ya'ni harbiylar.
5. Sipoh va raiyat (soliq to'lovchi xalq).
6. Maxsus ishonchli kishilar.
7. Vazirlar, sarkotiblar.
8. Hakimlar (faylasuflar, donishmand, allomalar), tabiblar, munajjimlar, muhandislar.
9. Tafsir va hadis olimlari.
10. Ahli hunar va san'atkorlar.
11. So'fiylar.
12. Savdogar va sayyohlar<sup>5</sup>.

Davlat taqdirini esa podsho, xazina, askar hal qiladi deyilgan. Qo'shin a'zolarining maoshi to'g'risida aniq ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, oddiy sipoh o'zi mingan ot bahosiga teng miqdorida maosh olishi, bahodirlar ikki ot bahosidan to'rt ot bahosigacha maosh olishi, o'nboshi o'z qaramog'idagi askarga nisbatan ikki barobar ko'p, yuzboshi o'nboshidan ikki marta ortiq maosh olishi tayinlangan.

«Temur tuzuklari» da soliqlar va jarimalarni yig'ish va xarj (sarf) qilishga alohida e'tibor berishgan. «Xirojni yig'ish vaqtida, - deb uqtiriladi «Temur tuzuklari»da, - ikki vazir tayinlansin. Biri to'plangan molni yozib, raiyat ahvolini tekshirib tursin, boj oluvchilar fuqaroga zulm qilib, ularning ahvoriga xaroblik etkazmasinlar. Viloyatlarda yig'ilgan barcha mol-ashyoni kirim daftariga yozishlari lozim. Ikkinchi vazir esa, chiqim daftariga yozib, yig'ilgan mollardan sipoh maoshiga taqsim qilsinlar». Demak, ko'rinib turibdiki, hozirgi davr tili bilan aytilganda, hisob-kitob ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilishi talab etilgan. Xiroj, odatda sug'oriladigan yerlarda jami hosilning uchdan biri (33 foiz), lalmikor yerlarda to'rt dan biriga (25 foiz) teng bo'lgan miqdorda to'plangan. Bu raqamlar uning hozirgi davrdagi daromad solig'i atrofida bo'lganligini ko'rsatib turibdi.

Amir Temur o'qimishli, olim odamlarning mehnatiga yuqori baho bergan. «... Sayidlar, olimlar va fozillarga dargohim doim ochiq edi, - deyiladi «Tuzuklar»da, - chunki bu insonlar mamlakat rivojida ustundirlar». Amir Temur Shom yurtini qo'lga olganda (1401 y.) taniqli olim Ibn Xaldun (1332-1406) asirga tushib qoladi, sohibqiron uning olimligini bilgach, u bilan suhbatlashib, izzat-ikrom bilan uni qo'yib yuboradi.

Dehqonlar, kasb-hunar egalari savdogarlarga o'z ishlarini yuritish

<sup>5</sup>A. Temur «Temur tuzuklari» Toshkent, 1991 y.



uchun urug', asbob, sarmoya berib, sharoit yaratishga e'tibor berilgan. Ayniqsa, tashlandiq, qo'riq erlarni ochish, qoriz o'tkazish rag'batlantirilgan. Bunday ishlar bilan shug'ullanganlar uch yilgacha soliqdan ozod etilgan.

### 4.3. Mirzo Ulug'bek davridagi iqtisodiy islohotlar.

Temurning vafoti (1405-1409 yy.)dan keyin Samarqand Xalil Sulton tomonidan egallangan va boshqarilgan. Asl nomi **Muhammad Tarag'ay bo'lgan Ulug'bek** (1394-1449) qirq yil (1409-1449) davlatni boshqargan bo'lishiga qaramasdan, tarixda ko'proq davlat arbobi sifatida emas, bunyodkor inson, yuksak zehni olim sifatida mashhurdir. Uning dong'i dunyoga ketgan, astronomiya, tarix ilmlariga oid asarlari mavjud. Bu yerda biz Ulug'bekning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatiga alohida e'tibor bermoqchimiz. Bu davrda mamlakat iqtisodiyotining asoslariga alohida qunt qilinadi, busiz rivojlanish bo'lmasligini hokimlar yaxshi tushunishgan. Sug'orish tarmoqlari qurilib, ular toshhovuz, darg'ot, navo, chig'ir, charxpalak, qaynama, sharshara, osma ko'prik, handoq, tazar va sardobalar kabi turli-tuman suv inshootlari bilan jihozlandi.

O'sha davrda ham iqtisodiy rivojlanishning soliq tizimi bilan chambarchas bog'liqligi yaxshi ma'lum edi. Soliq yig'imi qancha yuqori bo'lsa, ishlab chiqaruvchilar manfaatdorligi kamdir, ammo soliqning pastligi aholi uchun qulay bo'lgani bilan, davlatning boshqaruv, mudofaa va boshqa maqsadlariga doimo to'g'ri kelavermaydi. Shularni yaxshi tushungan hukmdorlar soliqni iloji boricha me'yorida saqlash va uni yig'ishning ma'lum adolatli usullarini qo'llaganlar. Masalan, Ulug'bek hukmronligi davrida g'alla g'aram qilinmasdan avval soliq to'plash qat'iyan man etilgan, chunki dehqon hosil yig'ib olgachgina real soliq to'lash imkoniga ega bo'ladi. Soliq aniq uch muddatda, dehqon hosili pishishiga qarab olingan:

- ✓ saraton (iyun-iyul)
- ✓ sumbula mezon (avgust va sentyabr)
- ✓ qavs (noyabr).

Yana bir muhim masala shuki, soliqlarni yig'ish paytida soliqchilar dehqon, chorvador yoki bog'bonga nisbatan zug'um o'tkazmasligi, jismaniy kuch ishlatmasligi va ishni urush-janjalgacha olib bormasligi zarur qilib qo'yilgan. Bu bilan insonning haq-huquqi, yashashga bo'lgan daxlsizligi ta'mintangan.

Umuman, soliq bo'yicha qarzdorlarni bandi qilish va zanjir bilan kishanlab, ularga nisbatan qattiq choralar ko'rishga soliqchilarning haqqi yo'q edi.

Soliq miqdori va to'lov tartibini buzmaslikka, suiste'mollikning oldini

olishga harakat qilingan. Tartibga amal qilmagan ayrim ma'murlar jazoga tortilgani ma'lum.

Bu davrda ichki va tashqi savdoga katta ahamiyat berilgan. Xitoy, Hindiston, Tibet va boshqa ko'pgina davlatlar bilan savdo aloqalari olib borilgan. Bu borada savdogarlar uchun qulay sharoitlar yaratilganligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Elchilar «Buyuk ipak yo'li» xavfsizligini ta'minlash borasida katta ishlarni amalga oshirganlar.

### **Mirzo Ulug'bekning pul islohoti va uning ahamiyati**

Mamlakat iqtisodiyotining ahvoli, ayniqsa, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi, tovar-pul munosabatlari, milliy valyuta mustahkamligiga bevosita bog'liq. Ma'lumki, pulning uchta asosiy vazifasi mavjud:

- 1) qiymat o'lchovi;
- 2) almashuv vositasi;
- 3) jamg'arma vositasi.

Agar pulning miqdori, uning nufuzi mustahkam bo'lmasa, iqtisodiyot muvozanati buziladi. Shularni hisobga olib, vaqti-vaqti bilan pul islohotlari o'tkazib turiladi. 1428-yili Ulug'bek tomonidan o'tkazilgan islohot katta ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi. Muomaladagi oltin va kumush pullar fulusiy pullarga almashtirildi.

Aholini ichki chakana savdo munosabatlariga kengroq jalb etish maqsadida, Ulug'bek nisbatan yengil vaznda zarb etilgan va muomalada yurgan barcha chaqalarni man qilgan.

Eski oltin va kumush chaqalar qisqa vaqt davomida yangi fuluslarga almashtirib olindi va endigi vazifa mis pullar zarbi (emissiya) ni markazlashtirish maqsadida boshqa shaharlardagi zarbxonalarga barham berilib, faqat Buxoro zarbxonasi saqlab qolindi. Bu ham bejiz emas, chunki bu hududda konlar ko'p bo'lgan.

Iqtisoddagi mazkur islohotlardan kutilgan natija pulning qadr-qimmatini oshirish, odamlarda pulga bo'lgan ishonchni oshirish edi. Xalq orasida «fulusi adliya», ya'ni «adolatli chaqa» nomi bilan shuhrat topgan bu yangi pullar Movarounnahming barcha shahar va qishloqlarida keng muomalaga kiritildi, davlatning ichki savdosini naqdina bilan to'la ta'min etdi. Ichki chakana savdo munosabatlaridagi pul tanqisligini fulusning vazni va qiymatini oshirish yo'li bilan hal qilinishi o'sha davrda nodir va favqulodda voqea bo'lgan va shu yo'l bilan mamlakat hunarmandchiligi va qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi uchun qulay sharoit yaratilgan. Oldi-sotdi jarayonlari jonlanishi oqibati o'laroq mamlakat iqtisodi rivoj topdi.

Ulug'bek shunday bir chora-tadbir ko'rdiki, uning muhim ijobiy tomoni mavjud. Bu «tamg'a» bojining ancha oshirilishidir. Bu usul davlat

xazinasini boyitishga yordam berdi. Ammo xorij savdogarlari uchun bu yo'l hamisha ham qulay bo'lavermaydi. Hozirgi davr tili bilan aytsek, proteksionizm siyosati qo'llanilgan. Shu yerda bir narsani eslatib o'tmoqchimizki, hozirgi kunda hammaga yaxshi tanish bo'lgan ruscha «tamojnaya» so'zi aslida turkiy bo'lgan «tamg'a boji» so'zlaridan olingan, bu esa o'z davrida mamlakatimizda savdo-sotiq munosabatlarining nihoyatda rivojlanganligidan bir nishonadir. «Olam savdo-sotiq ila oboddir», degan naql ham bizning zaminda yaratilgan.

#### **4.4. Alisher Navoiyning iqtisodiy g'oyalari mohiyati**


Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodida iqtisodiy g'oyalar muhim o'rin egallaydi. Unda asosan tijorat, savdo muammolari ancha mukammal yoritilgan. Navoiy asarlarida savdo faoliyati ma'qullanadi, ammo tovlamachi va chayqovchilik qattiq tanqid qilinadi. U mehnatning inson va jamiyatdagi o'rni, do'stlikka yuksak baho bergan.

Alisher Navoiy (1441-1501) buyuk shoir va davlat arbobi bo'lgan. U o'z davrining siyosiy va iqtisodiy ahvolini yaxshilash, mamlakatning iqtisodiy qudratini barqarorlashtirish uchun kishilarda vatanparvarlik his tuyg'usini uyg'otish zarurligini yaxshi tushungan.

Alisher Navoiyning ilk ijtimoiy-iqtisodiy fikrlari shakllangan asari «Hiloliya» hisoblanadi. U shaxsning tarixdagi roliga katta e'tibor berib, mamlakatning iqtisodiy ahvoli mamlakat hukmdorining aql-idroki va qobiliyatiga bog'liq, deb aytib beradi. Agar mamlakat hukmdori fanlarni, ayniqsa iqtisodiyot, tarix, falsafa va siyosiy fanlarni mukammal bilsa, o'zi boshqarayotgan mamlakat obod va badavlat bo'ladi, agar teskari bo'lsa, mamlakat qashshoq va xarob bo'ladi, deydi Alisher Navoiy. Keyinchalik jamiyatning rivojlanishida iqtisodchilarning va davlat arboblarning roli katta ekanligini ingliz olimi J.M.Keyns ham qayd qilib o'tadi.

Alisher Navoiy mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga alohida e'tibor berdi. Milliy daromadning asosiy qismini qishloq xo'jaligida yetishtirilgan edi. Uning fikricha Markaziy Osiyo sharoitida irrigatsiya inshootlarini kengaytirish — dehqonchilikni rivojlantirishga olib keluvchi muhim omillardan hisoblanadi. Shu bois juda ko'p kanal va ariqlar qazildi. Asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yerni kengaytirishga, uning unumdorligini oshirishga katta e'tibor berildi.

Alisher Navoiy boylikni ikki yo'l bilan topish mumkin deydi. Birinchi yo'l — bu o'z mehnati bilan boylik to'plash, yig'ish va o'ziga to'q yashash. Bunday boylikni u qo'llab-quvvatlagan. Alisher Navoiy olingan boylikni uch qismga bo'lib, ya'ni birinchi qismini ketgan xarajatlarga, ikkinchi qismini o'zining va oilasining ehtiyojlariga, uchinchi qismini esa aholining ijtimoiy manfaatlariga sarflashni tavsiya etgan.



**4.1.Rasm. Alisher Navoiy: boylikni uch qismga bo'linishi.**

Alisher Navoiy ko'pgina madrasa, shifoxona, hammom, ko'prik va boshqalarni o'z hisobidan qurdirgan. Boylik topishning ikkinchi yo'li - bu o'g'irlik, ta'magirlik va zo'rlik hisobiga boylik o'ttirishdir. Alisher Navoiy bunday boylik o'ttirishga keskin qarshi chiqdi, qoraladi.

Alisher Navoiy o'zining «Mahbub-ul-qulub» (1500 y.) asarida mamlakatdagi ijtimoiy guruhlarining jamiyatda tutgan o'rnini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Uning fikricha dehqonlar, hunarmandlar va chet el bilan aloqasi bor savdogarlar jamiyatda moddiy boylik yetishtirishda, yaratishda va mamlakatning boyligini ko'paytirishda muhim o'rin tutadi. Alisher Navoiy ijtimoiy hayotga odamlarning birgalikdagi faoliyati sifatida qaraydi. Uning fikriga ko'ra, kishi yakka holda hech narsa ishlab chiqara olmaydi. U biron narsani ishlab chiqarish uchun boshqa ishlab chiqaruvchilar bilan munosabatda bo'lishi kerak. Masalan, dehqonga mehnat qurollari zarur bo'lsa, hunarmandlarga non kerak, dehqonga ham, chorvadorga ham hunarmandchilik va attorlik mahsulollari zarur. Dehqon mehnatini mahsulini novvoy, nufurush, qo'shchi va o'roqchi, mashshoqchi va boshqalar orziqib kutadi. Shu bilan birga dehqon ham hunarmandning, chorvadorning va boshqalarning mehnat mahsulotiga muhtoj. Ularsiz u hech narsa ishlab chiqara olmaydi. Alisher Navoiy fikricha, dehqon mehnati bilan o'z ehtiyoji uchun zarur bo'lgan mahsulot miqdoridan ko'ra ko'proq ishlab chiqarib, jamiyat va uning ishlab chiqarishda ishtirok etmaydigan qismini ham moddiy ne'matlar bilan ta'minlaydi. Uning mana shu fikri fiziokratlarning qo'shimcha mahsulot faqat qishloq xo'jaligida yaratiladi, degan fikriga mos tushadi. Alisher Navoiy qishloq xo'jaligining rivojlanishi mamlakat qudratini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi, degan ilg'or fikrini ilgari suradi. Bu fikr o'sha davr, ya'ni feodalizm rivojlangan, uning negizini dehqonchilik tashkil qilgan bir davrda to'g'ri fikr bo'lib qolmaygina, balki tarixiy haqiqat hamdir.

Alisher Navoiy xalqaro savdo sohasida faoliyat yurituvchilarga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lsada, mamlakat ichkarisida ish yuritayotgan savdogarlar, ya'ni olib sotarlarga nisbatan salbiy munosabatda bo'lgan. Uning fikricha, olib sotarlar «o'ziga foyda va boshqalarga qahat istovchi ... arzon olib qimmat sotish», ya'ni xalqni zarari hisobiga foyda ko'ruvchilardir.

Alisher Navoiy intellektual mehnatni, ya'ni olimlar va boshqa shu kabilarning mehnatini jamiyat uchun zarur deb ko'rsatib berdi va ularni o'z mas'uliyat va burchlarini sezishga chaqirdi.

Alisher Navoiy o'zining "Mahbub-ul-qulub" asarida "qiymat", "mulk", "tejamkorlik" to'g'risida ham fikr yuritadi. Alisher Navoiy qiymat sohasiga to'xtalib, chinni tayyorlash misolida shunday ta'rif beradi: "Chinni idishning qiymati – uni tayyorlashdek, qiyinchiligiga yarashaligi bilandir; uni asrashda qiymatga ahamiyat beriladi. Qiymati oz narsaning – hurmati oz"<sup>6</sup>. Bu jummalardan shu narsa ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiy o'z davrida mehnatning qiymat nazariyasini ko'ra bilgan.

Alisher Navoiy iqtisodiyotning muhim jihati bo'lgan mulk masalasiga e'tibor qaratdi. U mulkni to'g'ri tasarruf etish, undan unumli foydalanish, mulkni isrof qilishga yo'l qo'ymaslik kerak, deb uqtiradi. Shundagina odamlar to'q-farovon hayot kechirishi mumkinligini o'z iqtisodiy qarashlarida ko'rsatib berdi. "Isrof qilish saxiylik emas, o'rinsiz sovrishni aqli odamlar saxiylik demas. Halol molni kuydirganni devona derlar, yorug' joyda sham yoqqanni aqlan begona derlar", deb yozadi buyuk alloma<sup>7</sup>.

#### 4.5. Bobur va uning vorislari olib borgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mohiyati

Davlat arbobi va qomusiy olim **Zahiriddin Muhammad Bobur** (1483-1530) va uning avlodlari tomonidan ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy masalalarda katta ishlar amalga oshirilganligi bizga tarixiy bitiklardan ma'lum. Xususan, Boburning «Boburnoma» asarida, «Mubayyin» kabi to'plamlarida iqtisodiyotga oid ma'lumotlarga, shu jumladan soliq siyosatiga katta o'rin berilgan. «Zakot to'g'risidagi katta kitob» da esa o'sha davrdagi soliq, uning turlari to'g'risida qimmatli fikrlar bildiriladi. Bobur buyuk mutafakkir, qomusiy olim sifatida iqtisodiy qonunlarning mohiyatini, iqtisodiyotning jamiyat va davlat hayotidagi belgilovchi ahamiyatini chuqur tushungan. Shuning uchun ham u dolzarb va adolatli farmonlar va hukmlar chiqarib, ilmiy jihatdan asoslangan iqtisodiy siyosat yuritgan, buning oqibati o'laroq u hukmronlik qilgan davrda davlatda

<sup>6</sup>A. Navoiy Mahbub-ul-qulub, 78 - bet


<sup>7</sup>A. Navoiy Mahbub-ul-qulub, 67 - bet

osoyishtalik, milliy totuvlik, siyosiy - ijtimoiy taraqqiyot qaror topgan. Shu bois ham Bobur asos solgan saltanat bir necha asr davomida yashadi va tarixda o'chmas iz qoldirdi. Bobur va uning vorislari davrida soliq masalalari muhim o'rinni egallagan.

Boburning «Mubayyin» asari to'la ravishda qonunlar va iqtisodiy masalalarga bag'ishlangan. Asarning nomi ham «qonunlar izohi» ma'nosiga ega.

Butun islom mamlakatlaridek, Movarounnahr va Xurosonda ham «zakot» ma'lum miqdorda va muayyan shart-sharoitlarda olinadigan soliq ma'nosida qo'llaniladi hamda naqd pul va savdo yig'imi shaklida to'planadi. Soliqni hisoblash uchun soliq olish ob'ektining «nisobi», ya'ni mol-mulkning zakot berishga layoqatli bo'lish uchun belgilangan miqdori aniqlanadi, hisobdan kam mulkdan soliq olinmaydi.

«Agar yerdan ikki hosil olsang, xirojni ham ikki marta to'la», deb yozadi Bobur.



#### **4.2.Rasm.Xiroj-yer solig'i turlari**

Xiroj, ya'ni yer solig'i ikki toifaga bo'lingan: muqassam va muvazzar. Birinchisi, olingan hosilning miqdoriga bog'liq bo'lib, uchdan birdan-yaringacha teng bo'lgan, ikkinchi esa, soliq solinadigan yerning maydoniga bog'liq ravishda olingan.

Yerni sug'orish masalalari Sharqda o'ta muhim edi, chunki ob-havo nihoyatda quruq va issiq, yer-tuproq sharoiti sun'iy sug'orishni talab etganligidan sug'oriladigan yerlar, tabiiyki, lalmikor yerlardan ko'p hosil bergan. Shu sababli suv solig'i ham bo'lgan.

Suv solig'i quyidagicha olingan: «agar sug'orish davrida chig'ir qursang, olgan hosilning o'ndan birining yarmini (5%) soliq uchun to'lashing kerak», ya'ni sug'oriladigan yerlarga sarf-xarajat hisobga olingan va bu mantiqan to'g'ridir. Umuman olganda, bu davrda soliq va boshqa yig'imlar tamomila islomiy shariatga to'la rioya qilingan holda olingan.

Nisobga etgan miqdordagi mol-mulkdan Qur'oni Karim, Muxtasar,

Hidoya va boshqa manbalarda qat'iy belgilab qo'yilgan qismi ixtiyoriy ravishda miskinlarga berilgan, masalan, boqiladigan mollar, ya'ni echki, tuya, sigir, otlardan, xususan, qo'ylardan soliq (zakot) quyidagicha olingan: 40 qo'ydan bitta (2,5%), 120 tasidan ikkita, 201 dan boshlab uchta, 400 dan ortiq bo'lsa har 100 qo'ydan bittasi zakot qilib berilgan. Shuningdek, "Boburnoma"da bir yurt tovarining boshqa yurtlarga olib borilishi, almashuvi, aholi ehtiyojlarining qondirishi va ularning iqtisodiyot ravnaqidagi ahamiyati to'la bayon qilinadi. Bobur savdosotiqning xalqlar o'rtasidagi bebaho ahamiyatini juda chuqur tushunar edi. Shuning uchun ham u savdo karvonlarini yo'llarda talash, bosqinchilik qilish, mol-mulkiga ziyon etkazish kabi salbiy illatlarga ayovsiz munosabatda bo'lgan. Bu siyosat Amir Temur, Ulug'bek va boshqa temuriylar siyosatidan ma'lum. O'sha davrda Bobur savdogarlardan olinadigan savdo yig'imining ham adolatli va xolisona tashkil qilinishiga katta ahamiyat bergan. Musulmon savdogarlarining savdo aylanmasidan savdo yig'imi 20 misqol (4,5 gramm) oltindan 1 misqoli shaklida olingan, eng muhimi soliq hissasi daromad hissasiga nisbatan kamayib borgan, ya'ni daromad ko'payishi bilan soliq kamaygan va boylik jamg'aruvchilar uchun o'ta manfaatli bo'lgan. Chet ellik savdogarlardan olinadigan yig'im esa ularning qaysi yurtlardan kelganligiga bog'liq bo'lgan.

Agar ular islom mamlakatlardan kelgan bo'lsalar, barcha daromadlarining yigirmadan bir qismi (5%) miqdorida soliq olingan. Musulmon bo'lmagan mamlakatlardan kelgan savdogarlardan olinadigan soliq miqdori shu mamlakatlarda musulmon savdogarlaridan olinadigan soliq miqdoriga tenglashtirilgan. Naqadar adolatli va foydali soliq tizimi. Bobur ishlab chiqqan soliq siyosati uzoq yillar davomida qo'llanib kelindi va mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etdi. Bu esa Bobur iqtisodiy g'oyalarning juda chuqur ilmiy asosga suyanganligi, uzoqni ko'zlovchi salohiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Suv solig'i quyidagicha olingan: «agar sug'orish davrida chig'ir qursang, olgan hosilning o'ndan birining yarmini (5%) soliq uchun to'lashing kerak», ya'ni sug'oriladigan yerlarga sarf-xarajat hisobga olingan

### **Humoyun davrida mamlakatda o'tkazilgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning mohiyati**

Boburning o'g'li Humoyun (1508-1556) jamiyatni tabiiy tartib asosida qurish tarafdori bo'lgan. Humoyun: "Men jamiyatdagi sun'iyliklaru betartibliklardan bezor bo'lganim uchun davlat ishini tabiiy

bir asosga qurmoqchiman”, deydi<sup>8</sup>. Osmondagi sayyoralarning harakatida ham noyob bir uyg'unlik, sobitlik, tartibu muvozanat bor. Shuni hisobga olib, tabiatdagi muvozanatni jamiyatga joriy etish bo'yicha ancha ish qilindi. Masalan, tabiatdagi to'rt unsur: olov, havo, suv, tuproqqa o'xshatib vazorat boyliklari tayinlandi (“Sarkoro havoiy”, “Sarkoro obiy”, “Sarkoro xokiy”, “Sarkoro otash”). Tabiatga qiyosan har bir vazir kiyinishi ham turlicha bo'lib, o'z sohasiga yaqin bo'lgan.

1. Tabiatga qiyosan joriy etilgan “Qonuni Humoyuniy” ni “shoirona did bilan qilingan kashfiyot” deb baholagan.

2. Agra (Hindiston) va “Nasoralar” (musulmon bo'lmagan) uchun boju xirojdan tashqari tamg'a solig'i ham solingan. Mamlakatda hisob-kitob va xo'jalik yuritish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan, poraxo'rlikka qarshi kurashilgan<sup>9</sup>.

3. Podshohning xos yerlari - holisa yerlar deb atalgan va undan olingan daromadlar davlat xazinasiga tushgan (o'sha asar, 88-bet). Dehqonlar olingan hosilni uchdan birini davlatga topshirishgan. Soliq yozadigan amaldor munsif deb atalgan. G'ayriddinlardan qo'shimcha xiroj bilan jiz'ya solig'i olingan. Soliq to'lashdan bosh tortgan hududlarda, itoatdan chiqqan joylarda qilich kuchi bilan (ya'ni sayfit) soliq yig'ilgan. musulmon bo'lganlar sotgan mollarini 20/1, boshqa dindagilar 10/1 tamg'a solig'ini to'lashi majbur edi (o'sha asar, 120-bet). Ish davrida ayrim hududlarda bozordagi narx navoni tergab, nafs katta savdogarlarni insof bilan narx qo'yishga urinish bo'lgan (o'sha asar, 256-bet).

#### **Akbarshohning ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarining natijalari**

Hindistonda podshohlik qilgan Boburiylar hind-muslim nizolarini yo'qotmoq uchun, boshqa ming xil illatlari ildizini qirarmoq uchun zo'r islohotlar o'tkazishlari kerak edi. Bu borada shoh Akbarshoh davrida (1556-1605 yy.) muhim ishlar amalga oshirildi. Nomusulmon hindlar jiz'ya soliqlaridan norozi bo'lgan. Adolatli jamiyat qurish istagi doim bo'lgan. Bu jamiyatga xos fazilat quyidagicha belgilangan: 1) yaxshilikka muhabbat; 2) insonga muruvvat; 3) haq yo'lidagi botirlik; 4) odamga kuch-qudrat beruvchi ilmu ma'rifat; 5) barcha so'zu ishdagi samimiyat; 6) xulqu-atvordagi insofu diyonat. Yirik yer egalari-jogirdorlarning o'zboshimchaligiga qarshi bir qancha chora tadbirlarni o'tkazgan. 1574-yil dehqonlar sarkardalarga yer in'om etish o'rniga xazinadan ularga maosh to'lashni, mamlakatdagi yerlardan soliq to'lashni o'z xizmatlari zimmasiga yuklagan.

Akbarshoh markaziy davlat apparatini mustahkamlashga qaratilgan bir

<sup>8</sup> Qodirov P., Humoyun va Akbar. T., 1994, 31-bet

<sup>9</sup> Qodirov P., Humoyun va Akbar. T., 1994, 55-bet



qancha islohotlar o'tkazdi. Yer solig'i, davlatni boshqarish tartibi xususidagi qonunlarni ishlab chiqdi. *Natural soliq pul solig'i bilan* almashtirildi. Bu tadbir davlatning moliyaviy ahvolini yaxshiladi. Jiz'ya, ziyoratchilardan olinadigan soliqni, soliq to'lovchilarning maoshi (dorug'a)ni, chopar hamda amaldorlar uchun to'lanadigan yig'im (qo'nalg'a)ni, bozordan yig'iladigan bir qancha soliq va jarimalarni bekor qildi. Bu davrda savdo-sotiq rivojlandi, karvonsaroylar va quduqlar qurilgan.

Akbarshoh Jaloliddin (1542-1605) tomonidan o'tkazilgan *moliyaviy islohot* natijasida davlat xazinasiga tushayotgan daromadlar uch barobar ortgan. Shu davrda jiz'ya soliqlari bekor qilindi. Jiz'yadan tashqari hindlardan olinadigan ziyorat solig'i ham olib tashlandi. Ziyoratga borgan g'ayridindilar har gal musulim nozirlariga bir rupiyadan soliq to'lar edilar. Hisob-kitoblarga ko'ra, 1 yilda 100 mln. (10 kurur) rupiy soliq to'plangan. Boshqa mamlakatlar tajribasini o'rganish maqsadida (xususan, fransuz) boshqa tillarni bilish talab etilgan. Ayniqsa farangiylarning kema qurishdagi tajribalarini, butun ilmu ma'rifatni bilmoq uchun ularning tillarini o'rganishga da'vat etilgan. Shoh Akbar: "Jahon miqyosiga chiqmoq uchun barcha qit'alarni ilmu san'atiga bag'rimizni dadil ochmog'imiz kerak" der edi. Bunda avvalo dunyo tillarini o'rganmoq zarur, deb hisoblagan. Akbarning olib borgan siyosati to'g'risida Abulfazl Alloniy "Akbarнома" nomli asar yozgan. Bu asarda **Akbarshoh tomonidan o'tkazilgan islohot ko'rsatilgan**. Shu davrda Hindiston ma'muriy rayonlarga bo'lingan, dehqonlarga soliq solishning yagona tartibi belgilangan, uzunlik va og'irlik o'lchovlari yagona tizimga keltirilgan.

Akbar mulozimlari bilan maslahatlashib, mamlakatdagi aholi ro'yxatini o'tkazishni zarur hisoblagan, chunki buni bilmasdan turib bexato siyosat yuritib bo'lmaz edi. Unuman, Boburiylar Hindistonda 1526-1858-yillar oralig'ida, ya'ni 332-yil mamlakatni boshqarganlar.

Mustaqillikka erishgan Hindistonning birinchi bosh vaziri Javoharlal Neru o'zining "Dunyo tarixiga bir nazar" nomli 3 jildli asarida Boburiylarning mamlakat rivojiga muhim hissa qo'shganliklarini qayd etadi. Ayniqsa Akbarning islohotlariga yuqori baho beradi. U Hindistonni birlashtirgan va hind millatiga ota bo'lgan siymolar qatorida qalamga olinadi. "Faqat shohlik martabasidan bo'lak hech vaqosi bo'lmagan behisob ko'p tojdorlar orasiga Akbarning chinakam mardona qiyofasi yuksakka bo'y cho'zib haligacha bizni qoyil qilib kelayotgan hayron qolarli hol emasmi!" –deb yozadi J.Neru.

Akbarshoh to'g'risida 1601-yil. "Akbarнома" kitobi chop etildi. Unda

mamlakatdagi soliq tartibi o'z aksini topgan. Akbar tomonidan o'tkazilgan islohotlar "*Oyini Akbariy*" ("Akbarshoh qonunlari") deb yuritiladi.

### **Qisqa xulosalar**

Markaziy Osiyo X-XIV asrlarda Sharqda ilg'or ijtimoiy tafakkur rivojlangan bir markazga aylanib dunyoga mashhur bo'lgan Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib va boshqa ko'plab olim va shoirlar etishib chiqdi. Ularning asarlarida iqtisodiy fikrlar ham o'z aksini topgan.

O'rta asrlar davrida ilg'or iqtisodiy fikrlarni ilgari surgan buyuk mutafakkirlardan biri, Arastuning izdoshi, uning asarlarini tahlil qilgan «muallimi soniy» **Abu Nasr Forobiy** hisoblanadi. Forobiy, Aflotun kabi ideal tuzum to'g'risida tafakkur yuritdi. U kelajak haqida o'ylab, baxtga erishishning zarur va birlamchi shartini tashkil etuvchi o'zaro yordam va do'stlik tufayli bo'ladigan shaharni ideal shahar deb hisobladi; yer yuzida barcha xalqlarning o'zaro yordami asosida bir butun yagona jamiyat qurish mumkinligi to'g'risida, mahsulotlarni adolatli taqsimlash haqida fikrlar bildirdi.

O'rta Osiyo mutafakkiri **Abu Ali ibn Sinoning** (980-1037) 280 dan ko'p asarlari mavjud bo'lib, ular tibbiyot, matematika, astronomiya, kimyo, falsafa, iqtisodiyot va boshqa sohalarga bag'ishlangan. Abu Ali ibn Sino feodal jamiyatning asosiy muammolarini tadqiq qiladi. U jamiyatning asosiy faoliyati deb hunarmandchilikni tan olgan.

Iqtisodiy fikrlarning rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan XI asrda yashab ijod etgan buyuk shoir va mutafakkir deb Yusuf Xos Hojib Bolasog'uniy hisoblanadi. U jamiyatning rivojlanishida mehnatning rolini ko'rsatib, mehnat taqsimotining ahamiyatiga ham alohida e'tibor qaratdi. Pulning qiymat o'lchovi, muomala vositasi, jamg'arish vositasi funksiyalarini aytib o'tadi.

Amir Temur davlat ishlarini olib borishda o'ziga xos iqtisodiy usullarni qo'llagan. Sohibqiron davlat fuqarolarini 12 toifaga bo'lgan va ularning qaysi toifaga mansubligidan kelib chiqqan holda, ularga vazifalar belgilagan. Amir Temurning iqtisodiy fikrlari «Temur tuzuklari»da bayon etilgan. «Temur tuzuklari» da soliq va jarimalarni yig'ish va xarj (sarf) qilishga alohida e'tibor berilgan.

Temurning vafotidan keyin Samarqand Muhammad Tarag'ay bo'lgan Ulug'bek tomonidan boshqarilgan. 1428-yili Ulug'bek tomonidan o'tkazilgan islohot katta ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi. Muomaladagi oltin va kumush pullar fulusiy pullarga almashtirildi.

Alisher Navoiy ijodida iqtisodiy g'oyalar muhim o'rin egallaydi. Unda asosan tijorat, savdo muammolari ancha mukammal yoritilgan.

Navoiy asarlarida savdo faoliyati ma'qullanadi, ammo tovlamachi va chayqovchilik qattiq tanqid qilinadi. U mehnatning inson va jamiyatdagi o'rniga, do'stlikka yuksak baho bergan.

Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida, «Mubayyin» kabi to'plamlarida iqtisodiyotga oid ma'lumotlarga, shu jumladan soliq siyosatiga katta o'rin berilgan. «Zakat to'g'risidagi katta kitob» da esa o'sha davrdagi soliq, uning turlari to'g'risida qimmatli fikrlar bildiriladi.

Akbarshoh Jaloliddin (1542-1605) tomonidan o'tkazilgan *moliyaviy islohot* natijasida davlat xazinasiga tushayotgan daromadlar uch barobar ortgan. Shu davrda jiz'ya soliqlari bekor qilindi. Jiz'yadan tashqari hindlardan olinadigan ziyorat solig'i ham olib tashlandi.

#### **Asosiy tushuncha va iboralar**

“Boburnoma”, “Mubayyin”; zakot; iqtisodiyotni boshqarish; xiroj; nisob; sug'oriladigan va sug'orilmaydigan erlardan olinadigan soliq; ichki va tashqi savdo farqi; tarif siyosati; Humoyun islohotlarida tabiiy tartib konsepsiyasi; tamg'a solig'i; soliq siyosati; jiz'ya solig'i; qullikka bo'lgan munosabat; yil hisobi va o'lchov birliklaridagi islohotlar; aholi ro'yxati.

#### **Nazorat uchun savollar**

1. Yusuf Xos Hojibning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy g'oyalari nimalardan iborat?
2. Beruniy oddiy va murakkab mehnat deganda nimalarni tushunadi?
3. Ibn Sino inson hayotida mehnatning rolini qanday baholaydi?
4. Amir Temurning asosiy iqtisodiy islohotlari nimalarda ifodalanadi?
5. Pul islohotining asosiy mohiyati, «fulusi adliya» chaqalarining zarb qilinishi qanday ahamiyatga ega?
6. Alisher Navoiy asarlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy g'oyalarning asosiy yo'nalishi qanday?
7. Boburning asarlaridagi umumiy ijtimoiy-iqtisodiy g'oyalarning mohiyati nimalardan iborat?
8. «Boburnoma», «Mubayyin» asarlarida zakot va boshqa soliqlar to'g'risidagi g'oyalarning mazmuni qanday?
9. Xiroj solig'ining turlari va olinish yo'llari qanday?
10. Humoyun tomonidan olib borilgan islohotlarda tabiiy tartib konsepsiyasidan qanday foydalanilgan?
11. Akbarshoh tomonidan o'tkazilgan ijtimoiy islohotlarning asosiy mazmuni qanday?
12. Boburiylar islohotlari va hozirgi zamon o'zgarishlarini qiyosiy baholang.

## V.BOB. MERKANTILIZM

### 5.1.Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining mohiyati

Natural xo'jalik munosabatlarining bozorga xos iqtisodiy munosabatlar tomonidan siqib chiqarilishi XV asrdan XVIII asrgacha bo'lgan tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Ya'ni natural xo'jalik tuzumining emirilishi, tovar-pul munosabatlarining o'sishi, fan va madaniyatning yuksalishi, ayniqsa yangi yerlarning ochilishi, buyuk geografik kashfiyotlar, mustamlakachilik tuzumining paydo bo'lishi, savdoning tez rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bu davr iqtisodiy adabiyotda merkantilizm davri deb ataladi. Merkantilizm (italyancha «mercator» – savdogar ma'nosini anglatadi), bu bozor iqtisodiyotiga bo'lgan birinchi ilmiy qarashlar tizimidir. Karl Marks bu davrni “kapitalning ilk jamg'arilish davri” deb atagan.

Merkantilistlarning ilmiy dunyoqarash tamoyillari quyidagilar bilan xarakterlanadi:

- har qanday oltin va qimmatbaho narsalar boylikdir;
- mamlakatga oltin va kumushning oqib kelishini ta'minlash;
- arzon xomashyoni import qilish yo'li bilan sanoatni rag'batlantirish;
- import qilinadigan sanoat tovarlariga proteksionistik tariflarni belgilash;
- ekspertni, ayniqsa tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish;
- ish haqining past darajasini ushlab turish uchun aholining o'sishi;
- mamlakatga xorijiy investisiyalar kiritmaslik.

Merkantilizmning o'ziga xos xususiyatlari:


**Tadqiqot predmeti:** ishlab chiqarish sohasidan ajralgan holda muomala sohasini rivojlantirish masalalarini tadqiq qilish;

**Tadqiqot usuli:** empirizm (iqtisodiy hodisalarning tasodifiy yuzaki tashqi ko'rinishini ifoda etishga olib keluvchi va iqtisodiyotning barcha sohalarni sistemali tarzda tahlil qilish imkoniyatini istisno etuvchi yo'nalish);

**Mehnat taklifning oshishini** yuqori ish haqi bilan emas, balki past ish haqi zarurligi bilan bog'lab ko'rsatdilar;

**Iqtisodiy o'sishni** davlatning tashqi savdoni tartiblashi va savdo balansida ijobiy saldoga erishish tufayli mamlakat pul boyligining ko'payishi natijasi sifatida qaradilar.

Boylkning ko'payishi iqtisodiy qudrat va harbiy kuchni ko'paytiradi.



### 5.1.Rasm. Tashqi savdoni tartibga solish

Merkantilizm eng avvalo davlatning iqtisodiy siyosatini ifoda etgan, uning amaliy faoliyati uchun tavsiyalar ishlab chiqqan. Merkantilistlar tadqiqotining maqsadi real iqtisodiyotni tahlil qilish emas, balki hukumatga amaliy maslahatlar berishdir. Shuning uchun ular davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvini qo'llab-quvvatladilar, yuqori soliq stavkasini va davlat xarajatlarini himoya qildilar.




### 5.2. Merkantilizm siyosatida proteksionizm va cheklovlar.

Ijobiy savdo balansiga erishish uchun turli xil usullar mavjudligi sababli, merkantilizm odatda ilk merkantilizm va rivojlangan merkantilizmga bo'linadi.

#### 5.2.1.Ilk merkantilizm monetar tizimi

Ilk merkantilizm, monetar tizimining o'rnatilishi bilan bog'liq bo'lib, buyuk geografik kashfiyotlardan oldin paydo bo'ldi va XVI asrning o'rtalarigacha faol amal qilib keldi. Uning asosiy vakillari U.Stafford (Angliya), G.Skaruffi (Italiya) va boshqalar hisoblanadi. Ilk merkantilizm «pul balansi» siyosatini olib borgan. Bu siyosat pul muomalasini, tashqi savdoni qattiq tartibga solib turishni ta'minlovchi ma'muriy yo'l bilan mamlakatning pul boyligini ko'paytirishga qaratilgan.



### 5.3.Rasm. Ilk merkantilistlar: Tashqi savdoda ijobiy saldoga erishish yo'llari

Ilk merkantilistlar oltin va kumushni boylikning mutloq shakli, deb qaradilar va uni chetdan olib kelish yo'lini qidirdilar.

Ilk merkantilizm davrida davlat xorijiy savdogarlarni, ularning pulini mahalliy pulga almashtirish va ko'proq tovar sotib olishga qiziqtirish maqsadida ataylab chaqalarni buzib, ularning qimmatini pasaytirish bilan shug'ullangan. Keyinchalik tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi, tashqi savdoning kengayishi merkantilistlarning boylik muammosiga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga majbur etdi.

Rivojlangan merkantilizm XVI asrning ikkinchi yarmidan XVIII asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. (Uning asosiy vakillaridan biri Tomas Men hisoblanadi). Bu davrga kelib milliy sanoat va davlat savdosi rivojlanishining rag'batlantirilishi sababli, malakatlar o'rtasida savdo aloqalari keng va muntazam rivojlana boshladi. Ilk merkantilistlarning «pul balansi» o'rniga rivojlangan merkantilistlarning «savdo balansi» nazariyasi kelib chiqdi. «Savdo balansi» nazariyasi Angliyada keng tarqalgan. Mazkur konsepsiya vakillari ilk merkantilistlarni mamlakatdan tashqariga pul chiqarishni man etgani, importni haddan tashqari cheklaganini uchun tanqid qildi. Ularning fikricha davlatning tashqi iqtisodiy siyosatdagi asosiy vazifasi – mamlakatda imkon boricha ko'proq pul mablag'larini jang'arish emas, balki aktiv savdo balansiga erishishdir (eksportning importdan ustun bo'lishi). Eksport va import o'rtasidagi farq-mamlakat boyligining o'sishidir. Demak, real boylik – bu «o'lik pullar» yig'indisi emas, balki yangi pullarni, ya'ni pul kapitalini vujudga keltiruvchi pullardir.

Shulardan kelib chiqqan holda, rivojlangan merkantilizm vakillari

aktiv savdo balansiga erishish uchun bir qator tavsiyalarni ilgari surdilar:

- tashqi bozorlarni nisbatan arzon tovarlar sotish yo'li bilan egallash, hamda bir mamlakat tovarini olib boshqalariga uni qimmatiga sotish;
- mamlakatda aktiv savdo balansini saqlab turgan holda, tovarlar importiga ruxsat etish (zeb-ziynat buyumlaridan tashqari);
- qulay savdo ishlarini amalga oshirish uchun oltin va kumushni chetga chiqarish, mamlakatda ularning massasini ko'paytirish va aktiv savdo balansini saqlab turish uchun vositachilik qilish.

Pulning tovarli mohiyatini tan olsada uning qimmatini rivojlangan merkantilistlar ham oltin va kumushning tabiiy xususiyatidan deb qaradilar. Ammo aynan ular metallistik nazariyadan pulning miqdoriy nazariyasiga va monometallizm tizimiga o'tishga sabab bo'lgan.

<b>Ilk merkantilizm</b>	<b>Rivojlangan merkantilizm</b>
<b>Tashqi savdo darajasi</b>	
Mamlakatlar o'rtasidagi savdo aloqalari sust rivojlangan va epizodik xususiyatga ega.	Mamlakatlar o'rtasidagi savdo-sotiq juda rivojlangan va muntazam xususiyatga ega.
<b>Faol savdo balansiga erishish uchun tavsiya etilgan usullar</b>	
Tovarlar eksporti uchun eng yuqori narxlarni belgilash	Tashqi bozorlarni nisbatan arzon tovarlar sotish yo'li bilan egallash, hamda bir mamlakat tovarini olib boshqalariga qimmatiga sotish
Tovarlar importini har tomonlama cheklash	Mamlakatda aktiv savdo balansini saqlab turgan holda, tovarlar importiga ruxsat etish (zeb-ziynat buyumlaridan tashqari)
Mamlakatdan oltin va kumushni olib chiqishni taqiqlash	Faol savdo balansini ta'minlash uchun foydali savdo bitimlari va vositachilik maqsadida mamlakatdan pulni olib chiqishga ruxsat etiladi
<b>Pul nazariyasi sohasidagi pozitsiyalar</b>	
Pulni nominalistik idrok qilish ustunlik qiladi; hukumat milliy tangalarni qiymati va vaznini kamaytirib zarb qilish bilan shug'ullanadi	XVI asrdagi "narx inqilobi" pulning miqdoriy nazariyasiga o'tishga olib keldi (pulning qiymati uning miqdoriga teskari proporsionaldir; narxlar pul miqdoriga bevosita mutanosib; pul taklifining ko'payishi, unga bo'lgan talabni orttirib savdoni rag'batlantiradi)

Oltin va kumush pullar muomalasida qat'iy nisbat belgilanadi (bimetallizm tizimi)	Monometallizm tizimi o'rnatildi
Oltin va kumushning tabiiy xususiyatlariga qarab ularni pul deb tasdiqlash	Oltin va kumushning tabiiy xususiyatlaridan kelib chiqib pulni tovar deb tasdiqlash
Pulning qiymat o'lchovi, xazina to'plash va jahon puli funksiyalari tan olinadi.	Pulning endi jamg'arish funksiyasi emas, balki muomala vositasi funksiyasi asosiy deb hisoblanadi.
<b>Monetaristik pozitsiya</b>	
"Pul balansi" g'oyasi ustunlik qiladi	"Savdo balansi" ustunlik qiladi.

#### **5.4.Rasm. Ilk va rivojlangan merkantilizm o'rtasidagi farqlar.**

Agar ilk merkantilistlar pulning jamg'arish vazifasini asosiy deb bilgan bo'lsalar, keyingi rivojlangan merkantilistlar – muomala funksiyasini asosiy hisobladilar. Rivojlangan merkantilistlarning fikriga ko'ra, pulning qiymati uning miqdoriga nisbatan teskari bog'liqlikda, tovarlar bahosi darajasi esa pul miqdoriga to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi. Ular, pul taklifining ko'payishi unga bo'lgan talabni oshirgach, savdoni rag'batlantiradi, deb bir tomonlama hisobladilar.

Angliyada rivojlangan merkantilizm **Tomas Men** (1571-1641) asarlarida ifoda etilgan. U monetaristlar konsepsiyasiga savdo balansi nazariyasini qarshi qo'ydi. T.Men 1630-yil «Angliyaning tashqi savdodagi boyligi yoki boyligni tartiblash sifatidagi tashqi savdo balansi» asarini yozdi. Unda muallif pul muomalasini qattiq tartiblashning zararli ekanligini, chetga monetalarining erkin chiqarilishi kerakligini, uningsiz tashqi savdoni normal rivojlantirib bo'lmashligini qayd qilib o'tadi. Uningcha: «Har yili xorijliklardan xarid qilgan summadan ko'ra, ularga ko'proq sotish» qoidasini ta'minlash asosiy hisoblanadi. Faqat aktiv savdo balansi yordamida, uning fikriga ko'ra, mamlakat ixtiyorida qoladigan va uning boyiigini orttiradigan pulni chetdan jalb qilish mumkin.

J.Lokk «boylig» to'g'risida T.Mann bilan deyarli hamohang fikr yuritgan. Uningcha, boylig deganda faqat oltin va kumush miqdorining ko'pligi emas, balki uning boshqa mamlakatlarga nisbatan ko'p bo'lishi ko'zda tutilishi kerak.

R.Kantilon, xuddi J.Lokk kabi, o'zining «Savdo tabiati to'g'risida ocherk» (1775) kitobida «qo'shni mamlakatlarga qaraganda muomalada ko'p puli bo'lgan har qanday davlat, ularga nisbatan ustunlikka ega...» deb, qayd qilib o'tgan.

Fransiyada merkantilizmning asosiy vakili, mashhur «Siyosiy iqtisod



traktati» (1615) asarining muallifi – Antuan Monkreten (1576-1621) hisoblanadi. U savdogarlarni ancha foydali toifa deb hisobladi, savdoni kasb-hunarning bosh maqsadi sifatida tavsifladi. Davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi jamg'armaning, mamlakat xo'jaligini mustahkamlash va rivojlantirishning asosiy omili sifatida qaraladi. A.Monkreten manufakturani rivojlantirishni, hunarmandchilik maktablarini tashkil etishni, mahsulotlar sifatini yaxshilashni va mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar savdosini kengaytirish bilan Fransiya bozoridan xorijiy savdogarlarni siqib chiqarishni taklif qildi. Xorijiy savdogarlarni u mamlakat boyligini so'rib oluvchi nasosga taqqoslaydi. A.Monkreten dasturi Fransiya tashqi savdosini kengaytirishni ko'zda tutadi, monetarizm g'oyasini, shuningdek savdo balansi konsepsiyasini aks ettiradi.



### 5.5.Rasm. Merkantilizm ko'rinishlari

Fransiyada yangi merkantilizm siyosati Jan Batist Kolber (1619-1683) tomonidan keng olib borildi (bu siyosat **kolbertizm** deb ataladi). Bu davlatda feodal munosabatlar (ayniqsa mayda dehqonchilik) keng tarqalgani uchun Kolber asosiy e'tiborni sanoatga qaratdi va agrar sohani deyarli e'tiborga olmadi. Masalan, chetdan qishloq xo'jaligi mahsulotlari keltirish qo'llangan, chiqarish esa cheklangan, don narxi davlat tomonidan past ushlab turilgan.

Merkantilizmning yana bir shakli **kameralistika** (lotinchada-xazina) bo'lib, ayniqsa, Germaniyada keng tarqalgan. Bu g'oya tarafdorlari yirik feodallar xo'jaliklarini boshqarish masalasini yuqori qo'yadilar va buni idora doirasida hal qiladilar. Demak, yangi ta'limot bo'yicha iqtisodiyotda davlat roli birinchi o'ringa qo'yiladi. Amalda esa turli-tuman farmon, farmoyish, qonunlar yuzaga kelib, erkin raqobatga yo'l berilmas edi. Hunarmandchilik buyicha sex tizimi, feodallarning imtiyozlarini himoya qiluvchi qoidalar saqlab qolindi. Bu tizim Fransiyada XVIII asr oxirigacha, Angliyada XIX asr boshlarigacha amal qildi.

### 5.3. Merkantilizmning tarixiy taqdiri

Merkantilizm, uning vakillari ijodiy merosidagi ham pozitiv, ham

negativ elementlar nuqtai nazaridan, iqtisodiy ta'limotlar tarixida o'chmas iz qoldirdi.

Birinchidan, merkantilistlar konsepsiyasi deyarli butunlay muomala sohasidagi xo'jalik hayoti amaliyotiga qaratilgan. Shunday bo'lsada, bu ularga ko'plab iqtisodiy kategoriyalarni iqtisodiy fanlarga kiritish, savdo sohasi, suda operasialari va pul muomalasining muhim qonuniyatlarini aniqlab berish imkonini berdi. Lekin iqtisodiyotning boshqa sohalariga bo'lgan ularning ta'siri doimo aynan bir xil bo'lgan emas. Masalan, mamlakatning o'z sanoati va savdosini rivojlantirishi uchun pul muhim vosita ekanligini to'g'ri tushuntirib bergach, merkantilistlar shunday bo'lsada milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga e'tibor bermadilar. Bundan tashqari, ular uchun ishsizlik muammosi ham muhim hisoblanmagan; «ixtiyoriy ishsizlik»ning asosiy sababi ishlamaslik xohishini keltirib chiqaruvchi yoki «yalqovlik», yoki «axloqiy buzuqlik» hisoblangan.

Ikkinchidan, merkantilizm bozor munosabatlari shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini rivojlangan Yevropa mamlakatlarida, eng avvalo, Angliya va Fransiyada XVII asrda mavjud bo'lishini isbotladi. Fransiya moliya vaziri Jan Batist Kolber ancha faol proteksionizm siyosatini olib borgan davrda sanoatning qudratli manufaktura tarmog'i yaratildi. Ammo bir vaqtning o'zida mamlakat tashqarisiga don chiqarishni man etish va boshqa mamlakatlardan uni erkin olib kelish yo'li bilan fermer xo'jaliklarining shakllanishiga to'sqinlik qilindi. O'sha davrdagi Fransiya ichki bozori, uning azaliy raqibi – Angliyaga nisbatan «torligi» aynan shu vaziyatga bog'lab tushuntirildi. Natijada fransuz merkantilizmi kolbertizm deb atala boshlandi, klassik siyosiy iqtisod doirasidagi o'ziga xos fransuz maktabi esa fiziokratizm ta'limoti deb yuritildi.

Angliyada esa merkantilizm, iqtisodiy tarixdan ma'lumki, Fransiya nisbatan ancha «unumli» bo'ldi. XVII asrdagi savdo va sanoat sohasidagi bu mamlakatning proteksionizm siyosatidagi asosiy yutuqlari, odatda Ost-Indiya kompaniyasi rahbarlaridan biri – Tomas Mann nomi bilan bog'lab tushuntiriladi. Shu narsa ham ma'lumki, aynan Angliyada merkantilizm bilan bo'lgan g'oyaviy kurash natijasida eng muhim nazariy xulosalar ishlab chiqildi va ular A.Smit, D.Rikardo, T.Maltus, J.S.Mill va boshqalarning asarlarida o'z aksini topdi. Bundan tashqari, Angliya XIX asrda ancha kuchli rivojlangan mamlakat sifatida eng muhim antimerkantilistik chora tadbirlarni, jumladan ichki va tashqi savdoda to'la erkinlik siyosatini amalga oshira boshladi.

### **Qisqa xulosalar**

Merkantilizm bu bozor iqtisodiyotiga bo'lgan birinchi ilmiy

qarashlar tizimidir. Merkantilizm eng avvalo davlatning iqtisodiy siyosatini ifoda etgan, uning amaliy faoliyati uchun tavsiyalar ishlab chiqqan. Merkantilistlar tadqiqotining maqsadi real iqtisodiyotni tahlil qilish emas, balki hukumatga amaliy maslahatlar berishdir. Shuning uchun ular davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvini qo'llab-quvvatladilar, yuqori soliq stavkasini va davlat xarajatlarini himoya qildilar.

Ilk merkantilizm «pul balansi» siyosatini olib borgan. Bu siyosat pul muomalasini, tashqi savdoni qattiq tartibga solib turishni ta'minlovchi ma'muriy yo'l bilan mamlakatning pul boyligini ko'paytirishga qaratilgan. Rivojlangan merkantilizm XVI asrning ikkinchi yarmidan XVIII asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrga kelib milliy sanoat va davlat savdosi rivojlanishining rag'batlantirilishi sababli, malakatlar o'rtasida savdo aloqalari keng va muntazam rivojlana boshladi.

Angliyada esa merkantilizm, iqtisodiy tarixdan ma'lumki, Fransiya nisbatan ancha «unumli» bo'ldi. Angliyada merkantilizm bilan bo'lgan g'oyaviy kurash natijasida eng muhim nazariy xulosalar ishlab chiqildi va ular A.Smit, D.Rikardo, T.Maltus, J.S.Mill va boshqalarning asarlarida o'z aksini topdi.

#### **Asosiy tushuncha va iboralar**

Merkantilizm; Ilk merkantilizm; Rivojlangan merkantilizm; Tashqi savdoni tartibga solish; «Pul balansi»; «Savdo balansi»; aktiv savdo balansi; kolbertizm; kameralistika; proteksionizm; «Siyosiy iqtisod traktati».

#### **Nazorat uchun savollar**

1. Merkantilizm ta'limotining mohiyati.
2. Merkantilistlarning ilmiy dunyoqarash tamoyillari.
3. Merkantilizmning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Merkantilizm siyosatida proteksionizm va cheklovlar.
5. Ilk merkantilistlar: Tashqi savdoda ijobiy saldonga erishish yo'llari nimalardan iborat?
6. Rivojlangan merkantilizm vakillari aktiv savdo balansiga erishish uchun qanday tavsiyalarni ilgari surdilar?
7. Kolbertizmning asosiy g'oyalari.
8. Kameralistikaning asosiy g'oyalari.

## VI.BOB. ANGLIYA VA FRANSIYADA KLASSIK MAKTABNING SHAKLLANISHI

### 6.1.Klassik iqtisodiy maktab vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari

Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida keng tarqalgan paytda, XVII asrda klassik siyosiy iqtisod maktabi (“Klassik siyosiy iqtisod” atamasi K.Marks tomonidan berilgan) paydo bo‘ldi. Klassik maktab ishlab chiqarishning yangi usuli shakllanayotgan va mustahkamlanayotgan davrda vujudga keldi. Kapitalizm ayrim mamlakatlarda tarixiy shart-sharoitlarga mos ravishda feodal munosabatlarning saqlanganlik darajasiga qarab turlicha rivojlandi. Bu jarayonlar dastlab XVI asrda Angliyada ro‘y bera boshladi. Feodalizm emirilib, uning zaminida kapitalistik, ya‘ni bozor munosabatlari shakllana bordi. Uy hunarmandchiligi o‘rniga *manufakturaning* kirib kelishi katta ijobiy voqea bo‘ldi.

Iqtisodiyotning faqat muomala sohasinigina tahlil etgan merkantilistlardan farqli ravishda, klassik maktab namoyandalari feodalizm o‘rniga kelgan nisbatan progressiv kapitalistik bozor munosabatlarining ichki iqtisodiy aloqalarini o‘rgandilar va o‘z tadqiqotlarini asosan ishlab chiqarish sohasiga ko‘chirdilar. Klassik iqtisodiy maktab deganda *V.Pettidan* boshlanadigan iqtisodiy tadqiqotlar tan olinadi, bu ta‘limot ishlab chiqarishdagi bozor munosabatlarining ichki aloqadorligini o‘rganadi va tahlil etadi. “Men bir marta ta‘kidlayman”, deb yozadi K.Marks, “klassik siyosiy iqtisod deganda men *V.Pettidan* boshlab, ishlab chiqarishning burjua munosabatlarining ichki bog‘liqligini o‘rganadigan butun siyosiy iqtisodiyotni nazarda tutaman ...”<sup>10</sup>

Yangi ta‘limotning klassik (lot. *Classicus* -namunali, haqiqiy) deb atalishiga sabab avvalo shuki, hozirgi iqtisodiyotning asosida yotuvchi ko‘pgina nazariya va metodologik qoidalarning haqiqiy ilmiy xarakteri bilan izohlanadi. Mana shu maktab namoyondalarining xizmatlari tufayli iqtisodiy nazariya ilmiy fan darajasiga ko‘tarildi. Erkin xususiy tadbirkorlikning ahamiyati isbotlab berildi. P.Samuelson fikricha, yangi ta‘limot to‘la *laissez faire* (ya‘ni tadbirkorlik faoliyatiga davlatning mutlaq aralashmasligi) sharoitiga o‘tishga va voqealarning boshqacha rivojiga olib keladi va faqat XIX asrning oxirlarida deyarli barcha mamlakatlarda davlat iqtisodiy funksiyalarining doimiy kengayishi ro‘y berdi. Bu ta‘limot namoyandalari Angliyada *V.Pettidan* to *D.Rikardogacha*, Fransiyada

<sup>10</sup> Маркс К., Энгельс Ф. Сочинения. Т. 23. М. Политиздат, 1960. С. 91.

P.Buagilberdan S.Sismondigacha (XIX asrning o'rtalarigacha) yangi jamiyatning haqiqiy ishlab chiqarish munosabatlarini tadqiq etdilar. Ularning fikricha, erkin xo'jalik faoliyatida shu davrdagi tuzum mukammal, deb qaraladi.

Ya.S.Yadgarov klassik maktab rivojlanishida (ma'lum shart bilan) 4 bosqichni ajratadi:

<b>Bosqichlar</b>	<b>Klassik iqtisodiy maktabning shakllanishi</b>
1-bosqich XVII asr oxiri – XVIII asr boshi	Bu davr bozor munosabatlari sohasining kengayishi bilan bog'liq bo'lib, iqtisodiy fikrlar muomala sohasiga emas, balki ishlab chiqarish sohasiga qaratiladi. Uning asoschilari V.Petti va P.Buagilber boylik va farovonlik muomala sohasida emas, balki ishlab chiqarish sohasida yaratilishini ilk bor ko'rsatadilar.
2 - bosqich XVIII asr oxiri va XIX asr boshi	Bu klassik siyosiy iqtisodning asosiy kategoriyalari va qonuniyatlarining shakllanish davridir. Fan rivojlanishidagi bu bosqich shotlandiyalik iqtisodchi va faylasuf Adam Smit (1723-1790) nomi va asarlari bilan bog'liq. U birinchi bo'lib iqtisodiy nazariyani yaxlit fan sifatida, uning barcha elementlarini o'zaro bog'liqlikda qo'yganligidir.
3- bosqich XIX asrning 1-yarmiga to'g'ri keladi	Bu sanoati rivojlangan mamlakatlarda sanoat inqilobining tugash davri. Ushbu bosqichda klassik siyosiy iqtisodning asosiy qoidalari va qonunlari qayta ko'rib chiqilib, yanada rivojlantiriladi. Bu bosqich namoyondalari J.B.Sey, D.Rikardo, T.Mal'tus va N.Senior, amerikalik G.Keri va boshqalardir.
4- bosqich XIX asrning 2-yarmiga to'g'ri keladi	Bu davrda klassik siyosiy iqtisodning bir qator qoidalariga jiddiy tuzatishlar kiritiladi, iqtisodiy fikrning yangi yo'nalishlari shakllanadi. J.S.Mill va K.Marks g'oyalari o'z nihoyasiga yetadi.

### **6.1.Rasm. Klassik maktabning rivojlanish bosqichlari**

Klassik siyosiy iqtisod maktabi XVII asrda Angliyada vujudga kelgan. XVI asrning o'rtalarida paydo bo'lgan manufakturalar XVII asrga kelib sanoatning ayrim tarmoqlarining rivojlanishiga olib keldi. Buyuk Britaniya iqtisodiyoti dunyoda eng rivojlangan mamlakatga aylandi. XVIII asrga kelib bu yerda nafaqat savdoda, balki sanoat va qishloq xo'jaligida ham kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari vujudga keldi. Bu jarayon

mamlakatning sotsial-iqtisodiy taraqqiyoti tezlashishiga olib keldi. Ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanishiga imkoniyat, tadbirkorlar tashabbusiga erkinlik berishga harakat qilgan kapitalistik tuzumning afzalliklarini nazariy jihatdan asoslab beradigan iqtisodiy ta'limotlar yuzaga kela boshladi.

Demak, bu davrga kelib iqtisodiy ta'limotlarni rivojlantirish uchun, ya'ni iqtisodiyotni obyektiv tahlil qilish uchun qulay sharoit yaratildi. Mana shu sharoitda yashab ijod qilgan U.Petti, A.Smit, D.Rikardo, F.Kene va klassik siyosiy iqtisod maktabining boshqa vakillari iqtisodiyotni ilmiy nuqtai nazardan tadqiq qildilar. Haqiqatdan ham mazkur davr yangi klassik siyosiy iqtisod maktabining vujudga kelganligini bildiradi. Angliyada klassik siyosiy iqtisod maktabining dastlabki vakili U.Petti bo'lsa, Fransiyada - P.Buagilber, F.Kene, A.Tyurgo hisoblanadi. Keyinchalik bu maktab ta'limoti A.Smit, D.Rikardo J.B.Sey, T.Maltus tomonidan rivojlantirildi va J.S.Mill, K.Marks tomonidan yakunlandi.

### **6.2. Vilyam Petti asarlari va uslubining xususiyatlari**

Umumiy bahoga ko'ra, klassik maktab XVII asr oxiri - XVIII asr boshlarida V.Petti (Angliya) va P.Buagilber (Fransiya) asarlarida yaratildi.

Uilyam Petti - ingliz statisti va iqtisodchisi, Angliyada klassik siyosiy iqtisod asoschilaridan biri, savdo bilan shug'ullangan, qirollik flotida xizmat qilgan, tibbiyot fanlarini o'rgangan, Oksfordda fizika va anatomiyani o'qigan, Qirollik jamiyatining asoschilaridan biri, 1658-yilda parlament a'zosi bo'lgan.


U.Petti iqtisodiy muammolarga bag'ishlangan «Soliqlar va yig'imlar to'g'risida traktat» (1662y), «Donishmandlarga so'z» (1665y), «Irlandiyaning siyosiy anatomiyasi» (1672y), «Siyosiy arifmetika» (1683y) va boshqa asarlarni yozdi. U.Petti dastlab o'z asarlarida merkantilistlarning ijobiy savdo balansi g'oyasini va sanoatni rag'batlantirish maqsadida davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvini qo'llab quvvatladi. Ammo U.Petti asta-sekin tadqiqot obyektini o'zgartirdi va asosiy e'tiborni savdo muammosidan ishlab chiqarish muammosiga qaratdi. Uning qayd qilishicha, boylik ishlab chiqarishda yaratiladi, muomala sohasida esa u faqat taqsimlanadi.

Merkantilizm nuqtai nazaridan amaliy, aniq vazifalarni hal qilgan V.Petti o'z asarlarida iqtisodiy jarayonlarning tavsifiga muhim o'rin ajratgan. Ammo ularni tekshirganda, u yangi usulni qo'lladi - u hodisalar tubiga kirib borishga intildi, hodisalarni tasvirlashdan ularning mohiyatini tahlil qilishga o'tishga harakat qildi. U shaxslarning fikri, istaklari va ehtiroslariga bog'liq bo'lgan hamma narsani e'tiborsiz qoldirish kerakligiga e'tibor qaratdi, iqtisodiy hodisalarning sababiy bog'liqligini

ko'rsatishga harakat qildi. Shunday qilib, Petti siyosiy iqtisodda ilmiy abstraksiya usulini qo'llashni boshladi.

Uilyam Petti iqtisodiy hodisalarni aniq miqdoriy tahlil qilish zarurligini ilgari surdi. Ammo inson faqat muomala sohasini o'rganish bilan cheklanib qolmasligini anglab, ishlab chiqarishni iqtisodiyotning asosi, deb bildi. Boylik moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratiladi va muomala sohasi uning taqsimotini ta'minlaydi<sup>11</sup>.

U o'z tadqiqotlarida bir qancha metodik (shartli) soddalashtirishlardan foydalaniladi (6.2.rasm):



6.2. U. Petti's methodological simplifications.

**Boylik va pul nazariyalari.** Merkantilistlardan farqli ravishda, U. Petti fikri bo'yicha, nafaqat qimmatli metall va toshlar hamda pul boylik hisoblanadi, balki mamlakatning yeri, uylar, kemalar, tovarlar va hatto uy jihozlari ham boylikni tashkil etadi. Bu masala bo'yicha o'z fikrini rivojlantirib, bizning davrda keng tarqalgan «Mehnat boylikning otasi, yer esa uning onasi» degan iborani ishlatdi.

Mamlakat boyligini ko'paytirish uchun U. Petti qamoq jazosi o'miga pul jarimasini joriy etish zarurligini, pul to'lashga «qurbi etmagan o'g'rilarni» esa «qullikka» mahkum etishni, ishlashga majbur qilishni tavsiya etadi. Bu merkantilistlarga qarama-qarshi tarzda, boylik, eng avvalo, mehnat bilan yaratilishini bildiradi, ya'ni xo'jalik hayotidagi pulning «asosiy» rolini inkor etadi.

U. Petti bu fikrni rivojlantirib chetga pul chiqarishni ta'qiqlash bema'ni narsa ekanligini ko'rsatib o'tadi. Davlatning bunday hatti-harakati, uning

<sup>11</sup> ПЕТТИ В. Экономические и статистические работы / Пер с франц. М. 1940 С. 156, 22

fikri bo'yicha, mamlakatga chetdan tovar keltirishni man etish bilan bir narsadir. U.Petti bu fikrlari bilan o'zini pulning miqdoriy nazariyasi tarafdori ekanligini ko'rsatdi va muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori to'g'risidagi qonuniyatni tushunganligini namoyish etdi. Ammo u iqtisodiyotdagi pulning rolini yuzaki tushungan. Bir tomondan, pulning miqdoriy nazariyasi ham «pul o'z-o'zidan boylik mazmunini anglatmasligini» ko'rsatdi, ikkinchi tomondan esa - U.Petti va undan keyingi boshqa klassik iqtisodiy nazariya mualliflari, M.Blaug so'zi bilan aytganda, (pulning miqdoriy nazariyasi) asosiy e'tiborni pulning muomala vositasi sifatidagi rolga qaratgan holda, tovar va pul bozorlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni keltirib chiqaruvchi pulning qimmatni saqlash vositasi sifatidagi vazifasini inkor etdi.

Shuning uchun merkantilizimga nisbatan to'g'ri tanqidlari bilan birga, U.Pettining bu borada noto'g'ri tushunchalari ham bo'lgan. Masalan, u savdo va savdo kapitalining milliy boylik yaratishdagi ishtirokini inkor etdi va hatto savdogarlar sonini ancha kamaytirishni qattiq turib ma'qulladi. U.Petti savdogarlarni davlatning «qonini» taqsimlash bilan shug'ullanuvchi «o'yinchilar»ga o'xshatadi. U «qon» deganda qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlarini nazarda tutadi.

**Qiyamat nazariyasi.** U.Pettining merkantilistlar g'oyasiga bo'lgan salbiy munosabati nafaqat boylikning mohiyatini va uni ko'paytirish yo'llarini tahlil qilishda, balki tovarlar qiymatining yaratilish tabiatini va bozorda ularning qiymati darajasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu boradagi uning tadqiqotlari keyinchalik uni qiymatning mehnat nazariyasining birinchi muallifi, deb tan olinishiga sabab bo'ldi. Umuman olganda, qiymatning mehnat nazariyasi klassik iqtisodiy maktabning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

U.Petti nazariyalarning birida aytilishicha, tovar qiymati kumush qazib oluvchi mehnat bilan yaratiladi va uning «tabiiy bahosi» hisoblanadi; kumush qiymatiga tenglashtirilgan tovarlar qiymati esa ularning «haqiqiy bozor bahosi» hisoblanadi. Ikkinchi bir joyda qayd qilinishicha, tovar qiymati mehnat va yer ishtirokida yaratiladi. Ya'ni U.Pettining o'zi aytganidek «Kemaning yoki kamzul (syurtuk)ning qiymati qandaydir yer miqdori va qandaydir mehnat miqdori qiymatiga teng, chunki har ikkalasi - kema ham, kamzul ham - yer va inson mehnati bilan yaratiladi».

**Daromadlar nazariyasi.** Yollanma ishchilarning ish haqi, pul kapitali va yer egalari daromadlari to'g'risida U.Petti aytib o'tgan qoidalar keyinchalik klassik iqtisod maktabi vakillarining nazariy izlanishlari uchun asos bo'lib xizmat qildi. U.Petti ishchining daromadi sifatidagi ish haqini mehnatning bahosi, deb hisobladi va uning darajasini



ishchining yashashi uchun zarur bo'lgan vositalar minimumi bilan ifodaladi. U.Petti har bir ishchi «yashash, mehnat qilish va ko'payishi uchun» kerakli narsani olsa bas, degan xulosaga keldi. Buni u nazariy jihatdan isbotlab bermoqchi bo'ldi: agar ishchiga ko'rsatilgan minimumdan ikki baravar ko'p haq to'lansa, ishchi ikki marta kamroq ishlaydi, bu esa jamiyat uchun shuncha miqdordagi mehnat boy berilganini bildiradi<sup>12</sup>. U.Pettining ish haqi to'g'risidagi mazkur qoidasi «klassik maktabning» ko'pchilik vakillari nazariy tadqiqotlarining asosini tashkil etdi. Masalan, U.Pettidan keyin, D.Rikardo va T.Maltus ish haqini ishchi mehnatining bahosi sifatida tavsiflab, uni ishchining va uning oilasining yashashi uchun zarur bo'lgan vositalar minimumi bilan bog'lab tushuntirganlar.

U.Petti dehqonchilikda yaratilgan mahsulot qiymati bilan uni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar o'rtasidagi farqni renta deb atagan. Uning fikri bo'yicha renta qishloq xo'jaligida tuproq unumdorligining har xilligidan va yer uchastkasining bozorga uzoq-yaqin joylashishidan kelib chiqadi. Bundan biz U.Pettining birinchilardan bo'lib differensial renta tushunchasini ilgari surganligini ko'ramiz.

U.Petti yer bahosi muammosini juda qiziq va noyob tarzda hal etishga uringan. Lekin u bu muammoni to'g'ri yecha olmadi. Uning fikricha yerni sotib oluvchi har yili renta olish huquqini qo'lga kirituvchi shaxsdir. Shuning uchun yerning bahosi bir yillik muayyan miqdordagi rentaga teng bo'lishi kerak. Ammo u bu miqdorni ilmiy jihatdan aniqlab bera olmadi, ya'ni yerning bahosini keltirib chiqarish uchun bir yillik rentani ko'paytirish mumkin bo'lgan sonni topa olmadi. Bu savolni yyechish uchun U.Petti rentani 21 yilga ko'paytirishni tavsiya etadi. Negaki uning tasdiqlashicha faqat uch avlod vakillari: buva (50 yosh), o'g'il (28 yosh) va nevara (7 yosh) - birgalikda 21 yil yashashlari mumkin. Shuning uchun muayyan yer uchastkasining qiymatini tashkil etuvchi bir yillik renta summasi o'sha uch avlod kishilarining birgalikda yashash yiliga teng bo'lishi kerak. Shu sababli yerning qiymati ham taxminan shuncha miqdordagi bir yillik renta summasiga teng.

Shu bilan birga uning yer bahosini aniqlashdan kelib chiqadigan suda kapitali bilan yerdan olinadigan yillik renta o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik g'oyasi iqtisodiy fikrlarning rivojlanishida ijobiy rol o'ynadi. Buni keyinchalik K.Marks qayd qilib o'tadi. Ma'lum ma'noda u xuddi shunday fikr Y.Shumpeterning iqtisodiy qarashlarida ham uchraydi. Uningcha, birorta kapitalist yer uchastkasini ushbu uchastkadan olinishi mumkin bo'lgan rentaga teng foiz keltirishi mumkin bo'lgan pul summasidan

<sup>12</sup> Петти В. Указ соч. С 70-71


yuqori ham, past ham baholashi mumkin emas. Bironta yer egasi o'z uchastkasini undan olinadigan rentaga teng foiz keltiruvchi pul summasidan kamiga sotmaydi. Ammo u o'sha summadan ko'pini ham ololmaydi, negaki bunday summani to'lashga rozi bo'lgan kapitalistga birdaniga juda ko'p yer uchastkalari taklif qilinadi.

U.Petti birinchilardan bo'lib raqamlarni, hisob-kitoblarni, statistik ma'lumotlarni va statistik tahlil uslublarini (iqtisodiy statistikani u «Siyosiy arifmetika» deb atagan) keng qo'lladi. Uning asarlarida milliy boylik va milliy daromad statistikasiga, aholi sonini va uning tuzilishini hisoblashga, mehnat resurslarining qiymatini aniqlashga katta e'tibor beriladi. Unda o'z davri uchun ancha aniq bo'lgan mamlakat milliy boyligining hisoblari mavjud edi. Bu yerda U.Petti boylik tarkibiga ishchi kuchini ham kiritgan. U jamiyatning har xil ixtisoslikka bo'lgan ehtiyojini, jumladan zarur bo'lgan tibbiyot xodimlarining sonini hisoblab chiqdi. Ushbu hisoblar tufayli U.Petti har xil ixtisoslik bo'yicha ikkita Angliya universitetida nechta talaba ta'lim olishi kerakligini aniqlab berdi. Uning tomonidan boylikning asosiy ko'rinishi pul degan g'oya ham inkor etildi. U.Pettning hisobi bo'yicha Angliyada pul miqdori uning jami boyligining 3 foizidan ortmaydi. Haqiqatda milliy boylikning asosi - bu mol-mulk (yer, uy, transport vositalari, chorva va boshqalar).

### 6.3. Pier Buagilberning iqtisodiy ta'limoti

Angliyada burjua inqilobi bo'lib, kapitalistik munosabatlar tez shakllana boshlagan bir paytda Fransiyada XVII asrning ikkinchi yarmida feodal munosabatlar o'zining cho'qqisiga chiqqan edi. Yuqori tabaqa barcha yerning egasiga aylandi, dehqonlar shaxsan ozod bo'lsalar ham, feodal majburiyatlar nihoyatda ko'p edi. Xo'jalikdagi kapitalistik ukld nihoyatda sekin rivojlandi, ichki bozor xiyla tor edi, natural xo'jalik asosiy bo'lib, sanoat rivoji past bo'lgan. Faqat zeb-ziynat buyumlari va parfyumeriya mahsulotlari tayyorlash bo'yichagina Fransiya Yevropada yuqori o'rinda edi.

Fransiyaning XVII asr oxiri - XVIII asr boshidagi sotsial-iqtisodiy ahvoli klassik iqtisodiyotning Fransiyadagi asoschilaridan biri bo'lgan *Pier Buagilber* (1646-1714) ning iqtisodiy qarashlariga katta ta'sir ko'rsatdi.



### **6.3.Rasm. P.Buagilberning tadqiqot uslubi.**

Olimning tadqiqot predmeti jamiyat boyligi konsepsiyasidir, iborat. Bu boylik pulning fizik massasi bilan emas, balki turli-tuman foydali boylik va buyumlardan, masalan, non, vino, go'sht, kiyim-kechak va boshqalardan iboratdir. Hatto yerga va pulga egalikning o'zi boylikni ta'minlaydi. Agar yer ishlanmasa, pul esa hayot uchun zarur ashyolar (masalan, oziq-ovqat va kiyim-kechak)ga almashtirilmasa bunday «boylik» egasi qashshoqlikka mahkum etiladi.

Shu sababli jamiyatda pulni ko'paytirish emas, balki ishlab chiqarishni o'stirish masalasi iqtisodiy fanning asosiy vazifasi hisoblanishi kerak.

P.Buagilber huquqshunos bo'lishiga qaramasdan sinchkov aql, jamiyatdagi yuqori ijtimoiy mavqe unda mamlakatning iqtisodiy muammolarini bilishga, XVII asrning oxiri XVIII asrning boshidagi Fransiya viloyatlaridagi aholi turmush darajasining pastligi sabablarini aniqlashga bo'lgan qiziqishni o'yg'otdi. U o'zining birinchi islohotlar to'g'risidagi mulohazalarini «Fransiyadagi vaziyatning mufassal tavsifi, uning farovonligining pasayishi sabablari va qayta tiklanishining oddiy usullari...» asarida e'lon qildi. P.Buagilber bu asarida merkantilizm iqtisodiy siyosatini qattiq tanqid qildi. Bu siyosatning boshida o'sha davrdagi Lyudovik XIV qirolligida moliya vaziri lavozimini egallab turgan Jan Batist Kolber turar edi. U Fransiya tovarlari eksportini rag'batlantirishni, Fransiya keladigan import tovarlarni esa cheklashni, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga yuqori soliq belgilashni qonunlashtirgan. Bu sanoat ishlab chiqarishiga hamda bir butun milliy iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Iqtisodiyotdagi salbiy holatlarni bartaraf etish yo'llarini aniqlash P.Buagilberning keyingi, XVIII asrning boshida chop etilgan asarlarining ham asosiy vazifasi hisoblanadi. Ularda P.Buagilber merkantilizmni tanqid qilishni davom ettirdi, islohotlar zarurligini asoslab berdi, iqtisodiy o'sishning va davlat boyligining asosi deb bilgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish muammolariga alohida e'tibor qaratdi. Bunday iqtisodiy g'oyalari P.Buagilber iqtisodiy qarashlarida XVIII asrning yarmigacha saqlanib qoldi. Chunki o'sha davrda sotsial-iqtisodiy rivojlanishdagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining hal qiluvchi rolini targ'ibot qiluvchi fiziokratizm ancha kuchaygan edi.

1691-yilda u Fransiyaning og'ir iqtisodiy ahvoldan chiqarish tizimini taklif etdi. Dastlabki fikrlari bo'yicha turli islohotlar o'tkazib, 1707-yilda esa uning g'oyalari etilib, quyidagi uch qismdan tarkib topdi:

<i><b>P.Buagilber Fransiyaning og'ir iqtisodiy ahvoldan chiqarish tizimini taklif etdi.</b></i>		
<i><b>Soliq islohotini o'tkazish</b></i>	<i><b>Ichki savdoni har xil cheklashlardan ozod qilish</b></i>	<i><b>Donning erkin sotilishiga yo'l berish, donga tabiiy baho ta'sirini cheklamaslik.</b></i>
Soliq tizimining dehqonlar mehnatidan manfaatdorlik tamoyiliga asoslanishi, undan tashqari soliq barchaga tegishli bo'lishi kerak edi	Bu chora ichki bozorni kengaytirish, mehnat taqsimotining o'sishini ta'minlash, tovar-pul muomalasini kuchaytirishi kerak edi	Davlat bu sohada dehqonlarga homiylik qilishi zarur, deb hisobladi.

***6.4.Rasm. P.Buagilber tomonidan taklif etilgan Fransiyaning og'ir ahvoldan chiqarish yo'llari***

1707-yili P.Buagilberning «Fransiyaning qoralash» asari chop etildi. Unda Fransiyaning kambag'allik holati ko'rsatildi, merkantilistik siyosat qoralandi. Iqtisodiy islohotlar o'tkazish to'g'risida yangi g'oyalari ilgari surildi. Biroq ular o'zi ishongan va umid qilgan hukumat vazirlari tomonidan ham e'tiborga olinmadi, qo'llab quvvatlanmadi.

Iqtisodiy fikrlarning rivojlanishida va Fransiya bozor munosabatlarining shakllanishida P.Buagilberning hissasi katta bo'ldi. Aynan uning asarlari Fransuz klassik iqtisodiy maktabining shakllanish uchun nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qildi. U mamlakatning boyligi pul miqdoridan iborat emas, balki barcha foydali narsa va ne'matlardan tashkil topadi, degan konsepsiyani ilgari surdi.

**Nazariy qoidalarning o'ziga xosligi.** P.Buagilberning muhim yutuqi, U.Pettiga o'xshab, qiymatning mehnat nazariyasini asoslab berishi

hisoblanadi. Bunda u bozorda tovarlar o'rtasidagi almashuv nisbatlari mexanizmini sarflangan mehnat miqdori yoki ish vaqtini hisobga olgan holda tahlil qiladi. Bu nazariya nomukammal bo'lishiga qaramasdan (uning asosida xarajat tamoyili yotadi) o'z davri uchun progressiv hisoblanadi, negaki merkantilistlarning bahoning shakllanishida pulning tabiiy roli to'g'risidagi nazariyasidan keskin farq qiladi.

P.Buagilber merkantilizmni ko'p jihatdan to'g'ri tanqid qilish bilan birga, pulning tovar sifatidagi rolini mensimgan holda, mamlakatning iqtisodiy o'sishida qishloq xo'jaligi rolini mutlaqlashtirdi, boylikni ko'paytirishdagi sanoat va savdoning ahamiyatini inkor etdi. Klassik iqtisodiy nazariya vakillari ichida u pulni bekor qilish mumkin va zarur, deb hisoblagan yagona iqtisodchi hisoblanadi, uningcha pul tovarlarning «haqiqiy qiymatli» bo'yicha ayirboshlanishini buzadi.

Birinchi Fransuz klassik siyosiy iqtisodchisining fikri bo'yicha iqtisodiyotdagi asosiy soha savdo emas, balki ishlab chiqarish, eng avvalo, qishloq xo'jaligi hisoblanadi. P.Buagilber o'z asarlarida iqtisodiyotning «tabiiy» qonunlari to'g'risida qayd qilib o'tadi. Davlat yuqori soliqlarni joriy etish yoki proteksionizm siyosatini qo'llash bilan ularga xalaqit bermasligini tavsiya etadi.

Buagilberning eng buyuk xizmati shundaki, u qiymatni sarflangan ish vaqtiga tenglashtirdi. Lekin u tovar ishlab chiqarishning qulay tomonini saqlagan holda uning salbiy tomonlarini tugatishni orzu qiladi. Agar Pettining iqtisodiy ta'limotida almashuv qiymati asosiy bo'lsa, Buagilberda iste'mol qiymati bosh rolni o'ynaydi.

### **Qisqa xulosalar**

XVII asrda klassik siyosiy iqtisod maktabi paydo bo'ldi. Iqtisodiyotning faqat muomala sohasinigina tahlil etgan merkantilistlardan farqli ravishda, klassik maktab namoyandalari feodalizm o'rniga kelgan nisbatan progressiv kapitalistik bozor munosabatlarining ichki iqtisodiy aloqalarini o'rgandilar va o'z tadqiqotlarini asosan ishlab chiqarish sohasiga ko'chirdilar. Klassik iqtisodiy maktab deganda *V.Pettidan* boshlanadigan iqtisodiy tadqiqotlar tan olinadi, bu ta'limot ishlab chiqarishdagi bozor munosabatlarining ichki aloqadorligini o'rganadi va tahlil etadi. Mana shu maktab namoyondalarining xizmatlari tufayli iqtisodiy nazariya ilmiy fan darajasiga ko'tarildi.

Umumiy bahoga ko'ra, klassik maktab XVII asr oxiri - XVIII asr boshlarida *V.Petti* (Angliya) va *P.Buagilber* (Fransiya) asarlarida yaratildi. *U.Petti* dastlab o'z asarlarida merkantilistlarning ijobiy savdo balansi g'oyasini va sanoatni rag'batlantirish maqsadida davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvini qo'llab quvvatladi. Ammo *U.Petti* asta-sekin tadqiqot

obyektini o'zgartirdi va asosiy e'tiborni savdo muammosidan ishlab chiqarish muammosiga qaratdi. U.Petti tovarlar qiymatining yaratilish tabiatini va bozorda ularning qimmati darajasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu boradagi uning tadqiqotlari keyinchalik uni qiymatning mehnat nazariyasining birinchi muallifi, deb tan olinishiga sabab bo'ldi.

P.Buagilberning muhim yutug'i, U.Pettiga o'xshab, qiymatning mehnat nazariyasini asoslab berishi hisoblanadi. Bunda u bozorda tovarlar o'rtasidagi almashuv nisbatlari mexanizmini sarflangan mehnat miqdori yoki ish vaqtini hisobga olgan holda tahlil qiladi.

#### **Asosiy tushuncha va iboralar**

Klassik siyosiy iqtisod; ish haqi, pul, renta, bozor bahosi; qiymat nazariyasi; erkin bozor munosabatlari, oddiy takror ishlab chiqarish, sof bozor iqtisodiyoti, manufaktura.

#### **Nazorat uchun savollar**

1. Klassik iqtisodiy maktab vujudga kelishiningtarixiy shart-sharoitlari.
2. Klassik maktab rivojlanishidagi 4 bosqichni aytib bering.
3. V.Pettining iqtisodiy qarashlari va uning qiymat, ish haqi, pul, renta to'g'risidagi g'oyalari.
4. Per Buagilberning iqtisodiy ta'limoti.
5. P. Buagilber tomonidan taklif etilgan Fransiyani og'ir ahvoldan chiqarish yo'llari nimalardan iborat?

## VII.BOB. FRANSIYADA FIZIOKRATLAR MAKTABINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

### 7.1. Fiziokratizm iqtisodiy ta'limotining vujudga kelishi.

Fiziokratlar (lotincha *physio* - tabiat va *kratos* - hokimiyat)- bu XVIII asrdagi fransuz iqtisodchilari - Viktor de Mirabo, Dyupon de Nemur, Jan Jak Tyurgo, Vensan de Turne, Merse de La River klassik siyosiy iqtisod vakillaridir.

“Fiziokratlar” atamasi faqat XIX asrda qo‘llanila boshlandi; Kene va uning shogirdlari hayotlari davomida o‘zlarini “iqtisodchi”, ta’limotlarini esa “siyosiy iqtisod” deb atashgan. “Fiziokratiya” nomini Dyupont de Nemur - Kene asarlarini birinchi noshiri - ushbu maktab yerni, tabiatni ishlab chiqarishning yagona mustaqil omili, deb bilishini hisobga olgan holda bergan. Biroq, bu nom fiziokratlar ta’limotini boshqa jihatdan xarakterlashi mumkin edi, chunki ular jamiyatning iqtisodiy hayotida “tabiiy tartib” (ordre naturel) tarafdorlari bo‘lgan - bu XVIII asr falsafasining ratsionalistik ma’nosida tabiiy huquq yoki tabiiy qonun tushunchalariga o‘xshash g‘oya.

Fiziokratlar maktabi Fransiyada feodalizmdan kapitalizmga o‘tish davrida vujudga keldi. Bu tasodifiy hol emas edi. O‘sha davrda Fransiyada manufaktura ancha rivojlangan bo‘lsada, ammo mamlakat hali ham agrar holatda edi. Aholining asosiy qismi qishloqlarda yashar, milliy boylikning 2/3 qismi shu sohada yuzaga keltirilar edi. Qishloq xo‘jaligi ahvolini yaxshilash tadbirlari fiziokratlar tadqiqotlarining asosini tashkil etadi. Ular qishloq xo‘jaligini iqtisodiyotning yagona unumli sohasi deb hisobladilar. Ularning fikricha, boylik faqat qishloq xo‘jaligida yaratiladi, sanoat va savdoda esa u qayta ishlanadi va qayta taqsimlanadi, xolos degan xulosaga kelishdi. Shunga ko‘ra fiziokratlar tadqiqotni muomala sohasidan ishlab chiqarish sohasiga olib o‘tdilar va bu bilan kapitalistik tizimning keyingi tahlili uchun asos yaratdilar.

### 7.2. Fiziokratlarning iqtisodiy dasturi

Fransua Kene (1694-1774) - fiziokratlar maktabining asoschisidir. F.Kene har tomonlama bilimli olim bo‘lib, Versal yaqinida kambag‘al dehqon oilasida dunyoga keldi. U yoshligidan tibbiyotga qiziqdi va bu sohada ta’lim oldi. Keyinchalik tibbiyot amaliyoti unga shuhrat keltirdi. 1752-yilda Qirol Lyudovik XV saroyida tabiblik qildi. Tibbiyot va biologiyaga oid ko‘pgina asarlar yaratdi. F.Kene iqtisodiyot muammolari bilan oltmish yoshidan boshlab bevosita shug‘ullana boshladi.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, F.Kenening iqtisodiy g‘oyalari qirol saroyida - Versalda yuzaga keldi. U umrining oxirigacha o‘sha yerda yashadi va ijod qildi. F.Kenening «Fermerlar», «Don», «Aholi», «Soliqlar»

nomli dastlabki iqtisodiy maqolalari Didro va D.Alamber tomonidan chop etilgan «Qomus»da eʼlon qilindi. 1758-yilda uning asosiy asari «Iqtisodiy jadval» dunyoga keldi. F.Kene nafaqat fiziokratizm maktabi asosini yaratdi, balki uning nazariy va siyosiy dasturini ham shakllantirdi. Uning fiziokratik gʻoyalarini keyinchalik A.Tyurgo va boshqa bir qator Fransuz iqtisodchilari davom ettirdilar va targʻibot qildilar. Shunday qilib, haqiqiy fiziokratlar maktabi yoki oʻsha davr tili bilan aytganda «iqtisodchilar maktabi» tarkib topdi. Uning eng rivojlangan davri XVIII asrning 60-70 yillariga toʻgʻri keladi.

**Tadqiqot metodi.** Fiziokratizm gʻoyalarini Dyupon de Nemur, DʼAlamber, V.Mirabo, G.Letron va boshqalar keng targʻib etdilar. Qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishi muammolari *tadqiqot predmeti* sifatida qaraladi. Shu bilan birga, xalq xoʻjaligi tarmoqlarining oʻzaro chambarchas bogʻliqligi deyarli eʼtiborga olinmaydi.

F.Kene «*tabiiy tartib*» konsepsiyasini ilgari surdi, bu olimning uslubiy platformasi edi («*tabiiy huquq*» konsepsiyasini eslang), bunda u paydo boʻlayotgan va tobora mustaxkamlanayotgan daxlsiz xususiy mulkni tushundi, iqtisodiyot erkin raqobat asosida rivojlanishini, bozor bahosining stixiyali oʻzgarishi, yaʼni davlatning aralashuvini inkor etadigan jarayonni qoʻllab-quvvatladi, boylkning adolatli taqsimlanishini istar edi. Iqtisodiy rivojlanish odamlarning istak-hohishiga bogʻliq boʻlmagan tabiiy jarayon boʻlib, uning maʼlum qonuniyatlarga boʻysunishini tan olish fiziokratlarning soʻzsiz yutugʻi edi.

F.Kene «*tabiiy tartib*» konsepsiyasining huquqiy asosi xususiy mulkni, shaxsiy manfaatlarni muhofaza qiluvchi va takror ishlab chiqarishni va moddiy boylklarni toʻgʻri taqsimlashni taʼminlovchi davlatning jismoniy va maʼnaviy qonunlari hisoblanadi. Tabiiy tartib tabiatda, tirik organizmda, hayvonot dunyosida mavjud boʻlgan tabiiy qonunlar bilan boshqarilib turiladi. F.Kening yozishicha, tabiiy tartibning mohiyati shundaki, bir odamning shaxsiy manfaati boshqalarning umumiy manfaatidan ajralgan boʻlishi mumkin emas. Bu esa erkinlik hukmronlik qilgan sharoitda boʻladi. Ana shunda dunyo oʻz-oʻzidan harakatlanadi. Shu bilan birga F.Kene ogohlantirib oʻtadi: «Yuqori hokimiyat» oqsuyaklardan yoki yirik yer egalari vakillaridan tashkil topishi mumkin emas; ular birga qoʻshilib qonunning oʻzidan ancha kuchli hokimiyat tashkil etishi, millatni qul qilishi, adolatsizlikni keltirib chiqarishi, yirtqichlarcha zulm oʻtkazishi va oʻta ketgan beboshlikni keltirib chiqarishi mumkin». U, yuqori davlat hokimiyati tabiiy tartib qonunlarini yaxshi biladigan, oʻqimishli bir shaxs qoʻlida boʻlishini maqsadga muvofiq, deb hisoblagan.



**Sof mahsulot to'g'risidagi ta'limot.** F.Kenening nazariy merosida uning sof mahsulot (hozir uni milliy daromad deb atashadi) to'g'risidagi ta'limoti muhim o'rin egallaydi. Uning fikriga ko'ra, sof mahsulotning manbai yer va unga sarflangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida band bo'lgan kishilarning mehnati hisoblanadi. Demak, boylikning (sof mahsulot) ko'payishi ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan «yer in'omidir». Shu boisdan davlat sanoatni emas, balki qishloq xo'jaligini rag'batlantirish to'g'risida g'amxo'rlik qilishi kerak. F.Kene «Dehqonlar kambag'al bo'lsa qirollik kambag'al bo'ladi, qirollik kambag'al bo'lsa qiro'l kambag'al bo'ladi» deb, hukumatni ishonitirishga harakat qilgan. Savdo va sanoat boylik yaratmaydi, negaki savdogar va hunarmandlar qishloq xo'jaligida yaratilgan boylikni faqat bir joydan ikkinchi bir joyga etkazish va o'zgartirish bilan shug'ullanadi. Shuning uchun savdo va sanoat «unumsiz» hisoblanadi. U yerdagi tovarning o'sgan qiymati faqatgina savdo va sanoat xarajatlarini qoplash vositalarini o'z ichiga oladi, sof mahsulot esa bunda ko'paymaydi. Keyinchalik A.Smit fiziokratlarning sanoatning «unumsizligi» to'g'risidagi g'oyasiga qarshi chiqadi va sanoatda ham boylik yaratilishini ko'rsatib beradi.

F.Kene merkantilistlarning boylik savdoda yaratiladi degan tezisini tanqid qildi. Uning tasdiqlashicha, muomalada tovarlarning ayirboshlanishi ekvivalentli bo'ladi, ya'ni teng qiymatli tovarlar ayirboshlanadi. Demak, ayirboshlashda qiymatning hech qanday o'sishi sodir bo'lmaydi. F.Kene pulni foydasi yo'q boylik hisoblagan, unga faqat savdodagi vositachi sifatida qaragan. Shunga muvofiq, uningcha, davlatning boyishi pul kapitalining o'sishiga emas, balki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rivojlanishiga bog'liq bo'ladi.

**Sinflar nazariyasi.** F.Kene o'zi ishlab chiqqan unumlilik qoidasiga asoslangan holda jamiyatni uch sinfga ajratib ko'rsatib beradi: unumli sinf, unumsiz sinf, mulkdorlar sinfi. Unumli sinf - bu qishloq xo'jaligida ish bilan band bo'lgan barcha kishilar, dehqon va fermerlar ham kiradi. Ular sof mahsulot yaratadilar.

<i>F.Kene o'zi ishlab chiqqan unumlilik qoidasiga asoslangan holda jamiyatni uch sinfga ajratib ko'rsatib beradi:</i>		
<b>Unumli sinf</b>	<b>Unumsiz sinf</b>	<b>Mulkdorlar sinfi</b>
bu qishloq xo'jaligida ish bilan band bo'lgan barcha kishilar, dehqon va fermerlar ham kiradi. Ular sof mahsulot yaratadilar.	bular hunarmandlar, ishchilar, savdogarlar, xizmatkorlar, to'ralar, ya'ni dehqonchilikdan boshqa sohada ish bilan band bo'lgan kishilar.	yer egalari, unga qiro'l va ruhoniylar hani kiradi.

**7.1.Rasm.F.Kenening jamiyatni sinflarga ajratishi.**

«Unumsiz» sinf - bular hunarmandlar, ishchilar, savdogarlar, xizmatkorlar, to'ralar, ya'ni dehqonchilikdan boshqa sohada ish bilan band bo'lgan kishilar. Ular faqat o'zlarini ta'minlaydilar, o'z iste'moliga qanchalik mahsulot kerak bo'lsa, shunchalik mahsulot yaratadilar. Ular jamiyat uchun foydali, ammo o'zining ham, jamiyatning ham boyligini ko'paytirmaydi, shu ma'noda unumsizdir.

Mulkdorlar sinfi yer egalari, unga qirol va ruhoniylar ham kiradi. Mulkdorlar sinfi sof foydani olishga haqli, negaki ular o'z paytida yerlarni o'zlashtirgan, yerning unumdorligini oshirgan. Mulkdorlar tomonidan olinadigan daromad - bu ularning oldin qilgan xarajatlari uchun in'om. Albatta, jamiyatning sinflarga bunday bo'linishi noto'g'ridir. A.Smit fiziokratlarning bu boradagi nuqtai nazarini kinoyali ravishda shunday deydi: agar ularning mantig'iga amal qilsak, unda faqat ikki farzand ko'radigan har qanday nikohni unumsiz, deb tan olish kerak bo'ladi.

**Kapital nazariyasi.** Iqtisodiy fikrlar tarixida kapital to'g'risidagi birinchi chuqur nazariy tushunchani F.Kene ilgari surdi. Merkantilistlar kapitalni pul bilan bir narsa deb hisoblagan bo'lsalar, F.Kene fikriga ko'ra «pul unumsiz boyluk bo'lib, u hech narsa ishlab chiqarmaydi». Uning atamasi bo'yicha qishloq xo'jaligi qurollari, qurilishlari, mollari, hayvonlari va dehqonchilikda bir necha ishlab chiqarish sikllarida foydalaniladigan barcha narsalar «dastlabki avanslar» deyiladi (asosiy kapital). Bir ishlab chiqarish siklida ishlatiladigan urug'lik, em-xashak, ishchilarning mehnat haqi va boshqalarni u «har yillik avanslar»ga kiritdi (aylanma kapital). Ammo F.Kening xizmati faqat kapitalni ishlab chiqarishdagi roliga qarab uni asosiy va aylanma kapitalarga bo'lishdangina iborat emas. Undan tashqari, u aylanma kapital bilan birga asosiy kapital ham harakatda bo'lishini ishonarli qilib isbotlab berdi.

**Takror ishlab chiqarish nazariyasi.** Iqtisodiy ta'limotlarning rivojlanishida F.Kening mashhur «Iqtisodiy jadval» asari juda katta rol o'ynadi. Bu asarda ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni birinchi marta makroiqtisodiy darajada tahlil qilindi. F.Kene jamiyatdagi uchta ijtimoiy guruhlar - sinflar o'rtasida mahsulot va pulning ayirboshlanish jarayonini ko'rsatib berdi. Takror ishlab chiqarish jarayonini tahlil qilishda baholarning o'zgarmasligi asos qilib olinadi. (Bunda almashuv ekvivalentlik tamoyili asosida ro'y berayapti deb faraz qilinadi). Bu jarayon tashqi bozor ta'sirisiz, ya'ni faqat ichki bozor sharoitida yuz beryapti, deb qaraladi.

«Jadvaldagi» takror ishlab chiqarishning boshlang'ich nuqtasi yaratilgan bir yillik mahsulot hisoblanadi. F.Kene statistik hisob-kitoblarga asoslangan holda Fransiya dehqonchiligidagi yalpi mahsulot qiymatini

5 mlrd. livrga (livr - o'sha paytdagi Fransiya pul birligi) baholadi (oziq-ovqat 4 mlrd. livrni, xomashyo 1 mlrd. livrni tashkil etadi). Bu mahsulotdan tashqari fermerlar o'tgan yilgi hosilni sotishdan olgan 2 mlrd. livrga ega. Bu pulni ular mulkdorlarga ijara haqi sifatida yer uchun to'laydilar. Unumsiz yoki «hosilsiz» sinf 2 mlrd. livrlik sanoat mahsulotiga ega. Jami ijtimoiy mahsulot, F.Kene hisobi bo'yicha, 7 mlrd. livrni tashkil etadi. Mulkdorlar (yer egalari) hosilni yig'ishtirib olgandan keyin fermerlardan 2 mlrd. livr ijara haqi olganlar.

Bu yerda barcha yaratilgan mahsulot realizatsiya si va aylanish jarayoni qanday amalga oshadi? «Iqtisodiy jadval»ning shartlariga ko'ra bu jarayon besh aktdan iborat bo'lib, uning har birida 1 mlrd. livrga teng mahsulot realizatsiya si amalga oshiriladi.

Mulkdorlar «unumli sinf»dan 1 mlrd. livrlik oziq-ovqat mahsulotlarini sotib oladilar. Buning natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 1/5 qismi realizatsiya qilinadi. Mahsulotning bu qismi muomala sohasidan iste'mol sohasiga (yer egalari) o'tadi.

Mulkdorlar «unumsiz sinf»dan 1 mlrd. livrlik sanoat mahsulotlarni sotib oladilar. «Unumsiz sinf» shu bilan o'z mahsulotining yarmini realizatsiya qiladi. «Unumsiz sinf» mulkdorlardan olgan puliga «unumli sinf»dan iste'mol buyumlarni sotib oladi. Shu bilan qishloq xo'jaligi mahsulotining yana 1/5 qismi realizatsiya qilinadi.

«Unumli sinf» «unumsiz sinfdan» olgan 1 mlrd. livrga uning o'zidan («unumsiz sinf»dan) shuncha pulga ishlab chiqarish qurollarni oladi (ular asosiy kapitalning eyilgan, ishdan chiqqan qismini qayta tiklashga ishlatiladi). Buning natijasida sanoat mahsulotlarining ikkinchi yarmi realizatsiya qilinadi. Aylanish jarayoning beshinchi, yakunlovchi aktida «unumsiz sinf» «unumli sinf»dan 1 mlrd. livrlik qishloq xo'jaligi xomashyosini xarid qiladi.

Oxirida jami ijtimoiy mahsulotning butun aylanish jarayoni natijasida sinflar o'rtasida 3 mlrd. livrlik qishloq xo'jalik mahsulotlari va 2 mlrd. livrlik sanoat buyumlari realizatsiya qilinadi. «Unumli sinf» ixtiyorida qolgan 2 mlrd. livrlik mahsulot barcha sinflar o'rtasidagi umumiy aylanishda qatnashmaydi, u faqat o'z sinfi doirasida aylanadi. Bu mahsulot qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonida sarflangan urug'lik va oziq-ovqat mahsulotlari o'mini qoplaydi. «Unumli sinf» tomonidan sotib olingan sanoat tovarlari asosiy kapitalning eskirgan qismini qoplash uchun ishlatiladi. Naqd pul (2 mlrd.) muomala (aylanish) natijasida «unumli sinf» qo'lga kelib tushadi, ammo keyingi muddat uchun ijara haqi to'lash natijasida bu pul yana er egalari ixtiyoriga o'tadi. Shunday qilib, yangi ishlab chiqarish siklini boshlash uchun, ya'ni oldingi hajmdagi

ishlab chiqarishni, oddiy takror ishlab chiqarishni davom ettirish uchun zarur shart - sharoitlar yaratiladi.

«Iqtisodiy jadval»da takror ishlab chiqarishni tahlil qilish asosida olingan muhim ilmiy xulosa shundaki, unda ayrim oldi-sotdi aktlari qarab chiqilmaydi, balki juda ko'p bunday yakka muomala aktlari sinflar o'rtasidagi muomalaga mujassamlashtiriladi. Ana shu sinflar o'rtasidagi muomala F.Kene tadqiqotining predmeti hisoblanadi. Ayniqsa, uning muomalani takror ishlab chiqarish jarayonining atigi bir shakli sifatida, pul muomalasini esa kapitalning faqat aylanish momenti sifatida ko'rsatib berishga qilgan harakati samarali bo'ldi.

Iqtisodiy jadval makroiqtisodiy sohalarining o'zaro aloqalarining kuchli, ijodiy tushunchasini juda sodda ifodalab beradi. Aylana sxemalar orqali bu tushunchani izohlab berish maqsadga muvofiqdir.



### **7.2. Rasm. Makroiqtisodiy sohalarining o'zaro aloqalari.**

Fermerlar, bu aylananing markazida joylashtirilgan chunki (Fiziokratlar qarashlariga ko'ra) yer sof mahsulot ishlab chiqaradigan yagona omil hisoblanadi. Makro tarmoqlar o'rtasidagi daromad oqimi soat aylanishi bo'yicha tasvirlanadi. Yer egalari fermerlardan renta shaklida daromad oladi va uni fermerlar va hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun sarflaydi. Hunarmandlar yer egasi va fermerlardan daromad oladi va fermer tomonidan yetkazib beriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib olish uchun sarf etadi. Makro tarmoqlar ichidagi bu oqim faqat fermerlar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki faqatgina ular sof mahsulot ishlab chiqaradilar. Bu sohalar orasidagi oqim yuqoridagi rasmda ko'rsatilgan.

Ammo F.Kening takror ishlab chiqarish to'g'risidagi ta'limotida bir qator kamchiliklar mavjud. «Iqtisodiy jadval»dagi sinflar tushunchasida izchillik, ilmiylik yetishmaydi. Sanoatchilarni ishlab chiqarish vositaliridan mahrum etgan holda (ular o'z mahsulotlarining hammasini sotib yuboradi), F.Kene ularni ishlab chiqarish jarayonini qaytadan boshlash imkoniyatidan mahrum etadi. Mahsulotni realizatsiya qilishda markaziy o'ringa yer egalari o'z aloqalarining o'tib qolishi noto'g'ri bo'lgan. «Iqtisodiy jadval»da

ijtimoiy mahsulotning joylashishi ham to'liq ochib berilmagan. Ammo undagi kamchiliklar mazkur asarning qimmatini tushirmaydi. Unda iqtisodiy fikrlar tarixida birinchi marta milliy iqtisodiyot makroiqtisodiy darajada tahlil qilindi va undagi g'oyalari bo'lajak iqtisodiy modellarning kurtagi bo'lib qoldi.

### **7.3. A.Tyurgo asarlarida fiziokratik tizimni rivojlantirilishi**

F.Keningning g'oyalari Ann Rober Jak Tyurgo (1727-1781yy.) tomonidan davom ettirildi va rivojlantirildi. A.Tyurgo Parijda dvoryanlar oilasida tug'ildi. Oilaviy an'anaga ko'ra u diniy ta'lim olishga majbur bo'ldi. Lekin Sarbonnaning Teologiya (diniy) fakultetini tugatgach, bu sohada ishlashdan bosh tortdi. 1751-yildan Parij parlamentining chinovnigi, 1761-74-yillarda Limojda intendant lavozimida ishladi. Bu uzoq viloyatda markaziy hokimiyat vakili sifatida u xo'jalik ishlarini, jumladan soliq olish tizimini nazorat qilib turdi. Aynan Limojda yashab turgan davrda A.Tyurgo o'zining «Boylikning yaratilishi va taqsimlanishi to'g'risida mulohazalar» (1766) nomli asosiy iqtisodiy asarini, tugallanmasdan qolgan «Qimmat va pul» (1769) kitobini va boshqa asarlarni yozdi. Ulardagi fikrlar, umuman fiziokratik qarashlarga hamda bozor iqtisodiy munosabatlari tamoyillariga, eng avvalo, erkin raqobat va erkin savdo tamoyillariga asoslangan.

1774-yili qirol Lyudovik XVI A.Tyurgoni moliya bosh nazoratchisi lavozimiga tayinladi. Bu lavozimda ikki yilga yaqin ishlagan A.Tyurgo, davlat xarajatlarini kamaytirishga erisha olmagan bo'lsada, lekin mamlakat iqtisodiyotini har tomonlama erkinlashtirish uchun imkoniyat yaratib beruvchi bir qator farmon va qonun loyihalarini amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. Ammo uning har bir islohotga oid yangiliklari parlamentda o'zining monopol mavqeini saqlab qolishga intilgan chinovniklar tomonidan qattiq qarshilikka duch keldi. Shuning uchun islohotlari ko'p vaqt amal qilmadi. 1776-yili A.Tyurgo iste'foga chiqqach, ular bekor qilindi.

A.Tyurgo vazir sifatida amalga oshirgan asosiy islohotlar: mamlakat ichkarisida don va uning erkin savdosining tashkil etilishi; qirollikka erkin don olib kelish va undan boj to'lovlarisiz erkin don olib chiqish; natural yer majburiyatining pulli yer solig'i (o'lpon) bilan almashtirilishi; sanoat sohasida tadbirkorlikning rivojlanishiga to'sqinlik qituvchi hunarmandchilik sexlari va gildiyalarining (yirik savdogarlar va hunarmandlar birlashmasi) bekor qilinishi va boshqalar hisoblanadi.

**Ish haqi nazariyasi.** Xuddi fiziokratlarga o'xshab, A.Tyurgoning tasdiqlashicha, dehqon barcha ishlarda birinchi harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi; u o'z yerida barcha hunarmandlarning ish haqini yaratadi. Ish

haqiga nisbatan ko'proq ishlab chiqaruvchi yagona mehnat - bu dehqon mehnatidir. U merkantilistlarni tanqid qilgan holda, millatning boyligi deb, eng avvalo, yerni va undan olinadigan «sof daromadni» hisobladi.

A.Tyurgo ish haqini, F.Kene kabi, yashash vositalari minimumiga bog'lab tushuntiradi. Ammo A.Tyurgo undan farqli ravishda ish haqining yashash vositalari minimumiga kelib taqalish mexanizmini ochib bermoqchi bo'ldi. Ish haqini ishchining hayoti uchun zarur bo'lgan yashash vositalari minimumi darajasiga pasaytiruvchi bunday mexanizm, uning fikricha, mehnatga bo'lgan talabning mehnat taklifidan orqada qolib ketishi, ishchilar o'rtasidagi raqobatning rivojlanmaganligi deb hisobladi.

**Sinflar nazariyasi.** A.Tyurgo F.Kenega o'xshab, jamiyatni uch sinfga ajaratadi: unumli sinf (qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan band bo'lgan kishilar); unumsiz sinf (sanoat va boshqa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan kishilar); er egalari sinfi. Lekin birinchi ikkita sinfni «ishlovchilar yoki ish bilan band bo'lganlar» deb ataydi. Ularning har biridagi odamlarni ikki razryadga bo'lib ko'rsatadi, ya'ni avans beruvchi tadbirkorlar yoki kapitalistlar va ish haqi oluvchi oddiy ishchilar. Shu bilan birga, olimning tasdiqlashicha, aynan unumsiz sinf «ish haqi oluvchi jamiyat a'zolari»ni o'z ichiga oladi.

**Qiymat, pul va foiz nazariyalari.** A.Tyurgo qiymat, baho va pulni tahlil qildi. Uning bu sohadagi fikrlari o'ziga xos xarakterga ega va qiymatning mehnat nazariyasidan farq qiladi. A.Tyurgo tovarning almashuv qiymati va bahosi sotuvchi va xaridorlar istagining intensivligi bilan aniqlanishi to'g'risidagi g'oyani, ya'ni foydalilik g'oyasini ilgari surdi. Keyinchalik bu g'oya zamonaviy baho nazariyasining shakllanishida ijobiy rol o'ynadi.

A.Tyurgo pulni o'z mohiyatiga ko'ra tovarlar dunyosidagi bir tovar sifatida ta'riflab, ayniqsa «oltin va kumushni, boshqa har qanday materialga nisbatan moneta (tanga) xizmatini o'tashga yaroqli», deb hisobladi, negaki ular tabiatan moneta bo'lib yaralgan, uning ustiga har qanday kelishuv va qonunlardan qat'iy nazar hamma uchun umumiy moneta bo'lib qoladi. Uning fikricha pul, ya'ni oltin va kumushning bahosi nafaqat barcha boshqa tovarlarga nisbatan o'zgarib turiladi, balki bir-biriga bo'lgan nisbati, kam yoki ko'pligiga qarab ham o'zgarib turadi. A.Tyurgo qog'oz pullarning miqdori yaratilgan tovar va xizmatlarning miqdoriga mos kelmagan sharoitda bunday pullardan foydalanish noqulayliklari to'g'risidagi qoidani dalillar bilan isbotlab berdi.

A.Tyurgo iqtisodiyotda proteksionizm siyosatining salbiy tomonini ko'rsatib berdi. Uning fikricha «olish va sotishdagi umumiy erkinlik, bir tomondan, sotuvchiga ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi narxni, ikkinchi

tomondan, xaridorga eng yaxshi tovarni eng past bahoda sotib olishni ta'minlashning yagona vositasidir».

A.Tyurgo suda (pul) foizini tadqiqot qilar ekan, qarzga olingan pulni o'simi bilan qaytarishga jinoyat sifatida qaraydigan nasixatgo'ylar bid'atlarini qoraladi. Uning ta'kidlashicha, qarz beruvchi qarz vaqti davomida ushbu qarzga bergan puli uchun olishi mumkin bo'lgan daromadni yo'qotadi, qarz oluvchi esa bu pulni samarali ishlatib ancha foyda ko'rishi mumkin. Ko'rinib turibdiki qarz beruvchi qarz oluvchiga ozor etkazayotgani yo'q, aksincha birinchisining pulidan ikkinchisi foyda ko'rayapti. Ana shu foyda qarz oluvchini foiz to'lash sharti bilan qarz olishga undovchi asosiy kuch hisoblanadi. U foizni foydadan to'laydi. Demak, A.Tyurgoning fikriga ko'ra, bunday «kelishuvdan» qarz beruvchi ham, qarz oluvchi ham manfaatdor. Joriy foizga kelsak, A.Tyurgo bo'yicha, u bozorda kapitalning ko'p yoki kamligini ko'rsatuvchi termometr vazifasini o'taydi, xususan foizning past bo'lishi - bu kapital ko'pligi natijasidir.

### **Qisqa xulosalar**

Fiziokratlar maktabi Fransiyada feodalizmdan kapitalizmga o'tish davrida vujudga keldi. Qishloq xo'jaligi ahvolini yaxshilash tadbirlari fiziokratlar tadqiqotlarining asosini tashkil etadi. Ular qishloq xo'jaligini iqtisodiyotning yagona unumli sohasi deb hisobladilar.

Iqtisodiy ta'limotlarning rivojlanishida F.Kenening mashhur «Iqtisodiy jadval» asari juda katta rol o'ynadi. Bu asarda ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni birinchi marta makroiqtisodiy darajada tahlil qilindi. Iqtisodiy jadval makroiqtisodiy sohalarining o'zaro aloqalarining kuchli, ijodiy tushunchasini juda sodda ifodalab beradi.

### **Asosiy tushuncha va iboralar**

Fiziokratizm; sof mahsulot; tabiiy tartib konsepsiyasi, unumli va unumsiz mehnat, sof mahsulot, kapital, «Iqtisodiy jadval», oddiy takror ishlab chiqarish, sof bozor iqtisodiyoti.

### **Nazorat uchun savollar**

- 1.Fiziokratizmning mohiyati va xususiyatlari nimadan iborat?
- 2.F.Kenening «Iqtisodiy jadval» asaridagi iqtisodiy g'oyalari mazmuni.
3. F.Kene jamiyatni qanday sinflarga ajratgan?
- 4.A.Tyurgoning bosh asari va undagi iqtisodiy g'oyalarni sharhlab bering?

## VIII. BOB: KLASSIK IQTISODIY MAKTABNING TO'LIQ SHAKLLANISHI

### ADAM SMIT VA DAVID RIKARDO IQTISODIY TA'LIMOTLARI

#### 8.1. A.Smit asarlarida klassik maktab g'oyalarning yanada rivojlantirilishi

XVIII asr boshida Angliya jahonda eng rivojlangan va sanoatlashgan davlatga aylana boshladi, iqtisodiyotda va ijtimoiy hayotda kapitalistik munosabatlar xal qiluvchi o'rinlarni egalladi. Mamlakatda yuksak rivojlangan qishloq xo'jaligi va tez o'sayotgan sanoat mavjud edi, faol tashqi savdo olib borilardi. Yangi jamiyatga xos sinfiy ajralish yaqqol bo'lib, ishchilar, sohibkorlar, yer egalari - lendlordlar va fermerlar bor edi. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi choragida Buyuk Britaniyada boshqa davlatlarga nisbatan iqtisodiy g'oyalarning rivojlanishi uchun nihoyatda qulay sharoitlar yuzaga keldi, bu g'oyalar A.Smit va D.Rikardo ta'limotlarida o'z aksini topdi.

Smit jamiyat va iqtisod o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rgangan buyuk olim edi. Hozirda biz bu tarmoqqa alohida e'tibor bermasakda, Smit jamiyatning ko'pgina sohalari orasidagi bog'liklikni o'rgangan va bu hozir iqtisodchi, siyosiy olimlar, sotsiologlar, etikaning alohida muammosi sifatida faylasuflar tomonidan o'rganiladi. U siyosiy va iqtisodiy erkinlik orasidagi o'zaro bog'liqlikni, shaxsiy mol-mulk huquqlari va davlat o'rtasidagi munosabatlarni o'rgangan.

Smit ko'pincha iqtisodiyot otasi sifatida tilga olinadi. Klassik iqtisoddan oldingi iqtisodchilar ham xalqlar boyligini belgilab beruvchi omillarni, iqtisodiy o'sishni tezlashtirish choralari, millionlab iqtisodiy qarorlar bozor mexanizmi orqali samarali boshqarilishi muammolari bilan tanish bo'lsalarda, ularning hech biri bu qarashlarni tizimlashtirib yagona g'oyaga birlashtira olmagan.

Smitning deduktiv nazariya va tarixiy yondashuvni birlashtirgan metodologiyasi ham e'tiborga sazovor. Uning nazariy modellariga aniqlik va izchillik yetishmasdi, lekin uning o'zaro ichki bog'liqliklarni va iqtisodiy mexanizmlarni tasvirlashi va uning tahlillarda tarixiy misollar orqali tushuntira olish qobiliyatlarini tengsiz edi.

Adam Smitning «*laissez faire*» g'oyasi, albatta, qisman bozorlar qanday qilib ma'lum natijaga kelishini tushuntiruvchi modelga asoslanadi. Lekin uning qarashlari faqatgina nazariy bo'lib qolmay, o'sha davr vaziyatiga, o'zining mavjud tarixiy va institutsional sharoitlarni kuzatishlariga asoslangan edi. Smitning «*laissez faire*» g'oyasini ilgari



surishi “davlatning iqtisodiyotga aralashuvi cheklovsiz bozor faoliyatidan ko‘ra yaxshiroq natijalarni beradimi?” degan metodologiyaga asoslanadi. Smit bozor mexanizmi ayrim paytlari ijtimoiy ideal natija bermasligini tan olgan, lekin o‘z davrining vaziyatidan kelib chiqib davlatning aralashuvidan ko‘ra erkin bozor yaxshiroq natija beradi, deb ishongan. Shunday qilib, Smit bozor mexanizmi ideal bo‘lgani uchun emas, balki Angliyaning o‘sha davrdagi institutsional va tarixiy sharoitida bozor mexanizmi davlat aralashuvidan ko‘ra yaxshiroq natijalar keltirgani uchun «lassez faire» g‘oyasini ma’qullagan.

«**Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risidagi tadqiqot**» asari 1776-yil martda Londonda chop etildi. Asarda insoniyat tomonidan ilgari yaratilgan iqtisodiy bilimlar mujassamlashtirildi va umumiy nazariy prinsiplar asosida nisbatan batartib iqtisodiy fanlar tizimiga aylandi. A.Smitning bu asari besh kitobdan iborat:

<b>Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risidagi tadqiqot</b>	
1-kitob	Oiyamat va qo‘shimcha daromad muammolari tadqiq etilgan
2-kitob	Kapital jamg‘arilishi va uning funksional shakllari
3-kitob	Kapitalizm taraqqiyotining tarixiy shart-sharoitlari
4-kitob	Merkantilizm va fiziokratlarning ta’limotiga munosabat
5-kitob	Davlat moliya tizimi tadqiq etilgan

O‘sib borayotgan sohibkorlar uchun bu asar feodalizm qoldiqlarini tugatish uchun qimmatli qurol bo‘ldi. Yangi kapitalistik, ya’ni bozor iqtisodiyotining klassik ta’limoti yaratildi.

**A.Smit uslubi, uning o‘ziga xos xususiyatlari.** Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi va uning moddiy-turmush darajasini oshirish muammolari A.Smit tadqiqotining predmetini tashkil etadi. Qanday shart-sharoitlar va qanday qilib insonlar yuqoriroq moddiy turmush darajasiga erisha oladilar, degan fikr asarning asosiy g‘oyasini aks ettiradi. Uslubiy jihatdan bu tadqiqot iqtisodiy liberalizm konsepsiyasiga, ya’ni fiziokratlarning tabiiy tartibi, yanada aniqroq bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslanadi.

**Oiyamat va qo‘shimcha daromad muammolari.** A.Smit o‘z kitobida markaziy o‘ringa jamiyatning iqtisodiy rivojlanishini va uning farovonligini oshirishni qo‘yadi. Asarning boshida A.Smit «har bir xalqning yillik mehnati dastlabki jamg‘arma bo‘lib, u xalqqa yashash uchun zarur bo‘lgan barcha narsani beradi», deb qayd qilib o‘tadi. Demak, boylkning manbai mehnat. A.Smit bu fikmi rivojlantirib mehnat taqsimoti boylkni yaratishda asosiy omil hisoblanadi, degan xulosaga keladi. Chunki mehnat taqsimoti asosida uning unumdorligi oshadi. Muallif bu tezisini to‘g‘nog‘ich ishlab chiqarish ustaxonasi misoli yordamida asoslab beradi.

Ustaxonada o'n kishi ishlaydi. Ular o'rtasida mehnat taqsimlangan: biri simni tortadi, ikkinchisi uni to'g'rilaydi, uchinchi kesadi, to'rtinchisi uchini o'tkirlaydi va h.k. Bir kunda bu o'n kishi 48000 to'g'nog'ich, ya'ni har bir kishi 4800 donadan to'g'nog'ich ishlab chiqaradi. Agar ular bir birlariga bog'liq bo'lmagan holda ishlaganlarida, ularning hech qaysisi bir kunda 20 dan ko'p to'g'nog'ich tayyorlay olmagan bo'lar edi. Demak, ixtisoslashuv tufayli mehnat unumdorligi 240 barovardan ko'proq oshgan.

A.Smitning fikri bo'yicha mehnat taqsimoti - bu milliy mahsulot yaratish jarayonida odamlar o'rtasida hamkorlikni amalga oshirishning juda qulay shakli hisoblanadi (8.1.Rasm).

*Ixtisoslashuv tufayli mehnat  
jarayonini amalga  
oshirishda kishilarning  
chaqqonligi ortadi*

*Ular o'z faoliyatlarini  
takomillashtirish, ixtiro  
qilish uchun katta  
imkoniyatlarga ega  
bo'ladilar*

*Ular vaqtni tejaydilar,  
negaki doimo bir ish turidan  
boshqasiga o'tishga hojat  
qolmaydi*

### **8.1.Rasm. A.Smit. Mehnat taqsimotining afzalligi.**

Taraqqiyot va jamiyat farovonligining haqiqiy manbai «tabiat in'omi» emas (fiziokratlar hisoblaganlaridek), balki aynan mehnat taqsimotidir. Shu bilan birga ixtisoslashuvni chuqurlashtirish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi, negaki birinchidan, agar yaratilgan qo'shimcha mahsulot xarid qilinmasa, undagi mehnatni yanada taqsimlashga zarurat bo'lmaydi, ikkinchidan, korxonalarining ko'lami qancha kichik bo'lsa, mehnat taqsimoti uchun imkoniyatlar shuncha kam bo'ladi (foydalanayotgan kapital miqdoriga qarab).

Ushbu nazariyadan, milliy boylukning ko'payishi jamiyatdagi ayrim sinflar faoliyati natijasi emas (merkantilistlarda - savdogarlar, fiziokratlarda- yer egalari), balki mehnat taqsimotida qatnashayotgan barcha kishilar faoliyatining natijasidir, degan xulosa kelib chiqadi.

Boshqacha soʻz bilan aytilganda, foyda yaratuvchi har qanday mehnat unumli mehnatdir. Ammo bu masala boʻyicha A.Smitda izchillik boʻlmagan. Birinchidan, u faqat moddiy narsalarni yaratish va oʻzgartirish bilan bogʻliq boʻlgan mehnatni unumli mehnatga kiritgan. Bunga oʻqituvchilarning, yuristlarning, harbiylarning, maʼmuriyatning, yozuvchilarning va shu kabilarning koʻrsatayotgan xizmatlari kirmaydi. Ikkinchidan, A.Smit iqtisodiyotda qishloq xoʻjaligi sohasining ustunligi gʻoyasidan qutula olmagan. U hunarmandlar va savdogarlar mehnatini yer egalari mehnatiga nisbatan kam unumli boʻladi, deb tasdiqlaydi. Negaki oxirgisiga tabiat «yordam» beradi va «dehqonchilikka qoʻyilgan kapital haqiqiy boylikka va daromadga ancha koʻp qiymat qoʻshadi». Bunda A.Smitning taʼkidlashicha, iqtisodiyotning rivojlanib borishi bilan sanoat tovarlari bahosi pasayib borish tendensiyasiga, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari bahosi esa oʻsish tendensiyasiga ega. Shuning uchun, uning fikricha, qishloq xoʻjaligiga qoʻyilgan kapital ancha foydali hisoblanadi.


Agar oʻsha davrda Angliyada manufaktura sanoati rivojlana boshlaganini va hatto birinchi yuqori unumli fabrikalarning paydo boʻlganligini hisobga oladigan boʻlsak, A.Smitning bu xatosini tushunish yana ham qiyinlashadi. Uning unumli mehnat konsepsiyasida izchillikning yoʻqligi, ishlab chiqarish jarayonidagi kapital rolini yetarlicha tushunmaganligi natijasidir. U, xususan, kapitaldan keladigan daromad sifatidagi foizni inkor etadi, foydani esa tadbirkorlik riski kompensatsiyasi va boshqaruv uchun toʻlov sifatida koʻrsatib beradi. A.Smitning fiziokratik bidʼatlari jamiyat oʻz resurslarini, birinchi navbatda, qishloq xoʻjaligiga, ikkinchi navbatda, sanoatga va faqat, uchinchi navbatda, savdoga yoʻnaltirishi kerak degan fikrida oʻz ifodasini topadi. Bundan A.Smit sanoat toʻntarilishining dastlabki uchqunlarini va kelajakda yirik sanoat ishlab chiqarishining hal qiluvchi rolini koʻra olmagan, degan xulosa kelib chiqadi.

A.Smit boylikni koʻpaytirishda pulning roliga alohida urgʻu berib oʻtadi. Uning tasdiqlashicha, oʻz-oʻzidan gʻayriixtiyoriy tarzda boʻladigan ayirboshlash natijasida pulning xoʻjalikda qoʻllanilishi kelib chiqadi. Odamlar koʻp oʻtmay natural ayirboshlashning noqulayliklarini seza boshlaydilar va pul rolini bajaruvchi tovarlardan asta-sekin foydalanishga oʻtadilar. Keyin pul birligini yaratishga davlat hokimiyati jalb qilindi va uning huquqiy holati belgilandi. Jamiyat uchun natural ayirboshlashdan koʻra, pulli ayirboshlash foydali boʻldi. Shuning uchun pulli ayirboshlashga oʻtish milliy boylikni koʻpaytirishga imkoniyat yaratib berdi.

Kapitalni tashkil etish jarayoni ham oʻz-oʻzidan gʻayriixtiyoriy boʻladi.

Odamlarning jamg'armaga bo'lgan tabiiy intilishlari, jamiyatga o'z kapitalini ko'paytirish imkonini beradi, negaki jamg'arma investitsiyaning zaruriy sharti hisoblanadi. Kapitalning o'sishi - millat boyligini ko'paytirishning uchinchi (mehnat taqsimoti va puldan foydalanish bilan birga) asosiy omili: kapital qancha ko'p bo'lsa, ishchilarni boqish va ularni ixtisoslashtirish imkoniyati shuncha ko'p bo'ladi. Buning ustiga kapitalning o'sishi ayrim vaziyatlarda boylikni ko'paytirishning yagona vositasi bo'lishi mumkin. Shuning uchun A.Smit tejamkorlikni qo'llab-quvvatlaydi. Uning yozishicha «har bir isrofgar jamiyat boyligining dushmani, har qanday tejamkor odam - jamiyatga muvofiq ko'rsatuvchidir».

**Iqtisodiy liberalizm konsepsiyasi.** Jamiyatdagi mehnat taqsimoti odamlarni bir birlari bilan bog'lab turuvchi va ularga mahsulot va resurslarni almashtirish imkonini beruvchi mexanizمنىng bo'lishini taqozo etadi. Bunday mexanizm bozor hisoblanadi. Bozor to'g'risida A.Smit ta'limotidagi asosiy g'oya (8.2. Rasm):



8.2. Rasm. A.Smit ta'limotidagi asosiy g'oya.

Uning ta'limotiga ko'ra, bozor odamlar faoliyatini muvofiqlashtiradi, ularning manfaatlarini uyg'unlashtiradi. Bozor iqtisodiyoti novvoyini shirin non yopishga, bog'bonni ekologik toza meva-sabzavot yetishtirishga, savdogarlarni boshqa mintaqalardan arzon bahoga tovarlarni olib kelishga undaydi. Raqobat sharoitida iste'molchilar ehtiyojini yuqori darajada qondira oladigan ishlab chiqaruvchilar yashab keta oladi. Demak, ko'proq foyda olish ishtiyoqida bo'lgan tadbirkorlarning egoistik manfaatlari, ularni jamiyatning boshqa a'zolari manfaatlariga xizmat qilishga majbur

qiladi.

Ammo A.Smit har qanday erkin tadbirkorlikka ko‘r-ko‘rona mahliyo bo‘lgan emas. U xususiy korxonalar foydasini ta‘minlab beruvchi ikki shartning - **shaxsiy manfaat va raqobatning** bo‘lishini ko‘rsatib berdi. Shu sababli A.Smit aksionerlik jamiyatlariga salbiy munosabatda bo‘lgan (bundan banklar, sug‘urta kompaniyalari, kanallarni qurish yoki asrash, shaharlarni suv bilan ta‘minlash korxonalari mustasno), chunki ularda shaxsiy manfaat yo‘qoladi. Har xil turdagi monopoliyalarga ham u keskin salbiy munosabatda bo‘lgan, shu jumladan ayrim yirik kompaniyalar uchun amal qilayotgan imtiyozlarga ham (masalan, Ost-Indiya kompaniyasi uchun).

A.Smit iqtisodiy mexanizmlarning o‘z-o‘zidan (obyektiv) amal qilib turishini doimo qayd qilib o‘tadi. U fiziokratlardan keyin «Olam o‘z-o‘zidan harakatlanadi», deb takrorlab o‘tadi. Ammo ulardan farqli o‘laroq, A.Smit tushunchasi bo‘yicha, qachonki shaxsiy manfaatlar ijtimoiy manfaatlardan ustun tursa, ya‘ni qachonki jamiyat manfaatlari uning a‘zolari manfaatlarining yig‘indisi deb qaralsa, shundagina bozor qonunlari iqtisodiyotga ko‘proq ta‘sir ko‘rsatadi.


Amal qilib turgan tartib qandaydir bir buyuk tashkilotchining ishi emas, balki o‘z manfaatlari yo‘lida ish yuritayotgan millionlab odamlar harakati natijasidir. Masalan, A.Smit fikri bo‘yicha, mehnat taqsimoti bu barcha kishilarning bir buyumni ikkinchiga o‘zaro ayirboshlashga bo‘lgan tabiiy intilishlarining namoyon bo‘lishidir. A.Smitning asosiy xizmatlaridan biri shundan iboratki, u birinchi bo‘lib iqtisodiyotni o‘zining ichki qonuniyatlariga muvofiq amal qiluvchi, obyektiv, odamlarning irodasiga bog‘liq bo‘lmagan tizim sifatida qaraydi. Bunday tizim o‘zining ichki qonuniyatlariga muvofiq amal qiladi.

Har bir rivojlangan mamlakatda juda kuchli, inkor etib bo‘lmaydigan iqtisodiy qonunlar amal qiladi. Iqtisodiy qonunlarning amal qilishining muqarrar sharti, A.Smit tushunchasi bo‘yicha, erkin raqobat hisoblanadi. Uning fikricha, faqat raqobat bozor ishtirokchilarining baho ustidan hukmronlik qilishga yo‘l ko‘ymasligi mumkin. Sotuvchilar qancha ko‘p bo‘lsa monopolizm ehtimolligi shuncha kam bo‘ladi. Bu iste‘molchilar uchun qo‘l keladi, negaki «monopoliyalar mahsulotlar taqchilligini keltirib chiqargan holda o‘z mahsulotlarini tabiiy bahodan ancha yuqori bahoda sotadilar va o‘z daromadlarini ko‘paytiradilar».

A.Smit kitobining asosiy mohiyatini hukumatning va boshqalarning erkin raqobatga aralashuvini tanqid qilishi tashkil etadi. A.Smitning fikricha, iqtisodiy hayotda garmonik tartib hukmronlik qiladi: agar erkin raqobatni cheklamas, u dunyoni takomillashuvga olib kelgan bo‘lar edi.

Bunday tasdiqlashda, A.Smit o'zgarmas «tabiiy» iqtisodiy qonunlarning mavjudligiga asoslangan. Ammo ushbu qonunlar o'zgarmas deb tan olingan sharoitdagina ularning muhokamasi unchalik ma'no kasb etmaydi. Ular odamlarga foyda keltiradimi yoki zarar - uning ham ahamiyati bo'lmaydi, negaki biz ularni bekor qila olmaymiz. Birdan-bir talab qilinadigan narsa - bu ularning amal qilishiga xalaqit beruvchi sun'iy to'siqlardan jamiyatni ozod qilish.

A.Smit davlatning faqat uch funksiyasini tan oladi:



### 8.3. A.Smit. Davlatning uchta funksiyasi.

A.Smit iqtisodiyotning davlat sektori samarasizligini ko'rsatib o'tadi. «Har xil sabablarga ko'ra,- deb yozadi u, - hukumat doimo va beistisno tarzda isrofgar. Eng avvalo, u birovlar ishlab topgan pulni sarflaydi, o'zgaralar pulini esa hamisha o'zingnikidan ko'ra behuda sarflaysan. Undan tashqari, hukumat xususiy korxonalaridan juda uzoq turadi va ularning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan e'tiborni ularga qarata olmaydi».

A.Smit merkantilistlarning proteksionizm siyosatini tanqid qiladi. Uningcha, chetdan ancha arzon bahoga olib kelishi mumkin bo'lgan tovarni o'zida ishlab chiqarish be'mani narsadir. «Har qanday ongli oila boshlig'ining qoidasi shundan iboratki, sotib olishdan ko'ra uyda tayyorlash qimmatga tushsa, uni uyda tayyorlamaslik... Ayrim oilalar uchun oqilona hisoblangan narsa, bir butun davlat uchun bema'ni hisoblanmaydi».

#### A.Smitning nazariy qarashlari

1	Ishchi kuchi harakatidagi cheklashlarni bekor qilish (mehnat bozoridagi erkinlikni har xil turdagi feodal qoldiqlari cheklab kelgan)
2	Erkin er savdosi, er uchastkalarini taqsimlashni taqiqlovchi qonunlarni bekor qilish, davlat ixtiyorida qolgan erlarni xususiy shaxslar o'rtasida taqsimlash

3	Davlatning sanoat va ichki savdoni bo'ysundirish qoldiqlarini yo'q qilish
4	Eksport va importni cheklashni man etish
5	Mustamlakalarda sanoat rivojini taqiqlashni bekor qilish

A.Smitning nazariy qarashlaridan turli davlatlar, eng avvalo Angliya hukumati, keyinchalik esa ko'pchilik Yevropa mamlakatlari o'zlarining iqtisodiy siyosatida foydalandilar.

**«Ko'rinmas qo'l».** Bozor iqtisodiyoti bir markazdan turib boshqarilmaydi. Shunday bo'lsada, u muayyan tartib va qoidaga amal qiladi. Xo'jalik faoliyatining har bir ishtirokchisi o'z maqsadini ko'zlagan holda ish yuritadi. Biroq bunday sharoitda alohida kishilarning manfaatlari qanday uyg'unlashadi, barcha jamiyat manfaatlari qanday amalga oshadi? Birinchi bo'lib bu muammoni ilmiy darajaga ko'targan A.Smit bo'ladi. U shunday yozadi:

«Har bir kishi o'z kapitalini ko'proq qiymat keltiradigan qilib ishlatishga harakat qiladi. Odatda u jamiyat foydasiga ta'sir ko'rsatishni nazarda tutmaydi va unga ancha ta'sir ko'rsatayotganini sezmaydi. U faqat o'z manfaatini nazarda tutadi, faqat o'z foydasini ko'zlaydi. Shunday bo'lsada, bunday sharoitda ko'rinmas qo'l uni maqsad sari yo'naltiradi, garchi bunday maqsad uning rejasiga kirmagan bo'lsa ham. O'z manfaatlarini ko'zlagan holda u jamiyat manfaatlariga tez-tez ko'proq xizmat qilib turadi, ataylab unga xizmat qilgandan ko'ra».


Mazkur qoida «*ko'rinmas qo'l*» konsepsiyasi nomini olgan.

A.Smit aytib o'tgan «*ko'rinmas qo'l*» - bu bozor mexanizmi. U bozorning o'z funksiyasini bajarib turishini ta'minlaydi. Bozor mexanizmi eng avvalo baho orqali iqtisodiyotda «tartib o'rnatadi». Iqtisodiy nazariyada baho bozor xo'jaligining asosiy tashkiliy kuchi sifatida qaraladi. Baho talab va taklif o'zgarishi to'g'risida ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilarga signal berib turadi, ularni bir-birlarining manfaatlariga moslashishga majbur etadi. Bozor mexanizmida raqobat muhim rol o'ynaydi. U ishlab chiqaruvchilarni resurslardan samarali foydalanishga va xaridorlar ehtiyojini hisobga olishga majbur qiladi, resurslarning tarmoqlar bo'yicha oqilona taqsimlanishiga imkoniyat yaratib beradi.

Demak, bozor mexanizmi normal ishlab turgan sharoitda odam faqat boshqa kishilarga xizmat qilish va o'z mehnati hamda mehnat mahsulotini ayirboshlashga taklif qilish orqali o'zining manfaatlari yo'lida ish yuritishi

mumkin. Odamlar bir birlariga yordam beradilar va bir vaqtning o'zida jamiyatning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadilar, garchi ularning har biri xudbin va faqat o'z manfaatlarini yo'lida ishlayotgan bo'lsa ham. Odamlarning o'z moddiy ahvolini yaxshilashga bo'lgan tabiiy intilishi - bu shunday kuchli stimulk, agar uning amal qilishiga halaqit berilmasa, unda u o'z-o'zidan jamiyatni farovonlikka olib kelish qurbiga ega, deb hisoblaydi A.Smit. Shunday qilib, A.Smit nazariyasi bo'yicha, foyda ketidan quvish va raqobat butun jamiyatga naf keltiradi.

**Qiyamat nazariyasi va bahoning shakllanishi.** A.Smit «sarfli» qiyamat nazariyasiga asos soldi. U tovarning foydaliligi (iste'mol qiymati) bilan almashuv qiymatini bir-biriga qarshi qo'ydi va almashuv qiymatining shakllanishini tahlil qilishda foydalilikni inkor etdi. Keyinchalik bu nazariyadan ikki qarama-qarshi yo'nalish hisoblangan - iqtisodiy liberalizm va sotsializm vakillari o'zlarining prinsiplarini asoslash uchun foydalandilar.




#### **8.4. Rasm. A.Smit foydalangan kontsepsiya.**

A.Smit bozor bahosining beqarorligini talab va taklifdagi doimiy o'zgarishlarning natijasidir, deb ko'rsatib o'tadi. Lekin boylikning «haqiqiy» qiymati doimo o'zgarib turishi mumkin emas. Shuning uchun A.Smit o'z oldiga tovarning «real», «tabiiy» bahosini, ya'ni uning qiymatini topish vazifasini qo'ydi. Bunda u bir vaqtning o'zida ikki xil kontsepsiyadan foydalandi.

Birinchisi - tovarning qiymati faqat unga sarflangan mehnat bilan aniqlanadi: qancha ko'p mehnat sarflansa, tovar shuncha qimmat bo'ladi. Ammo ushbu qoida, A.Smitning fikricha, faqat jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida, «qoloq jamiyatlarda» qo'llaniladi. Lekin sivilizatsiyalashgan jamiyatda tovar qiymatini aniqlashda kapital va yer ham hisobga olinadi. Ikkinchi kontsepsiya ana shunday paydo bo'ladi, unga binoan tovar qiymatini yaratishda barcha ishlab chiqarish omillari (mehnat,



kapital, yer) qatnashadi. Shunga muvofiq tovar qiymati mehnat sarflaridan, foyda va yer rentasidan tashkil topadi, ya'ni ishlab chiqarish xarajatlari bilan aniqlanadi. A.Smit o'z qarashlarida bu ikkala konsepsiyadan foydalandi (7.5-rasm).



8.5.Rasm. A.Smit: tovar qiymati (bahosi)ning tashkil topishi to'g'risidagi ikki holat<sup>13</sup>.

8.5.rasmda A.Smitning birinchi konsepsiyasi «mehnat» so'zi yozilgan yaxlit strelka ko'rinishida aks ettirilgan. Bu qiymatni yaratishda mehnat yagona manba ekanligini ko'rsatdi. Mehnat bilan yaratilgan daromad taqsimlanish jarayonida ish haqiga, foydaga va rentaga bo'linadi. A.Smitning ikkinchi konsepsiyasining asl ma'nosi «Kapital» va «Yer» so'zlari yozilgan nuqtali chiziq (punktirli) strelka yordamida ifodalangan. Bu konsepsiya mahsulot va daromadlarni yaratishda mehnat bilan birga kapital va yer ham ishtirok etishini bildiradi. Ular endi qiymatning shakllanishida ishtirok etuvchi omil sifatida bo'ladi. Mehnat ish haqi ko'rinishida daromad yaratadi, kapital foyda ko'rinishida daromad yaratadi, yer renta ko'rinishida daromad yaratadi<sup>14</sup>.

A.Smitning ikkinchi konsepsiyasi oddiy tovar ishlab chiqarishni («qoloq jamiyatni») tahlil qilishdan kapitalistik tovar ishlab chiqarishni tadqiqot qilishga o'tish bilan bog'liq. Aynan kapitalistik tovar ishlab chiqarishda jonli mehnat qiymatning yagona manbai bo'la olmaydi. Oldin mehnat

<sup>13</sup> Барте́нь С.А. История эконо́мических уче́ний. В вопро́сах и отве́тах. Учебно-мето́дическое посо́бие. М.: Юри́ст, 1998. С.23

<sup>14</sup> Барте́нь С.А. История эконо́мических уче́ний. В вопро́сах и отве́тах. Учебно-мето́дическое посо́бие. М.: Юри́ст, 1998. С.23

vositalari ishlab chiqaruvchiga qarashli bo'lgan. Kapital jamg'arilishi va yerning xususiy mulkka aylanishidan oldingi jamiyatda, deb yozadi A.Smit, mehnat miqdorlari o'rtasidagi nisbat mahsulotlarni ayirboshlashning yagona asosi bo'lib kelgan. Barcha mehnat mahsuli ishlab chiqaruvchiga qarashli bo'ladi va sarflangan mehnatning miqdori bahoning yagona o'lchovi hisoblanadi.

Keyinchalik kapital jamg'arilib borgan sari vaziyat o'zgarib boradi. Tovarning qiymati ikki qismga bo'linadi: bir qismi ish haqiga, ikkinchi qismi kapital foydasiga. Kapital egasi yollanma mehnatni ishlatadi. Bunda yaratilgan barcha mahsulot ishlab chiqaruvchiga qarashli bo'lmaydi. Uning bir qismi kapital egasiga tegishli bo'ladi. Bunday sharoitda muayyan tovarni ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnat miqdori tovarning qiymatini aniqlashda birdan-bir manba bo'la olmaydi.

A.Cmitning fikri bo'yicha, «tabiiy baho» (qiymat) - bu shunday bahoki, uning tarkibiy qismlari mehnat, kapital va yer uchun to'lanadigan tabiiy normalarga taxminan mos keladi. Bu tabiiy normalar mintaqalar bo'yicha farq qiladi va ular hayot darajasiga, geografik va tabiiy sharoitlarga, o'rtacha xarajatlar darajasiga va boshqalarga qarab o'rnatiladi. Mazkur qoida F.Akvinskiyning «Odil narx» konsepsiyasiga o'xshab ketadi. Ikkita yondashuvning farqi shundaki, F.Akvinskiyda «odil narx» odamlar tomonidan ongli ravishda o'rnatiladi, A.Smit bo'yicha esa, «tabiiy bahoning» shakllanishi - obyektiv bozor qonunlarining amal qilish natijasidir.

Bozor bahosi «tabiiy baho» atrofida tebranib turadi, u bozor holatiga qarab undan yuqori yoki past bo'lishi mumkin. Ushbu tebranish tufayli taklif talabga moslashadi. Agar talab taklifdan kam bo'lsa, bozor bahosi xarajatlardan past bo'lgan bo'ladi va tadbirkorlar ishlab chiqarishni qisqartiradi. Va aksincha, talabning ortishi bahoning oshishini va taklifning ko'payishini rag'batlantiradi. Natijada bozor bahosi «tabiiy baho» darajasiga intiladi. Albatta, axborotning etishmasligi, tabiiy va sun'iy monopoliyalarning mavjudligi bilan bog'liq holatlar bundan istisno.

**Mehnat bozori va pul.** A.Smitning ko'rsatib berishicha, taklifning talabga moslashuvi nafaqat tovarlar bozorida, balki faoliyatning boshqa sohalarida ham kuzatiladi. Masalan, aholining o'sishi ishchi kuchiga bo'lgan talab bilan tartibga solinib turiladi. Quyi sinflarda an'anaviy ravishda bolalarning tug'ilishi ko'p bo'ladi. Lekin ishchi kuchiga talab ortmasa, albatta, ish haqi past bo'ladi, ularning ko'pi kambag'allikdan o'lib ketadi. Ish haqining ancha yuqori bo'lishi esa, ularning ko'pchiligining yashab ketishiga olib keladi.

Xuddi shunga o'xshab pulga bo'lgan talab uning taklifini tartibga solib

turadi. Mamlakatda tovar muomalasi uchun metall pullar qanchalik talab qilinsa, shunchalik taklif mavjud. Agar mamlakatda tovarlar kamayib ketsa, unda pul foydasiz bo'lib qoladi va import tovarlarni sotib olish uchun chetga chiqariladi. Banklar ham ortiqcha miqdorda banknot biletlarini chiqarishdan manfaatdor bo'lmaydi. Agar ular juda ko'p biletlarni chiqarsalar, unda tovarlar bahosi oshib ketadi, bilek egalari esa ularni oltin va kumushga almashtirib berish uchun da'vo qiladilar.

Merkantillistlarning pul konsepsiyasini rad etishga bo'lgan A.Smitning kuchli istagi uni boshqa jarga tortdi. U har qanday boshqa tovarga qaraganda pulga bo'lgan zarurat kamroq bo'ladi, deb tasdiqlaydi. Uningcha, pul ancha qimmat muomala xarajatlari hisoblanadi. Shuning uchun, iqtisodiyot pul miqdoriga qancha kam muhtoj bo'lsa, jamiyat talafotlari shuncha kam bo'ladi. Mamlakatda pul massasini ko'paytirishga qaratilgan merkantillistlar siyosati esa bema'nidir. A.Smitning pulning roliga yetarlicha ahamiyat bermaslik qoidasini klassik maktab bo'yicha uning izdoshlari o'zlashtirib oladilar va o'z ta'limotlarida qo'lladilar.

**Taqsimot nazariyasi.** A.Smitning taqsimot nazariyasi ishlab chiqarish nazariyasiga nisbatan unchalik ishonarli chiqmagan. Uni keyinchalik D.Rikardo va J.B.Seylar to'ldiradilar. A.Smitning taqsimot modelining zaifligi uning qiymatni tushunishdagi nuqsonlari, qishloq xo'jaligiga nisbatan fiziokratik fikrlari, xizmat ko'rsatish sohasiga munosib baho bermasligi, kapital va mehnat evaziga daromadning shakllanishi to'g'risidagi xatosi (u foyda va foiz farqini ajratmadi, keyin unda ish haqi goh yashash vositalari minimumi qiymatiga kelib taqaladi, goh talab va taklif bilan tartiblanib turiladi) bilan bog'liq. A.Smitning taqsimot nazariyasi ko'plab sotsialistik g'oyalar uchun «manba» bo'lib xizmat qildi.

A.Smit nazariyasi bo'yicha daromad uch qismga bo'linadi: ish haqi, renta va foydaga. Joriy moddiy sarflar ham pirovard natijada daromadga kelib taqaladi. Masalan, ko'ylakning qiymati yuqorida ko'rsatilgan daromad turlaridan tashqari gazlamaning qiymatini ham o'z ichiga oladi. Lekin gazlama konkret ishlab chiqaruvchidan xarid qilingan va uni sotishdan tushgan tushum ham daromadga va xomashyo (ip) to'lovlariga bo'linadi. Ipining qiymati esa o'z navbatida ish haqini, rentani va foydani o'z ichiga oladi. Pirovard natijada hammasi daromadga kelib taqaladi, deb hisoblaydi A.Smit.

U uch sinfni ajratib ko'rsatib beradi (daromadlar manbai mezoniga muvofiq): ishchilar, yer egalari va kapitalistlar. Bu sinflar vakillarining daromadlari yig'indisi jamiyatning milliy daromadini tashkil etadi. Demak, milliy daromad uchta ishlab chiqarish omili (mehnat, yer va kapital) ishtirokida yaratiladi. Daromadning boshqa turlari (xizmat

ko'rsatish sohasidan, davlat xizmatidan keladigan) - ikkilamchi, milliy daromadni qayta taqsimlash tufayli vujudga keladi, ya'ni ishchilar, yer egalari va kapitalistlar daromadidan to'lanadi.

A.Smitning o'zi taqsimot sohasini juda yaxshi (ideal) tashkil etilgan, deb hisoblamaydi (ayni chog'da, ishlab chiqarishni tashkil etishdagi tabiiy tartib uni to'liq qoniqtirgan bo'lsada). Uning tasdiqlashicha, «renta va foyda ish haqini yeb tashlaydi va yuqori sinflar quyi sinflarga zulm o'tkazadi». Kapitalistlar ishchilar bilan savdolashishda ustunlikka ega, negaki kapitalistlar bir-ikki yil ularsiz yashay oladilar, ishchilar esa doimiy daromad olishga muhtoj. Mehnat bozorida kapitalistlarning ustunlik holati natijasida mehnat haqi normasi ishchi oilasi uchun zarur bo'lgan yashash minimumi darajasiga intiladi. Mazkur qoida «ish haqi fondi» (yoki «ish haqining temir qonuni») konsepsiyasi nomini olgan. Bunda shu narsani hisobga olish zarurki, ya'ni A.Smit qayd qilib o'tgan «mehnatning tabiiy bahosi» nafaqat jismonan yashab ketishini taqozo etadi, balki norma! yashash shart-sharoitlarining bo'lishini ham ko'zda tutadi.

**Kapital va takror ishlab chiqarish nazariyasi.** A.Smitning kapital va takror ishlab chiqarish to'g'risidagi nazariyasida ancha katta ziddiyatlar mavjud. U ba'zida kapitalga to'g'ri baho berib, kapital yollanma mehnatni ekspluatatsiya qilish tufayli foyda keltiruvchi qiymat, deydi. Boshqa hollarda masalaga tarixdan tashqarida turib qaraladi va kapital bu ishlab chiqarish vositalari zahirasi bo'lib, ishlab chiqarish jarayonini davom ettirish uchun kerakli deyilgan. Fiziokratlar faqat qishloq xo'jaligida ishlatiladigan kapitalni unumli, deb atagan bo'lsalar, Smit sanoat kapitalini ham unumli deb uqtiradi (bu uning progressiv tomoni). U savdo kapitali ham unumli deb hisoblaydi, chunki u sanoat kapitaldan ajralib qolgan emas, balki moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan qo'shimcha qiymat - savdo foydasining manbai.

Smitning kapital ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun zahira kerak ekanligi to'g'risidagi qoidasi asosiy va aylanma kapital haqidagi tushunchaning boshi edi, bu atamalarni ham u kiritgan. Fiziokratlar (F.Kene) boshlang'ich va yillik avans (bo'nak) tushunchalarini dehqonchilik kapitaliga qo'llagan bo'lsalar, Smit asosiy va aylanma kapitalni sohasidan qat'i nazar barcha amaldagi kapitalga xos, deb tushuntiradi. Ammo u aylanma kapital deganda tovar va pul kapitalini xato tushungan (bu muomala sohasiga xos kapital). Bu kapitalni hosil qiluvchi moddiy elementlarga sotuvchilar qo'lidagi oziq-ovqat, materiallar va tayyor buyumlar hamda ko'rsatilgan taqsimlash va muomalaga kiritish uchun kerak bo'lgan pullar ham kirgan. Uning fikricha, aylanma kapital doimo muomalada bo'lishi kerak.

Shunday qilib, Pettidan keyin Smit ham asosiy kapitalga xodimlarning mehnat malakasi va qobiliyatini qo'shdi. Bu masalani ancha chigallashtirdi, chunki malaka va qobiliyat kapital deb e'lon qilindi. Uning egasi esa foyda oluvchi bo'lib qoladi (ishchi har doim ham foyda egasi bo'la olmaydi, uni kapitalist yoki yer egasi oladi). Asosiy S va aylanma Y kapitalni solishtirib, ular o'rtasidagi farq shundayki, deydi Smit, birinchi S bir egadan ikkinchisiga o'tmay va yana aylanmay foyda keltiradi, ikkinchi Y esa egasi qo'lidan bir shaklda ketib, boshqa shaklda qaytib keladi va foyda keltiradi. Shunday qilib, asosiy kapital umuman aylanmaydi, aylanma (oborot) kapital esa doimo muomalada bo'ladi.

Haqiqatda asosiy va aylanma kapital ishlab chiqarish kapitalining ikki ko'rinishidir. Ular bir-birlaridan qiymatlarining aylanish usullari bilan farq qiladi. Asosiy kapitalning qiymati konkret mehnat bilan bo'laklar bo'yicha ishlab chiqaruvchi tovarga ko'chiriladi, aylanma kapitalning qiymati esa to'laligicha shu tovarga o'tadi. Ijtimoiy kapitalni doimiy va o'zgaruvchan kapitalga bo'lish masalasi Smitga noma'lum bo'lib qolaverdi.

Smitning butun ijtimoiy kapitalni takror ishlab chiqarish nazariyasi uning qiymat nazariyasiga asoslangan. U ijtimoiy mahsulot qiymatining tarkibiy qismlari to'g'risida xato ta'limot yaratdi. Olimlar buni «*Smit dogmasi*» deb ataydilar. Smitning fikricha, yalpi ijtimoiy mahsulotning qiymati ish haqi, foyda va renta yigindisiga teng, ya'ni daromadlar summasidir. Ishlab chiqarish jarayonida jonli mehnat bilan birga ishlab chiqarish vositalari ham qo'llanilishini tushungan holda, Smit shunga qaramay ishlab chiqarish vositalari qiymatini oxir-oqibatda ish haqi, foyda va renta kabi daromadlarga bo'lish mumkin, deb o'yladi. Shunday qilib, u yalpi ijtimoiy mahsulot «qiymati»dan doimiy kapital S ni chiqarib tashlagan. Qiymatdan uning tarkibiy qismi bo'lgan doimiy kapitalni inkor etish takror ishlab chiqarish jarayonini tahlil qilish imkonini yo'qqa qilgan bo'lib chiqadi. O'z-o'zidan ravshanki, bunday sharoitda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish emas, xatto oddiy ishlab chiqarish mumkin bo'lmay qoladi (doimiy kapital S ko'p yillar ish beradi).

Smit takror ishlab chiqarish muammosini yechish uchun yo'l qidirib o'z nazariyasiga yalpi va sof daromad o'rtasidagi farqni kiritadi. Muayyan mamlakatning yillik barcha mahsuloti yalpi daromad bo'lsa, sof daromad yalpi daromadning shunday bir qismiki, uni shu mamlakat aholisi o'z kapitalini sarflamay iste'mol zahirasiga qo'yishi mumkin.

Smitning xatosi shuki, u yillik mahsulot qiymatini shu yili yangidan hosil qilingan qiymat bilan aynan bir deb o'ylagan (milliy daromad). Lekin

yangidan hosil qilingan qiymat daromadlarga ajraladi, yillik mahsulot qiymati ishlatilgan ishlab chiqarish vositalari qiymati, ya'ni doimiy kapitalni ham o'z ichiga oladi. Bu xatolik Smitning qiymat to'g'risidagi ta'limotining kamchiligi va cheklanganligidan kelib chiqqan. Umuman, bu yerda gap kengaytirilgan emas, balki oddiy tarkor ishlab chiqarish to'g'risida fikr yuritiladi.

Smit mehnatning ikki yoqlama xarakterini tushunmasdan, abstrakt mehnat yangi qiymat hosil qilishini, konkret mehnat esa ishlab chiqarish vositalari qiymatini yangi yaratilgan mahsulotga o'tkazishini ko'rsata olmadi. Ijtimoiy mahsulot qiymatidan doimiy kapital qiymatini yo'qotib qo'ygan Smit kapital jamg'arilishini butun qo'shimcha qiymatning qo'shimcha ish haqiga aylanishi bilan teng degan xato xulosa chiqardi. U o'ylardiki, kapitalistik ishlab chiqarish rivoji bilan ishchilar va ularning iste'moliga talab ham bir xil sur'atda oshadi, chunki daromad va shaxsiy iste'mol ishlab chiqarish bilan parallel o'sadi (bir qancha mamlakatlarda shunday bo'lmoqda).

**Renta.** Smit ijaraning bir-biriga zid bo'lgan eng kamida 4 ta nazariyasini taklif etdi, renta kelib chiqishi har xil omillarga^

- 1) Yer egalari talabiga,
- 2) Monopoliyalarga,
- 3) Me'yoriy afzalliklariga,
- 4) Tabiatning saxiyiligiga bog'liq, deb qaralgan. Dastlab, "Xalqlar boyligi..." asarida, renta narxga ta'sir qiluvchi omil sifatida ko'rilgan<sup>15</sup>. Lekin keyinchalik Smit Rikardoga yaqinlashib, narxlar rentaga ta'sir ko'rsatadi, deb ta'kidlagan<sup>16</sup>. Odatda Smit yer egalarini "o'zlari ko'rinmaydi-yu, lekin hosil yig'ishni yaxshi ko'radi"<sup>17</sup> deb qattiq tanqid qilardi. U Rikardo batafsil tushuntirgan yer egalari va kapitalistlar o'rtasidagi asosiy kelishmovchilikni payqadi. Bu Smitning iqtisodiyotdagi tabiiy uyg'unlik ayrim hollarda kelishmovchilikka ham olib kelishini tushunganidan dalolat beradi.

#### **Vaqt o'tishi bilan foyda normasi.**

Smitning fikricha, davlatning iqtisodiy o'sishi kapital miqdoriga bog'liq bo'lgan. U foydaning tabiati va manbasiga kam e'tibor qaratgan bo'lsa ham, vaqt o'tishi bilan foyda normasining o'zgarishiga juda qiziqqan. U foyda miqdori 3 ta sabab hisobiga tushishi mumkin, deb taxmin qilgan:

<sup>15</sup> Smith, *Wealth of Nations*, 50 6.


<sup>16</sup> Smith, *Wealth of Nations*, 145-146 6.

<sup>17</sup> Smith, *Wealth of Nations*, p. 49.

1) Mehnat bozoridagi raqobat. Kapitalning jamg'arilishi ishchi kuchi bozorida kapitalistlar o'rtasida raqobat yuzaga kelishiga olib keladi, natijada ish haqi oshadi. Smitning fikricha, ish haqining o'sishi foydaning kamayishiga sabab bo'ladi.

2) Tovarlar bozoridagi raqobat. Smitning fikricha, ishlab chiqarish hajmi oshishi bilan ishlab chiqaruvchilar o'rtasida ham raqobat kuchayadi, natijada tovarlar narxi va foyda qisqaradi. Bu holat butun iqtisodiyot darajasida ortiqcha ishlab chiqarishni mavjudligini bildiradi, bu esa Smitning ortiqcha chiqarish hech qachon bo'lmaydi, degan g'oyasiga to'g'ri kelmaydi.

3) Investitsiya bozoridagi raqobat. Smit investitsiya qilish imkoniyati cheklangan, shuning uchun kapitalning ko'p jamg'arilishi foyda normasining tushib ketishiga olib keladi, deb o'ylagan. U foiz stavkasining tarixiy ma'lumotlari dinamikasini o'rganib chiqib, faktlar uning nazariy xulosalarini qo'llab quvvatlaganini anglagan. U ba'zi koloniyalarda (masalan Shimoliy Amerikada) baland ish haqi va foyda normasi mavjud ekanligini qayd etdi.



8.6.Rasm. A.Smit. Milliy boylikning o'sishi.

Boylikni ko'paytirish omillari to'g'risidagi A.Smit tasavvurini umumlashgan tarzda yuqoridagi chizma ko'rinishida aks ettirish mumkin.

### 8.2. Adam Smit ta'limotining ahamiyati.

Smitning iqtisodiy nazariyaga qo'shgan hissasi va ta'siri nihoyatda ulkan. Boshqa o'sha davrdagi mutafakkirlarga qaraganda, Smit bozor iqtisodiyotini boshqaradigan asosiy g'oya va omillarni ko'ra oldi. Biroq,

uning ishlari xatolardan holi emas edi. U almashuv narxlari, narxlarning umumiy darajasi va farovonlik darajasi tushunchalarini aniq farqlamay va ular uchun alohida nazariyalar shakllantirmay o'zini va o'zidan keyingi iqtisodchilarni chalkashtirdi. Iqtisodiy ta'limotlar tarixchilari Smit qiymatning mehnat nazariyasini yoqlab ketdimi yoki yo'qligi haqida ko'p bahslashishadi. Agar biz almashuv narxlarining mehnat nazariyasini nazarda tutayotgan bo'lsak unda javobi ha va yo'q. U almashuv narxlarining mehnat nazariyasini faqatgina primitiv jamiyat uchun qo'lladi, lekin zamonaviy iqtisodiyot uchun u ishlab chiqarish xarajatlari nazariyasini ishlatdi.

Smit asosan iqtisodiy o'sish va rivojlanish chora-tadbirlari bilan bog'liq muammolar, xususan, xalqlar boyligini oshiruvchi chora-tadbirlarni aniqlash bilan ko'proq qiziqqan. U davlat laissez faire, ya'ni erkin bozor qoidalariga amal qilish kerak deb taklif beradi. Bu iqtisodiyotda kishi boshiga to'g'ri keluvchi daromadning maksimal darajada o'sishini ta'minlaydi, deb ta'kidlaydi. Uning bozor tahlili (bugungi kunda mikroiqtisodiyot deb ataluvchi) iqtisodiy o'sish nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi kerak. Uning laissez faire qoidasining samarali vosita ekanligiga ishonchi nafaqat uning resurslar taqsimotidagi samarasiga, balki iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'siriga ham asoslangan edi. U taklif etgan laissez faire va davlat aralashuvi haqidagi chora-tadbirlar doimo vaziyatga bog'langan edi. Ular ham nazariy fikrlarga, ham uy xo'jaligi, korxonalar, siyosatchilar va institutlarni o'rganishlarga asoslanadi. U sof nazariyachi bo'lib qolmay, siyosiy, tarixiy va institutsional omillarni ham hisobga olishga harakat qilgan. Bu qarash uning tahlili doirasidan chiqib, u taklif etgan choralarda ham o'z aksini topdi.

Smit asosan iqtisodiy o'sish bilan bog'liq savollar bilan qiziqqan bo'lsa ham, uning iqtisodiy nazariyaga qo'shgan eng katta hissasi raqobatli bozorlar ishlashining tadqiqoti edi. Buni amalga oshirishda u so'nggi merkantilistlar va fiziokratlarning ko'pgina tahlillarini bitta kitobga jamladi. U raqobatli bozor ishlash jarayonini oldingi iqtisodchilarga qaraganda aniqroq tushuntira oldi. O'zining nazariy qurilmasida, aniqrog'i qiymat nazariyasini shakllantirish jarayonida, u Rikardo va boshqa nazariyotchilar uchun muhim boshlang'ich nuqta qoldirdi.

### **8.3. D.Rikardo – sanoatning fabrika davri mafkurachisi**

David Rikardo (1772-1823) ko'zga ko'ringan birja makleridan iqtisodchiga aylangan olim. Iqtisodiyot nazariyasi faniga uslubiyot, qiymat shakllanishi, xalqaro savdo, davlat byudjeti, kamayib boruvchi foyda va renta nazariyalari bo'yicha fikr va mulohazalar keltirib o'tgan olimlardan biridir. 1799-yili u 28 yoshida iqtisodiyotni o'rgana boshlagan va 1810-yili



“Oltin quymasining yuqori narxi” kichik risolasini chop etdi. 1815-yilda chop etilgan “Don qonuni” risolasi Angliyaning eng qobiliyatli iqtisodchilaridan biri ekanligini belgilab berdi. 1817-yili chop etilgan “Siyosiy iqtisod tamoyillari va soliqqa tortish” deb nomlangan asosiy asari Adam Smitning “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to’g’risida”gi asaridagi iqtisodiy savollarni to’liq ochib bergan asar sifatida namoyon bo’ldi.

*Tadqiqot usuli* sifatida tabiiy tartib konsepsiyasi va mamlakat boyligi sifatida ishlab chiqarishning fizik hajmlarini ko’paytirish olinadi. A.Smit kabi D. Rikardo ham mantiqiy abstraksiya usulini keng qo’llagan.

**Qiymat nazariyasi.** D.Rikardo nazariyasida tovar qiymati uni eng yomon sharoitda ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnat miqdori bilan o’lchanadi. Masalan, qishloq xo’jaligi mahsulotlarining qiymati ularni eng yomon yerlarda ishlab chiqarishga ketgan mehnat sarflari bilan o’lchanadi. Agar qiymat ushbu xarajatlardan past bo’lsa, unda yomon sharoitda ishlovchilar ishlab chiqarishni to’xtatgan va mazkur tarmoqdan ketgan bo’lar edilar. Bu yerda shu narsaga e’tibor berish kerakki, D.Rikardo qiymatning mutloq ifodasini emas, balki ikki tovarning nisbiy qimmatini nazarda tutgan. Agar A tovar B tovarga ayirboshlansa, unda ayirboshlash proporsiyasi ularni ishlab chiqarishga ketgan mehnat sarflari nisbatiga asoslanadi.

Moddiy sarflarchi, ular qanday bo’ladi? D.Rikardo fikricha, kapital - bu mujassamlashgan mehnat, ya’ni kapitalni yaratuvchilarning oldingi mehnati. Demak, tovarning qiymati uni yomon ishlab chiqarish sharoitida tayyorlashga ketgan jonli mehnat sarflari bilan hamda kapital va xomashyoni ishlab chiqarish uchun ketgan oldingi mehnat sarflari bilan o’lchanadi. D.Rikardo ta’limotiga ko’ra, tovar qiymatini aniqlashda faqat uni ishlab chiqarishga ketgan mehnat sarflarini emas, balki uning sifatini (malakali va murakkab mehnatga ko’p haq to’lanadi), tovarni bozorga olib kelishga ketgan vaqtni, asosiy va aylanma kapitaldan foydalanish xususiyatini ham hisobga olish zarur. Erkin takror ishlab chiqarilmaydigan tovarlar qiymati esa nafaqat mehnat sarflariga, balki noyoblikka ham bog’liq bo’ladi.

Umuman olganda, D.Rikardo tomonidan ishlab chiqilgan qiymatning mehnat nazariyasi sarfli prinsiplarga asoslangan. Uning bu nazariyasini birinchi bo’lib tanqid qilgan o’zining do’sti T.Maltus hisoblanadi. U, birinchidan, savol qo’yadi: agar qiymatning mehnat nazariyasini to’g’ri deb faraz qilsak, unda mehnatga haq to’lash qanday bo’ladi: qiymat bo’yichami yoki qiymatdan past baho bo’yichami? Agar baho qiymatdan past bo’lsa, unda ekvivalentli ayirboshlash prinsipi buziladi (foydaliligi har

xil, lekin bir xil qiymatga ega bo'lgan tovarlar ayirboshlanadi) - bu klassik nazariyaning va D.Rikardoning asosiy prinsipi. Ikkinchidan, T.Maltus qiymatning mehnat nazariyasi real amaliyot bilan mos tushmasligini ko'rsatib beradi: agar qiymatning yagona manbai haqiqatdan ham mehnat bo'lsa, unda mehnat ko'p sarflanadigan tarmoqlardagi tadbirkorlar, kapital ko'p sarflanadigan tarmoqlardagi tadbirkorlarga nisbatan ko'proq foyda olishlari kerak. Amaliyotda esa barcha tarmoqlarda foyda normasi deyarli bir xil. Demak, D.Rikardo nazariyasi xato, tovar qiymati faqat mehnat bilan emas, balki boshqa ishlab chiqarish omillari sarflari bilan ham aniqlanadi deb, xulosa qiladi T.Maltus. D.Rikardo o'limidan sal avval, o'zining qiymat faqat mehnat sarflari bilan o'lchanadi deb tushuntirishga qilgan harakati noto'g'ri ekanligini tan olgan.

**Renta va ish haqi nazariyalari.** D.Rikardo tabiat va kapitalning qiymatni ko'paytirish xususiyatini inkor etadi. Masalan, uning nazariyasida yer rentasi (yerdan foydalangani uchun ijara haqi) bu tabiat natijasi emas,

balki sotsial omillarning qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bahosiga bo'lgan ta'siri natijasidir. Odamlar, birinchi navbatda, eng unumdorli yerlarda ishlaydilar. Ammo

A.Smit ta'limotiga ko'ra ish haqi mehnat unumdorligi natijasi. renta esa – yer unumdorligi natijasi hisoblanadi.  
D.Rikardoda ish haqi – mehnat sarflari natijasi, renta esa – kamyoblik va yer uchastkalarining har xilligi natijasi hisoblanadi.

aholi sonining ko'payib borishi yomon yerlarni ham ishlashga majbur etadi. Chunki yaxshi yerlarda etishtirilgan mahsulotlar o'sib borayotgan aholining ehtiyojlarini qondira olmaydi.


Faraz qilaylik, unumdorligi yaxshi muayyan yer uchastkasida ishlashga 10 soat ketadi va bozorda mahsulot bahosi 10 pul birligiga teng. Aholining o'sishi oziq-ovqat tovarlari bahosining oshishiga olib keladi. Bu esa ishlab chiqaruvchilarni yomon yerlarni ham ishlashga majbur qiladi. Bu yerlardan ko'rsatilgan miqdordagi hosilni olish uchun 10 soat emas, balki 15 soat ish vaqti ketadi. Shunga muvofiq mahsulotning bahosi ham 15 pul birligiga oshadi. Bozor bahosi bu summadan kam bo'lmasligi kerak, aks holda yomon yer uchastkalari ishlatilmasdan qolib ketadi. Yaxshi uchastkada ishlovchi fermerlar ishlab chiqarishga 10 pul birligiga teng mehnat sarflaydilar, o'z mahsulotlarini esa 15 pul birlikka setadilar. O'rtadagi 5 birlik farq yer egasiga tegadi. Ana shu, D.Rikardo nazariyasi bo'yicha, renta hisoblanadi. Uning tasdiqlashicha, keyinchalik aholining

yana o'sishi kishilarni yana ham yomonroq yerlarni ishlashga majbur etadi, bu esa qishloq xo'jalik mahsulotlari qiymatining o'sishiga va rentaning ko'payishiga olib keladi.

Shunday qilib, yer rentasi miqdori tuproq unumdorligiga va uchastkaning bozorga uzoq-yaqin joylashishiga bog'liq bo'ladi. Bu qoida keyinchalik **differensial renta konsepsiyasi** nomini oladi.

Renta qiymat yaratmaydi. Aksincha renta miqdori bozor bahosi darajasiga bog'liq bo'ladi. «Renta to'langani uchun non qimmat emas, balki non qimmat bo'lgani uchun renta to'lanadi... Agar, hatto, yer egalari barcha rentalardan voz kechganlarida ham nonning bahosi hech kamaymagan bo'lar edi», - deb yozadi D.Rikardo.

Aholi soni oshib borishi bilan milliy daromadda renta hissasi ko'payib borish tendensiyasi amal qiladi. Oziq-ovqat mahsulotlari narxining oshib borishi va milliy daromadda renta miqdorining ko'payib borish tendensiyasi D.Rikardoni juda tashvishga solgan. U bundan qutilishning yo'li, xuddi T.Maltusga o'xshab, tug'ilishni kamaytirish deb bilgan. D.Rikardo fikri bo'yicha, yomon yerlarni ishlamaslikka imkon beruvchi yana bir vosita - mustamlakalardagi yuqori unumdorli erlardan foydalanish hisoblanadi. Uchinchi vosita - xalqaro savdoni rivojlantirish, aholisi zich bo'lmagan mamlakatlardan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini olib kelish.



**8.7.Rasm. Rikardo bo'yicha rentasining hisob kitobi**

Nihoyat, D.Rikardo ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga imkon beruvchi texnik taraqqiyotga ishonch hosil qilgan.

Rikardo rentani ijarachiga turli unumdorlikka ega yer uchun to'lov sifatida ko'rdi. 8.7. rasmda ikki yer uchastkalari tahlil qilinadi, har biriga

sarmoya va mehnat birligi jihatidan qarasak, unumdor yerda u 100 bushel bug'doyni va unumsiz yerda u 90 bushelga ega umumiy jismoniy kuchni talab qiladi, deb aytadi<sup>18</sup>.

D.Rikardo ta'limotiga ko'ra, mehnatning qiymati ishchining jismoniy jihatdan yashash va avlodini ko'paytirish uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalar qiymati bilan aniqlanadi. Demak, real ish haqi doimiy. Nominal ish haqi esa oziq-ovqat mahsulotlari bahosi oshishi sababli ko'payishi mumkin. Agar mehnat taklifi juda oshib ketsa, uning bahosi qiymatidan past bo'ladi. Bunday vaziyatda T.Maltusning aholining nufus qonuni amal qiladi: aholi o'sishi kambag'allikni kuchaytiradi, u o'z navbatida aholining o'sishini sekinlashtiradi.

**«Asr stagnasiyasi».** Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda, D.Rikardo XVIII-XIX asrlarda kuzatilgan foyda normasining pasayish tendensiyasini tushuntirib berishga harakat qildi. Uningcha, jamiyat evolyusiyasi mehnatga bo'lgan talabning ko'payishiga olib keladi - bu esa aholining o'sishini rag'batlantiradi. Aholing o'sishi yomon yer uchastkalarini ishlashga majbur etadi va shu bilan bir vaqtda oziq-ovqat mahsulotlari bahosining oshishini (demak, nominal ish haqining ham) va yer rentasining ko'payishini keltirib chiqaradi. Shuning uchun tadbirkorlar yer egasi va yollanma ishchilarning daromaddagi hissasini (garchi bunda ularning real ish haqi oshmasa ham) ko'paytirishi kerak. Shunga muvofiq tadbirkorning daromaddagi ulushi kamayadi. Demak, foyda normasining pasayish tendensiyasi xo'jalik rivojlanishining natijasidir, degan xulosaga keladi D.Rikardo.

Bunday qonuniyat iqtisodiy o'sishning obyektiv chegaralarini keltirib chiqaradi: foyda normasining pasayib borishi bilan birga investisiyaga va ishlab chiqarishni kengaytirishga bo'lgan qiziqish kamayadi. Iqtisodiyot ertami-kechmi o'z rivojlanishini to'xtatadi. Bunday prognoz T.Maltusning pessimistik qarashlariga o'xshab ketadi. D.Rikardo, «asr stagnasiyasi» tendensiyasini eng zarur bo'lgan tovarlar qiymatini pasaytirish tufayli sekinlashtirish mumkin, deb hisoblagan. Bunga texnika taraqqiyoti (mehnat sig'imini kamaytiruvchi va shu sababli mahsulot bahosini pasaytiruvchi) va chet mamlakatlardan erkin don olib kelish yo'li bilan erishiladi. Ammo uning tasdiqlashicha, texnika taraqqiyoti ham, jahon savdosi rivojlanishi ham taraqqiyotning umumiy mantig'ini buza olmaydi.

**Qivosiy ustunlik nazariyasi.** D.Rikardo birinchilardan bo'lib ayrim tovarlarni ishlab chiqarishdagina emas, balki mamlakatlar o'rtasida ham

---

<sup>18</sup> H. Landreth, D. C. Colander. History of economic thought. Houghton Mifflin Company, Boston Toronto.p.72.

xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvning foydaliligini isbotlab berdi. Xalqaro mehnat taqsimotiga asoslangan holda, u qiyosiy ustunlik nazariyasini yaratdi. Bu nazariyaning asosiy qoidasi shundan iboratki, har bir mamlakat o'zining muayyan tovarni ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlari bilan uni sotib olishga ketadigan xarajatlari o'rtasidagi farqni hisobga olgan holda tashqi savdodan foyda ko'radi. Muayyan tovarni ishlab chiqarish bir mamlakat uchun boshqa mamlakatlarga nisbatan qulayroq bo'lishi mumkin. Shu boisdan, qiyosiy ustunlik nazariyasiga binoan, mamlakatlar xarajatlarni hisobga olgan holda u yoki bu mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi kerak.

D.Rikardo shunday misol keltiradi. Portugaliyada muayyan miqdordagi vinoni tayyorlash uchun 80 kishilik mehnat, gazlama ishlab chiqarish uchun esa 90 kishilik mehnat talab qilinadi (bir yilga). Angliyada shu miqdordagi vinoni ishlab chiqarish uchun 120 kishilik mehnat, gazlamani ishlab chiqarish uchun 100 kishilik mehnat sarflash zarur. Bu sharoitda Portugaliyaga vinoni gazlamaga ayirboshlash foydali, garchi olib kelingan gazlama Portugaliyaning o'zida Angliyaga nisbatan kam xarajat evaziga ishlab chiqarilishi mumkin bo'lsa ham. Gap shundaki, resurslarni gazlama ishlab chiqarishdan, Angliyaga nisbatan katta qiyosli ustunlikka ega bo'lgan, vino tayyorlash tarmog'iga o'tkazib, Portugaliya vinoni ayirboshlash yo'li bilan 80 kishilik mehnat sarflari hisobiga, ya'ni 10 kishilik mehnatni tejash evaziga, gazlama olishi mumkin. Bunday ayirboshlash Angliya uchun ham foydali, negaki u o'z kuchini gazlama ishlab chiqarishga sarflab, gazlamani sotish yo'li bilan muayyan miqdordagi vinoni 120 kishining mehnati hisobiga emas, balki faqat 100 kishilik mehnat evaziga olishi mumkin (ya'ni 20 kishilik mehnatni tejash hisobiga). Bu misoldan shu narsa ko'rinadiki, qiyosli ustunlik mavjud bo'lsa, ixtisoslashuv va ayirboshlash ikkala mamlakat uchun ham foydalidir. Bundan mamlakatlar o'rtasida mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi zarurligi kelib chiqadi.

**Pul va pul muomalasi masalalari.** Rikardo pul va pul muomalasi masalalariga katta e'tibor qildi. U dastlabki asarlarida pulni ichki qiymatga ega bo'lgan tovar deb qaragan. Pul qiymati unga sarf qilingan mehnat bilan aniqlangan. Rikardo pulning xususiyati shuki, u aloxida tovar, boshqa tovarlarning qiymat o'lchovi va muomala vositasi sifatida harakat qiladi, deydi. U qog'oz pullarning miqdorida muomalada bo'lgan tovar massasi qiymatiga mos (ya'ni proporsional) bo'lishi kerak, ortiqchasi bank tomonidan iste'moldan chiqarilishi zarur, deydi.

Ammo u o'zining bosh asarida bu konsepsiyadan chekinadi, avval pullarning ichki qiymati bor, deb gapirgan bo'lsa, keyinroq u pulni texnik

vosita deb izohladi va pulning miqdoriy nazariyasini ishlab chiqa boshladi. Uning fikricha, muomaladagi pulning miqdori turlicha va erkin bo'lishi mumkin, pulning qiymati esa muomala sohasida belgilanadi va uning miqdoriga bog'liq bo'ladi. Rikardo erkin savdo tarafdori bo'lgan, u merkantilistlardan farqli ravishda tovar ishlab chiqarish tovar kiritishdan ortiq, ya'ni eksport kam va import ko'p bo'lishidan, mamlakatdan oltin chiqib ketishidan havfsirashga hojat yo'q, deydi, chunki erkin import avtomatik ravishda oltin muomalasi va baho o'zgarishini tartibga soladi, shuning uchun iqtisodiy tanglik ta'minlanishiga yordam berishiga Rikardoning ishonchi komil edi.

#### **8.4.D.Rikardo ta'limotining ahamiyati**

D.Rikardo yagona iqtisodiy konsepsiya asosida pul muammosi va kredit, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, soliq, yer rentasi, xalqaro mehnat taqsimoti to'g'risida fundamental fikrlar berdi.

D.Rikardo sanoat inqilobi natijalarini to'laroq tushundi, uning fikrlari nisbatan teran bo'lib, klassik iqtisodni nihoyasiga etkazdi; u sanoat davrining iqtisodchisi edi.

U Smitning g'oyalari qo'llash bilan birga uni to'ldirdi va qarshi fikrlarni ham ilgari surdi. U kapitalistlar va ishchilarning manfaatlarini birbirilariga qarama-qarshi ekanligini ochib berdi, ma'lumki Smitda bu manfaatlar bir edi, Rikardo yer egalari manfaatini ishchi va kapitalistlarikiga qarshi deb uqtiradi.

Rikardoning 1815-yilda yozilgan «Nonga bo'lgan past bahoning kapital foydasiga bo'lgan ta'siri to'g'risidagi tajriba» nomli asarida sinflarning iqtisodiy munosabatlari va kapitalizm rivojlanish nazariyasi qisqa, ammo aniq bayon etilgan. Uning asosiy xulosalari quyidagilardan iborat: agar iqtisodiyot rivoji o'z holiga qo'yilsa, aholining o'sishi va kam unumdor yerlarga ishlov berishga o'tilishi tufayli qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bahosi oshib boradi. Buning barcha foydasi yer egalari bo'lgan lendlordlarga o'tadi. Vaholanki kapitalga bo'lgan foyda normasi pasayadi. Bundan esa ishchilar ham ziyon ko'radi, chunki ularning mehnatiga talab pasayib boradi. Xo'sh, bu tendensiyaning oldini olish mumkinmi? Xususan, xoriydan arzon don import qilish kerak, demak, bundan «Non qonunlari»ni bekor qilish kerak degan xulosa chiqariladi (*Angliyada non va donga yuqori baho qo'ygan maxsus qonun bor edi, uni «Non qonunlari» deb atalardi, bu qonunlar 1830-yilda to'la bekor qilindi*). Rikardo parlament a'zosi sifatida doim erkin savdo uchun ko'rash olib bordi. Tarix bu g'oyaning to'g'riligini amalda isbotladi.

### **Qisqa xulosalar**

Klassik maktab XVIII asrning 2-yarmi XIX asrning birinchi yarmida shakllangan. Uning asosiy vakillari, kontseptual qoidalarning asoschilari ingliz iqtisodchilari Adam Smit, David Rikardo hisoblanadi.

Klassiklar boylarning mohiyatini, uning o'sish omillarini, daromadlarni shakllantirish va taqsimlash shartlarini, raqobat qonuniyatlarini tadqiq qildilar. Ular qiymat (qiymat)ning mehnat nazariyasini ilgari surdilar, unga ko'ra narxlar yashash va moddiylashtirilgan mehnat xarajatlariga asoslanadi; iqtisodiy erkinlik tamoyilini - "laissez faire" ni asoslab berdilar. A.Smit pozitsiyasiga ko'ra, odamlar o'z manfaatlarini ko'zlab harakat qilib, jamiyat boyligining ko'payishiga hissa qo'shadilar. Davlat iqtisodiy faoliyatning huquqiy asoslarini yaratishga chaqiriladi.

Klassik maktab qoidalari J.B.Sey, J. S. Mill, T. Maltusning asarlarida rivojlantirilgan. Klassiklarning metodologiyasi, bir qator boshlang'ich nuqtalari keyinchalik neoklassik maktab vakillarining asarlarida mukammallashtirildi.

#### **Asosiy tushuncha va iboralar**

«Xalqlar boyligi», «laissez faire», iqtisodiy liberalizm, shaxsiy manfaat va raqobat, mehnat taqsimoti, «iqtisodiy odam», egoizm, «ko'rinmas qo'l», qiymatning mehnat nazariyasi, ishlab chiqarish omillari va daromadlar to'g'risidagi nazariya, milliy boyluk va «Smit dogmasi», iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari, mutloq afzallik nazariyasi, «muomilaning buyuk g'ildiragi», taqsimot nazariyasi.

#### **Nazorat uchun savollar**


1. Ingliz va fransuz klassik siyosiy iqtisodiyoti o'rtasidagi farqlarni ayting.
2. A. Smit tomonidan berilgan qiymatning uchta ta'rifiga tahlil bering.
3. Kapitalistik jamiyatda A.Smit qaysi sinflarni ko'rib chiqqan?
4. D. Rikardoning fikriga ko'ra, oltinning qiymatini nima belgilaydi?
5. D.Rikardoning takror ishlab chiqarish va kapitalistik ishlab chiqarish maqsadlari haqidagi qarashlari qanday?

## IX.BOB. NEMIS TARIXIY MAKTABINING PAYDO BO'LISHI VA UNI RIVOJLANISH BOSQICHLARI

### 9.1. Germaniya tarixiy maktablarining o'ziga xos xususiyatlari

Tarixiy maktab (angl. history school) - iqtisodiy fan yo'nalishi, uning asosiy qoidalari quyidagilar edi: iqtisodiyot tarixini o'rganish; turli mamlakatlardagi aniq iqtisodiy vaziyatlarni tahlil qilish, asosan induktiv usuldan foydalanish.

Tarixiy maktab rivojlanishida uch bosqich mavjud:



#### 9.1.Rasm. Tarixiy maktabning rivojlanish bosqichlari

Germaniyadagi sanoat inqilobi XIX asrning 30-yillarida katta kechikish bilan boshlandi. Bu Germaniyaning uzoq muddatli feodal tarqoqligi bilan bog'liq bo'lib, bu ishbilarmonlik faoliyatini cheklab qo'ygan. Aholining barcha qatlamlari kuchli, birlashgan davlat bo'lishidan manfaatdor edilar, chunki u tinchlik, xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyotni va'da qildi.

XIX asr o'rtalarida Germaniya yerlarini yagona davlatga birlashtirish davrida iqtisodiy fikrlashning yangi yo'nalishi paydo bo'lib, u tarixiy maktab deb nomlandi, uning vakillari klassik siyosiy iqtisodning mavhumlashtirilishi va umumlashtirilishi bilan rozi bo'lmay, barcha mamlakatlar uchun va ayniqsa Germaniya uchun mos universal nazariya yo'q deb hisobladilar. Ularning fikriga ko'ra, milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga nafaqat iqtisodiyot va siyosat, balki ko'plab milliy bo'lmagan xususiyatlar va urf-odatlar, millatning tarixiy rivojlanishi, uning mentaliteti, mamlakatning geografik sharoiti, milliy madaniyat, psixologiya va dinning o'ziga xos xususiyatlarini o'z ichiga olgan ko'pgina iqtisodiy bo'lmagan omillar ham ta'sir qiladi.

Iqtisodiy va iqtisodiy bo'lmagan omillar, tarixiy maktab vakillarining



fikriga ko'ra, bir-biriga o'zaro bog'liq va aldoqadordir (klassiklar jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ijtimoiy muhit shunchalik rivojlangan bo'ladi, deb hisoblar edi), ammo ular iqtisodiy rivojlanishdagi nodavlat omillarning roliga katta ahamiyat berishadi. Germaniyada "nemis milliy ruhi" deb nomlangan g'oyalar va "oriy irqi" ning o'ziga xos tarixiy missiyasi haqida fikrlar paydo bo'ldi. Masalan, M. Veber o'zining "Protestant etikasi va kapitalizm ruhi" kitobida protestantlik dinining oqimlaridan biri - kalvinizmning sivilizat siyalashgan jamiyatni yaratishdagi o'ta muhim roli haqida gapirgan. Va nihoyat, tarixiy maktabning uchinchi uslubiy xususiyati - bu tarixiy metodning iqtisodiy fanidagi o'rni va roli bo'yicha kelishmovchilikdir (klassiklar orasida tarixiylik davlatlar rivojlanishining turli bosqichlarida jamiyatning asosiy va asosiy bo'lmagan sinflarga ajratish mezonlari orqali namoyon bo'ladi). Nemis mualliflari iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini asoslab berib, xo'jalik mezonini sinf mezoniga qarshi qo'ydilar. Ular xalqlarning iqtisodiy bosqichlari evolyusiyasi bo'yicha o'z sxemalarini berishga harakat qildilar. Masalan, F. List "insoniyat" besh bosqichni bosib o'tganligini ta'kidladi: a) yovvoyilik davri; b) cho'ponlik; v) dehqonchilik; d) dehqonchilik va manufaktura; e) dehqonchilik -sanoat-savdo davri. Va B. Xildebrandning fikriga ko'ra, jamiyat uch bosqichni bosib o'tgan: tirikchilik, pul va kredit iqtisodiyoti (uning sxemasi ayirboshlash holatidagi farqlarga asoslanadi).

Bunday bo'lishdan ko'zlangan maqsad Germaniyada sanoatning o'sishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bir yoqlama rivojlanishdan - qishloq xo'jaligining ustunligidan voz kechish kerak, degan fikrni isbotlashdan iborat edi.

Biroq, nemis mualliflarining o'sha davrda erishilgan iqtisodiy nazariyaning ilmiy asoslaridan ajralib turganligi sababli tarixiy uslubning yangiligi Germaniya tarixiy maktabiga jahon iqtisodiy fanlarida yetakchi o'rinni egallashga va klassik siyosiy iqtisodning asosiy nazariy va uslubiy kamchiliklarini rad etishga imkon bermadi.

Nemis tarixiy maktabining asoschilari Adam Myuller va Fridrix List hisoblanadi.

**Adam Myuller (1779-1829) "Hukumat boshqaruvi san'atining asoslari"**da siyosiy iqtisod birinchi navbatda milliy fandır, chunki millat butun jamiyat hayotining, shu jumladan iqtisodiy hayotning tuzilishini tashkil etuvchi elementidir, deb ta'kidlaydi. Rivojlanishning yaxlitligi va uzluksizligi millatga xos bo'lib, u iqtisodiyotga nihoyatda individual va o'ziga xos xususiyat beradi. Iqtisodiy soha odamlar hayotining faqat bir tomoni bo'lganligi sababli, u jamiyatning umumiy, majburiy axloqiy

maqsadlariga xizmat qilishi kerak. Va oiladan oilaga, otadan o'g'ilga o'tadigan an'anaviy qonunlar va urf-odatlardan iborat axloq jamiyatning iqtisodiy hayotini qurishi kerak bo'lgan asosdir.

A.Myuller va F.Listning iqtisodiy qarashlari har ikkala tomoni jihatidan bir-biriga yaqin, ular ikkalasi ham mumtoz asarlarni mavhumligi va liberalizmi uchun tanqid qiladilar, davlatning iqtisodiy siyosatida proteksionizmni saqlab qolishni targ'ib qiladilar va iqtisodiy fanlarda tarixiy tahlil usulining rolini aniq oshirib yuboradilar. Shu bilan birga, ijtimoiy tuzilish idealiga va unga erishishda iqtisodiy fanning roli haqida gap ketganda, ularning qarashlari sezilarli darajada farq qiladi.

Shunday qilib, A. Myuller O'rta asrlarning iqtisodiy munosabatlarini idealizatsiya qilishga moyildir, chunki uning fikriga ko'ra tamoyillar qit'a mamlakatlarining milliy, shu jumladan iqtisodiy an'analarga mos kelishi mumkin emas.


**Fridrix List (1798-1846)** "Siyosiy iqtisodning milliy tizimi"da ishlab chiqarish kuchlari nazariyasini shakllantirgan, ishlab chiqarishning eskirgan bosqichlarini yangilariga almashtirish jarayonida millatning iqtisodiy taraqqiyoti, davlatning faol iqtisodiy siyosati zarurligini asoslab berdi. Myuller g'oyalarini rivojlantirar ekan, u millat - bu ilgari taraqqiyot, urf-odatlar, tajriba, "yovvoyilik", "cho'ponlik" va "dehqonchilik" bosqichlaridan o'tish natijasida olingan bilimlar va rivojlanishning "dehqonchilik-sanoat" bosqichiga erishish natijasida hosil bo'lganligini ta'kidladi. Mehnat unumdorligining oshishi va ishlab chiqarishning barcha sohalarining rivojlanishi uning shakllanishining turli bosqichlarida olingan bilim va ko'nikmalardan mohirona foydalanish va ularni ko'paytirishga, g'oyalar va urf-odatlar ("aqliy kapital") uzluksizligi, shuningdek tabiiy-geografik sharoit va aholi soniga bog'liqdir, deydi. Millatning boyligi mehnat taqsimoti va ayirboshlash asosida odamlarning individual faoliyati orqali emas, balki ushbu faoliyatni davlat tomonidan birlashtirilishi natijasida to'planadi.

Shunday qilib, davlat hokimiyati milliy manfaatlarga e'tibor qaratib, milliy iqtisodiyotning barcha qismlarining ishlashi va rivojlanishini muvofiqlashtirishi kerak. Aynan davlat millatning "sanoat ta'limi"ni amaiga oshirishi kerak. "Ta'lim"ning mohiyati millatni qutqarish va saqlab qolish uchun shaxsiy manfaatlarni e'tiborsiz qoldirishdan iborat, ya'ni millatning ishlab chiqarish kuchlarining tez va samarali rivojlanishi uchun o'z farovonligini qurbon qilish kerak. Shu bilan birga, faqat raqobatbardosh sohalargina foyda olishlari kerak. Proteksionizm siyosatini olib boruvchi davlat, yosh sanoat tarmoqlarini xalqaro raqobatbardoshlik darajasiga etguncha himoya qilishi, shuningdek transport va texnik

bilimlarni rivojlantirishni rag'batlantirishi kerak. Masalan, Germaniya temir yo'l tizimini targ'ib qilib, List milliy aloqa tizimi ishlab chiqarish sanoatini har tomonlama rivojlantirishning zaruriy sharti ekanligini ta'kidladi, chunki temir yo'llar qurilishi tufayli butun davlat bo'ylab mineral resurslar va tayyor mahsulotlar aylanmasi kengayadi va ichki bozor rivojlanadi. Ro'yxat bo'yicha himoya qilish tizimida narxlar oshishi muqarrar bo'lib, savdo bozorlarini kengaytirish orqali foyda bilan qoplanadi; milliy ishlab chiqaruvchi kuchlar birlashmasi tufayli dehqonlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorlarining kengayishidan, ishlab chiqarilgan mahsulotlar narxlarining ko'tarilishidan yo'qotganlaridan ko'ra ko'proq foyda ko'rishadi.

Shunday qilib, List va klassiklarning qarashlari o'rtasidagi farq quyidagicha:

1. Ishlab chiqarish kuchlari - bu millat boyligini yaratish qobiliyatidir va ularning tarkibiga F.List iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadigan turli xil institutlarni (nasroniylik va xavfsizlik polisiyasigacha) kiritadi.



9.2. Rasm. F.List: "insoniyat" taraqqiyotining besh bosqichi

2. Mehnat taqsimoti to'g'risidagi ta'limot va qiyosiy ustunlik tamoyiliga F.List ishlab chiqaruvchi kuchlarning milliy birlashmasi konsepsiyasini qarshi qo'yadi. Tashqi bozorga nisbatan ichki bozorning ustuvorligini ta'kidlab, fabrika-zavod sanoatini qishloq xo'jaligi bilan birlashtirishning afzalliklarini ta'kidlab o'tdi. Biroq, u tashqi savdo erkinligiga qarshi emas, uni sanoat to'liq rivojlangandan keyin qaytarish kerak. List yozishicha, tashqi savdoda fabrika-zavod sanoatini eng yuqori darajada rivojlantira olgan millat, faqat o'sha xalq katta yutuqlarga erishadi, Chet eldan yetarli miqdordagi iste'mol tovarlarini, ishlab chiqarish vositalarini oladigan agrar mamlakat, go'yo ikki qismga bo'linadi: qishloq xo'jaligi mahsulotlarini

spekulyativ eksport qilishdan manfaatdor bo'lgan qirg'oq bo'yidagi mamlakat va mamlakatning zarar ko'rayotgan ichki hududlari.

3. F.List yer rentasi kategoriyasi bo'yicha o'zining ta'rifini beradi. Bunda u yerning joylashgan joyini muhim deb hisoblaydi, yerning tabiiy unumdorligi o'rtasidagi farqni esa ahamiyatsiz omil deb hisoblaydi. Listning so'zlariga ko'ra, yerning ijarasi va qiymati uning shaharga yaqinligiga bog'liq.

## 9.2. Eski tarixiy maktab.R.Knis, B.Gildebrand g'oyalari

Eski tarixiy maktab konsepsiyasi iqtisodiy voqealar va iqtisodiy fikrlarni milliy va aniq vaqtda o'rganishga chaqirgan Vilgelm Rosher, Bruno Gildebrand, Karl Knis asarlarida o'z ifodasini topdi. Ular "siyosiy iqtisodda tarixiy metod" tamoyillarini shakllantirishdi, ular quyidagilarga asoslandi:

1. Iqtisodiyot fani faqat iqtisodiy jarayonlarning paydo bo'lishi va rivojlanishini tavsiflashga qodir, ammo ularni yetarli darajada umumlashtira olmaydi;
2. Barqaror va hamma joyda o'zini namoyon qiladigan bunday mavhum iqtisodiy yoki o'zgarmas "tabiiy" qonunlar mavjud emas, faqat millatning o'ziga xos va aniq tarixiy yo'li bor, shuning uchun siyosiy iqtisod xalqlarning iqtisodiy rivojlanish qonunlari haqidagi fan;
3. Jamiyatning zamonaviy iqtisodiy tuzilishi tarixiy evolyutsiyaning natijasidir, shuning uchun nafaqat millatning buguni, balki o'tmishiga ham e'tibor berish kerak. Faqat millatning o'tmishida kimdir nima uchun iqtisodiy faoliyatda muvaffaqiyat qozongan, boshqalari muvaffaqiyatsizlikka uchragan, degan savollarga javob izlash kerak, ya'ni turli xil xalqlar orasida ma'lum iqtisodiy jarayonlar qanday sodir bo'lganligini bilish zarur;
4. Iqtisodiy bo'lmagan omillarning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini hisobga olish kerak.

Ushbu postulatlardan foydalangan holda, **Vilgelm Rosher** (1817–1894) siyosiy iqtisodni ijtimoiy xo'jalik haqidagi fan sifatida ko'rib, barcha xalqlar uchun bitta iqtisodiy ideal (iqtisodiy rivojlanish modeli) bo'lishi mumkin emasligini ta'kidladi. Shunday ekan, avvalo odamlarning tabiati, iqtisodiy ehtiyojlarini o'rganish, so'ngra ularning ehtiyojlarini qondirishga hissa qo'shadigan institutlarni ko'rib chiqish kerak va shundan keyingina ularning yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish kerak. U jamiyatdagi daromadlarning notekis taqsimlanishini iqtisodiy rivojlanish uchun rag'batlantiruvchi omil deb bilgan.

V.Rosherning xizmatlari shundaki, u turli tarixiy ma'lumotlarni mexanik ravishda besh qismga ajratgan: mehnat taqsimoti, qullik va

erkinlik, mulk va kredit (“qadriyatlarini ishlab chiqarish”); narxlar va pullar (“qadriyatlar aylanishi”); daromadning uch turi (“qiymatlarini taqsimlash”); “iste’mol va hashamat”; aholi.

Uchta ishlab chiqarish omilining formulasiga asoslanib, u tarixdagi uchta katta davrni ajratib ko’rsatish mumkin deb hisobladi: eng qadimiy (asosiy omil yer) davr; O’rta asrlar (korporativ-sex tashkiloti tufayli kapitallashgan mehnat ahamiyat kasb etadi) davri; yangi (kapital hukmronligi natijasida yerning qiymati oshishi, qo’l mehnati mashina mehnati bilan almashinadi va aholi asosiy qismining qashshoqlashuvi kuzatiladi) davr.

### 9.3. Yangi tarixiy maktab va “ijtimoiy yo‘nalish”

Eski tarixiy maktabning an’analarini 70-yillarda “yangi (yosh) tarixiy maktab” vakillari - Luyo Brentano (1844 -1931), Gustav Shmoller (1838-1917), Karl Byuxer (1847-1930) davom ettirdilar va rivojlantirdilar. Ularning g’oyalari Germaniya birlashgandan keyin sodir bo‘lgan jarayonlarni aks ettiradi.

Ushbu maktab g’oyalari quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda jamiyat va davlat boshqaruvi institutlari tizimining huquqiy asoslari hisobga olinadi, ammo shunga qaramay, eski maktab vakillari singari, ular axloqiy jihatlar - halollik, so‘z erkinligi va h.k.larga e’tibor berishadi;

2. Xalqlarning aniq tarixiy tajribasini o‘rganish va ularning tarixiy rivojlanishining haqiqiy faktlarini qiyosiy o‘rganish natijasidagina nazariy umumlashtirish mumkin bo‘ladi;

3. Asosiy e’tibor amaliy muammolarga, masalan, insoniyat jamiyati shakllanishining turli bosqichlarida iqtisodiy tizimlarning shakllanish jarayonlarini o‘rganishga qaratilishi kerak, chunki bu dolzarb masalalarni hal qilishda yordam berishi mumkin;

4. Amaliy tadqiqotlar natijasida iqtisodiyotning uchta muhim yo‘nalishi ajratib ko‘rsatildi:

1) xususiy iqtisodiyot (shaxsiy manfaat hukmronligi);

2) davlat iqtisodiyoti (jamoat manfaatlarining ustunligi);

3) xayriya iqtisodiyoti (xayriya yordami bilan);

5. Ular iqtisodiyotdagi matematik tadqiqotlar usullarini rad etishadi, lekin iqtisodiy tadqiqotlar turli xil gumanitar - tarix, axloq, huquq, etnografiya, psixologiya fanlariga kiritilishi kerak;

6. Davlatning faol aralashuvini qo‘llab-quvvatlash kerak, chunki busiz jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi imkonsizdir (aloqa liniyalarini rivojlantirish, barcha turdagi kooperativlarni tashkil qilish va ishchilarga o‘zaro yordamning turli shakllari, nogironlar va qariyalarga homiylik

qilish, odamlarning jismoniy va ma'naviy salomatligini saqlash va boshqalar).

Gustav Shmoller milliy iqtisodiyotning yangi konsepsiyasini taklif qildi, uning markazida alohida iqtisodiyotlarni yanada chuqurroq bog'laydigan "umumiy til, tarix, urf-odatlar, g'oyalar"ni qo'ydi. G.Shmoller dasturi siyosiy iqtisodni bozor va ayirboshlash haqidagi fandan tarixiy-axloqiy fanga aylantirishdan iborat bo'lib, u nafaqat iqtisodiy xatti-harakatlarining sinchkov tavsifini beradi, balki xo'jalik yuritishning axloqiy me'yorlari nazariyasini ishlab chiqadi, ishlab chiqarish faoliyati uchun imtiyozlar belgilash odobini yaratadi, lekin iqtisodiy nazariyani yaratishdan oldin xo'jalik subyektlarini aniq tarixiy jihatdan tadqiq qilish, rivojlangan texnika, ijtimoiy institutlar, tabiiy sharoitlar bo'lishi kerak. Aynan ular iqtisodiy subyektlarning xatti-harakatlarini belgilaydilar, chunki insonning egoistik hatti-harakatlari asrlar davomida rivojlanib, ma'lum bir jamiyatda hukmronlik qilgan axloqiy, an'anaviy va huquqiy g'oyalar ta'siri ostida o'zgarishi mumkin.

G.Shmoller Karl Marksning tadbirkorlar va ishchilar o'rtasidagi sinfiy ziddiyat haqidagi xulosalariga qo'shildi, ammo u monarxiya va davlat amaldorlarini sinfiy kurashda neytrallashtiruvchi kuch sifatida qaradi. Sinfiy dunyoning shartlari va iqtisodiyotning samarali holati - bu davlat hokimiyati organlarining jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglash va quyi sinflar manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy qonunchilik va ishchilarga tadbirkorlar bilan tuziladigan jamoaviy shartnomalarni kafolatlashdan iboratdir.

L.Brentano tadbirkorlar ish haqini ko'paytirishdan manfaatdor bo'lishi kerak, deb hisoblagan, chunki bunday o'sish mehnat unumdorligini oshirishga turtki bo'ladi.

Biroq, ushbu maktabning yosh vakillari G.Shmollerning empirizmini qabul qilmaydilar. Masalan, Karl Byuxer (1847-1930) "**Xalq xo'jaligining paydo bo'lishi**" asarida G'arbiy va Markaziy Yevropa xalqlarining butun iqtisodiy rivojlanishining umumlashtirilgan sxemasini taklif qilib, mahsulotning ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga o'tadigan yo'lining uzunligiga qarab uch bosqichni ajratib ko'rsatdi (9.2.Rasm):



9.2.Rasm. Iqtisodiy rivojlanishning umumlashtirilgan sxemasi.

Ayirboshlash yo'lining uzayishi bilan sanoatning yangi shakllari - o'zi uchun va uy xo'jaligi buyurtmasi bo'yicha ishlashdan manufaktura so'ngra zavod-fabrika ishlab chiqarishi rivojlanadi.

Sanoat shakllarining evolyusiyasi kapital ta'sir doirasining butun milliy iqtisodiyotni to'liq qamrab olishi bilan birga keladi (9.3.rasm).



### 9.3.Rasm. Sanoat shakllarining evolyusiyasi.

*Natural xo'jalik bosqichida* kapital mavjud bo'lmaydi, faqat iste'mol ne'matlari mavjud bo'ladi. *Buyurtma uchun ishlab chiqarishda* kapital faqat mahsulot ishlab chiqaradigan ishchining qo'lidagi vositadir; *bozor uchun ishlab chiqarganda* kapital bino va xomashyodan iborat bo'ladi, mahsulot to'g'ridan-to'g'ri iste'molchiga sotiladi. *Zavod-fabrika ishlab chiqarish tizimida* mahsulot ishchining emas, balki savdogar-tadbirkorning kapitaliga aylanadi; iste'molchiga borishdan oldin, mahsulot bir yoki bir nechta vositachi savdogarlar uchun foyda olish vositasiga aylanadi - ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotlari bozori bilan hech qanday aloqasi bo'lmaydi. *Fabrika tizimida* ishchi moddiy va asboblari ko'rinishidagi kapitaldan mahrum qilinadi - kapitalning barcha tarkibiy qismlari ishlab chiqaruvchi-tadbirkorning qo'lida to'planib, uning o'zi tovarlarini sotish bilan shug'ullanadi. K.Byuxerning tadqiqotlari yangi tarixiy maktab uchun empirik va mavhum, tarixiy va nazariy tahlillarni birlashtiruvchi qadam bo'ldi.

#### Verner Zombart g'oyalari

Eng yangi tarixiy maktab XX asrning 30-yillarida shakllandi, uning nazariyotchilari **Verner Zombart** (1863-1941) va **Maks Veber** (1864-1920)lar hisoblanadi. Ikkala muallif ham marksizmni tanqid qildilar. Ularning iqtisodiy tadqiqotlar sohasidagi pozitsiyalari quyidagicha bo'ladi:

1. Turli xalqlarning iqtisodiy hayotining rivojlanishi ma'lum umumiy qonunlar, modellar bilan tavsiflanadi, ular olimlar tomonidan tuzilgan va tarixiy jarayonning aqliy konstruksiyalarini ifodalovchi iqtisodiy rivojlanishning ideal sxemalari yordamida aniqlanadi. Ideal turlarni voqelik bilan taqqoslash va har bir alohida holatning idealdan o'ziga xos og'ishini anglash orqali xalqlarning tarixiy rivojlanish yo'nalishini tushuntirish mumkin;

2. Iqtisodiy tahlilning vazifasi - bu odamlarning odob-axloqi, urf-odatlari va diniga asoslangan davr va millatning iqtisodiy ruhini izlash;

3. Har bir o'ziga xos tarixiy davrning moddiy hayoti va unga xos bo'lgan

shakllar va iqtisodiy qarashlar to'g'risida barcha ma'lumotlarni to'plash zarur, chunki ijtimoiy harakatlar odamlarning individual motivlari nuqtai nazaridan tushuntirilishi mumkin.

Dastlab Karl Marks g'oyalari ta'sirida bo'lgan va keyinchalik ularni tanqid qilgan V.Zombartning asarlari millatchilik xususiyatiga ega bo'lib, asta-sekin fashizm mafkurasiga qarab rivojlanib borgan.

Zombartning fikriga ko'ra, tadbirkorlar "daromad" oluvchilar, daromadlarning ko'payishini ta'minlaydigan korxonalar tashkilotchilardir. Ular quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

<b>Tadbirkorlar quyidagi fazilatlariga ega bo'lishi kerak</b>		
<b>Tashkiliy ko'nikmalar</b>	<b>Tijorat fazilatları</b>	<b>Hisob-kitob yuritish xususiyati</b>
odamlar va narsalarni tanlab olish va bir butunga birlashtira olish qobiliyati	muzokaralar o'tkazish, ishonchni qozonish, mahsulotingizni sotib olish istagini uyg'otish san'ati	xarajatlar va foydalarning aniq raqamli hisob-kitobi

Yevropada kapitalizمنىng rivojlanishini o'rgangan Zombart kapitalistik turmush tarzi G'arbiy Yevropa sivilizatsiyasi asosida paydo bo'lgan degan xulosaga keldi, bu ham tadbirkorlik ruhini, ham manfaatparastlik ruhini o'zida mujassam etgan. Zombart kapitalistik "ruh" ning kelib chiqishini G'arbiy Yevropa shaharlarida yer rentasining to'planishi va uni hashamatli narsalarga sarflash bilan bog'ladi, bu esa savdo va ishlab chiqarishning rivojlanishini rag'batlantirdi. Zombart odam fath etuvchi (iroda, qat'iyat va energiya), tashkilotchi (odamlarni baholash, ularni ishlashga majburlash va o'z faoliyatini muvofiqlashtirish qobiliyati) va savdogar (o'z mahsulotlariga qiziqish uyg'otish, o'ziga ishonchni kuchaytirish) kabi fazilatlariga ega bo'lishi kerak deb hisoblagan. Shu bilan birga, shaxsda tejamkorlik, ehtiyotkorlik, g'amxo'rlik, va'daga vafodorlik bo'lishi kerak, hisobot hujjatlarini to'g'ri saqlash va boshqalar bilan ajralib turishi kerak.

Zombart kapitalistik tadbirkorlarning oltita asosiy turini sanab o'tdi:


1. Qaroqchilar, ayniqsa, oltin va ekzotik tovarlarni qazib olish bo'yicha harbiy yurishlar va xorijdagi ekspeditsiyalar ishtirokchilari;
2. Yer egaligini tijoratlashtiradigan feodallar (don va junni sotish, konchilik);
3. Savdo va sanoat kompaniyalarini majburlovchi davlat arboblari;
4. Chayqovchilar, sudxo'rlar (pul va qimmatli qog'ozlar bilan ishlovchilar), bankirlar, birja ishtirokchilari, aksiyadorlar;
5. Savdogarlar, ishlab chiqarish jarayoniga sarmoya kirituvchilar;



## 6. Hunarmandlar.

Zombart kapitalizmning evolyusion fazalar bilan organik sikl sifatida rivojlanishini hisobga olib, tadbirkorlikning dastlabki uchta turini kapitalizmning dastlabki bosqichi (“qahramonlik yoshligi”)ga xos, deb hisoblaydi. Zombart buyuk tadbirkorlar “turli xil, odatda alohida tadbirkorlik turlarini birlashtirgan, bir vaqtning o‘zida ham qaroqchi ham aqlli kalkulyator, ham feodal va ham chayqovchi bo‘la olgan odamlar”, deb hisoblagan.

U zamonaviy kapitalizmga raqobatning uchta asosiy shakli mavjud, degan xulosaga keldi:



9.4.Rasm. Kapitalizmga raqobat turlari

Marks singari, Zombart ham iqtisodiy inqiroz muammosiga murojaat qildi. U “kon’yunktura” tushunchasini har qanday lahzada bozor munosabatlarining umumiy pozitsiyasi sifatida iqtisodiy nazariyaga kiritdi, chunki bu munosabatlar ichki va tashqi sabablarning o‘zaro ta’siri natijasida vujudga keladigan alohida xo‘jalik taqdiriga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Zombart bozor (kon’yunktura) tebranishlari nazariyasini Marks va Engelsning ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlarining kuchayishi natijasida kapitalizmning qulashi haqidagi xulosalariga qarama-qarshi qo‘ydi va “inqirozlar nazariyasi kon’yunktura nazariyasiga qadar kengaytirilishi kerak” deb ta’kidladi.

### Qisqa xulosalar

XIX asr o‘rtalarida Germaniya yerlarini yagona davlatga birlashtirish davrida iqtisodiy fikrlashning yangi yo‘nalishi paydo bo‘lib, u tarixiy maktab deb nomlandi. Tarixiy maktab (angl. history school) - iqtisodiy fan yo‘nalishi, uning asosiy qoidalari quyidagilar edi: iqtisodiyot tarixini o‘rganish; turli mamlakatlardagi aniq iqtisodiy vaziyatlarni tahlil qilish, asosan induktiv usuldan foydalanish.

Nemis tarixiy maktabining asoschilari Adam Myuller va Fridrix List hisoblanadi. Adam Myuller siyosiy iqtisod birinchi navbatda milliy fandır, chunki millat butun jamiyat hayotining, shu jumladan iqtisodiy hayotning tuzilishini tashkil etuvchi elementidir, deb ta’kidlaydi.

A.Myuller va F.Listning iqtisodiy qarashlari har ikkala tomoni jihatidan bir-biriga yaqin, ular ikkalasi ham mumtoz asarlarni mavhumligi va liberalizmi uchun tanqid qiladilar, davlatning iqtisodiy siyosatida proteksionizmi saqlab qolishni targ'ib qiladilar va iqtisodiy fanlarda tarixiy tahlil usulining rolini aniq oshirib yuboradilar.

Fridrix List ishlab chiqarish kuchlari nazariyasini shakllantirgan, ishlab chiqarishning eskirgan bosqichlarini yangilariga almashtirish jarayonida millatning iqtisodiy taraqqiyoti, davlatning faol iqtisodiy siyosati zarurligini asoslab berdi.

Eski tarixiy maktab konsepsiyasi iqtisodiy voqealar va iqtisodiy fikrlarni milliy va aniq vaqtda o'rganishga chaqirgan Vilgelm Rosher, Bruno Gildebrand, Karl Knis asarlarida o'z ifodasini topdi.

Eski tarixiy maktabning an'alarini 70-yillarda "yangi (yosh) tarixiy maktab" vakillari - Luyo Brentano, Gustav Shmoller, Karl Byuxer davom ettirdilar va rivojlantirdilar. Ularning g'oyalari Germaniya birlashgandan keyin sodir bo'lgan jarayonlarni aks ettiradi.

Eng yangi tarixiy maktab XX asrning 30-yillarida shakllandi, uning nazariyotchilari Verner Zombart va Maks Veberlar hisoblanadi.

#### **Asosiy tushuncha va iboralar**

Tarixiy maktab, "Siyosiy iqtisodning milliy tizimi", Protestant axloqi, millatning ruhi, tarixiy usul, yangi tarixiy maktab, Eng yangi maktab, davlat sotsializmi, benuqson tiplar, plyuralizm.

#### **Nazorat uchun savollar.**

1. Tarixiy maktab shakllanishining asosiy bosqichlari qanday?
2. "Siyosiy iqtisodning milliy tizimi" kitobida F.List qanday g'oyalarni asoslab berdi?
3. Protestant axloqining kapitalizm rivojlanishidagi o'rni qanday?
4. Eski va yangi tarixiy maktablarning g'oyalari o'rtasidagi farq va o'xshashlikni aytib bering?
5. Eng yangi maktab va oldingi maktablarning konseptual farqlari nimada?
6. Tarixiy maktabning jahon iqtisodiy tafakkuriga qo'shgan hissasini aytib bering.

## X.BOB. KLASSIK IQTISODIY MAKTABGA MUQOBIL G'OYALAR

### 10.1.T.R.Maltus va uning "Nufus nazariyasi"

Tomas Robert Maltus - Angliya klassik siyosiy iqtisodining taniqli vakili. Ushbu olimning faoliyati asosan XIX asrning birinchi choragida shakllangan, ammo uning ilmiy izlanishlari natijalari zamonaviy iqtisodiy nazariya uchun ham qimmatlidir.

Tomas Robert Maltus (1766-1834) dvoryan oilasida tug'ilgan. Kembrij universitetini tamomlagach, qishloq ruhoniyisi, 1807-yildan esa siyosiy iqtisod professori bo'ldi. Uning asosiy asarlari «Nufus qonuni to'g'risida tajriba» (1798), «Yer rentasining tabiati va o'sishi to'g'risida tadqiqot» (1815), «Siyosiy iqtisodning boshlanishi» (1820) hisoblanadi.

Robert Maltusning Nufus nazariyasi shakllanishida uchta asosiy omil xizmat qiladi. Birinchisi, taxminan 1790-yilda Angliya yetarli darajada oziq - ovqat mahsulotlari bilan o'zini - o'zi ta'minlay olmasligi, lekin aynan ana shu yillarda oziq - ovqat zahiralari eksport qilinishi, narxlar esa nisbatan ko'tarilishi bo'ldi. Ikkinchi omil bu kam ta'minlangan sinflar o'rtasida qashshoqlikning oshishidir.

Oziq-ovqat  
mahsulotlarining  
tanqisligi

Qashshoqlikning  
oshishi

Demografik  
muammolar

#### 10.1. Rasm. R. Maltus Nufus nazariyasi shakllanishidagi uchta asosiy omil

Angliyada urbanizatsiya darajasi oshishi sababli uy xo'jaliklarini o'rni yirik mashinalashgan ishlab chiqarish egallab, shahar aholisining kambag'allik darajasi kuchaydi. Uchinchi omil demografik xarakterga ega bo'lib, 1798-yilda Robert Maltus va uning otasi Daniel, fransuz yozuvchi utopistlar Uilyam Godvin va Markiza de Kandorsening aholi masalalari bo'yicha fikrlari sabab bo'ldi<sup>19</sup>.

**«Nufus qonuni to'g'risida tajriba».** Yer kurrasidagi resurslarning cheklanganligi va aholi ehtiyojlarining cheksizligi yosh ingliz ruhoniyisini iqtisodiyot bilan shug'ullanishga da'vat etadi. U 32 yoshida yozgan «Nufus qonuni to'g'risida tajriba» asarida o'zining butun dunyoda katta qiziqish

<sup>19</sup> H. Landreth, D. C. Colander. History of economic thought. Houghton Mifflin Company, Boston Toronto.p.134

uyg'otgan, hozir ham unutilmagan mulohazalarini bayon etgan. T.Maltus o'z mulohazalariga statistik materiallarni, katta hajmdagi faktlarni asos qilib olgan. Ularni o'rgangan holda T.Maltus, o'z tarixi to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lgan barcha xalqlar o'zini-o'zi takror hosil qilishda shu qadar yuqori qobiliyatga ega bo'lganki, agar bu hodisa yashash vositalarining etishmasligi yoki boshqa sabablar (kasalliklar, urushlar va b.) bilan to'xtatib turilmasa, balki odamlarning soni juda tez va muttasil ko'payib borgan bo'lar edi, deb isbotlab berishga uringan.

U aholini o'sish sur'atini imkon qadar saqlab qolish uchun oziq-ovqat zaxirasininng o'sish sur'atini ta'minlash kerak, degan xulosaga keldi. U turli yo'nalishlarda izlanishlar va tekshirishlari natijasida inson va oziq-ovqat o'rtasidagi bog'liqlikni aniqladi. U o'zining birinchi izlanishlarida ikki xil tekshirish ishlarini amalga oshirdi, ya'ni, birinchisi pozitiv va ikkinchisi esa negativ. **Pozitiv**da hududini kengaytirish bilan bog'liq urushlardagi inson o'limi, ochlik, turli xil kasalliklarni ko'payishini kiritdi. **Negativ** usulda tug'ilish darajasini kamaytirish, turmush qurush yoshini oshirish kabi profilaktik ishlarni amalga oshirishni taklif qildi.<sup>20</sup>


T.Maltusning yozishicha, uning kitobi nashrdan chiqqan kungacha bironta mamlakat o'z hududida aholi zichligi juda oshib ketganidan o'zini yetarli hajmda iste'mol mollari bilan ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lmagan. Iqtisodiyot, eng avvalo, tabiiy muhit imkoniyatlari bilan aniqlanuvchi o'zining ishlab chiqarish imkoniyatlari doirasidan chetga chiqishga qodir emas.

Muallifning xulosa qilishicha, o'tmishda bo'lgan narsalar kelajakda ham qaytarilishi ehtimol, aholi o'sishi ham, agar u ongli sur'atda cheklanmasa, unda kambag'allik, urushlar, kasalliklar va boshqa halokatli sabablar bilan to'xtatilib turiladi. T.Maltus aholining tez o'sish sur'atini pasaytirish maqsadida kambag'allarning nikohdan o'zlarini tiyishlarini, kech turmush qurishlarini taklif qiladi. Lekin uning o'zi ham o'z tavsiyalarining to'g'riligiga unchalik ishonmagan.

T.Maltus o'z nazariyasini asoslab berishda tuproq unumdorligining pasayishi konsepsiyasidan foydalangan. Agar bitta yer uchastkasining o'ziga ustma-ust mehnat sarflansa, u xuddi shunday nisbatda hosildorlikning o'sishiga olib kelmaydi, chunki hosildorlik faqat mehnatga emas, balki tuproqning tabiiy unumdorligiga ham bog'liq bo'ladi. U berishi mumkin bo'lgan narsadan ortiqchasini undan olib bo'lmaydi. Hisoblab chiqqach, T.Maltus xulosa qiladi: insoniyat qancha harakat qilmasin, qishloq xo'jaligidan u oladigan oziq-ovqat mahsulotlari miqdori

<sup>20</sup> H. Landreth, D. C. Colander. History of economic thought. Houghton Mifflin Company, Boston Toronto p 135

faqat arifmetik progressiyada o'sishi (eslatib o'tamiz, arifmetik progressiyada o'sish 1,2,3,4,5.... ko'rinishda, ya'ni har bir keyingi son oldingisidan bir xil absolyut miqdorga oshib boradi), aholining soni esa geometrik progressiyada o'sishi mumkin (eslatib o'tamiz, geometrik progressiyada o'sish 1,2,4,8,16,... ko'rinishda, ya'ni har bir keyingi son oldingisidan 2 barobar ko'p bo'ladi). Arifmetik progressiya geometrik progressiyaga nisbatan sekin oshib borganligi sababli, T.Maltus hisobidan kelib chiqadi: agar yer kurrasi aholisi sonining o'sishi cheklanmaydigan bo'lsa, u holda odamlar dahshatli ocharchilikka duch keladilar. Bu yerda T.Maltus insoniyat manfaati nuqtai nazaridan o'limning ko'payishiga olib keluvchi barcha omillarni - epidemiya, ocharchilik qirg'ini, urushlarni ijobiy baholash kerak, deb xulosa qiladi.



**10.2.Rasm. T.Maltusning nufus qonuni**

Bu nazariya barcha iqtisodiy ta'limotlar ichida eng qayg'uli, eng ma'yus hisoblanadi. T.Maltusdan keyingi davrdagi iqtisodchilar uning xulosa va prognozlarini asossiz ekanligini isbotlab berdilar. Buning uchun odamlarga tuproq unumdorligini oshirish, T.Maltus tasavvur qila olmagan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish imkonini yaratib beruvchi fan-texnika yutuqlari asos bo'ldi. Amerika iqtisodchisi J.L.Saymonning tasdiqlashicha,

insonning ijodkorligi va uning mevasi - texnik jarayon planetadagi aholining har qanday o'sishini kompensatsiyalashi va uning yuqori hayot darajasini ta'minlashi mumkin.

**Ijtimoiy siyosatga munosabat.** «Nufus qonuni to'g'risida tajriba» asarining yozilishiga U.Godvinning «Ijtimoiy adolat to'g'risida» ocherki sabab bo'lgan. Unda daromadlarning adolatsiz taqsimlanishi - kambag'allikning asosiy sababidir, deb ko'rsatilgan va taqsimot mexanizmini takomillashtirish taklif etilgan. T.Maltus esa ijtimoiy siyosatning hukumat va boshqa jamiyat tashkilotlari tomonidan olib borilishiga qat'iy qarshi bo'lgan. Uning fikricha, kambag'allarga bo'lgan xayrixohlik ularning ahvolini yaxshilashga qodir emas, balki faqat vaziyatni keskinlashtiradi. Aholining quyi tabaqalariga ko'rsatiladigan moliyaviy yordam qisqa muddatli samara beradi va shu bilan aholining o'sishini rag'batlantiradi. Ammo bu unga muvofiq ravishda oziq-ovqat mahsulotlarining ko'payishiga olib kelmaydi. Demak, umuman olganda, jamiyat kambag'allashadi. T.Maltusning fikricha, qashshoqlikning asosiy sababi boshqaruv yoki notekis taqsimotga bog'liq emas, balki u «tabiiy qonunlar va inson ehtirosi», tabiatning xasisligi va odamlarning juda tez ko'payishi bilan bog'liqdir. Shu boisdan «xalq o'z azob-uqubatlari uchun, birinchi navbatda, o'zini ayblashi kerak». Unga hech qanday inqilob va ijtimoiy islohotlar yordam bera olmaydi. Shuning uchun aholining o'sishini va tekinox'rlikni rag'batlantiruvchi ijtimoiy va xususiy xayrixohlikdan voz kyechish zarur.

Hozirgi zamon iqtisodchilari T.Maltusning ijtimoiy siyosatning ahamiyatiga bergan bahosiga qo'shilmaydilar. Mehnatga yaroqsiz va kam ta'minlangan aholini qo'llab-quvvatlash hozirgi zamonaviy jamiyat iqtisodiy siyosatning zarur qismidir. Bundan tashqari, xayriya faoliyati ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ushlab turish uchun ham zarur: kambag'allarning ko'payishi bunday barqarorlikka xavf solishi mumkin. Biroq bunda faol ijtimoiy siyosatning salbiy tomonini ham hisobga olish zarur: u mehnatga va tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan qiziqishni susaytiradi.

## **10.2. J.S.Mill va J. Mak-Kulloxning iqtisodiy ta'limoti.**

**Jon Styuart Mill** (1806-1873) klassik siyosiy iqtisodni yakunlovchilardan biri hisoblanadi. J.S.Mill o'zining siyosiy iqtisod bo'yicha birinchi «Tajriba»sini 23 yeshida, ya'ni 1829-yil nashr etdi. 1843-yili unga shuhrat keltirgan «Mantiq tizimi» nomli falsafiy asari vujudga keldi. Asosiy asari beshta kitobdan iborat «Siyosiy iqtisod asoslari...» bo'lib, u 1848-yili chop etilgan. J.S.Mill bu asarida klassik maktabning juda ko'p konsepsiyalarini rivojlantirdi va umumlashtirdi.

Baho o'zgarishining talab miqdoriga bo'lgan ta'sirini, bozor muvozanatini o'rnatish mexanizmini, kredit operatsiyalarini, xalqaro savdo muammolarini, bozor iqtisodiyotida davlatning rolini tahlil qilishi J.S.Millning asosiy ilmiy xizmatlaridan hisoblanadi.

**J.S.Mill metodologiyasi.** J.S.Mill siyosiy iqtisodni boylikning

mohiyatini, uni ishlab chiqarish va taqsimlash qonunlarini tadqiq qiluvchi fan sifatida ta'riflaydi. Shu bilan birga, uning fikricha, taqsimot tarixiy xarakterga ega bo'lib, ishlab chiqarish qonunlari esa abadiy hisoblanadi.

«Boshqa barcha sharoitlar bir xil bo'lganda pulning qiymati pul miqdoriga teskari mutanosiblikda o'zgaradi: pul miqdorining har qanaqasiga ko'payishi uning qiymatini pasaytiradi, pulning har qanaqasiga kamayishi esa uning qiymatini bir xil mutanosiblikda oshiradi... Bu – pulning maxsus xususiyati».

Ko'pchilik mutaxassislarining fikriga ko'ra, iqtisodiy fanning metodologiyasini takomillashtirish J.S.Millning asosiy xizmati hisoblanadi. U nazariy xulosalar faqat muayyan sharoitda to'g'ri bo'lishidan kelib chiqqan holda, har qanday nazariy sxemaning nisbiyligini doimo ta'kidlagan va ko'p omilli tahlilning zarurligini ko'rsatib bergan. Tadqiqot metodi J.S.Millning tavsiyasiga ko'ra, ikki asosiy narsaga asoslanadi: 1) xulosa va yakun, odatda, faqat muayyan sharoitda to'g'ridir; 2) ular har tomonlama (universal) bo'lishi mumkin emas. Iqtisodiy hayotda bitta emas, balki juda ko'p sabablar amal qiladi. Ularni anglash, asosini ajratib olish juda qiyin, lekin shunday bo'lsada ularni qo'shish emas, balki sabab va oqibatini bir-biridan ajrata bilish lozim.

Iqtisodiy fanni rivojlantirish va boyitish – bu xulosalarni doimo almashtirib turish hamda sxema qabul qilishda (rasmiy tan olingan) qo'l kelmaganlarini ulotirib tashlash emas, balki o'zgarib turuvchi sharoitlarni va o'zaro aloqalarni doimo hisob-kitob qilib turishdir. Bu turli konsepsiya va qarashlarni, yondashuv va tavsiyalarni taqqoslash, bilimlarning meros bo'lib qolishini saqlab qolishdir.

J.S.Mill siyosiy iqtisodni iqtisodiy qonunlar to'g'risidagi fan sifatida tadqiq etadi. U raqobat qonunini, talab va taklif qonunini, differensial renta qonunini, xalqaro savdo qonunini va boshqa bir qator qonunlarni ajratib ko'rsatib berdi. Siyosiy iqtisod tayyor qoida yoki tamoyillar yig'indisi sifatida qaralishi mumkin emas. Amaliy qoidalar va konkret tavsiyalar nazariy qoida va xulosalarga asoslangan bo'lishi kerak. Ular sharoit va vaziyat o'zgarishi bilan o'zgarib turadi.

**Qiymat, baho va pul.** J.S.Mill fikri bo'yicha, boylik almashuv

qiyamatiga ega bo'lgan ne'matlardan tashkil topadi. «Evaziga hech nima olib bo'lmaydigan narsa, u qanchalik foydali yoki zararli bo'lmasin, boylik hisoblanmaydi... Masalan, havo inson uchun mutlaq zarur hisoblansada, bozorda hech qanday narxga ega emas, negaki uni tekinga olish mumkin». Ammo ne'matlarning cheklanganligi his qila boshlansa, ular darhol almashuv qiyamatiga ega bo'ladi. Tovar qiymatining puldagi ifodasi uning bahosi hisoblanadi.

Pulning qiymati unga sotib olinishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdori bilan o'lchanadi. Qachonki pul mexanizmi buzilsa, faqat shundagina iqtisodiyotda pulning ahamiyati sezila boshlaydi.

Baho bevosita raqobat asosida o'rnatiladi. Raqobat esa xaridor arzon olishga, sotuvchi esa qimmat sotishga intilishi sababli kelib chiqadi. Erkin raqobatda bozor bahosi talab va taklif darajasiga qarab o'rnatiladi. Aksincha, «monopolist o'z ixtiyoricha xohlagan yuqori bahoni o'rnatishi mumkin, faqat u xaridor sotib olishi yoki xohishi mumkin bo'lgan bahodan yuqori bo'lmasa bas; ammo bunga u faqat taklifni kamaytirish yo'li bilan erishishi mumkin».

Uzoq davr mobaynida tovar bahosi uning ishlab chiqarish xarajatlaridan past bo'lishi mumkin emas, negaki hech kim o'z zarariga ishlashni xohlamaydi. Shuning uchun talab va taklif o'rtasidagi barqaror muvozanat «qachonki buyumlar bir-biriga faqat ularning ishlab chiqarish xarajatlariga mos ravishda ayriboshlangandagina o'rnatiladi».

**Kapital va foyda.** J.S.Mill jamg'arish natijasida vujudga keladigan mehnat mahsulotlari zahirasini kapital deb atagan. Ishlab chiqarish faoliyati kapital miqdori bilan chegaralanadi. Kapitalning har bir ko'payishi ishlab chiqarishning kengayishiga olib keladi. Uning fikricha, investisiyaning asosi sifatida kapitalning tashkil topishi ish bilan bandlik doirasini kengaytirish imkoniyatini beradi va agar «boylarning unumsiz xarajatlari» hisobga olinmasa ishsizlikka barham berilishi mumkin.

Ammo, J.S.Millning ta'kidlashicha, kapitalning rivojlanishiga boshqa cheklanishlar xos. Ularning biri - kapital daromadlarining kamayishidir. Uni J.S.Mill kapitalning me'yori unumdorligining pasayishi sababli kelib chiqadi, deb tushuntiradi. Masalan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari miqdorini ko'paytirish ushbu miqdor ekvivalentiga nisbatan ko'proq mehnat sarflash evazigagina bo'lishi mumkin. Boshqacha bo'lishi aslo mumkin emas.

Umuman foyda to'g'risidagi savolni tushuntirib berishda J.S.Mill D.Rikardo qarashlariga asoslanadi. O'rtacha foyda normasining vujudga kelishi shunga olib keladiki, ya'ni foyda ishlatilayotgan kapitalga mutanosib bo'ladi, baho esa - xarajatlarga.



J.S.Millning yozishicha, rentaga o'xshagan, maxsus ko'rinishga ega bo'lgan foyda amal qiladi. Gap amalda nisbatan ustunlikka ega bo'lgan ishlab chiqaruvchi yoki savdogar to'g'risida boradi. Modomiki, uning raqobatchilari bunday ustunlikka ega emas ekan, unda «u mahsulot qiymatini aniqlab beruvchi ishlab chiqarish xarajatlariga qaraganda kam xarajat sarflab bozorga tovar chiqarishi mumkin. Bunda ustunlikka ega bo'lgan kishi renta oluvchiga o'xshab ketadi».

Foydaning

vujudga kelish  
sababini

J.S.Mill xuddi,

A.Smit va

D.Rikardoga

o'xshab,

tushuntiradi.

“Foyda ayirboshlash natijasi emas..., balki mehnatning unumdorlik kuchi natijasida vujudga keladi... Agar mamlakatdagi barcha mehnatkashlar tomonidan yaratilgan mahsulot, ish haqi ko'rinishida mehnatkashlar iste'mol qiladigan mahsulotdan 20 foiz ko'p bo'lsa, unda bahoning qanday bo'lishidan qat'iy nazar, foyda 20 foizni tashkil etadi”

### Pul.kredit va savdo inqirozi nazariyalari.

J.S.Mill pulning miqdoriy nazariyasi va foiz nazariyasidan kelib chiqqan holda tahlil qiladi. U bu bilan o'zini pulning miqdoriy nazariyasi tarafdori ekanligini

Sarf-xarajatlar, ya'ni ishlab chiqarish xarajatlari bir xil bo'lgan joyda foyda ham bir xil bo'lishi uchun, narsalar bir-biriga mutanosib tarzda ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha ayirboshlanishi kerak; ishlab chiqarish xarajatlari bir xil bo'lgan narsalar bir xil qiymatga ega bo'lishlari kerak, shuning uchun faqatgina bir xil xarajatlar bir xil daromad olib keladi

ko'rsatadi. Bu

nazariyaga

muvofiq, pul

miqdorining

ko'payishi yoki

kamayishi tovarlar

bahosining nisbiy

o'zgarishiga ta'sir

ko'rsatadi. Ammo, uning fikricha, agar pul zahirada saqlanayotgan bo'lsa yoki agar uning miqdorining ko'payishi oldi-sotdi miqdorining ko'payishiga (yoki yalpi daromadga) muvofiq kelsa faqat birgina pul miqdorining ko'payishi bahoning oshishiga olib kelmaydi.

Foiz normasi suda fondiga bo'lgan talab va uning taklifi bilan aniqlanadi. Sudaga bo'lgan talab investisiyaga bo'lgan talabdan, davlat talabidan va unumsiz iste'mol uchun yer egalari talabidan tashkil topadi. Suda taklifi jamg'armadan, bank biletlaridan va bank depozitlaridan tashkil topadi. Pulning miqdori o'zi foiz normasiga ta'sir ko'rsatmaydi, ammo pul miqdorining o'zgarishi foiz normasining o'zgarishiga olib keladi.

Foyda normasidan qat'iy nazar, suda fondi talabi va taklifidagi o'zgarishlar sababli foiz normasi o'zgarib turadi. Ammo muvozanat

nuqtasida foizning bozor normasi kapitaldan keladigan foyda normasiga tenglashishi kerak. Shuning uchun pirovard natijada foiz normasi real ta'sir etuvchi kuchlar bilan aniqlanadi.

J.S.Mill foiz stavkasi miqdorini mamlakatga oltinning kirib kelishi va undan chiqishini boshqarib turuvchi «Yum qonuni»ning amal qilishiga bog'lab tushuntiradi. Uning ko'rsatib berishicha, mamlakatga oltinning kirib kelishi foiz normasini pasaytiradi, agar u baho oshishiga olib kelsa ham. Foiz normasining pasayishi bilanoq, qisqa muddatli kapitallar chet mamlakatlarga oqib o'tadi, bu esa valyuta kursini tenglashtiradi. Shunga muvofiq Markaziy bank hisob-kitob foizini oshirib va bu bilan bozor foizining o'sishiga yordam bergan holda, o'z zahiralari himoya qilishi mumkin. Foiz normasining o'sishi xorijiy kapitallarni jalb qiladi, ichki veksellarga bo'lgan talab oshadi, ularni oltinga almashtirish qulay bo'ladi va valyuta kursida teskari o'zgarish yuz beradi. Natijada uning tengligi kelib chiqadi.

J.S.Millning fikricha, inflyasiya foiz normasini oshiradi. Bahoning oshishi qarzni real miqdorini pasaytiradi va shuning uchun debitorlarning foydasiga va kreditorlarning zarariga ishlaydi.

So'ngra J.S.Mill kreditning tabiati va uning iqtisodiyotdagi rolini tadqiqot qilishga o'tadi. Bu yerda J.S.Mill o'zini A.Smit va D.Rikardo g'oyalarini ommaviylashtiruvchi oddiy iste'dod egasi sifatida emas, balki chuqur o'ziga xos tadqiqotchi ekanligini namoyon etadi: «Kredit mamlakatning ishlab chiqarish resurslarini ko'paytirmaydi, lekin kredit tufayli ular ishlab chiqarish faoliyatida ancha to'liq ishlatiladi». Kredit manbai bo'lib ayni chog'da unumli iste'molda bo'lmagan pul shaklidagi kapital hisoblanadi. Foiz to'lash evaziga kredit beruvchi asosiy instrument sifatida depozitli banklar tashkil topadi. Bunda bank krediti bahoga taklifning o'sishi qanday ta'sir ko'rsatsa, xuddi shunday ta'sir ko'rsatadi.

Kredit to'lovga qobil talabni kengaytirgach va subyektlarning istaklariga ta'sir ko'rsatgach, savdo kon'yunkturasini keskin o'zgartirib yuboradi. Qachonki baho oshishi kutilsa savdogarlar bundan foyda olishga bo'lgan o'z moyilliklarini namoyish etadilar. Agar bunda bahoning oshishi yuqori va uzoqqa cho'ziladigan bo'lsa, unda u boshqa chayqovchilarni ham o'ziga tortadi. Ular tovarlar xaridini kuchaytiradilar, bu esa beriladigan suda miqdorini ko'paytiradi, bahoni oshiradi. Bir oz vaqt o'tgandan keyin bahoning o'sishi to'xtaydi va tovarlarni o'z qo'llarida ushlab turganlar foydani realizatsiya qilish vaqti kelganini his qiladilar va ularni sotishga kirishadilar. Baho pasaya boshlaydi, tovar egalari katta zarar ko'rmaslik uchun bozorga shoshiladilar, bunday vaziyatdagi bozorda xaridorlar unchalik ko'p bo'lmaganligi sababli, baho oldin oshganiga

qaraganda ancha tez pasayib boradi. Shunga o'xshagan bir oz tebranishlar kredit yo'q paytda ham bo'lib turadi. Ammo pul miqdori o'zgarmagan chog'da bir xil tovarlarga bo'lgan ajiotaj talab boshqa tovarlarning bahosini pasaytiradi. Lekin kreditdan foydalanilganda iqtisodiy subyektlar qo'shimcha pul manbaiga ega bo'ladilar. Bunday vaziyatda chayqovchilik barcha tovarlarni birdaniga qamrab olishi mumkin. Natijada savdo inqirozi kelib chiqadi.

Savdo inqirozi uchun «chayqovchilikning jonlanishi ta'sirida oldin oshgan baholarning tez pasayib borishi tipik hol hisoblanadi. Baholar qaysi nuqtadan osha boshlagan bo'lsa, shu nuqttagacha pasayishi mumkindek tuyuladi yoki iste'mol va taklif o'zini oqlaydigan darajagacha pasayadigandek bilinadi. Ammo ularning pasayishi ancha chuqur bo'ladi, negaki har bir kishi zarar ko'rayotgan paytda, ko'pchilik esa bankrotlikka uchragan davrda, hatto ishonchli va atoqli firmalar o'zlari o'rganib qolgan kreditni zo'rg'a olishlari mumkin. Bunday vaziyat shuning uchun sodir bo'ladi, hech kimda qarzga bergan mablag'ini o'z vaqtida qaytarib olishga ishonch bo'lmaydi. Keyin esa bunga vahimachilik kelib qo'shiladi. Pul qisqa muddatga deyarli har qanday foiz to'lash sharti bilan qarzga olinadi, darhol pul to'lash sharti bilan tovarlarning sotilishidan ko'riladigan har qanday talofotga e'tibor berilmaydi. Demak, savdo inqirozi davrida baholarning umumiy darajasi shu qadar pasayadiki, oldingi inqirozga bo'lgan chayqovchilik davri mobaynida osha boshlagan darajadan ham past bo'ladi». O'z mohiyatiga ko'ra, bu iqtisodiy fikrlar tarixida birinchi marta iqtisodiyotning pasayish dinamikasining pulli jihatlarining ifoda etilishidir.

Bu yerda J.S.Mill S.Sismondi taklif qilgan iqtisodiy pasayish (inqiroz) tushunchasiga qo'shilmadi. Uning fikricha, inqiroz umumiy ortiqcha ishlab chiqarish natijasi hisoblanadi deyish, katta xatodir. «Bu faqat ortiqcha chayqovchilik xaridining oqibatidir... Uning bevosita sababi kreditning qisqarishi hisoblanadi, bartaraf qilish vositasi esa – taklifni kamaytirish emas, balki ishonchni tiklashdir». Bu ma'noda J.S.Mill J.M.Keynsning o'tmishdoshidir.

J.S.Millning tasdiqlashicha, konvertatsiyalashgan qog'oz valyutalar sharoitida oltinning chetga chiqib ketishi yuzaga kelishi sababli baholar uzoq vaqt oshishi mumkin emas. Biroq qog'oz pullar konvertatsiyalashmaganda (ularni oltinga almashtirish mexanizmi yo'q) baholarning oshishi chayqovchilik shov-shuvining kelib chiqishiga yordam berishi mumkin. Savdo inqirozlari davrida «pul talabidan ko'ra, barcha tovarlarning ortiqchasi yuzaga keladi, ya'ni pul taklifi yetishmasligi kelib chiqadi».

J.S.Mill foiz stavkasining o'zgarib turishini batafsil ko'rib chiqadi. Jonlanish davrida kredit ko'payadi, foiz esa pasayadi. Pasayish davrida aksincha foiz stavkasi oshadi. Ammo, qachonki bir necha yil inqirozsiz o'tsa, kapital qo'yish uchun esa yangi sohalar paydo bo'lmasa, qo'llanilishi kerak bo'lgan shu qadar ko'p bo'sh yotgan kapital jamg'ariladiki, bu foiz normasini ancha pasaytiradi. Mas'uliyati cheklangan aksionerlik kompaniyalarning tashkil topishi, masalan, foizni oshiradi. Erkin kapital egalari suda bozorini to'ldirib turuvchi aksiyalarni sotib olgach, «fondlardagi kapitalning bir qismini jalb qiladi va o'zlari o'sha fondlarning qolgan qismini olish uchun raqobatchiga aylanadi. Bu tabiiy ravishda foizning oshishiga olib keladi».

“Hech kim kambag'al bo'lmagan, hech kim boylikka intilmagan va birovlarining oldinga chiqib olishga qilgan harakati tufayli boshqalarning orqaga surib tashlanishi xavfi bo'lmagan vaziyatdagi jamiyat, odamlar uchun eng yaxshi yashaydigan jamiyat hisoblanadi. Bunday turg'unlik davrida madaniyatning barcha shakllarini rivojlantirish uchun, ma'naviy va ijtimoiy taraqqiyot uchun imkoniyatlar hech cheklanmagan bo'ladi”.


**Iqtisodiy taraqqiyot.** Iqtisodiy taraqqiyot, J.S.Mill ta'limotiga ko'ra, fan-texnika taraqqiyoti, shaxsning va mulkning rivojlanishi bilan bog'liq. Ishlab chiqarish va jamg'arish ko'payadi, soliqlar ancha erkinlashadi, ko'pchilik kishilarning ishbilarmonligi oshadi, kooperasiya

takomillashib va rivojlanib boradi. Bularning barchasi samaradorlikning o'sishiga olib keladi, ya'ni ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishiga va qiymatning pasayishiga olib keladi (oziq-ovqat va xomashyo qiymatidan tashqari).

J.S.Millda kapital evolyusiyasi D.Rikardo nazariyasiga o'xshab ketadi. Foyda normasi pasayib boradi, asta-sekin minimum darajaga intiladi, u hali ham kapitalni jamg'arishga va jamg'arilgan vositalardan unumli foydalanishga undaydi. Foiz normasining minimum darajasiga bo'lgan intilishni chetga kapital chiqarish va eksportni ko'paytirish bilan sekinlashtirish mumkin. Bunda foyda normasini pasaytiruvchi kapitalning ortiqcha qismi chetga ketadi; bu yerda kapital yo'qolmaydi, balki u yangi bozorlarni tashkil etish va chetdan arzon tovarlarni olib kelish uchun ishlatiladi. Kapitalning bir qismi chetga chiqib ketishi foydani va foiz normasini oshirib, jamg'armaga bo'lgan yangi intilishni keltirib chiqaradi. Shuningdek, uning aytishicha, foyda normasining pasayish tendensiyasi

davlat xarajatlarini oshirishga qarshi bo'lgan dalillarni kuchsizlantiradi. Ko'rilayotgan kapital harakatining oxirgi natijasi bo'lib, iqtisodiy rivojlanish, muvaffaqiyat qozonish uchun kurash to'xtagan paytdagi **turg'unlik holati** hisoblanadi. Ammo J.S.Mill turg'unlik holatiga ijobiy munosabatda bo'ladi, agar u ishlab chiqarishning yuqori darajasida yuzaga kelgan bo'lsa. «Faqat dunyodagi qoloq mamlakatlarda ishlab chiqarishni ko'paytirish eng asosiy vazifa hisoblanadi. Ancha rivojlangan mamlakatlarda taqsimotni takomillashtirish iqtisodiy zaruratga aylandi».

**J.S.Mill va ijtimoiy masalalar.** Ko'pchilik klassiklarning konsepsiyasida mehnatning qiymati ishchining hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan narsalarning qiymati bilan aniqlanadi. Ish haqi talab va taklif nisbatiga bog'liq holda mehnat qiymati atrofida tebranib turadi. Bu qonunning amal qilishi kishilarning xohishiga bog'liq bo'lmaydi va shuning uchun yollanma ishchilarning ahvolini yaxshilash uchun yo'naltirilgan har qanday ijtimoiy chora-tadbirlar befoyda. Ishchilarning ahvolini yaxshilash iqtisodiyotda kapital qo'yilmasini kengaytirish (mehnatga talab oshadi), yoki aholi o'sishini kamaytirish (mehnat taklifi qisqaradi) bilan amalga oshirilishi mumkin. J.S.Mill dastlab ushbu prinsipni yoqlab chiqqan bo'lsada, ammo keyinchalik undan voz kechdi.



### 10.3. Rasm. J. Millning ijtimoiy islohotlar dasturidagi takliflari.

Sotsialistlar g'oyasining ta'siri va taqsimot qonunlarining tarixiy xarakterini tan olishi, ingliz iqtisodchisini klassik maktabning bir qator qoidalaridan voz kyechishga majbur etdi. U ijtimoiy islohotlarning keng dasturini ilgari surdi va o'z takliflarini bildirdi. Ular quyidagilar:

1. Ishlab chiqarish kooperasiyasini rivojlantirish yo'li bilan yollanma mehnatni tugatish. Yollanma mehnat, J.S.Mill fikricha, mehnatga bo'lgan qiziqishni yo'qotadi. Shuning uchun kapitalistik korxonalar o'rniga kooperativ birlashmalarni tashkil etish zarur, unda ishchilar bir vaqtning o'zida mulk egasi ham hisoblanadi. U, kasaba uyushmalarining rivojlanishi, kapitalistik korxonalarining foydasini taqsimlashda ishchilarning ishtirok etishi tarafdori bo'lgan.

2. Yer rentasini yer solig'i yordamida umumlashtirish. Renta yollanma mehnat kabi iqtisodiy erkinlik tamoyillariga zid. Renta yer egasiga emas, balki jamoaga (qishloq kooperativlariga) yoki barcha jamiyatga tegishli bo'lishi kerak.

3. J.S.Mill mayda yer egalarini qo'llab-quvvatlaydi. Uning fikricha, o'z yerida ishlovchi ko'pchilik dehqonlar renta to'lashdan ozod, ular mustaqil va tashabbuskor, shuningdek yollanma ishchilardan farqli ravishda haddan tashqari o'z oilasini kengaytirishga moyil emas.

J.S.Mill o'zining ijtimoiy islohotlar dasturida «amaldagi individual erkinlik bilan yer sharidagi tabiiy boyliklarga egalik qilishning umumiyligini va mehnat daromadlarida barchaning baravar ishtirok etishini birlashtirish»ga harakat qildi. Bunda u bir-biriga qarshi ikki yo'nalishni: Iqtisodiy erkinlik tamoyili bilan ijtimoiy adolat tamoyilini birlashtirmoqchi bo'lgandek tuyuladi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti tajribasi buning mumkin ekanligini ko'rsatib berdi.

#### **J. Mak-Kulloxning iqtisodiy ta'limoti**

London dorilfununining siyosiy iqtisod professori **Jon Ramsey Mak-Kullox** (1789-1864) ham klassik maktabning so'nggi nomoyondalaridan hisoblanadi. U «Siyosiy iqtisodning boshlanishi» (1825) kitobida qiymatning mehnat nazariyasini rasman tan olsa ham, ammo ishchigina emas, shamol ham, bug' ham, koks ham, mashina ham mehnat qiladi, degan g'oyani ilgari surdi. Bunga asoslanib u foyda qiymatning jamg'arilgan mehnat yoki kapital «ishi» tufayli yaratilgan qismidir, deb tushuntiradi. Merkantilistlar kabi u ham foyda ayirboshlash jarayonida vujudga keladi, deb da'vo qiladi. J.Mak-Kullox Maltusning «Aholi nufusi» qonunini to'la quvvatladi.

Agar avvalgi iqtisodchilar klassik maktabni turlicha sharhlashga intilgan bo'lsalar, XIX asrning 30-50 yillarida iqtisodchilar o'rtasida klassik maktabdan ochiqdan-ochiq aloqani uzishga intilish paydo bo'ldi. Bu davrda sanoat to'ntarilishi nihoyasiga etdi, sinfiy differentsiatsiya amalga oshdi.

Sinfiy kurash keskinlashayotgan sharoitda (Angliyada chartizm, Fransiyada Lion to'quvchilarining qo'zg'oloni, 1848-yil inqilobi va

boshqalar) hukmron sinflar uchun sotsialistlar tomonidan kapitalizمنى tanqid qilish va ishchilarning ijtimoiy talablarini asoslab berish uchun ko'pincha foydalanadigan qiymatning mehnat nazariyasi, Rikardoning foyda, kapitalist va ishchilar ish haqining qarama-qarshiligi ta'limoti va boshqa g'oyalari katta xavf tug'diradi edi.

### 10.3. J.B.Seyning iqtisodiy ta'limoti, "Sey qonuni".

Jan Batist Sey (1767-1832) Fransiyada A.Smit g'oyalarini ancha izchil va ijodiy davom ettirgan olim hisoblanadi. Olimning tadqiqot *predmeti sifatida* avvalo jamiyatning moddiy farovonlik muammosi qaraladi, boylikning manbai esa millatning iqtisodiy salohiyatiga bog'liqdir.

*Tadqiqot uslubida* esa aniq fanlar tajribasidan foydalanish kerak deydi. Metodologik jihatdan bu universal va hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan qonun, kategoriya va nazariyalarni tan olish zarur, deganidir.

U o'zining «Siyosiy iqtisod traktati» (1803) asarida A.Smit konsepsiyasini sistemalashtirishga, uni keng xalq ommasi uchun tushunarli qilib berishga harakat qildi.

**«Bozor qonuni».** J.B.Sey A.Smitning erkin bozor, bahoning shakllanishi, ichki va tashqi savdo, tadbirkorlarning cheklanmagan erkin raqobati va proteksionizmning har qanday ko'rinishiga yo'l qo'ymaslik tamoyillarini qo'llab-quvvatladi va ularni yuqori darajaga ko'tardi. Agar bu prinsiplar qo'llanilsa, J.B.Sey bashoratiga ko'ra, ortiqcha ishlab chiqarish ham, ijtimoiy mahsulotni to'la iste'mol qilmaslik ham bo'lmaydi, ya'ni iqtisodiy inqirozlarning obyektiv zarurligi kelib chiqmaydi. U bu g'oyani rivojlantirib o'zining «bozor qonuni»ni yaratdi. Bu qonunning mohiyatiga ko'ra, tovarlar taklifi o'zi uchun shaxsiy talabni yaratadi yoki boshqacha so'z bilan aytganda, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori avtomatik ravishda yaratilgan barcha tovarlar qiymatiga teng daromadni keltirib chiqaradi. Unga ko'ra, daromad egasining maqsadi pul topish emas, balki olingan daromadning barchasi har xil moddiy buyumlarni sotib olish hisoblanadi. Bunda pul faqat vositachilik rolini o'ynaydi, ya'ni u faqat yangi tovarlarni sotib olish uchun ishlatiladi. Bozor orqali tovarlar bir-birlariga o'zaro xizmat qiladi. Shuning uchun, J.B.Seyning aytishicha, tovarlarning umumiy massasi talabning umumiy miqdoriga teng bo'ladi, o'z tovarini sotib daromad olgan har bir kishi ushbu daromadga mos ravishda talabni keltirib chiqaradi. Demak, jamiyat miqyosida taklif va talab muvozanatlashadi, ortiqcha ishlab chiqarish bo'lmaydi. Ortiqcha ishlab chiqarish faqat ayrim tarmoqlarda boshqa tarmoqlardagi kam ishlab chiqarish hisobiga vujudga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ko'p ishlab chiqarishdan qo'rqmaslik kerak, faqat ayrim tovarlarning ortiqcha ishlab chiqarilish xavfi tug'ilishi mumkin. «Sey qonuni» nomini olgan bu qoida

klassik iqtisodchilarining makroiqtisodiy nazariyasining asosini tashkil etdi va keyinchalik J.M.Keyns tomonidan inkor etildi. J.M. Keynsning tasdiqlashicha, odamlar daromadlarning barchasini iste'molga sarflamaydilar, balki ularning bir qismini jang'arib boradilar. Bu esa shunga muvofiq ravishda yalpi talabni kamaytiradi, ish bilan bandlikni qisqartiradi. Pirovard natijada bunday holat Sey qonunining noto'g'ri ekanligini keltirib chiqaradi. Chunki bu qonunga muvofiq iste'molga sarflanishi kerak bo'lgan daromadning bir qismi jang'armaga ajratiladi. Demak, yalpi taklif bilan u keltirib chiqaradigan yalpi talab o'rtasidagi muvozanat buziladi.

Ammo, «Sey qonuni»ning muhim tomoni shundan iboratki, iqtisodiy liberalizmning barcha tamoyillariga jamiyat tomonidan rioya qilinsa ishlab chiqarish (taklif) o'ziga mos ravishda iste'molni (talabni) keltirib chiqaradi, ya'ni tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish A.Smitning «tabiiy tartib» (pulning passiv rolga asoslangan mehnat natijalarini ayirboshlash) sharoitida albatta shunday daromadlarni keltirib chiqaradiki, ularga bu tovar va xizmatlar erkin sotiladi. Iqtisodiy liberalizm konsepsiyasining barcha tarafdorlari tomonidan «Sey qonuni» shu ko'rinishda qabul qilingan va bozorda bahoning erkin tashkil topishi xo'jalik kon'yunkturasidagi o'zgarishga darhol moslasha oladi, iqtisodiyotning o'zini-o'zi tartibga solib turishini kafolatlaydi, deb hisoblagan.

Haqiqatdan ham, agar pul faqat hisob-kitob

Sey qonuni - bu iqtisodiy qonun bo'lib, unga muvofiq yalpi talab iqtisodiyotda mavjud texnologiyalar va resurslarga muvofiq ishlab chiqarilgan mahsulotlarning butun hajmini moslashuvchan narxlar bilan avtomatik ravishda o'zlashtiradi. Talab va taklif doimo muvozanatli bo'ladi.

birligi hisoblangan barterli iqtisodiyot amal qiladi desak, unda taklif miqdori talab miqdoriga teng bo'ladi, ortiqcha ishlab chiqarish

bo'lmaydi. Bu J.B.Sey qonunining mohiyatini tashkil etadi.

**Qiymat nazariyasi.** Klassik iqtisodiy maktab vakillari ichida J.B.Seyning qiymat nazariyasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. A.Smit, D.Rikardo, sotsialist-utopistlar, S.Sismondi, K.Marks va boshqa bir qator iqtisodchilar tovar qiymatining yagona manbai mehnat deb hisoblaganlar. J.B.Seyda bu muammoga ikki xil yondashuv mavjud: u bir joyda, tovar qiymati tadbirkorning kapitalga, ish haqiga va yer rentasiga bo'lgan xarajatlaridan tashkil topadi degan bo'lsa, ikkinchi bir joyda, qiymat foydalilik bilan aniqlanadi deydi. J.B.Sey foydalilik bilan buyumning (tovarning) qiymati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniq qilib ko'rsatib berdi. «Qiymat bu foydalilik o'lchovidir», - deb yozadi J.B.Sey. Bu bilan



u tovar qiymati nafaqat mehnat sarflari bilan, balki mahsulotning foydalilik darajasi bilan ham o'lchanishi mumkinligini aytib berdi. Lekin bu xususda iqtisodiy ta'limotlar tarixi bo'yicha yirik mutaxassis M.Blaugning yozishicha «talabning to'yinish darajasini izohlab berishda foydalilikning pasayib borishi tushunchasi ishlatilmagan foydalilikka asoslangan qimmat konsepsiyasini bahoning shakllanish nazariyasi deb hisoblash noo'rin».

**Uch omil nazariyasi.** J.B.Sey tovar qiymatining yaratilishida ishlab chiqarishning uch omiliga (mehnat, kapital, yer) alohida e'tibor bergan. Uning tasdiqlashicha bu omillar tovar qiymatini yaratishda bir xil ishtirok etadi, barcha mahsulotning umumiy qiymati esa uch sinf - ishchilar, kapitalistlar va yer egalari daromadlaridan tashkil topadi. J.B.Seyning uch omil nazariyasiga muvofiq «mehnat» omili ishchilarning daromadi sifatida ish haqi yaratadi, «kapital» omili kapitalistlarning daromadi sifatida foyda yaratadi, «yer» omili yer egalarning daromadi rentani yaratadi. Demak, boylik yaratishda ishlab chiqarishning har bir omili qatnashadi. (Smitda faqat unumli mehnat boylik yaratadi deyiladi). J.B.Sey yuqorida ko'rsatilgan omillar (mehnat, kapital, yer) ishchilar, kapitalistlar va yer egalarning daromadlarini yaratishda mustaqillikga ega ekanligini qayd qilib o'tadi.

Demak, J.B.Sey nazariyasida tadbirkorlarning cheklanmagan erkin raqobati sharoitida ishlab chiqarish omillarini va jamiyatdagi sinflarni ekspluatatsiya qilish inkor etiladi. Uningcha, ishlab chiqarishda tadbirkorlar (ular ishlab chiqarishni tashkil etadilar va boshqaradilar), yer egalari (tovar ishlab chiqarish uchun tabiiy materiallarni beradilar) va ishchilar (tayyor mahsulot yaratadilar) o'zaro ta'sirda bo'ladilar va birlarini to'ldirib boradilar. Ishlab chiqarish jarayoni qatnashchilari bir - birlariga qarshi turmaydilar, aksincha, bir-birlarini to'ldirib turadilar.

Ishlab chiqarish omillari tomonidan yaratilgan ijtimoiy mahsulot qiymati ushbu omil egalari daromad sifatida taqsimlanadi, xususan, tadbirkor daromadi, J.B.Seyning aniqlab berishicha, bu uning qobiliyati, iste'dodi, faoliyati va boshqaruvi uchun to'lanadigan haq. Uning fikricha, kapitalning oshib borishi bilan «quyi sinflarning» ahvoli yaxshilanib boradi va ularning ko'pchiligi «yuqori sinf» safini to'ldirib boradi. J.B.Sey kompensatsiya nazariyasiga asos soldi. Mashinalar dastlab ishchilarni ishlab chiqarishdan siqib chiqaradi, keyinchalik pirovard natijada esa ish bilan bandlikni oshiradi va mahsulot ishlab chiqarishni arzonlashtirish hisobiga ularga katta foyda keltiradi. Uning ifoda etishicha «ishlab chiqarishdagi texnik yangiliklardan boshqalarga nisbatan ishchilar sinfi ko'proq manfaatdor». Umuman, iqtisodiy ta'limotlar tarixida J.B.Seyning nomi bozor iqtisodiyoti sharoitida sinflar manfaati uyg'unligiga cheksiz

ishongan olim sifatida tilga olinadi.

J.B.Seyning o'tmishdoshlari «haqiqiy» boylik yaratadigan iqtisodiyot tarmoqlarini (merkantilistlar tashqi savdoni, fiziokratlar qishloq xo'jaligini) ajratib ko'rsatib berishga harakat qilgan. Hatto A.Smit xizmat ko'rsatish sohasidagi mehnatni unumsiz mehnat, sanoat va savdodagi mehnatni esa kam unumli mehnat, qishloq xo'jaligidagi mehnatni yuqori unumli mehnat hisoblagan, negaki unga tabiat «yordam» beradi. J.B.Sey iqtisodiyotning asosiy sohaları - sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va xizmat ko'rsatish o'rtasidagi «tenglikni» ko'rsatib berdi. Uning fikriga ko'ra, to'rtta sohaning barchasida boylik yaratiladi, chunki sanoatda ham, qishloq xo'jaligida ham, savdoda ham, xizmat ko'rsatishda ham foydalilik ishlab chiqariladi.

Hozirgi zamon g'arb iqtisodchilari o'tmishdoshlaridan, birinchi navbatda J.B.Seydan, ishlab chiqarishning har xil, teng huquqli omillari milliy daromad yaratadi, degan tushunchani meros qilib olgan. Bunday yondashuvning ma'nosi shundan iboratki, kasbi va faoliyat sohasidan qat'iy nazar har bir daromad oluvchi bir vaqtning o'zida uni yaratuvchi hisoblanadi.

#### **10.4.Senior, Bastiya, Keri va boshqalarning iqtisodiy ta'limotlari.**

Nassau Vilyam Senior (1790-1864) Londondagi mashhur Oksford universitetining siyosiy iqtisod kafedrası professorı, «tiyilish» va «so'nggi soat» nazariyalarining muallifi sifatida mashhur bo'ldi.

N.Senior g'oyalari «**Siyosiy iqtisod fani ocherklari**» (1836) va «**Fabrika qonunchiligi to'g'risidagi xatlar**»da bayon etilgan.

U o'zining qiymat nazariyasida qiymatni baho bilan bir narsa deb hisoblaydi va qiymat talab bilan taklifga bog'liq, deydi. U mehnat (ishchilarning «qurboni») bilan bir qatorda kapitalistning «tiyilishi»ni ham qiymatning manbai deb e'lon qiladi.

Senior ta'kidlagan iqtisodiyotning fan sifatidagi asosiy to'rt g'oyasi quyidagilardir:

1) ratsionallik tamoyili, unga ko'ra insonlar ongli va rejali ravishda harakat qiladilar, ular ozgina xarajat qilish evaziga boylik orttirishga harakat qilishadi:

2) Maltusning «Nufus qonuni»dagi tamoyillar:

3) Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish hajmining yildan-yilga kamayib borish tamoyili:

4) Sanoatda tarixan ishlab chiqarish hajmining ortib borish tamoyili. Bunday iqtisodiy qarash, iqtisodiyot nazariyasi rivojlanishida sof deduktiv

fanlar kabi muhim ahamiyatga ega<sup>21</sup>.

Iqtisodiyotning an'anaviy va institutsion tizimi Seniorning (1) boyliging tabiati va ishlab chiqarishni tartibga solish borasidagi umumiy qonunlar va (2) foydani taqsimlashni tartibga solish usuli o'rtasidagi farqda o'z aksini topgan<sup>22</sup>.

**«Tiyilish» nazariyasi.** Bu nazariyada N.Senior kapitalni kapitalistning berayotgan «qurboni» deb hisobladi. Uning ta'kidlashicha kapitalist o'z kapitalini ishlab chiqarish sohasiga qo'yganda (investisiya) o'zining shahsiy iste'molidan go'yo ma'lum davr «tiyilib» turadi, mehnat esa o'z navbatida ishchining dam olish va tinchlik evaziga qilgan «qurboni» deb qabul qilinadi. Shuning uchun ish haqi va foyda kapitalist va ishchi bergan tegishli «qurbonlar» uchun bab-baravar mukofot emish. N.Senior Rikardoning qiymatni ish vaqti bilan belgilashiga qarshi chiqadi, uningcha foyda kapitalistning «mehnati»dan, foiz esa uning sabr-qanoatidan hosil bo'lishini kashf qildi.

**«So'nggi soat» nazariyasi.** N.Seniorning yana bir «kashfiyoti» uning «so'nggi soat» nazariyasidir. Sanoat o'tarilishi va mashinalarning kirib kelishiga qaramasdan, ishchilarning ish soatlari nihoyatda yuqori bo'lib, shu sababli XIX-asrning 30-yillarida Angliyada 10 soatlik ish kuni uchun ko'rash kuchayib ketdi. N.Senior esa o'sha davrda mavjud bo'lgan 11,5 soatlik ish kunini qisqartirishning «ilojsizligini» nazariy jihatdan asoslashga urinib, shu ish kunining 10,5 soatida sarflangan kapitalning qiymati yangidan vujudga keladi, faqat oxirgi bir soatidagina foyda yaratiladi, deb uqtirdi. Shu sababli ish kunini 10 soatgacha qisqartirish foydaning yo'q bo'lib ketishiga, bu bilan birga esa ishlab chiqarishni rivojlantirishga har qanday qiziqishning yo'q bo'lib ketishiga olib kelgan bo'lar edi, deb da'vo qildi. Bu bilan u sohibkorlarni ochiqdan-ochiq himoya qiladi.

Nazariy yondashuvlarning nomuvofiqligi va yetarli asoslanmaganligiga qaramasdan N. Senior iqtisodiy fanlar tarixiga neoklassik iqtisodchilar asarlarida davom etgan ko'plab o'ziga xos g'oyalarni boshlagan olim sifatida kirdi. Olim birinchilardan bo'lib:

- foydalilikni qiymat asosi sifatida tahlil qilishga urindi;
- chekli foydalilini kamayib borish xususiyatiga e'tibor qaratdi;
- cheklangan resurslar va muqobil xarajatlar tamoyillarini ilgari suridi;
- bozor talabi va taklifini o'rganishga harakat qildi;
- kapitalistga berilgan mukofotning ikki ko'rinishi sifatida tadbirkorlik daromadi va foizni tabaqalashtirgan;

<sup>21</sup> H. Landreth, D. C. Colander. History of economic thought. Houghton Mifflin Company, Boston Toronto p. 189

<sup>22</sup> H. Landreth, D. C. Colander. History of economic thought. Houghton Mifflin Company, Boston Toronto p. 189

- bozor tizimini rivojlantirish asosi sifatida jang'armalarga e'tiborni qaratdi;
- Renta narx bo'yicha talabning egiluvchanligi bilan bog'liq qo'shimcha daromad sifatida keng talqin qilingan va boshqalar.

XIX asrning 40-50 yillarida fransuz va xalqaro ishbilarmonlar orasida **F.Bastianing** (1801-1850) nomi va uning iqtisodiy qarashlari keng ommalashdi. F.Bastianing eng asosiy g'oyasi jamiyatdagi ijtimoiy antagonizmning mavjudligini inkor etishdir. Uningcha, o'sha davrdagi jamiyat dunyodagi «eng go'zal, mukammal, mustahkam butunjahon assotsiasiyalaridandir. Barcha qonuniy manfaatlar uyg'unlashgandir». F.Bastia 1850 yilda «Iqtisodiy garmoniyalar» kitobini chop etdi. Unda u garmoniya (uyg'unlik)ning asosini almashuv va sof, hech narsa bilan cheklanmagan raqobatda ko'radi. F.Bastia o'z g'oyasini isbotlashda Seyning fikridan foydalangan bo'lib, xizmatlar nazariyasi bunga mos keladi, ya'ni almashuv, xarid - savdo o'zaro teng «xizmatlar»ni almashish demakdir. Sey bo'yicha bu «xizmatlar» nafaqat odamlar, balki buyumlar va tabiat kuchlari tomonidan ko'rsatilsa ham, Bastia jamiyat hayotining qanday sohasida bo'lmasin, faqat shaxsiy xizmatlarni ustun qo'yadi. «Xizmat» deganda ishlab chiqarish davomida real mehnat sarfinigina emas, balki shu xizmatdan foyda keltiruvchi har qanday harakat, faoliyat va kuch tushuniladi. Bundan shu narsa aniq bo'lib qoladiki, qimmat yaratishda ishlab chiqarishga faqat ishchilar emas, balki kapitalist va yer egalari ham katta «xizmat» ko'rsatadilar. Kapitalistning «xizmati» unga foiz olish imkoniyatini berishini F.Bastia shunday ko'radiki, kapitalist kapitalni avans yoki suda tarzida sarflab, iste'molni orqaga suradi va uni kapitalistning «qurboni» deb hisoblaydi. Bu yuqorida biz keltirgan Seniorning tiyilish nazariyasining o'zidir. «Tiyilish» so'zi o'mniga «orqaga surish» so'zi qo'yilgan, xolos.

Mehnat va kapital o'rtasidagi uyg'unlik, ya'ni garmoniyani yanada to'laroq isbotlash maqsadida Bastia o'zining kapital jang'arilishi «qonuni»ni yaratdi va unda Rikardoning foyda va ish haqining bir-biriga qarama-qarshi ekanligi to'g'risidagi ta'limotini inkor etishga harakat qildi. F.Bastianing bu «qonuni»ga ko'ra, mehnat va kapital manfaatlari oliy darajada hamohangdir. Oqibatda kapitalistning foydasi va ishchining maoshi bir vaqtda va bir miqdorda oshib boradi, hatto ishchilarning hissasi kapitalistlaridan tezroq o'sar ekan, demak, oqibatda kapitalistning foydasi nisbatan kamayadi. U bu fikrni isbotlashga urinib ham o'tirmaydi. Uningcha foyda normasi va kapitalistlarning milliy daromaddagi hissasi masalalarini qorishtirib yuborgan. Foyda normasining pasayib borish tendensiyasi ishchilarni ekspluatatsiya qilishning kuchayishi bilan mos

kelishi mumkin, demak kapitalistlarning milliy daromaddagi hissasi ham oshib borishini kutish mumkin.

F.Bastia o'zining bu nazariyasi yordamida kapitalistlar va yer egalari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni hal etadi. U yer rentasini yer egasining yoki uning ota-bobolarining shu yerni ishlash va yaxshilash xizmati uchun berilgan mukofot deb hisoblaydi. Shunday qilib kapital va yer egaligi o'rtasidagi uyg'unlik shu bilan hal etiladiki, yer rentasi yerga qo'yilgan kapital foizining bir ko'rinishiga aylantiriladi. Bunday izohlash yer rentasining iqtisodiy kategoriya sifatidagi xususiyatini inkor etadi, uning foydadan hech qanday farqi qolmaydi. Ishlanmagan yerlardan olinadigan renta umuman bu sxemaga mos kelmaydi. Demak, Bastianing izohi bo'yicha o'sha davrdagi burjua jamiyati turli sinflar o'rtasidagi o'z xizmatlari bilan almashib turuvchi «uyg'unlashgan hamkorlik» jamiyati tarzida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy erkinlik bu xizmatlar almashuvining ekvivalentligining garovi hisoblanadi, chunki bu erkinlik nomutanosib harakatlarning oldini oladi. Proteksionizmni cheklanmagan erkin raqobat bilan almashtirish esa sotsialistlarning jamiyatni mukammalroq iqtisodiy jamiyatga aylantirish to'g'risidagi chaqiriqlariga qarama-qarshi qo'yiladi.

1775-85-yillardagi mustaqillik uchun Shimoliy Amerika va Angliya o'rtasidagi kurashda qozonilgan g'alaba tufayli AQSH davlati vujudga keldi. Hokimiyat tepasiga yangi sinf - burjuaziya o'tirdi. AQSH burjuaziyasi ingliz burjuaziyasidan anchagina farq qilar edi. AQSHdagi hukmron sinf 1865-yilgacha qullikni saqlab qoldi va ingliz siyosiy iqtisodiga zid ravishda o'z siyosiy iqtisodini yaratishga tayyor edi. Biroq AQSHda siyosiy iqtisod klassik asosda vujudga kelmadi. Buning sababi shuki, XIX asrning 20-30-yillarida AQSHda kapitalizmning nisbatan tez rivojlanishi ishchilar harakatining vujudga kelishiga va tez o'sishiga olib keldi. Ayni vaqtda ish tashlashlar bo'lib turdi. Siyosiy kurashning keskinlashuvi vulgar siyosiy iqtisod uchun zamin yaratdi. Bundan tashqari qilar edi. Shu sababli AQSHda yuzaga kela boshlagan iqtisodiy fikr klassik maktabga qarshi chiqdi. Bu g'oyalar Genri Charlz Keri (1793-1879) tadqiqotlarida o'z aksini topdi.

Yirik noshirning o'g'li bo'lgan **G.Keri** tijorat sohasida katta yutuqlarga erishdi. Boyib olgach, yirik fabrikantga aylandi va iqtisodiy tadqiqotlarga kirishdi. U bir qancha iqtisodiy asarlar muallifi edi. 1837-40-yillarda uning «Siyosiy iqtisod prinsiplari» va 1857-59-yillarda «Ijtimoiy fanlarning asoslari» nomli asarlari chop etildi. Bu asarning qisqacha varianti 1865-yilda «Ijtimoiy fanlar uchun qo'llanma» nomi bilan chop etildi. Yuqorida eslangan F.Bastia shu amerikalik olimdan

ilhomlandi.

G.CH.Keri ingliz siyosiy iqtisodiga keskin qarshi chiqib, AQSH kapitalizmini madh etdi. Uning asosiy asari «Manfaatlar uyg'unligi» (1872) kitobidir. G.Kerining qarashlari Angliyaga qarshi ruhda edi. U Rikardoning ta'limoti va Maltus aqidalarini rad qildi.

G.Kerining metodologiyasi subyektiv idealizm va mexanisizm bilan obyektiv iqtisodiy qonunlarni tabiat qonunlariga almashtirish bilan karakterlanadi.

G.Keri hamma iqtisodiy kategoriyalarni ta'riflab berishga intildi. U qiymatni insonning tabiatga hukmronligi o'lchovi deb, predmetga ega bo'lish uchun bartaraf qilish zarur bo'lgan qarshi harakat deb ta'rif berdi. U narxni predmetning o'zini ayirboshlash evaziga pul olish qobiliyati deb hisobladi. Kapitalni esa odamlarning tabiat kuchlarini boshqarish imkoniyatini olishlarida yordam beradigan buyum yoki qurol deb tushundi.

G.Keri D.Rikardoning yer rentasi nazariyasini tanqid qilib, uni yalpi kurash nazariyasi (ya'ni Rikardo shu nazariya yo'li bilan go'yo sinflar o'rtasida urushni avj oldirdi), deb hisobladi va Rikardoni «kommunizm otasi» deb, unga xuruj qildi. G.Kerining o'zi esa rentani yer egalari mehnati uchun mukofot deb hisoblab, uni foiz bilan aynan bir narsa deb tushundi. Kerining iqtisodiy ta'limotida burjua jamiyatida «barcha chin va haqiqiy manfaatlarining to'la-to'kis uyg'unligi» mavjudligini isbotlamoqchi bo'ldi. U taqsimot qonunini o'z nazariyasiga asos qilib oldi.

G.Keri proletariat bilan burjuaziya manfaatlarining bir xilligini go'yo kapitalistik jamiyatda mehnat unumdorligi oshishi bilan ish haqi ham oshib boraveradi, shuning natijasida ishchi bilan kapitalistning iqtisodiy ahvolidagi tafvut asta-sekin kamayadi, degan qoida bilan asoslamoqchi bo'ldi. G.Keri kapitalistik jamiyatda aholining nisbiy ko'payishi va ekspluatatsiya kuchayishi faktlarini mutlaqo inkor qilib, ishchilar sinfi farovonligining oshib borishini texnika taraqqiyoti bilan bog'liq, deb hisobladi.

XIX asrda Kerining qarashlari, uning antagonistik jamiyatdagi manfaatlar uyg'unligi nazariyasi ko'pchilikka ma'lum bo'lib, burjuaziya siyosiy iqtisodini soxtalashtirishga katta ta'sir ko'rsatdi. «Manfaatlar uyg'unligi» nazariyasining asosiy qoidalarini hozirgi zamon siyosiy iqtisodi qaytadan tiklamoqda.

G.Keri yuqorida biz bayon etgan kapitalistik munosabatlarning bekamu-ko'stligi, sinfiy manfaatlarning hamohangligi va boshqa «uyg'unliklar» to'g'risida ko'p yozdi. Lekin uning g'oyalari Bastiadan biroz farq qiladi. Keri qullikni qo'lladi (bu davrda AQSHning janubida hali qul plantasiyalari mavjud edi). Proteksionizm siyosati ham himoya qilindi,

chunki AQSH hali yosh davlat sifatida sanoati pastligi tufayli unga muhtoj edi, chunki Angliya sanoati bilan ochiq raqobatda engishi qiyin bo'lgan. Shular tufayli Smit va Rikardolarning fritrederlik (erkin savdo) siyosati to'g'ri kelmay qoldi. Ayniqsa, Rikardoning burjua jamiyatidagi sinflar o'rtasidagi manfaatlarning qarama-qarshi ekanligi ko'pchilikka ma'qul bo'lmay qoldi.

Kerining fikricha, Rikardoning tuzumida dushmanlik ruhi bo'lib, millat, sinf, ijtimoiy guruhlar o'rtasida urush keltirib chiqaradi. Vaholanki, bu guruhlar o'rtasida bekamu-ko'st uyg'unlik mavjud emish. Kerining «Manfaatlar uyg'unligi nazariyasi» asosida uning «taqsimot qonuni» yotadi, unga ko'ra mehnat unumdorligining o'sishi bilan ishchilar hissasi absolyut va nisbiy jihatdan o'ssa, kapitalistlarniki esa aksincha pasayadi. Shunday yo'l bilan mehnat va kapital o'rtasidagi antagonizm yo'q qilinadi. Bunda yaxshi ma'lum tezis - unumli kapital g'oyasidan foydalaniladi.

G.Kerining g'oyasi bo'yicha tovarning qiymati uni ishlab chiqarishga ketgan amaliy mehnat miqdori bilan emas, balki ma'lum sharoitda sarflangan ishlab chiqarish xarajatlari bilan aniqlanadi (bu fikr ham ilgari eslangan). Ammo mehnat unumdorligining o'sishi bilan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun, shu jumladan ishlab chiqarish vositalariga sarf-xarajatlar kamayadi. Bu esa, G.Keri bo'yicha kapitalning qiymati pasayishiga olib keladi. Ishlab chiqarish vositalari kapital bilan bir deb qaraladi. Oqibatda foiz ham, kapital egasi oladigan mahsulot hissasi ham pasayadi, shunga mos ravishda mehnat qiymati va uning mahsulotdagi hissasi oshib boradi. Bu g'oyalarning hammasini qo'llash qiyin, chunki foiz qiymatning bir qismi bo'lib, avvalgi mehnatga hech qanday aloqasi yo'q. Mehnat unumdorligining o'sishi ishchilarning tirikchilik vositalari qiymati pasayishi bilan bog'liq, bunda ishchi kuchi qiymati ham pasayadi, kapitalistning milliy daromadidagi hissasi esa oshib boradi.

Keri kapitalist va yer egasi «manfaatlari uyg'unligi»ni isbotlab berishga intiladi. Bunda ham u Rikardoga qarshi chiqadi, ayniqsa unumdorligi past yerlarni ishga tushirishga mone'lik bildiradi.

Keri Bastia kabi rentani aslida kapitalga foiz shakli sifatida qaraydi, dehqonchilik xususiyatlarini inkor etadi. Keri «millatlar uyg'unligi» haqida ham gapirib, jahon ishlab chiqarishini mahalliy markazlarga taqsimlash zarurligini aytadi, chunki bu yerlarda qishloq xo'jaligi va sanoat tabiiy holda uyg'unlashgan. Shularni hisobga olib, Keri Buyuk Britaniyaning sanoat va mustamlakachilik monopoliyasiga qat'iy qarshi chiqadi, boshqa davlatlarni agrar xomashyo manbaiga aylantirish siyosatini inkor qiladi va shu maqsadda proteksionizmi keng qo'llash kerak, deydi. Shunisi qiziqki,

burjuaziya manfaatlarini himoya qilib, gohida fritrederlik (F.Bastia), ba'zida proteksionizm (Ch.Keri) «uyg'unlik»ning doimiy sharti deb e'lon qilinaveradi.

### **Qisqa xulosalar**

Merkantilistlar o'rmini egallagan klassik maktab iqtisodchilari iqtisodiy fan asoslarini shakllantirishga katta hissa qo'shdilar. Ingliz klassik maktabi rivojlanishining ikkinchi, yakuniy bosqichi, birinchi navbatda, T. Maltus, J.S.Sey, J.S. Mill nomlari bilan bog'liq.

J. S. Mill A. Smit, D. Rikardo va «klassiklar»ning boshqa vakillari pozitsiyalarini muvofiqlashtirishga harakat qildi va ma'lum darajada iqtisodiyotda neoklassik yo'nalishning shakllanishiga yo'l ochdi. Mill nafaqat klassik maktab go'yalarini sintezatori, balki jahon iqtisodiy fanining arsenaliga kirgan bir qator go'yalarini ham ilgari surdi. Baho o'zgarishining talab miqdoriga bo'lgan ta'sirini bozor muvozanatini o'rnatish mexanizmini, kredit operatsiyalarini, xalqaro savdo muammolarini, bozor iqtisodiyotida davlatning rolini tahlil qilishi J.S.Millning asosiy ilmiy xizmatlaridan hisoblanadi.

J.B.Sey A.Smitning erkin bozor, bahoning shakllanishi, ichki va tashqi savdo, tadbirkorlarning cheklanmagan erkin raqobati va proteksionizmning har qanday ko'rinishiga yo'l qo'ymaslik tamoyillarini qo'llab-quvvatladi va ularni yuqori darajaga ko'tardi.

Klassik iqtisodiy maktab vakillari ichida J.B.Seyning qiymat nazariyasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. U bu muammoga ikki xil yondaadi: u bir joyda, tovar qiymati tadbirkorning kapitalga, ish haqiga va yer rentasiga bo'lgan xarajatlaridan tashkil topadi degan bo'lsa, ikkinchi bir joyda, qiymat foydalilik bilan aniqlanadi deydi. J.B.Sey foydalilik bilan buyumning (tovarning) qiymati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniq qilib ko'rsatib berdi. T.Maltus, A.Smitdan farqli o'laroq, aholining o'sishi boylikning ijobiy asosi sifatida emas, balki ta'minlash imkoniyatlarining qisqarishi munosabati bilan qattiq qarshilik shaklida ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan pozitsiyani asoslashga harakat qildi.

Muxoliflarning qarama-qarshiliklari va e'tirozlariga qaramay Maltusning nufus nazariyasi klassik maktabning ko'plab vakillari tomonidan qabul qilingan

### **Asosiy tushuncha va iboralar**

Ishlab chiqarish qonunlari va taqsimot qonunlari; minimum ish haqi va fiziologik minimum; talabning elastikligi; «Aholi nufusi nazariyasi»; tuproq unumdorligining pasayishi qonuni; inqirozlar; tiyilish nazariyasi;



soʻnggi soat nazariyasi, «bozorlar qonuni», ishlab chiqarishning uch asosiy omili; foydalilik; iqtisodiy romantizm; mayda ishlab chiqarish; yirik sanoat; liberal; uchinchi shaxslar; xalq banki; ishchi puli; anarxizm.

#### **Nazorat uchun savollar**

1. T. Maltus «Aholi nufusi nazariyasi» ning mohiyati.
2. R. Maltus Nufus nazariyasi shakllanishidagi uchta asosiy omil nima?
3. J. Millning iqtisodiy taraqqiyot haqidagi qarashlari qanday?
4. J. Mill kreditning tabiati va uning iqtisodiyotdagi rolini qanday izohlaydi?
5. J. Millning ijtimoiy islohotlar dasturidagi takliflari qanday?
6. J. R. Mak-Kulloxning asosiy gʻoyalari qanday tushuncha bering.
7. Iqtisodiyotda matematik uslub kim tomonidan kiritildi?
8. «Talabning elastikligi» nimani bildiradi?
9. Baho va mahsulot miqdori oʻrtasida qanday bogʻlanish bor?
10. J. B. Seyning «Bozor qonuni» asaridagi asosiy gʻoya nimani bildiradi?
11. «Sey qonuni»ning mohiyati.
12. «Uchinchi shaxslar nazariyasi» ning mohiyati.

## XI. BOB. BOZOR IQTISODIYOTIGA MUXOLIF – SOTSIALISTIK YO‘NALISH MOHIYATI VA UNING TARIXIY TAQDIRI

### 11.1. XIX asr boshlarida xayoliy sotsializm vujudga kelishining shart-sharoitlari va uning umumiy xarakteristikasi

Xayoliy - sotsialistlar klassik iqtisodiy maktab vakillaridan farq qilib, xususiy mulkchilikni va kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarini tanqid qiladilar, jamiyatning barcha aʼzolariga baxt keltiradigan yangi jamiyat yuzaga keladi, deb ishchilarni ishontiradilar. Ular yangi jamiyat adolatli ijtimoiy tuzum loyihalarini bayon etib isteʼmol va taqsimotni qayta tashkil etish bilan cheklanib qolmasdan, balki ishlab chiqarishni tubdan oʻzgartirishni taklif qildilar. Shuningdek, ularning ijtimoiy adolatni targʻib qilishga qaratilgan gʻoyalari aynan adolatsizliklardan voz kyechishi zarur, degan fikrlari asosida nafaqat xayoliy balki bozor iqtisodiyotiga qarshi qarash koʻrinishini oladi. Va nihoyat, XIX asrning birinchi yarmida ijod qilgan xayoliy sotsialistlar taʼlimotlarida bozor iqtisodiyotiga muqobil qarashlar turlicha namoyon boʻladi. Bu oʻrinda ushbu maktab vakillarining birinchidan, individual (yakka) faoliyatni kollektiv mehnat faoliyati bilan almashtirish mexanizmini qanday izohlashlari bilan, ikkinchidan mehnatkashlarni jamoa tashkilotlariga birlashish tamoyillari xususiyatlarini qay tarzda tushuntirishlarida oʻz aksini topadi.

R.Ouen va Sh.Fure hamda ularning izdoshlari «Sotsialist-assoatsiyachilar» boʻlib, Sen-Simonchilardan farqli oʻlaroq individ toʻda ichida yoʻqolib ketmasligini istatadi. Ularni mayda avtonom guruhlar yordamida saqlab qolishni taklif qilib, birlashuv jarayonini yuqoridan emas balki quyidan borishini maqsadga muvofiq, deb hisoblaydilar»<sup>23</sup>. Nihoyat, xayoliy - sotsializm nomoyondalari oʻzlarining benuqson ijtimoiy tuzumlarini turlicha: Sen-Simon industrializm, Fure garmoniya, Ouen esa kommunizm deb atadilar. Lekin ularning barchasi ekspluatatsiyaning yoʻq boʻlishi, aqliy va jismoniy mehnat oʻrtasidagi qarama-qarshilikning bartaraf etilishi hamda xususiy mulkning yoʻq boʻlishi toʻgʻrisidagi fikrlarni bir xil takrorladilar. XVIII asrning oxiri - XIX asrning boshlarida Gʻarbiy Yevropada ishlab chiqarishning hukmron shakli manufaktura boʻlib, fabrika ishlab chiqarishi endigina shakllanayotgan edi. Kapitalizmning moddiy sharoitlari va ishchilarning jamiyatning asosiy sinfi sifatida shakllanishi dastlabki bosqichlarda edi.

Xayoliy sotsialistlar ijtimoiy adolatli jamiyatga oʻtish yoʻllarini aniq koʻrsata olmadilar, lekin ular sinfiy manfaatlar qarama-qarshiligini


<sup>23</sup> Д. Жид, Ш. Рист «История экономических учений» М., Экономика, 1995 Стр.170

ta'kidlab o'tdilar. Ular ishchilar sinfiga ezilgan jabrlanuvchi sinf sifatida qarab, asosiy e'tiborni ongni rivojlantirishga, o'z g'oyalari tashviqot qilib kommunalar, «falansterlar» orqali hayotga tadbiiq etishga qaratdilar. Mehnatkashlarni ozod etishning moddiy sharoitlari yaratilmaganligi tufayli xayoliy sotsialistlar bo'lajak jamiyatning fantastik loyihalarini taklif etdilar. Ular o'zlarini sinflardan yuqori qo'yib, jamiyatning barcha a'zolari manfaatlarini ifoda etayotganliklarini ko'rsatmoqchi bo'ldilar. Shuningdek, siyosiy kurash, revolyutsiyalarni rad etib, ijtimoiy adolat g'oyalari tashviqot qilish yo'li bilan jamiyatni qayta tuzishni orzu qildilar. Mana shularning barchasi g'oyalarning xayoliy bo'lib qolishiga sababchi bo'ldi. Biroq, xayoliy sotsializm o'zining cheklanganligiga qaramasdan, kapitalizm oyoqqa turayotgan bosqichda progressiv ta'limotlar qatorida alohida o'rin egalladi.

### 11.2. A.Sen-Simon, Sh.Fure va R.Ouen iqtisodiy qarashlari

Fransiyada burjua inqilobidan keyin kapitalizm yana tez rivojlandi. Jamiyat oldida doimiy ravishda ko'ndalang bo'lib qolgan yangi savollarga fransuz mutafakkiri Sen-Simon birinchi bo'lib javob berishga urindi.

**Anri Klod de Rebrua Sen-Simon** (1760-1825 yy.) Fransiya xayoliy sotsializmining namoyandasi bo'lib, quyidagi mashhur asarlarning muallifidir: «Sanoat sistemasi haqida», «Inson haqidagi fan ocherklari», «Sanoat yoki siyosiy, ma'naviy va falsafiy mulohazalar», «Yangi xristianlik» va boshqalar.



11.1. Rasm. Sen-Simon: ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar.

Sen-Simon maxsus iqtisodiy tadqiqotlarni amalga oshirmadi, balki asosiy e'tiborni ijtimoiy muammolarga qaratdi. U butun yaxshi jamiyat to'g'risidagi umidini aql-idrokka, ma'rifatga bog'ladi; u insonning aql-

idrokini tarixiy jarayonning to'la hokimi va rahbari sifatida bildi, jamiyatni yaxshi tarzda qayta qurish yo'llarini tashviqot qilishni esa o'z ta'limoti amalga oshirilishining bosh vositasi deb hisobladi.

Fransuz ma'rifatparvarlaridan farq qilib, Sen-Simon ishlab chiqarishdagi inson faoliyati, mulkchilik formalari kabi iqtisodiy faktorlarga katta baho berdi. U «Ilk davr», «Qulchilik», «O'rta asrlar», «Hozirgi davr» va «Oltin asr»larni alohida ajratib, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarni ko'rsatib o'tdi (11.1.rasm).

«Hozirgi davr» (ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmi) o'tish davri deb belgilanib, «...bu davrda, deb yozadi Sen-Simon, olimlar, tadbirkorlar va ishchilardan iborat sanoatchilar shakllanadi, ular qirol hukumati bilan birgalikda odil jamiyatni barpo etishlari kerak, bu esa o'z navbatida «Oltin asr»ga kirib kelishni ta'minlaydi.»

Sen-Simon o'zining tarixiy konsepsiyasidan kelib chiqib, hozirgi davrni o'rganib borish uchun o'tgan davrga nazar tashlash kerakligini aytib, «har bir alohida olingan davr mulohazasida juda yuzaki, hatto noto'g'ri qisqacha xulosalarni beradi, so'nib borayotgan o'tmish qoldiqlari tug'ilib kelayotgan kelajak bilan qorishtirib yuboriladi», deb ko'rsatadi.

Tarixiylikiga qaramay Sen-Simonning jamiyatning rivojlanish konsepsiyasi idealistik edi, chunki uning asosini fan taraqqiyoti, ong va g'oyalar ravnaqi tashkil etardi.

Lekin uning idealistik tarixiy konsepsiyasida ayrim materialistik fikrlar ham yo'q emas. Jumladan, Sen-Simon shaharlar, sanoat va savdoning rivojlanishi burjuaziyaning shakllanishiga sabab bo'lganligini, iqtisodiy holat esa, mulkchilikka tobe' bo'lgan, o'ziga xos ijtimoiy-tarixiy formalarni vujudga keltirishini aytib o'tadi. «Hokimiyat va boshqaruvni belgilovchi qonun ham, - deb yozadi u, - mehnat farovonligini to'liq ta'minlay oladigan mulkchilik va undan foydalanishni belgilovchi qonundek katta ahamiyatga ega emas».

Sen-Simonning bo'lajak adolatli jamiyati industrial sistema deb nomlanib, u industrial jamiyat yirik sanoat ishlab chiqarishi bazasi asosida rivojlanadi, sanoat - alohida reja asosida, boshqaruv esa yagona industrial markaz orqali amalga oshiriladi, deb hisoblagan edi.

Sen-Simon yangi ijtimoiy tashkilotni vujudga keltirishda, ayniqsa sanoatda anarxiyaga (hokimiyatsizlikka) yo'l qo'yilmasligiga va reja asosidagi markaziy boshqaruvga katta e'tibor berishni taklif etadi. Sen-Simon qarashlariga ko'ra, erkin raqobatga asoslangan ijtimoiy tuzum bu tugab borayotgan feodalizmdan yangi ideal jamiyatga o'tish davridagina emas, balki inqilobiy harakatlardan xoli tinch va tez sur'atlarda ijtimoiy tenglikka asoslangan «industrial jamiyat»ga o'tish davri hamdir. Adolatli


«industrial jamiyat» qurilishi haqidagi o'zining mulohazalarida u ilmu-fan va ilg'or nazariyalarga yuqori baho berib, bo'lg'usi yangiliklarni tarixiy muqarrar, deb hisoblaydi. Shu bilan bir qatorda Sen-Simon o'zining «industrial jamiyat» ida boshqa xayoliy sotsialistlar kabi qarama-qarshi sinflarni yo'qolib ketishi va hokimiyat tomonidan siyosiy funksiyalarga nisbatan iqtisodiy funksiyalarga katta e'tibor berilishini taxmin qiladi. Lekin shuni alohida qayd etish zarurki, xayoliy sotsializmning boshqa barcha vakillardan farq qilib, Sen-Simon sotsializmida xususiy mulkchilik bo'lishini inkor etmaydi, balki aynan xususiy mulkchilik va undan foydalanishni tartibga soladigan qonun zarurligini ko'rsatib o'tadi.

Fransuz xayoliy sotsializmining yana bir yirik namoyandasi **Fransua Mari Sharl Furedir** (1772-1837 yy.). U o'zining «To'g'ri harakat va mushtarak taqdirlar nazariyasi», «Umumiy birlik nazariyasi», «Savdo qallobligi haqida», «Yangi sanoat dunyosi va ijtimoiy dunyo» nomli asarlari va qator maqolalarida kapitalistik jamiyatni keskin tanqid qildi va ijtimoiy adolatli jamiyat barpo etish dasturini ishlab chiqdi. Uning tasvirlashicha, inson o'zi yashayotgan jamiyatning barcha yaramas illatlaridan tozalanishi lozim, shunday ijtimoiy tuzum o'rnatish kerakki, bu tuzum insonning kamol topishiga, ehtiroslarini to'liq namoyon qilishiga, ehtiyojlarini qondirishga imkoniyat bersin. Sh.Fure kishilik jamiyatining tarixiy rivojlanishini o'rganishga o'zining katta hissasini qo'shdi.

F.Engels «Anti Dyring» asarida shunday degan edi: «O'tmishning asosiy bosqichlarida Sh.Furening genialligi keng namoyon bo'ldi. U jamiyat o'z rivojlanishida yovvoyilik, patriarxalchilik, varvarlik va sivilizatsiya (madaniyat) bosqichlarini bosib o'tganligini ko'rsatib berdi». Bunday taqsimot garchand ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasini hisobga olgan bo'lsa-da, lekin ishlab chiqarish munosabatlarining xarakterini va moddiy ishlab chiqarishda ishlab chiqarish usulining turlichaligini inkor etadi. Shuning uchun varvarlikka quldorlik va feodalizm kabi turlicha ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatlar kiritiladi. Sivilizatsiya davrini esa u kapitalizm vujudga kelishi bilan bog'laydi. Lekin shuni aytish kerakki, uning qarashlariga xos xususiyat har bir davrning asosiy faktori sifatida faqat ishlab chiqarish darajasinigina emas, balki inson ehtirosari va tabiati uyg'unligini ham alohida ajratib ko'rsatishdir. Shunday qilib, ana shu holatlar muayyanligining vujudga kelishi o'z navbatida sivilizatsiyalar o'miga har tomonlama rivojlangan assosiatsiyalar (uyushmalar) tashkil topishiga sabab bo'ldi.

Kapitalizmni tanqid qilish Sh.Fure ta'limotining eng kuchli jihatidir. Jamiyatning yangi sotsial tashkiloti barpo etilmasa, ishlab chiqarishning rivoji mehnat ahliga baxt emas, balki kulfat keltiradi, deydi u. «Burjua

sivilizatsiyalarining o'ziga xos xususiyati,- deb yozadi olim, - tartibsiz ishlab chiqarishdan iborat. Boylik ko'paymoqda, ammo ishlab chiqaruvchi inson ana shu ko'payib borayotgan boylikdan bahramand bo'layotgani yo'q»<sup>24</sup>. U aholining ayrim qismi behuda, parazit hayot kechirib, ezilgan mehnatkash xalqning ekspluatatsiya qilinishi hisobiga yashayotganini aytish bilan birga, bunday jamiyat aholining barcha qatlamlarini to'liq ta'minlash imkoniga ega emas, degan qisqacha xulosalarga keldi. Sh.Fure ayniqsa kapitalistik savdo nuqsonlarini, undagi tovlamachilik, olib-sotarlik va muttahamlikni fosh etadi. «Agar biz Sen-Simonda,- deb yozgan edi. F.Engels, tafakkurning genial kengligini, shuning natijasida uning qarashlarida eng so'nggi sotsialistlarining nomuntazam iqtisodiy fikrlarining deyarli hammasini bayon etilganini ko'rsak, Sh.Fure mavjud ijtimoiy tuzumni tanqid qilmaganligini, bu tanqidda sof fransuzcha o'tkir zehning, tahlilning g'oyat chuqurligi bilan qo'shilganligini ko'ramiz, u burjua dunyosining jamiki moddiy va ma'naviy nochorligini toqatsizlik bilan fosh qilib tashladi...». Haqiqatan, ham Sh. Fure o'z asarlarida nafaqat mavjud jamiyatni, balki klassik iqtisodiy maktab vakillari yuqori baho berayotgan erkin raqobatga asoslangan iqtisodiyotni ham va umuman klassiklarning o'zlarini ham keskin tanqid qiladi. Uning fikriga ko'ra erkin raqobatga asoslangan iqtisodiyot savdogarlar va savdo agentlari sonini keraksiz darajada oshirib yuborgan bo'lib bu esa asosiy kamchiliklarni e'tibordan chetda qoldirgan. Sh. Fure sivilizatsiya jamiyatining kamchiliklari deb quyidagilarni belgilaydi (11.2. rasm):



**11.2.Rasm. Sh. Fure: sivilizatsiya jamiyatining kamchiliklari**

Lekin Sh.Fure kapitalizmni har tomonlama tanqid qilgan bo'lsa-da, boshqa xayoliy sotsializm namoyandalari singari u ham islohotlar yo'li, tashviqotni kengaytirish bilan ekspluatatsiya, adolatsizlikka qarshi kurashib, «odil jamiyat» sari bormoqchi bo'ldi. Kelajak jamiyatning asosiy yacheykasi bir necha ishlab chiqarish assosiatitsiyalaridan iborat faiang (jamo)dir. Falanganing har bir a'zosi mehnat qilish huquqiga ega bo'lib,

<sup>24</sup> Ш.Фурье. Избранные сочинения. Т. II, М., 1954, стр.68

mehnat zavq bag'ishlashi, kishilarning ehtiyojiga aylanishi kerak. Sh.Fure o'sha paytda mashaqqat deb hisoblangan mehnat qanday qilib inson uchun huzur-halovatga aylanishi mumkin, degan masalani o'rtaga qo'yadi. U burjua huquqi sistemasini tanqid qilib, mehnat qilish huquqini birinchi o'ringa qo'yadi, mehnat qilish huquqi bo'lmasa qolgan hamma huquqlarning qadri yo'q, deb hisoblaydi. Uning mehnat musobaqasi to'g'risidagi, mehnatni insonning g'ayrat-shijoati namoyon bo'ladigan ijodiy jarayonga aylantirish haqidagi g'oyalari ijobiy ahamiyatga egadir.

Angliya xayoliy sotsializmining vujudga kelishi va rivojlanishi **Robert Ouenning** (1771-1858 yy.) hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog'liqdir. R.Ouenning «Jamiyatga yangicha qarash yoki xarakterni shakllantirish haqida tajribalar», «Yangi ahloqiy dunyo kitobi», «Adolatli almashuv bozori», «Ulug' milliy hunar ittifoqi» asarlarida uning sotsialistik loyihalari bayon etilgandir. U kapitalistik jamiyatni tanqid qilib, uning xalqqa qarshi mohiyatini ochib beradi. Barcha mulkni umunning mulkiga aylantiradigan, qashshoqlik yo'qoladigan, mehnat jafu-zulmatdan baxt-saodatga aylanadigan kommunistik jamoalar tuzish fikriga keldi. Shu maqsadga xalaqit beradigan uchta to'siq bor deydi u. Bu uchta illat: **xususiy mulk, din va burjuacha nikohdir**. Biroq olim kapitalistik taraqqiyotning obyektiv qonunini tushunmadi, sinflar kurashini inkor etdi. Yangi tuzum yangi yo'l bilan yoki tinch yo'l bilan quriladi va unga tinch yo'l bilan o'tiladi, deb ishondi. R.Ouenning loyiha va ijtimoiy dasturlari fransuz xayoliy sotsialistlaridan farq qilib, ancha aniq va amaliyligi bilan ajralib turadi. U ishchilar mehnatini engillashtiradigan yoshlar va qariyalar mehnatidan tungi ish vaqtida foydalanishni man etgan, rag'batlantirishni tashkil etgan, u Angliyaning ilk fabrika qonunchiligining asoschilaridan edi. R.Ouen iqtisodiy qarashlarining xarakterli xususiyati shundan iboratki, u burjua siyosiy iqtisodini inkor etgan fransuz xayoliy sotsialistlaridan farq qilib, o'z nazariyalarini yaratishda Rikardoning qiymatning mehnat nazariyasiga tayanadi. U Rikardodan keyin qiymatning asosiy manbai deb mehnatni hisobladi. Xususiy mulk bilan bir qatorda mehnat bilan kapital o'rtasidagi qarama-qarshiliklar sababchisi deb pulni hisobladi.

R.Ouen qiymatning sun'iy o'lchovi bo'lmish puldan voz kyechib, mehnat xarajatlarining ekvivalenti sifatida «ishchi pullarini» joriy etishni taklif etadi. U kapitalistik ishlab chiqarishni qaytadan tuzib «ishlab chiqarish uyushmalarini» tashkil etishga harakat qildi. Lekin bu urinishlar behuda bo'lib chiqdi, chunki kapitalistlar o'z korxonalarini ixtiyoriy sotish haqida o'ylamagan bo'lsalar, kasaba uyushmalari sotib olish uchun imkoniyatlari yo'q edi. R.Ouen birinchilardan bo'lib T.Maltusning «aholi nufusi» qonuniga qarshi chiqdi. U mehnatkashlarning og'ir ahvolda tushib

qolishiga aholi soni ortib borishi emas, balki mavjud mahsulotlarning adolatsiz taqsimlanishi sabab bo'lmogda, deb ko'rsatadi.

R.Ouenning g'oyalari ijobiy ahamiyatga ega bo'lib, Angliya ishchilar harakati taraqqiyotida katta rol o'ynadi. U o'zining ko'pgina asarlarida jamiyatni to'g'ri tashkil qilish konsepsiyalarini ilgari suradi. Ularning barchasida har bir fuqaro uchun mehnatning majburiyligi, jamiyatning eng muhim tamoyillaridan, deb hisoblanadi. Shuningdek R. Ouenning ishlab chiqarish uyushmalarida ishchi pullarini o'rni, moddiy boyliklarni odilona taqsimlash masalalarini va umuman xususiy mulkchilikka berilgan baho o'sha davr uchun katta ahamiyatga molik edi.

### **11.3. Marksizm vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari**

Marksizm Marksning qarashlari va ta'limotlari tizimidir. Marks insoniyatning uchta eng ilg'or mamlakati qatoriga kirgan XIX asrning uchta asosiy g'oyaviy oqimining davomchisi va zukko kulminatori bo'ldi: klassik nemis falsafasi, klassik ingliz siyosiy iqtisodi va fransuz sotsializmi. Marks o'z qarashlarining uzviy va izchil tizimi orqali dunyoning barcha sivilizatsiyalashgan mamlakatlarida ishchilar harakati nazariyasi va dasturi sifatida zamonaviy dialektik materializm va ilmiy sotsializm asoslarini yaratdi.

Marksizmning paydo bo'lishining tarixiy shart-sharoitlari:

- 1. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoit:** XIX asrning birinchi choragida kapitalizmning rivojlanishi va qarama-qarshiliklarning keskinlashishi yangi mafkura va ijtimoiy nazariyani yaratishni taqozo etdi.
- 2. Tabiiy-ilmiy sharoit:** Energiyaning saqlanish va aylanish qonunining, hayvonlar va o'simliklarning hujayra tuzilishining ixtiro qilinishi. Darvinning evolyutsiya nazariyasining yaratilishi. Ushbu uchta ilmiy kashfiyot tabiatni dialektik tushunishning tabiiy ilmiy asosiga aylandi (tabiatdagi hamma narsa o'zaro bog'liq va hamma narsa rivojlanadi).
- 3. Nazariy asoslar:** Marksistik falsafa Gegel va Feyerbax falsafasining eng muhim qoidalarini rivojlantiradi. Bu falsafaning asoschilari K. Marks (1818-1883) va F. Engels (1820-1895) hisoblanadi.


**Karl Marks.** Karl Marks klassik siyosiy iqtisodni yakunlovchilardan biri sifatida iqtisodiy ta'limotlar tarixida yorqin iz qoldirdi. Uning g'oyalari ko'pincha bevosita iqtisodiy muammolar doirasidan chiqqan holda, falsafiy, sotsiologik va siyosiy muammolar bilan qo'shilib ketadi.

K.Marksning nazariy konsepsiyasida ishlab chiqarish shakli o'zining maxsus xususiyatiga, o'zining ichki mantig'iga ega. Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan yangi munosabatlar kelib chiqadi. Ishlab chiqarish munosabatlari yig'indisi jamiyatning moddiy bazisini tashkil etadi, unga



jamiyat ustqurmasi: huquq, ideologiya, siyosat, din va boshqalar bog'liq bo'ladi. Huquq, siyosat, din bazis tomonidan boshqarilib turiladi. Ishlab chiqarish omillari yig'indisi jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini tashkil etadi. Industrial tizim ishlab chiqaruvchi kuchlarining muhim elementi deb, K.Marks ishlab chiqarish vositalarini, eng avvalo, mehnat qurollarini, mashina va asbob-uskunalarni hisoblagan. Jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishi (ya'ni hozirgi zamon tushunchasida iqtisodiy o'sish) ishlab chiqarish munosabatlarining (yoki sotsial-iqtisodiy tuzumning) takomillashuvini taqozo etadi. U o'z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiga faol aks ta'sir ko'rsatadi, iqtisodiy o'sishiga imkon berishi yoki to'sqinlik qilishi mumkin. Ijtimoiy organizmning ikki tomoni o'rtasidagi o'zaro aloqa juda murakkab, ko'p qirrali va ziddiyatlidir. Iqtisodiyot yagona aniqlovchi omil hisoblanmaydi.

**Ijtimoiy formatsiyalar nazarivasi.** K.Marksning asosiy ilmiy yutuqlaridan biri shundan iboratki, u ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar, ularni tashkil etuvchi elementlar, formatsiyalarning almashuv sabablari to'g'risida ta'limot yaratdi. U uch yirik (ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyani) ijtimoiy taraqqiyot bosqichini ko'rsatib berdi (11.3.Rasm).



11.3.Rasm. K.Marks: ijtimoiy taraqqiyot bosqichlari.

K.Marks ta'limotiga ko'ra, bir formatsiyadan ikkinchisiga o'tish sotsial inqilob orqali amalga oshadi, ya'ni «kapitalizm qobig'i portlaydi», eski ishlab chiqarish munosabatlari emirilib, sotsial tizimning yangi iqtisodiy bazisi shakllanadi.

Agar industrial jamiyatning dastlabki bosqichlarida kapitalistik

munosabatlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirsa, keyinchalik bu munosabatlar iqtisodiy o'sishning «kishaniga» aylanadi, zamon talabiga javob bera olmaydi. Uning nazariyasiga ko'ra kapitalizm halokatga yuz tutadi. Chunki u o'zining ichki ziddiyatlarini yyechishga qodir emas.

**Qiyamat nazariyasi.** K.Marks ta'limotiga binoan, har bir tovarning qiymati uni ishlab chiqarishga sarflangan ijtimoiy zaruriy mehnat bilan o'lchanadi. Bir turdagi tovarni ishlab chiqarish uchun turli miqdorda mehnat sarflanadi. Buning natijasida tovarlar har xil individual qiymatga ega bo'ladi. Lekin qiymat o'zida ijtimoiy mehnatni mujassamlashtirganligi sababli, uning miqdori individual mehnat sarflari bilan emas, balki ijtimoiy zarur mehnat bilan o'lchanadi, ijtimoiy zarur ish vaqti bilan belgilanadi. «Iste'mol qiymatiga ega bo'lgan qiymatning miqdorini, - deb yozadi K.Marks, uni ishlab chiqarish uchun kerak bo'lgan ijtimoiy zarur mehnat miqdori bilangina, ya'ni ijtimoiy zarur ish vaqti bilangina belgilanadi. Har bir ayrim tovar o'z jinsidan bo'lgan tovarlarning faqat o'rtacha nusxasi sifatida ahamiyatga egadir». Ijtimoiy zarur ish vaqti normal ishlab chiqarish sharoitida va muayyan jamiyatdagi mehnat malakasi va intensivligining darajasi o'rtacha bo'lgan sharoitda biron-bir tovar tayyorlash uchun sarflanadigan vaqtdir. Ushbu tushunchalar yordamida qiymat qonuni shakllanadi: almashuv jarayonida (ekvivalent ekvivalentga singari) tovarlar o'zining qiymati bo'yicha ayirboshlanadi (Ularda mujassamlashgan ijtimoiy zarur ish vaqti bo'yicha). K.Marksning tasdiqlashicha, har qanday jamiyatda qiymat qonuniga amal qilmagan ayirboshlashning bo'lishi mumkin emas. Qiymat esa, yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, ayni jamiyatda o'rtacha mehnat sarflari bilan o'lchanadi. Bu ayirboshlanadigan tovarlarni taqqoslashning yagona o'lchovi mehnat ekanligini bildiradi. Tovarlarining foydaliligi bunday umumiy o'lchov bo'la olmaydi, negaki ular miqdor jihatidan taqqoslanmaydi.

K.Marksning qiymat nazariyasining D.Rikardoning qiymat nazariyasidan farqiga e'tibor berish zarur. D.Rikardo tovarlarning nisbiy qiymati to'g'risida so'z yuritadi: A va B tovarlar bir-biriga ayirboshlanadi, chunki ularni ishlab chiqarish taxminan bir xil mehnat sarflarini taqozo etadi. K.Marksda esa qiymat tovarga xos obyektiv xususiyatdir.

**Qo'shimcha qiymat nazariyasi.** Qiymatni aniqlab va qiymat qonunini ta'riflab bergach, K.Marks qo'shimcha qiymatni tahlil qilishga o'tadi. Bu uning nazariyasida markaziy tushuncha hisoblanadi. Bu yerda asosiy savol tug'iladi: agar «ekvivalentli ayirboshlash» prinsipi bo'yicha barcha mahsulotlar o'z qiymatiga olinsa va sotilsa, unda qo'shimcha qiymat qanday hosil bo'ladi? K.Marks ta'limoti bo'yicha u quyidagicha ishlab chiqariladi.

Tovar ishlab chiqarish taraqqiyotining ma'lum bosqichida pul kapitaliga aylanadi. Tovar muomalasining formulasi T-P-T' (tovar-pul-tovar), ya'ni boshqa bir tovarni sotib olish uchun tovar sotishdir. Kapitalning umumiy formulasi P-T-P', ya'ni sotish uchun tovarni sotib olishdir. T-P-T' mazmuni: odamlar o'rtasida har xil foydalilik ayirbosh qilinadi. P-T-P' doiraviy aylanishda maqsad foyda olish hisoblanadi. Demak, P' > P bo'lishi kerak. Bu o'sish qayerdan keladi? (K.Marks uni «qo'shimcha qiymat» deb ataydi).

Qo'shimcha qiymat tovarlar muomalasida paydo bo'lmaydi, chunki tovar ekvivalentli ayirboshlanadi, qo'shimcha qiymat bahoning ustiga qo'shib sotishdan ham kelib chiqmaydi, chunki bunday bo'lganda xaridor va sotuvchilarning o'zaro yutuq va yutqizishlari bir-birini qoplagan bo'lar edi, holbuki gap ayrim hodisa ustida emas, balki ommaviy, o'rtacha, ijtimoiy hodisa ustida boradi. Qo'shimcha qiymat olish uchun «pul egasi bozordan shunday bir tovar topish baxtiga erishmogi kerakki, bu tovar iste'mol qiymatining o'zi qiymat manbai bo'lishdek original bir xususiyatga ega bo'lsin», u shunday tovar bo'lishi kerakki, bu tovarni iste'mol qilish jarayoni ayni paytda qiymat yaratish jarayoni ham bo'lsin. Bunday tovar – ishchi kuchidir. Ishchi kuchining iste'mol qilinishi mehnatdir, mehnat esa qiymat yaratadi.

Pul egasi ishchi kuchini uning o'z qiymati bo'yicha sotib oladi. Ishchi kuchi tovarining qiymati ishchining va uning oilasining yashashi uchun zarur bo'lgan tirikchilik vositalari qiymati bilan belgilanadi. Ishchi o'z ishchi kuchi qiymatidan ortiqcha qiymat yaratish xususiyatiga ega. Faraz qilaylik, ishchi kun bo'yi 10 soat ishlaydi. Holbuki, ishchi 5 soat mobaynida (K.Marks atamasi bo'yicha «zarur ish vaqtida») o'z qiymatiga teng qiymat yaratadi, keyingi 5 soat mobaynida («qo'shimcha ish vaqtida») esa qo'shimcha mahsulot yoki qo'shimcha qiymat yaratadi. Kapitalist bu qo'shimcha qiymatni haq to'lamasdan o'zlashtirib oladi. K.Marks bo'yicha, kapitalist tomonidan qo'shimcha qiymatning o'zlashtirib olinishi mehnatning eksplutasiya qilinishidir. K.Marks o'zi ishlab chiqqan «formula» yordamida ushbu ekspluatatsiya darajasini, ya'ni eksplutasiya normasini ko'rsatib berdi.

Qo'shimcha qiymatning ishchi kuchi qiymatiga - o'zgaruvchi kapitalga bo'lgan nisbatini (mashinalar va xomashyoda ifodalangan doimiy kapital esa o'z qiymatini faqat yangi mahsulotga o'tkazishi mumkin, lekin qo'shimcha qiymat yaratmaydi) u qo'shimcha qiymat normasi deb atadi. Uning yozishicha, «qo'shimcha qiymat normasi ishchi kuchining kapital tomonidan, yoki ishchining kapitalist tomonidan ekspluatatsiya qilinish darajasining aniq ifodasidir». Qo'shimcha qiymat normasi yangidan

yaratilgan qiymatning kapitalist bilan yollanma mehnat o'rtasida qanday taqsimlanishini, shuningdek ish kunining qancha qismida ishchi o'zi uchun va qancha qismida kapitalist uchun ishlashini ko'rsatib beradi.

**Ijtimoiy takror ishlab chiqarish sxemasi.** «Iqtisodiy jadvalga» yuqori baho bergan K.Marks, o'zining takror ishlab chiqarish sxemasini ishlab chiqdi. A.Smit, J.B.Sey ijtimoiy mahsulotni daromadlarga bo'lib (moddiy sarflarni mavhumlashtirgan holda) ko'rsatgan bo'lsa K.Markada esa ijtimoiy mahsulot uch qismga: doimiy kapitalga (s) – moddiy sarflarga (amortizasiya, xomashyo, yoqilg'i va boshqalar qiymati), o'zgaruvchi kapitalga (v) – ishchi kuchini sotib olishga bo'lgan sarflar va qo'shimcha qiymatga (m) - bo'linadi deydi.

Takror ishlab chiqarish muammosini yechib berishda K.Marks iqtisodiyotni ikki bo'linmaga bo'ladi. I bo'linma ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish, II bo'linma iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish. Keyin u oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish o'rtasidagi farqni ko'rsatib beradi. «Oddiy takror ishlab chiqarish» o'zgarmas bo'lib, unda sof investisiya nolga teng. Oddiy takror ishlab chiqarish bir xil hajmda, o'zgarmas bo'lib qolishi uchun qanday shartlar bo'lishi kerak? K.Marks buning uchun quyidagi shartlarni ko'rsatib beradi. Oddiy takror ishlab chiqarishda I bo'linmaning barcha mahsuloti har ikkala bo'linmadagi kapitalni qoplash uchun sarflanishi kerak:  $I(c+v+m) = Ic + IIc$ . Shu bilan birga II bo'linma mahsuloti ish haqi fondi plyus mulkdan keladigan daromadga – sof milliy mahsulotga teng (ekvivalent) bo'lishi kerak:  $II(c+v+m) = I(v+m) + II(v+m)$ . Bu ikkala tenglamadan natijada  $I(v+m) = Ic$  kelib chiqadi, ya'ni I bo'linmaning sof mahsuloti II bo'linmada yil davomida iste'mol qilinggan kapitalni qoplash uchun zarur bo'lgan talab miqdoriga teng bo'lishi kerak. Agar  $I(c+v) > Ic$  bo'lsa, unda doimiy kapitalni qoplash uchun investisiya sarflari miqdori amortizasiya ajratmalaridan oshib ketadi, ya'ni sof investisiya ijobiy bo'ladi. Lekin amortizasiya jamg'armalari iste'mol qilingan kapitalni qoplashga ishlatilmasa ishlab chiqarishning pasayishi kelib chiqadi. Keltirilgan dalillar ancha puxta makroiqtisodiy o'zaro bog'liqlik borligini tasdiqlaydi.

Keyin K.Marks kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni tahlil qiladi. Uning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sxemasini fan-tarixidagi iqtisodiy o'sishning birinchi matematik modeli hisoblash mumkin. Lekin uning kamchiliklari yo'q emas. Xususan, u «kengaytirilgan takror ishlab chiqarish»ning bir tekisda rivojlanib borishining shartlarini aniq ko'rsatib bermagan. Bundan tashqari, u sur'at o'zgaragan iqtisodiy o'sishni tahlil qiladi, bunday vaziyatda esa, o'sish Q (mahsulot miqdori)da hech qanday o'zgarish bo'lishini taqozo etmaydi. K.Marks ko'rsatib bergan iqtisodiy

o'sishning zarur bo'lgan shartlari: I bo'linmaning milliy daromadi ushbu bo'linmadagi ishchi va tadbirkorlarning ehtiyojlarini qondirish uchun II bo'linmadan sotib olinadigan iste'mol buyumlaridan ko'p bo'lishi kerak – milliy daromadning bir qismi ishlab chiqarishni kengaytirishga ketadi, ya'ni  $I(v+m) > IIc$ . Shunday qilib, I bo'linmaning mahsuloti yil boshidagi har ikkala bo'linmaning ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan talabdan ko'p bo'lishi kerak, ya'ni  $I(c+v+m) > Ic + IIc$ . Shunga muvofiq, jamiyatning barcha milliy daromadi iste'molga sarflanmaydi, ya'ni  $I(v+m) + II(v+m) > II(c+v+m)$ .

Takror ishlab chiqarishning bunday talqini ayrim masalalarga oydinlik kiritishda qo'llanishi mumkin. Lekin umuman olganda u shu qadar cheklanishlarga asoslanganki, bu undagi barcha dalillarni kuchsizlantiradi. yopiq iqtisodiyot; barcha mahsulotlar «normal bahoda» sotiladi; har ikkala bo'linmada kapital aylanish tezligi bir xil; faqat kapitalistlar jamg'aradi; texnika taraqqiyoti yo'q; real ish haqi doimiy; bir ishchiga bo'lgan real mahsulot doimiy va boshqalar. Bundan tashqari ikki bo'linmadan iborat bo'lgan model o'zgaruvchan real iqtisodiyotni tahlil qilishda ishonchli vosita hisoblanmaydi. Kapital hamda iste'mol buyumlarini yaratuvchi ko'pchilik tarmoqlar u yoki bu model kategoriyasiga to'la kirmaydi. Masalan, tosh ko'mir qazib olish, transport, ximiya. Buning ustiga, bunday tarmoklar ichida kapital va iste'mol buyumlari kategoriyalarga bo'linishi vaqti-vaqti bilan talab strukturasi o'zgarishga qarab almashib turiladi. Natijada kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning markscha shartlari deyarli o'z kuchini yo'qotadi. Shunday bo'lsada tenglama K.Marks tizimida alohida rol o'ynaydi. U iqtisodiy o'sish bir tekisda borishi mumkin emasligi, ishlab chiqarishning siklli bo'lishi to'g'risida fikr yuritishga imkon beradi.

**Iqtisodiy sikllar.** K.Marks tugallangan, yaxlit iqtisodiy sikllar nazariyasini yaratgan emas. Uningcha, inqirozlar – bu «kapitalizmning asosiy ziddiyatlarining» namoyon bo'lishidir. Xo'jalikdagi anarxiya ishlab chiqarish strukturasi bilan iste'mol strukturasi doimo mos kelmasligini keltirib chiqaradi. Rivojlanishning siklli xarakterda bo'lishi, ortiqcha ishlab chiqarish inqirozining muqarrarligi kapitalistik iqtisodiyotga xos xislatdir. Markscha iqtisodiy sikllar nazariyasi uning kapital jamg'arilishi tahlili asosida ko'rilgan. Siklli jarayon, K.Marks bo'yicha, yuksalishdan boshlanadi. Yuksalish davrida mehnatga bo'lgan talab (jamg'arish sababli) uning taklifidan oshib ketadi; ishsizlik tugatiladi va ishchi kuchining nisbatan etishmasligi ish haqining oshishiga olib keladi; natijada foyda kamayadi va jamg'arish sekinlashadi. Kapital jamg'arilishi normasining pasayishi yalpi talabning kamayishiga va shunga muvofiq bozor

kon'yukturasining pasayishiga olib keladi. Bunday inqirozli vaziyatda kapital qimmatini qadrsizlanadi, ishsizlik esa qaytadan ko'payadi va u ish haqining pasayishini keltirib chiqaradi. Bu hol ishlab chiqarishning foydaliligini qayta tiklaydi, jamg'arishni qaytadan boshlash uchun sharoit yaratib beradi; inqiroz bir vaqtning o'zida ham buzadi, ham tuzatadi. I

nqirozlar «hamma vaqt mavjud ziddiyatlarning faqat vaqtincha zo'rma-zo'raki hal qilinishidan, zo'rma-zo'raki portlashlardan iborat bo'lib, ular buzilgan muvozanatni bir lahzada tiklaydi». Inqiroz siklni tugallaydi va yangi navbatdagi sikl boshlanadi. Bu sikl davri mobaynida innovasiya va yangi ish joylarini tashkil etish bilan birga iqtisodiyot tarkibini qayta qurish, jamg'arish jarayonida foyda normasining pasayish tendensiyasi va kapital qimmatining qadrsizlanishi, ishsizlar armiyasining ko'payishi va ish haqining pasayishi qaytadan kelib chiqquncha va inqirozli vaziyat yuzaga kelguncha davom etadi.

K.Marksning ko'rsatib berishicha, iqtisodiy sikllarning moddiy asosi kapitalning vaqti-vaqti bilan yangilanib turishi zarurligi hisoblanadi (har 5-10 yilda). Bunda texnika taraqqiyoti asosiy kapitalning ma'naviy eskirishi natijasida yangilanib turish muddatini qisqartirishi mumkin. Texnik kashfiyotlar va innovasiyalar davriyligining xo'jalik jarayoniga bo'lgan ta'siri tahlili sikllar nazariyasining keyingi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

**Ish haqi.** K.Marks ish haqini. klassik siyosiy iqtisod asoschilariga o'xshab, mehnat uchun to'lanadigan haq deb emas, balki ishchi kuchi uchun to'lanadigan haq deb talqin qiladi. Uning nazariyasiga muvofiq, ish haqi ishchining va uning oilasining hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan tovarlar miqdoriga teng bo'ladi. Ish haqi darajasi mehnat unumdorligiga bog'liq bo'lib, u o'z navbatida ishlab chiqarishning mexanizatsiyalashuvi va texnologik jihatdan ta'minlanishi sababli ro'y beradi. Bu hol pirovard natijada ish haqining o'sishiga to'sqinlik qiladi, negaki texnik-iqtisodiy taraqqiyot ishchi kuchining doimiy ortiqchaligini keltirib chiqaradi. Ishchi kuchining ortiqchaligi esa, ishchilar bilan kapitalistlar o'rtasidagi munosabatda keyingisiga ustunlik beradi va ishchi kuchi o'z qiymatidan past bahoda sotiladi. Ish haqi ishchi kuchi qiymatining o'zgargan shaklidir.

Demak, K.Marks bo'yicha, ishchi mehnatini emas, ishchi kuchini sotar ekan, «haq to'lanmagan mehnat»ning (aniqlash va o'lchash mumkin bo'lgan) ish haqiga aloqasi bo'lmaydi, «haq to'lanmagan ishchi kuchi»ni esa aniqlash mumkin emas, negaki foydalilikka bir butun ishchi kuchini ayirboshlash uchun «bitim» tuziladi. Kapitalist ish haqini «bitim» tuzilgandan keyin emas, balki mehnat jarayoni tugagandan keyin to'laydi. Ishchi o'z ishchi kuchining qiymatini ish haqi shaklida olishdan avval

kapitalistga ma'lum miqdorda mehnat, shu jumladan qo'shimcha mehnat ham qilishi kerak. Mehnat sarfi esa, uning nazariyasiga ko'ra, ish vaqti bilan o'lchanadi. Binobarin, ishchi kuchining ma'lum muddat davomida unumli mehnat qilishi uning qiymatiga haq to'lash sharti bo'lib qoladi.

K.Marks fikri bo'yicha, real ish haqi «hech qachon mehnat unumdorligi kuchining oshishi bilan mutanosib tarzda o'smaydi» va hatto ishchilar ishongan kasaba uyushmalari ham, erkin raqobatga asoslangan iqtisodiyotdagi bunday vaziyatni keskin o'zgartira olmaydilar. Buning ustiga, «Kapital» muallifining tushintirib berishicha, mehnat unumdorligining oshishi tufayli pulda ifodalangan tovar va xizmatlar qimmatining pasayishi ishchilar sotib oladigan tovarlar bahosining xuddi shunday pasayishini keltirib chiqaradi va real ish haqi natijada unchalik oshmaydi, bundan ishchilarning kambag'allik va ma'naviy qashshoqligi kelib chiqadi.

**Foyda va foyda normasi.** K.Marksning foyda nazariyasining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, daromadning bu turi, tadbirkorlarning har qanday daromadi singari, ishchi kuchini eksplutatsiya qilish natijasida vujudga keladigan qo'shimcha qiymatning tashqi, ya'ni o'zgartirgan shakli hisoblanadi. Bu yerda, D.Rikardodan farqli o'laroq, gap nafaqat foyda normasi to'g'risida, balki uning qo'shimcha qiymat normasidan farqli, o'ziga xosligi to'g'risida boradi. «Avanslangan butun kapitalning mahsuli bo'lib ko'ringan qo'shimcha qiymat foydaning o'zgartirgan shakliga kiradi».

K.Marks ta'limotiga binoan foyda normasi pasayish tendensiyasiga ega. Bunday tendensiya uningcha, Rikardo-Mill ko'rsatib berganidek, demografik omillar va tuproq unumdorligining pasayishi «qonuni» keltirib chiqaradigan hayotiy zaruriy mahsulotlar bahosining oshishi sababli emas, balki kapitalning uzviy tuzilishidagi umumiy kapitalda o'zgaruvchi kapital hissasining pasayishi tufayli kelib chiqadi.

«Foyda normasi, – deb yozadi K.Marks,- kapitalistik ishlab chiqarishni harakatlantiruvchi kuchdir; foyda olib ishlab chiqarish mumkin bo'lgan narsagina ishlab chiqariladi».

Foyda normasi hamisha qo'shimcha qiymat normasidan kam bo'ladi. Buning sababi shundaki, uni hisoblaganda qo'shimcha qiymat butun kapitalga nisbatan olinadi, qo'shimcha qiymat normasini hisoblaganda esa, qo'shimcha qiymatning faqat o'zgaruvchi kapitalga bo'lgan nisbati olinadi. Chunki qo'shimcha qiymat, K.Marks ta'limotiga ko'ra, faqat o'zgaruvchi kapitalning funksiyasi hisoblanadi.

**Renta nazariyasi.** K.Marks renta to'g'risida nazariya yaratdi. Uningcha, renta yerga bo'lgan mulkchilikni realizatsiya qilish shaklidir. Yer maydoni cheklanganligi, uning yer egalari qo'lida bo'lganligi sababli

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bahosi o'rtacha yerdagi ishlab chiqarish xarajatlariga qarab emas, balki eng yomon yerdagi ishlab chiqarish xarajatlariga qarab, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'rtacha sharoitiga qarab emas, balki eng yomon sharoitga qarab belgilanadi. Bu baho bilan yaxshi yerdagi (yoki eng yaxshi sharoitdagi) ishlab chiqarish bahosi o'rtasidagi farq differensial rentani bildiradi. K.Marks differensial rentani tahlil qilib, bu renta ayrim yer uchastkalarining hosildorligi bir-biridan farq qilganda, yerga sarf qilingan kapital miqdori bir-biridan farq qilganda hosil bo'lishini ko'rsatib berdi. Differensial renta ikki shaklda – differensial renta I va differensial renta II shaklida mavjud bo'ladi. Ijtimoiy ishlab chiqarish bahosini belgilovchi eng yomon yerdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish bahosi bilan eng yaxshi va o'rtacha yerdagi mahsulotlarning individual ishlab chiqarish bahosi o'rtasidagi tafovut differensial yer renta I ning negizi hisoblanadi. Yerga qo'shimcha ishlov berish evaziga olinadigan renta differensial renta II ni tashkil etadi.

K.Marks differensial renta bilan birga absolyut rentaning ham amal qilishini ko'rsatib beradi. U, absolyut rentaning paydo bo'lishini qishloq xo'jaligida kapital uzviy tuzilishining ancha past bo'lishi bilan va yerga bo'lgan xususiy mulkchilik bilan bog'lab tushuntiradi. Birinchi omil tufayli, uning fikricha, qishloq xo'jaligi mahsuloti qiymati uning «ishlab chiqarish bahosidan» hamisha ustun bo'ladi, ikkinchi omil ta'sir kuchiga ko'ra esa, foyda normasini o'rtacha darajaga keltiruvchi «kapital oqimi» mexanizmi qishloq xo'jaligida amal qilishi mumkin emas. Binobarin, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'z ishlab chiqarish baholaridan (qo'shimcha qiymatning o'rtacha foydadan) ortiqchasi kapitalistlar o'rtasida taqsimlanmaydi (sanoatdagi kabi) balki dehqonchilikda qoladi va yer egalari tomonidan absolyut renta shaklida o'zlashtiriladi.

#### **F.Engelsning sotsialistik jamiyat to'g'risidagi ta'limoti**

F.Engelsning "Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi" asari, unda insoniyat jamiyati rivojlanishining dastlabki bosqichlaridagi tarixining dialektik-materialistik tahlili, jamiyatning parchalanish jarayoni berilgan. Qabilaviy tuzum va xususiy mulkka asoslangan sinfiy munosabatlarning vujudga kelishi ochib beriladi, oila shakllarining evolyutsiyasi o'rganiladi, davlatning kelib chiqishi tushuntiriladi va sinfiy hukmronlik quroli sifatidagi mohiyati ochib beriladi. F.Engels "Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi" asarida davlatning asosiy belgilari sifatida aholining hududiy bo'linishi, ommaviy siyosiy hokimiyatning mavjudligi va soliqlarning o'rnatilishini ko'rsatgan.

Engelsning fikricha, davlat abadiy mavjud emas. Davlat va davlat hokimiyatisiz ishlagan jamiyatlar bor edi. Jamiyatning sinflarga bo'linishi



bilan majburiy ravishda bog'liq bo'lgan iqtisodiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida bu bo'linish tufayli davlat zaruriyatga aylandi. Jamiyatda qarama-qarshi iqtisodiy manfaatlarga ega sinflar paydo bo'lganda, ular o'rtasida qarama-qarshilik boshlanadi. Bu qarama-qarshilik jamiyatning yemirilishiga olib kelmasligi uchun jamiyatdan yuqori turuvchi, to'qnashuvni yumshatib, "tartib" chegarasida saqlaydigan kuch kerak. Jamiyatdan kelib chiqqan, lekin o'zini undan yuqori qo'yib, undan tobora uzoqlashib borayotgan bu kuch davlatdir.

Davlatning ikkinchi o'ziga xos xususiyati - bu aholi bilan bevosita mos kelmaydigan va barcha fuqarolarni bo'ysundirish uchun mo'ljallangan davlat hokimiyatining o'rnatilishi. Bu davlat hokimiyati har bir shtatda mavjud bo'lib, nafaqat qurollangan odamlardan, balki qabila jamiyatiga ma'lum bo'lmagan har xil turdagi majburlash institutlaridan ham iborat.

Davlat ichidagi sinfiy qarama-qarshiliklar kuchayib, bir-biri bilan aloqada bo'lgan davlatlar kattalashib, aholi soni ortib borishi bilan jamoa hokimiyati mustahkamlanadi. Ushbu davlat hokimiyatini saqlash uchun fuqarolardan badallar - soliqlar zarur. Sivilizatsiya rivoji bilan soliqlar ham yetarli bo'lmay qoladi: davlat kreditlar, davlat qarzlarini beradi.

Davlatning oliy shakli - demokratik respublika rasmiy ravishda boylikdagi farqlardan bexabar. Unga ko'ra, boylik o'z hokimiyatini bilvosita, bir tomondan, mansabdor shaxslarga to'g'ridan-to'g'ri pora berish shaklida, ikkinchi tomondan, hukumat va yirik ustav kapitali o'rtasidagi ittifoq shaklida amalga oshiradi.

Bu nazariya tarafdorlarining fikricha, XIX asming o'rtalari — oxirlarida jamiyat ishlab chiqarish rivojlanishining bir bosqichiga yaqinlasha boshladi, bunda qarama-qarshi sinflarning mavjudligi zaruriyat bo'lib qolib, jamiyat rivojlanishiga to'siq bo'ladi.

### **Qisqa xulosalar**

Xayoliy - sotsialistlar klassik iqtisodiy maktab vakillaridan farq qilib, xususiy mulkchilikni va kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarini tanqid qiladilar, jamiyatning barcha a'zolariga baxt keltiradigan yangi jamiyat yuzaga keladi, deb ishchilarni ishtiradilar. Xayoliy sotsialistlar ijtimoiy adolatli jamiyatga o'tish yo'llarini aniq ko'rsata olmadilar, lekin ular sinfiy manfaatlar qarama-qarshiligini ta'kidlab o'tdilar.

Xayoliy - sotsializm nomoyondalari o'zlarining benuqson ijtimoiy tuzumlarini turlicha: Sen-Simon industrializm, Fure garmoniya, Ouen esa kommunizm deb atadilar.

Sen-Simon ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarni «Ilk davr», «Qulchilik», «O'rta asrlar», «Hozirgi davr» va «Oltin asr» ga ajratadi.

Sh.Fure jamiyat o'z rivojlanishida yovvoyilik, patriarxalchilik,

varvarlik va sivilizatsiya (madaniyat) bosqichlarini bosib o'tganligini ko'rsatib berdi.

R.Ouen barcha mulkni umumning mulkiga aylantiradigan, qashshoqlik yo'qoladigan, mehnat jafu-zulmatdan baxt-saodatga aylanadigan kommunistik jamoalar tuzishni taklif qilgan. R.Ouen qiymatning sun'iy o'lchovi bo'lmish puldan voz kyechib, mehnat xarajatlarining ekvivalenti sifatida «ishchi pullarini» joriy etishni taklif etadi. U kapitalistik ishlab chiqarishni qaytadan tuzib «ishlab chiqarish uyushmalarini» tashkil etishga harakat qildi.

K.Marksning asosiy ilmiy yutuqlaridan biri shundan iboratki, u ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar, ularni tashkil etuvchi elementlar, formatsiyalarning almashuv sabablari to'g'risida ta'limot yaratdi.

K.Marksning tasdiqlashicha, jamiyatda o'rtacha mehnat sarflari bilan o'lchanadi. Qiymatni aniqlab va qiymat qonunini ta'riflab bergach, K.Marks qo'shimcha qiymatni tahlil qilishga o'tadi. Bu uning nazariyasida markaziy tushuncha hisoblanadi.

Engels ham Marks singari tarixni materialistik tushunishning asoschilaridan biridir. Engels Marks bilan birgalikda burjua siyosiy iqtisodini dialektik-materialistik qayta ishlashni amalga oshirdi. Marks bilan birgalikda dialektik materializmni, tarixni materialistik tushunishni, ilmiy kommunizmni yaratgan Engels o'zining bir qator asarlarida marksizmni qat'iy tizimlashtirilgan shaklda yaxlit dunyoqarash sifatida taqdim etdi va uning tarkibiy qismlari va nazariy manbalarini ko'rsatdi.

#### **Asosiy tushuncha va iboralar**

Xayoliy sotsializm, nobozor iqtisodiy g'oyalari; qo'shimcha qiymat nazariyasi; asosiy kapital, aylanma kapital; kapitalning organik tuzilishi; aholining absolyut va nisbiy qashshoqlashuvi; monopolistik kapitalizm; «sotsialistik» g'oyaning tarixiy taqdiri, renta nazariyasi, foyda normasi.

#### **Nazorat uchun savollar**

1. Xayoliy sotsializm vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar.
2. Sen-Simonning ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalari haqida nimalarni bilasiz?
3. Sh.Furening iqtisodiy qarashlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Sh. Furening sivilizatsiya jamiyatining kamchiliklari deb nimalarni belgilaydi?
5. R.Ouenning iqtisodiy qarashlari nimalardan iborat?
6. Sotsialist-rikardochilarning (T.Godskin, J.Grey, J.Brey) iqtisodiy qarashlari nimalardan iborat?


## XII. BOB. MARJINALIZM TA'LIMOTI VA NEOKLASSIK IQTISODIY MAKTABLAR

### 12.1. Iqtisodiy ta'limotlarda neoklassik yo'nalishning shakllanishi

Iqtisodiy ta'limotlarda neoklassik yo'nalish XIX asrning 1970-yillarda vujudga keldi. Neoklassik yo'nalish daromadni maksimal darajada oshirishga va xarajatlarni minimallashtirishga intiladigan iqtisodiy shaxsning (iste'molchi, tadbirkor, xodim) xatti-harakatlarini o'rganadi.

XIX asrning 60-70-yillari iqtisodiy ilm-fan rivojlanishidagi burilish davri hisoblanadi, chunki bu davrda sanoat inqilobi yakunlandi va bu AQSh va G'arbiy Yevropa davlatlarining iqtisodiy o'sishiga olib keldi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar erkin raqobat davriga (yoki sanoat kapitalizmi) kirishdi. Bu davrda hukmronlik qilgan klassik va tarixiy maktablar oqilona boshqaruv muammolari bo'yicha aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqa olmadilar. Shuning uchun mukammal raqobat bozorining ishlash mexanizmini: talab va taklifning shakllanishi, ularning narxlarga ta'siri, pulning rolini o'rganish zarur bo'ldi. Buning uchun iqtisodiy hodisalarni nazariy tahlil qilishning yangi shakllari va usullari zarur edi.

Klassik siyosiy iqtisod o'rniga marjinal iqtisodiy nazariya (fransuzchada "marjinal" qo'shimcha, ortiqcha degan ma'noni anglatadi) keldi, iqtisodiy fikr rivojlanishining bu bosqichi ba'zan "marjinal inqilob" deb ataladi, chunki iqtisodiy fan predmetini o'rganishga yondashuvlar (umumiy tasavvur, tahlil qilish vositalari) o'zgardi.



#### 12.1.Rasm. Iqtisodiy fan predmetini o'rganishga yondashuvlar

1. **Uslubiy individualizm.** Agar mumtoz nazariyaning diqqat markazida kapital to'plash darajasi va aholi sonining o'sish sur'ati va daromadlarni ijtimoiy sinflar o'rtasida taqsimlanishiga bog'liq bo'lgan jamiyat boyligini o'sishini o'rganish vazifasi turgan bo'lsa, marjinalistlar uchun asosiy narsa endi obyektiv yoki tabiiy qonunlarni o'rganish emas, balki iqtisodiy

subyektlarning ongini tahlil qilish edi. Ular barcha ijtimoiy hodisalarni individual shaxslarning hatti-harakatlari bilan izohladilar. Masalan, klassiklarda narxlar ish haqi xarajatlariga asoslangan bo'lsa, marjinalistlar narxlarning shakllanishini mahsulot iste'moli, ya'ni uning foydaliligi bilan bog'laydilar (iste'molning bitta qo'shimcha birlikka ko'payishi bilan mahsulotga bo'lgan ehtiyoj qanchalik o'zgaradi).

**2. Muvozanat yondashuvi.** Ishlab chiqarish sohasini tahlilning predmeti deb hisoblagan klassik maktabdan farqli o'laroq, marjinalistlar iqtisodiyotni moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini tasarruf etadigan o'zaro bog'liq iqtisodiy subyektlar tizimi sifatida ko'rib chiqdilar. Shuning uchun muvozanat va iqtisodiyotning barqaror holati muammolari, shuningdek, korxonalar va umuman milliy iqtisodiyotning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri natijalari marjinalistlar tomonidan tahlil obyektiga aylandi.

**3. Iqtisodiy ratsionallik.** Marjinalizm shundan kelib chiqadiki, iqtisodiy nazariya metodologiyasining asosiy prinsipi cheklanganlik prinsipi, inson ehtiyojlari bilan bog'liq resurslarning cheklanganligi. Ularning nazariyasi dastlab tovar yetkazib berishning cheklangan, belgilangan qiymatini taxmin qilishga asoslangan edi. Cheklangan tovarlarni oqilona taqsimlash muammosi insonning nafaqat narsaga, balki tayyor mahsulotga yoki tabiat ne'matiga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Ijtimoiy munosabatlar va ishlab chiqarish darajasi, go'yo oldindan belgilab qo'yilgan, ya'ni statik. Binobarin, marjinalistlar kapitalistik jamiyatning ichki tuzilishini o'rganish vazifasini qo'ymadilar, ular ne'matlar va ishlab chiqarish omillari qayerdan keladi degan savoldan qochib, iste'molni (ayirboshlashni) birinchi o'ringa qo'yishdi. Shuning uchun ular har qanday iqtisodiy faoliyatning asosiy vazifasini cheklangan resurslar sharoitida ehtiyojlarni maksimal darajada qondirish yo'llarini qidirishda ko'rdilar: iste'molchilar uchun foydali va ishlab chiqaruvchilar uchun daromadli.

**4. Chekli (so'nggi) tahlil.** Bunga muvofiq marjinalistlar subyektning maqbul xatti-harakatlari modelini ishlab chiqdilar, unga ko'ra subyektni cheklangan resurslardan foydalanishning muqobil variantlaridan birini tanlayotganda har doim qabul qilingan qarordan qo'shimcha (so'nggi) xarajatlar va qo'shimcha (eng yuqori) foydalarni taqqoslaydi, bu resurslardan oqilona foydalanish va ehtiyojlarni maksimal darajada qondirishga imkon beradi. Shu sababli, marjinalistlar odatda matematikada ishlatiladigan qiymatlarni cheklash usulidan optimal qarorni asoslash uchun foydalanganligi metodologiya uchun yangildikdir.

Shunday qilib, iqtisodiy tahlilning yangi vositasi - marjinal qiymatlar va tegishli kategoriyalar (marjinal xarajatlar, marjinal foyda, marjinal

daromad va boshqalar) dan foydalanish marjinalistlarga marjinal daromad va marjinal xarajatlarni taqqoslash orqali oqilona tanlov asosida qarorlar qabul qilinishini isbotlashga imkon berdi. Chekli (so'nggi) tahlil bozorda qabul qilingan qarorlarni, ya'ni; inson tomonidan amalga oshiriladigan har bir qo'shimcha harakat (operasiya) u intilgan maqsadga ta'sir qilishini ko'rsatish; barcha iqtisodiy jarayonlarni nisbiy, qo'shimcha qiymatlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqish; iqtisodiy fanlarni matematika bilan uyg'unlashtirish mumkinligini tushuntirishga yordam berdi.

Ushbu asosiy g'oyalar va kategoriyalar marjinalistlar tomonidan turli xil muammolarni o'rganishda ishlatilgan, ammo ularning diqqat markazida tovarlarning ayirboshlash qiymati - ularning almashinish nisbati muammosi bo'lgan. Marjinalistlar bu muammoni marjinal foydalilik

Marjinalistlardan avvalroq Aristotel, o'rta asr sxolastiklari. Galiani (XVIII asr) lar tovarlarning almashinuv qiymatini ularning foydaliligi va kamyoblighi bilan izohlaganlar.

nazariyasi yordamida hal qildilar, bu tovarlarning qiymatini ularning qo'shimcha birligining foydaliligi bilan izohladilar va shu bilan

qiymatni tushuntirishda foydalilik va cheklanganlik omilini birlashtirdilar. Keyinchalik marjinalist nazariyotchilar iqtisodiy fanning boshqa sohalarini: ishlab chiqarish (firmalar) nazariyasi, daromadlarni taqsimlash, farovonlik va boshqalarni o'zlashtirdilar, ammo marjinal (chekli) foydalilik nazariyasi iqtisodiy tahlilga marjinalistik yondashuvning asosiy modeli bo'ldi.

Qiymat nazariyasiga marjinalistik yondashuv klassik maktabga qarama-qarshi edi. Klassiklar ishlab chiqarish va taqsimlash sohalarida aniqlanadigan ishlab chiqarish xarajatlari orqali qiymatni aniqlaydilar, ya'ni uni "taklif tomondan" aniqlaydilar. Aksincha, marjinalistlar asosiy e'tiborni iste'molchilar tomonidan tovarlarni subyektiv baholashga qaratib, qiymatni "talab tomonidan" aniqlaydilar. Shuning uchun, klassik nazariyaning markazida kapitalist-tadbirkor turgan bo'lsa, marjinalistik nazariyada esa iste'molchi bo'lgan. Ishlab chiqarish va taqsimot nazariyalari keyinchalik marjinalistik nazariyaning bir qismiga aylangan. Aristotel, o'rta asr sxolastiklari, Galiani (XVIII asr) lar tovarlarning almashinuv qiymatini ularning foydaliligi va kamyoblighi bilan aniqlanishini marjinalistlardan oldin aytganlar, ammo ular marjinal foydalilikni tushuntirishda mashhur "suv va olmos paradoksi"dan (ya'ni, hayotiy zarur suv hayotiy zarur bo'lmagan olmosdan pastroq baholanadi) foydalana olmaganlar. Buni marjinalistlar quyidagicha tushuntirganlar: hayotiy zarur suv birligining marjinal foydasi noyob olmosning marjinal

foydasidan pastroq chunki havo va suvga qaraganda qimmatli toshlar ancha kamyob. Shuning uchun uning qimmatini ancha yuqori.

Marjinal tahlilning asosiy g'oyalari, masalan marjinal foydalilik, iste'mol ortiqchaligi, marjinal unumdorlikning pasayishi qonuni va boshqalar Angliyada R. Jennings, S. Longfield va P. Lloyd, Fransiyada J. Dyupuy va O. Valras (L. Valrasning otasi), Germaniyada G. Gossen va I. Tyunen tomonidan ishlab chiqilgan. Ammo iqtisodiy tafakkur tarixidagi birinchi marjinalist unvoniga ushbu g'oyalarni birinchi bo'lib sistematik ravishda taqdim etgan G. Gossen erishdi. Uning qiymat nazariyasiga qo'shgan hissasi alohida e'tiborga loyiqdir.

**German Genrix Gossen (1810-1858)** "Insoniy muomala qonunlarini va inson faoliyati qoidalarini rivojlantirish" nomli asarida marjinal foydalilik tamoyillariga asoslanib, ehtiyojlarni maksimal darajada qondirishga qaratilgan inson faoliyatining umumiy (nafaqat iqtisodiy) nazariyasini bayon qildi. Gossen ikkita qonunni ishlab chiqdi. Gossearning birinchi qonuni shunday deydi: iste'mol oshgani sayin, ma'lum bir tovarning har bir qo'shimcha birligidan (marginal foyda - MU) qoniqish miqdori kamayadi. Cheklangan foyda miqdori tovarlarning miqdori va unga bo'lgan ehtiyojga bog'liq. Gossen birinchi bo'lib ehtiyojlarni qondirish o'sib borishini ko'rsatdi. Ehtiyoj asta-sekin to'yadi, demak har bir qo'shimcha tovar birligini iste'mol qilishdan kelib chiqadigan qoniqish asta-sekin kamayadi. Birinchi qonunning amaliy ahamiyati shundaki, u marjinal foydalilikning pasayishi va talabning kamayishi o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi.

Har xil tovarlarning marjinal nafli teng bo'lganda, iste'molchini tanlash jarayoni tugaydi, ya'ni u har bir yangi sotib olingan tovardan teng foyda olish bilan maqbul holatga etadi. Maksimal foyda olish uchun iste'molchi iste'mol qilingan tovar miqdorini shu tovarlarning marjinal foydasi bir xil qiymatga teng bo'ladigan tarzda taqsimlaydi.

Narx birligi qonuni iste'mol tovarlarini almashtirish qonunidan kelib chiqadi. Xaridor uchun maksimal narx mavjud bo'lib, undan yuqori narxda u ushbu mahsulotni sotib olmaydi va ishlab chiqaruvchi uchun ma'lum bir minimal narx mavjud bo'lib, undan past narxda u o'z mahsulotini sotishni xohlamaydi. Gossearning fikriga ko'ra, ularning manfaatlari kesishgan joyda ikki tomon uchun ham foydalilik mavjud bo'ladi.

**Gossearning birinchi qonuni:** iste'mol oshgani sayin, ma'lum bir tovarning har bir qo'shimcha birligidan (marjinal foyda - MU) qoniqish miqdori kamayadi. Cheklangan foyda miqdori tovarlarning miqdori va unga bo'lgan ehtiyojga bog'liq.

Gossen ishlab chiqarish nazariyasini ham (biz mehnat og'irligi ishlab chiqarilgan tovarlardan olingan lazzatlarga teng bo'lguncha ishlaymiz) va ayirboshlash nazariyasini (ayirboshlash bizning ixtiyorimizdagi ikkita tovarning oxirgi birliklari qiymati teng bo'lguncha davom etadi) ham rivojlantiradi.

“Marjinal inqilob” ikki bosqichda amalga oshirildi.

Birinchisi, XIX asrning 70-80-yillarida, avstriyalik va ingliz-amerika maktablari asarlarida marjinal iqtisodiy tahlil g'oyalarning umumlashmalari paydo bo'lganda, siyosiy iqtisodda “subyektiv yo'nalish” ga asos solindi. Bu davrda marjinalistlar (K.Menger, F.Vizer, E.Bem-Baverk) talab va narx o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini va munosabatlarni o'rganishdi.

Ikkinchisi - XIX asrning 90-yillarida marjinalistlar subyektiv psixologik yondashuvdan voz kyechishadi, klassik siyosiy iqtisodning vorislariga aylanishadi, ularning nazariyasi neoklassik deb nomlandi. Ushbu bosqichda marjinalistlar (A. Marshall, V. Pareto, J. Xiks) iste'mol (talab) va ishlab chiqarish (taklif) sohalarini birgalikda tizimli ravishda o'rganishni boshladilar. Ular faqat talab, taklif, narxlarning funksiyalarini

**Gossenning ikkinchi qonuni** cheklangan miqdordagi mavjud tovar bilan ehtiyojni maksimal darajada qondirish mumkin bo'lgan asosiy shartni tavsiflaydi. Insonning ko'plab ehtiyojlari bor. u eng avvalo muhim ehtiyojlarini qondirib, keyin uncha zaur bo'lmagan ehtiyojlarni qondirishga harakat qiladi, bunda u har bir qo'shimcha tovar birligining iste'molchilik samarasini taqqoslaydi (marjinal foyda).

tavsiflabgina qolmay, balki iqtisodiy jarayonlarni matematik modellashtiri sh usulidan foydalanib,

mikroiqtisodiyot darajasidagi iqtisodiy muvozanatni hamda bozor faoliyatining mexanizmini tushuntirib berishdi.

Shunday qilib, marjinalistlarning xizmatlari:

- 1) ular alohida shaxsni tadqiq qilishga o'tishdi;
- 2) ularning fikriga ko'ra, xo'jalik mexanizmi asosida xo'jalik subyektlarining psixologiyasi yotadi;
- 3) tahlilni xarajatlardan yakuniy natijalarga o'tkazishdi;
- 4) iqtisodiy faoliyatni o'rganishda optimallashtirish modellarida chekli tahlillardan foydalanishdi.

Marjinalistlarning nazariy ishlanmalari iste'molchilarning hatti-berdi; bozor mexanizmini, bozor muvozanati shartlarini, narx belgilash xususiyatlarini o'rganishga yordam berdi; ishlab chiqarish omillarining roli, egiluvchanligi va boshqalar bo'yicha iqtisodiy tadqiqotlar ko'lamini

kengaytirdi.

### **12.2. Avstriya maktabi. Subyektiv psixologik yo'nalish**

Dastlab marjinal maktab Avstriyada shakllangan. K.Menger, F.Vizer, E.Bem-Baverk uning asoschilari hisoblanadi. Avstriya maktabining uslubiy xususiyatlari:

**1. Subyektivizm.** Ayirboshlash qiymati faqat ayirboshlovchi shaxslar tomonidan tovarlarga tegishli bo'lgan subyektiv ahamiyat yoki qiymatdan kelib chiqadi. Xarajatlar ular tomonidan subyekt tanlash jarayonida voz kyechishi kerak bo'lgan eng yaxshi o'tkazib yuborilgan muqobil imkoniyatning qiymati sifatida talqin etiladi. Subyektivizm, shuningdek, ishlab chiqarish omillari qiymati to'g'risidagi masalani hal qilishda ham namoyon bo'ldi, ya'ni ular ishlab chiqarishda foydalanilgan iste'mol tovarlarini subyektiv baholashda ko'rinadi. Holbuki klassik maktab iste'mol tovarlari qiymatini ishlab chiqarish xarajatlaridan kelib chiqib "obyektivlashtirgan" edi.

**2. Individualizm.** Iqtisodiy hodisalar shaxslarning maqsadga muvofiq harakatlari orqali tushuntiriladi. Ammo avstriyalik nazariya insonning barcha harakatlari faqat ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan deb hisoblamaydi, u har qanday birlashishga qarshi edilar. Iqtisodiyotda sodir bo'layotgan voqealarni faqat individual qarorlar va afzalliklar bilan izohlash kerak.

**3. Tahlilning diskretligi.** Avstriyaliklar ne'matlar cheksiz bo'linishi mumkin emas, deb hisoblashgan. Shuning uchun talab va taklifning uzluksiz funksiyalari bo'lishi mumkin emas. Talab va taklifning alohida chegarasi bo'lishi mumkin, va shuning uchun muvozanat narxning aniq belgilanadigan nuqtasi yo'q. Faqat ushbu narx bo'ladigan intervalni belgilash mumkin.

**4. Avstriya maktabi matematik usullardan foydalanmaydi,** ularning nazariyasi og'zaki, formulalar va diagrammalarsiz, chunki ular iqtisodiy haqiqatning ba'zi jihatlarini nazariyada iloji boricha realroq aks ettirishni istashgan.

**5. Iqtisodiyot ular tomonidan real vaqtda yuz beradigan jarayon sifatida qaraladi.** Haqiqiyroq tahlilga ega bo'lish istagi Avstriya maktabini marjinalizmning boshqa sohalaridan ajratib turadi. Avstriyaliklar muvozanatning yakuniy maqbul holatini emas, balki unga olib keladigan jarayonni ko'rib chiqdilar. Biroq, bu yondashuv vaqt omili, noaniqlik, bilim, iqtisodiy agentlarning taxminlari va hatto xatolarini hisobga olish kerakligiga olib keladi.

Avstriya maktabining konsepsiyalari K.Mengerning «Siyosiy iqtisod asoslari» (1871), F.Vizerning «Xo'jalik boyligining kelib chiqishi va



asosiy qonunlari to'g'risida» (1884), E.Byom-Baverkning «Kapital va foyda» (1884-89), «Xo'jalik ne'matlari boyligi nazariyasining asoslari» (1886), «K.Marks nazariyasi va uning tanqidi» (1896) va boshqa asarlarida bayon etilgan, Avstriya maktabining ta'limoti Angliya, Germaniya, AQSH va Rossiyada hamda boshqa mamlakatlarda yoyildi. Bu ta'limot iqtisodiyot fanining shundan keyingi rivojiga katta ta'sir o'tkazdi.

«Eng yuqori foydalilik» nazariyasi Avstriya maktabi va boshqa iqtisodiyot konsepsiyalari uchun asos bo'ldi, bu konsepsiyalar esa kapitalizm sharoitida iqtisodiyotning ijtimoiy mazmunini kuchsizlantiruvchi, uning sinfiy xarakterini inkor etuvchi bir narsadir. Byom-Baverkning ta'biricha, qadriyat to'g'risidagi ta'limot daromadni taqsimlash, shu jumladan yer rentasi, ish haqi, kapitaldan olinadigan foyda to'g'risidagi butun o'z doktrinasining markaziy bandidir.

Avstriya maktabining taqsimlash nazariyasi bir qancha mavjud konsepsiyalarni: J.B.Seyning ishlab chiqarishning uch omili, taqsimot konsepsiyasini, «eng yuqori foydalilik» nazariyasini o'z ichiga oladi. Bu o'rinda ishlab chiqarish omillari ununli ne'matlar deb atalgan. Ularning har biriga (yer, kapital va mehnatga) olingan iste'mol ne'matlarining muayyan qismi muvofiq keladi. Taqsimotning mana shu o'ziga xos konsepsiyasi kapitalistik eksploatatsiyani o'zgarlar mehnatining kapitalistlar tomonidan o'zlashtirib olinishini inkor etadi. U kelajakdagi ne'matlar va kapitalistning iste'moldan «tiyilishi» ga nisbatan haqiqiy kapitalistning haqiqiy ne'matlarni iste'mol qilishdan «tiyilishi» uchun va ta'minlaganligi uchun «mukofot» deb ko'rsatiladi. Shunday qilib, taqsimot nazariyasida ham muayyan sinfiy maqsadlarni ko'zlaydigan yangicha xulosalar bor.

Avstriya maktabining uslubiyati ham, iqtisodiy nazariyalari ham tarixdan tas'iqari yondashuv asosida yaratilgandir. Bu metodologiya va nazariyalar kapitalistik tovar xo'jaligi sharoitlarida jamiyatning sinfiy strukturasi e'tibordan chekda qoldirib, ishlab chiqarishdan iste'molni ushbu qo'yadi. Marjinalizm asoschilari qo'llagan sabab-oqibat asosidagi iqtisodiy tahlil oddiy mantiqiy xulosalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi, bu esa ularni real kapitalizmdan uzoqlashtirishga olib keldi. Biroq, kapitalistik bozor muammolarini anglashda va ayniqsa iqtisodiy fanga e'tiborni iste'mol va talabni to'laroq qondirishga qaratishda bu maktabning xizmatlari kattadir.

Bu maktabning konsepsiyalari kapitalistik xo'jalik tizimining eng muqaddas narsasi - xususiy sohibkorlik, erkin bozor, raqobat va shu kabilar

posbonligida turgan iqtisodiyot bundan keyingi rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazdi. Avstriya maktabining uslubiya ayniqsa matematik maktab va umuman hozirgi zamon iqtisodiy maktablarining shakllanishida katta rol o'ynagan. Bu yo'nalish yangi klassik oqimning keng rivojlanishida alohida o'rinni egalladi. Lekin shuni ham ta'kidlash zarurki, «eng yuqori foydalilik» nazariyasi yangi tashkil bo'layotgan nazariy maktablar uchun ilk manba rolini o'ynadi. «Eng yuqori (chegaraviy) foydalilik» nazariyasining neoklassik varianti ingliz iqtisodchisi A.Marshall boshchiligidagi «eng yuqori foydalilik» nazariyasini «ishlab chiqarish chiqimlari» nazariyasi bilan qo'shib, yangi ilmiy nazariya vujudga keltirilganligida o'z aksini topdi.

### **12.3.Kembrij marjinalistik maktabi. A.Marshall ta'limoti**

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida yirik kapitalistik korxonalar vujudga keldi va monopoliyalar paydo bo'ldi. Ushbu hodisalar korxonalar faoliyati sharoitining o'zgarishiga olib keldi, ishlab chiqarish va muomala jarayonini murakkablashtirdi, bu iqtisodiy hayot qonunlari haqidagi nazariy g'oyalarda o'z aksini topdi. Bunday sharoitda firmalarni birlashtirish bo'yicha samarali iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish zarur edi. Bu Kembrij maktabi tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, uning asosiy g'oyalari Alfred Marshall (1842-1924)ning "Sanoat iqtisodiyoti", "Sanoat va savdo", "Pul va savdo" va boshqa asarlarida keltirilgan. "Iqtisodiyot fanining prinsiplari" asari iqtisodiy fikrlashning yangi yo'nalishiga asos soldi, keyinchalik u neoklassik yo'nalish nomini oldi, uni ko'plab iqtisodchilar marjinalizm rivojlanishining ikkinchi bosqichi deb atashdi. A.Marshall turli xil, ba'zan qarama-qarshi tushunchalar asosida qiymatning sintetik nazariyasini yaratishga harakat qildi.

A.Marshall, bir tomondan marjinalizmning uslubiy tizimidan foydalangan, ammo boshqa tomondan, u narx belgilash jarayonini tahlil qilishda marjinal foydalilikni subyektiv baholashgani uchun Avstriya maktabining pozitsiyasini tanqid qiladi.

A.Marshall marjinalizm g'oyalarini mustaqil (Jevonsga bog'liq bo'lmagan holda) va o'ziga xos uslubda rivojlantirdi. Klassik maktab (Smit, Rikardo, Mill) va marjinalizm (Mengerdan Valrasgacha) yutuqlarini birlashtiruvchi bir butun nazariy sistema yaratdi.

**Qiymat (qimmat) va narxning shakllanishi nazariyasi.** Iqtisodiy fikrlar tarixida eng qiyin va murakkab muammolardan biri - qiymat muammosi hisoblanadi. A.Marshallning asari vujudga kelgunga qadar tovar qiymati muammosiga bo'lgan ikki xil yondashuv mavjud bo'lgan: qiymat yo ishlab chiqarish xarajatlari bilan, yoki tovarning foydaliligi va noyobligi bilan aniqlangan. Birinchi yondashuvga muvofiq, boylarning

o'sishi yo resurslar (mehnat, kapital va yer)ning unumdorligi natijasi, yoki ishlab chiqarish omillari egalarining kelgusida daromadlarini ko'paytirish maqsadida bugungi ne'matlardan voz kyechishi oqibatidir. Ikkinchi yondashuvga (me'yorli foydalilik nazariyasi) ko'ra, qiymatning asosida bozor qatnashchilari tomonidan buyumning foydaliligiga berilgan subyektiv baho yotadi. Bu borada turli yondashuv vakillari o'rtasidagi bahslar ko'pincha abstrakt, behuda, samarasiz va quruq safsatadan iborat bo'lgan.

Ko'pchilik mutaxassislarning fikriga ko'ra, A.Marshall bu bahslarga nuqta qo'ydi va zamonaviy mikroiqtsodiy tahlil asosini yaratdi (iqtsodiy fikrlar tarixi bo'yicha ba'zi kitoblarda esa, hatto fandagi «marshall inqilobi» to'g'risida ham gap yuritiladi). Uning xizmati shundan iboratki, u qiymatning birinchi (asosiy) sababini qidirishni tahlil qilishdan talab va taklifning shakllanish va o'zaro ta'sir ko'rsatish qonuniyatlarini o'rganishni tahlil qilishga o'tishning zarurligini asoslab berdi. Boshqacha so'z bilan aytganda, A.Marshall qiymat nazariyasini baho nazariyasi (yoki bozor muvozanati nazariyasi)ga turlantirdi.

A.Marshall marjinalistlar yutug'iga yuqori baho bergan holda, ularning klassik maktabni va D.Rikardoning xarajatlar nazariyasini bir tomonlama tanqid qilganini ko'rsatib o'tdi. Marjinalistlar qiymatni ishlab chiqarish xarajatlari bilan bog'lab tushuntirishni rad etgach, tovar qiymatining (qimmat) asosini uning foydaliligi tashkil etadi deb, mazkur muammoga bir tomonlama yondashdilar (ular qimmatni faqat me'yorli foydalilik bilan tushintirdilar). A.Marshall me'yorli foydalilik nazariyasini talab va taklif nazariyasi bilan va ishlab chiqarish xarajatlari nazariyasi bilan birlashtirdi. A.Marshallning tasdiqlashicha, ishlab chiqarish xarajatlari prinsiplari va me'yorli foydalilik – talab va taklif qonunining tarkibiy qismlaridir. Ularning har qaysisini «qaychining tig'laridan biriga ikkinchisining harakati tufayli amalga oshirilayotgan bo'lsa, biz beparvolik Marjinalistlarning xatosi talab va taklif simmetriyasiga yetarlicha baho bermaslikdan iborat, yutug'i esa ulargacha mensilmasdan kelingan talab muammosiga e'tiborni qaratganligidadir.

O'z mohiyatiga ko'ra, A.Marshall bo'yicha, real qiymat – bu talab va taklif ta'sirida shakllanadigan muvozanat baho. Bunda talab ham, taklif nazariya), yoki talabni (me'yorli foydalilik nazariyasi) hal qiluvchi omil sifatida ko'rsatishga bo'lgan urinishlarning har ikkalasi noto'g'ri ekanligini ko'rsatib berdi. Shu asosida A.Marshall oldingi qiymat nazariyalaridan eng

muhim qo'ida va konsepsiyalarni olib bir butun sistemaga birlashtirdi. Masalan, sarfli qiymat nazariyasi bozor taklifining shakllanish qonuniyatlarini tushuntirib berish uchun foydalanildi, me'yorli foydalilik nazariyasi esa bozor talabining shakllanish qonuniyatlarini tushuntirib berish uchun ishlatildi. A.Marshall tovar qiymati (qimmatini) aniqlashda me'yorli foydalilik va ishlab chiqarish xarajatlarini sintezlashtirdi. Uning fikriga ko'ra, tovar qiymati bir xilda foydalilik va ishlab chiqarish xarajatlari bilan aniqlanadi.

**Talab va taklif.** A. Marshall talab va taklif qonunini va shunga muvofiq bahoni tahlil qilishga alohida e'tiborni qaratdi. U tahlilni talabdan boshladi: «Sotilishi ko'zda tutilgan tovar miqdori qancha ko'p bo'lsa, unga qo'yiladigan baho shuncha past bo'lishi kerak, negaki u o'z xaridorlarini topa olsin... Baho pasayganda talab qilinadigan tovarlar miqdori ko'payadi, baho oshganda esa - kamayadi. Bunda bahoning pasayishi bilan talabning oshishi o'rtasida qat'iy o'rnatilgan bir xil nisbat bo'lmaydi».

O'z mohiyatiga ko'ra A.Marshall me'yorli foydaliliklar tengligi qonuniga asoslangan holda, foydalilik funksiyasidan talab egri chizig'ini keltirib chiqargan birinchi iqtisodchi hisoblanadi. U quyidagi ko'rinishda aks ettiriladi:

$$MU_x/P_x = MU_y/P_y = \dots MU_e$$

Bunda  $MU_x$  – x tovarning me'yorli foydaliligi,  $R_x$  – o'sha tovarning bahosi,  $MU_e$  – pulning me'yorli foydaliligi. Bu qonunni uch xil ekvivalentli shaklda ifodalash mumkin. Iste'molchi, agar:

- 1) xarid qilingan barcha tovarlarning me'yorli foydaliliklarini tenglashtirsa;
- 2) iste'mol qilinadigan har bir juft tovarning me'yorli foydaliliklari nisbatini va baholar nisbatini tenglashtirsa;
- 3) muayyan bozor narxida sotib olingan har bir tovar pul qiymatining me'yorli foydaliligini tenglashtirsa o'z ehtiyojini qondirishni maksimalashtiradi.

Iste'molchi muvozanatga erishdi,  $R_x$  bahosi esa pasayapti, deb faraz qilaylik. Unda  $MU_x > P_x MU_e$  va muvozanatni qaytadan tiklash uchun u  $MU_x$  miqdorini kamaytirish maqsadida x tovarni ko'proq sotib olishi kerak bo'ladi. Haqiqatdan ham, tovarning bahosi pasaysa iste'molchi uni sotib olishni ko'paytiradi, negaki bunday tovarning bahosi pasayganda iste'molchi bir so'mga har qanday boshqa tovarga qaraganda ushbu x tovardan ko'proq foydalilik oladi. Me'yorli foydalilikning pasayishi x tovarning xaridi ko'paygan sari  $MU_x$  pasayishini kafolatlaydi. Demak, iste'molchi o'zining daromadlari va narx darajasiga qarab ehtiyojini doimo maksimal qondirishga intilgan sharoitda talab egri chizig'ining teskari


nishobligi vujudga keladi.

Bu dalil isbotlar shu narsani ko'zda tutadiki,  $x$  tovarning narxi pasayishi natijasida individning daromadi ko'paymaydi, buning natijasida  $MU_x$  ning miqdori moslashish jarayoni davomida doimiyliги saqlanib qoladi. Lekin individ o'zining barcha xarajatlarining me'yori foydaliligini yana tenglashtirishi bilanoq, uning real daromadi oshadi. Bu saqlanayotgan pul mablag'larining me'yori foydaliligini pasaytiradi va shu bilan barcha tovarlarning, jumladan  $x$  tovarning ham xaridini ko'paytirishga olib keladi. Bunday sharoitda daromad samarasi ijobiy hisoblanadi va biz  $x$  ga teskari nishabli va talabning daromadga bog'liq bo'lgan ijobiy nishabli talab egri chizig'iga ega bo'lamiz.

Bundan tashqari, bu yerda foydalilik funksiyalarining additivligi<sup>25</sup> taqozo etiladi: individ sotib olayotgan har bir tovarning foydaliligi boshqa tovarlarning foydaliligiga bog'liq bo'lmaydi. Haqiqatda esa ularning o'rtasida bog'liqlik amal qilishi mumkin bo'lib, bunday bog'liqlik natijasida  $u$  - miqdori ko'payganda  $MU_x$  kamayadi yoki ko'payadi. Bu tahlilni yana ham murakkablashtiradi.

Agar yuqorida aytilganlarni grafik ko'rinishida ifodalasak, unda koordinatlarda (baho, tovar miqdori) Marshall «kresti» kelib chiqadi: pastga yo'naltirilgan  $D$  talab egri chizig'i bilan yuqoriga yo'naltirilgan  $S$  tovarning me'yori foydaliligining pasayish qonunini ifodalasa,  $S$  egri chizig'i me'yori xarajatlarning oshib borishini ifodalaydi. Ularning kesishgan nuqtasi muvozanat bahoni bildiradi va ushbu baho xaridorlar beradi. Bu ikki miqdor faqat muvozanat tovar miqdorini aniqlab keladi. Qachonki taklif bahosi talab bahosi bilan teng bo'lsa, muvozanat baho vujudga keladi. 11.1. Rasmdagi  $p^1$  - muvozanat baho. Ushbu bahoda esa sotib olishni;

<sup>25</sup>Additivlik (lat), ob'ektning miqdor xossasi uning qanday bo'lishidan qat'iy nazar, bir nechta bo'laklarga bo'lganda, shu bo'laklar qiymatleri yig'indisiga teng bo'ladi. Masalan,  $A$  ning hajmi uning bo'laklari hajmlarining yig'indisiga teng




**12.2.Rasm. Marshall «kresti».**

Agar baho muvozanat bahodan yuqori bo'lsa, sotuvchilar ko'p miqdorda tovar sotishga tayyor, lekin xaridorlar shuncha miqdorda tovar sotib olmaydilar va natijada baho pasayadi. Agar baho muvozanat bahodan past bo'lsa, unda xaridorlar sotib olishni xohlaydigan hajmdagi tovarni sotish sotuvchilar uchun foydasi yo'q va natijada baho pasayadi. Bu jarayon qachonki sotish bahosi muvozanat bahoga teng bo'lganda tugallanadi. Avval ko'rib chiqqanimizdek, bozor qiymati me'yorli foydalilik va me'yorli xarajatlar bilan aniqlanadi.

Talabning elastikligi iste'moldagi tovarlarning bir-birlarining o'rmini osongina bosa olishiga bog'liq. Shuning uchun ommaviy iste'mol tovarlariga bo'lgan talab kam elastik bo'ladi.

Ammo bu bilan talab va taklif qonuni tahlili tugashi mumkin emas, negaki talab va taklifga vaqt tushinchasi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi va shu bois uni tahlil qilish taqozo etiladi. Tekshirilayotgan davr qancha qisqa bo'lsa, talabning qiymatga bo'lgan ta'siri shuncha kuchli bo'ladi, bu davr qancha uzoq bo'lsa, ishlab chiqarish xarajatlarining qiymatga bo'lgan ta'siri shuncha kuchayib boradi.

Shu sababli A.Marshall bir zumli, qisqa muddatli va uzoq muddatli muvozanat turlarini ajratib ko'rsatib beradi.



**12.3.Muvozanat turlari**

*Bir zumli muvozanat*da taklif o'zgaraydi. Bunday sharoitda keskin oshgan talab qondirilishi mumkin emas (band bo'lmagan quvvatlardan foydalanish yoki yangi quvvatlarni ishga tushirish uchun vaqt kerak bo'ladi). Bu vaqt ichida tanqis (defitsit) mahsulotlarni ishlab chiqarayotgan tadbirkor bahoni oshirish hisobiga qo'shimcha daromad olishi mumkin. Masalan, tirik baliq bozorida baliqqa bo'lgan talab oshdi deylik. Baho ko'tarildi, lekin o'sha kuni sotuvchilar taklifni ko'paytira olmaydilar (yangisini olib kelishga ulgurmaydilar).

*Qisqa muddatli muvozanat* amal qilib turgan ishlab chiqarish quvvatlari hisobiga o'sgan talabni qondirish uchun taklifni ko'paytirish imkonini beradi. Agar bozorda baliqqa bo'lgan talab bir necha kun davomida ancha yuqori bo'lsa, unda baliqchilar qo'shimcha ishchi kuchi, oshiqcha to'r va boshqa anjomlar hisobiga baliq tutishni ko'paytirishga harakat qiladilar.

*Uzoq muddatli muvozanat*da taklif talabning oshishiga moslasha oladi, negaki uning uchun vaqt yetarli bo'ladi. Bu davr ichida ishlab chiqarish quvvatini, ishlab chiqarishni tashkil qilish uslubini o'zgartirish, yangi korxonalarni ochish, yangi texnologiyalarni qo'llash mumkin. Sotuvchilarga ustama foyda keltiruvchi yuqori talab va shunga muvofiq yuqori narx uzoq muddat saqlanib turgan sharoitda baliqchilar ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida ishlab chiqarish quvvatini kuchaytirishga kirishadilar (yangi baliq tutish kemalari, omborxonalar va boshqalar quriladi). Bu tarmoqqa yuqori daromad tufayli yangi ishlab chiqaruvchilar kirib keladi.

Bu yerda A.Marshall shunday xulosaga keladi: qisqa muddatli davrda bahoni shakllantiruvchi asosiy kuch talab (negaki taklif o'zgaruvchan emas), uzoq muddatli davrda esa taklif hisoblanadi. Tovar qiymati qisqa muddatli davrda haqiqatan ham eng avvalo xaridorlarning hatti harakati bilan aniqlanadi (marjinalizm). Lekin uzoq muddatli davr mobaynida baho o'rtacha ishlab chiqarish xarajatlari miqdoriga yaqinlashadi va taxminan bir xil darajada bo'ladi (klassik maktab). Klassiklarning bu nazariyasi faqat uzoq muddatli davr mobaynida to'g'ri amal qilishini ularning o'zlari ham yaxshi anglamaganlar va bu haqda o'z tadqiqotlarida qayd qilib o'tmaganlar.

#### 12.4. Lozanna maktabi.

Kembrij maktabining qisman muvozanat nazariyasi umumiy bozor muvozanati nazariyasi bilan L. Valras (1834-1910) tomonidan to'ldirildi.

L. Valrasning umumiy bozor muvozanati konsepsiyasining mohiyati "Sof iqtisodiy nazariya elementlari" asarida bayon etilgan. Unda u qisman muvozanat nazariyasi hal qilmagan savollarga javob berishga harakat qildi:

1. Mahsulot bozorlaridagi muvozanat ishlab chiqarish omillari bozoridagi muvozanatni albatta ta'minlaydimi?
2. Bozor mexanizmi umumiy muvozanatga erishishni kafolatlaydimi?
3. Butun bozorlar uchun yagona muvozanat mavjudmi?
4. Ushbu yagona muvozanat barqarormi, ya'ni undan chetga chiqish muvozanatning avtomatik qaytishiga sabab bo'ladimi?

L. Valras nazariyasining asosiy usuli kuchli matematik apparatdan foydalanish edi. U bozor iqtisodiyotining asosiy funksional bog'liqliklarini chiziqli tenglamalar tizimi orqali ifoda etib, firmalar va fermer xo'jaliklari uchun byudjet cheklovlarini L. Valras quyidagicha ko'rsatdi: bozor iqtisodiyoti ushbu tenglamalar tizimiga amalda qanday qilib "echim" taqdim etadi, har bir iqtisodiy agent o'zining foydasini maksimal darajada oshirishga harakat qiladi; bozorda ishlab chiqarish xarajatlari, daromadlar va tovarlarning narxi, talab, taklif va ishlab chiqarish hajmlari hamda sotib olish hajmi - hamma narsa bozorda birgalikda va bir vaqtning o'zida belgilanadi; narxlar umumiy muvozanatga erishishning

asosiy tartibga soluvchi mexanizmdir. Agar muvozanat buzilgan bo'lsa, unda narxlar tarkibi o'zgaradi va muvozanat tiklanadi; berilgan sharoitlarda

Odanlarning barcha ehtiyojlarini qondirish darajasini, ularning hech birining ahvolini yomonlashtirmasdan oshirishning iloji bo'lmagan iqtisodiy tizim holati Pareto-optimumi deb nomlanadi.

iqtisodiyotdagi talabning yig'indisi har doim taklifning yig'indisiga teng bo'ladi. Shunday qilib, umumiy muvozanat nazariyasi shuni isbotlaydiki, bozor mexanizmi doimiy dastlabki sharoitlar va mukammal raqobat sharoitida ehtiyojlarning eng yuqori darajada qondirilishi ta'minlanganda resurslarni optimal taqsimlashga erisha oladi. L. Valras nazariyasi A.Smit tomonidan o'rganilgan farovonlik muammosini o'rganishga yangi turtki berdi.

Shu munosabat bilan V. Pareto (1848-1923) tomonidan ishlab chiqarilgan farovonlikning iqtisodiy nazariyasi ahamiyatlidir. Ushbu nazariyaning qoidalari va xulosalari bozor iqtisodiyotida davlatning rolini, ayniqsa, davlatning byudjet va ijtimoiy siyosatini tushunishga yordam beradi.

Iqtisodiy farovonlik nazariyasi klassik va neoklassik maktablarning oqilona individual xulq-atvor modelining an'anaviy munosabatlariga asoslanadi. Ushbu modelning mohiyati shundaki, bozor tizimining har bir subyekti o'zlarining farovonligini minimal xarajatlar bilan maksimal foyda




olish orqali optimallashtirishga intilishdi. Spu bilan birga, u faqat o'z farovonligi parametrlarini subyektiv baholash bilan boshqariladi. Har bir subyektida uning afzalliklarini tavsiflovchi naflikning individual funksiyasi mavjud. Barcha individual naflikning milliy iqtisodiyot darajasida aks etishi ijtimoiy farovonlikni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy farovonlik - bu individual farovonliklarning jamidir.

V. Pareto iqtisodiy adabiyotda Pareto mezonlari sifatida ma'lum bo'lgan maksimal farovonlikning o'sish shartlarini belgilab berdi, uning mohiyati quyidagicha: agar resurslarning taqsimlanishidagi har qanday o'zgarish boshqa odamlarning farovonligini pasaytirmasdan kamida bitta odamning farovonligini oshirsa, unda bunday o'zgarish ijtimoiy farovonlikni oshiradi.

Binobarin, kamida bitta odamning farovonligini yomonlashtirmaydigan resurslarni qayta taqsimlash imkonsiz bo'lgan taqdirda, ijtimoiy ta'minot funksiyasi maksimal darajaga etadi.

Pareto-optimumi(Pareto efficiency) holatida quyidagi teoremlar amal qiladi, ular farovonlik nazariyasining asosiy teoremlari deb nomlanadi:



#### ***12.4.Rasm. Pareto optimuini holatida amal qiladigan teoremlar***

Iqtisodiy farovonlik nazariyasi neoklassik sintezning asosiy xulosasini yana bir bor tasdiqladi: zamonaviy raqobat sharoitida iste'molchilar va tadbirkorlarning ratsional-egoistik hatti-harakatlariga asoslangan bozor mexanizmi bozor muvozanatini ta'minlaydi. Bu holda ishlab chiqarish tuzilishini ehtiyojlar tarkibiga moslashtirishga erishiladi va resurslardan barcha iste'molchilarning manfaatlariga muvofiq foydalaniladi. Ko'pgina iqtisodchilar V.Pareto konsepsiyasini butun

zamonaviy marjinalizm konsepsiyasining metodologik asosi, deb bilishadi.

### **Qisqa xulosalar**

XIX asrning 60-70-yillari iqtisodiy ilm-fan rivojlanishidagi burilish davri hisoblanadi, chunki bu davrda Klassik siyosiy iqtisod o'rniga marjinal iqtisodiy nazariya (fransuzchada "marjinal" qo'shimcha, ortiqcha degan ma'noni anglatadi) keldi, iqtisodiy fikr rivojlanishining bu bosqichi ba'zan "marjinal inqilob" deb ataladi, chunki iqtisodiy fan predmetini o'rganishga yondashuvlar (umumiy tasavvur, tahlil qilish vositalari) o'zgardi.

Marjinalistlar uchun asosiy narsa endi obyektiv yoki tabiiy qonunlarni o'rganish emas, balki iqtisodiy subyektlarning ongini tahlil qilish edi. Ular barcha ijtimoiy hodisalarni individual shaxslarning hatti-harakatlari bilan izohladilar.

Iqtisodiy tahlilning yangi vositasi - marjinal qiymatlar va tegishli kategoriyalar (marjinal xarajatlar, marjinal foyda, marjinal daromad va boshqalar) dan foydalanish marjinalistlarga marjinal daromad va marjinal xarajatlarni taqqoslash orqali oqilona tanlov asosida qarorlar qabul qilinishini isbotlashga imkon berdi. Chekli (so'nggi) tahlil bozorda qabul qilingan qarorlarni, ya'ni; inson tomonidan amalga oshiriladigan har bir qo'shimcha harakat (operasiya) u intilgan maqsadga ta'sir qilishini ko'rsatish; barcha iqtisodiy jarayonlarni nisbiy, qo'shimcha qiymatlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqish; iqtisodiy fanlarni matematika bilan uyg'unlashtirish mumkinligini tushuntirishga yordam berdi.

Ushbu asosiy g'oyalar va kategoriyalar marjinalistlar tomonidan turli xil muammolarni o'rganishda ishlatilgan, ammo ularning diqqat markazida tovarlarning ayirboshlash qiymati - ularning almashinish nisbati muammosi bo'lgan. Marjinalistlar bu muammoni marjinal foydalilik nazariyasi yordamida hal qildilar, bu tovarlarning qiymatini ularning qo'shimcha birligining foydaliligi bilan izohladilar va shu bilan qiymatni tushuntirishda foydalilik va cheklanganlik omilini birlashtirdilar.

### **Asosiy tushuncha va iboralar**

Marjinalizm, eng yuqori (chegaraviy) naf, Gossenning birinchi qonuni, Marjinal inqilob, subyektiv-psixologik yo'nalish, iqtisodiy liberalism.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Marjinalizmning vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar.
2. Marjinal tahlilning asosiy g'oyalarini ayting.
3. G.G. Gossenning birinchi qonunining mohiyatini tushuntiring.
4. Avstriya maktabining asoschilari kimlar?
5. Marjinal inqilob haqida aytib bering.

### XIII. BOB. ZAMONAVIY IQTISODIY TA'LIMOTLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI (INSTITUTSIONALIZM)

#### 13.1. InstitutSIONALIZMNING asosiy xususiyatlari va evolyutsiyasi

XIX asrning oxiri XX asrning boshida yuzaga kelgan konkret-tarixiy sharoit ta'sirida AQSH sotsial-iqtisodiy jihatdan dunyoda eng rivojlangan mamlakatga aylandi. Aynan Amerikada birinchi bo'lib erkin raqobatga asoslangan iqtisodiyotning monopolistik iqtisodiyotga o'tishi bilan bog'liq bo'lgan muammolar ancha keskin shaklda namoyon bo'la boshladi. Bu AQSHda ilk bor antimonopol chora-tadbirlarning ishlab chiqilishiga, ularning XIX asrning oxirida mamlakatda qo'llanilishiga asosiy sabablardan biri bo'ldi. Keyinchalik dunyodagi barcha rivojlangan mamlakatlar bunday chora-tadbirlarni keng qo'llay boshladi.

XX asrning boshida AQSH iqtisodchi-olimlari iqtisodiyotda kuchayib borayotgan monopolistik tendensiyalarni tahlil qilgach va o'z mamlakatining «antitrest» siyosatiga ta'sir ko'rsatgach, iqtisodiyot ustidan sotsial nazorat qilish konsepsiyasiga asos soldi. Ularning nazariyasi hozirgi kunda iqtisodiy fanda sotsial institutsional yoki oddiy qilib aytganda institutsionalizm deb ataluvchi yangi yo'nalishni boshlab berdi

«InstitutSIONALIZM» atamasi asosida «institut» tushunchasi yotadi, u institutsionalistlar tomonidan iqtisodiyotda va undan tashqaridagi rivojlanishda asosiy kuch sifatida ko'riladi. InstitutSIONALIZM tarafdorlari «institut»larga har xil kategoriya va tushunchalarni (masalan, davlat, oila, tadbirkorlik, monopoliyalar, xususiy mulkchilik, kasaba uyushmalari, din, axloq va shu kabilar), mamlakatdagi an'ana, urf-odat, etika, huquqiy qoidalar, ijtimoiy psixologiya va asosiysi - iqtisodiyot evolyusiyasini kiritadilar.

Institutsionalizm – bu ma'lum ma'noda iqtisodiy nazariyadagi yangi klassik yo'nalishga muqobildir. Agar yangi klassiklar A.Smitning bozor xo'jaligi mexanizmining takomilashganligi va iqtisodiyotning o'zini-o'zi tartiblashi to'g'risidagi tezisiga va «sof iqtisodiy fan» ga amal qilsalar, institutsionalistlar esa moddiy omillar bilan birga iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi deb ruhiy, ma'naviy, huquqiy va boshqa omillarni hisoblaydilar. Boshqacha aytganda, institutsionalizm o'zi tahlil qiladigan predmet sifatida sotsial-iqtisodiy rivojlanishning ham iqtisodiy, ham noiqtisodiy muammolarni ilgari surdi. Bunda tadqiqot obyekti institutlar-birlamchi yoki ikkilamchi turlarga ajratilmaydi va bir-birlariga qarshi qo'yilmaydi.

### T.Veblen – g'oyalari

Institutsionalizmning vatani AQSH, uning asoschisi Torsteyn Veblen (1857-1929) hisoblanadi. Zamonaviy institutsionalizm yo'nalishining dastlabki ko'rinishlari T.Veblenning «Bekorchilar sinfi nazariyasi» asarida izohlab berilgan.

Mazkur kitob muallifining fikriga ko'ra, iqtisodiy nazariyalar bilan iqtisodiy reallik o'rtasida juda katta uzilish mavjud. Birinchisi, garmoniyaga (muvozanatga) asoslanadi, ikkinchisida uzluksiz evolyusiya sodir bo'ladi, yashash uchun keskin kurash ketadi. Buyumning foydaliligi va unga erishishning qiyin va mushkulligini doimo taqqoslab boruvchi «iqtisodiy odam» modeli shak-shubhasiz eskirdi. Haqiqatda esa insonning hatti - harakati juda ko'p omillarga bog'liq, ko'pincha ichki qarama-qarshiliklarga. Taqlid qilishga va raqiblikka bo'lgan tug'ma moyillik bilan birga, uning hatti - harakatiga an'ana, axloq, urf-odat, shuningdek obro'ga bo'lgan intilish juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun iqtisodiy tahlil qilishda har xil «institutlarni» (ular yuqorida ko'rib chiqildi) hisobga olish zarur.

T.Veblenning fikriga ko'ra, alohida subyektlarning hatti - harakatini emas, balki kasaba uyushmalarining, siyosiy partiyalarning ish harakatini o'rganish kerak. Iqtisodiy nazariya bilan iqtisodiy subyektlarning asosiy unsurlari (yer egalari, ishchilar, kapitalistlar va injener - texnik ishchilar) o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyotda ularning roli har xildir.

Bozor xo'jaligi amal qilishining dastlabki bosqichida hokimiyat va mulk tadbirkorlar qo'lida bo'ladi. Oldin yagona bo'lgan bu sinf keyinchalik kapital egalari va ishlab chiqarishni tashkil etuvchilarga bo'linadi. Kapital egalari faqat o'z kapitallariga keladigan foyda qiziqtiradi, ular o'z kapitallarini ishlab chiqarishga qo'ymaydilar, balki faqatgina kreditga beradilar. Ularning daromad manbai real sektor emas, balki moliya sohasida aylanib turuvchi qimmatli qog'ozlar hisoblanadi. Bu ma'noda kapital egalari bekorchilar sinfini tashkil etadi. Ishchilar, shuningdek ishlab chiqarishni tashkil etuvchilar va texnik mutaxassislar unumli sinf hisoblanadilar, ular o'z kapitallariga ega emas va bekorchilar sinfi kreditga qo'ygan vositalardan foydalanib ish yuritadilar.

Bekorchilar sinfining xukmronlik mavqe'i barcha iqtisodiyotda kreditning rolini haddan tashqari oshirib yuboradi. Kapitalning anchagina qismi chayqovchilik maqsadlarga foydalaniladi va ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirilmaydi. Kredit inflyasiyasi vujudga keladi, uning orqasidan sudani zudlik bilan qoplash talabi zarurligi kelib chiqadi. Natijada ommaviy bankrotlik va turg'unlik yuzaga chiqadi, ular o'zining

davom etishi muddati bo'yicha iqtisodiy yuksalish davridan ancha ortib ketadi.

Bekorchilar sinfi bilan unumli sinf o'rtasidagi antagonizmning echilishi hokimiyatning texnokratlar qo'liga o'tishiga olib keladi. Kapitalga bo'lgan mulkchilik aksionerlik shaklini oladi va shu bilan xususiy mulk bo'lishdan to'xtaydi.

### **J.R.Kommons qarashlari**

Institutsionalizm yo'nalishiga yangi hayot bag'ishlagan Amerika iqtisodchilari **Jon Kommons** (1862-1945) va **Uesli Mitchell** (1874-1948) hisoblanadi.

J.Kommons o'zining «Institutsional iqtisodiyot» kitobida xo'jalik jarayonlariga ta'sir etuvchi har xil noiqtisodiy (avvalo huquqiy) omillarni tadqiq qildi. U Amerika ishchilar harakati, kasaba uyushmalarining va tadbirkorlar ittifoqining tashkil topishi tarixini o'rgandi, mehnat huquqini tahlil qildi. J.Kommons fikriga ko'ra, jamiyatning huquqiy tizimi xo'jalik hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Uningcha, bitim iqtisodiy tizimning bosh bo'g'ini hisoblanadi. Bitim ishtirokchilari sifatida ko'proq individlar emas, balki kasaba uyushmalari va tadbirkorlar ittifoqlari qatnashadilar. Bitim o'z tabiatiga ko'ra uning ishtirokchilari manfaatlari ixtilofli bo'lishini taqozo etadi. Bunda hakamlik vazifasini davlat o'z zimmasiga oladi. U vujudga keladigan qarama-qarshiliklarni yechib berish uchun huquqiy mexanizmi ishlab chiqishi lozim. Masalan, yollanma ishchilar bilan tadbirkorlar o'rtasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklar kasaba uyushmalari va tadbirkorlarning maqsadga muvofiq o'zaro ta'siri, samarali mehnat huquqi va maxsus hukumat hay'ati faoliyati tufayli echilishi mumkin.

J.Kommons o'zining ijtimoiy hayotga bo'lgan qarashlarini tajribada realizatsiya qilish maqsadida Amerika mehnat federatsiyasi bilan faol hamkorlikda ish yuritdi. 1935-yili uning ta'sirida AQSHda pensiya ta'minotiga asos solgan «Sotsial himoya to'g'risida akt» qabul qilindi.

U.Mitchell fikriga ko'ra, kishilar faoliyatida asosiy harakatlantiruvchi kuch pul hisoblanadi. Aynan moliyaviy institutlar inson hatti - harakatining xarakterini aniqlab beradi. U.Mitchell o'z asarlarida axborotlarni ishlashda statistik tahlil vositalaridan va matematik uslublarni keng qo'lladi. Mazkur uslub bozor kon'yunkturasi dinamikasini empirik (tajribaga asoslangan) tadqiq qilishga, kapitalistik xo'jalikning bir qator siklli tebranish qonuniyatlarini ochib berishga imkon berdi. Uningcha, har bir sikl o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, ularning asosida juda ko'p sabablar yotadi, ular betakroridir. Shuning uchun bitta universal sikllar nazariyasi bo'lishi mumkin emas.

U. Mitchell o'z tadqiqotlariga asoslangan holda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi yordamida inqirozsiz sikl konsepsiyasini asoslab berishga harakat qildi. Maxsus davlat rejalashtiruvchi organlarini tuzish. uning fikriga ko'ra, siklli tebranishni yumshatish va qulay iqtisodiy kon'yunkturaga erishish vositasi bo'lishi kerak. Bunda rejalashtirish majburiy xarakterda emas, balki tavsiyali xarakterda bo'lib, u real, erishish mumkin bo'lgan pirovard maqsadlar ko'zda tutilgan ilmiy prognozlashtirishga asoslangan.

U. Mitchellni AQSHda iqtisodiy tadqiqodlar milliy byurosi asoschisi va iqtisodiyotdagi siklli hodisalarni birinchilardan bo'lib tadqiq qilgan iqtisodchi deb tan olinishi unga katta shuhrat keltirdi. U psixologik tahlilni hisobga olgan holda, sotsial-madaniy muammolar bilan birgalikda pul, moliya va kredit omillari sohasidagi iqtisodiyotga davlatning ta'sir ko'rsatishi mumkin va zarur, deb hisobladi.

### **13.2.J.K.Gelbreytning iqtisodiy qarashlari.**

**«Yangi industrial jamiyat konsepsiyasi».** Ikkinchi jahon urushidan keyin sof institutsionalizm bir oz susaydi, ammo Jon Kennet Gelbreyt asarlarida bir muncha o'zgargan shaklda qaytadan tiklandi. Uning «Yangi industrial jamiyat» nomli asosiy asari iqtisodiyotda «texnostruktura»ning tahlili va roliga bag'ishlangan. Texnostruktura vakillari ishlab chiqarish to'g'risida o'ziga xos professional bilimga va qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotlarga ega. Albatta, rasmiy jihatdan muhim qarorlar, qoidaga ko'ra, kompaniyaning etakchi menejrlari – direktor va uning o'rinbosarlarining alohida huquqi hisoblanadi. Lekin barcha qarorlarni qabul qilish deyarli 100 foiz axborotlarga bog'liq. Axborotlar esa texnostruktura «nazorati» ostida bo'ladi.

Texnostrukturaning hukmronlik qilish sababini J.K.Gelbreyt tarixiy o'xshashlik nuqtai nazaridan asoslab berishga harakat qiladi. Industrial jamiyatgacha bo'lgan davrda asosiy ishlab chiqarish omili yer hisoblangan, negaki u ancha noyob resurs sifatida bo'lgan. Shuning uchun real hokimiyat yer egalari qarashli bo'lgan. Buyuk geografik kashfiyotlar va sanoat to'ntarilishi natijasida yer resurslari o'zining noyoblik xususiyatini yo'qotadi va ishlab chiqarishning hal qiluvchi omili kapital kelib chiqadi. Hokimiyat kapital egalari qo'liga o'tadi. Zamonaviy jamiyatda eng noyob resurs – axborot, fan-texnika bilimi. Shuning uchun real hokimiyat texnostruktura qo'lida.

T.Veblen o'z nazariyasida, texnokratiya jamiyatda oldingi qatorlarda bo'lish kerak deb aytgan bo'lsa, J.K.Gelbreyt esa, u amalga oshirildi, deb tasdiqlaydi.

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining barcha eng muhim hodisalarini J.K.Gelbreyt zamonaviy texnika taraqqiyotining to'g'ridan-to'g'ri va bevosita natijasi deb tushuntiradi. Texnika va texnologiya, uning fikriga ko'ra, hozirgi zamon kapitalizmi uchun xarakterli bo'lgan yangi iqtisodiy belgilarni vujudga keltiradi. Ulardan eng muhimi rejalashtirishdir. Korporatsiyalarni boshqaruvchi texnostruktura ulaming ish faoliyatini bir necha yil oldinga rejalashtiradi. Rejalashtirish va bitimlar tizimi (xomashyo, asbob uskunalar, ilmiy va konstruktorlik ishlamlarni yetkazib berish bo'yicha) barqarorlikni keltirib chiqaradi, raqobatni esa bartaraf etadi. Chunki reja raqobat bilan unchalik «chiqisha olmaydi». Shuning uchun hozirgi zamon iqtisodiyotida muttasil va har tomonlama korporatsiyalararo shartnomalar tuzuladiki, ular bozorning boshqarilib turilishini, barqaror bo'lishini ta'minlaydi. Stixiyali bozor va erkin raqobat faqat darsliklarda qolib ketadi, zamonaviy rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti esa, uzoq muddatli rejalashtirish asosida texnostruktura bilan boshqarilib turiladi.

J.K.Gelbreyt o'zining keyingi asarlarida texnostruktura nisbatan tanqidiy fikrlarni aytgan. U texnostrukturani «bozor tizimini» eksplutatsiya qilishda (mayda va o'rta biznesni), davlat amaldorlari bilan qo'shib ketishda, qurollanish ketidan quvishda, tabiiy resurslardan foydalanishdagi isrofgarchilikda, bozorga ta'sir ko'rsatishning monopolistik uslublarini qo'llashda aybladi. Yirik korporatsiyalar davlat mashinasi bilan uzviy bog'langan va undan naf ko'radi: qulay buyurtmalarni va soliq imtiyozlarini oladi, raqobat kurashida siyosiy mexanizmdan foydalanadi. J.K.Gelbreyt davlat va jamiyat tomonidan texnostruktura faoliyati tartibga solinib turilishini qayd qilib o'tadi.

U shuningdek mayda va o'rta tadbirkorlikni va sotsial texnostrukturani (uy-joy qurilishini, ijtimoiy transportni, tibbiy xizmatni, qishloq xo'jaligini, san'atni) davlatning qo'llab quvvatlashini talab qilib chiqdi.

«Bozor tizimida» bahoni va ish haqini bevosita uning tartiblash, fikricha, tadbirkorlarda va ishchilarda kelgusidagi baho va daromadlarga bo'lgan

Texnostruktura deganda, J.K.Gelbreytning fikricha, boshqaruv, moliya bo'yicha olimlarni, konstruktorlarni, mutaxassislarni o'z ichiga oluvchi jamiyat qatlamlari va umuman olganda, yirik korporatsiyalarning normal ishlashini ta'minlash uchun kerak bo'lgan barcha narsalar tushuniladi.

ishonchini uyg'otadi. Bu ishlab chiqarish va xususiy investitsiyalarning barqarorlashuviga olib keladi. Davlatning aralashuvi eng avvalo «bozor tizimi» zarar ko'radigan inflyasiyani to'xtatish uchun ham zarur. Hukumat

korporasiyalar bilan nufuzli kasaba uyushmalarining o'zaro ta'bir ko'rsatish jarayoniga aralashuvi va yirik biznesdagi baho va mehnat haqi darajasini bevosita nazorat qilib turishi kerak.

### **Konvergeniya konsepsiyasi**

Nobel mukofoti sohibi, gollandiyalik olim Yan Tinbergen 60-yillari ilgari surgan konvergeniya konsepsiyasi ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan qo'llab quvvatlandi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra kapitalizm bilan sotsializm rivojlana borgan sari har ikkalasida o'xshash belgilar yuzaga keladi (kapitalizmda rejali ish roli oshib boradi, sotsializmda bozor munosabatlari rivojlanadi), tafovutlar asta-sekin yo'qolib boradi. Ishlab chiqarish sharoitlari, madaniyat va fan-texnikaning rivojlanishi umumiy taraqqiyot natijasida har ikkalasida tobora bir xillashib boradi. Kapitalizm ham, sotsializm ham ayni bir xil muammolarni hal qilishga, ularni hal etishning bir xil uslublarini qo'llashga intiladi.

Konvergeniya texnikada, iqtisodiyotda, siyosatda, sotsial sohada kuzatiladi. Ya.Tinbergen hozirgi paytda hech qayerda «sof kapitalizm» yo'q, deb hisoblaydi. Bu borada fikr yuritgan J.K.Gelbreyt texnika taraqqiyotini kapitalizm va sotsializmning yaqinlashuvi negizi sifatida ilgari suradi. U konvergeniya moyilligini yirik ishlab chiqarishning o'sishida, jami talabning davlat tomonidan tartibga solinib turishi va hokozalarda ko'radi. «Biz, - deb xulosa qiladi Gelbreyt, - go'yo turlicha bo'lgan ikkita industrial tizimning konvergeniyasi hamma eng muhim sohalarda sodir bo'layotganligini ko'rib turibmiz».

Iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solib turishni birinchi o'ringa qo'ygan A.Bergson «har ikkala tizim unchalik xilma-xil emas va keyinchalik ular o'rtasidagi tafovut yanada ko'proq kamayib borishi mumkin», deb yozadi.

Amerika sotsiologi P.Sorokin barcha asosiy yo'nalishlar bo'yicha tabiatshunoslik va texnika, ijtimoiy fanlar, maorif, san'at, din, nikoh va oila, iqtisodiy tizim, ijtimoiy munosabatlar, siyosiy tizim sohalarida kapitalizm bilan sotsializmning yaqinlashuvini targ'ib qildi. Uning fikricha, kapitalizm va sotsializmning o'zaro konvergeniyasi oqibatida ulardan farq qiladigan qandaydir oraliq jamiyat yuzaga keladi.

«**Xalq kapitalizmi**». Urushdan keyingi yillari institusionistlar o'zlari oldin taklif qilgan «boshqaruvchilar inqilobi» va «jamoa kapitalizmi» konsepsiyalarini davom ettirdilar. Mazkur konsepsiyaga binoan hozirgi zamon g'arb mamlakatlarida hokimiyat ayrim shaxslar qo'lida emas, balki jamoalar, eng avvalo texнокratlar va menejerlar qo'lida bo'ladi. Bu mulkning juda ko'p mayda aksionerlar o'rtasida bo'linib ketishi bilan va ishlab chiqarish jarayonining qiyinlashi bilan bog'liq. Institutsionalistlar



tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy fondagi boshqa yo'nalish – iqtisodiy rivojlanish nazariyasidir. Bunda asosiy e'tibor iqtisodiy o'sishning texnikaviy-xo'jalik omillariga (texnikaning rivojlanishi darajasi, ijtimoiy mahsulotdagi investisiyalar ulushi va b.) qaratilgan.

40-yillari «xalq kapitalizmi» konsepsiyasi shakllandi, unda XIX asr oxiridan boshlab kapitalistik tizimda yuz bergan o'zgarishlar qayd etiladi. Yirik korporasiyalar va davlat tomonidan bozorning tartibga solinib turilishi bozordagi beqarorlikni va ortiqcha ishlab chiqarish inqirozini bartaraf etishga imkon beradi. Aksiyalarning keng tarzda tarqalishi yollanma ishchilarni kapital egalariга aylantiradi, bu hol asta-sekin kapitalistlar bilan yollanma ishchilar o'rtasidagi qarama-qarshilikka barham beradi.

Davlatning faol qayta taqsimlash siyosati, keng aholi qatlamining mulkchilikda va kichik biznesda qatnashishi, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari tufayli umumiy farovonlik darajasining oshishi - bular hammasi sotsial guruhlar o'rtasidagi tafovutni yo'qotadi,

«Industrial jamiyatdan keyingi jamiyat» tizimining o'ziga xosligi shundan iboratki, u eng avvalo xizmat ko'rsatish jamiyati bo'lib, aholining ko'pchiligi shu sohada ish bilan band bo'ladi. Bu jamiyat yana shu bilan ifodalanaadiki, iqtisodiyot «uyg'unlashgan xarakter» kasb etadi, uning rivojlanish sur'ati oshadi, umumiy farovonlik, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarning yuksak darajasi ta'minlanadi, axborot hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

sinfy ixtilof asosini bartaraf etadi.

Mazkur o'zgarishlar jamiyatning sotsial-psixologik holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi va iqtisodiy rivojlanishga imkoniyat yaratib berdi. Bu xususda R.Xeylbruner tasdiqlaganidek: «kapitalizm yangi tizim tufayli ancha diqqatga sazovor va hech qachon boshidan kechirmagan uzoq muddatli iqtisodiy o'sish yo'liga o'tdi... Ushbu tizim tufayli sanoati rivojlangan mamlakatlarda aholining keng qatlamini o'z ichiga olgan mislsiz rivojlanish qo'liga kiritildi».

#### «Industrial jamiyatdan keyingi jamiyat»

60-yillarning oxiriga kelib aholi turmush darajasining o'sishi, xizmat ko'rsatish sohasining va iqtisodiyotda axborot sektorining roli kuchayib borishi bilan jahon iqtisodiy adabiyotlarida «Industrial jamiyatdan keyingi jamiyat» konsepsiyasi keng tarqala boshladi.

Amerika sotsiologi Deniel Bell (1919) hozirgi zamon ijtimoiy tizimini asosiy xarakterlantiruvchi va qayta tashkil etuvchi kuch fan-texnika inqilobi, deb hisoblaydi. Fan-texnika inqilobi ta'sirida iqtisodiy

jarayonlarda, mulkchilik munosabatlarida, hokimiyatning tuzilishida, madaniyat, ma'naviyat va mafkura sohasida juda katta o'zgarishlar amalga oshiriladi.

Axborot umumxalq boyligi hisoblanadi, uni monopollashtirish juda qiyin. Shuning uchun xususiy mulk va bozor mexanizmlari roli pasayib bormoqda: «Hozir mulkchilik yuridik yasama vaziyatdan bo'lak narsa emas; korporatsiyalar xususiy mulkchilik instituti belgilarini yo'qotdi va faqat tashkil qilish shakli hisoblanadi». Insonning jamiyatdagi o'rnini, mavqei va nufuzi endi uning mulkiy boyligidan ko'ra, uning malakasi va bilim darajasiga ko'proq bog'liq bo'ladi.

Haqiqatdan ham jamiyatda xizmat ko'rsatish va axborot sohasining yuksak darajada rivojlanishi bunday jamiyatda sifat o'zgarishlar yuz berganligidan dalolat beradi.

### **E.Chemberlen monopolistik raqobat to'g'risida**

**Edvard Xeyting Chemberlin** (1899-1967) o'z asarida monopoliyaning mohiyati, monopol baho va monopol foydaning yuzaga kelishining chuqur tahlilini beradi. Uning fikricha, monopoliyaning mohiyati - bu ham taklif, ham narx ustidan nazoratning mavjud bo'lishidir.

Differensiatsiya kuchayib borgan sari har bir sotuvchi absolyut (mutloq) monopoliyaga ega bo'ladi, ammo shu bilan birga, o'rnini besa oladigan boshqa mahsulot ishlab chiqaruvchining nomukammal raqobatiga uchraydi. Shundan kelib chiqib, barcha sotuvchilar «raqobatchi monopolistlar» bo'lib, «monopolistik raqobat» kuchlari ta'siri sharoitida ish yuritadilar.

Chemberlin fikricha, bozorlar o'zaro bog'langan, chunki bir-biriga bog'liq bo'lmagan sotuvchilar vazifasi bir-biriga yaqin bo'lgan mahsulotlarni realizatsiya qilishda hamohangdirlar. Real hayotda bozorlar u yoki bu darajada nomukammaldirlar, shu sababli muvozanatga intilish to'g'risida gapirish o'ta soddalikdir. Natijada har bir sotuvchi monopolist deb hisoblanadi, uning o'z xaridorlari, «noyob» mahsulotini oluvchilar bo'ladi. Bozordagi monopolist sifatida baholarni tartibga soladi. Bu esa tovarlar va xizmatlarning real taklif hajmi «sof» raqobat sharoitidagidan kam, bahosi esa yuqoriroq bo'ladi. Bu yerda mahsulot differensiyasi eng muhim shartdir. Bu kategoriyani mohiyati shundaki, sotuvchilarning tovari (yoki xizmati) da boshqalarnikidan keskin farq qiluvchi belgisi bo'lishi kerakligidir. Bu belgi xaridor uchun real yoki xayoliy bo'lishi, aslida esa xuddi shu mahsulotga afzallik berilishiga olib kelishi shart. Bunday differensiatsiya bo'lgan sharoitda xaridorlar va sotuvchilar tasodifiy yoki tartibsiz juftlikka (bu sof raqobatda bo'ladi) birlashmaydilar, bu yerda afzallikka asoslangan tanlov hal qiluvchidir.

Sotuvchi -monopolist qo'shimcha xarajatlar qilish yo'li bilan sotilayotgan mahsulot hajmini oshirishi (bunda tovar bahosi pasayishi) mumkin. Boshqa xuddi shunday tovar sotuvchilar esa buni darhol amalga oshira olmaydi, deb raqobatdosh tovar markasi bahosini pasaytirish yoki yangisini ishlab chiqarish davomida, xuddi shunday choralar boshqa raqobatchi tomonidan qo'llanilishi mumkinligidan bexavotir bo'ladi.

Raqobatning baholanmaydigan omillari qatoriga tovarlar sifati va reklama kiradi va ular individual yoki alohida xususiyatlarga egadir. Differenziatsiya mahsulotning o'z ma'lum xususiyatlari asosida shakllanishi, masalan, *alohida xususiyatlar* - fabrika markasi, firma nomi, qadoqlash yoki tara (agar ular bo'lsa) bo'yicha yoki sifat, shakl, rang, stil asosida *individual xususiyatlari* bilan belgilanadi.

Sof raqobat sharoitida alohida sotuvchi bozori umumiy bozor bilan qo'shib, faqat amaldagi baho bo'yicha istalgancha tovarni realizatsiya qiladi. Ikkinchi holatda tovarni sotish cheklanadi va yangi uchta omil:

- 1) baho;
- 2) mahsulot xususiyati
- 3) reklamaga xarajatlari bilan belgilanadi.

Mana shu omillar yordamida xaridorlarning iste'mol qarorlariga ta'sir etiladi. Bunda baholarni pasaytirish onili alohida ahamiyat kasb etadi, chunki tovarga baho pasayishi mahsulot sifati pasayishi tarzida qilinish ehtimoli bo'ladi.

Monopolistik raqobatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, bunda baholar raqobati yo'qotiladi, chunki u doim xarajatlardan kattaroq bo'lgan baholar hisobiga qoplanib turadi. Butun bozorning ma'lum qismini egallash darajasini ko'rsatuvchi bu ko'rsatkich (fenomen) faqat alohida patentlar va fabrika markalari bilangina qo'llanmasdan, boshqa, ya'ni obro', ustalik, alohida mahorat kabi hodisalar bilan ham qo'llab-quvvatlanadi. Bu hodisalar erkin kasbga ega (rassom, musiqa) faoliyat sohasining bir qismi bo'lib, ular ham «monopol daromadlar nazariyasi» predmetidir.

Differenziatsiyalashgan mahsulot baho muammosi raqobatli talab va xarajat egri chiziqlari doirasiga kiritilishi mumkin emas, bu avvaldan xulosalardagi xatolarga olib keladi; baho haddan tashqari past, ishlab chiqarish masshtabi - juda katta, korxonalar soni - juda kichik bo'lib chiqadi. Bundan tashqari raqobatning yana ikkita jihati: differenziatsiya va sotish xarajatlari butunlay tushib qoladi. Shu sababli baholarni to'la bilmaslik mahsulotga talab elastikligi (qayishqoqlik)ni pasaytiradi, bu esa reklama talabning elastikligini oshirishi, baholar raqobatini esa ancha keng

qilishiga o'xshaydi va baholar yordamida talab etiladigan qo'shimcha xarajatlarni qoplaydi.

Raqobat kurashi tovar sifatini oshiradi (buni patent, mualliflik huquqlari, firma himoya belgilari, firma alohida qadoqlash usuli, mahsulot sifatini yaxshilash, firmaning qulay joylashuvi). Reklama esa, erkin raqobat sharoitidan farqli ravishda, bozorlar qo'shilib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

Baholanmagan raqobat omillari firmani xaridorlar talabini qondirish uchun yangi imkoniyatlar qidirishga undaydi, ularga «havasning pullik qoidalari» ni singdirib boradi.

Ishlab chiqarish va sotish xarajatlari konsepsiyasida xarajatlar fabrika doirasida tovarlarni ishlab chiqarishga ketgan sarflardangina (birinchi) iborat emas deb qaraladi. Transport (tashish), sortirovka (ajratish), saqlash, uylarga etkazish xarajatlari (ikkinchi) mavjud bo'lib, ular talablarni qondirish uchun yanada yaxshi qulayliklar yaratadi. Ikki xil ko'rinishdagi xarajat o'rtasida chegara o'tkazish (ishlab chiqarish xarajatlari, sotish xarajatlari) taklif va talab o'rtasidagi farq kabi qiymat nazariyasida fundamental ahamiyat kasb etadi. Sotish xarajatlari mazkur maxsulotga talabni oshiradi, ishlab chiqarish xarajatlari uning taklifini oshiradi.

«Klassik» va «neoklassik» lar sof raqobatni iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi sharti deb hisoblagan bo'lsa, E.Chemberlin ta'limotiga ko'ra, monopolistlar orasida ham raqobat doimo mavjud, bu baholi va baholanmagan raqobat rivoji orqali namoyon bo'ladi (mahsulot va reklama sifatini takomillashtirish bilan bog'liq). Birinchi marta iqtisodiy liberalizm g'oyasida real hayotda sof raqobat ham, sof monopoliya ham mavjud emas degan fikr paydo bo'ldi, o'z mohiyatiga ko'ra monopolistik raqobat ko'p sonli sotuvchilar o'rtasida kuzatiladi, bu raqobat darajasi bir-birini qoplaydigan raqobatlashayotgan tovarlar soni ortishi bilan kuchayib boradi.

Bundan shunday muhim xulosa chiqariladiki, monopolistik raqobat sharoitida xaridor raqobatlashayotgan bir tovarni boshqasidan, bir sotuvchini (mutlaq noekivalent bir xil tovarni) boshqa sotuvchidan afzal ko'rish mumkin. E.Chemberlin mantiqi bo'yicha, kichik yoki o'rtacha sotuvchi va ishlab chiqaruvchi ham monopolist bo'lishi va yirik korxonalar subyekti bilan bo'ladigan musobaqada hemalol ishtirok etishi mumkin. Chunki (markscha tanqidlarga qaramay) monopoliya kapital va ishlab chiqarish konsepsiyasi, kapital markazlashuvining zaruriy oqibati emasdir, bozor iqtisodiyotiga kuchayib borayotgan raqobat xosdir. Amalda monopoliya va monopol bo'lmagan (nomonopol) korxonalar o'rtasidagi

farq minimallashtiriladi.

Olim 1937-yil o'z kitobiga qo'shimcha sifatida (kitob 8 marta qayta nashr etilgan) «Nomukammal raqobat» va «Monopolistik raqobat» kategoriyalari to'g'risidagi tushuntirishlarda bir tomonlilik mavjudligini ta'kidlaydi, birdan-bir hodisaning ikki nomi sifatida qarashlarda o'zaro o'xshashlik yetarli baholanadi, ammo ularning farqi deyarli sezilmaydi, deb hisoblaydi u. Ko'pchilik bu farqning ahamiyatini tushunmasdan, masala faqat terminologiya bilan bog'liq deb o'ylashlari mumkin.

E.Chemberlin o'z tadqiqotlari xulosasida raqobat sharoitida monopoliyaga mustahkam ishonch bildiradi; tadbirkorlar ko'p hollarda o'z monopoliyasini barpo qilish uchun, imkoni boricha boshqa tadbirkorlardan o'z monopoliyasini kengaytirish va kuchaytirish harakatini qiladi. Olimning fikri bo'yicha, asosiy vazifa shundaki, iqtisodiyot fani «mahsulot doim differenziatsiyalashgan bo'lishi sharoitini to'la anglashi shart» dir, bundan buyon sof raqobatni barcha sohalarida farovonlik iqtisodiyoti «ideal» (bekamu-ko'st) deb qarash mumkin emas. Keyinchalik E.Chemberlin va uning monopolistik raqobat nazariyasi tarafdorlari tomonidan «guruhiy monopoliya» sharoitida ham raqobat saqlanishi to'g'risidagi qoida ilgari surilgan. Bunda gap sherik-raqobatchilar o'rtasida bozorda ularning ta'sir doiralari bo'lib olish to'g'risida boradi. Asosiy maqsad turlicha (differenziatsiyalashgan) tovar mahsuloti bahosini eng yuqori xarajatlar darajasidan past bo'lmagan holda realizatsiya qilishdir.

Hozirgi davrda mahsulotning sifati bilan birga, qo'shimcha baholanmagan monopolistik raqobat shartlari kuchayib bormoqda, bular alohida tovar yaratuvchi tomonidan yaratilgan texnik takomillashuv, firmaga obro'-e'tibor keltiradigan sharoitni ta'minlash, xaridorlarga maxsus xizmat ko'rsatish va boshqalar.

### 13.3. J.Robinsonning nomukammal raqobat nazariyasi

Joan Vayolet Robinson (1903-1983) Kembrij universitetini bitirgan va A.Marshall maktabining taniqli vakili va davomchisidir. 1965-1971- yillar shu universitetda professor lovozimida dars bergan. Uning dastlabki asari «Nomukammal raqobatning iqtisodiy nazariyasi» 1933-yili, ya'ni muallif 30 yoshligida yozilgan va unga mashhurlik keltirgan. Asardagi bosh g'oya monopoliyalari faoliyatida bozorlar jihatini aniqlashdir. Bu sharoitdagi raqobat iqtisodiyotdagi muvozanatni buzadi va nomukammaldir (Chemberlinda-monopolistik). Dastlabki vazifa: o'z mahsulotiga ega bo'lgan ishlab chiqaruvchi-monopolistik baholar belgilanishining mexanizmini aniqlash. Bahoning miqdori, sotuvchi o'rnatgan shu bahoda xaridorning mahsulotni sotib olish va monopoliya foyda tabiati o'rnatiladi. Ammo Robinson xonimning mantiqiy fikrlashi

Chemberlinnikidan farq qiladi. Robinson fikricha nomukammal raqobat tufayli, avvalo raqobatli xo'jalik tizimi normal muvozanat holatining butunlay buzulishi va yo'nalishi, hatto yollarni mehnatning «ekspluatatsiya» sidir. Chemberlin esa bu masalani bozorning tabiiy muvozanati bilan chambarchas bog'liqdir, deb qaragan.

Robinson monopoliyaga salbiy munosabat bildirib, uni bozor sharoitdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni izdan chiqaruvchi omil sifatida qaraydi.

Asardagi asosiy g'oyalar quyidagilardan iborat. Tadbirkorlar nomukammal raqobat sharoitiga nisbatan mukammal (sof) raqobat sharoitda ishlab chiqarishni monopollashtirishdan kamroq manfaatdor bo'ladilar. Chunki nomukammal raqobat sharoitida ayrim firmalar optimal ko'rsatgichlarga erisha olmaydilar, samarasiz (kam samara bilan) faoliyat ko'rsatadilar, shu sababli monopolist mahsulot chiqarishni cheklash bilan o'z mahsuloti narxini oshirish imkoniyatigagina ega bo'lmasdan, balki sohadagi ishlab chiqarishni tashkil etishni mukammallashtirish yo'li bilan ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishi mumkin.

Monopoliya ishlab chiqarish mahsulotining xuddi shunga o'xshash boshqa mahsulotdan sezilarli ajralib turishini talab etadi yoki boshqacha aytganda, differentsiatsiya ro'y beradi; boshqa qo'shimcha sharoit ham zarur, unga ko'ra firma -monopolist optimal hajmdan ortiqroq bo'lgan ko'rsatkichlar bilan xarakterlanishi kerak.

Nomukammal raqobatli monopolistik bozorda aniqlashni talab etuvchi bir qancha sharoitlar yuzaga keladi. Agar bozor bir-biri bilan raqobat qiluvchi cheksiz ko'p xaridorlardan emas, balki ayrim yakkayu-yagona xaridorlar birlashmasidan iborat bo'lgan holatda sotib olinadigan mahsulot qancha bo'lishi mumkin? Bu sharoit talab konsentratsiyasi bo'lib bozorda ko'p sonli mayda sotuvchilar va yakkayu-yagona xaridor faoliyat ko'rsatadi. Bu holatni *monopsoniya*, ya'ni *xaridor monopoliyasi* deyiladi.

Yuqorida barcha g'oyalar jamlanib, real hayotda nomukammal raqobat sharoitida ishlab chiqarish omillari ekspluatatsiyasi tendensiyasi paydo bo'lishiga yordam beradi, bu holat avval o'zaro raqobatlashgan ko'pgina firmalarni yutib yuboruvchi yirik birlashmanig paydo bo'lishi bilan yanada kuchayadi. Boshqaruv birligi hajmi (ko'rsatkichi) ning yiriklashuvi (yakka boshqaruv) boylikni taqsimlashdagi adolatsizlikni yanada kuchayishini zaruriy ravishda keltirib chiqaradi. Bu ancha inqilobiy g'oya bo'lib, Chemberlinning monopoliya istiqboli to'g'risidagi optimistik fikriga qarshidir. Ishlab chiqarishning monopolizatsiyasi muammosi bilan «samaradorlik yoki adolat» degan dilemmani (ya'ni unisi yoki bunisi) yyechish zarurati ilgari suriladi.

Monopolizatsiyaga u ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi, deb ustunvorlik berish yyetarli emas, ya'ni adolat masalasi ham qo'yilishi kerak. Iqtisodiyot tarixida «samaradorlik» va «adolat» ni qandaydir yo'l bilan ajratishga intilish katta xomxayollikdir.

Robinson o'zining tadqiqotlari natijasida hayotiy chora-tadbirlarni ham ishlab chiqsa bo'lar edi masalan, nomukammal raqobat tufayli aniqlangan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish uchun davlatning iqtisodiyotga aralashuvi nimalardan iborat bo'lmog'i kerak edi. Bunday savolga javobni uch yil o'tgach boshqa kembrij maktabi vakili J.M.Keyns berdi.

### Qisqa xulosalar

XX asrning boshida AQSH iqtisodchi-olimlari iqtisodiyotda kuchayib borayotgan monopolistik tendensiyalarni tahlil qilgach va o'z mamlakatining «antitrest» siyosatiga ta'sir ko'rsatgach, iqtisodiyot ustidan sotsial nazorat qilish konsepsiyasiga asos soldi. Ularning nazariyasi hozirgi kunda iqtisodiy fanda sotsial institutsional yoki oddiy qilib aytganda institutsionalizm deb ataluvchi yangi yo'nalishni boshlab berdi

Institutsionalizm – bu ma'lum ma'noda iqtisodiy nazariyadagi yangi klassik yo'nalishga muqobildir. Institutsionalizmning vatani AQSH, uning asoschisi Torsteyn Veblen hisoblanadi. T.Veblenning fikriga ko'ra, alohida subyektlarning hatti - harakatini emas, balki kasaba uyushmalarining, siyosiy partiyalarning ish harakatini o'rganish kerak. Iqtisodiy nazariya bilan iqtisodiy subyektlarning asosiy unsurlari (yer egalari, ishchilar, kapitalistlar va injener - texnik ishchilar) o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

XX asrning boshlarida erkin raqobatga asoslangan iqtisodiyotni monopoliyaga aylantirish jarayoni Yevropa qit'asida ham sezilarli darajada tezlashdi, bu yerda iqtisodiy liberalizm g'oyalari, erkin savdo va bozorlarning to'liq erkinligi va davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi to'g'risidagi boshqa qoidalar, AQSHda bo'lgani kabi, real hayot talablariga javob bermay qo'ygan edi.

Nomukammal raqobat, institutsionalistlar, ulardan keyin neoklassiklarning tadqiqot ob'ektiga aylandi. Bundan tashqari, keyinchalik ma'lum bo'lganidek, neoklassik iqtisodiy fikr vakillari bilan bir vaqtda nomukammal bozor muammolari Garvard universiteti professori E.Chemberlin va Kembrij universiteti professori J.Robinson xonim tomonidan o'z asarlarida ko'rib chiqilgan. Ularning nazariyalari, shubhasiz, XX asr iqtisodchilari uchun muhim muvaffaqiyat edi.

E.X.Chemberlin o'z asarida monopoliyaning mohiyati, monopol baho va monopol foydaning yuzaga kelishining chuqur tahlilini beradi.

Uning fikricha, monopoliyaning mohiyati - bu ham taklif, ham narx ustidan nazoratning mavjud bo'lishidir. Differensiatsiya kuchayib borgan sari har bir sotuvchi absolyut (mutloq) monopoliyaga ega bo'ladi, ammo shu bilan birga, o'rnini bosa oladigan boshqa mahsulot ishlab chiqaruvchining nomukammal raqobatiga uchraydi. Shundan kelib chiqib, barcha sotuvchilar «raqobatchi monopolistlar» bo'lib, «monopolistik raqobat» kuchlari ta'siri sharoitida ish yuritadilar.

Robinson fikricha nomukammal raqobat tufayli, avvalo raqobatli xo'jalik tizimi normal muvozanat holatining butunlay buzulishi va yo'nalishi, hatto yollanma mehnatning «ekspluatatsiya» sidir. Robinson monopoliyaga salbiy munosabat bildirib, uni bozor sharoitdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni izdan chiqaruvchi omil sifatida qaraydi.

### **Asosiy tushuncha va iboralar**

Institutsionalizm; likvidli aktivlar; barqaror pul siyosati, yirik korporasiyalar; «bekorchi sinf»; «texnostruktura»; «konvergensiya»; «yangi industrial jamiyat». Nomukammal raqobat; monopoliya; mahsulot differensiatsiyasi; tovarning individual xususiyatlari; tovar sifati va reklama; quvvatlar ortiqchaligi fenomeni; monopoliyaga munosabat; monopsoniya, xaridor monopoliyasi; «samaradorlik yoki adolat».

### **Nazorat uchun savollar**

1. Institutsionalizmning asosiy xususiyatlari va evolyutsiyasi.
2. Institutlar deganda nimalar ko'zda tutiladi?
3. «Veblen effekti» nimani anglatadi?
4. J.Kommonsning asosiy iqtisodiy g'oyalari nimalardan iborat?
5. Kon'yunktur - statistik oqimning mohiyati, U.Mitchell g'oyalarning asosi nimani anglatadi?
6. J.K.Gelbreytning «Yangi industrial jamiyat konsepsiyasi» mohiyati.
7. Texnostruktura nima?
8. Yan Tinbergenning konvergensiya konsepsiyasining mohiyati.



## XIV. BOB. JON MEYNARD KEYNS TA'LIMOTI: KEYNSCHILIK VA NEOKEYNSCHILIK

### 14.1. Keynes iqtisodiy ta'limotining asosiy g'oyalari

Buyuk Depressiya (inglizcha Great Depression) — dunyo iqtisodiy inqirozi, 1929-yili AQSHda birja buhronlaridan boshlanib, 1939-yilgacha davom etgan. Eng tahlikali holat 1929-1933-yillarda kuzatilgan. 1930-yillar umumiy ma'noda Buyuk Depressiya davri hisoblanadi.

«Buyuk depressiyasi» o'zining juda katta salbiy oqibatlari va dunyo iqtisodiyotiga ko'rsatgan ijtimoiy-iqtisodiy zararining ko'lamdorligi bilan ajralib turadigan inqirozlardan biri bo'lib hisoblanadi. Inqiroz iqtisodiy faollikning keskin pasayganligi, asosiy jahon valyutalarining oltin standartidan voz kechganligi, ishsizlar sonining keskin oshganligi va o'zining iqtisodiyotga ko'rsatgan zarari, iste'mol hajmining pasayib ketganligi bilan tarixda chuqur iz qoldirgan.

Buyuk Depressiya AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va boshqa davlatlar iqtisodini tang ahvolga keltirgan. Asosan sanoatga ixtisoslashgan shaharlar eng ko'p zarar ko'rgan, ko'p davlatlarda qurilishlar butkul to'xtagan.

Jon Meynard Keynes (1883-1946) birinchi jahon urushi davrida va urushdan keyingi yillarda pul muomalasi muammosiga alohida e'tiborni qarati va oltin standartni tartiblanadigan valyuta bilan almashtirish g'oyasini ilgari surdi. Bunday tadbirning amalga oshirilishi davlatning makroiqtisodiy jarayonga ta'sir ko'rsatish dastagiga ega bo'lish imkonini bo'lgan. U shunday yozadi: «Ulyanov Lenin kapitalistik tizimni yo'qotishning eng yaxshi usuli – bu inflyasiya vositasida uning valyutasini obro'sizlantirish va kuchsizlantirish deb tasdiqlagan edi. Lenin mutlaq haq bo'lgan. Amal qilib turgan jamiyatni to'ntarishning bundan nozik va to'g'ri usuli yo'q».

Ingliz iqtisodchisi inflyasiyaning «inflyasiya solig'i» (pul qadrsizlanganda uning egasi o'z jamg'arماسi qiymatining bir qismini ko'rsatib berdi. Jamg'arماسi kamayishi kabi salbiy oqibatlarini ajratib investisiyaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada «kapitalning kemirilishi» sodir bo'ladi. Surunkali inflyasiya sharoitida ishlab chiqarish faoliyati bilan, ayniqsa uzoq muddatli investisiya loyihalari bilan shug'ullanish, oddiy qilib aytganda, befoyda: pul juda sekin aylanadi va o'zining sotib olish qobiliyatini yo'qotadi. Shuning uchun chayqovchilik faol tadbirkorlik


faoliyati sohasiga aylanadi. U turli bozorlarda baholar o'rtasidagi farq hisobiga foydani ko'paytirishga imkon beradi.

Sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarni larzaga solgan 1929–1933-yillardagi buyuk turg'unlik davri iqtisodiy fanning rivojlanishida katta rol o'ynadi.

Buyuk turg'unlik nafaqat erkin raqobatga va davlatning passiv roliga asoslangan eski iqtisodiy tizimni halokatga olib keldi, balki yangi klassik makroiqtisodiy nazariyani ham inqirozga uchratdi. Sodir bo'layotgan voqealar o'sha davrda ko'pchilik iqtisodchilar ishongan narsalarga zid bo'lib chiqdi. Bozor iqtisodiyoti yangi sharoitga jiddiy o'zgarishlar qilish hisobiga moslasha oldi. Xuddi shunday qayta, keskin o'zgarishlar iqtisodiy fanda ham yuz berdi. Bunday qayta o'zgarish **«keynscha inqilob»** nomi bilan ataladi. Uning asosiy mohiyati – bozor xo'jaligida iqtisodiyotni davlat tartiblashidir. J.M.Keyns va uning izdoshlari tavsiya etgan davlatning iqtisodiyotga aralashuvi chora-tadbirlari iqtisodiyotda alohida yo'nalish sifatida – keynschilik deb ataladi.

Jon Meynard Keynsning 1936-yili chop etilgan **«Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi»** asari iqtisodiyotni makro darajada tahlil qilishda inqilobiy to'ntarish yasadi. J.M.Keynsning bu asarini tadqiqotchilar A.Smitning «Xalqlar boyligi...», K.Marksning «Kapital» asarlari bilan bir qatorga qo'yadilar. U XX asrdagi eng atoqli iqtisodiy asarlardan biridir.

J.M.Keynsgacha bo'lgan iqtisodiy nazariyada xo'jalik jarayonlarini tahlil qilishning mikroiktisodiy yondashuvi hukmronlik qilib kelgan. Firmalarning samarali amal qilishiga bir butun iqtisodiyotning samarali amal qilishi bilan deyarli bir narsa deb qaralgan. Xo'jalik faoliyatini milliy iqtisodiyot darajasida tahlil qilish faqat pul massasi va bahoning umumiy darajasining o'zaro aloqasi muammosigagina kelib taqalgan, xolos. Buning ustiga e'tibor faqat uzoq muddatli jihatlarga qaratilgan. J.M.Keyns birinchi bo'lib makroiqtisodiy uslubni qo'lladi, ya'ni xalq xo'jaligi yalpi miqdorlari (ijtimoiy mahsulot, ya'ni jang'arma, jami investisiya, jami iste'mol xarajatlari va b.) o'rtasidagi bog'liqlik va nisbatlarni tadqiqot qildi. Makroiqtisodiy uslub ayrim firmalarning rivojlanish sharoitlari bir butun iqtisodiyotning rivojlanish sharoitlari bilan mos tushmasligini taqozo etadi.



#### 14.1. Rasm Keyns ta'limotidagi novatorlik

O'rganish predmeti va uslubiy jihatdan J.M.Keyns iqtisodiy ta'limotidagi novatorlik, birinchidan, ana shu mikroiqtisodiy yondashuvdan ko'ra makroiqtisodiy tahlilga ustunlik berishida,

Aynan iste'mol buyumlariga va ishlab chiqarish resurslariga bo'lgan talabning kamligi bahoning pasayishini va taklifning qisqarishini keltirib chiqaradi. bu esa ish joylarining kamayishiga olib keladi. Yalpi talabning yalpi taklifdan orqada qolib ketishi – bu kapitalistik jamiyatning surunkali kasalligidir.

ikkinchidan, «psixologik qonunga» asoslangan holda «samarali talab» atalmish (talabning davlat tomonidan rag'batlantirilishi) konsepsiyasini asoslab berishida o'z aksini topadi.

Yalpi talab harakati va ijtimoiy mahsulot miqdorining o'zgarishi keynschilik tadqiqotining markaziy obyektini tashkil etadi. J.M.Keyns o'z tahlilining boshlang'ich nuqtasi qilib ish bilan bandlik muammosini tanladi. Chunki ishsizlik o'sha paytda nihoyatda ko'paygan edi. U yuqori rivojlangan bozor iqtisodiyotida hayotiy zarur muammolar (shu jumladan ish bilan bandlik muammosi) **yechimini taklifdan emas, balki talabdan qidirish kerak** degan xulosaga keldi.

Agar yalpi talab kamaysa, unda u ishlab chiqarishning pasayishiga va mehnatga bo'lgan talabning qisqarishiga olib keladi. Buning natijasida majburiy ishsizlik vujudga keladi. Nega talab taklifdan orqada qolib ketadi, jami xarajatlar va jami daromadlarning doimiy muvofiqligini ta'minlovchi Sey qonuni amal qilmaydimi?

*J.M.Keyns modelida jang'arma va investisiya, yangi klassiklar tasdiqlaganidek, foiz stavkasining o'zgarishi tufayli emas, balki, eng avvalo, milliy daromadning tebranishi tufayli tenglashadi.* Jang'arma foiz stavkasiga qaraganda ijtimoiy mahsulot miqdoriga ko'proq bog'liq. Investisiya esa milliy daromaddan avtonom tarzda bo'ladi. Shuning uchun jang'arma va investisiyalarning tengligi ishlab chiqarish resurslaridan

to'liq foydalanishni va to'la ish bilan bandlikni ta'minlashi shart emas. J.M.Keyns buning ustiga *bozor tizimining eng zaif bo'g'inini* ko'rsatib berdi: investor iqtisodiyotda kelajakda bo'ladigan vaziyatni mo'ljallab qaror qabul qiladi, jamg'aruvchi qo'lga kiritilgan daromad darajasidan kelib chiqqan holda, ya'ni iqtisodiyotning avvalgi holatiga qarab ish yuritadi. Shu boisdan jamg'arma va investisiyalarning bir-biriga mos tushmasligi amal qiladi.

J.M.Keyns fikriga ko'ra, inqiroz paytida davlat yalpi talabni pul-kredit va byudjet siyosati vositasi yordamida tartiblab turishi kerak. J.M.Keyns, eng avvalo, xususiy investisiyalarni rag'batlantirishga asosiy e'tiborni qaratdi. Yalpi talabni rag'batlantirish vositasiga u:

- real ish haqining o'sishini to'xtatishni (bu investisiyaga sarflanadigan foydani ko'paytiradi),
- suda foizi darajasini pasaytirishni (foiz qancha past bo'lsa, investisiya shuncha ko'p bo'ladi),
- eksportni ko'paytirishni,
- davlat xarajatlarning o'sishini (shu jumladan noishlab chiqarish uchun ham) kiritdi.
- «Piramidalar qurilishi, yer qimirlashi, hatto urushlar boylikni ko'paytirishga xizmat qilishi mumkin», - deb yozadi J.M.Keyns.

Shu bilan birga u odamlarning iste'molga bo'lgan moyilligiga ham katta e'tibor beradi. Yalpi talabni rag'batlantiruvchi vositalardan biri kambag'allar (jamg'armaydiganlar) uchun soliqni kamaytirish, beylar uchun esa soliq stavkasini oshirish (bu jamg'armani kamaytiradi) hisoblanadi. Shu bilan birga u o'zining o'sha davrdagi «inqilobiy» metodologik tadqiqotiga asoslangan holda o'tmishdoshlaridan farqli o'laroq va hukmronlik qilib turgan iqtisodiy nuqtai nazarlarga qarshi *ishsizlikni kamaytirishning asosiy sharti sifatida davlat yordamida ish haqini pasaytirishga yo'l qo'ymaslikning zarurligini*, shuningdek insonning jamg'armaga bo'lgan moyilligi tufayli iste'mol daromadlardan ancha sekin o'sishini tasdiqlab berdi.

**Samarali talab.** J.M.Keyns «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» asarida o'z tadqiqotlarini klassiklar nazariyasini, jumladan Sey qonunini tanqid qilishdan va samarali talab nazariyasini isbotlab berishdan boshladi. Sey qonuni klassiklar o'rtasida to'g'ri deb e'tirof etilgan va unga amal qilib kelingan. Bu qonunga ko'ra taklif avtomatik tarzda o'z talabini yuzaga keltiradi. J.M.Keyns esa unga qarshi yalpi talab o'z taklifini yuzaga keltirish g'oyasini ilgari suradi va o'zining samarali talab nazariyasini ishlab chiqadi.

Samarali talab nazariyasiga muvofiq muayyan miqdordagi mahsulot

(yoki mehnat) taklifining bahosi shuni bildiradiki, u tadbirkorni ushbu mahsulot (yoki mehnat) miqdorini taklif qilishga rag'batlantirish uchun yetarli hisoblanadi. Yalpi talab bahosi va mahsulot (yoki mehnat) hajmi o'rtasidagi nisbat yalpi talab funksiyasini bildiradi. Ma'lumki, tadbirkor muayyan miqdordagi mahsulotni sotgandan keyin daromad olishi mumkin. Kutilayotgan daromad va mahsulot (yoki mehnat) hajmi o'rtasidagi nisbat yalpi taklif funksiyasini bildiradi. Agar muayyan miqdorda ishlab chiqarilgan mahsulot uchun ko'zda tutilgan daromad yalpi talab bahosidan oshiq kelsa, unda tadbirkorlar yanada yuqori foyda olish maqsadida mahsulot miqdorini (va ish bilan bandlikni) orttiradilar va agar kutilayotgan daromad taklif bahosidan past bo'lsa, u holda tadbirkorlar mahsulot miqdorini (va ish bilan bandlikni) kamaytiradilar. Faqat ko'zda tutilayotgan daromad va taklif bahosi o'rtasida tenglik bo'lgan sharoitdagina optimal holat yuzaga keladi. Shuning uchun tadbirkorlar mahsulot ishlab chiqarishni ushbu darajada ushlab turishga intiladilar. Demak, tadbirkorlar uchun qulay bo'lgan ishlab chiqarish darajasi yalpi talab funksiyasi bilan yalpi taklif funksiyasi kesishgan nuqta bilan belgilanadi, ushbu nuqtadagi yalpi talab funksiyasining qiymati samarali talabni bildiradi.

J.M.Keyns ta'limoti bo'yicha, ishlab chiqarish va ish bilan bandlik «samarali talab» o'zgarishi (dinamikasi) bilan aniqlanadi, u iste'mol xarajatlari va investisiyalarni o'z ichiga oladi, ya'ni milliy daromad miqdori yalpi xarajatlar miqdori bilan ifodalanadi:

$$Y=C+I$$

Bu yerda: Y - milliy daromad; C - iste'mol xarajatlari; I - yalpi investisiyalar.

Bunda J.M.Keyns foydalanilmagan resurslar mavjud bo'lgan sharoitda baholar o'zgaruvchan emas, deb mushohada qiladi. Xususan, mehnat bahosi o'zgarmas deb qaraladi - nominal ish haqi kasaba uyushmasi va boshqa ijtimoiy omillar sababli pasayishi mumkin emas. Shu bilan birga muallif bu yerda ishlab chiqarish resurslaridan unumli foydalanish imkoniyatlari ochib berilganligi to'g'risida qayd qilib o'tadi.

**Insonning psixologik moyilligi.** J.M.Keyns ochib bergan *psixologik qonun* ko'ra, *inson daromadlari oshib borishi bilan iste'mol va jamg'armani ko'paytirib borishga moyildir.* Shuning uchun, iste'mol va jamg'armaning milliy daromadga bog'liqligi, ularning nisbati muhim ahamiyat kasb etadi.

J.M.Keyns tomonidan kashf qilingan asosiy psixologik qonun uning iste'mol funksiyasini tadqiq qilishda yo'naltiruvchi omil bo'ladi.

Bu hol shu narsani bildiradiki, agar daromad o'zgarsa iste'mol ham shu yo'nalishda o'zgaradi, lekin iste'mol o'zgarishi daromad o'zgarishi darajasidan past bo'ladi. J.M.Keyns iste'mol o'zgarishi bilan daromad o'zgarishi o'rtasidagi nisbatni *iste'molga bo'lgan me'yorli moyillik* deb atadi

Yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, J.M.Keyns o'z nazariyasida iste'molga bo'lgan moyillik tushunchasi bilan birga jamg'armaga bo'lgan moyillik tushunchasini ham ilgari surdi. *Jamg'armaga bo'lgan moyillik* – bu jamg'armaning miqdori o'zgarishi bilan uni o'zgartirgan daromad o'zgarishi o'rtasidagi nisbatdir.

«Asosiy psixologik qonun, - deb yozadi J.M.Keyns, - shundan iboratki. kishilar, odatda, daromadlari ortib borishi bilan o'z iste'molini ko'paytirishga moyildirlar. lekin bunda iste'mol daromad ortgan darajada oshmaydi».

Bu yerda shu narsani qayd qilib o'tish kerakki, *agar umumiy daromad oshsa, unda kishilar ushbu oshgan daromadning bir qismini iste'molga sarflasalar, ikkinchi qismini jamg'aradilar.*

Shuning uchun jamg'arma va iste'mol o'zgarishlari yig'indisi daromad o'zgarishiga teng bo'ladi. M.Keyns nazariyasiga muvofiq, daromadning bir qismini jamg'arishga bo'lgan insonning psixologik moyilligi kapital qo'yilmasini kamaytirishi sababli daromad o'sishini sekinlashtiradi. *Insonning iste'molga bo'lgan me'yorli moyilligiga kelsak, J.M.Keyns fikri bo'yicha, u doimiy hisoblanadi va shuning uchun investisiyalarning ko'payishi va daromadlar darajasi o'rtasida barqaror nisbatni keltirib chiqarishi mumkin.*

Bu aytilganlar shu narsadan dalolat beradiki, J.M.Keynsning tadqiqot metodologiyasida noiqtisodiy omillar - davlat (ishlab chiqarish vositalariga va yangi investisiyalarga bo'lgan iste'mol talabni rag'batlantiruvchi sifatida) va odamlarning psixologiyasi (xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro munosabatlarini oldindan belgilab beruvchi sifatida) ham iqtisodiy o'sishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Multiplikator.** J.M.Keyns investisiyalarning ko'payishi bilan milliy daromadning ko'payishi o'rtasidagi bog'liqlikni taxlil qildi. Uning ko'rsatib berishicha, investisiyalarning ko'payishi milliy daromadning o'sishiga olib keladi va u quyidagi formula ko'rinishida ifodalanadi:

$$\Delta Y = \Delta I$$

Bu yerda  $\Delta Y$  - milliy daromadning o'sishi,  $\Delta I$  - investisiyalarning o'sishi tufayli yuzaga kelgan.

Investisiyalarning ko'payishi va uning natijasida milliy daromad va

aholining ish bilan bandligining o'sishi maqsadga muvofiq iqtisodiy samara sifatida ko'riladi. Ana shu iqtisodiy samara iqtisodiy adabiyotlarda **multiplikator samarasi** deb ataladi. **Multiplikator** – bu son koeffitsenti bo'lib, daromad o'sishi bilan, ushbu o'sishni yuzaga keltirgan investisiyalar o'sishi o'rtasidagi nisbatni ifodalab beradi. Multiplikator atamasini birinchi marta ingliz iqtisodchisi R.Kan 1931 yili ishlatgan. R.Kan ish bilan bandlik sohasidagi multiplikator samarasi to'g'risida so'z yuritadi. Uning ko'rsatib berishicha, davlat tomonidan ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qilish ish bilan ta'minlangan kishilarni xarajatlarining ko'payishiga olib keladi va o'z navbatida xarajatlarning o'sishi endi xususiy sektorlarda ish joylarining barpo etilishini rag'batlantiradi. Shunday qilib, dastlabki ish joylariga nisbatan ko'proq ish bilan bandlik yuzaga keladi.

R.Kanning «ish bilan bandlik multiplikatoridan» J.M.Keynsning «Investisiyalar multiplikatori» farq qilgan holda, u «qachonki investisiyalarning umumiy summasi o'ssa, unda daromad summasining ko'payishi va uning investisiyalar o'simidan K marta ortiq bo'lishini ifodalab beradi». J.M.Keynsning ta'kidlashicha, bunday holatning sababi «psixologik qonunday» kelib chiqadi, unga ko'ra «real daromadning o'sib borishi bilan jamiyat uning doimo kamayib boruvchi qismini iste'mol qilishni xohlaydi».

J.M.Keyns nazariyasiga ko'ra, multiplikator jamg'arishga bo'lgan me'yori moyillikka teskari kattalikdir yoki 1 soni bilan iste'molga bo'lgan me'yori moyillik o'rtasidagi farqqa teskari kattalikdir, ya'ni:

$$M = \frac{1}{MPS} \text{ yoki } M = \frac{1}{1-MPC}$$

**Multiplikator samarasi**, yuqorida qayd qilib o'tganimizdek investisiyalarning ko'payishi daromadning ortishiga olib kelishini ko'rsatadi. Bu ortgan daromad (jamg'armani chiqarib tashlagandan keyin) yalpi talabning bir qismiga aylanadi. Daromadlarning multiplikasiyalashuvi jarayoni to'xtamaguncha shunday davom etib boraveradi. Xiks-Xansen modeliga muvofiq (ishlab chiqarishning birdan-bir o'zgaruvchan omili mehnat hisoblanadi) kishilarning jamg'armaga bo'lgan moyilligi qancha ko'p (shunga muvofiq MRS miqdori kam) bo'lsa, multiplikatorning ahamiyati shuncha kam bo'ladi.

To'la ish bilan bandlik sharoitida multiplikator amal qilmaydi, negaki bo'sh turgan resurslarning bo'lmaganligi sababli ishlab chiqarishni ortiqcha kengaytirib bo'lmaydi. Real ijtimoiy mahsulot ko'paymagan holda resurslarni faqat tarmoqlararo qayta taqsimlash yuzaga keladi. Multiplikasiyalashgan iste'molning kengayishi baholarning o'sishida

ifodalanadi.

Aynan multiplikator samarasining amal qilishi orqali jamg'arma va investisiyalarning tenglashuvi yuzaga keladi. Agar investisiyalar jamg'armadan kam bo'lsa, unda samarali talab milliy daromad hajmini kamaytiradi, bu esa o'z navbatida jamg'arma miqdorining pasayganini bildiradi. Aksincha, investisiyalar jamg'armadan ortiqcha bo'lsa, milliy daromadning o'sishiga va jamg'armaning ko'payishiga olib keladi.

### Likvidlik ustunligi nazariyasi

Investisiyaning asosiy omili sifatidagi foizni tahlil qilish J.M. Keynsni pul bozorini ko'rib chiqishga olib keldi. Yangi klassiklardan farqli ravishda, J.M.Keynsning aytishicha, foiz jamg'arma va investisiyalar bozorida emas, balki pul bozorida o'tatiladi. U «likvidlik ustunligi» (odam o'zida naqd pul bo'lishini xohlash) tushunchasini kiritdi. Agar yangi klassiklarda pul zahirasini jamg'arish noratsional hisoblansa, J.M.Keyns bo'yicha esa bunday jamg'arma bo'lajak xo'jalik vaziyatini prognozlashtirib bo'lmasligi, xo'jalik xatari mavjudligining muqarrar

Multiplikator samarasining mohiyati haqiqatan ham oddiy: davlat tomonidan tartibga solish natijasida (to'g'ridan-to'g'ri - investitsiya yoki bilvosita - soliq siyosati orqali) iste'molchilar talabi o'sib boradi, natijada tovarlar va xizmatlarga yangi talab ko'payadi, natijada bu milliy daromadning o'sishiga olib keladi; o'z navbatida, milliy daromadning o'sishi rag'batlantiruvchi investitsiyalarning ko'payishiga olib keladi, bu esa tadbirkorlik faoliyatini jonlantiradi va ishlab chiqarishning jadal (tezlashtirilgan-akseleratsiya) o'sishiga yordam beradi.

natijasidir. O'z ishlarining yurushib ketishidan xavotirlanish, kelajakka ishonmaslik kishilarni naqd pul saqlashga undaydi. Bundan tashqari, yuqori likvidlik moliyaviy aktivlar moliya bozoridagi «o'yinda» muayyan ustunlik berishi mumkin: qimmatli qog'ozlarning kursi pasayganda ularni

tezda sotib olish uchun naqd pullar asqotadi.

Kishilarning o'z uylarida naqd pul zahiralari ushlab turishi, J.M.Keyns bo'yicha, quyidagi sabab (motiv)larga bog'liq:

харин қилиш  
зарурлиги  
(трансакцион мотив)

купилмаган ваъна  
учун (эҳпіёт  
шартдан)

олиб сотарлик  
сабаби

### 14.2. Rasm. Kishilarning o'z uylarida naqd pul zahiralari ushlab turishi motivlari



Birinchi ikkita sababni pulning miqdoriy nazariyasining kembridj varianti tarafdorlari ko'rsatib o'tgan. Olib sotarlik sababi bozor foiz normasining tebranib turishi bilan bog'liq.

Bozorda faqat ikkita moliyaviy aktiv ishtirok etadi, deb faraz qilaylik. Ularning biri naqd pullar, ikkinchisi, obligatsiyalar bo'lib, ulardan

J.M.Keyns fikriga ko'ra, iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartiblanishining samaradorligi davlat investitsiyalari yordamida vositalarni qidirishga, aholining to'la ish bilan bandligiga erishishga, foiz normasini pasaytirish va belgilashga bog'liq.

keladigan daromad ularning nominal qiymatiga nisbatan olingan. Bunday obligatsiyalar bo'yicha olinadigan daromadlarni ularning bozor qiymatiga bo'lgan

nisbati foiz stavkasini belgilaydi. Buning ustiga obligatsiyalar kursining va foiz stavkasining o'zgarishi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud: obligatsiyalar qancha qimmat bo'lsa, foiz shuncha past bo'ladi va aksincha. Endi foiz stavkasi normal darajadan pastga tushdi, deb faraz qilamiz. Bunday sharoitda odamlar uning ko'tarilishini kutadilar, negaki u obligatsiyalar kursiga salbiy ta'sir etadi (ularning qiymati foiz stavkasi oshganda pasayadi). Shuning uchun bunday vaziyatda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z jamg'armalarini pul shaklida saqlashni afzal ko'radilar (mablag'larni arzonlashib boruvchi qimmatli qog'ozlarga qo'yish befoyda). Aksincha, foiz stavkasi yuqori bo'lganda obligatsiyalarga bo'lgan talab o'shadi, negaki kishilar ularni kursi oshishiga o'ynashni xohlaydilar. Natijada naqd obligatsiyaga bo'lgan talab pasayadi.

Eundan «likvidlik ustunligi» tushunchasi yoki zamonaviy iqtisodiy fan tili bilan aytganda pulga bo'lgan talab o'z-o'zidan kelib chiqadi. Likvidlikka bo'lgan talab bilan foiz stavkasi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud: foiz stavkasi qancha yuqori bo'lsa, odamlarda o'z aktivlarini naqd shaklida saqlashga bo'lgan xohish shuncha kam bo'ladi va aksincha.

Shunday qilib, pulga bo'lgan yalpi talab ikki qismdan tashkil topadi: a) oldi-sotdi (sdelka) uchun talab (milliy daromad darajasidan kelib chiqadigan funksiya), b) chayqovchilik uchun talab (foiz stavka funksiyasi):

$D=f(r, R)$   
Ehtiyotkorlik ham likvidlik ustunligini keltirib chiqaruvchi sabablardan biri hisoblanadi, Qimmatli qog'ozlar - jamg'arma to'plashning xatarli shaklidir. Shuning uchun odamlarga aktivlari daxlsiz hisoblangan naqd ko'rinishdagi o'ziga xos sug'urta fondi zarur.

### **Iqtisodiyotni boshqarishda davlat aralashuvining zarurligi**

J.M.Keyns ta'limotidagi asosiy yutuqlardan biri shundan iboratki, unda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solib turishning zarurligi ko'rsatib berildi. Bu yerda shu narsani aytib o'tish joizki, J.M.Keynsdan oldingi iqtisodchilar (D.Rikardo, A.Pigu, K.Viksell) ham bu borada nazariya yaratganlar. Ammo J.M.Keyns nazariyasi uning o'tmishdoshlari va zamondoshlari nazariyalaridan shu bilan farq qiladiki, u ishsizlik va ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlari tasodifiy, o'z-o'zidan yuzaga keladigan hodisalar emas, balki kapitalistik bozor mexanizmi harakati tug'diradigan hodisalar ekanligini isbotlagani holda, birinchi marta iqtisodiyotni davlat tomonidan muntazam, uzluksiz ravishda tartibga solib turish zarurligini e'lon qildi. J.M.Keyns nazariyasining asosiy xususiyati shundan iboratki, u birinchi bo'lib davlat makroiqtisodiyotni tartiblashi foydasiga asosiy dalillarni bayon qilib berdi, bunda u hukmron bo'lgan tartiblashning mikroiqtsodiy yondashuvini rad etdi. Firmaning (mikroiqtisod) rivojlanishi sharoiti bir butun milliy iqtisodiyotning (makroiqtisodiy) rivojlanish sharoitini belgilab berolmasligini ko'rsatib berdi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblashning keynscha nazariyasi uch asosiy holatni o'z ichiga oladi:



### ***14.3.Rasm. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblashning keynscha nazariyasi***

J.M.Keyns klassiklarning iqtisodiyotning o'zini-o'zi tartiblash mexanizmini tanqid qilib, bozor iqtisodiyotida bunday mexanizm amal qilmasligini, iqtisodiyotni davlat yordamida tartiblash mumkinligini ko'rsatib, "davlat iste'molga bo'lgan moyillikka o'zining rahbarlik ta'sirini qisman muvofiq ravishdagi soliq tizimi, qisman foiz normasini belgilash

yo'li bilan va ehtimol, boshqa usullar bilan o'tkazishi lozim bo'ladi", deb yozadi.

Uning ta'kidlashicha, davlat investisiyalari ular yetishmay qolgan sharoitda qo'shimcha pul chiqarish bilan kafolatlanishi (byudjet kamomadidan qo'rqmagan holda) kerak, kamomad esa ish bilan bandlikning o'sishi va foiz normasining pasayishi bilan bartaraf etiladi. Boshqacha aytganda, J.M.Keyns konsepsiyasi bo'yicha, suda foizi qancha past bo'lsa, investisiyalarga bo'lgan qiziqish shuncha yuqori bo'ladi, bu o'z navbatida ish bilan bandlikni oshiradi, ishsizlikni tugatishga olib keladi.

#### 14.2. Keynschilik va neokeynschilik

O'z rivojlanishida J. Keyns nazariyasi bir necha bosqichlarni bosib o'tdi va urushdan keyingi yillarda u mashhurlikka erishdi va 1950 yil - 60-yillar bozor iqtisodiyotining dolzarb muammolarini davlat yordamida hal qilish mumkinligiga ishonch oxir-oqibat qaror topdi. Shu sababli, rivojlangan mamlakatlarda davlat tomonidan tartibga solish ko'lami kengayib, urushdan keyingi 70-yillarning boshigacha bo'lgan barcha davrlar tarixga "Keyns davr" nomi bilan kirdi. Ammo makroiqtisodiy siyosatning Keynscha konsepsiyasi nafaqat davlatning katta byudjet xarajatlariga asoslangan, balki uchta muhim jihatni ham hisobga olgan. Ulardan *birinchisi* har doim oqilona byudjet siyosatining asosiy mezonini hisoblangan qat'iy muvozanatli davlat byudjetiga rioya qilmaslikdir. *Ikkinchisi* - pul emissiyasi va davlat sudalari orqali davlat xarajatlarini deficit bilan moliyalashtirish nazariyasini ishlab chiqish. Va nihoyat, *uchinchisi* - bu in'flyatsiyasiz pul tizimini emas, balki birinchi navbatda byudjet siyosatini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida pul-kredit orqali tartibga solishning rolini yangicha tushunish.

Natijada, mamlakat markaziy banki faoliyatida ustuvor yo'nalishlarning o'zgarishi kuzatiladi: pul-kredit siyosati samarali talabni tartibga solishda ishtirok etadi (iqtisodiy tanazzul va tiklanish davrlarida ekspansiya kuchayadi yoki kamayadi): 1970-yillardan keyin rivojlangan kapitalistik mamlakatlarning byudjet kamomatlari barqarorlashdi. Bunday mamlakatlar hukumatlari moliyaviy siyosatining ustuvor vazifasi davlat moliyasini yaxshilash va byudjet kamomadini kamaytirish ekanligi bejiz emas. Ammo bu ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlashtirish uchun hukumat aralashuvini talab qiladigan Keynscha g'oyalarni to'liq rad etish degani emas edi.

Yangi keynschilik - keng tushuncha: J.Keyns izdoshlari o'zlarining iqtisodiy siyosat g'oyalarini ishlab chiqdi, ularning tushunchalarini kengaytirdi, shuningdek davlat tomonidan tartibga solish vositalarini ishlab

chiqdi. Ingliz iqtisodchisi S.Xarris ta'kidlaganidek, J.Keyns iqtisodiy nazariyaning skeletini yaratdi, boshqa iqtisodchilar unga "go'sht va qon" qo'shishi kerak edi va bu jarayon davom etmoqda.

Umumiy ma'noda, Keynes nazariyasini baholash va uning keyingi rivojlanishi ikkita asosiy yondashuv bilan tavsiflanadi. **Birinchi yondashuv** Keynes ta'limotining yangiligini, uning inqilobiy rolini va neoklassik nazariyani buzishini ta'kidlaydi, shuning uchun bu yondashuv **so'l keynschilik** nomini oldi. **Ikkinchi yondashuv** tarafdorlari, aksincha, Keynschilik konsepsiyasi va neoklassik an'analar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidladilar, bu an'analarda **neoklassik sintez** nazariyasi paydo bo'ladi, unga ko'ra J.Keyns nazariyasi rasmiy ravishda umumiy muvozanat neoklassik tizimiga kiritilgan va G'arb "asosiy oqim" ("meynstrim") paradigmasi shakllangan. Keynschilik bu yerda alohida holatni - qisqa muddatda paydo bo'ladigan ishsizlik sharoitidagi muvozanatni tushuntiradi. Keynes nazariyasining bu talqini urushdan keyingi davrda hukmron maktabga aylangan "ortodoksal keynschilik"ning rivojlanishiga olib keldi. Ushbu yo'nalishdagi olim-iqtisodchilar neoklassik sintez deb ataladigan iqtisodiy siyosatning asosiy tamoyillarini ishlab chiqdilar, uning muallifi amerikalik iqtisodchi P.Samuelson edi.

"Neoklassik sintez" atamasini birinchi marta ingliz iqtisodchisi J.Xiks tomonidan 1937-yilda taklif qilingan. J.Xiks nazariy Keynschilik modelini iqtisodiyotning "likvidlik tuzog'ida" bo'lgan maxsus holatini tavsiflash uchun ishlatgan: foiz stavkasi o'zi past darajada bo'ladi, pul massasining o'sishi uning pasayishiga olib kelmaydi, ya'ni foiz stavkasiga va demakki investisiyalarga ham ta'sir qilishni to'xtatadi. Pul egalari uni sarmoya qilmaydilar (foiz stavkasi oshishiga umid qilishadi), pullar ularning qo'lida qolib ketadi va shu sababli iqtisodiyotning o'z-o'zini harakatlantiruvchi bozor mexanizmi ishlamaydi. Ushbu vaziyatdan chiqishning birdan-bir yo'li xususiy sarmoyalar uchun "lokomotiv" bo'lib xizmat qiladigan davlatning fiskal siyosatidir. Binobarin, dastlabki Keynschilar pul-kredit siyosatining samarasizligini ko'rib, soliq siyosatining mutlaqligini ta'kidladilar. So'nggi Keynschilar pul-kredit siyosatini ham samarali deb hisoblashadi, ammo uni fiskal siyosat bilan to'ldirilishi kerak. Natijada, "neoklassik sintez" doirasida byudjet siyosatini pul-kredit siyosati bilan birlashtirib, makroiqtisodiy siyosatning Keynscha konsepsiyasi shakllantirildi. Makroiqtisodiy siyosat konsepsiyasi bir nechta maqsadlarga erisha oldi:

1. Bandlikning yuqori darajasi;
2. Inflyasiyaning past darajasi;
3. Iqtisodiy barqarorlik;

4. Iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari;
5. To'lov balansi muvozanati;
6. Valyuta kursining barqarorligi.

#### 14.3. Postkeynschilik maktabining pul iqtisodiyoti konsepsiyasi.

Postkeynschilikning asosiy vakillari Ximan Filipp Minski, Pol Davidson, Viktoriya Chik va boshqalar hisoblanadi. Keynsdan keyingi doktrinaning asosiy nuqtasi "pul iqtisodiyoti" nazariyasidir. Postkeynschilikning pul iqtisodiyoti nazariyasining mohiyati quyidagicha:

a) bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarish iqtisodiyoti bo'lib, undagi ishlab chiqarish jarayoni uzoq vaqtini oladi;

b) kelajakdagi noaniqlikni minimallashtirish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlar forward shartnomalari va pul kabi ba'zi institutlarni yaratadilar. Forward shartnomalari kelgusidagi yetkazib berish va sotish, ta'lovlar va tushumlar bo'yicha ishonchsizlikni yo'q qiladi;

v) pul shartnoma majburiyatlarini qaytarishning yagona vositasi bo'lganligi sababli, iqtisodiy beqarorlik davrida iqtisodiy agentlarni eng yaxshi tarzda himoya qiladi. Pulga bo'lgan talabning asosiy sababi ehtiyotkorlik motividir, ya'ni kelajakdagi noaniq moliyaviy-iqtisodiy "muvaqqiyatsizliklar"dan himoya qilish istagi;

g) shartnomalar va pullar bozor iqtisodiyotidagi noaniqlikni yo'q qilmaydi, faqat uning darajasini pasaytiradi. Noaniqlik asosan real (jismoniy) investisiyalar sohasidagi qarorlar bilan bog'liq.

Postkeynschilar J.M.Keyns tomonidan taklif qilingan uzoq muddatli aktivlarni tanlash nazariyasini ishlab chiqdilar. Iqtisodiy faoliyatdagi siklik tebranishlar postkeynschilarning fikriga ko'ra "uzoq muddatli vositalarni tanlash" - asosan asosiy kapital elementlari va yuqori likvidli aktivlar (pullar va ularning o'rnini bosuvchi moddalar) o'zgarishi natijasida hosil bo'ladi. Boshqa barcha holatlar teng bo'lsa, asosiy iqtisodiyotning ko'tarilishiga va o'sishiga olib keladi, asosiy vositalarga bo'lgan talabning pasayishi (pulga bo'lgan talabning pasayishi) bo'lgan talabning pasayishi (pulga bo'lgan talabning o'sishi) turg'unlik va navbatda, kelajakdagi daromadni kutish va ushbu kutishlarga bo'lgan ishonch darajasi (psixologik omillar) bilan belgilanadi.

#### Fransiyadagi keynschilik

Fransiyada Keynschilik 1940-yillarning boshlarida keng tarqaldi. Ayrim fransuz iqtisodchilari Keyns nazariyasini hech qanday o'zgarishsiz qabul qildilar; boshqalar, garchi ular davlatning iqtisodiyotga aralashuvi g'oyasini ma'qullagan bo'lsalar ham, Keynsning nazariy tizimini tanqid qildilar. Ular iqtisodiy rejalashtirishni amalga oshirishni taklif qildilar.

Fransua Perru (1903) "indikativ" rejalashtirish nazariyasini yaratdi. Milliy rivojlanish rejalarini ishlab chiqish va qabul qilish turli ijtimoiy guruhlarining murosalariga, ya'ni "ijtimoiy muloqot"ga muvofiq amalga oshirildi. Muvofiqlashtiruvchi kuch davlat bo'lib, uning maqsadi kelishilgan harakatlarga erishish va uyg'un o'sishni ta'minlashdan iborat edi.

Milliy reja - bu "korxonalarining tartibli sintezidir". Indikativ rejalashtirish bilan davlat (markaz) turli maqsadlar va turli, birinchi navbatda, bilvosita harakatlarni qo'yadi, tadbirkorlarni tegishli harakatlarga undashga harakat qiladi. Majburiy maqsadlar faqat davlat sektoriga nisbatan qo'llaniladi. Indikativ sektor nazariyasi 1947-yildan Fransiyada besh yillik rejalar ishlab chiqilib, amalga oshirilayotgan vaqtdan beri amaliy qo'llanilib kelinmoqda. Indikativ rejalashtirish amaliyoti boshqa ba'zi mamlakatlarda ham keng tarqalgan.

### **Qisqa xulosalar**

Sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarni larzaga solgan 1929–1933 yillardagi buyuk turg'unlik davri iqtisodiy fanning rivojlanishida katta rol o'ynadi. Buyuk turg'unlik nafaqat erkin raqobatga va davlatning passiv roliga asoslangan eski iqtisodiy tizimni halokatga olib keldi, balki yangi klassik makroiqtisodiy nazariyani ham inqirozga uchratdi. Sodir bo'layotgan voqealar o'sha davrda ko'pchilik iqtisodchilar ishongan narsalarga zid bo'lib chiqdi. Bozor iqtisodiyoti yangi sharoitga jiddiy o'zgarishlar qilish hisobiga moslasha oldi. Xuddi shunday qayta, keskin o'zgarishlar iqtisodiy fanda ham yuz berdi. Bunday qayta o'zgarish «*keynscha inqilob*» nomi bilan ataladi. Uning asosiy mohiyati – bozor xo'jaligida iqtisodiyotni davlat tartiblashidir. J.M.Keyns va uning izdoshlari tavsiya etgan davlatning iqtisodiyotga aralashuvi chora-tadbirlari iqtisodiyotda alohida yo'nalish sifatida – keynschilik deb ataladi.

Jon Meynard Keynsning 1936-yili chop etilgan «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» asari iqtisodiyotni makro darajada tahlil qilishda inqilobiy to'ntarish yasadi. J.M.Keynsning bu asarini tadqiqotchilar A.Smitning «Xalqlar boyligi...», K.Marksning «Kapital» asarlari bilan bir qatorga qo'yadilar. U XX asrdagi eng atoqli iqtisodiy asarlardan biridir.

J.M.Keyns ochib bergan *psixologik qonunga* ko'ra, *inson daromadlari oshib borishi bilan iste'mol va jamg'armani ko'paytirib borishga moyildir*. Shuning uchun, iste'mol va jamg'armaning milliy daromadga bog'liqligi, ularning nisbati muhim ahamiyat kasb etadi.

J.M.Keyns tomonidan kashf qilingan asosiy psixologik qonun uning iste'mol funksiyasini tadqiq qilishda yo'naltiruvchi omil bo'ladi.

J.M.Keyns ta'limotidagi asosiy yutuqlardan biri shundan iboratki, unda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solib turishning zarurligi ko'rsatib berildi. J.M.Keyns klassiklarning iqtisodiyotning o'zini-o'zi tartiblash mexanizmini tanqid qilib, bozor iqtisodiyotida bunday mexanizm amal qilmasligini, iqtisodiyotni davlat yordamida tartiblash mumkinligini ko'rsatib, «davlat iste'molga bo'lgan moyillikka o'zining rahbarlik ta'sirini qisman muvofiq ravishdagi soliq tizimi, qisman foiz normasini belgilash yo'li bilan va ehtimol, boshqa usullar bilan o'tkazishi lozim bo'ladi», deb yozadi.

Yangi keynschilik - keng tushuncha: J. Keynes izdoshlari o'zlarining iqtisodiy siyosat g'oyalarini ishlab chiqdi, ularning tushunchalarini kengaytirdi, shuningdek davlat tomonidan tartibga solish vositalarini ishlab chiqdi.

#### **Asosiy tushuncha va iboralar**

Inflyasiya solig'i; kapitalning kemirilishi; keynscha inqilob; keynschilik; samarali talab; psixologik qonun; davlatning iqtisodiyotga aralashuvi; aralash iqtisodiyot; bandlik; multiplikator; akselerator; indikativ rejalashtirish.

#### **Nazorat uchun savollar**

1. J. M. Keynes ilgari surgan konsepsiyaning neoklassik nazariyadan farqi nimada?
2. J. M. Keynes samarali talab deganda nimani nazarda tutgan?
3. Keynes nazariyasiga ko'ra, shaxsiy iste'mol va investitsiyalar dinamikasini nima belgilaydi?
4. Jamg'arma va investitsiyalar yalpi talabga qanday ta'sir ko'rsatishini tushuntiring.
5. J. M. Keynes nazariyasiga ko'ra, "investitsiya impuls" qanday omillarga bog'liq?
6. J. M. Keynes tomonidan ilgari surilgan "asosiy psixologik qonun"ning ma'nosini tushuntiring
7. Multiplikator koeffitsienti nimaga bog'liq; J.M. Keynes nazariyasida u qanday o'rin tutadi?
8. "Iste'molga moyillik", "jamg'armaga moyillik", "kapitalning marjinal samaradorligi" tushunchalarining mohiyatini tushuntiring.
9. J. M. Keynes o'zining asosiy asarida ilgari surgan g'oyalar iqtisodiy hayotda o'ziga xos inqilobni anglatardi, degan fikrga izoh bering.

## XV. BOB. NEOLIBERALIZM G'OYALARINING MOHIYATI VA AHAMIYATI

### 15.1. Neoliberalizmining vujudga kelishi va rivojlanishi. Neoliberalizm g'oyalarning JM. Keyns ta'limotidan farqi

O'tmishning buyuk klassiklari iqtisodiyotning mikro va makroiqtisodiy tomonlarini ajratmaganlar. Mikroiqtisodiy tahlilni neoklassik iqtisod yaratdi, qisqa muddatli makroiqtisodiy tahlil asoslarini yaratish Keynsning zimmasiga tushdi.

Keyns nazariyasini "inqiroziy" deb atash mumkin, chunki u iqtisodiyotni tushkunlik holatini tahlil qiladi. Uning nazariyasiga ko'ra, erkin bozorda iqtisodiyotning inqirozdan chiqish yo'lini chinakam ta'minlaydigan mexanizmlar mavjud emasligi sababli davlat iqtisodiyotga faol aralashishi kerak. Keyns talabni oshirish uchun davlat bozorga ta'sir ko'rsatishi kerak, deb hisoblaydi, chunki kapitalistik inqirozlarning sababi tovarlarni ortiqcha ishlab chiqarishdir.

U bir nechta vositalarni taklif qildi.

Bu moslashuvchan pul-kredit siyosati, barqaror fiskal siyosat va boshqalar. Moslashuvchan pul-kredit siyosati –ish haqini egiluvchan qilishga imkon beradi. Bunga, Keynsning fikricha, muomaladagi pul miqdorini o'zgartirish orqali erishiladi. Pul massasining ko'payishi bilan real ish haqi kamayadi, bu esa investitsion talab va bandlikning o'sishini rag'batlantiradi. Keyns fiskal siyosat yordamida davlatga soliq stavkalarini oshirishni va bu mablag'lardan norentabel korxonalarni moliyalashtirish uchun foydalanishni tavsiya qildi. Bu nafaqat ishsizlik darajasini pasaytiradi, balki ijtimoiy keskinlikni ham bartaraf etadi.

70-yillarning o'rtalariga qadar XX asr G'arb mamlakatlari iqtisodiyoti dinamik ravishda rivojlangan. Ushbu davrda Keyns tavsiyalari ko'plab mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilgan. Biroq, 1969-1971- yillarda, 1974-1975-yillar iqtisodiyotda pasayish yuz berdi. 1980-1982 yillarda yana iqtisodiy inqiroz boshlandi. Shunday qilib, Keynsning o'sish va iqtisodiyotni antisiklik boshqarish nazariyalarini hayot rad etdi. G'arb mamlakatlaridagi ushbu jarayonlar natijasida neoliberalizm rivojlandi. Neoliberalizm – xo'jalik faoliyatini boshqarish to'g'risidagi yo'nalish bo'lib, iqtisodiyot o'zini-o'zi boshqarishi va haddan tashqari tartibga solinishini rad etadi.

*Keynsning iqtisodiyotni tartibga solish modelining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat edi:*

➤ milliy daromad ulushi yuqori va davlat byudjeti orqali qayta



taqsimlanadi;

➤ davlat va aralash korxonalarni shakllantirish negizida davlat tadbirkorligining keng tarmog'i yaratiladi;

➤ Iqtisodiy muhitni barqarorlashtirish, siklik tebranishlarni yumshatish, yuqori o'sish sur'atlarini va bandlikning yuqori darajasini saqlab qolish uchun fiskal va kredit-moliyaviy regulyatorlardan keng foydalaniladi.

**Neoliberalizmning umumiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:**

➤ A. Smitning iqtisodiy ta'limoti va uning "ko'rinmas qo'l" tamoyiliga asoslanadi;

➤ bozor xo'jalik yuritishning eng samarali shakli bo'lib, iqtisodiy o'sish uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratadi, ichkaridan iqtisodiy tartibga soluvchi stabilizatorlarga ega;

➤ iqtisodiy samaradorlikning o'sishida xususiy mulk va erkinlikning ahamiyatini tan oladilar;

➤ davlatning iqtisodiyotdagi o'rni cheklangan va faqat erkin raqobatni yaratish va qo'llab-quvvatlash uchun qulay sharoit yaratishdan iborat. Iqtisodiy jarayonlarga hukumatning to'g'ridan-to'g'ri aralashuviga yo'l qo'yib bo'lmaydi, deyishadi.

Neoliberalizm uchta maktabni: London (F. fon Xayek); Chikago (M. Fridman); va Frayburg (V. Oyken, L. Erxard) maktablarini o'z ichiga oladi.

*London maktabi*

*F. fon Xayek*

*Chikago maktabi*

*M. Fridman*

*Frayburg maktabi*

*V. Oyken, L. Erxard*

### *15.1. Rasm. Neoliberalizm maktablari*

Zamonaviy neoliberalizm vakillari iqtisodiy siyosatga juda ko'p ta'sir ko'rsatadilar. "Reyganomika" va "Tetcherizm" deb nomlangan qarashlarni shakllantirish uchun neoliberalizmdan foydalanilgan. Ular davlatning iqtisodiy hayotdagi ishtirokini cheklashga, raqobatni rivojlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishga - eng muhim tartibga solish mexanizmiga e'tibor qaratishdi. Iqtisodiy liberalizm

tarafdorlari davlat tomonidan tartibga solishni rad etish haqida emas, balki uni takomillashtirilishi, samaradorligi to'g'risida fikr yuritganlar. Muhokamalar, nazariy ishlanmalar, tavsiyalar milliy iqtisodiyotning o'ziga xos sharoitlari va imkoniyatlariga nisbatan an'anaviy muammo - davlat tomonidan tartibga solish va bozor mexanizmining o'z-o'zidan ishlashining maqbul kombinatsiyasi doirasida chegaralanib kelmoqda.

Neoliberalizm asoschisi amerikalik iqtisodchi **Lyudvig fon Mizes** (1881-1973).

Asosiy asari – “Sotsializm” (1936).

Lyudvig fon Mizesning asosiy iqtisodiy g'oyalari quyidagilardan iborat:

- zamonaviy dunyoning iqtisodiy tuzilishining uchta variantini ko'rib chiqdi:

1. Sof bozor iqtisodiyoti,

2. “Buzoq bozor”.

3. Nobozor iqtisodiyot (sotsialistik);

- bozor iqtisodiyotida xususiy mulk alohida o'rin tutadi, deb hisoblagan. Bu sivilizatsiya va jamiyatning moddiy farovonligining majburiy va zaruriy hodisasidir. Xususiy mulkning ijtimoiy funksiyasi: resurslardan maqbul foydalanishga ko'maklashish va iste'molchilar suverenitetini ta'minlashdan iborat;

- sotsializmning mantiqiy va amaliy imkonsizligini isbotladi, chunki u iqtisodiyotni oqilona tashkil etishga qodir emas (xususiy mulk yo'q). Ayniqsa rejalashtirishni tanqid qildi. Mizesning fikriga ko'ra, rejalashtirish raqobatni, bozor narxlarini tamoyillarini inkor etadi, iqtisodiy resurslardan samarasiz foydalanishga olib keladi. Sotsializm - bu “rejalashtirilgan betartiblik tizimidir”;

- davlat rolining kuchayishi (ayniqsa sotsializm sharoitida) muqarrar ravishda byurokratiya, korrupsiya va iqtisodiyot samaradorligining pasayishiga olib keladi;

- faqat erkin bozor demokratik tamoyillarga mos keladi, faqat erkin bozorda iste'molchi iqtisodiy tizimning markazida bo'ladi, deb taxmin qildi. Iste'molchi muqobil variantlarni tanlash erkinligiga ega bo'lib, ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilishini belgilaydi, turmush farovonligini maksimal darajada oshiradi. Insonning bozor tizimidagi mavqei uning harakatlari bilan belgilanadi.

### **15.2. London neoliberalizm maktabi.**

London neoliberalizm maktabining asosiy vakili - avstriyalik iqtisodchi **Fridrix fon Xayek** (1899-1992), 1974 yilda iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan (G. Myurdal bilan birgalikda).

F. fon Xayekning asosiy qarashlari quyidagilardan iborat:

- bozor iqtisodiyotini doimiy ravishda qo'llab-quvvatladi. Bozorni o'z-o'zidan paydo bo'lgan iqtisodiy tartib sifatida qaradi;

- "bozor" va "xo'jalik" tushunchalarini aniq farqlagan. "Xo'jalik" resurslar maqsadlarning yagona shkalasiga muvofiq taqsimlanadigan iqtisodiyotni anglatadi. Barcha iqtisodiy faoliyat yagona reja asosida amalga oshiriladi. "Bozor" bu ijtimoiy ustuvorliklar shkalasiga muvofiq tovarlarni ishlab chiqarishni kafolatlaydigan iqtisodiy tizimdir.

Bozorning xo'jaliklarga nisbatan afzalliklari:

1. Bozor tizimi jamiyat barcha a'zolarining bilimlaridan foydalaniladi, ularning aksariyati narxlarda ifodalanadi.
2. Bozor har qanday mahsulotni eng kam xarajat bilan buni qanday qilishni biladigan odamlar tomonidan ishlab chiqarilishini kafolatlaydi.
3. Bozor - bu son-sanogsiz iqtisodiy subyektlar orasida tarqalgan ma'lumotlardan samarali foydalanishga imkon beradigan transmission qurilmadir.
4. Narx mexanizmi bozor tartibining muhim jihatlaridan biridir.

Narx funksiyalari:

- narxlar shaxsni harakat qilishga undovchi signal rolini o'ynaydi;
- narxlar - axborot uzatish mexanizmi;
- narxlar orqali tadbirkor o'z harakatlarini boshqalarning harakatlari bilan muvofiqlashtiradi;
- narxlar - harakatlar uchun mukofotlar;
- narxlar boshqa odamlar nuqtai nazaridan mahsulotning ma'lum qiymatini bildiradi.

### 15.3. Frayburg maktabi (ordoliberalizm).

Ikkinchi jahon urushidan so'ng neoliberalizm prinsiplari dastlab G'arbiy Germaniya (GFR) da amaliy jihatdan muvaffaqiyatli tatbiq etildi. Bu yerda 1948-yildan boshlab bu g'oyalar Adenauer-Erhard davlat doktrinasi statusiga aylantirildi. Neoliberalizmning taniqli nemis nazariyotchilari V.Rebke, A.Ryustov va boshqalar ozodlik va insonparvarlik bahonasida monopolizm vujudga kelishining barcha ko'rinishlarini tanqidiga boshchilik qildilar.

*«Ijtimoiy bozor xo'jaligining» mohiyati*

GFR neoliberalizm nazariyotchilari «erkin bozor» va adolatli taqsimot prinsiplarini «ijtimoiy tenglik» prinsipi g'oyasi bilan birga qo'shishga muvaffaq bo'ldilar. Birinchi marta uning konseptual g'oyasi A.Myuller-Armakning «Xo'jalik boshqaruvi va bozor xo'jaligi» (1947) kitobida izohlanadi, bunda «Ijtimoiy bozor xo'jaligi» matni ham birinchi bor qo'llanilgan. Bu sohadagi ishlanmalar V.Rebke, L.Erhard, V.Oyken va boshqalar tomonidan davom ettirildi.

V.Rebkening «nemis iqtisodiy siyosati to'g'rimi?» (1950) degan kitobi muqaddimasida GFR kansleri K.Adenauer «ijtimoiy bozor xo'jaligi» modeli mamlakat iqtisodiy siyosatining asosi sifatida qabul qilinganligini bayon etadi.

V.Rebke bo'yicha, «ijtimoiy bozor xo'jaligi» - «iqtisodiy insonparvarlik» sari yo'ldir. U o'zining «Insonparvar jamiyat» asarida kollektivizmga - personalizm, xokimiyat konsentrasiyasiga - erkinlik, sentralizmga - desentralizm, tashkilotchilikka - o'zini-o'zi boshqarishni qarshi qo'yadi va boshqalar.

«Rasmiylashgan jamiyat» doktrinasi L.Erhard va uning maslahatdoshlari bo'yicha bu eng yaxshi «tabiiy iqtisodiy tartib» ni izlash bo'lib, unga «ijtimoiy bozor xo'jaligi» orqali etishish mumkin. Unda ijtimoiy tizim va ishlab chiqarish munosabatlarining besh shakli (tipi), sinflarning antononizmi to'g'risidagi markscha g'oyalar qat'iyankor inkor etiladi. Bu g'oyalar V.Oykenning inson jamiyati uchun faqat ikki tipdagi iqtisodiyot: «Markazdan boshqariladigan» (totalitarizm) va «Almashuv iqtisodiyoti» («erkin, ochiq xo'jalik») xos, konkret tarixiy sharoitlarda biron tip belgilarining ustuvorligi bilan qo'shma shakli ham mavjud bo'ladi.

Valter Oyken (1891-1950) «Milliy iqtisodiyot asoslari» asarida iqtisodiyotni qayta tashkil etishning asosiy shakllarini tiplarga bo'lish muammolarini fundamental ishlab chiqdi. Asli tarixchi bu olim kitobning «Iqtisodiy tizimlar» bobida bir xil jamiyatda ikkita ideal iqtisodiyot tiplari o'zaro birga yashaydi, bular almashuv va markazdan boshqariladigan iqtisodiyotlardir. Markazdan boshqariladigan iqtisodiyotga xos narsa shuki, har kungi jamiyatning iqtisodiy hayoti bir markazdan keluvchi rejalar bilan tartibga solinadi. Agar jamiyat iqtisodiyoti ikki yoki undan ortiq alohida xo'jaliklardan iborat bo'lsa bu «almashuv iqtisodiyoti» sistemasidir.

Turli tarixiy sharoitlarda ko'pincha bu sistemalar aralash holda bo'ladi, bu bir qancha misollar bilan isbotlab beriladi. Shu bilan birga, Oyken bo'yicha, eslab o'tilgan tiplar uch shaklda amalga oshadi, uning har biri quyidagicha ta'riflanadi:


a) totalitar markazdan boshqariladigan iqtisodiyot (almashuv umuman inkor etiladi; mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol oxirgi mayda-chuydalar markaziy boshqarma buyruqlari asosida amalga oshiriladi);

b) iqtisodiyotni markazdan boshqarish asosida iste'mol mollarini erkin almashuv (markaz tomonidan belgilanadigan «ishlab chiqarish kuchlaridan») foydalanish usullari, ishlab chiqarish jarayonining vaqtli tarkibi, mahsulotlarni taqsimlash usullari va boshqalar asosida amalgi

oshiriladi. 1-variantdan farqli ravishda bu yerda iste'molchilar almashuv yo'li bilan ajratilgan iste'mol mollariga o'zgartirishlar kiritishlari mumkin);

v) erkin iste'mol tanlovi asosidagi markazdan boshqariladigan iqtisodiyot.

«Erkin bozor xo'jaligi» avtomatik ravishda faoliyat yurita olmasligini bilgan V.Rebke va L.Erhard, ishlab chiqarish anarxiyasining har qanday ko'rinishlariga qarshi davlatning shunga muvofiq choralarni qo'llash uchun iqtisodiyotga aralashuvi zarurligi tan olinadi. Bu aralashuv erkin va ijtimoiy zarur jamiyat tuzumi sintezi (qo'shilishi)ni ta'minlashi kerak. Rebke-Erhardning obrazli ifodasiga ko'ra, davlat roli futbol maydonidagi sudya (orbitor) bilan tenglashtiriladi, orbitor futbol kamandalari o'yinini ma'lum qoidalar asosida diqqat bilan kuzatib va boshqarib boradi, ammo o'yinda bevosita ishtirok etishga xaqqi yo'q.



**15.2.Rasm. Rebke-Erhard: erkin bozor xo'jaligining ideal tipini ta'minlashda davlatning ishtiroki.**

Boshqa so'z bilan aytiladigan bo'lsa, davlat erkin bozor xo'jaligining ideal tipi bo'lgan «ijtimoiy bozor xo'jaligi» faoliyati sharoitini ta'minlash uchun erkin raqobat («halol o'yin») «qoida» larining saqlanishi ustidan nazoratni olib borishi kerak. Undan tashqari davlat baho shakllanishini nazorat qilishi, monopol baho o'rnatilishiga bo'lgan urinishni oldini olishi, monopoliyasiz tovar-pul xo'jaligida xususiy mulkning qo'riqlanishining ustuvor ahamiyatini kafolatlashi kerak.

Neoliberalizm konsepsiyasining «ijtimoiy bozor xo'jaligi» modelini yaratish va amalga oshirish prinsiplari institutsionalizmning «barcha uchun farovonlik jamiyati» konsepsiyasi bilan hamohangdir, chunki ikkala modelda insonni inson tomonidan ekspluatatsiya qilinishi va sinfiy antagonizm inkor etiladi. Bu modellarda bundan tashqari davlatning faol ijtimoiy vazifasi g'oyasi bor. Davlat barcha fuqarolarga ijtimoiy xizmatni olish va ular farovonligini oshirish uchun teng huquq va teng imkoniyatlar yaratishi zarurdir. Bunda jamiyatning turli qatlamlarida aksionerlar

sonining ortishi bilan birga, barcha ijtimoiy institutlar barqarorligining o'sishi, asosiy mehnatkash aholining ertangi kunga ishonchi va boshqalar ko'zda tutiladi.

#### **15.4. Neoliberalizmning Chikago maktabi**

Keynschilikka muqobil ravishda AQSHda neoliberalizmning Chikago maktabi vujudga keldi, uning monetar (pul bilan bog'liq) g'oyalari Chikago universitetida paydo bo'ldi. Ammo neoliberal yo'nalish harakatida *amerika monetarizmi* mustaqil keyinchalik ilg'orlik pozitsiyalarini faqat 50-yillar oxiri - 60-yillar boshida egalladi. Bunda M.Fridmen (1912) nashrlari muhim ahamiyat kasb etdi. Fridmen va uning safdoshlari Keynsning pulsiz omillari (masalan, investisiyalar) o'rimga aynan pulli omillarni afzal ko'rdilar.

Monetarizm – nafaqat pul to'g'risidagi ta'limot. Bu maktab vakillarining diqqat markazida pul kategoriyasi, pul-kredit dastaklari turadi; ammo ularni pul mexanizmi, bank tizimi, pul-kredit siyosati, valyuta munosabatlari shunchaki qiziqirmadi. Monetaristlar ushbu jarayonlarni pul muassasasi bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun tadqiqot qildilar. Monetarizm keynschilar ta'limotiga muqobil nazariya sifatida yuzaga kelgan va erkin bozor iqtisodiyoti nazariyasi hisoblanadi.

M.Fridmen – erkin bozor tarafdori. Uning tasdiqlashicha, erkinlik va xususiy tadbirkorlik o'rtasida ichki bog'liqlik mavjud. Faqat xo'jalik erkinligi sharoitida siyosiy erkinlikka, iqtisodiy samaradorlikka va tenglikka erishish mumkin. Iqtisodiyotda nima qilish kerakligini millionlab kishilardan ko'ra davlat amaldorlarining yaxshi bilishi dargumon, deydi M.Fridmen. Davlatning xo'jalik jarayonlariga aralashuvi iqtisodiyotning o'zini-o'zi tartiblash tizimini buzishga olib keladi. Shuning uchun davlat pul va ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlagan holda, pul muomalasini nazorat qilish bilan cheklanmog'i lozim.

#### **Pulga bo'lgan talab va taklif**

Kishi bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z boyligini har xil shakllarda (pul, qimmatli qog'ozlar, yer uchastkasi, ko'chmas mulk va boshqa ko'rinishlarda) saqlashi mumkin. Har kim o'z boyligini ko'paytirishga va aynan qaysi shaklda saqlash maqsadga muvofiq kelishiga intiladi.

Boyligining bir qismini pul shaklida ushlab turish maqsadga muvofiq. Negaki pul likvidli, unga har qanday tovar sotib olish mumkin. M.Fridmenning real kassa qoldiqlariga bo'lgan talab formulasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$D_m = M/P = F(R_b, R_e, P_e, K, Y/P, u)$$

Bu yerda:  $M/R$  – real kassa qoldiqlariga bo'lgan talab,

Rb va Re – obligatsiyalardan olinishi mumkin bo'lgan nominal daromad normasi,

Pe – baholar o'zgarishi sur'atlari,

K – moddiy ashyoviy shaklda jang'arilgan boyliklar ulushi,

Y/P – real daromad,

u – hisobga olinmagan omillar.

Bundan tashqari real daromad hajmi pulga bo'lgan talabning bosh omili hisoblanadi. Boshqacha aytganda, bunda biz pulning miqdoriy nazariyasining kembrij variantiga muvofiq keladigan (real kassa qoldiqlariga bo'lgan talab milliy daromad miqdori bilan aniqlanadi) modelini ko'ramiz.

Lekin M.Fridmen bo'yicha, pulga bo'lgan talab joriy daromad funksiyasi emas, balki «doimiy» daromad funksiyasidir. Doimiy daromad bu joriy va kelajakda kutiladigan daromadlarning o'rtacha yig'indisi. Doimiy daromad joriy daromadga qaraganda ancha barqaror. Mabodo joriy daromad pasaygan taqdirda ham, individ kelajakda ko'p pul tushumiga ega bo'lishga umid qiladi va, shu boisdan, pulga bo'lgan talabni unchalik kamaytirmaydi. Shunday qilib, pulga bo'lgan talab va demak uning aylanish tezligi, ancha mustahkam, barqaror hisobladi.

Shunday bo'lsa ham kuchli inflyasiya sharoitida «puldanda qochish» kabi holat kuzatiladi. Fillip Keygan (1927) yuqorida eslatib o'tilgan «Pulning miqdoriy nazariyasiga oid tadqiqotlar» kitobiga kiritilgan maqolasida, inflyasiyaning kutilishi qanday qilib iqtisodiy subyektlarni real kassa qoldiqlari miqdorini keskin kamaytirishga majbur qilishini ko'rsatib beradi, bu pul massasining aylanish tezligini oshiradi. Masalan, Germaniyada 20-yillari giperinflyasiya davrida real kassa qoldiqlari miqdori inflyasiyagacha bo'lgan darajadan 1/20 gacha pasaygan.

Pulning eski miqdoriy nazariyasiga muvofiq, baholar darajasining o'zgarish sur'ati pul massasi taklifining o'zgarish sur'atiga tenglashadi. F.Keygan, ishonch hosil qilganimizdek, pul qoldiqlariga bo'lgan talabga nafaqat baho darajasi, balki inflyasiya sur'ati ham ta'sir etishini ko'rsatib berdi. Bundan tashqari giperinflyasiya sharoitida real pul qoldiqlariga bo'lgan talab faqat kutiladigan baholar o'zgarishining (inflyasiyaning kutilishi) funksiyasi hisoblanadi va M.Fridmen taklif qilgan formula quyidagi ko'rinishni oladi:

$$D_m = f(Pe')$$

Gap shundaki, bahoning o'zgarishi shu qadar kuchli bo'ladiki, shuning uchun uning ta'siri boshqa omillar ta'sirini butunlay «niqoblab» qo'yadi. Shunday qilib, nazariy nuqtai nazardan nominal pul massasini ko'paytirmasdan uning aylanish tezligi hisobiga inflyasiyaning kuchayishi

mumkin, deb qaraladi. Garchi, monetaristlarning aytishicha, amaliyotda giperinflatsiya o'zining rivojlanishi uchun pul massasining mutanosib tarzda ko'payishini taqozo etsa ham.

Pulning muomaladagi miqdori uning taklifini bildiradi. Pul taklifi ancha o'zgaruvchan bo'ladi, u iqtisodiy omillar bilan aniqlanmaydi, balki tashqi ta'sirdan yuzaga keladi. Pul taklifi markaziy bank tomonidan, tijorat banklari beradigan kreditlar miqdori, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bilan tartibga solinib turiladi. Pulga bo'lgan talab va pul taklifi monetar muvozanatni yuzaga keltiruvchi asosiy vositalar hisoblanadi. Bunda muvozanat ajralgan holda shakllanmaydi. Pul sektoridagi muvozanat tovar sektorida bo'ladigan jarayonlar bilan uzviy bog'langan.

### **Monetarizmning asosiy qoidalari**

M. Fridmen konsepsiyasini tasavvur qilish uchun, uning tarafdorlari u yoki bu darajada qo'llab-quvvatlagan asosiy qoidalarni ko'rib chiqamiz.

**Birinchi qoida** – bozor xo'jaligining barqarorligini tan olish. Monetaristlar fikricha, bozor iqtisodiyoti o'zining ichki xususiyatiga ko'ra barqarorlikka, o'zini o'zi tartiblashga intiladi. Bozor raqobati tizimi mustahkam barqarorlikni ta'minlaydi. Mabodo muvozanat buzilsa baholar uni tuzatishning bosh vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nomutanosibliklarning vujudga kelishi odatda ichki sabablar natijasi emas, balki tashqaridan bo'ladigan aralashuvlar, davlat tartiblashidagi xatolar natijasi hisoblanadi.

Bozor xo'jaligining barqarorligi to'g'risidagi ushbu qoida J.M.Keynsning iqtisodiyotga davlat aralashuvining zarurligi to'g'risidagi tasdig'iga qarshi qaratilgandir.

**Ikkinchi qoida** – pul omilining muhimligi. Iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatuvchi turli dastaklar ichida pul dastaklari ustun qo'yiladi. Aynan ular (ma'muriy, baho uslublari emas, soliq tizimi emas) iqtisodiyotni a'lo darajada barqarorlashtirishga qodir. Agar J.M.Keyns byudjet siyosatini ancha aniq, tezkor va natijasini oldindan bilish mumkin bo'lgan dastaklar sifatida baholagan bo'lsa, M.Fridmen undan farqli ravishda, pul-kredit siyosatini ana shunday tavsiflaydi. Uningcha, (Keynsga qaraganda), pul-kredit siyosati iqtisodiy faollikni ancha kuchaytiradi. U pulni ishlab chiqarish, ish bilan bandlik va baholarni aniqlashda yagona bosh omil sifatida qaraydi.

Pul – bu maxsus tovar; pulning asosiy xususiyati uning likvidligida. Pulni xohlagan paytda almashtirish, unga har qanday tovarni sotib olish mumkin. Pul maxsus funksiyani amalga oshiradi, tartiblash, barqarorlashtirish rolini bajarishga qodir. U iqtisodiyotga pulni ishlab chiqaruvchi va moliya siyosatini shakllantiruvchi bank tizimi, institutsional tuzilmalar orqali ta'sir ko'rsatadi. Pul bahoga, ist'emolga bo'lgan talabga,



xarajatlar darajasiga, ishlab chiqarish hajmiga va tuzilishiga ta'sir ko'rsatadi. M. Fridmen pul harakati (pul massasining o'sish sur'ati) va yalpi ichki mahsulot o'rtasida o'zaro chambarchas bog'liqlik amal qilishiga asoslanadi. Pul massasining o'sish sur'atining tezlashuvi yoki sekinlashuvi faol ish yuritishda, ishlab chiqarishning siklli tebranishida aks etiladi.

***Uchinchi qoida*** – tartiblash joriy vazifalarga emas, balki uzoq muddatli vazifalarga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Gap shundaki, pul massasidagi o'zgarishlar natijasi asosiy iqtisodiy parametrlarda birdan aks ettirilmaydi, balki biroz vaqtdan keyin ta'siri bilinadi. Odatda lag (vaqtincha o'zilish) bir necha oyni tashkil etadi. U shu narsani bildiradiki, pul massasidagi o'zgarishlar yalpi ichki mahsulotga birdan emas, balki bir oz vaqtdan keyin ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun pul siyosati joriy tartibdagi samaraga va qisqa muddatli o'zgarishlarga mo'ljallangan bo'lmay, balki uzoq muddatli xarakterga ega.

#### **Pul massasi va iqtisodiy sikllar**

M. Fridmen Anna Shvars bilan birga yozgan «Qo'shma Shtatlarning monetar tarixi (1867-1960-yil)» asarida katta hajmdagi materiallar yordamida pul massasining ko'chayishi bilan iqtisodiy sikl fazalari o'rtasida bog'liqlik borligini ko'rsatib berdi. U pul massasi o'sishining tezlashuvi yoki sekinlashuvini kuzatib, deyarli 100 yil mobaynida AQSH ning barcha xo'jalik dinamikasi pul massasi harakati bilan aniqlanib kelingan, degan xulosaga kelgan. Pul massasining o'sish sur'atining o'zgarishi ijtimoiy mahsulot o'sishida o'zgarish keltirib chiqaradi. Pul massasining yuqori o'sish cho'qqisi ishlab chiqarishning o'sishini, pul massasining quyi nuqtasi ishlab chiqarishning pasayishini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, pul massasi (muomaladagi pul miqdori) iqtisodiy hayotga iste'molchilar va firmalar sarf-xarajatlari orqali bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Pul taklifi o'sishi uning «arzonlashuviga» olib keladi (foiz stavkasi pasayadi). Kredit olish foydali hisoblanadi, investitsiya tovarlariga bo'lgan talab kengayadi. Kapital qo'yilmasining ortishi bilan yalpi ichki mahsulot ko'payib boradi, ish bilan bandlik ham oshadi.

Pul taklifining ko'payishi bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar faqat miqdor ko'rsatkichlarida o'z ifodasini topmaydi. Mahsulotlarning bahosi oshib boradi, lekin ularning oshib borishi bir xil tarzda bo'lmaydi. Turli tovarlar guruhlarida o'rtasidagi nisbatlar o'zgaradi. Taklif ishga tushadi: u oldin arzon tovarlarga, undan so'ng yangi tovarlarga, keyinchalik xizmat ko'rsatishga o'tadi. Baholarning o'zgarishi tarkibiy o'zgarishlarga olib keladi, natijada esa uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun shart-

sharoitlar yaratadi.

Baholarning o'zini-o'zi tartiblab turishi va pullarning sotib olish qobiliyatining tenglashuvi natijasida pul sektori bilan tovar sektori o'rtasida zaruriy aloqa o'rnatiladi. Demak, monetaristlar pulning bosh funksiyasi - iqtisodiy rivojlanishning moliyaviy asosi va muhim harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qiladi, degan qoidaga asoslanadi. Pul massasiing ko'payishi banklar tizimi orqali resurslarning tarmoqlar o'rtasida taqsimlanishiga ta'sir ko'rsatadi, texnika taraqqiyotiga «yordam beradi», iqtisodiy faollikni ko'llab - quvvatlashga imkon beradi.

Pul dastaklaridan nihoyatda ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerak. Pul massasi bilan iqtisodiy o'sish o'rtasida muvozanat bo'lishi zarur.

M.Fridmen fikri bo'yicha, Buyuk turg'unlik davri eng avvalo federal rezerv tizimining (FRT) iqtisodiyotda pul miqdorining kamayib ketishini bartaraf etishga qurbi etmaganligi bilan bog'liq (fond bozorining sinishi va banklarning xonavayron bo'lishi sababli). Pul massasining etishmasligi esa talabga salbiy ta'sir ko'rsatdi, real ishlab chiqarish hajmi esa pasayib bordi. Bu yerda shu narsani aytish kerakki, monetaristlarning tanqidi behuda bo'lgani yo'q, u keyinchalik o'z foydasini ko'rsatadi. 1987-yil 17-oktyabrda fond bozori sinishi kuzatildi. Ammo FRT va boshqa markaziy banklarning qat'iy hatti - harakati tezda o'z samarasini berdi, rag'batlantiruvchi pul siyosati amalga oshirildi. Foiz stavkasi pasaydi, bu bank ishidagi sarosimani to'xtatdi.

### **Monetarizm konsepsiyasining keynschilikdan farqi**

Yuqorida qayd qilib o'tilganidek, pul siyosati pul talabi va uning taklifi o'rtasida nisbat o'rnatishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Pul taklifining o'sishi (pulning o'sish foizi), baholar barqarorligini ta'minlaydigan darajada bo'lishi lozim. M. Fridmen fikriga ko'ra, bunday

darajani aniqlash juda murakkab. Markaziy bank prognozlarida xatolar tez-tez uchrab turadi. Iqtisodiy rivojlanishga aynan qaysi omillar ta'sir ko'rsatayotganligini aniqlash qiyin va hatto mumkin emas. Qabul qilinayotgan qarorlar kechikkan bo'lishi va ba'zida qarama-qarshi

Fridmen monetar qoidalarni qonun yo'li bilan belgilash taklifi bilan chiqdi, unga ko'ra pul taklifi har yili yalpi ichki mahsulot o'sishi mumkin bo'lgan sur'atda oshishi, ya'ni pul taklifi barqaror ravishda yiliga 3-5% ga ko'payishi lozim. Agar pul massasining o'sish sur'ati yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atidan past bo'lsa, unda qisqa muddatli davrda ishlab chiqarish pasayadi, lekin uzoq vaqt o'tishi bilan iqtisodiy o'sish o'zining «tabiiy» holatiga keladi.

natijalarni keltirib chiqarishi ham mumkin: masalan, baʼzan ishlab chiqarishning oʻsishini ragʻbatlantirish koʻzda tutilganda, pasayish kelib chiqadi, yaʼni qabul qilingan qaror oʻsishga toʻsquinlik qiladi.

«Agar moliya-kredit sohasini koʻrib chiqadigan boʻlsak – deb yozadi M.Fridmen, - koʻpchilik hollarda toʻgʻri qarorlardan koʻra, notoʻgʻri qarorlar qabul qilinadi, negaki qaror qabul qiluvchilar faqat cheklangan sohalarni muhokama qiladilar va umuman barcha siyosat oqibatlarini yigʻindisini eʼtiborga olmaydilar». Markaziy bank qisqa muddatli tartiblashning konyunkturali siyosatdan voz kyechishi va iqtisodiyotga uzoq muddatli taʼsir koʻrsatish, pul massasini asta - sekin koʻpaytirib borish siyosatiga oʻtishi kerak. Pul massasi nominal YAIMga taʼsir koʻrsatadi.

Monetar konsepsiya va monetar tavsiyalar keynschilikdan farq qiladi, baʼzan esa unga qarama-qarshidir. Shu bilan birga iqtisodiyotni tartiblash muammosidagi bu ikki yondashuv oʻrtasiga katta chegara qoʻyish ham notoʻgʻri. Har ikkala nazariya, eng avvalo, bozor iqtisodiyoti sharoitida qoʻllash uchun yaratilgan. Maʼlum maʼnoda har ikkala nazariya bir - birini oʻzaro toʻldirib turadi (umumiy daromadni aniqlash nazariyasini tashkil etadi). J.M.Keyns daromadlarning xarajatlarga miqdoriy bogʻliqligini asoslab berdi, M.Fridmen esa daromadlarning pulga bogʻliqligini koʻrsatib berdi. Shu bilan birga J.M.Keyns va M.Fridmen yondashuvlari oʻrtasida bir qator farqlar mavjud. Ularning baʼzilarini umumiy sxemali koʻrinishda aks ettirish mumkin:

J.Keyns	M. Fridmen
Davlatning bozor xoʻjaligiga aralashuvi zarur	Bozor oʻzini oʻzi tartiblashga qodir
Ish bilan bandlik jami talabga bogʻliq	Iqtisodiyot oʻzi ishlab chiqarish va ish bilan bandlik darajasini oʻrnatadi
Pul massasi ishlab chiqarishga nisbatan xolis (yomon ham, yaxshi ham taʼsir etmaydi)	Pul massasi – baholarning oʻsishi va konʻyunkturaning oʻzgarishi sababchisidir
Asosiy muammo - ishsizlik	Asosiy muammo - inflyasiya
Oʻzgaruvchan pul siyosati lozim	Monetar qoidalarga mos keluvchi barqaror pul siyosati zarur: $\Delta M\% = \Delta P\% + \Delta Y\%$ , bu erda M – pul massasi, R - inflyasiya darajasi, Y – YAIM hajmi
Byudjet kamomadi – talabni ragʻbatlantirish vositasi	Byudjet kamomadi – inflyasiya sababchisi


Keynschilik – iqtisodiy o'sish nazariyasi	Monetarizm – iqtisodiy muvozanat nazariyasi
Asosiy nazariy ayniyat: $Y=C+I+G+X_n$ , bu yerda Y - YAMM hajmi S - Iste'mol hajmi, I - investisiya hajmi, G - davlat xarajatlari, $X_n$ - sof eksport.	Asosiy nazariy holat: $M = P*Q/V$ , bunda, pul muomalasi tezligi V doimiy hisoblanadi. YAIM hajmining muomaladagi pul massasiga bevosita va to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligi pul muomalasi tezligini doimiy bo'lishiga olib keladi.

### 15.2. Rasm. Davlatning pul-kredit siyosatiga keynscha va monetaristik yongdashuvlar

Monetarizm ham, Keynschilik ham iqtisodiyotni tartiblash zarurligidan kelib chiqadi. Ularning nazariy tavsiyalari muayyan bir davrda qo'l kelsa, boshqa davrda ish bermaydi. Shu bois iqtisodiy vaziyat va sharoitlarga qarab ulardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

#### Fillips egri chizig'i

Fillips egri chizig'i (Phillips curve) - ishsizlik va inflyatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadigan egri chiziqning grafikdagi ko'rinishidir.



### 15.3. Rasm. Fillips egri chizig'i

Fillips egri chizig'i ishsizlik va inflyatsiya darajalari o'rtasidagi teskari bog'lig'likni xarakterlaydi.

Mamlakat iqtisodiyotining xususiyatiga ko'ra, shuningdek, inflyatsiyaning qaysi turi mavjudligiga qarab Fillips egri chizig'idagi inflyatsiya va ishsizlik darajalarining kombinatsiyasi farq qilishi mumkin. Bunday tanlov kutilayotgan inflyatsiyaning sur'atiga bog'liq. Kutilayotgan inflyatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa ishsizlikning har qanday

darajasida (sur'ati past bo'lgan inflyatsiya darajasiga nisbatan) haqiqiy inflyatsiya darajasi yuqori bo'ladi.

Ingliz iqtisodchisi Alban Fillips 1958-yilda o'z tadqiqotining natijalarini e'lon qildi, unga ko'ra 1861-yildan 1913-yilgacha bo'lgan davrda Angliyada nominal ish haqining foiz o'zgarishi va ishsizlik darajasi o'rtasida teskari munosabat mavjud edi. Xususan, P.Samuelson va R. Solou tomonidan olib borilgan keyingi tadqiqotlar nominal ish haqi omilini inflyatsiya darajasi bilan almashtirish orqali O.Fillips tomonidan ochilgan bog'liqlikni aniqlashtirishga imkon berdi. Gap shundaki, nominal ish haqining ulushi ba'zi hollarda xarajatlarning 3/4 qismiga etadi, shuning uchun ularning dinamikasi yo'nalishi mos keladi. P.Samuelson va R.Solou tomonidan amalga oshirilgan sezilarli yaxshilanishlarga qaramay, inflyatsiya darajasi va ishsizlik darajasi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni aks ettiruvchi egri chiziq Fillips egri chizig'i deb nomlandi.

### **15.5. Mizes, Xayeklarning iqtisodiy g'oyalari ahamiyati.**

XX asrning birinchi yarmida Vena universitetining ikki nafar bitiruvchisi Lyudvig fon Mizes va Fridrix fon Xayek (1899–1992) neoklassik yo'nalish tarafdorlari orasida alohida ahamiyat va shuhrat qozondilar. An'anaviy neoklassitsizm tamoyillarini aynan avstriyalik olimlar himoya qilganligini tushuntirish oson, chunki bu mamlakatda marjinalizm an'analari K.Menger, F. fon Vizer va E. fon Bem-Baverk (marjinallik nazariyasi asoschilari) nihoyatda kuchli edi.

**Lyudvig fon Mizes (1881-1973)** Lyuksemburgda temir yo'l muhandisi va pudratchining oilasida tug'ilgan. Vena universitetini tamomlagan. 1913-yildan 1934-yilgacha u Vena universitetida professor bo'lgan, keyin Jenevaga ko'chib o'tgan va u yerda xalqaro iqtisodiy munosabatlar kafedrasida professor unvonini olgan. 1940-yildan AQShda yashagan, Nyu-York universiteti professori. U F. fon Xayek, F.Machlup, G. Xaberler va boshqa taniqli iqtisodchi va sotsiologlardan iborat yorqin shogirdlarni tarbiyaladi. XX asr iqtisodiyot fanidagi liberal yo'nalishning eng yirik vakili. Asosiy asarlari: «Pul va kredit nazariyasi» (1912), «Sotsializm: iqtisodiy va sotsiologik tahlil» (1922) «Inson harakati» (1949) «Anti-kanalist mentalitet» (1956).

L. fon Mizes birinchi navbatda iqtisodiy aralashmaslik tamoyilining ortodoksai' tarafdori sifatida mashhur bo'ldi, u buni ko'pincha XX asr emas, balki XVIII asr ruhida tushundi. Bu, xususan, Mizesning jamiyat va uning madaniyati o'zgarishining iqtisodiy ongga va iqtisodiy hayotga ta'sirini tahlil qilishga aniq salbiy munosabatida namoyon bo'ldi. Inson o'zgarmas va hamma joyda bir xil - u bozorda turli xil tanlovlarni amalga oshiradigan oqilona iqtisodiy odam. Agar siz tanlash erkinligi va bozor

erkinligiga aralashmasangiz, unda tanlov har doim to'g'ri bo'ladi, deb hisoblaydi.

Lyudvig fon Mizesning asosiy iqtisodiy g'oyalari:

1. U zamonaviy dunyo iqtisodiy tuzilishining uchta varianti ko'rib chiqdi:

➤ Sof bozor iqtisodiyoti;

➤ "Buzilgan bozor";

➤ Nobozor iqtisodiyoti (sotsialistik);

2. Bozor iqtisodiyotida xususiy mulk alohida o'rin tutadi, deb hisoblagan. Bu tsivilizatsiya va jamiyatning moddiy farovonligining majburiy va zarur hodisasidir. Xususiy mulkning ijtimoiy funksiyasi:

➤ resurslardan maqbul foydalanishga ko'maklashish;

➤ iste'molchilarning suverenitetini ta'minlash;

3. Sotsializmning mantiqiy va amaliy imkonsizligini isbotladi, chunki u iqtisodiyotni

oqilona tashkil etishga qodir emas (xususiy mulk yo'q). Rejalashtirishni tanqid qiladi.

Mizesning fikricha, u raqobatni, narx belgilashning bozor tamoyillarini inkor etadi, iqtisodiy resurslardan samarasiz foydalanishga olib keladi. Sotsializm – bu "rejalashtirilgan tartibsizlik tizimi"dir;

4. Davlat rolining kuchayishi (ayniqsa, sotsializm davrida) muqarrar ravishda byurokratiya rolining oshishiga, korruptsiyaga, iqtisodiyot samaradorligining pasayishiga olib keladi, deb ta'kidladi.

5. Demokratik tamoyillarga faqat erkin bozor mos keladi, deb hisoblagan, faqat erkin

bozor sharoitida iste'molchi iqtisodiy tizimning markazi hisoblanadi. Iste'molchi o'z pul

daromadlari bilan muqobil imkoniyatlarni tanlash orqali ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibini belgilaydi, o'z farovonligini maksimal darajada oshiradi. Shaxsning bozor tizimidagi mavqei uning mehnati bilan belgilanadi.

### **Fridrix fon Xayek (1899-1992)**

Vena shahrida universitet professori oilasida tug'ilgan. Vena universitetini (huquq va siyosiy iqtisod) tamomlagan. U Vizer va Mizesning shogirdi edi. Huquq va iqtisod fanlari doktori. 1931 yilda u Londonga ko'chib o'tdi va u erda London Iqtisodiyot maktabida professor bo'ldi. J. Keyns nazariyasini keskin tanqid qildi. 1950 yildan - Chikago universiteti professori (AQSH). 1962-yildan Frayburg universiteti (Germaniya) professori. 1974-yilda u iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. 1991-yilda u Prezidentning "Ozodlik" medali (AQSHdagi eng yuqori mukofot) bilan taqdirlangan. Asosiy asarlari:

“Valyuta nazariyasi va savdo sikllari” (1933), “Qullikka yo‘l” (1944), “Individualizm va iqtisodiy tartib” (1948), “Konstitutsiya va erkinlik” (1960).

F.Xayek inson erkinligining ustunligini bosh tamoyil sifatida ko‘rsatadi. Erkinlik bu davlat tomonidan majburlash usullarining qo‘llanmaslik holatidir. Xayek fikriga ko‘ra davlat maorifni, ijtimoiy sug‘urtani tashkil qilish va kvartira haqi stavkasini tartiblash bilan shug‘ullanmasligi kerak, chunki bu ishlar “ma‘muriy despotizm”dir.

Davlatni hatto pulni emissiya qilishdagi monopol huquqdan ham mahrum qilish kerak, deb hisoblaydi. Uning fikricha, davlat qarilik pensiyalari va ishsizlik nafaqalarini to‘lash bilan shug‘ullanishi kerak.



15.4. Rasm. F.Xayek: davlat shug‘ullanmasligi lozim bo‘lgan ishlar.

F.Xayek mikroiqtisodiy jarayonlarni tadqiq qilish bir butun iqtisodiyotning amal qilishini tushuntirib berish uchun yetarli, makroiqtisodiy tahlilga zarurat yo‘q, deb hisoblaydi. Xo‘jalik sub‘ektlarining hatti-harakatlari axborotlar yordamida muvofiqlashtirib turiladi, axborotlarning o‘zi bozor mexanizmi orqali kelib, xo‘jalik ishtirokchilariga ustunlik beradi. Bozorda aniq axborotlar yetarli bo‘lib, bozor samaradorligini ko‘rsatadi va juda tez tarqaladi. Buning natijasida muvozanat o‘rnatiladi.

F.Xayekning fikricha, yetarli va tezkor axborotga ega bo‘lmagan markazdan rejalashtirish bozor iqtisodiyotiga o‘xshab samarali amal qila olmaydi, chunki baholarning markazdan turib o‘rnatilishi, uning ustidan qat‘iy nazorat amalga oshirilishi axborotning buzilishiga va noto‘g‘ri axborot tarqalishiga olib keladi. Natijada baho talab va taklifni to‘g‘ri aks ettira olmaydi, tovarga bo‘lgan talab to‘g‘risida ishlab chiqaruvchi aniq tasavvurga ega bo‘la olmaydi.

F.Xayek pul emissiyasiga bo‘lgan davlat monopoliyasini jamiyat uchun zararli deb hisoblaydi, chunki davlat bu monopoliya yordamida

davlat qarzi muammosi, davlat xarajatlarining ko'payib ketishi va hokazo muammolarini o'z fuqarolari hisobiga bartaraf etishga urinadi, deydi. Pul emissiyasini erkin raqobat asosida xususiy emission banklarga topshirishni taklif qiladi. Uning fikricha, xususiy valyutalarni chiqarayotgan banklar o'rtasidagi erkin raqobat natijasida odamlar o'zlari uchun qulay bo'lgan barqaror valyutani tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

### **Qisqa xulosalar**

1980-1982-yillarda boshlangan inqiroz Keynsning o'sish va iqtisodiyotni antisiklik boshqarish nazariyalarini rad etdi. G'arb mamlakatlaridagi ushbu jarayonlar natijasida neoliberalizm rivojlandi. Neoliberalizm – xo'jalik faoliyatini boshqarish to'g'risidagi yo'nalish bo'lib, iqtisodiyot o'zini-o'zi boshqarishi va haddan tashqari tartibga solinishini rad etadi. Neoliberalizm uchta maktabni: London (F. fon Xayek); Chikago (M. Fridman); va Frayburg (V.Oyken, L.Erxard) maktablarini o'z ichiga oladi.

Zamonaviy neoliberalizm vakillari iqtisodiy siyosatga juda ko'p ta'sir ko'rsatadilar. "Reyganomika" va "Tetcherizm" deb nomlangan qarashlarni shakllantirish uchun neoliberalizmdan foydalanilgan. Ular davlatning iqtisodiy hayotdagi ishtirokini cheklashga, raqobatni rivojlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishga - eng muhim tartibga solish mexanizmiga e'tibor qaratishdi.

London neoliberalizm maktabining asosiy vakili - avstriyalik iqtisodchi Fridrix fon Xayek, 1974-yilda G.Myurdal bilan birgalikda iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. Neoliberalizmning taniqli nemis nazariyotchilari V.Rebke, A.Ryustov va boshqalar ozodlik va insonparvarlik bahonasida monopolizm vujudga kelishining barcha ko'rinishlarini tanqidga boshchilik qildilar.

Neoliberalizm konsepsiyasining «ijtimoiy bozor xo'jaligi» modelini yaratish va amalga oshirish prinsiplari institutsionalizmning «barcha uchun farovonlik jamiyati» konsepsiyasi bilan hamohangdir, chunki ikkala modelda insonni inson tomonidan ekspluatatsiya qilinishi va sinfiy antagonizm inkor etiladi.

Monetarizm – nafaqat pul to'g'risidagi ta'limot. Bu maktab vakillarining diqqat markazida pul kategoriyasi, pul-kredit dastaklari turadi; ammo ularni pul mexanizmi, bank tizimi, pul-kredit siyosati, valyuta munosabatlari shunchaki qiziqirmadi. Monetaristlar ushbu jarayonlarni pul muassasasi bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun tadqiqot qildilar.



### **Asosiy tushuncha va iboralar**

Neoliberalizm; ijtimoiy bozor xo'jaligi; ordoliberalizm; «rasmilashgan jamiyat»; iqtisodiy tizim tiplari; pulga bo'lgan talab; pul taklifi; «ayirboshlash tenglamasi»; likvidli aktivlar; barqaror pul siyosati.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Neoliberalizm vujudga kelishi va rivojlanishi.
2. Neoliberalizmning keynschilikdan farqi nimada?
3. London neoliberalizm maktabi vakillarining ta'limotlari.
4. «Ordoliberalizm»ning mohiyatini tushuntiring.
5. «Ijtimoiy bozor xo'jaligi», uning tiplarini izohlang.
6. Neoliberalizm Chikago maktabining monetar konsepsiyasi mohiyatini tushuntiring.
7. L.Erxardning iqtisodiy islohotining muvaffaqiyatiga qanday omillar yordam berdi?
8. Ijtimoiy bozor iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
9. Fillips egri chizig'ining mohiyati.
10. Mizes, Xayeklarning iqtisodiy g'oyalari mohiyati.

## XVI. BOB. IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA NOBEL MUKOFOTI SOVRINDORLARI

### 16.1. Nobel mukofotining mohiyati va uning joriy etilishi

**Nobel mukofoti** (inglizcha *Nobel Prize*) — buyuk ilmiy izlanishlar, inqilobiy ixtirolar yoki madaniyat va jamiyatning rivojiga katta hissalar qo‘shganligi uchun har yili taqdim etiladigan eng nufuzli xalqaro mukofotlardan biri.

**Alfred Bernxard Nobel** (21.10.1833-Stokgolm- 10.12.1896, San-Remo, Italiya) Emmanuel Nobelning o‘g‘li edi va bizga tanish bo‘lgan mukofot mazkur shaxs nomi bilan bevosita bog‘liqdir. U ham Rossiyada bo‘lgan va taniqli rus kimyogar olimlari N.N.Zinin va V.F.Petrushevskiylarning ishlari, asarlari bilan tanishib chiqqan. Ularning tadqiqotlari kimyo fanining nitroglitserinni tayyorlash va undan amaliy foydalanish texnologiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan. 1863-yilda A.B.Nobel ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi va 1867-yili Buyuk Britaniyada portlovchi modda-umumiy nomi “dinamit” deb nomlangan kashfiyot uchun patent oldi. Xuddi o‘sha yili o‘sha joyda (Londonda) dastlabki dahshatli simobli kapsul-detonator ixtirosini ham patentlab oldi va o‘z ixtirosini amaliyotga joriy etdi. U portlovchi modda-dinamit ishlab



A.Nobel

chiqarishni keng yo‘lga qo‘ydi, bu sohada ikkita trest tashkil etildi, uning tashkilotchisi va egasi sifatida ish yuritdi. Bu trestlar G‘arbiy Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida faoliyat ko‘rsatdi. Alfred Nobel London qirollik jamiyati va Shvetsiya fanlar akademiyasining a‘zosi bo‘lgan. Ko‘p yillik izlanishlari natijasi o‘laroq, A.Nobel 80 dan ortiq kashfiyot muallifidir. Dinamit, sun‘iy ipak, gaz motorlari na boshqalar hammaga yaxshi ma‘lum. Ammo bu olimni jahonga mashhur qilgan so‘nggi “kashfiyoti” - uning 1895-yili Parij shahrida yozib qoldirgan bir parcha “Vasiyatnoma”sidir. Shu hujjatga asosan Alfred Nobel xalqaro mukofoti yuzaga keldi va hozirda ham eng yuksak nufuzga ega.

A.B.Nobel vasiyatiga ko‘ra, uning vafotidan keyin qolgan jamg‘arma-kapital asosida Nobel fondi tashkil etilishi kerak edi. Hozir shu fondga tushadigan har yilgi daromad besh qismga teng bo‘linib, “Nobel” mukofoti shaklida fizika, kimyo, fiziologiya yoki meditsina sohasidagi buyuk kashfiyotlar, badiiy asarlar, xalqlar do‘stligi va tinchlikni mustahkamlash yo‘lida ko‘rsatilgan faoliyat uchun berib boriladi.

A.Nobelni biz bilan bog'lovchi rishtalar mavjud. U 1880-yillarda O'rta Osiyo (Kaspiy orti) temir yo'li qurilishi ishlarini mamnuniyat bilan ma'qullagan. Xorazm, Buxoro va Farg'onaning bexisob boyliklari Rossiyaga to'kinlik keltirishini bashorat qilgan ekan.

1968-yilda Shvetsiya davlat banki tashkil etilganligining 300 yillik yubileyi munosabati bilan iqtisodiyot fanlari sohasidagi yutuqlar uchun beriladigan qo'shimcha (oltinchi) Nobel mukofoti ta'sis etildi.

Agar A.B.Nobel 1896-yili vafot etgan bo'lsa, mukofotni topshirish 1901-yildan boshlandi va hozirgacha davom, etib kelmokda. Nobel mukofoti A.B.Nobel tasviri tushirilgan va tegishli yozuvi bo'lgan oltin medaldan, diplom va miqdori Nobel fondidagi daromadga bog'liq bo'lgan mablag'dan iborat (2,5 million shved kronasi).

Bu mukofoga nomzodlar tanlash va topshirish vazifasi Nobelning vasiyatiga ko'ra, Stokgolmdagi Shvetsiya qirollik fanlar akademiyasiga (fizika, kimyo, iqtisodiyot fanlari bo'yicha), Stokgolmdagi qirollik meditsina-xirurgiya (jarrohlik) institutiga (meditsina yoki fiziologiya bo'yicha) va Stokgolmdagi Shvetsiya akademiyasiga (badiiy asarlar bo'yicha) topshirilgan. Tinchlikni mustahkamlash yo'lida ko'rsatilgan faoliyat uchun Nobel mukofotini Norvegiya (Oslo) parlamentining Nobel komiteti a'zolari beradi.

<i>No</i>	<i>Yo'nalishlar</i>	<i>Nobel mukofotini topshirish vazifasi Nobelning vasiyatiga ko'ra quyidagi tashkilotlar tomonidan beriladi</i>
1	Fizika, kimyo bo'yicha	Stokgolmdagi Shvetsiya qirollik fanlar akademiyasiga topshirilgan.
2	Meditsina yoki fiziologiya bo'yicha	Stokgolmdagi qirollik meditsina-xirurgiya (jarrohlik) institutiga topshirilgan.
3	Badiiy asarlar bo'yicha	Stokgolmdagi Shvetsiya akademiyasiga topshirilgan.
4	Tinchlikni mustahkamlash yo'lida ko'rsatilgan faoliyat uchun	Norvegiya (Oslo) parlamentining Nobel komiteti a'zolari beradi.
5	Iqtisodiyot fanlari (1968 yildan) bo'yicha	Stokgolmdagi Shvetsiya qirollik fanlar akademiyasi tomonidan beriladi.

**16.1. Rasm. Nobel mukofoti beriladigan yo'nalishlar va mukofotni beradigan tashkilotlar.**

Nobel mukofotiga nomzodligi ko'rsatilgan shaxslarning irqi, millati, jinsi va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, bu mukofotlar mazkur fan

sohalarida erishilgan eng yuksak yutuqlar uchun berilishi kerak.

1968-yilda Shvetsiya Markaziy banki o'zining 300 yilligi munosabati bilan iqtisod fanlari sohasidagi yutuqlari uchun ham beriladigan qo'shimcha Nobel mukofotini ta'sis etgan. 1969-yilda iqtisodiyot sohasida ilk Nobel mukofotiga sazovor bo'lganlar: norvegiyalik Ragnar Frish va gollandiyalik Yan Tinbergen hisoblanadi. Ularga mukofot iqtisodiy jarayonlar tahlilini amalga oshirishda dinamik modellarni qo'llaganliklari uchun taqdim etilgan.

## 16.2. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha Nobel mukofoti sovrindorlari (1969-2022 - yillar)

Yil	Hayatlar nomi	Tadqiqotlari
2022	Ben Bernanke, Duglas Daymond Filip Dyubvig	“Moliyaviy inqirozlar va bank ishi bo'yicha Tadqiqotlari uchun
2021	Devid Kard, Joshua Engrist Guido Imbens	Devid Kard «Mehnat iqtisodiyotini o'rganishga empirik hissa qo'shganligi», Joshua Engrist va Guido Imbenslar «sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilishga metodologik hissa qo'shganliklari» uchun
2020	Pol Milgrom Robert Uilson	“Auktsion nazariyasini takomillashtirish va auktsionlarning yangi formatlarini ixtiro qilganliklari uchun”
2019	Maykl Kremer, Abxijit Banerji Ester Dyuflo	“Global qashshoqlikka qarshi kurashda eksperimental yondashuv uchun”
2018	Pol Romer, Uilyam Nordxaus	“Iqlim o'zgarishi va texnologik innovatsiyalarni uzoq muddatli makroiqtisodiy tahlilga kiritgani uchun”
2017	Richard Taler	“Xulq-atvor iqtisodiyoti tadqiqotlari uchun”
2016	Oliver Xart Bengt Xolmstrem	“Shartnomalar nazariyasini rivojlantirishga qo'shgan hissaslari uchun”
2015	Angus Diton	“Iste'mol, qashshoqlik va farovonlikni tahlil qilgani uchun”
2014	Jan Tirol	“Bozor hokimiyati va uni tartibga solishni tahlil qilgani uchun”
2013	Robert Shiller, Yudjin Fama, Lars Piter Xansen	“Aktivlar narxi o'zgarishini empirik tahlili uchun”
2012	Elvin Rot, Lloyd Shepli	“Barqaror taqsimot nazariyasi va bozorlarni tashkil qilish amaliyoti uchun”
2011	Tomas Sardjent,	“Makroiqtisodiyotdagi sabab-oqibat aloqalari

	Kristofer Sims	bo'yicha empirik tadqiqotlar uchun"
2010	Piter Daymond Deyl Mortensen Kristofer Pissarides	"Qidiruv modellari bilan bozorni tahlil qilgan uchun"
2009	Elinor Ostrom Oliver Uilyamson	"Iqtisodiy tashkilotlar sohasidagi tadqiqotlari uchun"
2008	Pol Krugman	"Savdo tuzilmasi tahlili va iqtisodiy faollikni joylashtirish uchun"
2007	Leonid Gurvich Erik Meskin Rodjer Mayerson	"Optimal mexanizmlar nazariyasi asoslarini yaratgan uchun"
2006	Edmund Felps	"Makroiqtisodiy siyosatda zamonlararo almashinuvni tahlili uchun"
2005	Robert Aumann Tomas Shelling	"O'yinlar nazariyasini tahlil qilish orqali ziddiyat va hamkorlikning mohiyatini tushunishimizni chuqurlashtirish uchun"
2004	Finn Kidland Edvard Preskott	"Vaqt omilining iqtisodiy siyosatga ta'sirini o'rganishga qo'shgan hissasi va biznes tsikllarining harakatlantiruvchi kuchlarini tadqiq qilgani uchun"
2003	Robert Ingl	"Avtoregressiv shartli geterosedastiklik (ARCH)" ga ega bo'lgan matematik modelga asoslangan iqtisodiyotdagi vaqtli qatorlarni tahlil qilish usulini ishlab chiqqani uchun".
	Klayv Grenjer	"Iqtisodiyotda vaqtli qatorlarni tahlil qilishda kointegratsiya usulini ishlab chiqqani uchun"
2002	Deniel Kaneman Vernon Smit	"Qaror qabul qilish va muqobil bozor mexanizmlari sohasidagi tadqiqotlari uchun"
2001	Jorj Akerlof Maykl Spens Jozef Stiglits	"Asimmetrik axborotli bozorlarni tahlil qilgani uchun"
2000	Jeyms Xekman Deniel Makfadden	"Diskret tanlov nazariyasi va tahlil usullarini rivojlantirgani uchun"
1999	Robert Mandell	"Har xil valyuta kurslari bo'yicha pul -kredit va byudjet siyosatini tahlil qilish va optimal valyuta zonalarini tahlil qilgani uchun"
1998	Amartiya Sen	"Farovonlik iqtisodiyotiga qo'shgan hissasi uchun"
1997	Robert K. Merton Mayron Shoulz	"Hosilaviy moliyaviy vositalarini baholash usullari uchun"
1996	Jeyms Mir'lis Uilyam Vikri	"Rag'batlantirish va assimetrik ma'lumotlarning iqtisodiy nazariyasiga qo'shgan hissaslari uchun"

1995	Robert Lukas	“Ratsional kutishlar gipotezasini qo‘llash va rivojlantirish, makroiqtisodiy tahlilni o‘zgartirish va iqtisodiy siyosatni tushunishni chuqurlashtirganligi uchun”
1994	Jon Xarsani Jon Nesh Raynard Zelten	“Koalitsion bo‘lmagan o‘yinlar nazariyasidagi muvozanatni tahlil qilganligi uchun”
1993	Robert Fogel  Duglas Nort	“Iqtisodiy va institutsional o‘zgarishlarni tushuntirish uchun iqtisodiy nazariya va miqdoriy usullardan foydalangan holda iqtisodiyot tarixini yangica tadqiq etgani uchun”
1992	Geri Bekker	“Inson xulq atvorini tahlil qilishda iqtisodiy usullarni qo‘llagani uchun”
1991	Ronald Kouz	“Tashkiliy tuzilmalar va iqtisodiyotning ishlashi uchun transaksion xarajatlar va mulkiy huquqlarning ahamiyatini ochib bergani va ko‘rsatgani uchun”
1990	Garri Markovits Merton Miller Uilyam Sharp	“Moliyaviy aktivlarning narxini shakllantirish nazariyasiga qo‘shgan hissasi uchun”
1989	Tryugve Xaavelmo	“Ehtimollar nazariyasi va bir vaqtning o‘zida iqtisodiy tuzilmalarni tahlil qilish asoslarini tushuntirgani uchun”
1988	Moris Alle	“Resurslardan samarali foydalanish va bozor nazariyasiga qo‘shgan hissasi uchun”
1987	Robert Solou	“Iqtisodiy o‘sish nazariyasiga qo‘shgan hissasi uchun”
1986	Jeyms Byukenen	Ekologik va siyosiy qarorlar qabul qilish nazariyasining shartnoma va konstitutsiyaviy asoslarini o‘rgangani uchun
1985	Franko Modilyani	“Milliy pensiya dasturlarini yaratishda juda muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan odamlarning jamg‘armalarga nisbatan xatti -harakatlarini tahlil qilgani uchun”
1984	Richard Stoun	“Iqtisodiyot fanining rivojlanishiga qo‘shgan hissasi uchun”
1983	Jerar Debryo	Umumiy muvozanat nazariyasi va qandaydir mavhum iqtisodiyotda umumiy muvozanat qanday bo‘lishini tushunishimizga qo‘shgan hissasi uchun.
1982	Jordj Stigler	“Sanoat tuzilmalari, bozorlarning ishlashi, davlat tomonidan tartibga solish sabablari va oqibatlari bo‘yicha yangi tadqiqotlari uchun”

1981	Jeyms Tobin	"Moliyaviy bozorlar holati va ularning xarajatlar sohasidagi qarorlar qabul qilish, ishsizlik, ishlab chiqarish va narxlar holatiga ta'sirini tahlil qilgan uchun"
1980	Lourens Kleyn	"Iqtisodiy modellarni yaratish va ularni iqtisodiyot va iqtisodiy siyosatdagi o'zgarishlarni tahlil qilishda qo'llagani uchun"
1979	Teodor Shults Artur L. yuis	"Rivojlanayotgan mamlakatlar muammolariga tatbiq etilgan iqtisodiy rivojlanish bo'yicha birinchi tadqiqotlari uchun"
1978	Gerbert Saymon	"Iqtisodiy tashkilotlarda qaror qabul qilish bo'yicha yangi tadqiqotlari uchun"
1977	Bertil Olin Jeyms Mid	"Xalqaro savdo nazariyasi va kapitalning xalqaro harakati haqidagi qo'shgan hissasi uchun"
1976	Milton Fridman	"Iste'molni tahlil qilish, pul muomalasi tarixi va pul nazariyasining rivojlanishi sohasidagi yutuqlar uchun, shuningdek, iqtisodiy barqarorlashtirish siyosatining murakkabligini amalda ko'rsatgani uchun"
1975	Leonid Kantorovich Tyalling Kupmans	"Resurslarni maqbul taqsimlash nazariyasiga qo'shgan hissasi uchun"
1974	Gunnar Myurdal Fridrix fon Xayek	"Pul nazariyasi va iqtisodiy tebranishlar bo'yicha asos solgan ishi va iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional hodisalarning o'zaro bog'liqligini chuqur tahlil qilgani uchun"
1973	Vasiliy Leontev	<<"xarajatlar - mahsulot chiqarish" usulini ishlab chiqqani va uni muhim iqtisodiy muammolarda qo'llagani uchun>>
1972	Jon Richard Xiks, Kennet Errou	"Umumiy muvozanat va farovonlik nazariyasiga qo'shgan hissasi uchun"
1971	Saymon Kuznets	"Iqtisodiy o'sishning empirik asosli talqini uchun"
1970	Pol Entoni Samuelson	"statik va dinamik iqtisodiy nazariyani rivojlantirgan ilmiy ishlari uchun"
1969	Ragnar Frish Yan Tinbergen	"Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda dinamik modellarni yaratgani va qo'llagani uchun"

20.2. Rasm. Iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha Nobel mukofotini olgan olimlar.



Ragnar Frish 1933

**Ragnar Frish** (1895.3.03 Oslo -1973.31.01) – norveg iqtisodchisi, Norvegiya Fanlar akademiyasi aʼzosi. Oslo shahridagi universitetda oʻqigan. Oslo universiteti huzuridagi Iqtisodiyot instituti direktori, Yel, Sorbonna universitetlarida iqtisodiyot boʻyicha leksiya oʻqigan. Iqtisodiy nazariyada matematik yoʻnalish vakili.

Ekonometrika asoschisi, birinchilardan boʻlib makro va mikroiqtisodiy taxlil sohalari chegaralarini koʻrsatdi, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda qoʻllaniladigan iqtisodiy siklning dinamik modelini yaratgan. Iqtisodiy-matematik programmalashtirish usullaridan foydalangan holda iqtisodiy rejalashtirishda qarorlar qabul qilish modelini ishlab chiqqan. Frish taklif etgan iqtisodiy oʻsish usullari va modellari, shuningdek, milliy hisoblarni tuzish tartiblari Norvegiya va boshqa mamlakatlarning byudjet, statistika organlari faoliyatida keng qoʻllanilgan.

**Pol Entoni Samuelson** (1915.15.5, Geri, AQSH, Indiana shtati) — amerikalik iqtisodchi. 1940-yildan Massachusetts texnologiya institutida profassistenti, 1966-yildan shu institut professori, 1941-yildan boshlab oʻqituvchilik bilan birga davlat muassasalarida maslahatchilik ham qilgan. Xalqaro iqtisodiy uyushma prezidenti. Samuelsonning ilmiy ishlari hozirgi zamon iqtisodiyot fanining deyarli barcha sohalarini qamraydi. Iqtisodiy dinamika nazariyasi, iqtisodiy sikllar, isteʼmolchi talabi nazariyasi, farovonlikning iqtisodiy nazariyasi, xalqaro iqtisodiyot nazariyasiga muhim hissa qoʻshgan. Samuelsonning iqtisodiy qarashlari qisqacha neoklassik sintez deb ataladi va daromadlarning taqsimlanish qonuni hozirgi zamon marjinalistik gʻoyalarning “klassik” prinsiplari bilan birgalikda tahlil etiladi. Samuelson aralash iqtisodiyot nazariyasi tarafdori, yaʼni davlatning iqtisodiyotga qisman aralashuvini maʼqullaydi. Samuelsonning “Ekonomiks” darsligi va “Iqtisodiy tahlil asoslari” asari bir necha bor nashr etilgan.



Paul Anthony Samuelson

**Saymon Kuznets** (1901.30.4, Xarkov-1985.9.7, AQSH) — amerikalik iqtisodchi. Ukrainada statistika boʻlimining boshligʻi lavozimida qisqa muddat ishlagach, AQShga muhojir boʻlib ketgan. Kolumbiya universiteti doktori, Iqtisodiy tadqiqotlar Milliy byurosi aʼzosi. Pensilvaniya, J.Gopkins, Garvard universitetlari professori. AQSH statistika assotsiatsiyasi va AQSH iqtisodiy assotsiatsiyasi prezidenti etib saylangan. Kuznets iqtisodiy oʻsish nazariyasiga katta hissa qoʻshdi. Oʻsishning uzoq sikllari aholi oʻsishi surʼatlari oʻzgarishlariga bogʻliqligini tadqiq qildi, koʻpgiva sanoati



rivojlangan mamlakatlarda iste'molning daromadga nisbati bir necha o'n yilliklar davomida barqarorligini va belgilangan mahsulot hajmini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan real kapital pasayish tendensiyasiga ega ekanligini aniqladi. Kuznets pirovard mahsulot ishlab chiqarish, kapital va jam'arishning shakllanishi, aholining turli tabaqalari o'rtasida daromadning taqsimlanishini aniq baholadi. Uning ishlari jahonning barcha mamlakatlari uchun yalpi milliy mahsulot, milliy daromadni hisoblashning yagona uslubini ishlab chiqishga imkon berdi.



Simon Smith Kuznets

**Jon Richard Xiks** (1904.8.4, Uorik 1989) - ingliz iqtisodchisi. Oksford universitetida o'qigan, Londondagi iqtisodiyot maktabida dars bergan.

Manchester va Oksford universitetlari professori. O'z asarlarida iqtisodiy nazariyadagi matematika maktabining umumiy iqtisodiy muvozanat nazariyasi va eng yuqori naflilik nazariyasi g'oyalarini rivojlantirdi. Shuningdek, iqtisodiy o'sish va ish haqi muammolarini o'rgandi. Asosiy asarlari: "Ish haqi nazariyasi", "Iqtisodiy sikl nazariyasiga doir", "Kapital va iqtisodiy o'sish", "Keynschilik iqtisodiy nazariyasining inqirozi" va h.k. U iqtisodiy tarix nazariyasiga ham muhim hissa qo'shdi, ayniqsa, iqtisodiy rivojlanishning tarixiy mantig'ini keng yoritdi.



John Hicks

**Vasily Vasilyevich Leontev** (1906.5.8, Sankt-Peterburg — 1999.7.2, Nyu-York) — amerikalik rus iqtisodchisi. Leningrad universitetini tugatgan. 1925-

1928-yillarda Berlin universitetida o'qib, 1928-yilda doktorlik ilmiy darajasini olgan. 1931-yilda AQShga ko'chib ketgan. Garvard universiteti, NyuYork universiteti professori bo'lgan. V.Leontev "Xarajatlar — mahsulot chiqarish" iqtisodiy tahlil usulini yaratdi. Bu usul AQSH iqtisodiyotining tarmoqlararo balansini tuzishda qo'llanilgan. Uning tadqiqotlarida iqtisodiy tizim ichidagi o'zaro bog'lanishlarni o'rganish asosiy yo'nalishni tashkil etadi. "Amerika iqtisodiyoti tuzilmasini o'rganish", "Xarajatlar — mahsulot chiqarish" modelining iqtisodiy tahlili" asarlarida F.Kene va boshqalarning modellarini kengaytirgan holda iqtisodiy tizimning turli qismlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatadigan matematik modellar yaratdi. V.Leontev o'z modelini AQSH iqtisodiyotini



V. Leontev

tahlil etishda qo‘llab, xalqaro savdo va tabiiy resurslar iqtisodiyoti sohasida muhim natijalarga erishdi. V.Leontev usuli mamlakat iqtisodiyotini



L.V. Kantorovich

prognozlash va rejalashtirishda, hukumatlar uchun o‘zlarini yuritayotgan investitsiya, soliq, tashqi savdo siyosati, harbiy xarajatlar va boshqalarning xalq xo‘jaligiga ta‘sirini baholashda muhim dastak bo‘lib xizmat qiladi. V.Leontev iqtisodiyotda matematik metodlar va modellarni qo‘llash, xalqaro savdo, K.Marks va J.Keyns nazariyalari tahlili, indekslarni tuzish, talab va taklif mexanizmi, iqtisodiy sikllar va boshqa muammolar ustida ham tadqiqotlar olib borgan.

**Myurdal Gunnar** (1898.6.12, Gustafs, -1987.17.5, Stokgolm) — shved iqtisodchisi, siyosatchi va xalqaro arbob. Jahon iqtisodiyoti tadqiqoti institutining asoschisi va direktori, BMT ning Yevropa uchun Iqtisodiy komissiyasi Bosh kotibi. Stokgolm universitetida xalqaro iqtisodiy munosabatlar professori. Iqtisodiy tahlilga kutiladigan va amaldagi o‘zgaruvchanliklar atamalarini kiritdi hamda ularning iqtisodiy muvozanatning vujudga kelishiga ta‘sirini ko‘rsatdi.

“Amerika dilemmasi: negrlar muammosi va zamonaviy demokratiya”, “Urushdan keyingi optimizmga qarshi ogohlantirish”, “Iqtisodiy nazariya va past rivojlangan mintaqalar”, “Osiyo dramasi: xalqlar qashshoqligining tadqiqoti”, “Oqimga qarshi: iqtisodiyot bo‘yicha tanqidiy ocherklar” asarlarida murakkab matematik-iqtisodiy nazariyalarning yaratilishini tanqid qildi, iqtisodiy muvozanatlar muammolarini, past rivojlangan mamlakatlarga iqtisodiy yordam ko‘rsatishning shu mamlakatlar uchun salbiy oqibatlarini tadqiq etdi.

Myurdal pul nazariyasi, iqtisodiy tebranishlar, iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional hodisalarning o‘zaro aloqadorliklarini tahliliga bag‘ishlangan asarlar yozgan.



Karl Gunnar Myrdal

**Kantorovich Leonid Vitalyevich** [1912.6(18).1, Peterburg — 1986.7.4, Moskva] — rus matematigi va iqtisodchisi, akademik (1964). Leningrad universitetini tugatgan. Ilmiy ishlari hisoblash matritsasini iqtisodiyotda tatbiq etishga bag‘ishlangan. Birinchi bo‘lib funksional analiz usullarini hisoblash matritsasiga qo‘llagan, xususan, operatorli tenglamalarni taqribiy yechish usullarini ishlab chiqqan. Chiziqli dasturlash sohasiga asos solgan. Chiziqli dasturlash asosida iqtisodiy resurslardan eng samarali foydalanish bilan bog‘liq muammolarni hal

qilish modelini yaratgan. Eng maqbul iqtisodiy modellar tahlilida paydo bo'ladigan ob'yektiv shartlangan narxlarni muhim qiymatlarini aniqladi. Bu tadqiqotlar xalq xo'jaligini optimal rejalashtirish va boshqarish nazariyasini yaratishda hamda narx belgilash, renta nazariyasi, kapital qo'yilmalar samaradorligi va boshqa muammolarni ishlab chiqishga yordam berdi. Umrining oxirlarida iqtisodiyotda matematik modellar bilan shug'ullangan.

**Milton Fridmen** (Fridman; 1912.31.7, Nyu York) — amerikalik iqtisodchi, iqtisodiy nazariyada Chikago maktabining yetakchi vakili. Ratgers universitetini tugatgan. Falsafava huquq doktori. Chikagodagi universitetda iqtisodiyot bo'yicha professor. 1971—74 yillarda AQSH prezidenti R. Niksonning iqtisodiy masalalar bo'yicha maslahatchisi bo'lgan. Asosiy ilmiy ishlari pul muomalasi nazariyasi va amaliyoti masalalariga bag'ishlangan. Fridman makroiqtisodiyotda monetarizm yo'nalishi asoschisi, milliy daromadning monetar nazariyasini va AQShning deyarli 100 yillik pul muomalasi tarixini o'rganib pulning miqdoriy nazariyasini asoslab bergan. Keynschilikka qarshi bo'lgan Fridman tadbirkorlik erkinligi, bozor mexanizmlarining o'zi davlat



Milton Friedman

1969—70 yillarda Yevropa Kengashida, 1955—70 yillarda Shimoliy kengashda Shvetsiya



B. Olin

**Bertil Olin** (1899.23.4, Klippan — 1979, Stokgolm) — shved iqtisodchisi va siyosat arbobi. Stokgolm oliy maktabi va Kopengagen universiteti, Stokgolm oliy savdo maktabi professori. Shvetsiya savdo vaziri. 1949—60 va 1969—70 yillarda Yevropa Kengashida, 1955—70 yillarda Shimoliy kengashda Shvetsiya xalq partiyasi raisi bo'lgan. B.Olin "Mintaqalararo va xalqaro savdo" asarida E.Xeksher va P. Samuelson bilan birga ishlab chiqarish omillari xalqaro taqsimoti nazariyasiga asos soldi. U xalqaro savdo va xalqaro kapital harakati nazariyalariga ham katta hissa qo'shdi. Keyns qarashlarini rivojlantirgan holda davlat xususiy tadbirkorlar va monopoliyalar uchun qulay sharoitlar yaratib berishi mumkin bo'lgan mutanosib raqobat, monopoliya va davlat tomonidan tartibga solish nazariyasini asoslab bergan. K.Vikseld va E.Lindalning izdoshi bo'lib,

iqtisodiy taraqqiyotning "shved modeli"ni butunlay qo'llab-quvvatladi. Nobel mukofoti laureati (1977, J. Mid bilan birga).

**Saymon (Simon) Gerbert Aleksandr** (15-iyun 1916, AQSH, Milluoki, Viskonsi shtati — 9-fevral 2001) — amerikalik iqtisodchi. Chikago universitetini tugatgan. Illinoys texnologik instituti va Karnegi-Mellon universitetlarida o'qituvchibo'lgan. Uning ilmiy tadqiqotlari hozirgi zamon iqtisodiyot fanining tashkilot (firma)larda qarorlar qabul qilish nazariyasi, menejment, evristik dasturlashtirish sohalariga bag'ishlangan. "Ma'muriy xulq" (1947) asarida firma nazariyasini rivojlantirdi va qarorlar qabul qilish nazariyasini asoslab berdi. Amalda zamonaviy firma boshqaruvchilar guruhi tomonidan boshqariladigan, mulk ham, nazorat ham taqsimlangan yirik iqtisodiy birligidan iborat. Firma qarorlari, yangi davrda klassik yakka tadbirkor o'rniga o'zaro hamkor rahbarlar guruhi tomonidan qabul qilinadi va bunday qarorlarda har bir a'zoning manfaati yotadi. Alohida firmalar foydani maksimallashtirishga emas, balki muammolarning maqbul yechimlarini topishga intiladilar. Qarorlar qabul qiluvchi guruh eng muqobil yechimni tanlay olmagani sababli qoniqarli muqobil qarorlar bilan qanoatlanishlari lozim. Nobel mukofoti laureati (1978).<sup>26</sup>

**Shults Teodor** (1902 AQSH, Janubiy Dakota 1998) - amerikalik iqtisodchi. Viskonsin universiteti magistraturasini tamomlagan, iqtisodiyot fanlari doktori. 1930-43 yillarda Ayova davlat untida qishloq xo'jaligi iqtisodiyotidan dars bergan, 1943-yildan boshlab deyarli 40 yil Chikago universiteti professori bo'lgan. Uning asosiy tadqiqotlari qishloq xo'jaligi va ta'lim iqtisodiyotiga bag'ishlangan. Osiyo va Janubiy Amerika davlatlarining iqtisodiyotiga bag'ishlangan "An'anaviy qishloq xo'jaligining o'zgarishi" asarida agrar texnologiyalarning muhim ahamiyatini ochib berdi. AQSH iqtisodiyotida inson kapitalidan olinadigan foyda jismoniy kapitaldan ortiqligini isbotlab berdi va ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'lim, sog'liqni saqlash va fan sohasiga yirik investitsiyalar ajratishni taklif qildi, bu sohalarini rivojlantirishni mamlakat iqtisodiy o'sishi uchun yangi korxonalar qurishdan afzalroq, deb hisobladi. Nobel mukofoti laureati



Theodore Schultz

<sup>26</sup> Saymon (Simon) Gerbert Aleksandr "O'zME S-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

(1979; W. Arthur Lewis bilan hamkorlikda).

**Kleyn (Klein) Lourens Robert** (1920.14.9, Omaxa, AQSH) — amerikalik iqtisodchi, ekonometrika asoschilaridan biri. Oksford universiteti (Angliya) qoshidagi Statistika instituti xodimi, Pensilvaniya universiteti (AQSH) iqtisodiyot professori bo'lgan. R.Kleyn yaratgan iqtisodiy faoliyatning ekonometrik modellari AQSH, Isroil, Meksika va Yaponiya iqtisodiyotlarining rivojlanishi istiqbollarini aniqlashda qo'llanilgan. R.Kleyn iqtisodiy nazariyani amaliy vazifalarga tadbiq qilishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Uning asarlari bu sohadagi rivojlanishga yo'nalish berdi va jahon bo'yicha modellar yaratishga ta'sir ko'rsatdi. R.Kleynning katta yutug'i -umumiy keynschilik modelini statistik snak'ga keltirganligi bo'ldi. Uning yirik asarlari: "Keynschilik revolyutsiyasi" (1947), "Ekonometrika daryoligi" (1953). Shuningdek, uning bozor konyunkturasi o'zgarishlarini oldindan aniqlashda qo'llaniladigan ekonometrik modellari ham mikroiqtisodiyot muammolarini hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Nobel mukofoti laureati (1980)<sup>27</sup>.

**Jeyms Tobin** (5-mart 1918-yil Shempeyn shahri AQSH - 11-mart 2000-yil) - amerikalik iqtisodchi. Garvard universitetini tugatgan. 1946 yildan Garvard universitetida o'qituvchi, 1950 yildan Yale universiteti professori bo'lgan. J.Tobin tadqiqotlari J.M.Keyns nazariyasini yanada takomillashtirish, makroiqtisodiy va pul nazariyalarini mukammalroq ishlab chiqishga bag'ishlangan. Moliya bozorlari nazariyasi va ularning iste'mol, investitsiya qarorlari, ishlab chiqarish, bandlik va narxlarga ta'siri muammolariga bag'ishlangan asarlari muhim ahamiyatga ega. R.Solou, A.Oyken, K.Errou kabi taniqli iqtisodchilar bilan birga AQSH prezidenti J.Kennedining iqtisodiy maslahatchilari qo'mitasi a'zosi ham bo'lgan. Monetarizm va reygonomika tanqidiga bag'ishlangan maqolalari bilan ham mashhur. Nobel mukofoti laureati (1981).



James Tobin

**George Stigler** (1911-1991, Rentoy shahri AQSH) - amerikalik iqtisodchi. Vashington shtati universitetini tugatgan, Chikago universiteti doktori bo'lgan. G.Stigler birinchilardan bo'lib formal mikroiqtisodiy nazariyalarda sanoat tashkilotlari to'g'risidagi bilimlarni keng qo'llash g'oyasini ilgari surdi. Real bozor jarayonlarini bashoratlashda raqobat va monopoliyaning klassik modellarini qo'lladi.

<sup>27</sup>O'ZME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

G.Stigler mehnat taqsimoti, sanoat tuzilmalari, bozorlar faoliyati, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblashning sabab va oqibatlarini muammolarini chuqur tadqiq etgan. G.Stigler iqtisodiy tafakkur tarixi sohasida ham taniqli olim. U D.Rikardodan J.K.Gelbreytgacha bo'lgan iqtisodchi olimlarning g'oyalarini tahlil qilgan va uning bu tadqiqoti barcha mutaxassislar tomonidan yuqori baholanadi. Nobel mukofoti laureati (1982).

**Debryo (Debreu) Jerar** (1921.4.7. Kale, Fransiya) - amerika iqtisodchisi. Parij universiteti doktori bo'lgan, 1949 yildan AQShda yashagan. Bir qancha universitetlarda, jumladan 1962 yildan Kaliforniya (Berkli) universitetida ishlagan. Asarlarida markazlashtirilmagan bozor tizimi yakka rejalarning ijobiy muvofiqlashuvga olib kelishi mumkinligi muammosini tadqiq etgan. Narxlar muvozanatini yaratadigan omillar mavjudligini isbotlagan (K. Errou bilan hamkorlikda). "Qiyamat nazariyasi" asarida yagona umumiy muvozanat nazariyasining matematik modelini yaratdi va o'z modelida ishlab chiqarishni joylashtirish, kapital va noma'lumlik sharoitlarida fe'l-atvor nazariyalarini birlashtirishga erishdi. Nobel mukofoti laureati (1983).



Franco Modigliani

**Stoun Richard** (1913-1991.6.12, London) - ingliz iqtisodchisi. Kembrij universitetini tugatgan. 1945-yildan Kembrij universitetida dars bergan, moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti professori, Iqtisodiy jamiyat va xalqaro statistika instituti prezidenti bo'lgan. R.Stoun mamlakatlarda ko'pgina qo'llanilayotgan milliy hisoblar tizimini yaratdi. Iqtisodiy qarashlarida neokeynechilik tarafdori bo'lib, iqtisodiy o'sishning ko'p sektorli modelini yaratdi, amaliy ekonometrika sohasida tadqiqotlar olib bordi. Uning milliy hisoblarga moliya balansi tizimini kiritishi katta yangilik bo'ldi. Amaliy ekonometrika sohasida 1954-yilda chiqqan "Buyuk Britaniyada iste'mol afzalligi va xarajatlar hisobi. 1920— 1938" kitobi klassik asar hisoblanadi. Nobel mukofoti laureati (1984). As: Metod "zatrati vipusk" i natsionalnie scheta (per. s angl.), M., 1966.



Gerard Debreu



James M. Buchanan

**Franco Modigliani** (1918.18.6, Rim – 2003.25.9, Cambridge, Massachusetts) - amerikalik iqtisodchi. Huquq doktori, iqtisodiyot ad'yunkt-professori, Illinoys

universiteti iqtisodiyot professori, Karnegi texnologiya institutida iqtisodiyot va sanoatni boshqarish professori, Kembrij universiteti professori bo'lgan. Modigliani keynechilik siyosiy iqtisodini neoklassik iqtisodiy nazariya va monetar tahlil bilan uyg'unlashtirishga erishdi. Modigliani makroiqtisodiy nazariyada ratsional kutish konsepsiyasini rivojlantirishga, pul va foiz nazariyasiga, "hayotiy sikl" modeli va investitsiya qarorlari modellarini yaratishga katta hissa qo'shdi. Nobel mukofoti laureati (1985).

**Byukenen Jeyms Makl-Gil** (1919.3.10-2013.9.01) - amerika iqtisodchisi. 1948-yilda doktorlik ilmiy darajasini olgan. J.Byukenen narx belgilash jarayoniga katta e'tibor qaratib, iqtisodiy taraqqiyotda narx omillari muhim o'rin tutishini ta'kidladi. J.Byukenenning fikriga ko'ra, ishlab chiqarish va narxni hukumat tomonidan nazorat qilinishiga favqulodda hollardagina yo'l qo'yilishi lozim, lekin ayni paytda erkin



Richard Seltzer

tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash yo'lida iqtisodiyot ishlariga davlatning aralashuvini kuchaytirishni yoqlaydi. J.Byukenen ijtimoiy tanlov nazariyasi asoschisi. Moliyaviy masalalarga oid qator monografiyalar muallifi. Nobel mukofoti laureati (1986).

**Solou Robert Merton** (1924.23.8, AQSH, Nyu-York) - amerikalik iqtisodchi. Garvard universitetida V.Leontyev qo'lida saboq olgan. Kolumbiya universitetini tugatgan. R.Solou

Massachusets texnologiya institutida dars bergan. 1961—63 yillarda AQSH Prezidentining iqtisodiy maslahatchisi bo'lgan. R.Solou g'oyalari neokeynschilik ta'limotini tanqid qilish asosida yuzaga keldi. R.Solou neokeynschilikning ayrim qarashlarini tanqid qilish asosida iqtisodiy o'sishning neoklassik nazariyasini rivojlantirdi va uni hisoblash usullarini yaratdi. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda kapitalning eng muhim o'rinda



Maurice P. J. D'Amboise

turishini ko'rsatdi. R.Solou shuningdek, byudjet siyosati nazariyasi, shaharlar iqtisodiyoti va yerdan foydalanish, ishsizlik nazariyasi va boshqalarga ham katta hissa qo'shdi. Nobel mukofoti laureati (1987).

**Alle Moris** (1911.31.05-2010.9.10) - fransuz iqtisodchisi, iqtisodiy nazariyadagi neoliberal yo'nalish vakili, professor. 1954-yildan Ilmiy tadqiqotlar milliy markazida ilmiy xodim bo'lgan. Iqtisodiyotda davlat tomonidan dasturlashtirishni xususiy korxonalarining raqobati bilan birga qo'shib olib borishga asoslangan "raqobatli rejalashtirish" g'oyasi asoschisi.

M.Alle davlatning iqtisodiyotga haddan ortiq aralashuviga qarshi chiqadi. Bu hol, uning fikricha, ijtimoiy vositalarni behuda sarflash, erkinliklarni cheklash va boshqa salbiy oqibatlariga olib keladi. Ikkinchi tomondan, u cheklanmagan raqobat erkinligi tamoyilini amalga oshirishga ham qarshi chiqadi, chunki bu tamoyil monopoliyalarning paydo bo'lishi, so'ngra ularning hukmronligiga olib keladi. "Raqobatli rejallashtirish" g'oyasi esa muvozanat vazifasini bajarishi mumkin. Ilmiy ishlari bozorlar nazariyasi, moddiy resurslardan samarali foydalanish va boshqa masalalarga bag'ishlangan. Nobel mukofoti laureati (1988).

**Xaavelmo Tryugve** (1911 Oslo - 1999) — norveg iqtisodchisi. Oslo universitetini tugatgan. 1947—79 yillarda Oslo universiteti iqtisodiyot professori, "Ekonometrikada ehtimollik yondashuvi" asari ekonometrika nazariyasini yangi g'oyalar bilan boyitdi. "Iqtisodiy nazariya evolyutsiyasi bo'yicha tadqiqotlar" asarida iqtisodiy tahlil usulini qo'llab global iqtisodiy tengsizlik muammolarini o'rgandi. "Investitsiya nazariyasi bo'yicha tadqiqotlar" asari ham muhim ahamiyatga ega. Nobel mukofoti laureati (1989).

**Markovits Garri** - amerikalik iqtisodchi. Kaliforniya universiteti professori, "Arbitraj menejment kompani" prezidenti, Pensilvaniya universiteti moliya professori, Rutjerov universitetining iqtisodiyot va moliya bo'yicha xizmat ko'rsatgan professori, Amerika moliya assotsiatsiyasi prezidenti bo'lgan. G.Markovits qimmatli qog'ozlar bozoriga matematik usullarni qo'llash imkoniyatlarini, shuningdek, portfel investitsiyalarini tanlash, investitsiyalarni samarali diversifikatsiyalash muammolarini tadqiq etgan. U turli qimmatli qog'ozlarga kapitalni optimal investitsiyalash nazariyasini yaratdi. G.Markovitsning portfel investitsiya nazariyasi asosida qimmatli qog'ozlarni diversifikatsiyalashning maqsadga muvofiqligi va xatarlarni baholash to'g'risidagi g'oyalari AQShda katta muvaffaqiyat qozondi. Yirik asarlari: "Portfel tanlovi: investitsiyalarning samarali diversifikatsiyasi" (1959), "Portfelni va kapital bozorlarini tanlashda o'rtacha va dispersiyalar taxlili" (1987). Nobel mukofoti laureati (1990; Merton Miller va William F. Sharpe bilan birgalikda).

**Ronald Kouz** (1910.29.12, Uilsden, Buyuk Britaniya - 2013) - amerikalik iqtisodchi. London iqtisodiyot maktabini tugatgan. Virginiya universiteti va Chikago universiteti professori, Chikago universitetining faxriy professori, "Huquq va iqtisodiyot" jurnal muharriri bo'lgan. R. Kouz iqtisodiyotning muassasaviy tarkibi tushunchasi mohiyatini va uning amal qilish mexanizmini ochib bergan, mulkchilik huquqi muammolarini tadqiq qilgan. Tarmoqni tashqil qilishni transaksiyon harajatlari nuqtai nazaridan o'rgangan. Nobel mukofoti laureati (1991).



**Garri Bekker** (1930) - amerika iqtisodchisi, inson kapitali (ishchi kuchining shakllanishi) nazariyasi asoschilaridan biri. Ilmiy ishlari ijtimoiy muammolar (oilaviy munosabatlar, jinoyatchilik, irqiy kamsitish va boshqalar) ni iqtisodiy tahlil qilish masalalariga bag'ishlangan. Nobel mukofoti laureati (1992).

**Robert Fogel** (1926.1.7, NyuYork) — amerikalik iqtisodchi. Kornel universitetini tugatgan. 1965 yildan Chikago, 1975-yildan Garvard universitetlari professori, 1981-yildan Chikago universitetidagi Aholishunoslik iqtisodiyoti markazi boshlig'i bo'lgan. Iqtisodiy tadqiqotlar Milliy byurosi bilan hamkorlik qilgan, AQShning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish tadqiqotlari dasturini boshqargan. R. Fogel ilmiy ishlari uzoq davrlarning iqtisodiy tarixini modellashtirish, yangi texnologiyalarning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri, iqtisodiy demografiya masalalariga bag'ishlangan. "Kliometriya" yoki tarixiy jarayonlarni o'rganishda iqtisodiy nazariya va miqdoriy usullardan foydalanadigan "yangi iqtisodiy tarix" asoschilaridan biri. Nobel mukofoti laureati (1993; D. Nort bilan birga).



Robert William Fogel

**Jon Xarsani** (1920.29.5, Budapesht - 2000) - amerikalik iqtisodchi. Budapesht universitetida sotsiologiya bo'yicha fan doktori. 1950-yildan Avstraliyada yashagan. 1958-yilda Stanford universiteti (AQSH)da o'yinlar nazariyasi bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1961-yilda Deytroyt universiteti professori bo'lgan. 1964-90-yillarda Berkliidagi Kaliforniya universitetida ishlagan. J. Xarsanining ilmiy ishlari o'yinlar nazariyasiga bag'ishlangan (nokooperativ o'yinlar, to'la bo'lmagan axborotlar sharoitidagi o'yinlar). "Axborotlar iqtisodiyoti" asoschisi. Nobel mukofoti laureati (1994; R. Siten va J. Nesh bilan birga).

**Jejms Mirrles** (1936.5.7, Minnigeffe, Shotlandiya) - ingliz iqtisodchisi. E.dinburg universitetini tugatgan. Kembrij universitetining xalqaro muammolar markazida maslahatchi, Oksford universiteti iqtisodiyot professori, Shveysariya hukumati maslahatchisi, Kembrij universiteti va Berkliidagi Kaliforniya universitetlarida professor bo'lgan. Mirrlesning ilmiy ishlari monetar va soliqqa tortish nazariyalari, institutsional iqtisodiyot muammolariga bag'ishlangan. Mirrles asimmetrik axborotlar nazariyasida soliqqa tortish va ijtimoiy sug'urta muammolariga bag'ishlangan ishlari bilan katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Kichik mamlakatlarning ochiq iqtisodiyotida chet el tovarlariga tariflar qo'llashning maqsadga muvofiq emasligini, mehnat va kapitalga

solinadigan soliqning iste'molchilarga yuklatilishini asoslab berdi. Nobel mukofoti laureata (1996; William Vickrey bilan birgalikda).

**Robert Cox Merton** (1944, Nyu-York) — amerikalik iqtisodchi. Kembrij (Massachusetts texnologiya instituti) universiteti professori, Iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi direktori, Garvard universiteti qoshidagi Ish boshqaruvchilar oliy maktabi professori bo'lgan. Ilmiy ishlari noma'lumliklar iqtisodiyoti, axborotlar, matematik iqtisodiyot va modellashtirish, moliya va investitsiya masalalariga bag'ishlangan. R.Merton ikkilamchi qimmatli qog'ozlar yoki "derivativ"larning opsiolari qiymatini baholashda foydalaniladigan "Blek-Skoulz formula"sini yechishning yangi uslublarini yaratdi. Natijada bu formuladan keng foydalanish imkoniyati paydo bo'ldi. Nobel mukofoti laureati (1997; Myron Scholes bilan birgalikda).

**Sen Amarta** (1933, Hindiston, Bengaliya shtati) — asli hindistonlik bo'lgan amerikalik iqtisodchi. Kembrij (Buyuk Britaniya) universitetidagi Trinti kollejida o'qituvchi, Garvard (AQSH) universitetining xizmat ko'rsatgan professori, Amerika iqtisodiy uyushmasining prezidenti bo'lgan. A.Senning 1981-yil yozilgan "Kambag'allik va ochlik: yutuq va muammolar to'g'risida ocherk" nomli kitobi unga katta shuqrat keltirdi. A.Sen bu asarida o'zi boshidan kechirgan va ko'rgan, ochlik va kambag'allik muammolarini hamda ijtimoiy yordam masalalarini har tomonlama tadqiq qildi. Nobel mukofoti laureati (1998).

**Robert Mundell** (1932, Kanada) — amerikalik iqtisodchi. Stanford universiteti va Jon Gopkins xalqaro tadqiqot markazida, Xalqaro valyuta fondi, Chikago universiteti, Nyu-Yorkdagi Kolumbiya universiteti professori, Jon Gopkins markazi professori bo'lgan. R.Mundellning ilmiy ishlari jahon iqtisodiyoti, pul-kredit va byudjet siyosati, inflyasiya, iqtisodiy o'sish, xalqaro valyuta tizimi tarixi muammolariga bag'ishlangan. Mundell xalqaro valyuta va xalqaro kapital bozorlarining rivojlanishi yo'nalishlarini hamda yagona Yevropa valyuta tizimini vujudga keltirish loyihasini birinchilardan bo'lib ishlab chiqqan. Nobel mukofoti laureati (1999).

**Jeyms Xekman** (1944.19.4, Chikago) — amerikalik iqtisodchi. Priston universitetini tugatgan. Nyu York va Kolumbiya universitetlari, Iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi va "REND" korporatsiyasida ishlagan. 1977-yildan Chikago universiteti professori J.Xekman ilmiy ishlari mehnat resurslari, aholishunoslik, "insoniy potentsial", davlat siyosati, mikroekonometrika sohasida mikro ma'lumotlarni statistik tahlil usullari, xususan, statistik tanlamani shakllantirish muammolariga bag'ishlangan. Nobel mukofoti laureati (2000, Daniel McFadden bilan

birga).

**Engl Robert** (1942; Sirakuzi, Nyu York shtati) - amerikalik iqtisodchi. Ilmiy ishlari turli iqtisodiy ko'rsatkichlarning uzoq muddatli o'zgarishlari qonuniyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. U prognozlashda muayyan o'zgarishlarni ancha ishonchliroq aniqlash yo'li (modeli)ni yaratdi, bu esa yalpi ichki mahsulot, iste'mol narxlari, foiz stavkalari, birja kurslari va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarni bir necha kun yoki hafta, hatto bir yil oldin bashorat qilish imkonini beradi. Engl modelini qo'llash natijasida AQSH va Buyuk Britaniyaning tarixiy-iqtisodiy statistikasini tahlil qilishda katta aniqlikdagi prognozlar o'z isbotini topdi. Iqtisodiy ko'rsatkichlarning kutiladigan tebranishlarini aniqlash usuli katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ekonometrika bo'yicha 100 dan ortiq ilmiy asarlar muallifi. Nobel mukofoti laureati (2003; K.Grenjer bilan birga).

**Robert Aumann** (1930, Germaniya) - isroillik iqtisodchi. "Talmuddagi o'yinlar nazariyasi" asari mashhur bo'lgan. Ilmiy ishlari o'yinlar nazariyasi asosida ijtimoiy muammolar, jumladan to'qnashuvlar va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan, narxlar va savdo urushlari kabi iqtisodiy ixtiloflarning kelib chiqishi tabiati ochib berilgan. Nobel mukofoti laureati (2005; Thomas Schelling bilan birga).

**Edmund Felps** (1933, Evanston, Illinoys shtati) O'zining iqtisodiy qarashlariga ko'ra, Felps neokeynschi deb hisoblanadi. 1968-yilda Felps mehnat bozorining muvozanat holatini tasvirlab berdi. Uning modelida ish haqi rag'batlantiruvchi rol o'ynaydi va yangi odamlarni yollash kifoya. Shu bilan birga, ish haqining rag'batlantiruvchi xususiyatidan kelib chiqib, mehnat hajmining chegaralanishi majburiy ishsizlikka olib keladi. 1969-yilda Felps o'z asarlaridan birida iqtisodiyotni arxipelag sifatida taqdim etdi. Bu arxipelagdagi har bir orolda ishchilar mahalliy maoshni qabul qilish yoki boshqa orolga ko'chib o'tish to'g'risida qaror qabul qilishadi. Shu bilan birga, eng yaxshi maoshni qidirish biroz vaqt talab etadi va ixtiyoriy ishsizlikni keltirib chiqaradi. Felps tadqiqotining asosiy obyekti - muvozanatsiz bozor sharoitlari salohiyati va ularning iqtisodiyotga ta'siri edi. "Makroiqtisodiy siyosatda zamonlararo almashinuvni tahlili uchun" Nobel mukofoti olgan.

**Leonid Gurvich** (1917, Moskva - 2008, Minneapolis) Gurvich va uning hamkasblari iqtisodiyotning samarali savdo mexanizmlari va nazorat qilish davrlarini aniqlashga, shuningdek, har qanday vaziyatda davlat aralashuvi zarurligini aniqlashga yordam beradigan nazariyani yaratishga muvaffaq bo'lishdi. Olimlar optimal mexanizmlar nazariyasiga asos soldi va resurslarni maqbul taqsimlash jarayonini tushuntirdilar. Eng yaxshi va eng yomon natijalar yig'indisi sifatida yechim qiymatini

beradigan Gurvich kriteriyasi joriy etildi. Qaror Qabul Qilish Nazariyasi u taklif qilgan optimizm-pessimizm koeffitsientiga olimning nomi (Xurvits koeffitsienti deb ataladi) berilgan. Gurvich va uning hamkasblari asos solgan Jon Nash tomonidan taklif qilingan o'yin nazariyasidan farqli o'laroq, iqtisodchilar o'yin davomida o'qish mumkin bo'lgan vaziyatni tahlil qilishdi. Bu nazariya mukammal bozor yoki tizim bo'lmagan holatlarda, masalan, siyosiy muzokaralar paytida yoki firma ichidagi vaziyatda qo'llaniladi. Nazariyani yaratishdan maqsad - odamlarning bilimi va manfaatlarini, shu jumladan yashirin manfaatlarini hisobga olgan holda, ma'lum bir natijaga erishish uchun vositalarni topishdir. U odamlarga rag'batlantirilsa, kerakli natijaga erishish mumkinligini taklif qildi. Erik Meskin va Rodjer Mayerson bilan birga "Optimal mexanizmlar nazariyasi asoslarini yaratgani uchun" Nobel mukofoti olishgan.

**Oliver Uilyamson** (1932-yil Superior, Viskonsin, AQSh 21-may, 2020-yil) amerikalik iqtisodchi, yangi institutsionalizm vakili. Uilyamson kompaniyalarning biznes nizolarini hal qilish tuzilmasi sifatida qo'llanilish chegaralari haqidagi nazariyani yaratdi. "Iqtisodiyotda bozor boshqaruvining yo'qligi - bu maqsad va fikrlarning birligi. Kompaniyaning yo'qligi - suiiste'mol qilish ehtimoli. Uilyamsonning cheklangan raqobat sharoitida firmalar iqtisodiyotni tartibga solishda muvaffaqiyat qozongani haqidagi asosiy xulosasini oldi". Oliver Uilyamson va Elinor Ostrom "Iqtisodiy tashkilotlar sohasidagi tadqiqotlari uchun" Nobel mukofoti olishgan.

**Pol Krugman** (1953, Olbani, Nyu York). Pol Krugman nazariyasi ko'plab mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlari katta hajmdagi ishlab chiqarish bilan kamayishi mumkinligiga asoslanadi. Bu miqyosli iqtisodiyot deb ataladi. Iste'molchilarning har xil turdagi tovarlarga bo'lgan talabini inobatga olgan holda, mahalliy bozor uchun kichik ishlab chiqarish asta-sekin jahon miqyosidagi yirik ishlab chiqarishga almashfidi. Katta hajmdagi ishlab chiqarish sharoitida savdo nafaqat turli turdagi tovarlarga ixtisoslashgan mamlakatlar o'rtasida kengayib boradi (an'anaviy iqtisodiy nazariyaga ko'ra). Krugman nazariyasiga ko'ra, davlatlar asta-sekin bozorda hukmron bo'lib, nafaqat iqtisodiy rivojlanishning bir bosqichida, balki har qanday mahsulotni eksporti va importiga ixtisoslashadi. O'z navbatida, bu mahsulot narxining pasayishiga olib keladi. Pol Krugman "Savdo tuzilmasi tahlili va iqtisodiy faollikni joylashtirish uchun" Nobel mukofoti olishgan.

**Piter Daymond** - amerikalik iqtisodchi. U AQSh xavfsizligi va ijtimoiy siyosatini tahlil qilgani bilan mashhur va 1980-90-yillar oxirida Ijtimoiy xavfsizlik bo'yicha maslahat kengashining maslahatchisi bo'lib

ishlagan. Uchta laureatni qiziqtirgan foydali bitimlarni topish jarayonida sotuvchi va xaridor o'rtasidagi "ishqalanish" edi. Nobel mukofoti veb saytida e'lon qilingan g'oliblar tanlovining batafsil tushuntirishida, xaridorlar bozorda eng yaxshi narxni qanday qidirishini o'rganish uchun matematik modellar 1960-yillardan boshlab qo'llanilgani aytiladi. Ammo bu sohadagi muhim kashfiyotlar 1971-yildan keyin boshlandi, Piter Diamond xaridorlar eng yaxshi narxlarni qidiradigan bozorlarda narxlar qanday shakllanganligi haqidagi maqolani e'lon qilgandan keyin va sotuvchilar bir vaqtning o'zida xaridorlarning qidirish strategiyalarini o'rganib, eng yaxshi narxlarini belgilashdi. Natijada, bunday sharoitda qidirish xarajatlarini hisobga olganda, narxlar ulardan ancha farq qilishi ma'lum bo'ldi. Piter Daymond, Deyl Mortensen va Kristofer Pissarides "Qidiruv modellari bilan bozorni tahlil qilganlari uchun" Nobel mukofoti olishgan.

**Tomas Sarjent** (1943, Pasadena, Kaliforniya) - ratsional kutish nazariyasiga asoslangan "yangi" klassik makroiqtisodiyot asoschilaridan biri. Iqtisodchining asosiy xulosalari tabiiy ishsizlik darajasiga to'g'ri keladi (Milton Fridman g'oyasi), makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ishsizlik darajasi o'rtasida hech qanday tizimli bog'liqlik yo'qligi sababli tabiiy ishsizlik darajasidan turli xil og'ishlarni tasodifiy deb hisoblaydi. Iqtisodiy agentlarning umidlari oqilona bo'lgani uchun, ya'ni alternativallarni tanlashda hukumat siyosatini hisobga oladi va uning oqibatlarini baholay oladi, chunki bunday aloqa yo'q. Tomas Sarjent va Kristofer Sims birgalikda "Makroiqtisodiyotdagi sabab-oqibat aloqalari bo'yicha empirik tadqiqotlar uchun" Nobel mukofoti olishgan.

**Lloyd Shepli** (1923, Kembrij, shtat Massachusetts-2016) - Alvin Rot Garvard biznes maktabida, Lloyd Shapli Kaliforniya universitetida ishlagan. Olimlarning asosiy yutuqlari barqaror taqsimot nazariyasi va bozorlarni modellashtirish amaliyotining rivojlanishi deb ataladi. Rot va Shapli natijalari, xususan, donorlik organlarini ajratish yoki o'quvchilarni bir nechta maktablarga ajratish uchun amal qiladi. Lloyd Shepli va Elvin Rot "Barqaror taqsimot nazariyasi va bozorlarni tashkil qilish amaliyoti uchun" Nobel mukofoti olishgan.

**Robert Shiller** (1946, Detroyt, Michigan) - Amerikalik iqtisodchi, iqtisodiy nazariya bo'yicha mashhur kitoblar muallifi. Robert Shiller moliyaviy bozorlar, moliyaviy innovatsiyalar, xulq-atvor iqtisodiyoti, makroiqtisodiyot, ko'chmas mulk, statistik usullar bo'yicha olib borgan tadqiqotlari bilan mashhur. U, shuningdek, uy-joy, mehnat daromadlari, yalpi ichki mahsulotning o'zgarishi va iqtisodiyotda bandlik bilan bog'liq xavflarni himoya qilish uchun yangi moliyaviy vositalarni taklif qildi.

Robert Shiller Yudjin Fama va Lars Piter Xansen bilan birgalikda “Aktivlar narxi o‘zgarishini empirik tahlili uchun” Nobel mukofoti olishgan.

**Jan Tirol** (1953, Fransiya) Fransuz iqtisodchisi, Kapitoliy 1-Tuluza universiteti Sanoatni tashkil etish nazariyasi institutining ilmiy direktori, Jan-Jak Laffont jamg‘armasi prezidenti. Tirol mikroiqtisodiy tahlilning ko‘plab sohalariga o‘z hissasini qo‘shdi. Uning eng mashhur asarlaridan biri - jamoaviy obro‘ nazariyasi, Akerlofning assimetrik ma‘lumotlarga ega bo‘lgan bozor modeli kontseptsiyasini rivojlantirishdir. U “Bozor hokimiyati va uni tartibga solishni tahlil qilgani uchun” Nobel mukofoti olgan.

**Angus Diton** (1945, Edinburg) - Britaniya-amerikalik iqtisodchi. Bir necha universitetlarda tahsil olgach, bir muddat Angliya Markaziy bankida xizmat qilgan. Olim, iste‘molning kutilayotgan o‘shishi foiz stavkasi bilan ijobiy bog‘liqligini ko‘rsatdi, lekin umumlashtirilgan ma‘lumotlarda bu nisbat saqlanmagan. Bundan tashqari, u uy xo‘jaliklari qarz olishda cheklovlarga duch kelayotganini ko‘rsatdi, bu fakt o‘sha paytda standart nazariyalarning bir qismi emas edi. Diton mikroiqtisodiyot muammolari bilan shug‘ullanadi. O‘z ishlarida u iste‘molchilarning xulq-atvori modellari, aholining mikrodarajadagi kambag‘allik va farovonlik masalalarini tahlil etadi. “Farovonlikka yordam beruvchi va qashshoqlikni kamaytiruvchi iqtisodiy siyosatni tashkil etish uchun biz muayyan iste‘molchilar qanday yo‘l tutayotganligini anglashimiz lozim”, - deb o‘tilgan Shvetsiya Qirollik Fanlar akademiyasi nomasida. – Engus Diton buni tushunishga boshqalaraga qaraganda ko‘proq yordam bergan. Engus Diton “Iste‘mol, qashshoqlik va farovonlikni tahlil qilgani uchun” Nobel mukofoti olgan.

**Oliver Xart va Bengt Xolmstrem** bu ikki olimning kashfiyotlari haqiqiy hayotda turli agentlik va institutlar o‘rtasidagi shartnomalar qanday tuzilishini tushunishga yordam beradi. Zamonaviy iqtisodiyotni turli-tuman shartnomalar birlashtirib turadi. Masalan, hissadorlik shirkatlari va ularning rahbariyati, sug‘urta shirkatlari va avtoullov egalari o‘zaro shartnomalar imzolaydilar. Bu kabi munosabatlar ko‘pincha manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham barcha tomonlarning manfaatlari himoyalaniishi uchun shartnomalarni to‘g‘ri ishlab chiqish muhimdir. Xart va Xolmstrem ishlab chiqqan nazariya ushbu murakkab munosabatlarni tahlil etishga yordam beradi. Ularning nazariyalari yordamida joriy ish ko‘rsatkichlariga qarab shirkatlar rahbarlariga to‘lanadigan haq va davlat sektoridagi shirkatlarning xususiy lashtirilishi kabi jarayonlarni tushunib olish mumkin.

Finlandiyalik iqtisodchi Bengt Xolmstrem Massachusetstexnologichiya institutida ishlaydi. U Nobel mukofotini 1970-yillar oxiridagi ishi uchun olgan. O'shanda u hissadorlar shirkat rahbariyatining faoliyatini oxirigacha nazorat qilolmaganlari holda qanday qilib rahbariyat bilan optimal shartnomalarni ishlab chiqishlari mumkinligini ko'rsatib bergan edi. Xolmstrem ishlab chiqqan "xabardorlik tamoyili"ga muvofiq, shirkat rahbariyatining maoshi uning faoliyat ko'rsatkichlariga bog'liq bo'lishi kerak. U o'z nazariyasini qator tadqiqotlar vositasida rivojlantirgan.

Ingliz iqtisodchisi Oliver Xart esa Garvard universitetida faoliyat olib boradi. U to'liq bo'lmagan shartnomalar nazariyasiga asos solgan. Xart shartnoma hamma jihatlarni qamrab ololmasligini nazarda tutgan holda qaysi tomon va qanday sharoitlarda qaror qabul qilishi kerakligini aniqlashtirishga uringan.

Oliver Xart va Bengt Xolmstrem "Shartnomalar nazariyasini rivojlantirishga qo'shgan hissalar uchun" Nobel mukofoti olishgan.

**Richard Taler** Iqtisodiyotchilar juda uzoq vaqt davomida odamlarning o'z xulq-atvoriga ko'ra irratsional ekaniga doir faktni rad etib kelishgan. Klassik iqtisodiy nazariyada inson - cheksiz hisoblash qobiliyatiga ega, bor axborotni tahlil qiluvchi va doim eng yaxshi qaror qabul qilishi mumkin bo'lgan mavjudot. Richard Taler va boshqa tadqiqotchilar odamlar aslida hisoblashni yaxshi bilmasligi, cheklangan irodaga egaligi va ratsionalligi juda chegaralangan ekanini ko'rsatdi. Bunga qadar mazkur vaziyatni to'g'ri modellashtirish hali hech kimning xayoliga kelmagandi, chunki inson xulq-atvorini qanday qilib modellashtirish mumkinligi biroz tushunarsiz edi. Taler va boshqa qator olimlar bunga izoh berishga muvaffaq bo'lishdi.

Richard Talerning xulq-atvor iqtisodiyotiga qo'shgan hissasi nimada?

Bu soha tadqiqotchilari odatda bir qarashda, odamlar o'zlarini irratsional tutgan holatlarni olishadi va ularning nima uchun o'zlarini bunday tutayotganini izohlovchi iqtisodiy yoki psixologik effektini topishga harakat qilishadi. Deylik "Aeroflot" saytidan chipta xarid qilayotganingizda barcha qo'shimcha belgilar (galochki) - masalan, sug'urta polisi xaridi haqida - xohishga ko'ra taklif etiladi. Nima uchun sizga polisdan voz kechishni emas, unga rozilik berish so'raladi? Ma'lum bo'lishicha, bu katta ahamiyatga ega: inson nafaqat qo'l ostidagi muqobil orasida tanlovni amalga oshiradi, balki o'zi duch kelayotgan shart-sharoitlardan ham kelib chiqar ekan. Agar belgi turgan bo'lsa, odamlar sug'urta polisiga ko'proq rozilik beradi, bu esa daromadda millionli o'zgarishlarga olib kelishi

mumkin.

Richard Talerga ko'ra, inson xulq-atvoridagi bunday xususiyatlardan nafaqat pul ishlashda, balki ularni keyin xursand qiladigan qarorlarni qabul qilishda ham foydalanish mumkin. Richard Taler "Xulq -atvor iqtisodiyoti tadqiqotlari uchun" Nobel mukofoti olgan.

**Pol Romer, Uilyam Nordxaus** – amerikalik olimlar. Nordxaus «uzoq muddatli makroiqtisodiy tahlilning iqlim o'zgarishi bilan integratsiyasi» uchun mukofotga loyiq deb topilgan bo'lsa, Romer «uzoq muddatli makroiqtisodiy tahlilga texnologik innovatsiyalarni integratsiyalagan uchun» mukofotlandi.

Nordxausni iqlim o'zgarishi iqtisodiyotining otasi deb bilishadi. U birinchilardan bo'lib iqlim o'zgarishiga iqtisodiy muammolardan biri sifatida qaradi hamda atmosferaga karbonat angidrid chiqargani uchun soliq solish orqali muammoga yechim taklif qilgan. Uning hamyurti Pol Romer esa iqtisodiy o'sish texnologiyalarga investitsiya kiritish bilan uzviy bog'liqligi modelini taklif qildi. Bu modelga ko'ra, aynan shuning uchun ham rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti o'sishda davom etmoqda.

"Nordxaus va Romer eng fundamental va dolzarb masalalarni hal etishning shunday usullarini ishlab chiqishdiki, ular asosida biz qanday qilib barqaror iqtisodiy o'sishga erishishimiz ko'rsatib berilgan" deyiladi Nobel mukofoti qo'mitasining press-revizida.

Nordxausning fikricha, atmosferaga zararli is gazlarining chiqarilishiga qarshi kurashda eng yaxshi yo'l karbonat angidrid chiqarish uchun global miqyosda soliqqa tortishdir. Bunda barcha davlatlar soliq to'lashi kerak bo'ladi. Bu soliqlarsiz SO<sub>2</sub>ni chiqarish o'sib boraveradi.

Romer iqtisodiy o'sishning endogen nazariyasi asoschisi bo'lib, uning nazariyasiga ko'ra, uzoq istiqbolda aynan inson kapitali — bilim, ko'nikma va qobiliyat ishlab chiqarishni ko'paytirish va istiqodiy o'sishni ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi. Nazariya innovatsiyalarni, tadqiqotlarni rag'batlantiradigan qonunchilik siyosati va sifatli ta'lim imkoniyatlarining kengaytirilishi evaziga texnologiya o'zgarishlar sur'atlarini jadallashtirishni tushuntirib beradi. Joriy yilga qadar Romer Jahon bankining bosh iqtisodchisi bo'lgan.

**2019-yilda** iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti **Abxijit Banerji** (AQSH), **Ester Dyuflo** (Frantsiya) va **Maykl Robert Kremer** (AQSH)larga berildi. Ular «global qashshoqlikka qarshi kurashda eksperimental yondashuvlari» uchun taqdirlandi.

Nobel' qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, sovrindorlar qashshoqlikka qarshi kurashning eng yaxshi usullarini aniqlash uchun «yanada ishonchli javob» olishga muvaffaq bo'lishdi. 90-yillarning o'rtalarida sovrindorlardan biri



Maykl Kremer va uning jamoasi Keniyaning g'arbiy qismida maktab ta'limi yaxshilanishiga olib keladigan bir qator usullarni sinab ko'rishgan va bunday yondashuvning qanchalik samarali bo'lishini namoyish etdilar", deyiladi Nobel mukofoti qo'mitasining press-rezida.

Abxijit Banerji va Ester Dyuflo keyinchalik shunga o'xshash tadqiqotlarni boshqa mamlakatlarda, shu jumladan, Hindistonda o'tkazdi. Nobel' qo'mitasining ta'kidlashicha, ularning eksperimental tadqiqot usullari «iqtisodiyot rivojida muhim».

Nobel sovrindori bo'lgan iqtisodchilar olimlar rivojlanayotgan mamlakatlarda quyidagi asosiy yo'nalishlarda qator eksperimentlar olib borishgan:

- kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar joylardagi shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda aniq tajribalar asosida ishlab chiqilishi;
- arzon va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish, bepul emlash hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirish;
- aholining ta'lim olish davomiyligi va ta'lim sifatini oshirish;
- ijtimoiy himoya tizimi va muhtojlarni moddiy qo'llab-quvvatlash;
- mikrokreditlash va tadbirkorlikka ruhlantirish;
- kambag'allikni qisqartirishda psixologik faktorlarning rolini oshirish;
- rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha institutsional cheklovlarining mavjudligi va boshqalar.

**2020-yilda Pol Milgrom va Robert Uilsonga** "Auksion nazariyasini takomillashtirish va auksionlarning yangi formatlarini ixtiro qilganliklari uchun" Nobel mukofoti berilgan.

Pol Milgrom va Robert Uilson ishlab chiqqan kimoshdi savdosi nazariyasi xaridorlar odatda nima uchun kimoshdi savdosida o'zlari hisoblaganidan ko'ra pastroq narx taklif qilishlarini izohlab beradi. Pol Milgrom va Robert Uilson auksionlarni nazariy va dizayn jihatdan o'rganishda kashshoflar bo'lgan. Milgrom va Uilson auksionlarni nazariy o'rganishda ham, 1990-yillardan boshlab haqiqiy auksionlarda qatnashishda ham, bugungi kunda kim oshdi savdosi nazariyasi va dizayniga qanday qarashga asos yaratdilar. Bundan tashqari, ikkala iqtisodchi ham savdo, narxlar, rag'batlantirish, shartnoma nazariyasi, axborot iqtisodiyoti va o'yinlar nazariyasi kabi boshqa mavzular bo'yicha bilimlarimizni chuqurlashtirdilar.

Laureatlarning nazariy ishlanmalari butun dunyo bo'ylab sotuvchilar, xaridorlar va soliq to'lovchilarga sezilarli va aniq foyda keltirmoqda, deb yozadi akademiya: ularning ishlanmalari asosida "tovar va xizmatlar uchun an'anaviy savdo formatlariga, masalan chastota diapazonlariga mos kelmaydigan yangi kim oshdi savdosi formatlari yaratildi".

Auktsion nazariyasi ustida ko'p ishlagan olimlar aqlga zid keladigan ikkita kutilmagan xulosani qat'iy isbotladilar. Uilson xulosa qilishicha, yakuniy narxlar bo'yicha takliflar o'zlarining oqilona narxlaridan pastroq bo'ladi, chunki ular "g'olibning qarg'ishidan" – aktiv uchun haqiqiy narxdan ko'proq pul to'lashdan qo'rqishadi. Milgrom izlanishlari shuni ko'rsatdiki, xususiy yakuniy narxlar bilan o'tkazilgan kim oshdi savdosida xaridorlarning aktiv bahosi to'g'risida maksimal xabardorligi sotuvchining kutilayotgan daromadini pasaytirish o'rniga oshiradi. Milgrom va Uilson jamoat manfaatlarini maksimal darajaga ko'tarish uchun bir nechta tegishli aktivlarni kim oshdi savdosi formatini yaratish bo'yicha birgalikda ishladilar. Aynan u 1994-yilda AQShda chastota manbasini sotishda foydalanilgan va keyinchalik butun dunyoga tarqalgan.

**2021-yilda** Devid Kard (Kaliforniya universiteti, AQSH) «mehnat iqtisodiyotini o'rganishga empirik hissa qo'shganligi», Joshua Engrist (Massachusetts texnologiya instituti, AQSH) va Guido Imbens (Stenford universiteti, AQSH)lar «sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilishga metodologik hissa qo'shganliklari» uchun Nobel' mukofoti bilan taqdirlanishdi.

**2022-yilgi** iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotiga Amerikaning uch nafar iqtisodchisi — Ben Bernanke, Duglas Daymond va Filip Dibvig loyiq topildi. Bu nomzodlar «banklarning iqtisodiyotdagi, ayniqsa, moliyaviy inqirozlar davridagi o'rni haqidagi tushunchalarni sezilarli darajada yaxshilagani, tadqiqot xulosalariga ko'ra, nega banklarning muvaffaqiyatsizlikka uchramasligi muhimligini tushuntirib bergani» uchun tanlab olingan. «Zamonaviy tadqiqotlar nima uchun banklar faoliyat yuritishi muhim ekanligi, ularning muvaffaqitsizligi moliyaviy inqirozlarning kuchaytirib yuborishi haqidagi dastlabki fikrlar 1980-yillar boshida Ben Bernanke, Duglas Daymond va Filip Dibvig tomonidan asos solingan. Ularning tahlili moliya bozorlarini tartibga solish va moliyaviy inqirozlarni bartaraf etishda katta amaliy ahamiyatga ega.

#### **Qisqa xulosalar**

**Nobel mukofoti** (inglizcha *Nobel Prize*) — buyuk ilmiy izlanishlar, inqilobiy ixtirolar yoki madaniyat va jamiyatning rivojiga katta hissalar qo'shganligi uchun har yili taqdim etiladigan eng nufuzli xalqaro mukofotlardan biri.

Bu mukofoga nomzodlar tanlash va topshirish vazifasi Nobelning wasiyatiga ko'ra, Stokgolmdagi Shvetsiya qirollik fanlar akademiyasiga (fizika, kimyo, iqtisodiyot fanlari bo'yicha), Stokgolmdagi qirollik meditsina-xirurgiya (jarrohlik) institutiga (meditsina yoki fiziologiya bo'yicha) va Stokgolmdagi Shvetsiya akademiyasiga (badiiy asarlar

bo'yicha) topshirilgan. Tinchlikni mustahkamlash yo'lida ko'rsatilgan faoliyat uchun Nobel mukofotini Norvegiya (Oslo) parlamentining Nobel komiteti a'zolari beradi.

Nobel mukofotiga nomzodligi ko'rsatilgan shaxslarning irqi, millati, jinsi va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, bu mukofotlar mazkur fan sohaslarida erishilgan eng yuksak yutuqlar uchun berilishi kerak.

1968-yilda Shvetsiya Markaziy banki o'zining 300 yilligi munosabati bilan iqtisod fanlari sohasidagi yutuqlari uchun ham beriladigan qo'shimcha Nobel mukofotini ta'sis etgan. 1969-yilda iqtisodiyot sohasida ilk Nobel mukofotiga sazovor bo'lganlar: norvegiyalik Ragnar Frish va gollandiyalik Yan Tinbergen hisoblanadi. Ularga mukofot iqtisodiy jarayonlar tahlilini amalga oshirishda dinamik modellarni qo'llaganliklari uchun taqdim etilgan.

#### **Asosiy tushuncha va iboralar**

Nobel mukofoti; nufuzli xalqaro mukofot; Nobel mukofoti laureati;

#### **Nazorat uchun savollar**

1. Nobel mukofotining mohiyati va uning joriy etilishi.
2. Nobel mukofoti qaysi tashkilotlar tomonidan beriladi?
3. Nobel mukofoti qanday mukofot?
4. Nobel mukofoti qachon ta'sis etilgan?

## **XVII. BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINI YANADA RIVOJLANTIRISH BO'YICHA HARAKATLAR STRATEGIYASI**

### **17.1. Harakatlar strategiyasining mohiyati va mazmuni**

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko'ra, har bir xalq o'z oldiga ulug' va istiqbol maqsadlarni qo'yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallaydi. Bugun Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi istiqbolimiz taqdirini hal etuvchi muhim va yangi davr bosqichini ifodalovchi milliy g'oyaga aylanmoqda.

Xo'sh, strategiya nima? U xalqning maqsadlarini qanday ta'minlaydi? Tanlagan maqsadlarning istiqbollari nimalarda namoyon bo'ladi?

Strategiya - bu ta'limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo'lib, u izchillik bilan va to'liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

Strategiyaning mohiyati taktik vazifalarni belgilashdan iborat. Siyosat, strategiya va taktika - strategik rahbarlik va boshqaruv jihatlarini bilan bog'liq uchta mustaqil kategoriyadir. Ularning farqi shundan iboratki, strategiya tasdiqlangan va amalga oshirish uchun qabul qilingan bo'lsa, uning joriy qilinishi strategiyalashtirilayotgan obyektning mayog'iga aylanadi. Taktika esa strategik vazifalarni amalga oshirish bo'yicha kundalik, oylik va yillik (joriy) rejalarni va ularning yechimi bo'yicha tadbirlarni taqozo etadi. Siyosat - bu strategiya va taktikani yagona samarali amal qiluvchi tizimga agregatsiya va integratsiya qilinishidir.

Ko'rib turganimizdek, strategiyaning asl mohiyatida xalqimizning orzu-umidlari yo'g'rilgan g'oyalardan tashkil topgan milliy mafkuraning ifodasi yotadi. Mafkurdan nusxa olib bo'lmaganidek, davlatning strategik maqsadlarini ham boshqa davlat va xalqlarning tarixiy tajribasidan o'zlashtirib yoxud nusxa olib bo'lmaydi. Zero, har bir xalqning o'ziga xos siyosiy-ijtimoiy, demografik, iqtisodiy, madaniy tarixi, tabiiy resurslari mavjud bo'ladi. Aynan shu omillar ma'lum ijtimoiy sharoit va imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Istiqbol maqsadlarni qo'ygan davlatlarning aksariyati milliy strategik muvaffaqiyatlarni YAIMning o'sishida, fuqarolarining farovonlik darajasining yuksalishida, deb qaraydi. Yaqin o'tmishda davlatning birlamchi vazifalari hosildorlikni oshirish, oltin-neftni ko'paytirish, armiyani mustahkamlash bilan izohlangan. Albatta, ushbu omillarni inkor etmagan holda bugun O'zbekistonda milliy qadriyatlar bilan qurollangan

davlatning strategik maqsadi fuqarolarning g'oyaviy e'tiqodi, bilim-salohiyati, jamiyatdagi mukammal qonunlar va barqaror ijtimoiy institutlarning mavjudligini ta'minlash asnosida amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Strategik maqsadlarning aynan inson kapitaliga va u orqali adolatlilik qonunlarning, faol ijtimoiy institutlar harakati tashkil etilishiga qaratilayotganligi bejizga emas. Shuning uchun har qanday islohotlar inson kapitalini rivojlantirish bilan amalda uning tamal toshi mustahkamlanadi.

Mamlakatimiz strategiyasi nafaqat ichki va tashqi siyosatdagi islohotlar sari tashlangan qadamda, balki, eng avvalo, davlatning xalqqa, xalqning davlatga bo'lgan munosabatini o'zgarayotganligida namoyon bo'lmoqda. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dididan qat'i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo'lib yashashi davlatning bosh maqsadi sifatida strategik yo'nalishlar belgilanmoqda. Ular avvalo, rivojlantirilayotgan ijtimoiy sohalarida o'z ifodasini topmoqda. Yoshlarga munosib ta'lim berish, zamonaviy kasb-hunarlar bilan qurollantirish, aholining salomatligini ta'minlash, nogironligi bo'lgan shaxslar, boquvchisini yo'qotganlar, yolg'iz keksalar, umuman, ko'makka muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlashda o'z tasdig'ini topdi.

Bosib o'tilgan yo'l va ortirilgan tajribani xolisona baholashdan, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni tahlil qilishdan hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda, oldimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash maqsadida aholining keng qatlamlari, jamoatchilik va ishbilarmon doiralar vakillari, davlat organlarining rahbarlari va mutaxassislari bilan amaliy suhbat hamda muhokamalar olib borilib, shuningdek amaldagi qonun hujjatlari, milliy va xalqaro tashkilotlarning axborot-tahliliy materiallari, ma'ruzalari, tavsifalari va sharhlari o'rganilib, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi, hamda kelib tushgan takliflarni jamlash, chuqur o'rganish, umumlashtirish asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi.

Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

Harakatlar strategiyasida mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilangan:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

### **17.2. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari**

“Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish” deb nomlangan birinchi yo'nalishda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlament hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish belgilandi, bunda davlat hokimiyati tizimida Oliy majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini yanada kengaytirish, qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini qabul qilinayotgan qonunlarni amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta'sirini kuchaytirishga yo'naltirilgan holda tubdan oshirish maqsad qilindi.

Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish bunda Asosiy vazifa – bu yuqori kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega, puxta o'ylangan, har tomonlama to'g'ri qaror qabul qila oladigan, belgilangan maqsadlarga erishadigan rahbarlar va mansabdor shaxslarning yangi tarkibini shakllantirishdan iborat. Shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarining huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish nazarda tutilgan.

Jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish. Jamoatchilik nazoratining maqsadi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining mavjud qonunlarga mosligini tekshirishdan iborat. Jamoatchilik nazoratining sub'ektlari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, mahalla va boshqa jamoat birlashmalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ikki yo'nalishda olib borilmoqda. Birinchidan, davlat o'zining bosh boshqaruv sub'ekti maqomini saqlagan holda jamoat tashkilotlari bilan aloqalarni yangi asosga

o'tkazmoqda. Endi davlat o'zining muayyan funksiyalarini, bir qator vakolatlarini, huquq va resurslarni jamoat tashkilotlariga o'tkazmoqda. Shu yo'l bilan davlat jamoat tashkilotlarining o'zini o'zi boshqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ikkinchi tomondan, jamiyat jamoat tashkilotlarini rivojlantirish orqali ularning ulkan salohiyatlarini mamlakatni boshqarish yo'nalishida faollashtirmoqda. Endi, davlat fuqarolar bilan munosabatlarni yangicha asosga o'tkazish uchun yangi tipdagi munosabatlar, ya'ni shartnoma va boshqa munosabatlarni siyosiy, ma'muriy-buyruqbozlik munosabatlari o'rniga tatbiq etmoqda.

Harakat strategiyasida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish fuqarolik jamiyati institutlari jamoatchilik nazorati yordamida davlat organlariga xalaqit bermagan holda davlat boshqaruvi mexanizmlarini takomillashtirishga, korruptsiyaga qarshi salohiyatini oshirishga, fuqarolarga ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini yaxshilashga katta yordam ko'rsatadi.

Ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning professional faoliyatini himoya qilish. Ommaviy axborot vositalari demokratiya va so'z erkinligining o'ziga xos o'lchovi, ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari demokratik taraqqiyotni rag'batlantiradi va mustahkamlaydi. Ommaviy axborot vositalari erkin va mustaqil bo'lgan taqdiridagina ijtimoiy-siyosiy jarayonlar to'g'risidagi haqiqat ifoda etilishi mumkin. Binobarin, ommaviy axborot vositalari erkinligini kafolatlash va shu orqali muammolarni keng jamoatchilik bilan muhokama qilish, odamlarning erkin fikr bildirishlari uchun keng yo'l ochib berish jamiyatni erkinlashtirishning asosiy tamoyillaridan biridir. Ommaviy axborot vositalari tom ma'noda "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga ko'tarilmas ekan, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari kabi ta'sirchan kuchga aylanmas ekan, demokratik islohotlarning kechishi qiyinlashadi.

Yetakchi demokratik davlatlarda ommaviy axborot vositalari jamiyatning "ko'zlari", "quloqlari" vazifasini bajaradilar. Ogohlantiruvchi tizim sifatida ular jamiyatdagi illatlardan xabar beruvchi, muammolarni dadil ko'tarib chiqib, ularning turli yechimlarini taklif qiluvchi qudratli kuchga aylangan. Bu tuzumda ommaviy axborot vositalari bir tomondan munozaralar yuritiladigan minbar bo'lsa, ikkinchi tomondan, fuqarolar uchun xolis axborot olish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash borasida qator ishlar qilindi. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Axborot olish kafolatlari va erkinliklari to'g'risida", "Jurnalistlarning kasbiga doir faoliyatini himoya qilish

to'g'risida", "Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida" qonunlar qabul qilindi. Jurnalistlarni qayta tayyorlash xalqaro jamoatchilik markazi, Milliy matbuot markazi, Ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tuzildi. Boshqacha aytganda, respublikamizda ommaviy axborot vositalari faoliyatning zarur huquqiy bazasi va ularni erkinlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratilgan.

### **17.3. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari**

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish bunda Sudyalar va sud apparati xodimlarining mavqeini, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish, sudlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ko'zda tutiladi.

Sudyalar mustaqilligi tamoyili "Sudlar to'g'risida"gi qonuni, Jinoyat-protsessual kodeksi, Fuqarolik-protsessual kodekslarida o'z ifodasini topgan. Qayd etish kerakki, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Hech kim sud'yalar va xalq maslahatchilariga tazyiq o'tkazish va ma'lum bir ish qanday hal qilinishi lozimligiga ko'rsatma berish huquqiga ega emas. Ishning xolisona ko'rib chiqilishiga to'sqinlik qilish yoki noqonuniy qaror chiqarishga erishish maqsadida sudyalar va xalq maslahatchilariga har qanday ta'sir o'tkazish jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida sudyalar mavqeini oshirish bo'yicha sudya lavozimida bo'lishning ilk marotaba besh yillik, keyin o'n yillik muddatini va shundan so'ng muddatsiz davrini belgilash hamda sud raislarining sudyalarga nisbatan intizomiy ish qo'zg'atishga oid vakolatini tugatish nazarda tutiladi.

O'tgan yillar davomida sud-huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatni shakllantirish, demokratlashtirishning tarkibiy qismi sifatida sudlarning xolisligi va mustaqilligini mustahkamlash, sudni hokimiyatning xolis, mustaqil tarmog'i sifatida mustahkamlash, qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklari ishonchli himoyalaniishini ta'minlash bo'yicha izchil ishlar amalga oshirildi. Xususan, sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish, sudning mustaqilligini ta'minlash, uni sobiq tuzumda bo'lgani kabi qatag'on quroli va jazolash idorasi sifatidagi organ emas, balki inson va fuqaro huquq va erkinliklarini ishonchli himoya va muhofaza etishga xizmat qiladigan tom ma'nodagi mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan keng ko'lamli tashkiliy-huquqiy chora-



tadbirlar amalga oshirildi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda sud-huquq sohasida amalga oshirilgan islohotlar sud hokimiyatining fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi roli va ahamiyatini oshirishga xizmat qildi. Sud tizimining demokratik asoslarini isloh qilish va yanada chuqurlashtirish, sud ishlarining adolatli va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlash, fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish hamda sudlarning ixtisoslashuvini amalga oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy baza yaratildi.

Xulosa qilib aytganda, sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish nafaqat sud organlari faoliyatining samaradorligini oshirishga, balki O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan odil sudlovning oshkoraligi va hamma uchun ochiqligi printsiplarini hamda sud hokimiyati faoliyatining ochiqligini amalda ta'minlashga, fuqarolarning sudlar tomonidan qabul qilingan qarorlar haqidagi axborotlardan xabardor bo'lib borishga, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini qisqa muddatlarda sudlar tomonidan himoya qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini oshirish, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik sud ish yurituvining protsessual asoslarini takomillashtirish. Fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarining sud tomonidan ishonchli himoyasini ta'minlash va ma'muriy sud ish yurituvini amalga oshirish bo'yicha konstitutsiyaviy normani amalda tatbiq etish zarurati ma'muriy sudlar tizimini tashkil etishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-4966-son Farmoniga ko'ra ilk marotaba 2017-yil 1-iyundan boshlab ma'muriy sudlar faoliyat olib borishi belgilandi. Ma'muriy sudlar ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy nizolarni, shuningdek, ma'muriy huquqbuzariiklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega hisoblanadi.

Ma'muriy sudlarni tashkil etilishi fuqarolarning sudga shikoyat qilish kabi konstitutsiyaviy kafolatini amalda ta'minlash, tadbirkorlarning sud himoyasiga erishish darajasini oshirish, professional sud korpusini shakllantirish, pirovardida, fuqarolarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Hakamlilik sudlari faoliyatini tashkil qilishning qonuniy asoslarini va ular tomonidan qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni

takomillashtirish, hakamlik sudlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashtirish. Bunda hakamlik sudi sud'yalari huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi, hakamlik sudiga sud'yalarni tizimli ravishda tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish bilan shug'ullanuvchi, hakamlik sudlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, ular tomonidan qonunchilikka rioya etilishi ustidan markazlashtirilgan nazoratni amalga oshiruvchi, ularning nomidan harakat qiluvchi yagona tashkilot – Palata tashkil etish, uning h. uqiy maqomi, asosiy vazifalari, tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini qonunda aniq belgilash, hakamlik sudlarining asosiy vazifalarini belgilash, hakamlik sudi sud'yaligiga nomzodlarga qo'yiladigan, ularning malaka va bilim saviyasiga bo'lgan talabni kuchaytirish ushbu qonunga kiritilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalardan biridir. Bu o'zgarishlar o'z navbatida, ham hakamlik sudlarining nufuzi oshishiga, ham xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hakamlik sudlariga bo'lgan ishonchi va hurmati oshishiga xizmat qiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish. Mazkur sohadagi islohotlarning amalga oshirilishida milliy qonunchilikga xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari tadbir etilishi muhim ahamiyat kasb etadi, buni biz 2008-yili "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konventsiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Mazkur Konventsiyaning asosiy maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashda yanada samarali va ta'sirchan oldini olish chora-tadbirlarni qabul qilish va mustahkamlash, ushbu sohada xalqaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Xalqaro standartlarni hisobga olgan holda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha huquqiy va institutsional asoslarni kelgusidagi takomillashuvi maqsadida 2017-yilning 4-yanvar sanasida O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.

Ushbu qonunda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, vakolatli davlat organlari tizimi, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, fuqarolar va ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi, shuningdek ushbu sohadagi xalqaro hamkorlik masalalari aks etgan.

#### 17.4. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari

O'tgan 26 yillik mustaqillik davrda iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflyatsiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Ayni vaqtda, mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda. Shularni e'tiborga olib, Harakatlar strategiyasining uchinchi yo'nalishida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishning quyidagi vazifalari belgilab olindi:

- makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;
- xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;
- soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish;
- ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash;
- bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchlilikini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish;
- sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning

yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;

➤ xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlarni siyosatini amalga oshirishni ta'minlash, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning asosida albatta tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish masalasi turadi.

Butun jahonda "o'zbek modeli" nomi bilan tan olingan o'zimizga xos va mos rivojlanish modeli yo'lida dadil qadamlar bilan borayotganimiz qo'lga kiritilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlarning bosh omili bo'lib qolmoqda. Pirovardida, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida yurtimiz kun sayin ravnaq topib, mamlakatimizning nafaqat shaharlarida, balki qishloqlarida ham sanoat jadal rivojlanib bormoqda, zamonaviy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini barpo etilayapti.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, islohotlarni chuqurlashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlarni yaratish, amalda faoliyat yuritayotgan texnika va texnologiyalarni yangilash, ularni qo'llab-quvvatlash investitsion jarayonlarni nechog'li to'g'ri va samarali amalga oshirishga bog'liqdir. Shu boisdan ham, O'zbekiston Respublikasi davlat rahbari tomonidan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borishga alohida e'tibor qaratildi. Buning uchun markazlashgan, markazlashmagan jamg'armalar mablag'lari, xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o'zlashtirishga hamda ulardan samarali foydalanish masalalariga urg'u berildi.

Harakatlar strategiyasida yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish zarurati alohida ta'kidlandi.

Turizm tarmog'i jahon savdosining eng yirik tarmog'iga aylanib

bormoqda va hozirgi kunda yer yuzidagi jami tovar va xizmatlar eksportida daromad keltirish bo'yicha uchta yirik tarmoqlar neft qazib olish va avtomobilsanoatidan keyingi uchinchi o'rinda turadi. Turizm sohasi jahonda bo'ladigan jami eksportning 10 foizini beradi, xizmatlar savdosining esa 35 foizi turizmga to'g'ri keladi. Buyuk Ipak Yo'lida joylashgan, asrlar davomida o'z davlat g'aznasining katta qismini sayohatchilar va xorijiy savdogarlar hisobidan to'ldirib kelgan qadimiy shaharlari bilan mashhur, tarixiy va madaniy o'tmishga ega O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun real imkoniyatlariga ega.

Turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va yangi turistik marshrutlarni yaratish, jumladan: mamlakat barcha hududining turistik imkoniyatini o'rganish va yangi turistik mahsulotlar va marshrutlarni shakllantirish; aholi uchun turlar va ekskursiyalar o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish; ichki marshrutlar bo'yicha yangi aviaaloqalar ochish; marketing tadqiqotlarini o'tkazish asosida hududiy va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha charter reystrarini tashkil etish maqsadida yangi turistik marshrutlarni yaratish, turizmning zamonaviy turlarini rivojlantirish, ularning jozibadorligini kuchaytirishga oid islohotlarni yanada takomillashtirish bo'yicha tadbirlar Harakatlar strategiyasidan joy egallagani turistik xizmatlar ko'rsatuvchi subyektlarning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bu esa o'z navbatida mamlakatimiz turizm sohasidagi ikkita katta muammolar, birinchisi o'z faoliyatining barcha turlarini miqdor va sifat jihatidan kengaytirish, ikkinchidan pulli xizmatlar ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirishga imkon yaratadi.

Mamlakatimiz eksport salohiyatidan samarali foydalanish va uni kengaytirishda eksportchi korxonalarining maqsad va vazifalarini aniq belgilash, ularni amalga oshirish yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda eksport strategiyasini shakllantirish korxonalarini hozirgi paytda kuchli raqobat sharoitida o'z o'mi va mavqeni to'g'ri belgilab olishiga yordam beradi. Jahon bozorlarida raqobatning keskin tus olishi shuni ko'rsatmoqdaki, endilikda korxonalar o'z maqsad va vazifalarini belgilashda nafaqat mahsulotga bo'lgan oddiy talab va taklifdan kelib chiqishlari kerak, balki birinchi navbatda, salohiyatli iste'molchilarining ehtiyojlari, hohish-istaklari hamda maqsadlarini doimo diqqat markazda tutib, ularni chuqur o'rganishlari va shu sharoitga mos keladigan strategiyani amalga oshirishlari muhim bo'lib qolmoqda.

Oxirgi yillar davomida diversifikatsiya qilish va iqtisodiyot sohasini raqobatbardoshligini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida jahon iqtisodiyotida inqiroz holatlari hamon saqlanib

turgan va jahon bozoridagi narxlar darajasi pastligi respublikaning asosiy eksport nuqtalariga ta'sirini kamaytirishga erishildi.

Harakatlar strategiyasida xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklolarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi" e'lon tamoyilini amalga oshirish borasidagi tadbirlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Jumladan, 2017-yilning I choragida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili (biznes ombudsman)ni tashkil etish belgilab berilgan.

Ombudsman (qadimgi skandinavchada umbor «vakolat», «zimmasiga yuklash») – qator davlatlarda ijro hokimiyati idoralari va mansabdor shaxslar faoliyatida ma'lum fuqarolar guruhining adolat va manfaatlari ta'minlanishini nazorat qilish vazifasi yuklatilgan mansabdor shaxs.

Tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakil lavozimining paydo bo'lishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimidagi asosiy voqealardan biri sifatida ta'kidlash mumkin. Davlat boshqaruvining mazkur usuli ko'plab xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlar o'z xo'jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida to'qnash keluvchi byurokratik muammolarni hal etishdagi samarali vosita sifatida o'zining ijobiy tomonini namoyon etdi.

Hozirgi vaqtda ombudsmen instituti boshqaruvning turli shakllari – prezidentlik respublikasi (Finlyandiya, Frantsiya, AQSH), parlament respublikasi (Shveytsariya, Avstriya, GFR), konstitutsiyaviy monarxiya (Daniya, Norvegiya, Shvetsiya, Ispaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Kanada) hukmron bo'lgan 50 dan ortiq mamlakatlarda mavjud.

Bundan ko'rinadiki, mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik sub'ektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili institutining joriy etilishi bu boradagi faoliyatning jahon andozalariga muvofiqligini ta'minlash borasidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

Mazkur yo'nalish bo'yicha belgilangan tadbirlardan yana biri – kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish hisoblanadi.

Mazkur tadbir birinchi navbatda nazorat qiluvchi organlarning kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga aralashuvini va ular tomonidan

o'tkaziladigan rejali tekshirishlar sonini yanada qisqartirish, ularni avtomatlashgan axborot tizimi orqali tahlil qilib, xavf-xatarlarni baholash asosida tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish bo'yicha reja-jadvalni ishlab chiqishni taqozo etadi. Tekshirishlar reja-jadvalini shakllantirishda avtomatlashtirilgan holda xavf-xatarlar baholanadi.

Davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustav jam'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan ob'ektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish – mazkur yo'nalishda belgilangan muhim tadbirlardan hisoblanadi.

Harakatlar strategiyasi bo'yicha Dasturga binoan, 2017-yil mart oyida foydalanilmayotgan davlat mulki ob'ektlarini, jumladan, «nol» xarid qiymati bo'yicha sotish jarayonlarini yanada soddalashtirish hamda bunday obyektlar tadbirkorlik subyekti tomonidan aniqlanganda, ularni sotib olish yuzasidan takliflarni qabul qilish va ko'rib chiqish tartibini belgilash ko'zda tutilgan. Bu borada ishlab chiqilishi ko'zda tutilayotgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi iqtisodiyotda davlatning ishtirokini qisqartirish, xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish, davlat mulklarining real narxlarini shakllantirish imkonini beradi.

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay muhitning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida mulkni ro'yxatga olish, yer uchastkalari ajratish, ayrim faoliyat turlari bilan shug'ullanish uchun litsenziya olish, qurilishga ruxsat berish va elektr ta'minoti tarmoqlariga ulanishda «yagona darcha» tamoyilini amaliyotga joriy etish tobora kengayib bormoqda.

#### **17.5. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari**

Mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlash ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri, xalq turmush darajasi va sifatini yuksaltirishning muhim sharti sifatida belgilangan.

Binobarin, yurtimizda har yili milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, hududiy kesimlarda mehnat resurslaridan yanada to'liq va oqilona foydalanish, aholining ijtimoiy muhofazasini ta'minlashga qaratilgan tegishli dasturlar qabul qilinayapti.

Milliy mehnat bozorining e'tiborli o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi: aholining asosiy qismini yoshlar tashkil etishi (har yili yarim milliondan ortiq bitiruvchilar ishga joylashish bo'yicha ko'makga muhtoj); 700 mingdan ortiq ishsizlarning, shuningdek ishchi

kuchining talab va taklifi bo'yicha nomutanosiblikning mavjudligi; ayrim tumanlarda ishsizlikning va norasmiy sektorda ish bilan bandlikning yuqoriroq darajasi kuzatiladi.

Hududlarda aholi bandligini ta'minlash hamda qo'shimcha daromad manbaini yaratish maqsadida tijorat banklari tomonidan mikroreditlar ajratish hajmini yanada oshirish quyidagi sohalarida nazarda tutilgan:

↳ qarolarning shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish;

↳ qoramol, qo'y, echki, quyon boqish va go'sht yetishtirish;

↳ parrandachilik va asalarichilikni rivojlantirish;

↳ ixcham issiqxonalar tashkil etish;

↳ urug' va ko'chatlar yetishtirish.

Buning natijasida aholi tomorqasidan foydalanish samaradorligi oshadi, ishlab chiqariladigan sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi ko'payadi.

Mamlakatimizda aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning olib borilayotganligi, hayotimizda tobora hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan o'rta sinfni shakllantirish imkonini beradi.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama, jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan "Harakatlar strategiyasi"da Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi.

Taraqqiyotimizning bugungi bosqichida ijtimoiy sohaning aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratilmoqda.

Mustaqilligimizning ilk yillaridan boshlab, davlatimiz tomonidan inson salomatligini yanada mustahkamlash, sog'lom insonlar safini kengaytirish, onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish, sog'lom turmush tarzini keng omma o'rtasida shakllantirish, oilada tibbiy madaniyatni oshirish, har bir shaxsning salomatligi o'z qo'lida ekanligini aholi o'rtasida keng tashviqot-targ'ibot qilish, sog'lom jamiyatni tashkil etishga katta e'tibor qaratilgan. Bu borada, 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonun, 1998-yil 10-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston



Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to'g'risida"gi 2107-sonli Prezident Farmoni, 2011-yil 28-noyabrda "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1652-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori hamda 2015-2020-yillar davrida O'zbekiston Respublikasi aholisining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash kontseptsiyasini va chora-tadbirlar kompleksini ta'minlash to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining Qarori aholi o'rtasida sog'lom turmush-tarzini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Mamlakatimizda ayollar bandligini ta'minlashga qaratilgan dasturlar asosida yaratilayotgan ish o'rinlari yildan-yilga ortib bormoqda. Xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash borasida mamlakatimiz erishayotgan yutuqlar har qancha e'tirofga sazovor, Ayniqsa, uy mehnatini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar diqqatga sazovor. Bu, o'z navbatida, ayollarning oila moddiy farovonligiga munosib ulush qo'shishlariga, shu bilan birga, farzand tarbiyasi bilan bevosita shug'ullanishlariga imkon beradi.

Aholi farovonligini oshirishning asosiy yo'nalishlari tarkibida davlat tomonidan beriladigan aniq manzilli ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish alohida o'rin egallaydi. Bu boradagi ijtimoiy siyosat quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- ijtimoiy nafaqalarni aynan kam ta'minlangan oilalarga qaratish;
- aholini ijtimoiy himoya qilishda manzillikni ta'minlash;
- kam ta'minlangan oilalarga nafaqalarni mahallalar orqali yetkazilishini
- ta'minlaydigan mexanizmlarni bosqichma-bosqich takomillashtirib borish;
- aholining ijtimoiy muhofazasi uchun davlat moliyaviy manbalari bilan bir qatorda, homiylik, xayriya tashkilotlari, korxonalar mablag'larini jalb etish.

Aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, uning ehtiyojmand qatlamlari ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishda davlat hal qiluvchi o'rin egallaydi. Boshqa tuzilmalar va fuqarolik institutlari mazkur yo'nalishlardagi davlat tomonidan belgilangan maqsadlarga erishishda davlatga ko'maklashadilar. Davlat aholini ijtimoiy himoya qilishning boshqa institutlari bilan munosabatlarini ijtimoiy sherikchilik asosida yo'lga qo'yadi.

Aholini ijtimoiy himoyalash tadbirlarini mablag' bilan ta'minlashda davlat byudjeti alohida o'rin egallaydi. Umuman olganda, mamlakat miqyosida davlat byudjeti xarajatlari davlat tomonidan olib

borilayotgan islohotlarning tom ma'nodagi ifodasini o'zida aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, Harakatlar strategiyasining "Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotinqizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish" deb nomlangan bandidagi ustuvor yo'nalishlar – bu kompleks tarzda amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi bo'lib, u turmush darajasini belgilovchi ko'rsatkichlarni ishlab chiqarish, kam ta'minlanganlik muammosini sivilizatsiyalashgan holda bartaraf etish choralari ko'rish, yangi ish o'rinlarini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, oilaviy biznesni qo'llab-quvvatlash, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylash va ish o'rinlari bilan ta'minlash, kasanachilik va yakka tartibdagi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlarga o'z biznesini yo'lga qo'yish uchun imtiyozli kreditlar berish kabilar orqali aholi bandligini oshirish, haqiqatda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj fuqarolarni aniqlash mexanizmlarini takomillashtirib borish va ularni manzilli tarzda ijtimoiy himoyalash, ijtimoiy himoyaning huquqiy asoslarini va moliyaviy manbalarini mustahkamlash, jamiyatda davlat bilan fuqarolar o'rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini o'rnatish, aholi turmush darajasini oshirish masalalariga nodavlat notijorat tashkilotlarini tobora ko'proq jalb qilish kabilarni o'z ichiga oladi.

#### **17.6. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar**

Bugungi kunda xavfsizlik masalalari butun dunyoda eng dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Yil sayin davlatlar tomonidan mudofaa tizimi va harbiy sohaga ajratilayotgan harajatlarning oshib borishi fikrimizni tasdiqlaydi. Biroq, faqatgina zamonaviy qurol yarog'ga ega bo'lishning o'ziga xavfsizlikni ta'minlamaydi. Chunki, guvoh bo'lib turganimizdek, zamonaviy buzg'unchi kuchlar ochiqcha jang qilmay, balki to'satdan qo'poruvchilik amaliyotlarini qo'llash, harbiylar emas balki tinch aholini nishonga olish kabi qabih usullardan foydalanadilar. Bunda esa, milliy va diniy nizolarni keltirib chiqarish asosiy maqsad hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmida davlat-huquqiy, etno-hududiy va etnodemografik zaminda 300 dan ortiq katta-kichik nizolar qayd qilingani ham ushbu fikrning o'rinli ekanini tasdiqlaydi.

Millatlar mavjud ekan, ular o'rtasida o'zaro munosabatlar ham bo'ladi. Shunday ekan, bugun globallashuvning bu jarayonga o'tkazayotgan salbiy ta'sirining oldini olish haqida bosh qotirish va samarali mexanizmlarni topish o'z mustaqilligini, erkini, o'ziga xosligini qadrlashga qodir bo'lgan barcha millatlar oldida turgan eng dolzarb vazifa

hisoblanadi.

Respublikamizda ham millatlararo totuvlikni ta'minlash orqali tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlab borish g'oyasi davlatimiz birinchi rahbarlarining doimiy diqqat markazida bo'lib kelgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ham o'z saylovoldi dasturidayoq tinchlikni ta'minlash, millatlar va dinlararo totuvlik muhitini qo'llab quvvatlash, din niqobidagi ekstremizm va terrorizmga qarshi ayovsiz kurash masalalarini asosiy tamoyil sifatida olg'a surdi.

Taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo'lgan bag'rikenglik borasida 1995-yil 16-noyabrda BMT tizimida Fan, ta'lim va madaniyat sohasida ixtisoslashgan tashkilot (YUNESKO) Bosh konferentsiyasining 28-sessiyasida "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi" qabul qilindi. Deklaratsiyada irqi, jinsi, kelib chiqishi, tili, dinidan qat'i nazar, bag'rikenglikni targ'ib etish, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat bilan qarash kabi majburiyatlar belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston diyorida qadimdan turli sivilizatsiya vakillari, madaniy qatlamlar, xilma-xil e'tiqod va dunyoqarashlar yonma-yon yashab kelgan. Bu yerda yashovchi xalq boshqa joydan ko'chib kelib, o'rnatilib qolgan emas. Bu zamin ota-bobolarimiz yashab o'tgan azaliy va muqaddas makondir. Bu zamin Sharq va G'arbning, Shimol va Janubning, qadim o'tmish va buyuk kelajakning tutashgan joyi, Markaziy Osiyoning yuragi, insoniyat tafakkuri, fan va madaniyatining eng ko'hna o'choqlaridan biridir. Bu tuproqda jahonni hayratga solgan sivilizatsiyaning ildizlari vujudga kelgan, insoniyat tarixining eng qadimgi davrlariga mansub diniy va falsafiy an'analar shakllangan. Qadimgi yunon faylasufi Geraklit bu yurtni «falsafiy tafakkur beshigi», deb bejiz ta'riflamagan. Shuni ta'kidlash joizki, bizning sivilizatsiyamiz o'ziga xos bag'rikenglik tafakkur uslubiga tayanadi. Uch ming yillik tariximiz shundan guvohlik bermoqdaki, oliyjanoblik va insonparvarlik millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning eng yuksak fazilatlaridan hisoblanadi. Bu boradagi an'analar avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, bundan yuz yil avval hozirgi respublikamiz hududida 70 ga yaqin millat vakillari istiqomat qilgan. 1926-yilda respublikamizda 90 millat va elat yashagan bo'lsa, 1959-yilda ularning soni 113 taga, 1979-yilda 123, 1989-yilda esa 130 taga yetgan edi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng, nafaqat mamlakatga nom bergan o'zbek xalqi, balki shu muqaddas zaminda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining ham millat sifatida saqlanib qolishi va rivojlanishi uchun teng sharoit va imkoniyatlar yaratish masalaga alohida e'tibor qaratdi. Jumladan, ko'pmillatli diyorumizda

tinchlik va osoyishtalikni saqlash va yanada mustahkamlashning muhim omili bo'lgan millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlash, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millatga mansub aholining ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan milliy-madaniy markazlar faoliyatini qo'llab-kuvvatlash hamda millatlararo munosabatlarni takomillashtirish uchun Birinchi Prezident tashabbusi bilan 1992-yil 13-yanvarda Respublika Baynalmilal madaniyat markazi tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, shahar va tuman hokimliklari, shuningdek, jamoat tashkilotlari bilan birgalikda millatlararo munosabatlar sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishida qatnashish, milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va o'ziga xos an'ana, urf-odat va rasm-rusumlarni tiklash hamda rivojlantirishda ularga ko'maklashish deb belgilandi.

Bag'rikenglikning muhim yo'nalishlaridan biri "diniy bag'rikenglik"dir. Turli din vakillari e'tiqodidagi mavjud farqlardan qat'iy nazar, ularning yonma-yon, o'zaro tinch-totuv yashashi hamda har bir diniy ta'limotga hurmat bilan qarashni anglatadigan mazkur tushuncha, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkin bo'lgani holda, bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini e'tirof etishini nazarda tutadi. "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi"da ta'kidlanganidek, "Bag'rikenglik bo'lmasa, tinchlik bo'lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo'lmaydi".

Asrlar mobaynida o'lkamizning shaharu qishloqlarida masjid, cherkov va sinagogalar emin-erkin faoliyat ko'rsatib, turli millat va dinga mansub qavmlar hamjihatlikda o'z diniy marosimlarini ado etib kelganlar. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mo'jarolar bo'lmagan. Bu esa, millati va diniy qarashidan qat'iy nazar, insonni ardoqlash va o'zgalarni qadrlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish kabi tuyg'ular o'lka aholisining qon-qoniga singib ketganidan dalolat beradi. Aynan shu sifatlar xalqimizga xos bo'lgan diniy bag'rikenglikning ma'naviy asosini tashkil qiladi.

### **Qisqa xulosalar**

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko'ra, har bir xalq o'z oldiga ulug' va istiqbol maqsadlarni qo'yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallaydi.

Strategiya - bu ta'limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo'lib, u izchillik bilan va to'liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

Strategiyaning mohiyati taktik vazifalarni belgilashdan iborat. Siyosat,

strategiya va taktika - strategik rahbarlik va boshqaruv jihatlarini bilan bog'liq uchta mustaqil kategoriyadir.

Bosib o'tilgan yo'l va orttirilgan tajribani xolisona baholashdan, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni tahlil qilishdan hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi.

Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

Harakatlar strategiyasida mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilangan:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

#### **Asosiy tushuncha va iboralar**

Strategiya, taktika, Siyosat, Harakatlar strategiyasi, liberallashtirish, Ijtimoiy sohani rivojlantirish, Xavfsizlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik.

#### **Nazorat savollari**

1. Xalq bilan samarali muloqot mexanizmlari Harakatlar strategiyasining qaysi bandida o'z aksini topgan?
2. Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yilning 2017-yilga tegishli dasturi mexanizmlarida qanday ishlar amalga oshirilishi lozim?
3. «Jamoatchilik nazorati»ning zarurati nimada?
4. Jamoatchilik nazoratining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
5. Tadbirkorlik sub'ektlari huquq va manfaatlarini himoya qilishda iqtisodiy sudlarning tashkil etilishining ahamiyatini tushuntiring.
6. Bag'rikenglik tushunchasining mazmun mohiyati nimada?
7. O'zbekiston hududida azaldan qanday din vakillari istiqomat qilishgan?
8. YUNESKO tomonidan qaysi sana Xalqaro bag'rikenglik kuni deb e'lon qilingan?

## GLOSSARIY

**Absolyut (mutlaq) afzallik prinsipi** - A.Smit tomonidan ilgari surilgan g'oya bo'lib, savdo munosabatlaridagi mutlaq afzallikni anglatadi (tovarlarni ishlab chiqarishda sarf-xarajatlarning ustunligi hal qiluvchi hisoblanadi).

**Abstraktsiya** (lot. abstractio — ajratish, mavhumlash) - bilishda o'zgaruvchi reallikdagi predmet, hodisalarning ikkinchi darajali, uncha muhim bo'lmagan ayrim xususiyatlaridan xayolan uzoqlashtiruvchi va shu asosda ularning eng muhim, asosiy tomonlarini bo'rttirib ko'rsatuvchi fikriy model. Narsa va hodisalarning konkret tomon, belgilaridan uzoqlashish va muhim jihat, belgilarini ajratish jarayoni abstraktsiyalash (mavhumlashtirish), shu jarayonning natijasi, yakuni, xulosasi esa abstraktsiya deyiladi.

**Akselerator** - multiplikatorga teskari bo'lgan koeffitsient bo'lib, milliy daromad o'sishining investisiya o'suviga ta'sirini ko'rsatadi (neokeynschilar qo'llagan).

**Antik sivilizatsiya** (Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davlatlari) miloddan avvalgi I ming yillikda shakllangan.

**Apologetika** - biror g'oya yoki ta'limotni xato bo'lsa ham ko'r-ko'rona himoya qilish. Ma'lum sinf, guruhlar manfaati himoya qilinadi.

**Avesto** - yer yuzida adolat qaror topishi uchun kishilarning rangidan, tilidagi va urf-odatlaridagi farqlaridan qat'iy nazar ularning ro'shonlik hayoti uchun kurashuvchi jasur, halol, pok insonlarni shakllantirish va tarbiyalash g'oyasini targ'ib qiladi.

**Analiz va sintez** (yun. analysis -ajratish va synthesis - birlashtirish) - kishilar dunyoni bilish jarayonida ishlatadigan, o'zaro chambarchas bog'langan tekshirish usullari. Analiz fikran yoki amalda narsa va hodisani tarkibiy bo'laklarga bo'lish, sintez esa mazkur bo'laklarni fikran yoki amalda bir butun qilib birlashtirish, narsani yaxlit holda tadqiq etishdir.

**Befarqlik egri chiziqlari** - iste'mol qilinadigan tovarlarning umumiy foydaliligini ularning kombinatsiyalarining turli kombinatsiyalarida saqlanishini va ba'zi kombinatsiyalarning boshqalarga nisbatan ustunligini aks ettiruvchi empirik egri chiziqlar.

**Buyuk depressiya** - 1929-1933 yy. va hatto 1940-yilgacha AQSH va jahondagi yirik iqtisodiy inqiroz, ishlab chiqarish 50% kamaygan, ishsizlik 25% oshgan (17 mln.).

**Bay bil vafu** - bo'lib, unga ko'ra qarz oluvchi o'z mulkini, ya'ni biror molni yoki uyini qarz beruvchiga shartli ravishda garov sifatida sotadi. Qarz beruvchi esa o'sha mulkni qarz oluvchiga muayyan miqdor

pul evaziga ijaraga beradi. Bu o'rinda har oy keladigan ijara haqi darhaqiqat asl puldan keladigan foydadan iborat bo'lib, riboni man etuvchi qonunga zid bo'lmaydi. Bu holda qarz beruvchi oladigan ijara puli, bergan mablag'ning foizi emas, balki ijaraga berilgan uyning ijara puli hisoblanadi va ribo bo'lmaydi.

**Bay fasid** - shartnomasi bo'yicha sotilgan mol-mulk uni mazmun yoki shakl jihatdan o'zgartirish, yo qaytadan uchinchi shaxsga sotish mo'ljallangan taqdirda ushbu mol-mulk uning birinchi egasi tomonidan o'z sotgan narxida qaytarib olish sharti bilan tuziladi.

**Bay qat'iy** - shartnomasi bo'yicha sotilgan mol-mulk oluvchiga uning haqi to'lanmasidan oldin topshirilishi ko'zda tutiladi.

**Bay-joiz** - shartnomasiga asosan taraflar ma'lum va kelishilgan muddat davomida, shartnoma bo'yicha berilgan yoki olingan narsalarni bir-birlariga qaytarib berish sharti ko'zda tutiladi.

**Bozor iqtisodiyoti** - tovar-pul munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar asosida boshqariladigan iqtisodiyot. Uzoq tarixga ega bo'lib, sohibkorlarning erkinligi va raqobatni taqozo etadi.

**Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri** - ma'muriy-buyruqbozlik tizimini bartaraf etish yoki tubdan o'zgartirish hamda bozor tizimining asoslarini shakllantirish jarayonlari amalga oshiriluvchi tarixiy davrdir.

**Bozor iqtisodiyotiga o'tish ning evolyutsion yo'li** - Eski iqtisodiy munosabatlarni bosqichma-bosqich yangi bozor munosabatlariga aylantira borib, samarali bozor iqtisodiyotini shikastsiz vujudga keltirish.

**Bozor iqtisodiyotiga o'tishning revolyutsion yo'li** - tub islohotlarni o'tkazish, avvalgi tizimni va tarkib topgan iqtisodiy munosabatlarni birdaniga va batamom sindirish talab etilib, «karaxt qilib davolash» usuli («shokovaya terapiya») deb ataladi.

**Bozor munosabatlarining shakllanishi** - ibtidoiy jamoa tuzumining emirilishi davridayoq boshlangan, ammo tovar-pul munosabatlarining rivoji kapitalizm bosqichiga to'g'ri keladi

**Bozor qonuni** - tovarlar taklifi o'zi uchun shaxsiy talabni yaratadi yoki boshqacha so'z bilan aytganda, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori avtomatik ravishda yaratilgan barcha tovarlar qiymatiga teng daromadni keltirib chiqaradi.

**Differensial renta konsepsiyasi** - yer rentasi miqdori tuproq unumdorligiga va uchastkaning bozorga uzoq-yaqin joylashishiga bog'liq bo'ladi.

**Ekonometrika (Ekonometriya)** - iqtisodiy jarayonlarga matematik usullarni qo'llash bilan bog'liq iqtisodiy matematik yo'nalish. XIX asrning boshlarida vujudga keldi va hozirgi kunda nazariya va amaliyotda keng

qo'llaniladi.

**Ekonometrika konsepsiyalari** - iqtisodiyotda matematika metodlaridan keng foydalanishga asoslangan konsepsiyalar. Asosiy vakillari L.Valras, V.Pareto (Lozanna universiteti), fon Neyman, U.Mitchell, E.Barone, M.Panteleoni. 1910-yilda polshalik iqtisodchi P.Chompa «Ekonometriya» («Ekonomterika») terminini qo'llagan. Ilmiy muomalaga (1926) norvegiyalik R.Frishi kiritgan.

**Empirizm** - fikrlar, tajriba, iqtisodiy tahlilning boshlang'ich, iqtisodiy taraqqiyot qonunlarining amal qilish bazasidir.

**Fillips egri chizig'i** - pul ko'rinishidagi ish haqining yillik foiz o'zgarishi va ishsizlik darajasi (ulushi) o'rtasidagi munosabatni tavsiflovchi empirik egri chiziq.

**Fiziokratiya** - nomini Dyupont de Nemur - Kene asarlarini birinchi noshiri - ushbu maktab yerni, tabiatni ishlab chiqarishning yagona mustaqil omili, deb bilishini hisobga olgan holda bergan.

**Fiziokratlar** - yunoncha «tabiat» va «hokimiyat» so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, Fransiyadagi klassik siyosiy iqtisod namoyandalari F.Kene, A.R.Tyurgo va boshqalar fiziokratizmga asos solganlar.

**Fritrederlik** - inglizcha, erkin savdo siyosati, proteksionizmga zid. Bu siyosatni bozor munosabatlariga o'tgan davlatlar tashqi savdoda qo'llaydilar.

**Gossen qonunlari** - marjinalizmning asosiy nazariy tamoyillari, uning o'tmishdoshlaridan biri G. Gossen edi; ikkita "Gossen qonuni"ni ajratib ko'rsatish, ulardan birinchisi, ma'lum bir tovarning mavjudligi ortishi bilan uning chegaraviy foydaliligi pasayadi, ikkinchisiga muvofiq, iste'molning (talabning) optimal tuzilishiga barcha iste'mol qilinadigan tovarlar marjinal foydalilik darajasi teng bo'lganda erishiladi.

**Gossenning birinchi qonuni** - iste'mol oshgani sayin ma'lum bir tovarning har bir qo'shimcha birligidan qoniqish miqdori kamayadi. Cheklangan foyda miqdori tovarlarning miqdori va unga bo'lgan ehtiyojga bog'liq.

**Gossenning ikkinchi qonuni** - cheklangan miqdordagi mavjud tovar bilan ehtiyojni maksimal darajada qondirish mumkin bo'lgan asosiy shartni tavsiflaydi. Insonning ko'plab ehtiyojlari bor. U eng avvalo muhim ehtiyojlarini qondirib, keyin uncha zarur bo'lmagan ehtiyojlarni qondirishga harakat qiladi, bunda u har bir qo'shimcha tovar birligining iste'molchilik samarasini taqqoslaydi (marjinal foyda).

**Guan-Szi** (m.a.IV asr) - Xitoydagi ijtimoiy-iqtisodiy asar, unda xo'jalikni davlat tomonidan tartibga solish tizimlari mukammal berilgan.

**Gerakleopol shohining o'g'li Merikarga nasihatlari** - bu



qo'lyozmada noib va aholi o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida fikr yuritiladi. Bu davrda sinfiy ajralish to'la shakllanmagan bo'lib, boshqaruv ishiga yuqori tabaqali yoki oddiy aholidan bo'lishidan qat'iy nazar ishbilarmonlarni taklif etish, kerak deyilgan.

**“Gerakleopol shohining o'g'li Merikarga nasihatlari”** - Bu qo'lyozmada noib va aholi o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida fikr yuritiladi. Bu davrda sinfiy ajralish to'la shakllanmagan bo'lib, boshqaruv ishiga yuqori tabaqali yoki oddiy aholidan bo'lishidan qat'iy nazar ishbilarmonlarni taklif etish, kerak deyilgan.

**Harakatlar strategiyasi** - 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha belgilangan strategiya.

**Harbiy kommunizm siyosati (1918-1920)** - Sovet davlatida qo'llanilgan, tovar-pul munosabatlari inkor etilgan, qat'iy taqsimot va to'la milliy lashtirish hamda oziq-ovqat razverstkasi amalga oshirilgan, bir qancha sotsial sohalar tekin bo'lgan (transport, elektr energiyasi, kommunal xizmatlar va h.k.), bu davrda mamlakat og'ir inqirozga uchragan.

**Induksiya va deduksiya** bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan, ammo o'zaro bog'liqlikdagi fikrlash usulidir. Fikrning xususiy faktlardan umumiy faktlarga qarab harakati induksiya, aksincha, umumiy faktlardan xususiy faktlarga tomon harakati deduksiya deb ataladi.

**Inqirozlar** «hamma vaqt mavjud ziddiyatlarning faqat vaqtincha zo'rma-zo'raki hal qilinishidan, zo'rma-zo'raki portlashlardan iborat bo'lib, ular buzilgan muvozanatni bir lahzada tiklaydi».

**Institutsionalizm** - lotincha «urf-odat», «muassasa», «ko'rsatma», ya'ni ayrim institutlar (oilalar, davlat, monopoliya, kasaba uyushmasi) ni ijtimoiy taraqqiyotning asosi deb qabul qilgan nazariya. XX asrning 20-30-yillarida AQSHda keng tarqalgan.

**Insoniy rivojlanish konsepsiyasi** - BMT tomonidan 90-yillarda ilgari surilgan. Unda taraqqiyot natijalarining inson bilan hamohang bo'lishi ko'zda tutiladi, moddiy boylik (yalpi milliy mahsulot) bilan birga sog'lom hayot, savodxonlik, demokratik institutlar bilan birinchi o'ringa qo'yiladi (ayrim davlatlar kambag'al bo'lishiga qaramay, bu sohada yuqori natijaga erishmoqdalar va aksincha) hamda «ijtimoiy rivojlanish indeksi» (IRI) bilan o'lchanadi.

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish** bozor mexanizmlarining ishlashiga ma'muriy (qonunchilik), iqtisodiy (pul-moliya, pul-kredit, fiskal va boshqalar) usullar va dastaklar orqali ta'sir ko'rsatish orqali davlatning iqtisodiy hayotga aralashuvi.

**Iqtisodiy ta'limotlar tarixi** - bu ma'lum davrlardagi u yoki bu sinflar, ijtimoiy qatlamlar, insonlar manfaatlarini ifoda etuvchi iqtisodiy g'oyalar, ilmiy konsepsiyalarni o'rganadi.

**Ish haqining temir qonuni** - T.R.Maltusning nufus nazariyasidan kelib chiqadi va aholining tabiiy o'sishi (mos ravishda, ishchi kuchi taklifining ortib borishi) va yer unumdorligining pasayishi hisobiga Jamiyatdagi ish haqi doimiy ravishda pastligicha qoladi, o'sa olmaydi.

**Iste'molga bo'lgan me'yorli moyillik** - iste'mol o'zgarishi bilan daromad o'zgarishi o'rtasidagi nisbat.

**Jahon iqtisodiyoti nazariyalari** - jahon bozorida mahsulot, valyuta, ishchi kuchi va boshqalarning harakat jarayonlariga xos qonun va qonuniyatlarini o'rganuvchi nazariyalar. «Ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimoti» nazariyasi tipikdir (E.Xeksher, B.Olin, P.Samuelson); «Mahsulot hayoti sikli» nazariyasi (G.Xufbauer, R.Vernon, M.Pozner); Monopolistik raqobat nazariyasi (E.X.Chemberlin) va boshqalar.

**Jahon xo'jaligi** - qadimdan vujudga kelgan. Xalqaro mehnat taqsimoti bu xo'jalikning moddiy asosini tashkil etadi. Xalqaro integratsiyada baynalmilallik xos.

**Jamg'armaga bo'lgan moyillik** - bu jamg'arma miqdori o'zgarishi bilan uni o'zgartirgan daromad o'zgarishi o'rtasidagi nisbatdir.

**Keynschilik** - davlat tomonidan bozor mexanizmiga fiskal, pul-kredit siyosati va boshqa faol ta'sir choralarini keng qo'llash orqali iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish zarurligi va ahamiyati haqidagi iqtisodiy ta'limot.

**Keynschilik oqimlari** - J.M.Keynsning fikrlarini ilgari suruvchi yo'nalish, keynshilik oqimlari: 1. O'ng oqim - o'ta reaksiyon oqim, qurollanish tarafdori, tartibga solish takliflari bor. Germaniya va Italiyada keng tarqalgan; 2. Liberal oqim - monopoliya manfaatlarini himoya qiluvchi va qurollanishni inkor etuvchi oqim.

**Klark qonuni** - ishlab chiqarish omillari narxlarining marjinal tahlili tamoyillari asosida daromadlarni taqsimlash bo'yicha J.B.Klark konsepsiyasini baholash; ushbu "qonun"ga muvofiq ishlab chiqarish omilini oshirish uchun rag'bat tugaydi, chunki bu omilning narxita'dbirkorning mumkin bo'lgan daromadidan oshib keta boshlaydi.

**Kameralistika** - merkantilizmning Germaniyadagi shakli. Bu g'oya tarafdorlari yirik feodallar xo'jaliklarini boshqarish masalasini yuqori qo'yadilar va buni idora doirasida hal qiladilar.

**Kanonistlar** - qadimgi davrlarda cherkov qonunlarini talqin qilish va kodlash bilan shug'ullangan odamlar.

**Kembrij maktabi** - asosiy vakili Alfred Marshall (1842-1924),

«qiymatsiz baho» nazariyasini ilgari surdi, bahoga «eng yuqori naf» va ishlab chiqarish chiqimlari ta'sir qiladi, degan.

**Keynscha inqilob** – bozor xo'jaligida iqtisodiyotni davlat tartiblashidir. J.M.Keyns va uning izdoshlari tavsiya etgan davlatning iqtisodiyotga aralashuvi chora-tadbirlari iqtisodiyotda alohida yo'nalish sifatida – keynschilik deb ataladi.

**Konsepsiya** (lotincha tizim degani) - ma'lum predmet, hodisa va jarayonlarni tushuntirish uslubi, predmet va boshqalarga qaratilgan asosiy nuqtai nazar; ularni sistematik yoritib berish uchun bosh g'oya; bu matn ilmiy va boshqa faoliyatdagi asosiy fikrni, konstruktiv tamoyilni belgilash uchun ham qo'llaniladi. Masalan, tabiiy tartib konsepsiyasi va boshqalar.

**Konvergensiya nazariyasi** - bu nazariyaning asosida kapitalistik ijtimoiy sistemalar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy tafovutlar go'yo asta-sekin bartaraf etiladi, degan g'oya yotadi. Asosiy vakillari: U.Rostou, J.Gelbreyt, Ya.Tinbergen.

**Likvidlik** - moddiy ne'matlar va boshqa resurslarning tez pulga aylana olish qobiliyati; korxonani o'z majburiyatlarini o'z vaqtida to'lay olish qobiliyati balansning aktiv punktlarini pulga aylantirish.

**Latifundiya** - yirik yer egaligi (pomeste). Dastlab Qadimgi Rimda m.a. II asrda paydo bo'ldi, milodiy I asrda keng tarqaldi. Feodalizm davrida avj oldi.

**Legistlar** - mamlakatni marosimlar emas, balki qonunlar orqali boshqarishni targ'ib qildilar.

**Legistlar** - Xitoydagi (m.a.VI-III asrlar) iqtisodiy oqim. Konfutsiylikka qarshi. Qonunlar asosida boshqaruv tarafdorlari. Don masalasini hal qilish bosh vazifa deb qaraladi. Dehqonlarni ro'yxat qilish, soliq tizimini tartibga solish tarafdorlari.

**Lozanna maktabi** - L.Valras va V.Pareto (1848-1923) tomonidan iqtisodiyotda ekonometrika usullarini keng qo'llash tufayli paydo bo'lgan.

**Marjinalistik inqilob** - XIX asrning oxirgi uchdan birida sodir bo'lgan. "klassik maktab" qadriyatlaridan marjinalizm qadriyatlariga (nazariy va uslubiy tamoyillarga) o'tish.

**Marjinalizm** (marjinal iqtisodiy nazariya) - bu g'oyalar va tushunchalarning umumlashtirilishi bo'lib, u mikro va makro darajada iqtisodiy tizimning o'zaro bog'liq hodisalari sifatida marjinal iqtisodiy qadriyatlarni o'rganishga asoslangan. Eng yuqori naf, eng yuqori unumdorlik g'oyalarini qo'llaydi.

**Marshall xochi** - talab va taklif egri chiziqlarining kesishganligini ko'rsatadi; kesishgan nuqta ularning muvozanatini hamda turg'un bahoni ko'rsatadi.

**Mo'zorabot** - usuli bo'lib, mablag'ni foydalanishga bergan kishi foiz emas, balki bo'lajak ishlab chiqarishdagi yoki savdo-sotiqdagi foydaga sherikchilik qilishi ko'zda tutiladi.

**Monetarizm** — iqtisodiyotni barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirish, uning faoliyat yuritishi va rivojlanishida muomaladagi pul massasining hal qiluvchi roliga asoslangan iqtisodiy nazariya.

**Multiplikator** — Investisiyalarning ko'payishi bilan milliy daromadning ko'payishi o'rtasidagi bog'liqlik.

**Multiplikator** — bu son koeffisienti bo'lib, daromad o'sishi bilan, ushbu o'sishni yuzaga keltirgan investisiyalar o'simi o'rtasidagi nisbatni ifodalab beradi.

**Multiplikator** - ko'paytiruvchi; iqtisodiyot ta'limotlarida ma'lum bog'lanishlarni o'rganishda, multiplikasiya effekti bor joylarda qo'llaniladi. Masalan, Keyns ta'limoti bo'yicha qo'yilgan investisiya va daromadlar o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsatuvchi koeffisient.

**Multiplikator samarasi** — Investisiyalarning ko'payishi va uning natijasida milliy daromad va aholining ish bilan bandligining o'sishi.

**Muqassam** — yer solig'i bo'lib, olingan hosilning miqdoriga bog'liq bo'lib, uchdan birdan-yarimgacha teng bo'lgan.

**Muvazzar** — yer solig'i bo'lib, soliq solinadigan yerning maydoniga bog'liq ravishda olingan.

**Ma'muriy-buyruqbozlik (rejalashtirilgan bozor)** - sobiq SSSR va «sotsialistik» deb atalgan davlatlarda amalga oshirilgan bozor turi, unda davlat mulki ustun va xususiy mulk deyarli yo'q, imperativ qat'iy reja hukmron, erkin raqobat inkor etiladi; qat'iy baholar qo'llanadi. Hayot bozorning bu turini inkor etmoqda.

**Mantiqiylik va tarixiylikning birligi usuli** - tarixiylik dalili tarixiy rivojlanish nuqtai-nazaridan tadqiqot olib borish zarurligini taqozo qiladi. Chunki iqtisodiy jarayonlar tarixiy jarayon sifatida rivojlanadi. Mantiqiylik usulida jarayonlar faqatgina tarixiy nuqtainazardan emas, shu bilan birga asosiy ichki zarur qonuniy bog'lanishlar bo'yicha ham tahlil qilinadi.

**Manufaktura** - italyancha «qo'l mahsuloti» degani, mehnat taqsimoti, qo'l hunarmandchiligi va yollanma mehnatga asoslangan oddiy kapitalistik kooperatsiyadan keyingi ikkinchi bosqich.

**Marshall rejasi** — milliy iqtisodiyotning bosh yo'nalishlarini davlat belgilaydi, strategik rejalashtirishga juda kuchli ahamiyat beriladi. Narx-navo boshqariladi, raqobat rag'batlantiriladi. Ish haqi ustidan qat'iy nazorat o'rnatiladi. Soliq tizimi ham nazorat ostida bo'ladi.

**Mehnat taqsimoti** - bu milliy mahsulot yaratish jarayonida odamlar

o'rtasida hamkorlikni amalga oshirishning juda qulay shakli hisoblanadi.

**Merkantilizm** - italyancha so'z bo'lib, savdogar degani, feodalizmning emirilishi va ilk kapitalizm davridagi dastlabki iqtisodiy maktab; ilk merkantilizm (monetarizm) va rivojlangan merkantilizm davrlariga bo'linadi; boylikning asosi muomala (savdo)da yuzaga keladi, degan g'oya ilgari surilgan.

**Monetarizm** (*monetary - pul*) - bu iqtisodiyotdagi tebranma harakatda pul hal qiluvchi ahamiyatga ega, deb tasdiqlovchi iqtisodiy fandagi oqim.

**Monetarizmning birinchi qoidasi** - bozor xo'jaligining barqarorligini tan olish. Monetaristlar fikricha, bozor iqtisodiyoti o'zining ichki xususiyatiga ko'ra barqarorlikka, o'zini o'zi tartiblashga intiladi. Bozor raqobati tizimi mustahkam barqarorlikni ta'minlaydi.

**Monetarizmning ikkinchi qoidasi** - pul omilining muhimligi. Iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatuvchi turli dastaklar ichida pul dastaklari ustun qo'yiladi. Aynan ular (ma'muriy, baho uslublari emas, soliq tizimi emas) iqtisodiyotni a'lo darajada barqarorlashtirishga qodir.

**Monetarizmning uchinchi qoidasi** - tartiblash joriy vazifalarga emas, balki uzoq muddatli vazifalarga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

**Neoklassik sintez** - bu hozirgi neokeyns va neoliberal qoida va «haqiqat» larning ilk neoklassik g'oyalar bilan, shuningdek klassik maktabning ayrim qoidalari va avvalo hozirgi davrdagi daromadlar shakllanishi nazariyalari bilan birlashtirib qaralishidir.

**Nisbiy afzallik prinsipi** - D.Rikardo tomonidan izohlab berilgan prinsip bo'lib, ishlab chiqarish omillari (kapital, mehnat, yer) xarajatlarining afzalligini ko'rsatadi va tashqi iqtisodiy aloqalarda keng qo'llaniladi.

**Nobel mukofoti** - buyuk ilmiy izlanishlar, inqilobiy ixtirolar yoki madaniyat va jamiyatning rivojiga katta hissalar qo'shganligi uchun har yili taqdim etiladigan eng nufuzli xalqaro mukofotlardan biri.

**Nomukammal raqobat** - bu bozor narxining darajasiga oz sonli yirik ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan bozor holati.

**Neoklassizm, Avstriya maktabi** - XIX asrning 70-yillarida paydo bo'ldi, uning asosiy maqsadi Marksning qiymatning mehnat nazariyasiga qarshi kurash edi.

**Neoliberalizm** - neoklassikaning bir oqimi, klassik iqtisodiy maktabni va keynschilikni birga qo'llash tarafdori, bunda davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi taklif etiladi.

**O'rta asrlar** - an'anaviy jamiyatning ko'p asrlik davri bo'lib, Rim

imperiyasining qulashi bilan boshlanib (474 yy.) XV asr o'rtalarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

**O'tish davri** - bu yerda ma'muriy-buyruqbozlik (imperativ rejalashtirilgan) iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o'tish davri. O'z davrida sotsialistik deb atalgan mamlakatlarning, xususan, O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish davri.

**Pareto optimumi** - odamlarning barcha ehtiyojlarini qondirish darajasini ularning hech birining ahvolini yomonlashtirmasdan oshirishning iloji bo'lmagan iqtisodiy tizim holati.

**Proteksionizm** - milliy iqtisodiyotni boshqa davlatlar bilan bo'ladigan raqobatdan bojxona to'siqlarini joriy qilish, mamlakatga chet el tovarlari, xizmat turlari va kapitallarini kirib kelishini cheklash yo'li bilan himoya qilish va saqlashga yo'naltirilgan.

**Pulning metallistik nazariyasi** - pul qiymatining shartlilikini davlat tomonidan zarb qilinadigan tanga og'irligi bilan izohlovchi nazariya.

**Raqobat** - yuqori foyda olish maqsadida mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi kurash.

**Ribo** - Islom dinida foiz olib, sudxo'rlik bilan shug'ullanish deb atalib, taqiqlangandir.

**Sey qonuni** - Bu iqtisodiy qonun bo'lib, unga muvofiq yalpi talab iqtisodiyotda mavjud texnologiyalar va resurslarga muvofiq ishlab chiqarilgan mahsulotlarning butun hajmini moslashuvchan narxlar bilan avtomatik ravishda o'zlashtiradi. Talab va taklif doimo muvozanatda bo'ladi.

**Sharq sivilizatsiyasi** (Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy) miloddan avvalgi II-I ming yillikda shakllangan.

**Smit dogmasi** - klassik siyosiy iqtisodning asosiy tezislaridan biri bo'lib, Adam Smit tomonidan ishlab chiqilgan. Unga ko'ra jamiyatning yillik mahsulotining qiymati (almashinuv qiymati) jamiyatning barcha a'zolarining daromadlari yig'indisi sifatida hisoblanadi.

**Strategiya** - bu ta'limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo'lib, u izchillik bilan va to'liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

**Suyurg'ol yerlar** - Katta hajmdagi bu yerlar davlat tomonidan ajratib berilib, bir avloddan ikkinchisiga o'tgan. Suyurg'ol egasi soliqdan ozod qilingan. Bunday yer egalari dehqonlarni ishlatib, yer solig'i - xiroj olganlar.

**Sanoat to'ntarilishi (inqilobi)** - Angliyada birinchi bor XVIII asr o'rtalarida qo'l kuchiga asoslangan manufakturadan (ikkinchi bosqichdan) mashinalashgan zavod-fabrikaga (uchinchi bosqichga) o'tish jarayoni (XIX

asrning o'rtalarida yakunlangan). Iqtisodiy rivojlanishda muhim o'rinni egallaydi, ijtimoiy-siyosiy sohalarida katta o'zgarishlarga sabab bo'lgan.

**Sxolastika** (yun. scholastikos — maktabga, olinga oid) — diniy dunyoqarashni nazariy asoslashga intiluvchi, ilohiyot aqida asoslarini ratsionalistik metodika va formal mantiq masalalari («masala talashish») bilan bog'laydi.

**Tarixiy usul** - bu tadqiqotchiga ayrim iqtisodiy hodisa va jarayonlarning, iqtisodiy g'oyalar, tushunchalar va nazariyalarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va almashinish ketma-ketligini boshqalar bilan aniqlash imkonini beradigan iqtisodiy hayotni ilmiy tadqiq qilish va bilish usulidir.

**Texnostruktura** - J.K.Gelbreytning fikricha boshqaruv, moliya bo'yicha olimlarni, konstruktorlarni, mutaxassislarni o'z ichiga oluvchi jamiyat qatlamlari va umuman olganda, yirik korporatsiyalarning normal ishlashini ta'minlash uchun kerak bo'lgan barcha narsalar tushuniladi.

**Turkiya yo'li** - bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishga asoslangan. Unga binoan ko'p ukladli aralash iqtisodiyotni xususiy lashtirish yo'li bilan emas, balki sotib olish yo'li bilan amalga oshiriladi.

**Tabiiy baho (qiymat)** - A.Cmitning fikri bo'yicha bu shunday bahoki, uning tarkibiy qismlari mehnat, kapital va er uchun to'lanadigan tabiiy normalarga taxminan mos keladi.

**Tarixiy maktab** (ingl. history school) - Germaniyada (vakillari: F.List, V.Rosher, B.Gildebrand, K.Knis) vujudga kelgan ta'limot. Unda foydalilik va yuqori naf birinchi o'ringa qo'yiladi. Iqtisodiy qonunlar inkor etilib, iqtisodiy tarix bilan almashtiriladi.

**Tarxon yerlar** - Bu yerlar xususiy mulk bo'lib, ular odamlarga biron-bir xizmati uchun berilgan.

**Tetcherizm modeli** - iqtisodiy faoliyat erkinligi va xususiy mulkning ustuvorligiga asoslangan bo'lib, keskin raqobat kurashini ta'minlaydi. Narx-navo to'liq liberallashtiriladi va iqtisodiyotni tartiblashda davlatga ustuvorlik berilmaydi.

**Unumli sinf** - bu qishloq xo'jaligida ish bilan band bo'lgan barcha kishilar, dehqon va fermerlar ham kiradi.

**Unumsiz sinf** - bular hunarmandlar, ishchilar, savdogarlar, xizmatkorlar, to'ralar, ya'ni dehqonchilikdan boshqa sohada ish bilan band bo'lgan kishilar.

**Ushr yerlar** - Sayid va xo'jalarga mansub yerlardir. Bundan olingan hosilning o'ndan biri davlatga berilgan.

**Vilbur papirusi** - unda yer kadastrasi masalasi ko'rib chiqilgan. U

yerlarning turiga, ekin maydoniga, o'rtacha hosildorlikka va hosilni yig'ib olishga mas'ul fermerlar soniga qarab yalpi don yig'ish me'yorlarini o'z ichiga oladi.

**Vaqf yerlar** - Masjid, madrasa, xonaqoh, qabriston va shu singari joylarga doir yerlardir. Vaqfda yer, suv, bozor, qul, pullar va boshqalar mol-mulki bilan in'om etiladi.

**Xiroj** - yer solig'i.

**Yangi iqtisodiy siyosat** (Novaya ekonomicheskaya politika, «NEP») - Sovet davlatida 1921-yilda joriy etilgan. Tovar-pul munosabatlariga keng o'rin berilgan, denatsionalizatsiya amalga oshirilgan, xususiy ishlab chiqarish va savdoga keng o'rin berilgan va yagona oziq-ovqat solig'i joriy etilgan. Ya.i.s.dagi kapitalistik munosabatlar iqtisodiyotni tez tiklash va rivojlantirishga imkon berdi. Faqat og'ir sanoat, bank, temir yo'l, tashqi savdogina davlat monopoliyasida bo'lgan. Moliya tizimi pul islohoti orqali kuchaytirilgan. 1928-yildan boshlab inkor etilib, ma'muriy-buyruqbozlikka o'tilgan.

**Yangi klassik (neoklassik) yo'nalish** - G'arb iqtisodiy adabiyotida «Yangi klassik ekonomiks» deb ataladi va bu yo'nalish asosida marjinalizm g'oyalari yotadi.

**Zakot** - ma'lum miqdorda va muayyan shart-sharoitlarda olinadigan soliq.

**Odil narx** - bu kategoriya kanonistlar ta'limotida «qiymat» (qimmat), «bozor bahosi» o'rnida ishlatilgan.

**Xrematistika** - bu yirik savdo yo'li bilan boylik orttirish mahoratidir.

**Xalq kapitalizmi nazariyasi** - kapitalizm transformatsiyasi (o'zgarishi) bilan bog'liq, go'yoki hozirgi kapitalizm «eski kapitalizm»dan keskin farq qiladi, ilgari illatlar yo'qolgan.

**Xalqaro mehnat taqsimoti** - butun jahon xo'jaligining tashkil topishi va rivojlanishining hal qiluvchi omili. Birinchi bo'lib uning zarurligini D.Rikardo aytgan. Ayrin ishlab chiqarish korxonalaridagi kabi (A.Smit), jahon xo'jaligida ham mehnat taqsimoti nisbiy chiqimlar ustunligini beradi, ya'ni ayrim mamlakatlarning ma'lum sohada ixtisoslashuvi yuqori samara beradi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Блауг М. Экономические мысли в ретроспективе. М., Дело LTD.1994.
2. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi. T., Universitet, 1993.
3. Всемирная история экономической мысли. В шести томах. Т.1.1987; Т.2.1988; Т.3.1989; Т.4.1989. М., "Мысль".
4. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti. T., Sharq NMK, 1996.
5. Insoniy rivojlanish bo'yicha hisobot. O'zbekiston. Toshkent. 1995-2000 (o'zbek, rus, ingliz tillarida).
6. История экономических учений. Часть 1. Учебник. Под ред. В.А.Жамина. М., МГУ, 1989.
7. История экономических учений. Часть 2. Учебник. Под ред. А.Г.Худокормова. М., МГУ, 1994.
8. Islomov A., Egamov E. T. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. TMI, 2003.
9. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Ma'ruzalar matni. Prof. S.S.G'ulomov tahriri ostida. Toshkent, 1992.
10. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi (ma'ruzalar matni) T., 2001.
11. Жемс Э. История экономической мысли XX века. М., 1959.
12. Yo'ldoshev Q. va Muftaydinov Q. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi (Sharq iqtisodiy tafakkuri misolida). T., 2000.
13. Майбурд Е.М. Введение в историю экономической мысли. От пророков до профессоров. М., "Дело", 1996.
14. Razzoqov A., To'raxonova H. Beruniyning iqtisodiy g'oyalari. "Hamkor", 2001 yil iyul' soni.
15. Razzoqov A., Iqtisodiyot bo'yicha Nobel' mukofoti laureatlari. T., 2004.
16. Razzoqov A., Toshmatov SH., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. T., Moliya, 2002.
17. Razzoqov A. O'rta Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy g'oyalari. T., 2004.
18. Temur tuzuklari. Toshkent, 1991.
19. Sharma L.P. Boburiylar saltanati. Toshkent, Ma'naviyat, 1998.
20. Экономика переходного периода. М., МГУ, 1995.
21. Ядгаров Я.С. История экономических учений. Москва, 1999.
22. H. Landreth, D. C. Colander. History of economic thought. Houghton Mifflin Company, Boston Toronto. 511 p.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>1. BOB. "IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI" FANIGA KIRISH. FANNING PREDMETI VA O'RGANISH USULLARI</b> .....	5
1.1. "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi"ning predmeti va iqtisodiy fanlar fizimidagi o'rni.....	5
1.2. "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fanini o'rganishning zaruriyati, ahamiyati va vazifalari.....	
1.3. "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fanini o'rganish usullari.....	7
Qisqa xulosalar.....	8
Asosiy tushuncha va iboralar.....	9
Nazorat uchun savollar.....	9
<b>2. BOB. QADIMGI DUNYO IQTISODIY G'OYALARI</b> .....	10
2.1. Qadimgi Sharqdagi iqtisodiy fikrlar.....	10
2.2. Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g'oyalar.....	19
2.3. Qadimgi Gretsiya ilk quldorlik jamiyatidagi iqtisodiy qarashlar.....	21
2.4. Qadimgi Rimdagi iqtisodiy konsepsiyalar.....	25
Qisqa xulosalar.....	28
Asosiy tushuncha va iboralar.....	28
Nazorat uchun savollar.....	29
<b>3. BOB. FEODAL JAMIYATI VA UNING YEMIRILISHI DAVRIDAGI IQTISODIY TA'LIMOTLAR</b> .....	30
3.1. Quldorlik jamiyatining yemirilish davrida arab davlatlaridagi iqtisodiy g'oyalar.....	30
3.2. G'arbiy Yevropadagi iqtisodiy g'oyalarning asosiy mohiyati.....	37
3.3. O'rta asrlardagi utopik g'oyalar.....	40
Qisqa xulosalar.....	41
Asosiy tushuncha va iboralar.....	42
Nazorat uchun savollar.....	42
<b>4. BOB. MARKAZIY OSIYODAGI TEMURIYLAR DAVRIDAGI IQTISODIY G'OYALAR</b> .....	43
4.1. Temuriylar davrigacha bo'lgan mutafakkirlarning iqtisodiy fikrlari.....	43
4.2. Amir Temurning iqtisodiy siyosati.....	45
4.3. M. Ulug'bek davridagi iqtisodiy islohotlar.....	48
4.4. Alisher Navoiyning iqtisodiy g'oyalari mohiyati.....	50

4.5. Bobur va uning vorislari olib borgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mohiyati.....	52
Qisqa xulosalar.....	57
Asosiy tushuncha va iboralar.....	58
Nazorat uchun savollar .....	58
<b>5.BOB. MERKANTILIZM.....</b>	<b>59</b>
5.1.Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining mohiyati.....	59
5.2. Ilk merkantilizm monetar tizimi.....	60
5.3.Merkantilizmning tarixiy ahamiyati.....	64
Qisqa xulosalar.....	65
Asosiy tushuncha va iboralar.....	66
Nazorat uchun savollar .....	66
<b>6.BOB. ANGLIYA VA FRANSIYADA KLASSIK MAKTABNING SHAKLLANISHI.....</b>	<b>67</b>
6.1.Klassik iqtisodiy maktab vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari.....	67
6.2. Vilyam Petti asarlari va uslubining xususiyatlari.....	69
6.3. Per Buagilberning iqtisodiy ta'limoti.....	73
Qisqa xulosalar.....	76
Asosiy tushuncha va iboralar.....	77
Nazorat uchun savollar .....	77
<b>7.BOB. FRANSIYADA FIZIOKRATLAR MAKTABINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.....</b>	<b>78</b>
7.1. Fiziokratizm iqtisodiy ta'limotining vujudga kelishi.....	78
7.2. Fiziokratlarning iqtisodiy dasturi.....	78
7.3. A.Tyurgo asarlarida fiziokratik tizimni rivojlantirilishi.....	84
Qisqa xulosalar.....	86
Asosiy tushuncha va iboralar.....	86
Nazorat uchun savollar .....	86
<b>8. BOB: KLASSIK IQTISODIY MAKTABNING TO'LIQ SHAKLLANISHI. ADAM SMIT VA DAVID RIKARDO IQTISODIY TA'LIMOTLARI.....</b>	<b>87</b>
8.1. A.Smit asarlarida klassik maktab g'oyalarning yanada rivojlantirilishi.....	87
8.2.Adam Smit ta'limotining ahamiyati.....	102
8.3. D.Rikardo – sanoatning fabrika davri mafkurachisi .....	103
8.4.D.Rikardo ta'limotining ahamiyati.....	119
Qisqa xulosalar.....	120
Asosiy tushuncha va iboralar.....	120
Nazorat uchun savollar .....	120

<b>9.BOB. NEMIS TARIXIY MAKTABINING PAYDO BO'LISHI VA UNI RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....</b>	111
9.1. Germaniya tarixiy maktablarining o'ziga xos xususiyatlari.....	111
9.2. Eski tarixiy maktab.R.Knis, B.Gildebrand g'oyalari.....	115
9.3. Yangi tarixiy maktab va "ijtimoiy yo'nalish" .....	116
Qisqa xulosalar.....	120
Asosiy tushuncha va iboralar.....	121
Nazorat uchun savollar .....	121
<b>10.BOB. KLASSIK IQTISODIY MAKTABGA MUQOBIL G'OYALAR.....</b>	122
10.1.T.R.Maltus va uning "Nufus nazariyasi".....	122
10.2. J.S.Mill va J. Mak-Kulloxning iqtisodiy ta'limoti.....	125
10.3. J.B.Seyning iqtisodiy ta'limoti, "Sey qonuni".....	134
10.4.Senior, Bastiya, Keri va boshqalarning iqtisodiy ta'limotlari..	137
Qisqa xulosalar.....	143
Asosiy tushuncha va iboralar.....	143
Nazorat uchun savollar .....	144
<b>11. BOB. BOZOR IQTISODIYOTIGA MUXOLIF – SOTSIALISTIK YO'NALISH MOHIYATI VA UNING TARIXIY TAQDIRI.....</b>	145
11.1. XIX asr boshlarida xayoliy sotsializm vujudga kelishining shart-sharoitlari va uning umumiy xarakteristikasi.....	145
11.2. A.Sen-Simon, SH.Fure va R.Ouen iqtisodiy qarashlari.....	146
11.3. Marksizm vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari.....	151
Qisqa xulosalar.....	160
Asosiy tushuncha va iboralar.....	161
Nazorat uchun savollar .....	161
<b>12 BOB. MARJINALIZM TA'LIMOTI VA NEOKLASSIK IQTISODIY MAKTABLAR.....</b>	162
12.1. Iqtisodiy ta'limotlarda neoklassik yo'nalishning shakllanishi	162
12.2. Avstriya maktabi. Subyektiv psixologik yo'nalish.....	167
12.3. Kembrij marjinalistik maktabi. A.Marshall ta'limoti.....	169
12.4. Lozanna maktabi.....	174
Qisqa xulosalar.....	177
Asosiy tushuncha va iboralar.....	177
Nazorat uchun savollar .....	177
<b>13. BOB. ZAMONAVIY IQTISODIY TA'LIMOTLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI (INSTITUTSIONALIZM).....</b>	178
13.1.Institutsionalizmning asosiy xususiyatlari, evolyusiyasi.....	178
13.2. J.K.Gelbreytning iqtisodiy qarashlari.....	181

13.3. J.Robinsonning nomukamml raqobat nazariyasi.....	188
Qisqa xulosalar.....	190
Asosiy tushuncha va iboralar.....	191
Nazorat uchun savollar .....	191
<b>14. BOB. JON MEYNARD KEYNS TA'LIMOTI: KEYNSCHILIK VA NEOKEYNSCHILIK.....</b>	<b>192</b>
14.1.Kejns iqtisodiy ta'limotining asosiy g'oyalari.....	192
14.2. Keynschilik va neokejnschilik.....	202
14.3. Postkejnschilik maktabining monetar konsepsiyasi.....	204
Qisqa xulosalar.....	205
Asosiy tushuncha va iboralar.....	206
Nazorat uchun savollar .....	206
<b>15. BOB. NEOLIBERALIZM G'OYALARINING MOHIYATI VA AHAMIYATI.....</b>	<b>207</b>
15.1.Neoliberalizmning vujudga kelishi va rivojlanishi. Neoliberalizm g'oyalari ning JM.Keyns ta'limotidan farqi.....	207
15.2.London neoliberalizm maktabi.....	209
15.3.Frayburg maktabi (ordoliberalizm).....	210
15.4.Neoliberalizmning Chikago maktabi.....	213
15.5. Mizes, Xayeklarning iqtisodiy g'oyalari ahamiyati.....	220
Qisqa xulosalar.....	223
Asosiy tushuncha va iboralar.....	224
Nazorat uchun savollar .....	224
<b>16. BOB. IQTISODIYOT FANLARI BO'YICHA NOBEL MUKOFOTI SOVRINDORLARI.....</b>	<b>225</b>
16.1. Nobel mukofotining mohiyati va uning joriy etilishi.....	225
16.2. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha Nobel mukofoti sovrindorlari (1969-2022 - yillar).....	227
Qisqa xulosalar.....	250
Asosiy tushuncha va iboralar.....	250
Nazorat uchun savollar .....	250
<b>17. BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINI YANADA RIVOJLANTIRISH BO'YICHA HARAKATLAR STRATEGIYASI .....</b>	<b>251</b>
17.1. Harakatlar strategiyasining mohiyati va mazmuni.....	251
17.2. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari.....	253
17.3.Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari.....	255

17.4. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari.....	258
17.5. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....	262
17.6. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar.....	265
Qisqa xulosalar.....	267
Asosiy tushuncha va iboralar.....	268
Nazorat uchun savollar .....	269
<b>GLOSSARIY.....</b>	<b>269</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>280</b>

**R.Abdullayeva**

**IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI**

*2-modul*

*O'quv qo'llanma*

**Muharrir: G.O'.Berdaliyeva**

Bosishga ruxsat etildi 09.01.2023y. Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$

Bosma tabog'i 18. Shartli bosma tabog'i 18. Adadi 30 nusxa.

Buyurtma № 95. Bahosi kelishilgan narxda.

“Fidokor Yosh Avlod” nashriyoti. Toshkent, Talabalar shaharchasi,

O'zMU ma'muriy binosi.

O'zbekiston Milliy universiteti bosmaxonasida bosildi.

Toshkent, Talabalar shaharchasi, O'zMU.